O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 95 yilligiga bag‘ishlanadi

G.M. SHADIEVA, Z.S.ARTIKOV, D.S. MUSINOV, S.B.ISKANDAROV, V.A.FOZILOV, F.SH.SHANAZAROV

IQTISODIY RIVOJLANISH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH

O‘QUV QO‘LLANMA

Samarqand– 2025

UO‘K: 330.101.541(575.1)(075.8)
I-99
KBK: 65.012.2(5O')

G.M. Shadieva, Z.S. Artikov, D.S. Musinov, S.B. Iskandarov, V.A. Fozilov, F.SH.Shanazarov.

Iqtisodiy rivojlanish va kambagallikni qisqartirish *[Matn]:* ***o‘quv qo‘llanma*** */ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2025 - 456 bet.*

Ushbu o‘quv qo‘llanma talabalarda mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanish mexanizmlari, kambag‘allik va uning sabablarini, tengsizlikni bartaraf qilish yo‘llarini o‘rgatish, ijtimoiy ta’minotni ta’minlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish borasida bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga mo‘ljallangan. Ushbu qo‘llanmada iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni kamaytirish tushunchalarining mazmuni, kambag‘allikka qarshi kurash bo‘yicha strategik yondashuvlar, maqsadli ijtimoiy dasturlar tahlili hamda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida batafsil ma’lumotlar taqdim etilgan.Talabalar iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirishdagi ilmiy dunyoqarashini shakllantirib, O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasidagi chora-tadbirlarni o‘rganadilar.

Fanning asosiy vazifasi talabalarni ijtimoiy-iqtisodiy tahlillarni amalga oshirish, kambag‘allikni baholash va uni qisqartirish usullari bo‘yicha bilimlarga ega qilishdir. Ushbu qo‘llanma iqtisodiy rivojlanish, kambag‘allik va ijtimoiy ta’minot masalalarida mutaxassislikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Taqrizchilar:

TDIU Samarqand filiali dotsenti, PhD **O.M.Pardayeva.**

SamISI professori v.b., DSc **F.A.Safarov.**

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2025-yil 29-sentabrdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (2-sonli majlis bayoni, Ro‘xatga olish raqami 282-29/09).

ISBN: 978-9910-8567-8-5

© G.M. Shadieva, SamISI. 2025 y.
©“STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2025 y.

MUNDARIJA

I BOB. IQTISODIY RIVOJLANISH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH TUSHUNCHASINING MOHIYATI.....9
1.1 Iqtisodiy rivojlanish va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o’rni.....9
1.2. Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishning mamlakatda tutgan o‘rni.....11
Asosiy tayanch tushunchalar.....19
Takrorlash uchun savollar.....20
II BOB. “IQTISODIY RIVOJLANISH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH” FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI 21
2.1 “Iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirish” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari.....21
2.2. Iqtisodiy rivojlanish va uning ko‘rsatkichlari 25
2.3.Iqtisodiy rivojlanish nazariyalarida inson omili rolining evolyusiyasi.....30
Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar.....34
Takrorlash uchun savollar.....34
III BOB. MILLIY TARAQQIYOTNI TA’MINLASHDA DAVLATNING IQTISODIY SIYOSATI.....36
3.1.Makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash.....36
3.2.Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari.....41
Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar.....49
Takrorlash uchun savollar.....50
IV BOB. IQTISODIY RIVOJLANISH VA INSON TARAQQIYOTI51
4.1. Iqtisodiy rivojlanish va inson taraqqiyoti.....51
4.2.Kambag‘allik tushunchasi mohiyati.....56
Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar.....58
Takrorlash uchun savollar.....59
V BOB. O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI ANIQLASH.....60
5.1.O‘zbekistonning demografik ko‘rsatkichlari 60
5.2.O‘zbekistoning dunyoning turli ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar xalqaro reytinglardagi o‘rni.....69
5.3.O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash.....78
Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar.....81
Takrorlash uchun savollar.....82
VI BOB. O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI.....84
6.1. Mahalliy aholining daromadlari tarkibi va sifati.....84

6.2.O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlashda davlat siyosati 86
Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar 88
Takrorlash uchun savollar 90
VII BOB. AHOLI DAROMADLARINI TABAQALANISHI.....91
7.1.Daromadlar siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari.....91
7.2.Aholi daromadlari shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati 93
7.3. Aholi daromadlarining turkumlanishi 95
7.4. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish 99
Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar 104
Takrorlash uchun savollar 105
VIII BOB. O‘ZBEKISTONDA AHOLINING TURMUSH SIFATI, YASHASH SHAROITI, YARATILGAN IMKONIYATLAR 106
8.1. O‘zbekistonda aholining turmush sifati, yashash sharoiti, yaratilgan imkoniyatlar 106
8.2. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik tahlili 112
8.3. Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi orqali aholining turmush sifatini yaxshilash imkoniyatlari 120
Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar 131
Takrorlash uchun savollar 133
IX BOB. KAMBAG‘ALLIKNI MOHIYATI.....134
9.1. Kambag‘allik tushunchasining nazariy talqini 134
9.2. Kambag‘allik tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.....136
Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar 139
Takrorlash uchun savollar 140
X BOB. KAMBAG‘ALLIKNI KELIB CHIQISH OMILLARI 141
10.1. Kambagallikni kelib chiqish sabablari 141
10.2. Kam ta’minlanganlikka ta’sir etuvchi omillar.....144
10.3. Kam ta’minlanganlikning tarqalishi 147
Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar 149
Takrorlash uchun savollar 151
XI BOB. KAMBAG‘ALLIKNI BAHOLASH MEZONLARI.....152
11.1. Kambag‘allik tushunchasining mohiyati- nazariy qarashlar 152
11.2. Kambag‘allikni baholashning iqtisodiy ahamiyati.....156
11.3. Kambag‘allikni darajasini baholash mezonlari 158
Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar 163
Takrorlash uchun savollar 165
XII BOB. KAMBAG‘ALLIKNI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI 166
12.1.Kambag‘allik darajasining ko‘rsatkichlari 166

12.2.Kam ta’minlanganlik ko‘rsatkichlari va indikatorlari.....169
Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar.....171
Takrorlash uchun savollar.....172
XIII BOB. KAMBAG‘ALLIK VA UNI QISQARTIRISH USULLARI 174
13.1.Kambag‘allikni aniqlashdagi yondashuvlar va usullar 174
13.2. O‘zbekistonda kambag‘allikni kamaytirishning ijtimoiy-iqtisodiy holatlarini baholash 176
13.3. Kambag‘allikni qisqartirishning nazariy asoslari.....187
Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar.....191
Takrorlash uchun savollar.....192
XIV BOB. KAMBAG‘ALLIKKA QARSHI KURASH STRATEGIYASI.....194
14.1. Kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasi va maqsadli ijtimoiy dasturlar.....194
14.2.Qashshoqlikni bartaraf etishda ish bilan bandlikning ahamiyati 198
Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar.....205
Takrorlash uchun savollar.....206
XV BOB. KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH bo‘YICHA XORIJ TAJRIBASI.....208
15.1. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish masalalari va xalqaro tajribalar tahlili 208
Takrorlash uchun savollar.....216
XVI BOB. YEVROPA TAJRIBASI ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH.....217
16.2. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish vositalarining asosiy strategik yo‘nalishlari va statistik ma’lumotlar.....224
16.3. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha istiqboldagi ustuvor vazifalar.....234
Takrorlash uchun savollar.....242
XVII BOB. O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI ROLI.....244
17.1. O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyating aholi daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishdagi roli.....244
17.2. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy asoslari, Tadbirkorlik orqali aholi turmush sifatini oshirish.....248
17.3. Tadbirkorlik orqali aholi bandligini taminlash.....253
Takrorlash uchun savollar.....260

XVIII BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH 261
18.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish.....261
18.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish usullari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali aholining daromadlarini oshirish 274
Takrorlash va mavzuni mustahkamlash 281
XIX BOB. O‘ZBEKISTONDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA INSON TARAQQIYOTI, TA’LIM SIFATINI OSHIRISH. INSON KAPITALIGA QILINADIGAN INVESTITSIYALAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR. INSON KAPITALI NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....284
19.1. O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish va inson taraqqiyoti, ta’lim sifatini oshirish.....284
19.2.Inson kapitalining turlari va komponentlari 291
XX BOB. O‘ZBEKISTONDA INSON KAPITALIGA KIRITILADIGAN INVESTITSIYALAR 293
20.1. “Inson kapitali” va “inson taraqqiyoti”ga nazariy qarashlar 293
20.2. Inson kapitaliga investitsiyalar.....305
Takrorlash uchun savollar 308
XXI BOB. O‘ZBEKISTONDA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASINI RAG‘BATLANTIRISH 309
21.1. O‘zbekistonda migratsiya huquqi va undagi muhim tendensiyalar 309
21.2. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga solishning yangi mexanizmlari.....314
21.3. Mehnat migrantlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha O‘zbekistonda olib boriladigan maqsad va rejalar 316
Takrorlash uchun savollar 318
XXII BOB. O‘ZBEKISTONDA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASINI RAG‘BATLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH 320
22.1. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga solish imkoniyatlari 320
22.2. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi tendensiyalari.....329
22.3. Mehnat migratsiyasi iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi omil.....338

Takrorlash uchun savollar 348
XXIII BOB. IQTISODIY SOHA VA TARMOQLARIDA YANGI ISH O‘RINLARINI YARATISH ORQALI AHOLI BANDLIK DARAJASINI OSHIRISH 350
23.1. Aholi bandligini ta’minlash chora-tadbirlari va daromadini oshirish 350
23.3. Mehnat bozorida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar 361
Takrorlash uchun savollar 380
XIV BOB: MEHNAT VA AHOLINI IJTIMOIY MUHOFAZA QILISHDA BANDLIK DASTURLARINING O‘RNI 381
24.1. Mehnat va aholini bandlik tushunchasi 381
24.2. Ijtimoiy muhozalash tushunchasi 386
24.3.Bandlik dasturi tushunchasi 388
Takrorlash uchun savollar 391
XXV BOB: IJTIMOIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI 393
25.1. Ijtimoiy xizmatlarning bugungi holati. Ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘llari 393
25.2. Ijtimoiy himoya tizimimng inson taraqqiyotidagi roli 395
25.3. Kuchli ijtimoiy siyosat - insonni rivojlantirish “o‘zbek modeli”ning ustuvor yo‘nalishi 397
Takrorlash uchun savollar 401
XXVI BOB. O‘ZBEKISTONDA PENSIYA TA’MINOTINING O‘ZIGA XOSLIGI 402
26.1. Pensiya tizimining iqtisodiy funksiyasi va maqsadi 402
26.2. Pensiya tayinlash va to‘lash munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy asoslar 404
26.3. Pensiya jamg‘armasi harajatlarining mazmuni, tarkibi va tuzilishi 405
Takrorlash uchun savollar 410
XXVII BOB. NAFAQALAR: TURLARI, TAYINLASH SHARTLARI, HISOBLASH TEXNOLOGIYASI 411
27.1. Nafaqa tushunchasi va turlari 411
27.2. Nafaqalarni hisoblash texnologiyasi 413
27.3. Nafaqalarni tayinlashda mahallalar va boshqa davlat idoralarning o‘rni 415
Takrorlash uchun savollar 418

XXVIII BOB. AHOLINI IJTIMOIY MUHOFAZA QILISH TIZIMINIG RIVOJLANISHI 420
28.1. Davlatning ijtimoiy himoya siyosati 420
28.2. Aholining ijtimoiy himoya qilishning yangi tartiblarini joriy qilinishi 421
28.3. Ijtimoiy muhofaza tizimini takomillashtirish 422
Takrorlash uchun savollar 425
XXIX BOB. SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINI ISLOH QILISH ORQALI AHOLINI IJTIMOIY MUHOFAZA QILISH TIZIMINIG RIVOJLANISHI.....426
29.1. Sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish 426
29.2. Sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish 428
29.3. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish.....431
Takrorlash uchun savollar 433
XXX BOB. HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI VA INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH 435
30.1. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va uning raqobatdoshligini oshirishning asosiy resurslari va omillari 435
30.2. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati 437
30.3. Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha ahvolini o‘rganishning yangi mexanizmlari 439
GLOSSARIY 443
ASOSIY ADABIYOTLAR.....454

I BOB. IQTISODIY RIVOJLANISH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH TUSHUNCHASINING MOHIYATI

1.1. Iqtisodiy rivojlanish va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni.

1.2. Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishning mamlakatda tutgan o‘rni.

1.1 Iqtisodiy rivojlanish va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o’rni

Jamiyat barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashishda muhim rol o‘ynaydi. Inson ishlab chiqarish jarayonida turli omillar yordamida kerakli tovarlarni yaratadi. Ishlab chiqarish omillari tarkibiga tabiiy resurslar, ishchi kuchi hamda mashina va uskunalar (kapital) kiradi. Oddiy qilib aytganda, inson (mehnat resursi) tabiiy resurslardan foydalanib, kapital (jamg‘arilgan asbob-uskunalar, texnologiyalar va iqtisodiy resurslar) orqali zarur mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqaradi.Iqtisodiy o‘sish haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, o‘sish ko‘plab mamlakatlarning asosiy iqtisodiy maqsadi ekanligini ko‘ramiz. Shunday qilib, iqtisodiy o‘sishga erisha oladigan mamlakat o‘z xalqining xohish-istaklarini yaxshiroq qondirish va qashshoqlik kabi ijtimoiyiqtisodiy muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shunday qilib, iqtisodiyotning farovonligini ta’minlash va turmush darajasini oshirish, daromadlarni oshirish ish o‘rinlarini yaratishdan iborat. Ishlab chiqarishning kengaytirish, tabiiy resurslarni qanchalik tez o‘zlashtirsak, iste’mol qilsak va undan foydalansak, shuncha ko‘p chiqindi ishlab chiqarsak, atrof-muhitning buzilishi va kamayishiga shunchalik zaif bo‘lamiz. Natijada, iqtisodiy o‘sishni nazarda tutgan holda, atrof-muhitga e’tiborni boyitishga qaratilayotganda atrof-muhitni ikkinchi o‘ringa qo‘yib, jiddiy ekologik muammolar kelib chiqadi.

Barqaror iqtisodiy o‘sish - bu inson ehtiyojlarini qondiradigan, ammo kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qiladigan iqtisodiy rivojlanishdir. Ekotizim doirasida ishlaydigan iqtisodiyot. Biz iqtisodiyotni undan ajrata olmaymiz. Darhaqiqat, busiz iqtisodiyot mavjud bo‘lmaydi. Ekotizimlar iqtisodiy o‘sishga zamin yaratadigan ishlab chiqarish omillarini ta’minlaydi. Bular qatoriga yer, tabiiy resurslar, mehnat va inson hamda tabiiy resurslar asosida shakllangan kapital kiradi. Barqaror iqtisodiy o‘sish - bu resurslar tugamasligi va kelajak avlodlar uchun mavjud bo‘lib qolishi uchun ularni boshqarishdir. Iqtisodiy tizimga barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan qaralganda, iqtisodiy faoliyat ijtimoiy yoki ekologik kapitalning qisqarishiga olib kelmasligi muhim ahamiyatga ega. Barqaror va barqaror iqtisodiyot boshqa barcha barqaror rivojlanish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Mustahkam moliyaviy asossiz ish haqini to‘lash,

xodimlarning farovonligiga yoki ekologik toza rivojlanishga sarmoya kiritishning imkoni yo‘q. Barqaror iqtisodiyot, shuningdek, aholining qarishi tufayli ijtimoiy xavfsizlik va sog‘liqni saqlash xarajatlarining oshishi kabi yangi muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Dunyo bo‘ylab 736 million kishi mutlaq qashshoqlikda yashaydi va 190 milliondan ortiq kishi ishsiz - bu raqamlar tashvishliligicha qolmoqda. 2030-yilgacha tizimli ravishda xalqaro hamjamiyat iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik maqsadlarni barqaror asosda birlashtirishni maqsad qilgan. Farovonlikka ko‘maklashish, qashshoqlikka barham berish, tengsizlikni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish - bular xususiy sektor ishtirokisiz va dinamik iqtisodiyotsiz erishib bo‘lmaydigan global maqsadlardir. Chaqqon xususiy sektor ish o‘rinlarini yaratadi, innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, soliq tushumlarini oshiradi va iqtisodiy o‘sish va daromad keltiradi. Busiz butun iqtisodiyot turg‘unlashadi - bu ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda va rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda sodir bo‘layotgan narsa.

Barqaror rivojlanish maqsadlari – bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining butun insoniyat uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sharoitlarni kompleks ravishda yaxshilash, turmush farovonligini oshirish hamda adolatli va barqaror jamiyat barpo etishga qaratilgan global tashabbusidir.Barqaror rivojlanish sohasidagi turli mamlakatlarning tajribasi juda katta farq qilganligi sababli, 2030-yil kun tartibining barcha maqsadlari va tegishli vazifalari umumiy, universal shaklda shakllantirilgan va qoida tariqasida aniq miqdoriy maqsadlar mavjud emas. Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv sharoitida resurslar cheklanganligi demografik o‘sish natijasida insonlar hayotini barqaror rivojlanishi kun sayin qiyin bo‘lib bormoqda. Mavjud murakkab hodisalarni oldini olish uchun aniq rejali va tizimli harakat qilish lozim. Ilm-fan yutuqlarini iqtisodga keng jalb etish lozim. Energiyani muqobil variantlarini yaratish orqali cheklangan resuslardan samarali foydalinish mumkin.

So‘nggi o‘n yilliklarda dunyoda kambag‘allarning mutlaq soni sezilarli darajada kamaygan bo‘lsa-da, qashshoqlikni kamaytirish juda muhim bo‘lib qolmoqda. Hali ham kambag‘allar juda ko‘p, nisbiy qashshoqlik tobora ko‘proq muammoga taalluqli va qashshoqlikni qisqartirish bo‘yicha taraqqiyot dunyoning bir qismidan boshqasiga juda katta farq qiladi. Kambag‘allikka ta’sir qiluvchi omillar kamaytirish iqtisodiy o‘sish, iqtisodiy integratsiya va ko‘pincha G‘arb davlatlari tashabbusi bilan amalga oshiriladigan qashshoqlikni qisqartirish bo‘yicha maxsus dasturlarni o‘z ichiga oladi.

Global miqyosda qashshoqlikni qisqartirish, shuningdek, rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirishga yondashuvning umumiy usulini o‘zgartirish.

1.2. Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishning mamlakatda tutgan o‘rni[1]

Iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allik muammosi har bir mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mamlakat iqtisodiyoti barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tmas ekan, kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush darajasini yaxshilash qiyin kechadi. Shu sababli, iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni kamaytirish bir-biriga bog‘liq jarayonlar hisoblanadi.

Iqtisodiy o‘sish va rivojlanish mamlakatning umumiy taraqqiyotiga quyidagi jihatlar orqali ta’sir ko‘rsatadi: Ish o‘rinlarini yaratish – iqtisodiy rivojlanish natijasida yangi ish o‘rinlari yaratiladi va aholi bandligi oshadi.

Mamlakat infratuzilmasini yaxshilash – yo‘llar, elektr energiya tarmoqlari, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari rivojlanadi.

Inson kapitalini oshirish – ta’lim va sog‘liqni saqlashga investitsiyalar ortib, malakali ishchi kuchi shakllanadi.

Xususiy sektor va tadbirkorlik rivojlanishi – bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Tashqi investitsiyalarni jalb qilish – barqaror iqtisodiyot xorijiy investorlar uchun jozibador bo‘lib, investitsiya oqimi oshadi.

Kambag‘allikning kamayishi mamlakatning ijtimoiy barqarorligi va aholisining hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Aholi daromadlarining oshishi – kam daromadli qatlamlarning iqtisodiy imkoniyatlari kengayadi.

Sog‘liqni saqlash tizimi rivojlanadi – kambag‘allikning pasayishi bilan sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati oshadi.

Ta’limga sarmoya ko‘payadi – aholining ta’lim olish darajasi yuqori bo‘lsa, ularning daromad olish imkoniyatlari ham oshadi.

Ijtimoiy tengsizlik kamayadi – kambag‘allik kamayishi jamiyatdagi tabaqalanish va qashshoqlik darajasining pasayishiga olib keladi.

Mamlakatda kambag‘allikni kamaytirish va iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

Bandlikni oshirish dasturlari – davlat tomonidan yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish.

Tadbirkorlikni rivojlantirish – kichik va o‘rta biznes uchun soliq imtiyozlari va kredit yengilliklari yaratish.

Samarali ijtimoiy dasturlar – kambag‘al qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash uchun turli ijtimoiy yordam dasturlarini amalga oshirish.

---

[1] PF-5975-сон 26.03.2020. Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.03.2020 yildagi PF-5975-son

Qishloq hududlarini rivojlantirish – qishloq xo‘jaligi va infratuzilmani rivojlantirish orqali qishloq aholisining daromadlarini oshirish.

Ta’lim va kasb-hunar o‘qitish tizimini rivojlantirish – aholining malakasini oshirish orqali ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish.

Iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirish mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiy shartlaridan biridir. Samarali iqtisodiy siyosat va ijtimoiy dasturlar orqali kambag‘allik darajasi kamaytirilib, aholi farovonligini oshirish mumkin. Shu sababli, davlat va jamiyat birgalikda bu yo‘nalishda harakat qilishi, innovatsiyalar va investitsiyalar orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishi lozim.Iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor mexanizmlarini keng joriy qilish tamoyillariga asoslangan islohotlarning yangi bosqichida davlatning iqtisodiyotdagi rolini kamaytirish va xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish bo‘yicha navbatdagi ishlarning natijadorligini oshirish bugungi kunda iqtisodiyotni boshqarishning aniq, shaffof va natijaga yo‘naltirilgan mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Shu bilan birga, hududlarda aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, xususan kambag‘allikni qisqartirish vazifalari ko‘p jihatdan iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o‘rinlarini tashkil etish bilan bevosita bog‘liqdir.

Bu, o‘z navbatida, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish va rivojlanishiga aloqador vazirlik va idoralar faoliyati uyg‘unligini ta’minlashni, mavjud muammo va to‘siqlarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishga asoslangan zamonaviy va inklyuziv institutsional tizimni joriy etishni talab etadi. Xususan:

Birinchidan, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish maqsadlari va tarkibiy islohotlar o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash, shuningdek, tashqi va ichki omillar ta’sirida yuzaga keladigan iqtisodiy sikllarni boshqarishning zamonaviy prognozlashtirish modellariga asoslangan samarali tizimi va mexanizmlarini joriy etish jarayoni kechikmoqda;

Ikkinchidan, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha yaxlit tizim va muvofiqlashtiruvchi davlat organi, me’yoriy-huquqiy baza, mezonlar va baholash uslubiyotining mavjud emasligi, shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlikka jalb qilish vazifalarining aniq ajratib olinmaganligi sababli tegishli aholi guruhlari bilan amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi past darajada qolmoqda;

Uchinchidan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha aniq yondashuv va tamoyillar to‘liq shakllantirilmagan, iqtisodiyotning hududiy va tarmoq rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ta’minlanmasdan hamda

hududlarni rivojlantirishdagi mavjud salohiyat va “nisbiy ustunlik” mezonlaridan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda inson kapitali va demografik omillar inobatga olinmasdan qolmoqda;

To‘rtinchidan, mamlakatda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning aniq yondashuvlarini belgilab olish, tadbirkorlikni moliyaviy va nomoliyaviy qo‘llab-quvvatlashning maqsadga yo‘naltirilgan, ayniqsa, aholini tadbirkorlikka o‘qitish va kasbga o‘rgatish ishlarini tizimlashtirish, shu jumladan barcha dasturlar hisobidan ajratilayotgan mablag‘larning sarflanish samaradorligini baholash ishlarini tashkil etishda kamchiliklar kuzatilmoqda;

Beshinchidan, mamlakat sanoatini rivojlantirishning fundamental drayverlari hisoblangan sohalarda mehnat unumdorligini oshirish, sohaning raqobatbardoshligini kuchaytirish bo‘yicha aniq mexanizm va dastaklarga asoslangan yagona industrial siyosat va strategiya ishlab chiqilmagan, shuningdek, mazkur jarayonda texnik reglamentlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangilash va samarali foydalanish masalalariga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Samarali makroiqtisodiy siyosatni yuritish, barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish borasida maqbul davlat siyosatini amalga oshirish tizimini joriy etish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (keyingi o‘rinlarda — vazirlik) etib qayta tashkil etilsin hamda quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilansin:

a) makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va yuritish sohasida:

•makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash asosida iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish, iqtisodiyotning real sektori holati, ichki va tashqi bozorlar konyunkturasi hamda global va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari bilan bog‘liq holda iqtisodiyotning asosiy sohalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish;

•iqtisodiyotning real sektoridagi holatni oldindan baholash indikatorlarini ishlab chiqish va samarali foydalanish tizimini joriy etish;

•inson kapitalini rivojlantirish va mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, zarur infratuzilmani shakllantirishga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning konseptual yo‘nalish va vazifalarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta’minlash;

•O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi va boshqa idoralar bilan birgalikda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, shu jumladan inflatsiya darajasini pasaytirish va qo‘yilgan maqsadlarga erishish borasida muvofiqlashtirilgan siyosatni amalga oshirish;

•O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan eksportni qo‘llab-quvvatlash, eksport va importda tarif va notarif tartibga solish siyosatlarini shakllantirish jarayonida faol ishtirok etish;

•qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasida ko‘zda tutilgan tadbirlar va islohotlarning mehnat unumdorligi, mahsulot yetishtirish va qayta ishlash hajmlarining o‘sishiga, ish o‘rinlari yaratilishiga ta’sirini baholash va tegishli takliflar ishlab chiqish;

b) kambag‘allikni qisqartirish borasida:

•iqtisodiy o‘sishning inklyuzivligini ta’minlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari hamda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va muvofiqlashtirish;

•kambag‘allikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda kambag‘allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyatini, ijtimoiy ta’minotning minimal standartlari va me’yoriy asoslarini ishlab chiqish va joriy etish;

•barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishish chora-tadbirlarini amalga oshirish, yashash minimumi va minimal iste’mol savatini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish hamda aholi daromadlari tabaqalashuvini o‘rganish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish hamda ularning davlat maqsadli dasturlari bilan o‘zaro muvofiqligini ta’minlash;

•O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda mehnat bozori va uning tarkibini sifat jihatdan rivojlantirish, ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish, takomillashtirish hamda mehnat resurslarini taqsimlash borasida o‘zaro muvofiqlikdagi ishlarni olib borish.

•O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda Madaniyat vazirligi bilan birgalikda inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

•O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda Madaniyat vazirligi bilan

birgalikda inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

v) hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sohasida:

•hududlarning tabiiy xomashyo va mehnat resurslarini hamda “nisbiy ustunliklarini” inobatga olgan holda ularni rivojlantirishga turtki beradigan omillar va yo‘nalishlarni belgilab olish hamda amalga oshirish;

•hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari doirasidagi loyihalarni o‘z muddatida va sifatli bajarishga to‘sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish, hududlararo rivojlanishning tabaqalashuvini qisqartirish choralarini ko‘rish;

•hududlarda sanoat zonalarini tashkil etish, ularni joylashtirish yuzasidan uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqish, ularni rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

•ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda hududlarni rivojlantirishning milliy metodologik asoslari va yondashuvlarini ishlab chiqish va takomillashtirish;

g) mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida:

•mamlakatda kichik va o‘rta biznesni hamda tadbirkorlikning barcha shakllarini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini yuritish;

•iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda kichik va o‘rta biznesni muhim drayverga aylantirishning konseptual va strategik yondashuvlarni hamda sohani rivojlantirish borasida fundamental to‘siq va muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

•kichik va o‘rta biznes subyektlari toifasiga oid mezonlarni belgilovchi, shuningdek, ularning huquqlariga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

•tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy choralari — yangi vositalar va axborot tizimlarini yaratish, kreditlashning mavjud mexanizmlari va qo‘llab-quvvatlash vositalari orqali ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori samara beruvchi yo‘nalish va loyihalarni amalga oshirish;

•Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirish orqali resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va uni samarali boshqarish tizimini yo‘lga qo‘yish;

d) sanoatning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish — yagona industrial siyosatni yuritish borasida:

•milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va diversifikatsiya qilish, shuningdek, hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg‘unligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan unumli foydalanish

asosida mamlakat sanoatini rivojlantirishning strategiya va modellarini ishlab chiqish;

•O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va aholini yoqilg‘i-energetika resurslari bilan bozor mexanizmlari asosida uzluksiz ta’minlashga qaratilgan strategiya va chora-tadbirlarni amalga oshirish;

•asosiy sanoat tarmoqlari va yirik korxonalarni isloh qilish bo‘yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

•sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasini monitoring qilib borishda xalqaro tajribada keng qo‘llaniladigan asosiy indikatorlarni aniqlash, “yashil iqtisodiyot” hamda energiyasamaradorlikning asosiy prinsiplari va usullarini amaliyotga joriy etish va monitoring qilish uslubiyatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

•respublika sanoat korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, hajmlari, ichki bozor talabining qondirilish darajasi bo‘yicha hamda ichki va tashqi bozorlarda muhim sanoat mahsulotlari narxlarining o‘zgarish tendensiyalari bo‘yicha tahlillar tayyorlash va ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishini tashkil etish;

e) davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish borasida:

•vakolatli davlat organlari bilan birgalikda iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish maqsadlaridan kelib chiqib hamda iqtisodiy o‘sishga ta’siri nuqtai nazaridan samaradorligi past bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlash asosida davlat ishtiroki mavjud tarmoq va korxonalarni isloh qilish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish orqali yaxlit davlat siyosati amalga oshirilishida ishtirok etish;

•davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratish, xususan ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot va xizmatlarning erkin va raqobatbardosh bozorini shakllantirish bilan bog‘liq tarkibiy islohotlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta’minlash;

•davlat ulushi mavjud strategik tarmoq va korxonalarda mehnat unumdorligini, energiya va boshqa ishlab chiqarish resurslari tejamkorligini oshirish hamda mahsulot tannarxini kamaytirishda zamonaviy mexanizm va yondashuvlarning qo‘llanilishi bo‘yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishda ishtirok etish;

j) davlat investitsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish borasida:

•barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sanoat salohiyatini mustahkamlash va

hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish uchun ustuvor soha va tarmoqlarni aniqlash orqali mamlakatning faol investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

•iqtisodiy o‘sish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani yaratishga qaratilgan investitsiya siyosatini amalga oshirish, ish joylarini tashkil etish va hududlarni barqaror rivojlantirishni ta’minlovchi infratuzilmaning strategik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab berish;

•mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi, tarmoqlar va hududlarni rivojlantirish strategiyalari va dasturlaridan kelib chiqqan holda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda Davlat investitsiya dasturini shakllantirish;

•O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga Davlat investitsiya dasturining asosiy yo‘nalishi va loyihalari bo‘yicha tegishli ichki va tashqi manbalarni shakllantirish uchun buyurtmalarni berish;

•Davlat investitsiya dasturini makroiqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilish hamda bu borada shakllantirilgan xulosalardan kelib chiqib, investitsiya yo‘nalishlarini belgilash;

•davlat investitsiya siyosatining umumiy investitsiyaviy faollikka, shu jumladan xususiy va xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimiga ta’sirini tahlil qilish, prognozlash hamda bu borada tegishli takliflarni shakllantirish;

z) infrastrukturani rivojlantirish va urbanizatsiya siyosatini yuritishda:

•respublika hududlarida uy-joy qurilish bozori va shaharlarni rivojlantirish bo‘yicha yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, turar joylarni muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilma bilan birgalikda qurishni inobatga olgan holda urbanizatsiya jarayonlarini davlat tomonidan samarali tartibga solishni ta’minlash, shuningdek, yer uchastkalariga oid zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish;

•shahar va qishloqlardagi uzoq muddatli demografik tendensiyalarni tahlil qilish, jadal sanoatlashtirish sharoitida shaharlarning demografik sig‘imlari hamda ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojlarini prognoz qilish va shu asosda urbanizatsiya ko‘lamlarini belgilash — mavjud shaharlarni kengaytirish yoki yo‘ldosh shaharchalarni yaratish yuzasidan hududlar kesimida takliflar tayyorlash;

•yangi barpo etiladigan yo‘ldosh shaharlar aholisining yashash sharoiti darajasini yanada oshirish hamda shaharlarning bosh rejalarini ishlab chiqishning moliyalashtirish manbalarini aniqlash va muvofiqlashtirish;

•ilg‘or, energiya tejovchi, ekologik toza texnologiyalar va materiallarni joriy etish asosida hamda ijtimoiy, muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-

transport infratuzilmalari mavjud yo‘ldosh-shaharlar bunyod etilishini hisobga olgan holda shahar aglomeratsiyalarini shakllantirishni boshqarish;

•uy-joy qurilish bozorini ipoteka kreditlari orqali rivojlantirish hamda mavjud uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda renovatsiya tizimini takomillashtirish va dasturlar ishlab chiqish;

•daromadi yuqori bo‘lmagan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan fuqarolarga ipoteka krediti bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan subsidiyalar ajratilishini muvofiqlashtirish;

i) biznes muhitini yaxshilash va xalqaro reytinglar masalalari bo‘yicha:

•iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida boshqarish bo‘yicha institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali biznes faoliyati sohasidagi asossiz majburiyatlar, taqiqlar va cheklovlarni olib tashlash, joriy tartibga solish jarayonlarini takomillashtirish hamda sohada amaldagi va qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarning biznes muhitiga ta’sirini baholash;

•“O‘zstandart” agentligi va boshqa vakolatli organlar bilan birgalikda tadbirkorlik subyektlari o‘z biznes faoliyatlarini erkin amalga oshirishlarida to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan texnik reglament va talablarni o‘rnatuvchi organlar faoliyatini monitoring qilish va muvofiqlashtirish;

•O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi bilan birgalikda mamlakat iqtisodiyotida raqobat muhitini yaxshilash, Savdo-sanoat palatasi va Biznes-ombudsman bilan birgalikda biznes muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni tashkil etishda hamkorlik qilish bo‘yicha o‘zaro muvofiqlashtirilgan harakatlarni amalga oshirish;

•xalqaro iqtisodiy reytinglar bilan ishlashda ilg‘or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda reytinglarni har bir tarkibiy indikatori kesimida mutasaddi vazirlik va idoralarning malakali mutaxassislaridan iborat maxsus ishchi guruhlarni tuzish hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirish;

k) jahon hamjamiyati bilan iqtisodiy aloqalarni faollashtirish sohasida:

•mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish strategiyasidan, shu jumladan o‘rta va uzoq muddatli tashqi iqtisodiy muvozanatligini ta’minlash maqsadlaridan kelib chiqib, xalqaro iqtisodiy hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

•iqtisodiy sohada turli integratsiya birlashmalari (MDH, EOII va boshqalar) bilan, respublika hududlari xorijiy davlatlar hududlari bilan, shu jumladan chegaraoldi hamkorlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollariga ta’sirini keng qamrovli tahlil qilish va kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

•vakolatlar doirasida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan muzokaralarda O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini ifodalash, belgilangan tartibda va xalqaro huquq bitimlariga muvofiq boshqa davlatlarning vakolatli tashkilotlari bilan iqtisodiyot va sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha hamkorlik bitimlarini tuzish.

Asosiy tayanch tushunchalar

1. Iqtisodiy rivojlanish (Economic Development) – Mamlakat yoki mintaqaning iqtisodiy tizimining barqaror va uzluksiz o‘sishi, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasidagi kengayish.
2. Jamiyat rivojlanishi (Societal Development) – Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy jihatdan taraqqiy etishi hamda aholining turmush darajasining oshishi.
3. Kambag‘allikni kamaytirish (Poverty Alleviation) – Ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar orqali aholining kambag‘allik darajasini pasaytirishga qaratilgan tizimli tadbirlar majmuasi.
4. Metodologik yondashuvlar (Methodological Approaches) – Ilmiy tadqiqotlar uchun ishlatiladigan usullar, tamoyillar va metodologik asoslar, shu jumladan iqtisodiy o‘sish va kambag‘allikni kamaytirish yo‘nalishlarida qo‘llaniladigan tahlil vositalari.
5. Samarali iqtisodiy boshqaruv (Efficient Economic Governance) – Davlat tomonidan iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni kamaytirish maqsadida ishlab chiqilgan strategik va amaliy chora-tadbirlar tizimi.
6. Barqaror taraqqiyot (Sustainable Growth) – Iqtisodiy rivojlanishni ekologik barqarorlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan uyg‘un holda ta’minlash.
7. Inson salohiyati (Human Potential) – Aholining bilim, malaka va sog‘liq darajasi orqali iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasi va uning iqtisodiy o‘sishga ta’siri.
8. Makroiqtisodiy muvozanat (Macroeconomic Balance) – Iqtisodiyotda inflyatsiya, ishsizlik, davlat qarzi va boshqa muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning izchil rivojlanishi va barqarorligi.
9. Kapital kiritish (Capital Investment) – Uzoq muddatli foyda olish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida moliyaviy mablag‘ va resurslarni ishlab chiqarish jarayonlariga yo‘naltirish.
10. Iqtisodiy o‘sish (Economic Growth) – Mamlakatning ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida o‘sishini ko‘rsatuvchi indikator, milliy yalpi mahsulot (GDP)ning oshishi.
11. Kambag‘allik darajasi (Poverty Rate) – Aholining kambag‘allik darajasini o‘lchash uchun ishlatiladigan indikator, ko‘pincha daromadlar va yashash sharoitiga asoslanadi.

12. Tashqi iqtisodiy aloqalar (External Economic Relations) – Mamlakatning boshqa davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlari, savdo, investitsiyalar va moliya sohasidagi hamkorlik.

13. Sosial tengsizlik (Social Inequality) – Ijtimoiy guruhlar orasida turmush darajasi, imkoniyatlar va resurslarga bo‘lingan farq.

14. Tadbirkorlik (Entrepreneurship) – Yangi bizneslar yaratish, iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish va yangi ish o‘rinlari ochish jarayoni.

15. Raqobat (Competition) – Bozorda kompaniyalar yoki ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida resurslar, mijozlar va bozor ulushini olish uchun kurash.

16. Ijtimoiy himoya (Social Protection) – Aholining zaif guruhlarini (kambag‘allar, nogironlar, ishsizlar) ijtimoiy xavfsizlik tizimi orqali himoya qilish.

17. Demografik o‘zgarishlar (Demographic Changes) – Aholining yosh strukturasidagi o‘zgarishlar, migratsiya jarayonlari va oilaviy siyosatning ta’siri.

18. Xalqaro moliya tizimi (International Financial System) – Global miqyosdagi iqtisodiy o‘zgarishlarga javoban iqtisodiy hamkorlikni va mablag‘larning oqimini boshqarish tizimi.

19. Soliq siyosati (Tax Policy) – Davlatning soliq olish, soliqlarni taqsimlash va iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan siyosat.

20. Rivojlanish ko‘rsatkichlari (Development Indicators) – Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni o‘lchash uchun ishlatiladigan statistik ma’lumotlar, masalan, yalpi ichki mahsulot (GDP), mehnat bozorining holati, ijtimoiy farovonlik darajasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy rivojlanish nima va uning asosiy belgilari qanday?
2. Kambag‘allikni qisqartirishning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni qanday?
3. Kambag‘allikni qisqartirishda davlatning roli qanday bo‘lishi kerak?
4. Iqtisodiy o‘sish va kambag‘allikni qisqartirish o‘rtasidagi farq nima?
5. Kambag‘allikni qisqartirish uchun qanday strategiyalar ishlab chiqish zarur?
6. Iqtisodiy rivojlanishning o‘lchovlari qanday aniqlanadi?
7. Iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi muvozanatni qanday ta’minlash mumkin?
8. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar misolida kambag‘allikni qisqartirishdagi muvaffaqiyatli amaliyotlar qanday?
9. Kambag‘allikni qisqartirishda ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarining roli qanday?

II BOB. “IQTISODIY RIVOJLANISH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH” FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

2.1. “Iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirish” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari.
2.2. Iqtisodiy rivojlanish va uning ko‘rsatkichlari.
2.3. Iqtisodiy rivojlanish nazariyalarida inson omili rolining evolyusiyasi.

2.1 “Iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirish” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari

“Iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirish” fanini o‘qitishdan asosiy maqsad – talabalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida uchraydigan muammolar, ularning yechim usullari hamda barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar bilan tanishtirishdan**,** O‘zbekiston Respublikasini jadal rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bilan tanishtirish hamda ularning ushbu masaladagi fikrlash doirasini kengaytirishdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari – talabalarni iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha turli nazariyalar va yondashuvlar, iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos jihatlari, iqtisodiy mexanizmlarning ishlash tamoyillari bilan tanishtirishdan iborat. Shuningdek, fan O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari, davlat siyosatining iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri va uning asosiy yo‘nalishlari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda xorijiy tajribalar haqida chuqur bilim berishga qaratilgan.

“Iqtisodiy rivojlanish va kambag‘alliki qisqartirish” fani fundamental fanlardan biri bo‘lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Fan bo`yicha talabalarning bilim, ko`nikma va malakalariga qo`yidagi talablar qo`yiladi.

Talabalar zamonaviy iqtisodiyotni chuqur anglash, bozor munosabatlarini tahlil qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘zlashtirishi lozim:

- Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi ustuvor yo‘nalishlar
- Inflyatsiya va ishsizlik darajasini nazorat qilish.
- Pul-kredit va fiskal siyosatni muvozanatlash.
- Tashqi savdo va investitsion muhitni yaxshilash orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish.
- Davlat xizmati uchun kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimi

- Davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish.
- Kadrlar salohiyatini oshirish va zamonaviy boshqaruv tizimlariga moslashtirish.
- Oliy ta’lim va kasbiy rivojlanish dasturlarini takomillashtirish.
- Byudjet siyosatini rivojlangan davlatlar standartlariga moslashtirish
- Davlat xarajatlarini optimallashtirish va byudjet taqchilligini kamaytirish.
- Soliq tushumlarini oshirish va fiskal intizomni ta’minlash.
- Davlat moliyasini uzoq muddatli barqaror boshqarish tizimlarini rivojlantirish.
- Bozor munosabatlarining institutsional bazasini rivojlantirish
- Xususiy mulkchilik huquqini himoya qilish.
- Raqobat muhitini kuchaytirish va monopoliyalarning oldini olish.
- Yangi iqtisodiy institutlar va innovatsion moliyaviy tizimlarni shakllantirish.
- Ta’lim, fan, sog‘liqni saqlash va AKT sohalarini rivojlantirish
- Zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish.
- Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash.
- Inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish.
- Korruptsiyani cheklash va xufyona iqtisodiyot darajasini pasaytirish
- Shaffof moliyaviy tizimlarni yaratish.
- Korruptsiyaga qarshi kurash tizimlarini mustahkamlash.
- Norasmiy iqtisodiy faoliyatni qonuniy maydonga olib chiqish.
- Tashqi savdoni kengaytirish va xalqaro iqtisodiy integratsiya
- EOII va boshqa davlatlar bilan erkin savdo shartnomalarini imzolash.
- Eksport hajmini oshirish va eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish.
- Xalqaro investitsiyalar va savdo aloqalarini mustahkamlash.
- Sanoat rivojlanishi va iqtisodiy tarkibiy o‘zgarishlar
- Ishlab chiqarish sanoatini modernizatsiya qilish va yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish.
- Resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash.
- Yangi bozor va sanoat infratuzilmasini shakllantirish orqali iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish.
- Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonidagi muhim islohotlar

O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos modeli asosida quyidagi islohotlarni amalga oshirmoqda:

Institutsional va tarkibiy islohotlar – Yangi iqtisodiy institutlarni joriy etish va bozor mexanizmlarini takomillashtirish.

Davlat mulkini xususiylashtirish – Davlat korxonalarini bosqichma-bosqich xususiy sektorga o‘tkazish.Bozor infratuzilmasini shakllantirish – Investitsiyalarni jalb qilish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.Ishlab chiqarishning zamonaviy tarmoqlarini rivojlantirish – Innovatsion texnologiyalar asosida yangi sanoat yo‘nalishlarini rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash.

Bu yo‘nalishlar mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va global bozor integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan**.** Shu bilan birga respublikaning XXI asrga qadam qo‘yishi milliy tizimlarga yuk-sak talablar qo‘yuvchi iqtisodiy integratsiya asosida globallashuvning jahon tendensiyalari kuchaygan bir sharoitga to‘g‘ri keldi. Globallashuv jarayoni davlatlarning iqtisodiy siyosatini to‘liq bekor qilmaydi, lekin ularning mustaqil harakat qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli, hukumatlar investitsiya muhitini jozibador qilish uchun turli strategik tadbirlarni amalga oshiradi.

Quyida ushbu tadbirlarning asosiy yo‘nalishlari keltirilgan:

1. **Infrastrukturani rivojlantirish**

- Transport va logistika tarmoqlarini modernizatsiya qilish.
- Energetika va aloqa infratuzilmasini kengaytirish.
- Zamonaviy ishlab chiqarish va biznes markazlarini rivojlantirish.

2. **Ta’lim tizimi va kadrlar malakasini oshirishni qo‘llab-quvvatlash**

- Kasbiy ta’lim va oliy o‘quv yurtlari bilan sanoat sektori hamkorligini kuchaytirish.
- Zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash dasturlarini joriy etish.
- Ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalarni rag‘batlantirish.

3. **Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xizmat ko‘rsatish sohasida narxlarni pasaytirish**

- Mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish.
- Xizmatlar sektorini rivojlantirish orqali iste’mol bozorining talablarini qondirish.
- Xomashyo va resurslardan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish.

4. **Erkin raqobat muhitini yaratish va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish**

- Xususiy sektorni rivojlantirish uchun huquqiy sharoitlarni yaxshilash.

- Monopoliyalarning oldini olish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash.
- Soliq va tarif siyosatini raqobatbardosh biznes muhitiga moslashtirish.

5. **Ishchi kuchi bozorini takomillashtirish**

- Ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini oshirish.
- Mehnat qonunchiligini modernizatsiya qilish.
- Ishchi kuchining harakatchanligini oshirish uchun hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish.

Ushbu tadbirlar investitsiya muhitini yaxshilash va davlatning iqtisodiy o‘sishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyani kuchaytirishga yordam beradi. Boz ustiga, bir yo‘nalishda hukumat bevosita o‘z ta’sirini yo‘qot- maydi. Qochqinlar va immigrantlar muammosi o‘z dolzarbligini yo‘qotmasa hali, immigratsion nazorat va aholini ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi shunga olib keladi-ki, ommaviy ko‘chishlar iqtisodiyotning ko‘rsatkichi bo‘lib qolmaydi. Fuqarolik va yashash huquqini berish ustidan borilayotgan qattiqqo‘l nazorat davlat tomonidan an’anaviy chegaralar va hududlarni saqlab qoluvchi yagona sohaga aylanadi. Globallashuv jarayoni davlatlarning xalqaro maydondagi o‘rnini va funksiyalarini yanada yaqqol ko‘rsatib beradi. Ayrim sohalarda globallashuvning ta’siri yetarlicha sezilarli bo‘lmasa-da, boshqa yo‘nalishlarda davlatlarning roli sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda.

Hozirgi kunda davlatlar:

- Kapitalni jalb qilish va ushlab qolish imkoniyatiga ega, lekin bu jarayon xalqaro moliyaviy oqimlar bilan chambarchas bog‘liq.
- Iqtisodiy siyosat yuritishda mustaqillik saqlab qolingan bo‘lsa ham, u global bozorning ta’siri ostida amalga oshiriladi.
- Iqtisodiyotni nazorat qilishdan ko‘ra, uni tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajaradi.

Bu o‘zgarishlar shuni anglatadiki, davlatlar oldingi yillardagi kabi iqtisodiyotga bevosita ta’sir ko‘rsatishdan ko‘ra, bozor iqtisodiyoti sharoitida barqarorlikni ta’minlash uchun tartibga soluvchi institutlar sifatida harakat qilmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning global miqyosda rivojlanishi jahon iqtisodiyotining asosiy xususiyatiga aylandi. Bu jarayonda quyidagi muhim o‘zgarishlar kuzatildi:

- **Xalqaro iqtisodiy hamkorlik kuchayishi** – mamlakatlar o‘rtasidagi savdo va investitsiya oqimlari keskin oshdi.
- **Xalqaro mehnat taqsimoti chuqurlashuvi** – ishlab chiqarish jarayonlari dunyo bo‘ylab tarqalib, global ishlab chiqarish tarmoqlari shakllandi.
- **Iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi** – yirik mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlar, xalqaro tuzilmalar va davlatlar guruhlari shakllandi.

Bugungi kunda davlatlar iqtisodiy siyosatini global jarayonlarga moslashtirib, xalqaro hamkorlik va integratsiya orqali barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashga harakat qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy o‘sishning yangi manbalarini topish va ularni samarali boshqarishga yo‘naltirilgan strategik yondashuvni talab qiladi.

2.2. Iqtisodiy rivojlanish va uning ko‘rsatkichlari

Har bir davlat va uning iqtisodiy faoliyatinining asosiy maqsadi aholi turmush farovonligini yaxshilash va keyiningi o‘rinda iqtisodiy jihatdan baquvvat bo‘lish hisoblanadi. Dunyoning deyarli barcha davlatlarida iqtisodiy faoliyat uchun iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichi yillik ravishda hisob kitob qilib boriladi. Ammo, ko‘p hollarda uning samaradorligini baholash ikkinchi o‘rinda bo‘ladi. Shu sababli iqtisodiy o‘sish va rivojlanish o‘rtasidagi farqni quyidagi jadval asosida ko‘rish mumkin. Iqtisodiy o‘sish – bu mamlakatdagi real ishlab chiqarish hajmi va xizmatlar ko‘lamining ortishi bilan ifodalanadigan jarayondir. Bu jarayon iqtisodiyotning rivojlanish darajasini oshirib, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Iqtisodiy o‘sish quyidagi asosiy omillarga bog‘liq:

Ishlab chiqarish hajmining oshishi – korxonalar va ishlab chiqarish subyektlari tomonidan yaratilayotgan mahsulotlarning miqdori va sifati ortishi.Texnologik taraqqiyot – yangi innovatsiyalar, avtomatlashtirish va ishlab chiqarish usullarining takomillashuvi natijasida samaradorlikning oshishi.

Mehnat unumdorligining ortishi – ishchi kuchining bilim va malaka darajasi oshishi natijasida ishlab chiqarishning ko‘payishi.Investitsiyalar – infratuzilma, ishlab chiqarish korxonalari va ta’lim sohasiga kiritilayotgan sarmoyalarning iqtisodiyotning o‘sishiga ta’siri.

2.1-jadval

Iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy rivojlanishing taqqoslama jadvali

	Iqtisodiy o‘sish	Iqtisodiy rivojlanish
Ma’nosi	Iqtisodiy o‘sish – bu mamlakatdagi real ishlab chiqarish hajmi va xizmatlar ko‘lamining ortishi bilan ifodalanadigan jarayondir.	Iqtisodiy rivojlanish – bu nafaqat daromadlar, jamg‘armalar va investitsiyalar ortishi, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida ro‘y beradigan progressiv o‘zgarishlarni ham o‘z ichiga oladigan keng qamrovli jarayondir.
Omillar	O‘sish yalpi ichki mahsulot qismlaridan biridagi asta sekin o‘sishga bog‘liqdir: iste’mol, hukumat	Rivojlanish inson kapitali o‘sishiga,tengsizlik ko‘rsatkichlarining pasayishiga va aholi hayotini yaxshilashga

	xarajatlari,investitsiyta va sof export.	qaratilgan strukturaviy o‘zgarishlarga bog‘liqdir.
O‘lchovlari	Iqtisodiy o‘sish miqdoriy faktorlar, masalan haqiqiy yalpi ichki mahsulotning o‘sishi yoki odam boshiga to‘g‘ri keladigan daromadning oshishi bilan o‘lchanadi.	Iqtisodiy rivojlanishni baholashda HDI(Inson Rivojlanish Indeksi), gender-moslik indeksi, Inson kambag‘allik indeksi (HPI), go‘daklarnining o‘limi, savodxonlik darajasi kabi sifat ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi.
Ta’sir	Iqtisodiy o‘sish iqtisodiyotga miqdoriy o‘sish olib keladi.	Iqtisodiy rivojlanish iqtisodiyotning ham sifatiy jihatdan ham miqdoriy jihatidan o‘zgarishiga olib keladi.
Aloqadorlik	Iqtisodiy o‘sish milliy va kishi boshiga to‘g‘ri keladigan daromad o‘sishini aks ettiradi.	Iqtisodiy rivojlanish – bu nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki mamlakat aholisi hayot sifatining yaxshilanishi bilan bog‘liq jarayondir. Agar iqtisodiy o‘sish faqat ishlab chiqarish hajmining ortishini ifodalasa, iqtisodiy rivojlanish esa aholi turmush darajasi va farovonligining oshishi bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy o‘sish qisqa muddatli yoki uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. Qisqa muddatli o‘sish vaqtinchalik bo‘lsa, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Bu jarayonda davlat siyosati, soliq tizimi, monetar va fiskal chora-tadbirlar muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiy rivojlanish – bu nafaqat daromadlar, jamg‘armalar va investitsiyalar ortishi, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida ro‘y beradigan progressiv o‘zgarishlarni ham o‘z ichiga oladigan keng qamrovli jarayondir. Ushbu rivojlanish institutsional va texnologik o‘zgarishlar orqali amalga oshadi.

Iqtisodiy rivojlanish quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

Daromadlar va jamg‘armalar oshishi – aholining real daromadlari va jamg‘armalari hajmining ortishi natijasida ularning turmush darajasi yaxshilanadi.

Investitsiyalar hajmining kengayishi – iqtisodiyotga yo‘naltiriladigan kapital mablag‘lar hajmining oshishi infratuzilma, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantiradi.

Institutsional o‘zgarishlar – bozor mexanizmlarining mustahkamlanishi, huquqiy asoslarning takomillashtirilishi va davlat siyosatining liberallashtirilishi.

Texnologik rivojlanish – innovatsion texnologiyalarning iqtisodiyotga tatbiq etilishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

Ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi – ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport va kommunal xizmatlarning rivojlanishi.

Iqtisodiy rivojlanish sifat o‘zgarishlari bilan ajralib turadi. Ya’ni, iqtisodiyotning o‘sishidan tashqari, uning barqarorligi, samaradorligi va ijtimoiy ta’siri ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda davlat siyosati va xalqaro tajribalar asosida olib boriladigan islohotlar muhim o‘rin tutadi.

Iqtisodiy rivojlanish – bu nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki mamlakat aholisi hayot sifatining yaxshilanishi bilan bog‘liq jarayondir. Agar iqtisodiy o‘sish faqat ishlab chiqarish hajmining ortishini ifodalasa, iqtisodiy rivojlanish esa aholi turmush darajasi va farovonligining oshishi bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy rivojlanish quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Ijtimoiy ta’minot yaxshilanishi – sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy xizmatlar sifatining oshishi.

Daromadlar o‘sishi va teng taqsimlanishi – aholining real daromadlari ortishi bilan birga, kambag‘allik darajasining pasayishi.

Infratuzilma rivoji – transport, energetika, axborot-kommunikatsiya tizimlari va boshqa muhim infratuzilma tarmoqlari kengayishi.

Ekologik barqarorlik – iqtisodiy rivojlanish jarayonida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishga e’tibor berish.

Inson kapitaliga investitsiyalar – ta’lim va malaka oshirish orqali aholi bilim va malakasining ortishi.

Shunday qilib, iqtisodiy rivojlanish faqat raqamlar bilan o‘lchanadigan jarayon emas, balki xalq farovonligini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar majmuasidir. Bu jarayonda davlat siyosati, xususiy sektor, xalqaro tashkilotlar va jamiyatning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy o‘sishni aniqlash va asoslab berish jarayonida e’tibor berish kerak bo‘lgan jihatlar:

Iqtisodiy o‘sish mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatining ortishi bilan bir qatorda resurslar, texnologiyalar va mehnat samaradorligining oshishi bilan bog‘liq. Uni baholashda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Iqtisodiy o‘sishni baholash

Iqtisodiy o‘sish darajasi asosan YaIM (Yalpi ichki mahsulot) yoki YaMM (Yalpi milliy mahsulot) ko‘rsatkichlari asosida aniqlanadi. Uni quyidagi usullar orqali baholash mumkin:

Nominal va real YaIM – real YaIM inflyatsiya ta’sirini hisobga olgan holda iqtisodiy o‘sishni aniq ko‘rsatadi.

Aholi jon boshiga YaIM – iqtisodiy o‘sish aholi soniga nisbatan

hisoblanganda, aholining real farovonligi qanchalik oshayotganini tushunish mumkin.

Tarmoqlar bo‘yicha o‘sish – iqtisodiy o‘sish qaysi tarmoqlarda (sanoat, xizmatlar, qishloq xo‘jaligi) yuqori ekanligini tahlil qilish muhimdir.

2. Iqtisodiy o‘sish omillari

Iqtisodiy o‘sish quyidagi muhim omillarga bog‘liq:

- Tabiiy resurslar hajmi va sifati – mamlakatning yer, suv, qazilma boyliklar kabi tabiiy resurslarga egaligi va ulardan samarali foydalanish darajasi. Masalan, tabiiy gaz, neft yoki mineral resurslarning mavjudligi iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishi mumkin.
- Mehnat resurslari hajmi va sifati – iqtisodiyotda faol qatnashadigan aholining soni, kasbiy malakasi va samaradorligi iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir qiladi. Yuqori malakali kadrlar bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi ham ortadi.
- Asosiy kapital hajmi – ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan infratuzilma, zavod-fabrikalar, uskunalar va texnologiyalar. Asosiy kapital qanchalik katta bo‘lsa, ishlab chiqarish samaradorligi ham ortadi.
- Texnologiyalar va innovatsiyalar – yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar iqtisodiy o‘sishning eng muhim omillaridan biridir. Sun’iy intellekt, robototexnika, aqlli texnologiyalar va avtomatlashtirish jarayonlari iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

3. Iqtisodiy o‘sish modellari

Iqtisodiy o‘sish turli nazariy modellarga asoslangan:

Harrod-Domar modeli – investitsiyalar va jamg‘armalar iqtisodiy o‘sishda asosiy rol o‘ynashini ta’kidlaydi.

Solou-Swan modeli – mehnat, kapital va texnologiyalar o‘sish jarayonida qanday ta’sir qilishini tushuntiradi.

Endogen o‘sish modeli – innovatsiya va ta’lim iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari ekanligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy o‘sish uzoq muddatli barqaror taraqqiyot uchun muhim bo‘lib, unga resurslar, texnologiyalar, investitsiyalar va samarali boshqaruv tizimi orqali erishish mumkin. Zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun texnologik innovatsiyalar va inson kapitaliga sarmoya kiritish hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.So‘ngi yillardagi dunyo mamlakatlaridagi orasida globallashuv kuchayishi natijasida ko‘pgina davlatlar iqtisodiy pasayishga yoki tashqi qarzi YaIM ga nisbatan bir necha yuz barobarlab ko‘payib ketadigan davlatlar soni ortib bormoqda. Ammo, ushbu davlatlar orasidan Xitoy eng yuqori iqtisodiy o‘sishga va tashqi qarzi eng kamligi bo‘yicha (13.7 % YaIM ga nisbatan) dunyo mamlakatlari orasida yetakchilik qilmoqda. Shu sababli, Xitoy xalq demoktarik respublikasi iqtisodiy o‘sish dastaklariga to‘xtalib o‘tamiz.

Deyarli 45 yil oldingi iqtisodiy reformatsiyalar va savdo

erkinlashuvidan oldin, Xitoy iqtisodiyoti juda nochor, o‘zgarishsiz, markazdan boshqariladigan, keng miqiyosida samarasiz va global iqtisodiyotdan haddan tashqari ajratib turadigan siyosat olib borgan. 1979-yilda tashqi savdo va investitsiyalarga chiqish va erkin savdo o‘zgarishlarini qilganidan beri, hozirgi kungacha Xitoy dunyoning eng tez o‘sadigan iqtisodiyotiga ega davlat hisoblanadi, yillik o‘rtacha YaIM(GDP) o‘sish ko‘rsatkichi 2018 yilgacha 9.5% ni tashkil qilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘ngi yillarda yuqoridagi omillarga katta e’tibor qaratilyapti. Misol uchun, mamlakatda 2022- yil yakuni bo‘yicha yalpi ichki mahsulot hajmi qariyb 888.4 trl so‘mni tashkil qildi. Bundan eng yuqori hissa qo‘shgan tarmoq bo‘lib xizmatlar va sanoat hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham iqtisodiyotni rivojlantirish hamda O‘zbekiston respublikasida talab va taklif, ish bilan bandlik va ishsizlik va shunga o‘xshash masalalarda muvozanatni saqlash uchun Prezidentimizning [2]PF-60-sonli “2022-2026-yillarga moljallanganYangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” to‘grisidagi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonning IIIyo‘nalishi “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” deb ataldi va quyidagi maqsadlarni o‘z ichiga oldi.

➢ Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish.

➢ Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish[3].

➢ Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish.

➢ Raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish.

➢ Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini

[2] https://lex.uz/docs/-5841063
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida
3 https://lex.uz/docs/-5841063
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida

ko‘rish

➢ Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish.

➢ Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish

➢ Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo‘yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish

➢ Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4 — 1,6 baravarga oshirish.

➢ Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, barqaror iqtisodiy o‘sish barcha davlatlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuning uchun, iqtisodiy o‘sishni amalga oshirish uchun jamiyatdagi barcha,ta’lim,sog‘liqni saqlash, sport, iqtisodiyot, xalqaro aloqalar,soliq tizimi va shunga o‘xshash soha va tarmoqlarni bir butunlikda isloh qilish zarur bo‘ladi.

2.3.Iqtisodiy rivojlanish nazariyalarida inson omili rolining evolyusiyasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biri inson omilidir. Mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan aholi qatlamining iqtisodiyotda faol ishtirok etishi mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishini va ijtimoiy farovonligini ta’minlaydi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda inson kapitaliga investitsiya kiritish mikro va makro darajada raqobatbardoshlikni oshirish va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning eng muhim omili sifatida qaraladi. Inson kapitalining sifati quyidagi omillar orqali yaxshilanadi:

- Uzlukssiz ta’lim – insonlarning butun hayoti davomida kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirib borishiga qaratilgan strategiyalar.
- Kasbiy malaka va tajribani oshirish – mehnat bozorida yuqori raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash.
- Mehnat unumdorligini oshirish – samarali ishchi kuchi iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Inson kapitaliga investitsiya qilish va iqtisodiy barqarorlik

Inson kapitalini rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim:

Ta’lim va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish.

Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarga investitsiya kiritish.

Ish kuchi malakasini oshirishga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshirish.

Zamonaviy iqtisodiyotda inson kapitali eng muhim resurslardan biri hisoblanib, unga investitsiya kiritish makroiqtisodiy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va iqtisodiy samaradorlik kabi natijalarga olib keladi. Shu sababli, mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarida inson kapitaliga qaratilgan islohotlar ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi.

Jahon iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar nisbatining o‘zgarayotganini aniq namoyon etmoqda. Jahon banki dunyoning[4] 141 ta davlat misolida global milliy boylik tarkibini tadqiq etish davomida inson kapitalining uning umumiy qiymatidagi ulushi 64 %ni tashkil etishi va so‘nggi 20 yil davomida uning hajmi 55 % ga o‘sgani ma’lum bo‘lgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a’zo bo‘lgan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 70 %ni tashkil etgan bo‘lsa, quyi daromadli mamlakatlarda uning hissasi 41 %ga to‘g‘ri keldi” (Lange, Glenn-Marie and other, 2018).

Inson kapitalidagi tafovutlar mamlakat iqtisodiyotining jahon bozorida raqobatbardoshligini, aholi turmush darajasini va umuman inson taraqqiyotidagi farqlarni shakllantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, davlatlar o‘rtasidagi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlarning 10-30 foizga farqlanishi bevosita inson kapitalining rivojlanish darajasi bilan bog‘liqdir (World Bank Group, 2018). Shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda iqtisodiy o‘sish omillari o‘zgarib bormoqda. An’anaviy resurslar – mehnat, yer, kapital va tadbirkorlik qobiliyatidan ko‘ra, fan va ta’lim, ya’ni jamiyatning intellektual salohiyati muhim omil sifatida ilgari surilmoqda.O‘zbekistonda milliy boylik tarkibida inson kapitali ko‘rsatkichining ulushi 62 % ni tashkil qiligani holda, jahon banki mutaxassislarining fikriga ko‘ra dunyo mamlakatlari bo‘yicha milliy boylik tarkibida jismoniy kapitalning ulushi o‘rtacha 16 % ni, tabiiy kapital - 20 % ni, inson kapitali - 64 % ni tashkil etadi (Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya singari taraqqiy etgan mamlakatlarda milliy boylik tarkibida inson kapitali ulushi 80% ga yetadi).

Bugungi kunda inson kapitalining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash borasidagi jarayonlarga ta’sirini o‘rganishga qiziqish kun sayin ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bu borada tadqiqotchilar tomonidan ko‘p sonli ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsada, “inson kapitali” kategoriyasini aniqlashtirishda muayyan noaniqliklar saqlanib qolmoqda, shu bilan birga, uning tashkil etuvchilariga hanuz to‘liq oydinlik kiritilmagan, milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga inson

[4] World Bank Group, 2018

kapitalining ta’siri miqdor jihatdan baholanmagan. Yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi jarayonida milliy iqtisodiyotda inson kapitalidan samarali foydalanish va uning sifatini ta’minlash metodologiyasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Shu bilan birga, inson kapitalining korxonalar innovatsion rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularning natijalari bu boradagi muhim masalalarni yoritib berganini ham e’tiborga olish lozim. Bunday tadqiqotlar qatorida 1980-1990-yillar davomida 42 ta mamlakatda 37 ta sanoat tarmoqlari ma’lumotlarini tahlil qilish asosida inson kapitalining innovatsion rivojlanishga ijobiy ta’sirini asoslab bergan Karina Xitch va Jovanni Sulis va inson kapitalining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini statistik jihatdan o‘rgangan Di Libertoning ilmiy izlanishlarini sanab o‘tishimiz mumkin.

Milliy iqtisodiyotning barqaror taraqqiyoti iqtisodiy tizim ishtirokchilarining o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari, shu jumladan takror ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar tizimining o‘zgarishiga tayanadi. O‘tish jarayonlari ko‘p jihatdan ilmiy-texnik taraqqiyot ta’siri darajasi va sifatiga bog‘liq hisoblanadi. Tadqiqotchilar jamiyatning tarixiy va tadrijiy taraqqiyoti davomida yuz bergan bunday o‘zgarishlarning bir nechabosqichlarini ajratib ko‘rsatadilar. Bunday texnologik o‘zgarishlarning birinchi bosqichi o‘tgan asrimizning 50-yillarida boshlangan va yarimo‘tkazgichelektronikasining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa; ikkinchi bosqich 1960-yillarda boshlangani holda, texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lgan aksariyat g‘oyalar mikroelektronikada o‘z ifodasini topgan; uchinchi bosqich o‘tgan asrning etmishinchi yillariga to‘g‘ri keladi va mikroprotsessor texnologiyalarining rivojlanishi va shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqarilishi bilan ajralib turadi.

1980-1990-yildan to hozirgi kungacha davom etayotgan beshinchi texnologik tartib energiya va moddiy iste’mol borasidagi iqtisodiy cheklovlarni bartaraf etish, ishlab chiqarish jarayoni va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning rang-barangligini oshirish bilan bog‘liq.

Inson kapitali borasida ilk zamonaviy nazariyalar amerika va ingliz iqtisodchi olimlari tomonidan 1950-60-yillarda yaratilgani holda, ularning yaratilishi ishlab chiqarish jarayonini texnologik jihatdan tashkil etish borasidagi o‘zgarishlar bilan vaqtga to‘g‘ri kelishi bilan tavsiflanadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, mazkur davr mboaynida inson kapitalining moddiy boylik yaratishdagi ulushi muttasil tarzda o‘sib borgan va o‘tgan asrning etmishinchi yillariga kelib, uning ulushi taxminan 60% ni tashkil qilgan.

Sobiq ittifoq tarkibiga kiruvchi mamlakatlarda inson kapitali nazariyasini rivojlantirish borasidagi tadqiqotlar bir muncha kech, xususan XX asrning 90-yillarida jadallasha boshladi, bu boradagi tadqiqot sirasiga

M.M.Kritko, S.A.Dyatlova, I.V. Ilinskiy, R.I.Kapelyushnikov, A.L.Lukyanova

kabi oimlarning ilmiy izlanishlarini kiritishimiz mumkin.

Umuman olganda shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda inson kapitali nazariyasi iqtisodiy tadqiqotlar orasida jadallik bilan rivojlanayotgan tadqiqot sohalaridan biri sanaladi. Inson kapitali borasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning tahlili inson kapitali borasida nazariy qarashlar va qoidalar shakllanishining uchta bosqichini farqlash imkonini beradi.

Birinchi bosqich 1960 yillarning boshlariga to‘g‘ri keladi va “inson kapitali” tushunchasining paydo bo‘lishi bilan izohlanadi. Mazkur bosqichda inson kapitali tushunchasi bilim ko‘nikma, shaxs qobiliyatlari nuqtai nazaridan “tor” talqin qilinishi bilan ajralib turadi. Ushbu davrda inson kapitali tushunchasini tadqiq qilish bilan bog‘liq ishlar sirasiga Xekman, 1963; Hermanson, 1964; keyinchalik Bekker, 1993; Topel, 1990; Biati, Smit, 2010 kabi olimlarning ishlarini kiritishimiz mumkin. Sal keyinroq esa, inson kapitalini tahlil qilishda moliyaviy usul va vositalardan foydalanishga katta e’tibor qaratila boshlangan.

Ikkinchi bosqich 1970-1990-yillar oralig‘iga to‘g‘ri keladi va mazkur bosqich bir tomondan, inson kapitalini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning pasayishi bilan, ikkinchi tomondan esa, inson kapitali tuzilmasining murakkablashishi bilan tavsiflanadi, bunda aholining mehnat faolligini oshirish, ishchi va xizmatchilarning mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash, mehnat bozoridagi mavjud o‘zgarishlarga tegishli ma’lumotlarni izlab topishga bo‘lgan qiziqishning ortishi, sog‘liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik va shaxsiy rivojlanishga investitsiya kiritishning kuchayishi kuzatiladi.

Uchinchi bosqich inson kapitalining tadrijiy taraqqiyoti sifatida 1990 yillarning boshidan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga qamrab oladi va bunda “inson kapitali” milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy manbai sifatida “keng” talqin qilinadi. Shuni ta’kidlash kerakki, XXI asrning boshiga kelib, inson kapitali tushunchasini talqin qilishda tarkib va tuzilma jihatdan o‘zgarishi ro‘y berdi, bunda inson kapitali dastlab ta’lim, sog‘liq darajasi va kasbiy harakatchanlikdan iborat, deb hisoblangan bo‘lsa, keyinchalik u xodimning motivlari, majburiyatlari va xulq-atvor jihatlari bilan boyitildi. Davrlar kesimida “inson kapitali” tushunchasining o‘zgarishini tavsiflaydigan bo‘lsak quyidagicha manzara namoyon bo‘ladi, jumladan bosqichlar davriyligi o‘zgarib borishi asnosida inson kapitalining tuzilmasi yanada murakkablashdi. Inson kapitalini baholashda ham o‘zgarishlar yuz berdi: dastlab mavjud bo‘lgan moliyaviy jihatlarni hisobga olgan ko‘rsatkichlar inson kapitalining nomoddiy jihatlarini tavsif-lovchi ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirildi. Bundan tashqari, nafaqat inson kapitalining qiymati, balki u tomonidan yaratilgan qo‘shimcha qiymatni ham o‘lchash imkoniyati paydo bo‘ldi.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. **Fan predmeti (Discipline Subject) –** Iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirish jarayonlarini tahlil qilish, ularga ta’sir etuvchi omillar, mexanizmlar va davlat siyosati yo‘nalishlarini o‘rganish.
2. **Fan maqsadi (Goal of the Discipline)** – Iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirishga yo‘naltirilgan ilmiy yondoshuvlarni ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash.
3. **Fan vazifalari (Objectives of the Discipline)** – Iqtisodiy o‘sish va kambag‘allikni kamaytirishga oid ilmiy nazariyalarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish, ijtimoiy-iqtisodiy tizimning samaradorligini oshirish.
4. **Iqtisodiy samaradorlik (Economic Efficiency)** – Iqtisodiy tizimning resurslardan maksimal darajada foydalanish ko‘rsatkichi.
5. **Barqaror rivojlanish (Sustainable Development)** – Ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda uzoq muddatli rivojlanish.
6. **Kambag‘allikni qisqartirish (Poverty Reduction)** – Aholining past daromadli qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va ularni iqtisodiy faoliyatga jalb etish orqali kambag‘allik darajasini kamaytirish.
7. **Ijtimoiy farovonlik (Social Welfare)** – Jamiyatning barcha qatlamlarini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash.
8. **O‘zbekistonning iqtisodiy siyosati (Economic Policy of Uzbekistan)** – Davlatning iqtisodiy rivojlanishni va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan strategiyalari.
9. **Tugallangan iqtisodiy model (Completed Economic Model)** – Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan to‘liq strategik model.
10. **Inson kapitali (Human Capital)** – Aholining bilim, malaka, sog‘liq va boshqa shaxsiy resurslari, ularning iqtisodiy rivojlanishdagi roli.

Takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadlari qanday?
2. Kambag‘allikni qisqartirish uchun qanday asosiy iqtisodiy tamoyillar mavjud?
3. Iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qanday?
4. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli qanday bo‘lishi kerak?
5. Kambag‘allikni aniqlash va uning o‘lchovlari qanday amalga oshiriladi?
6. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allikni qisqartirish uchun qanday iqtisodiy strategiyalar qo‘llaniladi?

7. Ijtimoiy himoya tizimlarining kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni qanday?

8. Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) va kambag‘allikni qisqartirish o‘rtasidagi aloqani qanday tushunish mumkin?

9. Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy adolatni ta’minlash o‘rtasidagi muvozanatni qanday saqlash kerak?

10. Xalqaro tashkilotlar va donor mamlakatlarning kambag‘allikni qisqartirishdagi roli qanday?

III BOB. MILLIY TARAQQIYOTNI TA’MINLASHDA DAVLATNING IQTISODIY SIYOSATI

3.1.Makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash.
3.2.Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari.
3.3.Makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash.

3.1.Makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash

Xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashish Xalqaro Valyuta fondi, Jahon Banki, Osiyo taraqqiyoti banki kabi xalqaro moliya tashkilotlar faoliyatiga qatnashish bir qancha qoidalarga rioya qilishni talab etadi. Bulardan biri bo‘lib mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini tahlil qilganda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini bir xil usul va uslublarda hisoblash kiradi. Mamlakatni iqtisodiy holatini, o‘tkazilayotgan joriy chora tadbirlarini zarurligini, samarasini baholashda iqtisodiy tahlil juda katta ahamiyatga ega. Tahlilni muhim vazifalaridan biri bo‘lib mamlakatda sodir bo‘layotgan jarayonlarni modellashtirishning sifatini oshirish, o‘tkazilayotgan iqtisodiy siyosatni natijalarini aniqlashdir. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash asosiy ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liqliklarini aniqlab berishga yordam beradi.

Ushbu muammoli ma’ruzalar matnlarini vazifasi bo‘lib, milliy iqtisodiyotni ko‘rsatkichlarini baholash va monitoring o‘tkazishda foydalanadigan usullari to‘plamini o‘rgatish hisoblanadi. Darslikda mamlakatda ishlab chiqarishdagi tovar va xizmatlarni jami xajmini hisoblash, inflyasiya sur’atlarini, ishsizlik darajasini, to‘lov balansini saldosini va valyuta almashtiruv kursini tahlil qilish usul va uslublari Hamda ularni prognoz qilish muammolari va ularni echimini topish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

Makroiqtisodiy tahlil ko‘rsatilgan iqtisodiy agregatlarni o‘zgarishlarini tushuntirib, iqtisodiyotda kutilmagan o‘zgarishlarni oldini olish va chora tadbirlarni ko‘rish uchun mamlakat mamuriyatiga belgilani ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘ygan. Mamlakatda sodir bo‘ladigan xollarni aniq tahlili va undan keyingi zarur bo‘ladigan siyosatni ishlab chiqish, aniq iqtisodiy va statistik ma’lumotlari sistematik ravishda to‘planishni talab etadi.

Maqsadi - hisobot asoslarini o‘rgatish va mamlakat iqtisodiyotida daromad va boyliklarni taqsimotiga, ishlab chiqaruvchilarni va iste’molchilarni faoliyatiga ta’sir etuvchi, byudjet-soliq, pul-kredit siyosatlarni, to‘lov balansini va tashqi qarzni tahlil qilinayotganda asosiy konsepsiyalar, davlat xarajatlari va kapital qarz siyosati bilan tanishtiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy-ijtimoiy prognozlashtirish-bu, o‘tmishni, hozirgi zamonning rivojlanish qonuniyatlari, tendensiyalariga asoslangan holatda kelajakni oldindan ilmiy bilish va istikboldagi rivojlanish

maqsadlarini va vazifalarini aniqlashdan iborat. Prognozlashtirish mamlakat iqtisodiyotini boshqarish nazariyasi va amaliyotida katta ahamiyatga ega. Bu fan boshqaruv echimlarni tanlashda asos bo‘lib xizmat qiladi, kelajak maksadlariga erishish uchun hozirgi paytda iqtisodiy jarayonlarga ta’sir etish yullarini aniqlaydi.

”Prognozlash” - bu iqtisodiyotni tartibga solish jarayonining yana bir bosqichi yoki mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish dasturini ishlab chiqishning bir qismidir. Shu bilan birga bu nisbatan mustaqil fan bo‘lib, o‘ziga xos bir qancha belgilari bilan farqlanadi: prognozlar direktiv harakterga ega emas, ularning mikdor baholari asosan ehtimollik harakteriga ega, ular ko‘proq darajada sodir bo‘lgan rivojlanish muamolarini aniqlashga va ularni echish yullarini izlashga qaratilgan.

Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashning predmeti - prognozlashtirish ob’ektining rivojlanish qonuniyatini o‘tmishi asosida o‘rganib, butun bir iktisodiy majmua va uning tarkibiy kismlari ob’ektiv asoslangan rivojlanish holatlari va tendensiyalarining vaqt va fazodagi miqdor va sifat darajalarini aniqlashdir.

Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashning asosiy vazifasi jamiyatni iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanish yullarini real baholash, bu rivojlanishning maqbul boshqaruv echimlarini ilmiy asoslash uchun ustivor variantlarni aniqlashdir. Bundan tashqari, u iqtisodiyotning rivojlanish yunalishlarini miqdor va sifat jihatdan tahlil qiladi, muamolarni, yangi jarayon va holatlarni o‘rganadi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning ehtimoli yunalishlarini belgilaydi, imkoniyatlarni baholaydi, ijtmoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va boshqa chora-tadbirlarni hayotga tatbiq etadi, samarasini aniqlaydi, ijtimoiy iqtisodiy va ilmiy-texnik bosh yunalishlarni asoslaydi.

Makroiqtisodiy tahlilning predmeti sifatida milliy iqtisodiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari, iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi universal bog‘liqliklarning o‘ziga xos shakllari, iqtisodiy siyosatning turli vositalaridan foydalanishda amal qiladigan sabab-oqibat mexanizmlari, shuningdek, ichki iqtisodiyot hamda tashqi dunyoning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’siri ishtirok etadi.

Makroiqtisodiy tahlil davlat iqtisodiy siyosatining asosiga aylanib bormoqda. Iqtisodiy siyosat - davlat va jamoat institutlarining makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishga erishish maqsadida iqtisodiy jarayonlarga tuzatishlar kiritishga yo‘naltirilgan harakatlari tizimi. Ta’kidlash lozimki, huddi makroiqtisodiyot kabi, makrotahlil ham pozitiv va normativ tarkibiy qismlarni o‘zida mujassam etgan. Pozitiv tarkibiy qism «Nima sodir bo‘layapti?» degan savolga javob beradi va prognoz qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi (bunda muayyan faktlar, nisbatlar va raqamlardan foydalaniladi). Normativ tarkibiy qism «Qanaqa bo‘lishi

kerak?» degan savolga javob beradi va iqtisodiy siyosat vositalarini ishlab chiqish orqali vaziyatni to‘g‘rilashga yordam beradi.

Ushbu ikkita tarkibiy qismning uyg‘unlashuvi siyosiy tizimdan qat’i nazar har qanday mamlakatning iqtisodiy ahvolini makroiqtisodiy tahlil qilishda namoyon bo‘ladi. Mamlakatlarning iqtisodiy siyosatidagi farqlar birinchi galda pozitiv va normativ tarkibiy qismlarning ulushi bilan belgilanadi. Davlat tomonidan tartibga solish tarafdorlarida normativ yondashuv yaqqol ifodalangan, liberallarda esa bilim orttirishga (pozitiv) yo‘naltirilganlik ustunlik qiladi, ular ko‘proq bozorning kuchiga ishonib, bozor erkinligini nazarda tutadi, davlat tomonidan ta’sir etishning bilvosita, tuzatish kirituvchi vositalaridan foydalanishni afzal ko‘radi:

- iqtisodiy vaziyatni monitoring qilish;
- iqtisodiyotda amal qiluvchi sababli-oqibatli mexanizmlarni tahlil qilish;
- moliyaviy oqimlarni tadqiq etish asosida iqtisodiyot sektorlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni o‘rganish;
- iqtisodiy siyosatni tadqiq etish va yangi iqtisodiy strategiya variantlarini ishlab chiqish (makroiqtisodiy tuzatishlar kiritish dasturlarini ishlab chiqish);

Ma’lumki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida bir qator institutsional tarkibiy o‘zgarishlarni, xususan, mavjud makroiqtisodiy imkoniyatlardan oqilona foydalanish, pul-kredit siyosati, byudjet-soliq siyosati hamda to‘lov balansini, real iqtisodiy sektor va makroiqtisodiy jarayonlarning prognozlash va boshqalarga bo‘lgan talabini chuqurroq o‘rganish, iqtisodiy tejamkorlikni kuchaytirish masalalarini ommaviy hal qilish lozim. Maqsadga erishish uchun avvalo, har bir sektor va bo‘lim faoliyatining atroflicha, chuqur tahliliga asoslanib, ichki imkoniyatlardan toboro unumliroq foydalanishga, kamroq xarajat qilib, yuqori natijalarga erishishga, ilg‘or tajribalarni joriy etishga, ilg‘orlarning tashabbuslarini ommalashtirishga alohida e’tibor berish, sifat ko‘rsatkichlarini muttasil yaxshilab borish kerak.

Bu makroiqtisodiy jarayonlarning ish sharoitini hisobga olib, iqtisodiy qonunlarning barcha talablari to‘liq bajarilishi ustidan nazoratni, shuningdek, foydalanilmayotgan imkoniyatlarni izlab topib, ishga solishni aniqlashni taqozo qiladi. Bunda esa makroiqtisodiy tahlil muhim ahamiyat kasb etadi.

Makroiqtisodiy tahlilning asosiy bo‘limlari quyidagilar: makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirishning uslubiy asoslari, makroiqtisodiy jarayonlarning iqtisodiy tahlilini o‘rganish, uni yanada rivojlantirish, takomillashtirish, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish, erishilgan muvaffaqiyatlarni keng yoyish va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarning

sabablarini o‘rganish hamda ularni imkoni boricha tugatishga yordam berishdan iborat. Shunday qilib, makroiqtisodiy tahlilning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy tahlil va prognozlashning ilmiy asoslari o‘rganish;
- makroiqtisodiy tahlilning uslubiyoti va usullari har tomonlama o‘rganish;
- makroiqtisodiy tahlil va prognozlashning axborot ta’minotini mustahkamlash choralarini ko‘rish, kamchiliklarni o‘z vaqtida oldini olish;
- real sektorning batafsil o‘rganish asosida rejaning bajarilishiga baho berish;
- to‘lov balansining iqtisodiy tahlilga ta’sir qilgan omillar va ularning sabablarini o‘rganish;
- byudjet-soliq sektorining makroiqtisodiy tahlilini qilish va undagi o‘zgarishlarni amaliyotga tadbiq etishni o‘rganish;
- pul-kredit sektorining iqtisodiy tahlil qilish va ilg‘or tajribalarga tayangan holda rivojlantirish va mustahkamlashga yordam beradigan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- bandlik, ishsizlik va inflyasiya darajasining iqtisodiy tahlil yakuniga ko‘ra, ish natijalariga ta’sir qilgan omillar va sabablarni o‘rganish;
- makroiqtisodiy jarayonlarning kelajak holatini aniqlash, prognoz modellari va usullarini to‘liq o‘rganish;
- aniq ob’ekt misolida prognozlashni amalga oshirishni o‘rganish.

Makroiqtisodiy tahlil shunday vositadirki, uning yordamida makroiqtisodiy tahlil axborot ta’minoti, real sektor, to‘lov balansi, byudjet-soliq siyosati, pul- kredit siyosati, bandlik, ishsizlik va inflyasiya darajalar ustidan nazorat yuritish mumkin bo‘ladi.

Bulardan biri mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish va prognozlashda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni bir xil usul va uslublarda hisoblashdir. Darhaqiqat, mamlakatning iqtisodiy holatini, o‘tkazilayotgan joriy chora-tadbirlarning zarurligini, ularning samarasini baholashda, istiqbolini aniqlashda iqtisodiy tahlil va prognozlash juda katta ahamiyatga ega. Tahlilning muhim vazifalaridan biri mamlakatda sodir bo‘layotgan jarayonlarni modellashtirishning sifatini oshirish, o‘tkazilayotgan iqtisodiy siyosat natijalarini aniqlashdir. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash asosiy ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liq jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashning vazifasi milliy iqtisodiyot ko‘rsatkichlarini baholash va monitoring o‘tkazishda foydalanadigan usullar majmuini o‘rganishdir. Shu maqsadda unda mamlakatimizda ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning jami hajmini hisoblash, inflyasiya sur’atlarini, ishsizlik darajasini, to‘lov balansi saldosini va valyuta almashtiruv kursi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish usul va uslublari bayon

etilgan.

Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash ko‘rsatilgan iqtisodiy agregatlar o‘zgarishlarini tushuntirib, iqtisodiyotda kutilmagan o‘zgarishlarning oldini olish va bu borada tegishli chora-tadbirlarni, yo‘llarni taklif etish maqsadiga asoslangan. Mamlakatda sodir bo‘ladigan holatlarning aniq tahlili va bu jarayonda zarur bo‘ladigan iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish aniq iqtisodiy va statistik ma’lumotlarni izchillik bilan to‘plashni talab etadi.

Makroiqtisodiy tahlil, yuqorida ta’kidlanganidek, iqtisodiyotning to‘rtta sektorini tahlil qilishga qaratilgan: real (xususiy), davlat (byudjet), pul va tashqi. Real sektor - unda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va ularni iste’mol qilish amalga oshiriladigan sektor. Real sektorning asosiy sub’ektlari bo‘lib uy xo‘jaliklari va korxonalar hisoblanadi.

Uy xo‘jaliklari resurslar bozoriga er, mehnat resurslari va kapitalni etkazib beradi, tovarlar bozorida tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talabni yuzaga keltiradi. Uy xo‘jaliklari, o‘zining yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyat va uni o‘zgartirish istiqbollari haqidagi tasavvuriga asoslangan holda iste’mol qilish, jamg‘arish va moliyaviy bozorlarda investitsiyalarga qancha summa sarflash haqida qarorlar qabul qiladi.

Pul sektori iqtisodiyotni moliyaviy xizmatlar bilan ta’minlaydi. Ushbu sektorga asosan moliyaviy vositachilik bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar, bank tizimi va boshqa moliyaviy muassasalar, shu jumladan fondlar, kredit shirkatlari, pensiya jamg‘armalari va sug‘urta kompaniyalari kiradi.

Davlat sektorining iqtisodiy roli samarali normativ-huquqiy bazani yaratish, muayan ijtimoiy ne’matlarni (masalan, ta’lim, infratuzilma va ijtimoiy himoyalash tizimi) taqdim etish, soliq tizimini nazorat qilish va davlat xarajatlarini boshqarishdan iborat.

Va nihoyat, tashqi sektor iqtisodiyotning norezidentlar bilan barcha operatsiyalarini birlashtiradi. Har bir sektor ichidagi va sektorlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy bitimlar quyidagi asosiy makroiqtisodiy hisoblarda qayd etiladi:

- milliy hisoblar tizimi,
- to‘lov balansi,
- monetar hisoblar
- byudjet sektori hisoblari.

Makroiqtisodiy tahlilning asosiy bo‘limlari quyidagilar: makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirishning uslubiy asoslari, makroiqtisodiy jarayonlarning iqtisodiy tahlilini o‘rganish, uni yanada rivojlantirish, takomillashtirish, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish, erishilgan muvaffaqiyatlarni keng yoyish va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarning sabablarini o‘rganish hamda ularni imkoni boricha tugatishga yordam berishdan iborat. SHunday qilib, makroiqtisodiy tahlilning vazifalariga quyidagilar kiradi:

•iqtisodiy tahlil va prognozlashning ilmiy asoslari o‘rganish;

•makroiqtisodiy tahlilning uslubiyoti va usullari har tomonlama o‘rganish;

•makroiqtisodiy tahlil va prognozlashning axborot ta’minotini mustahkamlash choralarini ko‘rish, kamchiliklarni o‘z vaqtida oldini olish;

•real sektorning batafsil o‘rganish asosida rejaning bajarilishiga baho berish;

•to‘lov balansining iqtisodiy tahlilga ta’sir qilgan omillar va ularning sabablarini o‘rganish;

•byudjet-soliq sektorining makroiqtisodiy tahlilini qilish va undagi o‘zgarishlarni amaliyotga tadbiq etishni o‘rganish;

•pul-kredit sektorining iqtisodiy tahlil qilish va ilg‘or tajribalarga tayangan holda rivojlantirish va mustahkamlashga yordam beradigan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

•bandlik, ishsizlik va inflyasiya darajasining iqtisodiy tahlil yakuniga ko‘ra, ish natijalariga ta’sir qilgan omillar va sabablarni o‘rganish;

•makroiqtisodiy jarayonlarning kelajak holatini aniqlash, prognoz modellari va usullarini to‘liq o‘rganish;

•aniq ob’ekt misolida prognozlashni amalga oshirishni o‘rganish.

Bu vazifalarning bajarilishini ta’minlash uchun makroiqtisodiy tahlil ob’ektiv va aniq bo‘lishi, muntazam o‘tkazilib turilishi lozim.

3.2.Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish mamlakat ichida iqtisodiy o‘sishning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi va ularning o‘ziga xos ixtisoslashuvi jarayonini anglatadi. Har bir mintaqaning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, infratuzilmasi, demografik tarkibi va iqtisodiy sharoitlari uning rivojlanish darajasi va yo‘nalishini belgilaydi.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida va O‘zbekistonda mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Urbanizatsiya jarayonining jadallashishi, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarining o‘sishi, investitsiyalar hajmining ortishi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va yashil iqtisodiyot tamoyillariga o‘tish mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlariga aylangan.

Shuningdek, hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ichki hamda tashqi bozorlarga chiqish strategiyalarini ishlab chiqish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendensiyalarini tahlil qilish, uning omillari va istiqbollarini aniqlashga qaratilgan.

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish turli hududlardagi iqtisodiy o‘sish, resurslarni taqsimlash, sanoat va infratuzilma rivoji bilan bog‘liq jarayonlarni anglatadi. Mintaqalarning iqtisodiy o‘sishi ularning tabiiy, geografik va infratuzilma salohiyatiga bog‘liq ravishda turli yo‘nalishlarda ixtisoslashuvi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon quyidagi asosiy omillar orqali amalga oshirilmoqda:

Hududiy iqtisodiy o‘sish va ixtisoslashuv:

- Ayrim mintaqalar sanoat, qishloq xo‘jaligi yoki xizmat ko‘rsatish sohalariga ixtisoslashmoqda.
- Urbanizatsiya jarayoni iqtisodiy markazlarni rivojlantirib, xizmatlar va ishlab chiqarishning konsentratsiyasini kuchaytirmoqda.

Mintaqaviy ixtisoslashuv va sohalarning rivojlanishi ayrim hududlar sanoat markazlariga aylanib, yirik ishlab chiqarish klasterlari shakllanmoqda. Masalan, metallurgiya, avtomobilsozlik, neft va gaz sanoati ma’lum mintaqalarda yuqori darajada rivojlanmoqda.Qishloq xo‘jaligiga mos mintaqalar dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirib, agrobiznes klasterlarini tashkil qilmoqda.Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlangan hududlarda turizm, logistika, axborot texnologiyalari va moliyaviy xizmatlar kengaymoqda.

Urbanizatsiya va iqtisodiy markazlarning rivojlanishi.Katta shaharlar iqtisodiy faollikning asosiy drayveriga aylanib, ishlab chiqarish, xizmatlar va savdo sohalarini jalb qilmoqda.Katta iqtisodiy markazlar atrofida sun’iy urbanizatsiya jarayoni yuz berib, aholi zich joylashgan aglomeratsiyalar shakllanmoqda.Infratuzilmaning rivojlanishi urbanizatsiya jarayonini tezlashtirib, transport, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari va turar joy bozorini kengaytirmoqda.

Innovatsion klasterlarning rivojlanishi.Ilmiy-texnologik markazlarga ega bo‘lgan shaharlar va mintaqalar innovatsion biznes muhitini shakllantirmoqda.Texnoparklar va tadbirkorlik markazlari ilmiy izlanishlarni amaliyotga joriy qilish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynamoqda.Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektga asoslangan ishlab chiqarish tizimlari innovatsion klasterlar orqali joriy etilmoqda.Mintaqaviy iqtisodiy o‘sish va ixtisoslashuv jarayoni tarmoqlar bo‘yicha resurslarni taqsimlash hamda urbanizatsiyani jadallashtirish orqali amalga oshmoqda. Innovatsion klasterlarning shakllanishi esa iqtisodiy samaradorlikni oshirish va global bozorda raqobatbardoshlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.Katta shaharlar va sanoat markazlari atrofida innovatsion klasterlar vujudga kelmoqda.

Mintaqaviy iqtisodiyotda investitsiyalar o‘sishi.Mintaqaviy iqtisodiy o‘sishda investitsiyalar hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda investitsion siyosat hududiy infratuzilmani rivojlantirish, yangi sanoat tarmoqlarini tashkil etish va xorijiy kapitalni jalb qilishga

yo‘naltirilmoqda. Ushbu jarayon quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- Xorijiy va mahalliy investitsiyalar hududiy infratuzilmani yaxshilashga yo‘naltirilmoqda.
- Davlat va xususiy sektor hamkorligi (PPP) asosida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.
- Logistika va transport infratuzilmasining rivojlanishi investitsion jozibadorlikni oshirmoqda.

Xorijiy va mahalliy investitsiyalar yo‘nalishi.Xorijiy va mahalliy investorlar tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar hududiy infratuzilmani yaxshilashga xizmat qilmoqda.Mahalliy investorlar tomonidan sanoat zonalari, qishloq xo‘jaligi klasterlari va innovatsion texnoparklar tashkil qilinmoqda.Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq imtiyozlari, preferensiyalar va yer uchastkalari ajratish kabi rag‘batlantiruvchi mexanizmlar joriy etilmoqda.Davlat va xususiy sektor hamkorligi (PPP) asosida loyihalar.Davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli asosida yirik sanoat, energetika, transport va sog‘liqni saqlash loyihalari amalga oshirilmoqda.Xususiy sektor vakillari davlat bilan hamkorlikda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va boshqarishda ishtirok etmoqda.Ijtimoiy sohalarga (ta’lim, sog‘liqni saqlash, kommunal xizmatlar) investitsiyalar kiritilib, ularning samaradorligi oshirilmoqda.

Logistika va transport infratuzilmasining rivojlanishi.Avtomobil yo‘llari, temir yo‘l magistrallari va havo transporti infratuzilmasining kengayishi investitsion jozibadorlikni oshirmoqda.Yangi erkin iqtisodiy zonalar va xalqaro savdo markazlari ochilishi natijasida mintaqalar savdo va logistika markazlariga aylanmoqda.Transport yo‘nalishlarining modernizatsiya qilinishi ishlab chiqarish tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida integratsiyani kuchaytirmoqda.Mintaqaviy iqtisodiy o‘sishda investitsiyalar muhim omil bo‘lib, ular infratuzilmani rivojlantirish, sanoatni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish va transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirish mintaqalararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi va hududlarning investitsion jozibadorligini oshiradi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va innovatsiyalarSo‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar hududiy iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lib qoldi. Zamonaviy texnologiyalar tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va aholi farovonligini yaxshilash imkonini bermoqda. Bu jarayon quyidagi asosiy yo‘nalishlarda rivojlanmoqda

- Hududiy biznes subyektlari zamonaviy texnologiyalarga asoslangan raqamli iqtisodiyotni joriy qilmoqda.

- Elektron savdo, fintech xizmatlari va raqamli ekotizimlar rivojlanmoqda.
- Smart-shahar loyihalari aholining turmush sifatini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Hududiy biznes subyektlarida raqamli iqtisodiyotni joriy etish.Hududiy korxonalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, sun’iy intellekt va big data (katta ma’lumotlar) texnologiyalaridan foydalanishni yo‘lga qo‘ymoqda.O‘zbekistonda mahalliy bizneslar ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarini joriy etib, resurslarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirishga e’tibor qaratmoqda.Hududiy biznes subyektlari uchun elektron hujjat almashinuvi tizimlari, bulutli texnologiyalar va axborot xavfsizligi yechimlari faol tatbiq etilmoqda.Elektron savdo, fintech xizmatlari va raqamli ekotizimlar.Onlayn biznes va elektron savdo platformalari (marketpleyslar) tez sur’atda rivojlanib, mahalliy tadbirkorlik subyektlariga ichki va xalqaro bozorlarga chiqish imkonini bermoqda.Fintech (moliya texnologiyalari) xizmatlari, jumladan, raqamli to‘lov tizimlari, mobil banking, blokcheyn asosidagi moliyaviy xizmatlar keng joriy etilmoqda.Raqamli ekotizimlar orqali kichik va o‘rta biznes subyektlariga xizmat ko‘rsatish, jumladan, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, marketing va logistika xizmatlari kengaymoqda.Smart-shahar loyihalari va aholi turmush sifatining oshishi.O‘zbekistonning yirik shaharlarida “Smart City” (aqlli shahar) konsepsiyasi asosida transport, energiya samaradorligi, xavfsizlik va sog‘liqni saqlash sohalarida raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda.Aqlli transport tizimlari (masalan, yo‘l harakati monitoringi va aqlli svetoforlar) avtomobil qatnovini yaxshilash va tirbandlikni kamaytirishga xizmat qilmoqda.“Aqlli uy” tizimlari va IoT (Internet of Things – narsalar interneti) texnologiyalari aholining energiya iste’moli samaradorligini oshirish va ekologik tozalikka erishishga imkon yaratmoqda.Raqamli ta’lim tizimlari va onlayn kurslarning rivojlanishi aholining bilim va malakasini oshirishga xizmat qilmoqda.Raqamli iqtisodiyot hududiy tadbirkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron savdo va fintech xizmatlari biznesning samaradorligini oshirsa, “aqlli shahar” loyihalari aholi turmush darajasini yaxshilashda muhim rol o‘ynamoqda. Kelajakda raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy taraqqiyotga yanada katta hissa qo‘shish mumkin bo‘ladi.Ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikning kamayishi bo‘yicha tahlil.

Birinchidan, davlat tomonidan hududiy tengsizlikni kamaytirish choralari hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim jihatlaridan biri – iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishdir. Shu maqsadda davlat hududlararo tafovutlarni qisqartirish uchun subsidiyalar va soliq imtiyozlari joriy etmoqda. Jumladan:

- Hududiy subsidiyalar – iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan hududlarga moliyaviy ko‘mak ajratish orqali ularning sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish.
- Soliq imtiyozlari – biznes va ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida ayrim hududlarda tadbirkorlik subyektlari uchun soliq yengilliklari taqdim etilmoqda. Masalan, erkin iqtisodiy zonalarda (EIZ) soliq imtiyozlari joriy etilgan.

Ikkinchidan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilmaning rivojlanishi ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi bevosita iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Bunda quyidagilar muhim rol o‘ynaydi:

- Ta’lim tizimini yaxshilash – hududlarda oliy va kasb-hunar ta’lim muassasalarining soni oshirilmoqda, zamonaviy o‘quv dasturlari joriy etilmoqda.
- Sog‘liqni saqlash xizmatlarining sifati oshirilmoqda – hududiy shifoxonalar modernizatsiya qilinib, zamonaviy diagnostika va davolash usullari joriy etilmoqda.
- Yo‘l-transport va infratuzilma loyihalari – chekka hududlarda avtomobil va temir yo‘llar, elektr va internet tarmoqlari rivojlantirilmoqda.

Uchinchidan, bandlikni oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish hududlarda ishsizlik darajasini pasaytirish ham ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Buning uchun:

- Mahalliy bandlik dasturlari – davlat va xususiy sektor hamkorligida yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. Masalan, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish sohalarida subsidiya asosida ish o‘rinlari ochilmoqda.
- Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash – kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun davlat tomonidan imtiyozli kreditlar va grantlar ajratilmoqda. Xususan, “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilmoqda.
- Ayollar va yoshlar bandligini oshirish – ayollar va yoshlarning mehnat bozoriga kirib kelishini yengillashtirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Hududiy rivojlanish dasturlari, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, bandlikni oshirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash kabi choralar orqali aholi o‘rtasidagi farq kamaytirilib, iqtisodiy barqarorlik ta’minlanmoqda.

Barqaror rivojlanish va ekologik omillar.Barqaror rivojlanish bugungi global iqtisodiy tendensiyalar orasida muhim o‘rin egallab, ekologik toza va samarali iqtisodiy faoliyatni ta’minlashga qaratilgan. Hududiy rivojlanish kontekstida ekologik barqarorlik iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydigan

va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiradigan strategiyalarni o‘z ichiga oladi.

1. Yashil iqtisodiyot tamoyillariga o‘tish

Ko‘pgina mintaqalar yashil iqtisodiyot (Green Economy) tamoyillariga asoslangan holda rivojlanmoqda. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Ekologik toza ishlab chiqarish – sanoat va ishlab chiqarish sohalarida chiqindilarni kamaytirish, suv va energiya resurslarini samarali ishlatish.
- Uglerod chiqindilarini kamaytirish – korxonalar tomonidan uglerod chiqindilarini pasaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinmoqda.
- Ekologik sertifikatlash tizimi – ishlab chiqaruvchilarga ekologik talablar asosida sertifikatlash tizimi joriy qilinmoqda.

2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish

So‘nggi yillarda mintaqaviy iqtisodiyotda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sezilarli darajada kengaymoqda. Bunga quyidagilar kiradi:

- Quyosh va shamol energiyasidan foydalanish – elektr energiyasiga bo‘lgan talabni qondirish uchun quyosh panellari va shamol generatorlaridan keng foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda.
- Biogaz va biomassa texnologiyalari – qishloq xo‘jalik chiqindilaridan energiya olish texnologiyalari rivojlantirilmoqda.
- Suv energiyasidan foydalanish – gidroelektr stansiyalar (GES) qurish orqali ekologik toza energiya ishlab chiqarish hajmi oshmoqda.

3. Ekologik toza qishloq xo‘jaligi va turizmni rivojlantirish

Ekologik muhofaza va yashil texnologiyalar qishloq xo‘jaligi va turizm sohalarida ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda:

- Organik dehqonchilik – kimyoviy o‘g‘it va pestitsidlardan minimal foydalanib, organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish rivojlantirilmoqda.
- Ekoturizm – tabiiy muhitni asrash bilan birga sayyohlarni jalb etish uchun ekologik sayyohlik loyihalari amalga oshirilmoqda.
- O‘rmon va tabiiy resurslarni muhofaza qilish – hududiy iqtisodiyotda tabiiy muhitni asrash va bioxilmaxillikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Barqaror rivojlanish mintaqaviy iqtisodiyotning kelajakdagi rivojlanishida muhim omil bo‘lib, ekologik toza texnologiyalar va energiya manbalaridan foydalanish, yashil iqtisodiyot tamoyillariga o‘tish va ekologik qishloq xo‘jaligi va turizmning rivojlanishi bu yo‘nalishdagi asosiy strategiyalardir. Bu chora-tadbirlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Tashqi savdo va mintaqalararo integratsiya.Tashqi savdo va mintaqalararo iqtisodiy integratsiya hududiy rivojlanishning muhim

yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy o‘sish, investitsiyalar jalb qilish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish uchun strategik asos yaratadi.

Tashqi savdo hajmini oshirish va xalqaro bozorlarga chiqish strategiyalari.So‘nggi yillarda mintaqalar o‘z mahsulotlarini xalqaro bozorlarga chiqarish va tashqi savdo hajmini oshirish bo‘yicha quyidagi strategiyalarni ishlab chiqmoqda:

- Eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish – mahalliy mahsulotlarni eksport qilish uchun yangi bozorlar ochish va eksportni rag‘batlantirish dasturlarini joriy etish.
- Eksportchilarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari – eksport qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar ajratish.
- Xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish – eksport qilinadigan mahsulotlarni xalqaro sertifikatlarga moslashtirish va global bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish.

Transchegaraviy hamkorlik va eksport salohiyatini oshirish.Transchegaraviy hamkorlik iqtisodiy o‘sishning muhim vositalaridan biri bo‘lib, qo‘shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

- Qo‘shni davlatlar bilan savdo hajmini oshirish – chegara hududlarida savdo markazlari va logistika xablarini tashkil qilish orqali eksport-import operatsiyalarini rivojlantirish.
- Hududlararo transport va logistika infratuzilmasini takomillashtirish – avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar va transport koridorlarini rivojlantirish orqali tashqi savdo jarayonlarini tezlashtirish.
- Tashqi bozorlarga chiqish uchun biznes-forumlar va xalqaro ko‘rgazmalar tashkil etish – mahalliy tadbirkorlar va eksportchilar uchun yangi bozorlarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini yaratish.

EOII, SHHT va boshqa xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a’zo bo‘lishning ta’siri. Mintaqalar xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a’zo bo‘lish orqali o‘z rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirib, savdo-sotiq, investitsiyalar va texnologik hamkorlikdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

- Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (EOII) – ittifoqqa a’zolik orqali savdo to‘siqlarini kamaytirish va bojxona rasmiyatchiliklarini soddalashtirish.
- Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) – iqtisodiy hamkorlik va infratuzilma loyihalarini qo‘llab-quvvatlash orqali mintaqaviy savdoni rag‘batlantirish.
- Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) va boshqa xalqaro iqtisodiy tashkilotlar – tashqi savdo rejimlarini optimallashtirish va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatini taqdim etadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda tashqi savdo va iqtisodiy integratsiya muhim rol o‘ynaydi. Tashqi bozorga chiqish, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro

iqtisodiy tashkilotlarga integratsiyalashuv mintaqalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayonda:

- Eksportni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari joriy qilinishi;
- Logistika va transport infratuzilmasining rivojlantirilishi;
- Transchegaraviy iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash;
- Xalqaro tashkilotlar bilan integratsiyani kuchaytirish asosiy vazifalar sifatida belgilanmoqda.

Bularning barchasi mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni oshirish va aholining farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish mamlakat iqtisodiy barqarorligi va aholining farovonligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Har bir hududning iqtisodiy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mintaqalar barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha shakllanmoqda:

Hududiy iqtisodiy o‘sish va ixtisoslashuv – sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi.Investitsiya faolligining ortishi – davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida loyihalar amalga oshirilishi, xorijiy investitsiyalar jalb etilishi va infratuzilmaning rivojlantirilishi.Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar – elektron savdo, fintech xizmatlari va smart-shahar loyihalarining joriy etilishi.Ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikning kamayishi – bandlik darajasining oshishi, kambag‘allikka qarshi kurash va hududlararo tafovutlarni qisqartirish.

Barqaror rivojlanish va ekologik omillar – yashil iqtisodiyot tamoyillarining rivojlanishi, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish.Tashqi savdo va mintaqalararo integratsiya – mintaqalar tashqi bozorga chiqishi, transchegaraviy savdo va xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga qo‘shilish.O‘zbekistonda mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish uchun davlat tomonidan ishlab chiqilgan “O‘zbekiston – 2030[5]” strategiyasi, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi (2022-2026)[6] kabi dasturlar muhim rol o‘ynamoqda. Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha davlat tomonidan ajratilgan subsidiyalar, soliq imtiyozlari va infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda.Kelgusida mintaqaviy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida, https://lex.uz/ru/docs/-6600413

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son, https://lex.uz/uz/docs/-5841063

- Mahalliy sanoat klasterlarini shakllantirish – hududlarning o‘ziga xos ixtisoslashuvini kuchaytirish va sanoat korxonalarini qo‘llab-quvvatlash.
- Hududiy investitsion muhitni yaxshilash – xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish.
- Raqamli infratuzilmani rivojlantirish – IT va fintech xizmatlarini kengaytirish, mintaqaviy biznes subyektlarini raqamlashtirish.
- Inson kapitaliga sarmoya kiritish – malakali ishchi kuchini tayyorlash, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish.
- Hududiy hamkorlik va integratsiyani rivojlantirish – tashqi va ichki bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish.

Ekologik barqarorlikni ta’minlash – yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish orqali nafaqat hududlararo tengsizlikni kamaytirish, balki umumiy iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish imkoniyatiga ega. Ushbu jarayonda davlat siyosati, biznes tashabbuslari va innovatsion texnologiyalarning uyg‘unlashuvi mintaqalar farovonligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Makroiqtisodiy indikatorlar (Macroeconomic Indicators) – Iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikni o‘lchash uchun ishlatiladigan asosiy ko‘rsatkichlar, masalan, yalpi ichki mahsulot (GDP), inflyatsiya darajasi, ishsizlik darajasi, davlat budjeti va tashqi savdo.
2. Yalpi ichki mahsulot (GDP) – Mamlakatning barcha tovarlari va xizmatlarining umumiy qiymati, makroiqtisodiy tahlilning asosiy ko‘rsatkichi.
3. Inflatsiya (Inflation) – Pulning qadrsizlanishi va narxlar darajasining umumiy o‘sishi, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatkich.
4. Ishsizlik darajasi (Unemployment Rate) – Ish bilan band bo‘lmagan, ish izlayotgan odamlar ulushi, iqtisodiy faoliyatdagi samaradorlikni ko‘rsatuvchi indikator.
5. Tashqi savdo balansini tahlil qilish (External Trade Balance Analysis) – Eksport va import o‘rtasidagi farqni o‘rganish, mamlakatning tashqi iqtisodiy holatini tahlil qilish.
6. Davlat budjeti (State Budget) – Davlat daromadlari va xarajatlarining umumiy yig‘indisi, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda asosiy vosita.

7. Pul-kredit siyosati (Monetary Policy) – Markaziy bankning iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun pul miqdori va foiz stavkalarini boshqarish siyosati.

8. Solimlar siyosati (Fiscal Policy) – Davlatning soliqlarni o‘rnatish, davlat xarajatlarini belgilash va iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash siyosati.

9. Makroiqtisodiy barqarorlik (Macroeconomic Stability) – Iqtisodiy tizimdagi muvozanatni saqlash, inflyatsiya, ishsizlik va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlarni barqaror darajada tutish.

10. Iqtisodiy prognozlash (Economic Forecasting) – Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni kelajakda tahlil qilish, o‘zgarishlarni oldindan aniqlash va strategik qarorlar qabul qilish.

Takrorlash uchun savollar

1. Davlatning iqtisodiy siyosati milliy taraqqiyotni ta’minlashda qanday rol o‘ynaydi?
2. Milliy taraqqiyotga erishish uchun davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari qanday bo‘lishi kerak?
3. Davlatning iqtisodiy siyosati orqali ish o‘rinlari yaratishning qanday usullari mavjud?
4. Iqtisodiy islohotlar va ularning milliy taraqqiyotga ta’siri qanday baholanadi?
5. Milliy taraqqiyot uchun investitsiya siyosati qanday shakllantiriladi?
6. Davlat iqtisodiy siyosati ijtimoiy tenglikni ta’minlashda qanday rol o‘ynaydi?
7. Barqaror iqtisodiy o‘sish va rivojlanish uchun qanday iqtisodiy siyosat samarali sharoitlar yaratadi?
8. Davlatning soliq siyosati milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
9. Milliy iqtisodiy rivojlanishda davlat byudjeti va moliyaviy siyosatning ahamiyati nimadan iborat?
10. Milliy taraqqiyotni ta’minlashda tashqi iqtisodiy aloqalar va xalqaro hamkorlik qanday rol o‘ynaydi?

IV BOB. IQTISODIY RIVOJLANISH VA INSON TARAQQIYOTI

4.1. Iqtisodiy rivojlanish va inson taraqqiyoti.
4.2. Kambag‘allik tushunchasi mohiyati.

4.1. Iqtisodiy rivojlanish va inson taraqqiyoti

Globallashuv sharoitida jahonning yetakchi davlatlari taraqqiyoti uchun sanoat rivojlanishidan keyingi bosqich xos bo‘lib, bu bosqichda iqtisodiy o‘sish omillarining roli va o‘rni o‘zgarmoqda. An’anaviy hisoblab kelingan uch: mehnat, yer, kapital omillariga fan-texnika taraqqiyoti omili ham qo‘shildi, axborot va bilimlar esa eng muhim resurslarga aylandi. Innovatsion iqtisodiyot bevosita ana shu asosda shakllanib, ushbu iqtisodiyotda inson va uning salohiyati hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

Barqaror rivojlanish maqsadlari -kambag‘al, boy va o‘rtacha rivojlangan barcha mamlakatlar tomonidan harakatga chorlovchi o‘ziga xos da’vatdir. Ular bizning sayyoramizning farovonligi va himoyasini yaxshilashga qaratilgan. Dunyo mamlakatlari qashshoq-likni bartaraf etish choralari iqtisodiy o‘sishni kuchaytirish va ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlikni ta’minlash, shuningdek, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi bir qator muammolarni hal etish bo‘yicha sa’y-harakatlar bilan birgalikda qabul qilinishi zarurligini tan oladilar.

Uzoq vaqt davomida iqtisodiy tafakkur moddiy boylik orttirish sohasida ro‘y berayotgan jarayonlar ta’sirida edi. Moddiy omillarga universal va hal qiluvchi vosita sifatida qaralardi. Iqtisodiy o‘sish mamlakat umumiy boyligini ko‘paytirishga, davlatning qashshoqlik, ochlik, boshqa ijtimoiy muammolarni hal etish bo‘yicha imkoniyat-larini kengaytirishga xizmat qilishi shubhasizdir. Huddi shuning uchun iqtisodiy o‘sishning yuqori darajasi jahondagi ko‘pchilik mamlakat-larda iqtisodiy siyosatning eng asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Moddiy boylik jamiyatda va inson hayotida ulkan rol o‘ynaydi. Daromadlar ortishiga moddiy va ma’naviy qoniqish hosil qilinadigan nufuzli ishda band bo‘lish kabi inson imkoniyatlarini kengaytiradigan asosiy vosita sifatida qaralishi mumkin. Bundan tashqari,daromad soliqlar va boshqa tushumlar manbayi bo‘lib, ular aholining nochor qatlamlari ijtimoiy muhofaza qilinishini kafolatlash, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, ya’ni moddiy ne’matlarni qayta taqsimlashni amalga oshirish uchun zarurdir.

Resurslarni adolatli ravishda taqsimlash jamiyat barcha a’zolari uchun ne’matlarni tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek, turmush sifatini oshirish negizini yaratadi. Daromadlar va inson turmushi o‘rtasidagi

bog‘liqlik soliq–budjet va ijtimoiy siyosat choralarini qamrab oladigan davlat strategiyasi yordamida shakllan-tirilishi kerak.

Shu bilan birga yalpi ichki mahsulot (YaIM) miqdori bilan o‘lchanadigan daromadning o‘zi insonni rivojlantirishning yakka-yu yagona mezoni bo‘la olmaydi. Jahon amaliyotidan faqat YaIM ortishining o‘zi ta’lim darajasi yuksalishi, odamlar salomatligi mustahkamlanishi, inson huquq va erkinliklari ta’minlanishiga olib kelmasligiga doir ko‘plab misollar keltirish mumkin. Hatto daromadlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari deyarli bir xil bo‘lgan mamlakatlarda turmush sifati ko‘rsatkichlari bir-biridan jiddiy ravishda farq qilishi mumkin.

Insonni rivojlantirish konsepsiyasida an’anavaiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, shu jumladan,YaIM hajmi va jon boshiga o‘rtacha daromad ijtimoiy resurslarni taqsimlashda yoki mamlakatlarni rivojlantirish darajasi bo‘yicha tasniflashda universal mezon vazifasini o‘taolmaydi. Tobora ko‘proq miqdorda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish turmush darajasini oshirish hamda boshqa umummilliy vazifalarni eng oqilona hal etish vositasi ekanligi to‘g‘risidagi tasavvurlar muayyan darajada bir yoqlama yondashuvdir.Bunday qarashlar noiqtisodiy hisoblangan ko‘pgina boshqa rivojlan-tirish mezonlariga yetarli darajada baho bermaslikka sabab bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sish sur’atlari rasmiy jihatdan yuqori bo‘lganda ham odamlarning turmush darajasi nisbatan past bo‘lishi mumkin. Buning aksi – iqtisodiy o‘sishdagi natijalar salmoqli bo‘lmaganda ham turmush darajasining nisbatan yuqoriligi ham kuzatiladi.

Jamiyatda sanoat rivojlanishi bosqichidan avval iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda tabiiy va mehnat resurslariga, sanoat rivojlanishi bosqi-chida moddiy resurslarga ustuvorlik berilgan bo‘lsa, sanoat rivojlanishidan keyingi hozirgi bosqichda intellektual va axborot resurslarining roli birinchi o‘ringa chiqmoqda. Jahonning yetakchi mamlakatlari taraqqiyoti yangi –bilimlar, innovatsiyalar, global axborot tizimlari, yangi texnologiyalar va venchur biznesi iqtisodiyotini shakllantirishga olib keldi.

Innovatsion iqtisodiyotning asosini hozirgi davr jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hal qiluvchi kuchi hisoblangan inson kapitali tashkil etadi. Ya’ni inson tafakkuri ishlab chiqarish tizimining shunchaki muayyan unsuri bo‘lib qolmasdan, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi. Dastavval insonni rivojlantirish tushunchasining tarkibiy qismlari u qadar ko‘p bo‘lmasdan,tarbiya, ta’lim, bilim, salomatlikni qamrab olardi. Shu bilan birga uzoq vaqt davomida insonni rivojlantirishga iqtisodiy o‘sish nazariyasi nuqtayi nazaridan taraqqiy etishning ijtimoiy, ya’ni chiqimli omili sifatida qaralardi. Tarbiya, ta’limga investitsiyalar noishlab chiqarish xarajatlari hisoblanardi. XX asr ikkinchi yarmidan boshlab inson kapitali va ta’limga nisbatan munosabat asta-sekin tubdan o‘zgara boshladi. Ijtimoiy rivojlanishda insonga faqat ma’naviy sohadagina emas, balki takror hosil

qilish aloqalarida ham markaziy o‘rin ajratila boshlandi. Zero, bevosita inson avloddan avlodga meros bo‘lib qoladigan bilimlarni egallash va ulardan samarali foydalanish qobiliyatiga egadir.

“Inson kapitali” iqtisodiy kategoriyasida o‘z ifodasini topgan bu g‘oyajahon BMT ekspertlari tomonidan inson salohiyatining insonni rivojlantirish dinamikasiga ta’sirini aniqlaydigan modellar yordamida ishlab chiqilgan yangi “Insoniyatni barqaror rivojlantirish” nazariyalari, “Milliy boylik konsepsiyasi” kabi ijtimoiy tafakkur negizini tashkil etadi. Inson kapitalini rivojlantirish ustuvorligi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham, barqaror iqtisodiyotlar va modernizatsiyani amalga oshirayotgan tizimlar uchun ham universal xususiyatga ega ekanini alohida ta’kidlash lozim. Bu jahonning yetakchi olimlari va xalqaro tashkilotlarning ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan juda ko‘p tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topgan.

Insonni rivojlantirish – odamlarning uzoq va sog‘lom, munosib turmush kechirishlari, ma’lumotli bo‘lishlari uchun zarur vositalardan foydalanishlari imkoniyatlarini kengaytirishdir. Ammo bu imkoniyat-larni odamlarning o‘zlari tanlaydilar. Rivojlantirish jarayoni insonga uning ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiq ravishda o‘zini rivojlan-tirish uchun qulay sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi kerak. Insonni rivojlantirish tushunchasi uning qobiliyati va imkoniyatlarini shunchaki shakllantirishga qaraganda ancha kengroqdir. U shuningdek, bu imkoniyatlardan mehnat jarayonida, dam olish va ijtimoiy faoliyatda foydalanishni ham nazarda tutadi. Imkoniyatlarni shakllantirish va ularni ishga solish o‘rtasida mutanosiblik bo‘lmas ekan, inson salohiyatidan foydalanilmay qolinadi. Insonni rivojlantirishning asosiy mezoni umr ko‘rish davomiyligi, savodxonlik darajasi va resurslardan foydalanish imkoniyatini ifoda etadigan Insonni rivojlantirish indeksidir. Davlatning farovonligi faqat daromad darajasiga emas, balki bu daromaddan qanday foydalanilishiga ham bog‘liqdir.

Daromadlar mo‘may bo‘lishining o‘zi insonni rivojlantirishni kafolatlamaydi. Shunday ekan, insonni rivojlantirishning ikki xususiyati – imkoniyatlarni shakllantirish va ulardan foydalanishni farqlash kerak. Insonni barqaror rivojlantirish faqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlabgina qolmasdan, uning natijalarini adolatli taqsimlashni ham nazarda tutadi. Bunday rivojlanish aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalariga birinchi darajali ahamiyat berilishini, ular imkoniyatlarini kengaytirishni, ularning o‘z turmushlariga ta’sir ko‘rsatadigan qarorlarni qabul qilishda ishtirok etishlarini ta’minlashni nazarda tutadi. Bunday rivojlanish insonlar manfaatini ko‘zlaydi, ular uchun ish joylarni ko‘paytirishga, jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab taraqqiy etgan davlatlarda insonga va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasiga xarajatlar moddiy jamg‘armalar miqdoriga qaraganda yuqoriroq bo‘lmoqda. Ishlab chiqarishga investitsiyalar kiritish qanchalik muhim bo‘lmasin, insonni rivojlantirish uchun sarmoyalarga tobora ko‘proq ustuvorlik beril-moqda. Ya’ni mazkur mamlakatlarda takror hosil qilish jarayonidagi eng jiddiy o‘zgarishlar moddiy ishlab chiqarish sohasidan tashqarida sodir bo‘lmoqda. Insonni rivojlantirish konsepsiyasi nihoyatda ko‘p qirrali, uning inson va jamiyathayotining turli tomonlarida qo‘llanilishi imkoniyatlari keng.

BMT Rivojlanish dasturining har yilgi insonni rivojlantirish to‘g‘risidagi ma’ruzalari va turli mamlakatlarning milliy ma’ruzalari huddi shundan dalolat beradi. BMT Rivojlanish dasturining 1990-yildagi bunday birinchi ma’ruzasida insonni rivojlantirish nazariyasi va uni o‘lchash indikatorlari chuqur ishlab chiqilishi bilan bir qatorda urbanizatsiya muammolariga bag‘ishlangan qism ham mavjud edi. Ana shundan keyingi ma’ruzalar Boblari hayotiy ehtiyojlar, odamlar xavfsizligining turli mezonlari, harbiy xarajatlarni qisqartirish hisobiga ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlari, hamkorlikning yangi yo‘nalishlari, qashshoqlik bilan kurash, ish bilanbandlikka globallashuvning ta’siri, iste’mol modellari, insonni rivojlantirish bilan barqaror ekologik rivojlanish mezonlari o‘rtasidagi bog‘liqlik kabi ko‘pgina masalalarni qamrab olgan. Shu tariqa ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichi insonni faqat ijtimoiy hayotning an’anaviy ma’naviy sohasidagina emas, takror hosil qilish jarayonlarida ham insonga markaziy o‘rinni ajratadi. Bunda inson ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning birlamchi va pirovard maqsadi ekanligi e’tirof etiladi. Ya’ni rivojlantirishning insoniy yoki ijtimoiy mezoni dominanta bo‘lib, moddiy-ashyoviy salohiyat esa bu rivojlanishning sharti deb belgilanmoqda.

2015-yil 25-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida 70/1-sonli “Dunyomizni o‘zgartirish. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi” rezolyutsiyasini qabul qildi va u 2016-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. Ushbu hujjat kompleks xarakterga ega 17 maqsad va 169 vazifani o‘z ichiga olgan bo‘lib, barqaror rivojlanishning har uchta komponenti -iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy integratsiya va ekologik barqarorlik muvozanatini ta’minlaydi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari –kambag‘al, boy va o‘rtacha rivojlangan barcha mamlakatlar tomonidan harakatga chorlovchi o‘ziga xos da’vatdir. Ular bizning sayyoramizning farovonligi va himoyasini yaxshilashga qaratilgan. Dunyo mamlakatlari qashshoq-likni bartaraf etish choralari iqtisodiy o‘sishni kuchaytirish va ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlikni ta’minlash, shuning-dek, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi bir qator muammolarni hal etish

bo‘yicha sa’y-harakatlar bilan birgalikda qabul qilinishi zarurligini tan oladilar.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan so‘ng va Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgach, xalqaro hamjamiyatga qo‘shilishidan kelib chiqadigan majburiyatlarni zimmasiga oldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2021-yil 22-fevral kuni BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida ta’kidlab o‘tganidek, “O‘zbekiston Inson huquqlari bo‘yicha kengash a’zosi sifatida xalqaro huquqning inson huquqlariga oidumume’tirof etilgan prinsip va normalarini qat’iy himoya qiladi va faol ilgari suradi”.

Mamlakatimiz insonni rivojlantirish konsepsiyasini BMTning boshqa a’zolari ham shunday qilganliklari uchungina emas, balki mazkur konsepsiyaning g‘oyalari va qoidalari o‘zbek xalqining ko‘p asrlik hayotiy maqsadlariga mos ekanligi uchun qabul qildi.

Mehnat jarayoni uchta asosiy xususiyatga egadir:

-insonning maqsadga muvofiq faoliyati, ya’ni mehnatning o‘zi;

-mehnat yo‘naltirilgan mehnat predmeti;

-inson mehnat predmetiga ta’sir ko‘rsatishda foydalanadigan mehnat vositasi.

Ammo mehnat faoliyatining asosiy sharti –ish kuchi mavjudligidir. Shu sababli: “Mehnat iqtisodiyoti ish kuchini qayta hosil qilish –uning hosil qilinishi (tayyorlash, ta’lim berish, malakasini oshirish va h.k.) taqsimlash, ayriboshlash va iste’mol qilish sodir bo‘ladigan, shuningdek,xodim, mehnat vositalari va predmetlari o‘zaro munosabatda bo‘lish sharoitlari va jarayonlari ta’minlanadigan ijtimoiy tashkillantirilgan dinamik tizimidir”.

Hozirgi paytda “ish kuchi” kategoriyasi tushunchasi shakllantirilgan: bu inson mehnat faoliyati jarayonida foydalanadigan jismoniy va ma’naviy qobiliyatlarining jamlanmasidir.

Ishchi kuchi atamasi asosan quyidagi tushunchalarni qamrab oladi:

● Insonning ne’matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishda foydalaniladigan jismoniy va ma’naviy qobiliyatlari jamlanmasi.

● “Iqtisodiy faol aholi” kategoriyasining sinonimi bo‘lgan aholining ish bilan band yoki ish qidirayotgan qismi.

● Umuman olganda xodimlar yoki xo‘jalik yurutuvchi subyekt-ning personali.

Insonning mehnat funksiyalari bilan inson qobiliyatlari sifati yo‘nalishi darajasi va rivojlanish ko‘lami o‘rtasida qalin aloqadorlik mavjuddir.

Insonga iqtisodiy hayotning subyekti sifatidagi tasavvurlar rivojlanishining uzoq davom etgan jarayoni natijasida quyidagi qator tushunchalar paydo bo‘ldi:

-mehnat resurslari –butun jamiyatning mehnatga qobiliyati jamlanmasi;

-mehnat salohiyati –barcha sifat xususiyatlari jamlanmasi sifatida qaraladigan ish kuchi;

-inson omili –sifat xususiyatlari jamlanmasi sifatida qaraladigan,amal etayotgan ish kuchi;

-inson kapitali –inson tomonidan ne’matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish jarayonida foydalaniladigan qobiliyat va sifatlar zahirasining jamlanmasi.

4.2.Kambag‘allik tushunchasi mohiyati[7]

Kambag‘allik bugungi kunda global miqyosda eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Turli davlatlardagi siyosiy partiyalar, hukumatlar va jamiyatning barcha qatlamlari bu masalaga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Shu bois, kambag‘allik tushunchasiga aniqlik kiritish va uni turli mezonlar asosida tadqiq qilish muhimdir.Kambag‘allik turli o‘lchov va mezonlarga asoslanib, har xil talqin qilinadi. Shu sababli, bu tushunchani aniqlashda turli xil yondashuvlar paydo bo‘lishi mumkin. Kambag‘allikni har tomonlama o‘rganish va uning turlari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tarixiy nuqtai nazardan, kambag‘allikni tushunish va unga yechim izlash masalasi qadimdan mavjud bo‘lib, unga turli faylasuflar va mutafakkirlar o‘z munosabatlarini bildirgan. Masalan, Xitoy faylasufi Lao Szi:

"Och qolgan odamga baliq bersang, uni bir kun to‘ydirasan. Agar unga qarmoq berib, baliq tutishni o‘rgatsang, uni umrbod ochlikdan xalos qilasan."

degan hikmatli so‘zlari bilan kambag‘allikka qarshi samarali kurash usulini bayon qilgan.Shuningdek, buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiy ham kambag‘allik va iqtisodiy farovonlik haqida shunday fikr bildirgan:

"Bir diram olmoq chekibon dast ranj, Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj."

Kambag‘allik bugungi kunda dunyodagi eng dolzarb muammolar qatoridan joy olgan. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri Jamshid Qo‘chqorov ham bu borada shunday deydi: *"Bizda shu vaqtgacha ‘kambag‘allik’ so‘zi amalda ishlatilmas edi. Ilgari ‘Aholi farovonligini oshirish’ dasturi ishlab chiqilgan, go‘yo bizda kambag‘al yo‘qdek."* Bu fikr

[7] “Yangi O‘zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari”
(E)ISSN: 2181-1784 4(21), May, 2024 www.oriens.uz KAMBAG‘ALLIK TUSHUNCHASINI TUSHUNISHNING
IJTIMOIY-SIYOSIY AHAMIYATI https://doi.org/10.5281/zenodo.11643036
Oybek Maratovich Jumayev Toshkent Amaliy fanlar universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi oybekmaratovich8@gmail.com

bugungi kunda kambag‘allikni yanada chuqurroq o‘rganish va unga samarali yechimlar topish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Kambag‘allik turli yondashuvlarga ko‘ra tasniflanadi. Asosan, uni ikki asosiy yo‘nalishda ajratish mumkin:

1. Tor ma’nodagi kambag‘allik.Bu tushuncha odamning eng zaruriy ehtiyojlarini qondirish imkoniyati bo‘lmasligini anglatadi. Ya’ni, odam fiziologik ehtiyojlarini qondira olmasa va hayotining davom etishiga tahdid tug‘ilsa, u tor ma’noda kambag‘al hisoblanadi. Bunda asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- Minimal turmush sharoitlarining yetishmovchiligi.
- Ta’lim va tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati yo‘qligi.
- Fiziologik ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli mablag‘ning yo‘qligi.

2. Keng ma’nodagi kambag‘allik**.**Bu faqat iqtisodiy omillar emas, balki madaniy, ekologik, ijtimoiy omillarni ham o‘z ichiga oladi. Kambag‘allikning keng talqini quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Ijtimoiy va madaniy imkoniyatlarning cheklanganligi.
- Tibbiy xizmat va ta’lim olish imkoniyatining pastligi.
- Yashash muhiti va ekologik omillarning salbiy ta’siri.
- Umr ko‘rish davomiyligining qisqaligi.

Jahon bankining 2000/2001 yillardagi "Jahon taraqqiyoti hisobotida" kambag‘allik tushunchasi ancha keng talqin qilingan. Unga ko‘ra, kambag‘allik nafaqat moddiy taqchillik, balki xavf-xatarlar oldida zaiflik va o‘z ehtiyojlarini ifoda etish imkoniyatining yo‘qligini ham anglatadi.

Kambag‘allik sabablariga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

1**.** Umumiy kambag‘allik**.**Bu ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning past darajasi natijasida yuzaga keladigan kambag‘allikdir. Masalan, ibtidoiy jamiyatda mahsuldorlikning pastligi va oziq-ovqat yetishmovchiligi keng tarqalgan kambag‘allikni keltirib chiqargan.

2. Institutsional kambag‘allik.Bu ijtimoiy va iqtisodiy tizimdagi tengsizlik natijasida yuzaga keladi. Ayrim guruhlar yoki mintaqalar iqtisodiy va siyosiy jihatdan chetlanishi natijasida resurslardan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi.

3. Mintaqaviy kambag‘allik.Og‘ir tabiiy sharoit va iqtisodiy rivojlanishning pastligi sababli ayrim hududlarda keng tarqalgan kambag‘allik turi. Masalan, qishloq hududlarida kambag‘allik shaharlarga nisbatan yuqori bo‘lishi mumkin.

4. Sinfiy kambag‘allik**.**Bu ayrim shaxslar yoki ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy va ijtimoiy resurslardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi natijasida yuzaga keladi. Masalan, kam ma’lumotli va malakaga ega bo‘lmagan kishilar daromad topish imkoniyatidan mahrum bo‘lishi mumkin.

Kambag‘allikni to‘g‘ri baholash va unga qarshi strategiyalarni ishlab chiqish uchun kambag‘allik chegarasi aniq belgilanishi kerak.

Kambag‘allikni baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Daromad va xarajatlar: Minimal yashash darajasiga yetmagan aholining ulushi.
- Sog‘liqni saqlash: Tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati va aholi salomatligi.
- Ta’lim: Savodxonlik darajasi va ta’lim olish imkoniyatlari.
- Yashash muhiti: Ichimlik suvi va sanitariya sharoitlarining mavjudligi.

Jahon banki hisobotlariga ko‘ra, kambag‘allik tushunchasi faqat daromadga bog‘liq bo‘lmay, u odamlarning xavfsizlik, ta’lim, sog‘liq va siyosiy huquqlari bilan ham bog‘liq.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida kambag‘allik muammosiga qarshi samarali kurashish uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash
Kambag‘allikka qarshi kurashish uchun ijtimoiy himoya dasturlari va davlat tomonidan subsidiyalarni kengaytirish zarur.
2. Ta’lim va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish
Kam ta’minlangan aholiga malaka oshirish va kasbiy ta’lim olish imkoniyatini yaratish orqali ularning bandligini oshirish lozim.
3. Sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish
Kambag‘al qatlam uchun sifatli tibbiy xizmatlarga bo‘lgan imkoniyatni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.
4. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag‘batlantirish
Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish lozim.

Shunday qilib, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha kompleks strategiyalar ishlab chiqish orqali mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash mumkin.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN) – Inson taraqqiyotini o‘lchashda yuqori darajaga erishgan mamlakatlarni baholash va rivojlanishning yangi yo‘nalishlarini belgilashdagi asosiy tashkilot.
2. Inson taraqqiyoti indeksi (Human Development Index, HDI) – Ta’lim, sog‘liqni saqlash va daromad darajasini o‘z ichiga olgan, mamlakatlarning inson taraqqiyotini baholash uchun ishlatiladigan ko‘rsatkich.
3. Inson salomatligi (Human Health) – Jamiyatdagi sog‘lom yashash darajasi va sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligi, bu iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir.

4. Ta’lim tizimi (Education System) – Ta’limning o‘rni inson taraqqiyotini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u jamiyatning kelajagini belgilaydi.

5. Farovonlik (Welfare**)** – Ijtimoiy va iqtisodiy resurslar yordamida jamiyatning farovonligini ta’minlash, aholining hayot sifati va turmush darajasi.

6. Turar-joy sharoitlari (Living Conditions) – Aholining yashash sharoitlari, ijtimoiy infratuzilmaning rivoji va turmush darajasining oshishi.

7. Ijtimoiy adolat (Social Justice) – Jamiyatda tenglik va adolatli taqsimot, iqtisodiy va ijtimoiy resurslarning odilona taqsimlanishi.

8. Kambag‘allikni qisqartirish (Poverty Reduction) – Kambag‘allik darajasini kamaytirish va aholining ijtimoiy farovonligini yaxshilashga qaratilgan strategiyalar.

9. Yashash darajasi (Standard of Living) – Aholining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish darajasi, iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni belgilovchi omil.

10. Ijtimoiy va iqtisodiy ko‘rsatkichlar (Social and Economic Indicators) – Iqtisodiy rivojlanishni va inson taraqqiyotini baholashda foydalaniladigan indikatorlar.

Takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy rivojlanish va inson taraqqiyoti o‘rtasidagi farq nima?
2. Iqtisodiy rivojlanishning inson taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
3. Inson taraqqiyoti va ijtimoiy farovonlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni qanday tushunish mumkin?
4. Inson taraqqiyotini o‘lchashda qanday ko‘rsatkichlardan foydalaniladi?
5. Iqtisodiy rivojlanish va barqaror taraqqiyot o‘rtasidagi muvozanatni qanday ta’minlash mumkin?
6. Ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarining inson taraqqiyotiga ta’siri qanday?
7. Iqtisodiy o‘sish va tenglik o‘rtasidagi muvozanatni qanday saqlash kerak?
8. Iqtisodiy rivojlanish jarayonida ijtimoiy adolatni ta’minlashning ahamiyati nima?
9. BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadlarining (SDG) inson taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi qanday?
10. Inson taraqqiyotining o‘sish va rivojlanishdagi asosiy to‘siqlari qanday va ularni qanday yengish mumkin?

V BOB. O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI ANIQLASH

5.1. O‘zbekistonning demografik ko‘rsatkichlari.
5.2. O‘zbekistoning dunyoning turli ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar xalqaro reytinglardagi o‘rni.
5.3. O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash.

5.1.O‘zbekistonning demografik ko‘rsatkichlari[8]

Har bir davlat, hudud yoki viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, avvalo, u yerda yashovchi aholining mehnat faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Mahalliy aholining mehnat madaniyati, jamoaviy ishlardagi faolligi, bilim va kasbiy malakalari, oilaviy tarkibi, shuningdek, yoshi va jinsi ushbu hududda iqtisodiy taraqqiyot darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.Demografik omillarning o‘zgarishi bugungi kunda global muammolardan biri bo‘lib, u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi va demografik jarayonlariga oid ma’lumotlar Adliya vazirligi huzuridagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlari hamda Ichki ishlar vazirligining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limlari tomonidan taqdim etilgan statistik ma’lumotlar asosida shakllantirilgan. Bu jarayonda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyalariga asoslangan maxsus uslubiy nizomlardan foydalanilgan.

O‘zbekiston Respublikasida 1991-yildan 2019-yilgacha bo‘lgan davr mobaynida aholi sonining uzluksiz o‘sishi kuzatilgan. Masalan, 1991-yilda mamlakat aholisi 20,6 million kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2001-yilda bu ko‘rsatkich 24,8 millionga, 2006-yilda 26,3 millionga, 2011-yilda 29,1 millionga yetgan. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston doimiy aholisi 34,5 million kishiga yetib, 1991-yilga nisbatan 11,5 million kishiga yoki 1,6 baravar oshgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining hisobotiga[9] ko‘ra, 2021-yil 1-iyul holatida O‘zbekiston aholisi 34,86 million kishiga yetib, yil boshidan buyon 301,3 ming kishiga yoki 0,9 foizga o‘sgan.

Aholining shahar va qishloqlarda taqsimlanishi:

- Shahar aholisi – 17 million 664,8 ming kishi bo‘lib, umumiy aholi sonining 50,7 foizini tashkil qiladi.
- Qishloq aholisi – 17 million 195,4 ming kishi bo‘lib, umumiy aholining 49,3 foiziga teng.

Demografik tuzilma bo‘yicha respublika doimiy aholisining:

- 31,1 foizi – mehnatga layoqatli yoshgacha bo‘lganlar,

[8] **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**.
[9] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

- 58 foizi – mehnatga layoqatli yoshdagilar,
- 10,9 foizi – mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri keladi[10].

Mazkur demografik o‘zgarishlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va ishchi kuchi bozorining barqarorligini ta’minlashda muhim omil sifatida qaraladi.

2022-yil 1-oktyabr holatiga O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 549,7 ming kishiga yoki 1,6% ga ortib, umumiy aholining soni 35,821 million kishiga yetdi (5.1-rasm). Aholining shahar hududlaridagi ulushi 18,234,7 ming kishini yoki 50,9% ni, qishloq joylarda yashovchi aholining soni esa 17,586,3 ming kishini yoki 49,1% ni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikaning doimiy aholisi yosh tarkibi bo‘yicha quyidagicha taqsimlangan: 31,7% mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 57,0% mehnatga layoqatli yoshdagilar va 11,3% mehnatga layoqatli yoshdan kattalar.

Aholining yosh va jinsi tarkibi quyidagicha shakllangan:

0-4 yosh: ayollar – 10,8%, erkaklar – 11,5%;

5-9 yosh: ayollar – 10,0%, erkaklar – 9,4%;

10-14 yosh: ayollar – 9,1%, erkaklar – 8,75%;

15-19 yosh: ayollar – 7,6%, erkaklar – 7,3%;

20-24 yosh: ayollar – 7,4%, erkaklar – 7,6%;

25-29 yosh: ayollar – 8,8%, erkaklar – 9,1%;

30-34 yosh: ayollar – 8,8%, erkaklar – 8,9%;

35-39 yosh: ayollar – 7,8%, erkaklar – 7,8%;

40-44 yosh: ayollar – 6,3%, erkaklar – 6,2%;

45-49 yosh: ayollar – 5,6%, erkaklar – 5,5%;

50-54 yosh: ayollar – 4,9%, erkaklar – 4,6%;

55-59 yosh: ayollar – 4,6%, erkaklar – 4,1%;

60-64 yosh: ayollar – 3,9%, erkaklar – 3,5%;

65 yosh va undan kattalar: ayollar – 5,7%, erkaklar – 4,5%.

Demografik o‘zgarishlar va aholining taqsimlanishi.

So‘nggi yillarda respublika aholisining shahar va qishloq joylarda joylashish tendensiyalarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, 1991-yilda shahar aholisi umumiy aholi sonining 40,3% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yil 1-yanvar holatiga kelib bu ko‘rsatkich 50,8% ga yetdi.

Erkak va ayollar nisbati bo‘yicha o‘zgarishlar[11]:

1991-yilda erkaklar soni 10,2 million, ayollar soni esa 10,4 million kishi bo‘lgan. 2017-yilga kelib, erkaklar soni 16,1 million, ayollar soni esa

[10] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.
[11] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

16,0 million kishiga yetdi. 2019-yil boshida umumiy aholida erkaklar ulushi 50,5%, ayollar ulushi esa 49,5% bo‘ldi. 2022-yil oxiriga kelib erkaklar soni 18,1 million, ayollar soni esa 17,9 million kishini tashkil etdi. ‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 1920-yilda 4,4 million kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilning 1-yanvariga kelib, aholi soni 31,6 million kishiga yoki 8 barobarga ko‘payib, 36,024.9 ming kishiga yetdi. Ayni paytda tabiiy o‘sish koeffitsienti 1920-yildagi (11,0 promille) ko‘rsatkichga nisbatan 9,9 promillega oshib, 20,9 promilleni tashkil etdi.2023-2024-yillardagi demografik ko‘rsatkichlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil 1-yanvar holatida O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 36,024.9 ming kishiga yetdi.

Erkaklar soni – 18,128.6 ming kishi,

Ayollar soni – 17,896.3 ming kishi,

Shahar aholisi soni – 18,335.7 ming kishi,

Qishloq aholisi soni – 17,689.2 ming kishi.

Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston aholisi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega. 2019-yilda aholi o‘sish sur’ati 101,8% bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib bu ko‘rsatkich 102,1% ni tashkil etdi.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra:

Doimiy aholi soni – 36,799.8 ming kishi;

Erkaklar soni – 18,525.0 ming kishi;

Ayollar soni – 18,274.8 ming kishi;

Shahar aholisi soni – 18,768.5 ming kishi;

Qishloq aholisi soni – 18,031.3 ming kishi.

O‘zbekiston Respublikasining demografik ko‘rsatkichlari barqaror o‘sish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Aholi sonining o‘sishi, ayniqsa, shahar hududlarida yaqqol sezilarli bo‘lib, urbanizatsiya jarayoni davom etmoqda. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining ulushi yuqori bo‘lib, bu mamlakat iqtisodiy rivojlanishi uchun ijobiy omil hisoblanadi.Aholining o‘sishi va taqsimlanishi davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida urbanizatsiya, ta’lim, sog‘liqni saqlash va bandlikni ta’minlash masalalari mamlakatning demografik va iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillar bo‘lib qoladi[12].

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi tarkibi Mehnat Kodeksiga muvofiq belgilangan bo‘lib, unga 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar kiradi. Shu bilan birga, 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60

[12] **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**.

yoshdan oshgan erkaklar va 55 yoshdan oshgan ayollar esa mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifasiga ajratiladi.

5.1-diagramma



5.1-diagramma. Doimiy aholi soni,ming kishi.

O‘zbekiston Respublikasining yosh tarkibida 1991-2017 yillar davomida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. Xususan, 1991-yilda:

Mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar (0-15 yosh) – 43,1%, Mehnatga layoqatli yoshdagilar (erkaklar 16-59 yosh, ayollar 16-54 yosh) – 49,1%, Mehnatga layoqatli yoshdan kattalar (erkaklar 60 yosh va undan katta, ayollar 55 yosh va undan katta) – 7,8% ni tashkil etgan.2019-yil 1-yanvar holatiga kelib, ushbu ko‘rsatkichlar quyidagicha o‘zgargan:

Mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar – 30,1%,

Mehnatga layoqatli yoshdagilar – 60,5%,

Mehnatga layoqatli yoshdan kattalar – 9,4%.

1991-yil bilan solishtirilganda, 2019-yilda mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar ulushi kamayish tendensiyasini ko‘rsatgan bo‘lsa, mehnatga layoqatli yoshdagilar va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar ulushi oshgan.Respublikada aholi tarkibining o‘rtacha yoshi ham o‘zgarib borgan. 1991-yilda aholining o‘rtacha yoshi 23,3 yoshni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib bu ko‘rsatkich 28,5 yoshga yetgan. Shundan kelib chiqib, mamlakat aholisi o‘rtacha 5,2 yilga keksayganini kuzatish mumkin.(*5.2-diagramma)*[13]

Aholining tabiiy harakat ko‘rsatkichlarida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. 1991-yilda:

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar soni – 723,4 ming nafar,

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti – 34,5 promille,

Vafot etganlar soni – 130,3 ming kishi,

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsienti – 6,2 promille,

[13] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

Aholining tabiiy o‘sishi – 593,1 ming kishi,

1000 aholiga nisbatan tabiiy o‘sish koeffitsienti – 28,3 promille bo‘lgan.

Bu ko‘rsatkichlar aholining tabiiy o‘sish jarayoni yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Tabiiy o‘sish dinamikasining uzoq muddatli tendensiyalari mamlakatning demografik rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

2.1. Tug‘ilganlar soni**.**

5.2-diagramma



5.2-diagramma. Yanvar-dekabr oylarida tug‘ilishlar soni, ming kishi

Tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari tahlili *5.2-diagrammadan* ko‘rinib turibdiki, 2023-yil yanvar-dekabr oylarida tirik tug‘ilgan chaqaloqlar soni 962,0 ming kishini tashkil etdi. [14]Shundan:

O‘g‘il bolalar – 498,3 ming kishi,

Qiz bolalar – 463,7 ming kishi,

Shahar hududlarida – 480,2 ming kishi,

Qishloq joylarda – 481,8 ming kishi qayd etilgan.

Tahlillarga ko‘ra, yangi tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha quyidagi taqsimot kuzatildi:

1 nafar tug‘ilganlar – 97,8%,

2 nafar tug‘ilganlar – 2,1%,

3 yoki undan ortiq tug‘ilganlar – 0,1%.

Hududlar kesimida tug‘ilish ko‘rsatkichlari

Eng yuqori tug‘ilish koeffitsiyenti quyidagi hududlarda qayd etilgan:

Surxondaryo viloyati – 30,9 %,

Qashqadaryo viloyati – 28,9 %,

Namangan viloyati – 27,9 %

Jizzax viloyati – 27,4 %

Samarqand viloyati – 27,4 %

Shuningdek, hududlar bo‘yicha tug‘ilish soni quyidagicha taqsimlangan:

Samarqand viloyati – 113 986 nafar,

[14] **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**.

Farg‘ona viloyati – 106 497 nafar,

Surxondaryo viloyati – 87 695 nafar.

Eng past tug‘ilish ko‘rsatkichlari esa quyidagi viloyatlarda kuzatildi:Sirdaryo viloyati – 23 229 nafar,

Navoiy viloyati – 26 805 nafar,

Jizzax viloyati – 40 875 nafar.

O‘lim ko‘rsatkichlari. O‘zbekiston Respublikasida 2018-yilda 156,7 ming kishi vafot etgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil qilgan.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, quyidagi yillarda o‘lim ko‘rsatkichlari qayd etilgan:

1991-yil – 130,3 ming kishi, o‘lim koeffitsiyenti 6,2 promille,

2001-yil – 132,5 ming kishi, o‘lim koeffitsiyenti 5,3 promille,

2011-yil – 143,3 ming kishi, o‘lim koeffitsiyenti 4,9 promille.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yillar davomida tug‘ilish ko‘rsatkichlari yuqori darajada saqlanib qolgan bo‘lsa-da, umumiy o‘lim darajasi pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa tibbiyot xizmatlari sifati, aholining hayot darajasi va ijtimoiy ta’minot tizimining rivojlanishi bilan bog‘liq ekanligini anglatadi.

5.3-diagramma[15]



5.3-diagramma. O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan tug‘ilishlar,2023-yil yanvar-dekabr

[15] **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.**

O‘zbekiston Respublikasida 2022-yil yanvar-dekabr oylarida o‘lim ko‘rsatkichlari tahlili[16]

2022-yil yanvar-dekabr oylarida respublika bo‘ylab 172,1 ming kishi vafot etgan. Shundan:

- Erkaklar – 95,0 ming kishi,
- Ayollar – 77,1 ming kishi,
- Shahar hududlarida – 92,0 ming kishi,
- Qishloq joylarda – 80,1 ming kishi.

O‘tgan yillardagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘lim ko‘rsatkichlarida quyidagi tendensiyalar kuzatilgan:

- 2018-yilda – 96,4%,
- 2019-yilda – 99,8%,
- 2020-yilda – 113,6% (Covid-19 pandemiyasi ta’siri tufayli o‘sish),
- 2021-yilda – 99,4% (pasayish kuzatilgan),
- 2022-yilda – 98,6%.

Bolalar o‘limi bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar**.**1000 tirik tug‘ilgan bolaga nisbatan 1 yoshgacha bo‘lgan chaqaloqlar o‘lim koeffitsiyenti yillar davomida quyidagicha kamayib borgan:

- 1991-yilda – 35,5 promille,
- 2001-yilda – 18,3 promille,
- 2016-yilda – 10,7 promille.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida har 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil qilgan.

O‘lim sabablari tahlili**.** 2022-yilda vafot etganlarning o‘lim sabablari quyidagicha taqsimlangan:

- 55,5% – qon aylanish tizimi kasalliklari,
- 9,6% – nafas olish a’zolari kasalliklari,
- 8,0% – o‘simtalar,
- 5,5% – baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlanishlar,
- 4,1% – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklari,
- 1,4% – yuqumli va parazitar kasalliklar,
- 15,9% – boshqa turdagi kasalliklar.

O‘lim yosh guruhlari bo‘yicha taqsimoti.2022-yilda vafot etganlar quyidagi yosh toifalariga ajratilgan:

- 20 yoshgacha – 20,0%,
- 20-59 yosh oralig‘ida – 24,6%,
- 60 yosh va undan katta – 55,4%.

Tahlillarga ko‘ra, 60 yoshdan oshgan aholining o‘lim darajasi eng yuqori bo‘lib, bu aholining keksayishi, surunkali kasalliklarning ortib borishi va sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligi bilan bog‘liq bo‘lishi

[16] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

mumkin. Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasida baxtsiz hodisalar va yuqumli kasalliklar tufayli vafot etish holatlari ham mavjud. Ushbu tahlillar mamlakatdagi sog‘liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, baxtsiz hodisalar oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

5.4-diagramma[17]



5.4 -diagramma. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha vafot etganlar 2023-yil yanvar-dekabr

1**.** O‘lim ko‘rsatkichlari Yuqoridagi *5.4-diagrammadan* ko‘rinib turibdiki, 2023-yil yanvar-dekabr oylarida 172,8 ming kishi vafot etgan. Shundan:

- Erkaklar – 95,0 ming kishi,
- Ayollar – 77,8 ming kishi,
- Shahar hududlarida – 93,6 ming kishi,
- Qishloq hududlarida – 79,2 ming kishi.

2**.** Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi**.**Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi insoniyatning yashash sifati ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda bu ko‘rsatkich ijobiy tendensiyaga ega bo‘lib, quyidagicha shakllangan:

- 1991-yilda – 66,4 yil,
- 2001-yilda – 71,3 yil,
- 2010-yilda – 73,0 yil,
- 2022-yil 1-yanvar holatiga – 73,8 yil (erkaklar – 71,7 yil, ayollar – 75,8 yil).

Shuningdek, shahar va qishloq joylarida kutilayotgan umr davomiyligi bir xil bo‘lib, 73,8 yilni tashkil qilgan.

3. Sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar**.** Mustaqillik yillaridan boshlab mamlakatda tibbiyot tizimini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilib, quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- Kasalliklarning oldini olish,
- Onalik va bolalikni muhofaza qilish,

[17] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

- Reproduktiv salomatlikni yaxshilash,
- Tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

Ushbu islohotlar natijasida bolalar va onalar o‘lim darajasi pasayib, tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

4. Nikoh va ajralishlar statistikasi**.**2022-yil yanvar-dekabr oylarida 296,7 mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, bu so‘nggi 5 yilda 14,7 mingga (4,7%) kamaygan. Shundan:

- 149,3 mingta nikoh – shahar joylarda,
- 147,4 mingta nikoh – qishloq joylarda qayd etilgan.

Nikohdan ajrashish statistikasi bo‘yicha:

- Erkaklarning ajrashishdagi o‘rtacha yoshi – 39,2 yosh,
- Ayollarning ajrashishdagi o‘rtacha yoshi – 33,1 yosh.

Ajrashganlarning aksariyati 35 yoshgacha bo‘lgan shaxslar bo‘lib, ular umumiy ajrashish holatlarining 50,5% ni tashkil qilgan.

5. Aholining zichligi**.**2022-yil 1-yanvar holatiga 1 km² maydonga 78,6 kishi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 80,2 kishiga oshgan.

Hududlar bo‘yicha eng yuqori aholi zichligi quyidagi viloyatlarga to‘g‘ri kelgan:

- Toshkent shahri – 6 597,5 kishi/km²,
- Andijon viloyati – 772,7 kishi/km²,
- Farg‘ona viloyati – 588,2 kishi/km².

Eng past zichlik quyidagi hududlarda qayd etilgan:

- Navoiy viloyati – 9,5 kishi/km²,
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 11,9 kishi/km²,
- Buxoro viloyati – 49,1 kishi/km².

6. Tug‘ilish va o‘lim koeffitsiyenti. 2021-yilda – 905,2 ming bola tug‘ilgan, 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – 25,9 promille.

2021-yilda 174,5 ming kishi vafot etgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 5 promilleni tashkil qilgan.

7. O‘lim sabablari tahlili**.** 2021-yilda vafot etganlarning sabablari quyidagicha taqsimlangan:

- 61,7% – qon aylanish tizimi kasalliklari,
- 7,8% – o‘simtalar,
- 6,7% – nafas olish a’zolari kasalliklari,
- 5,2% – baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlar,
- 4,1% – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklari,
- 3,1% – yuqumli va parazitar kasalliklar,
- 11,4% – boshqa kasalliklar.

2022[18]-yilning 9 oyi ichida 130,4 ming kishi vafot etgan bo‘lib, o‘lim sabablari quyidagicha taqsimlangan:

[18] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

- 56,8% – qon aylanish tizimi kasalliklari,
- 8,2% – o‘simtalar,
- 9,8% – nafas olish a’zolari kasalliklari,
- 5,6% – baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlar,
- 4,0% – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklari,
- 1,5% – yuqumli va parazitar kasalliklar,
- 14,1% – boshqa kasalliklar.

Demografik jarayonlar tahliliga ko‘ra, O‘zbekistonda aholi soni barqaror o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, nikohlar sonining kamayishi, ajrashish holatlarining ortishi, shuningdek, aholi tarkibining keksayishi kuzatilmoqda. Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar umr davomiyligining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, yurak-qon tomir kasalliklari va nafas olish a’zolari bilan bog‘liq kasalliklardan o‘lim holatlari yuqori bo‘lib qolmoqda.Kelgusida aholining sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish hamda yoshlarni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

5.2.O‘zbekistoning dunyoning turli ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar xalqaro reytinglardagi o‘rni[19]

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish va mamlakatning turli reyting va indekslardagi o‘rnini adolatli baholash maqsadida bir qator strategik hujjatlar qabul qilindi. Ushbu islohotlar doirasida O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi mavqeini oshirish va islohotlarning xalqaro mezonlarga muvofiqligini baholashga qaratilgan muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldagi PQ-4210-sonli qarorida qayd etilishicha, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro standartlarga mosligini baholaydigan va milliy reytinglarni yuritishga yordam beradigan yaxlit tizim hali shakllanmagan. Ushbu hujjatda davlatning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga alohida e’tibor qaratish zarurligi ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida mamlakatning xalqaro reyting va indekslardagi ko‘rsatkichlarini oshirishga yo‘naltirilgan islohotlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Bunda:

- Ilmiy salohiyatni jalb qilish,

[19] O‘ZBEKISTONNING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O‘RNINI YAXSHILASH https://doi.org/10.5281/zenodo.10144891

- Loyihaviy boshqaruvning xalqaro standartlaridan foydalanish,
- Davlat xizmatchilarining xalqaro reytinglar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish,
- Reytinglarni shakllantirishda xolis va haqqoniy baholash tizimini joriy etish kabi yo‘nalishlar belgilangan.

Mazkur vazifalar 2022-yil 18-maydagi PQ-246-sonli qaror bilan mustahkamlanib, xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish bo‘yicha aniq topshiriqlar belgilangan.

Jahon bankining baholashi va tavsiyalari.Jahon banki 2022-yil yanvar oyida “Jahon iqtisodiyoti istiqbollari” hisobotini e’lon qilgan bo‘lib, unda jahon iqtisodiyoti tiklanayotgan bo‘lsa-da, bir qator xavflarga duch kelayotgani qayd etilgan. Shuningdek, 2022-yil aprel oyida Jahon banki tomonidan O‘zbekistonning ikkinchi tizimli diagnostikasi (The Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan) e’lon qilindi[20].

Hisobotda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar ijobiy baholangan. Xususan, iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida:

- Narxlar erkinlashtirildi,
- Biznes va savdoni tartibga soluvchi qattiq cheklovlar bekor qilindi,
- Fuqarolarning iqtisodiy imkoniyatlari kengaydi,
- Xususiy sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Bundan tashqari, hukumatning 2030-yilgacha qashshoqlikni ikki baravar kamaytirish va O‘zbekistonni o‘rtachadan yuqori daromadli mamlakatlar qatoriga qo‘shish bo‘yicha strategik maqsadi alohida ta’kidlab o‘tilgan. Buning uchun aholi jon boshiga real daromadning yillik 9-10 foizga oshishi talab etilishi qayd etilgan.

O‘zbekiston iqtisodiyotidagi strukturaviy o‘zgarishlar So‘nggi 30 yil davomida O‘zbekistonda iqtisodiy o‘zgarishlar asta-sekin amalga oshirilgan. Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni davom etayotgan bo‘lsa-da, hali ham iqtisodiy faoliyatning muhim qismi davlat muassasalari tomonidan boshqariladi.

Jahon banki hisobotida O‘zbekiston iqtisodiyotidagi ba’zi zaif tomonlar ko‘rsatib o‘tilgan:

- Qishloq xo‘jaligining ulushi YaIMning 26% ni tashkil qiladi, bu esa Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng yuqori ko‘rsatkich.
- Xizmatlar sohasining ulushi hali ham dunyodagi eng past ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.
- Shaharlashuv sur’ati past bo‘lib, mehnat resurslarining harakatchanligi cheklangan.

[20] https://thedocs.worldbank.org/en/doc/0ab7f92555cb2786b7215d2fdc986b83-0080012022/original/Uzbekistan-Overview-April-2022-UZB.pdf

- To‘liq bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni yakunlanmagan, bu esa iqtisodiy o‘sishning sustlashishiga olib kelishi mumkin.

Jahon bankining tavsiyalari:

- Xususiy sektorning iqtisodiy o‘zgarishlardagi rolini oshirish,
- Bozorlarni rivojlantirish va erkin raqobat muhitini yaratish,
- Inson kapitaliga investitsiya kiritish,
- Barqaror kelajak va iqtisodiy farovonlikni ta’minlash uchun davlat ishtirokini kuchaytirish.

Xalqaro reytinglar va indekslar ahamiyati/Bugungi kunda har bir mamlakat xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlash uchun xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilashga harakat qiladi. O‘zbekiston ham o‘z iqtisodiy islohotlari natijalarini dunyo hamjamiyatiga namoyon etish uchun xalqaro indekslar bo‘yicha o‘z pozitsiyasini oshirish ustida ishlamoqda.

Iqtisodiy erkinlik indeksi (Index of Economic Freedom).Bu indeks mamlakatlardagi iqtisodiy erkinlik darajasini baholashga qaratilgan bo‘lib, The Heritage Foundation va The Wall Street Journal tomonidan e’lon qilinadi.Indeks quyidagi 10 ta nazorat ko‘rsatkichlarining o‘rtacha arifmetik qiymatiga asoslanadi:

1. Mulk huquqi,
2. Korruptsiyadan xoli bo‘lish,
3. Fiskal erkinlik,
4. Hukumat aralashuvi darajasi,
5. Tadbirkorlik erkinligi,
6. Mehnat erkinligi,
7. Monetar erkinlik,
8. Savdo erkinligi,
9. Investitsiya erkinligi,
10. Moliyaviy erkinlik.

Har bir ko‘rsatkich 0 dan 100 gacha ball bilan baholanadi. Agar mamlakatda iqtisodiy erkinlik to‘liq ta’minlangan bo‘lsa, indeks 100 ga yaqin bo‘ladi, iqtisodiy cheklovlar kuchli bo‘lsa, indeks 0 ga yaqinlashadi. O‘zbekistonda xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha islohotlarni chuqurlashtirish, milliy reytinglarni yuritish hamda xalqaro baholash tizimini joriy etish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning baholariga ko‘ra, mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar ijobiy natijalar bermoqda.Biroq, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, bozor iqtisodiyotiga to‘liq o‘tish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlarni jadallashtirish talab etiladi:

1. Xususiy sektorni rivojlantirish va davlat aralashuvini kamaytirish,
2. Bozor iqtisodiyoti institutlarini mustahkamlash,

3. Shaharlashuv sur’atlarini oshirish,

4. Tashqi investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish,

5. Innovatsiyalar va inson kapitaliga investitsiyalarni ko‘paytirish.

Ushbu islohotlar O‘zbekistonni 2030-yilgacha o‘rtachadan yuqori daromadli mamlakatlar qatoriga olib chiqish uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiy Erkinlik Indeksi (Index of Economic Freedom).

Mazkur indeks dunyo mamlakatlarining iqtisodiy erkinlik darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, u olingan ballar asosida beshta guruhga ajratiladi:

80-100 ball – Erkin iqtisodiyotga ega davlatlar

70-80 ball – Nisbatan erkin iqtisodiyotga ega davlatlar

60-70 ball – Mo‘tadil iqtisodiy erkinlikka ega davlatlar

50-60 ball – Past iqtisodiy erkinlikka ega davlatlar

50 ball va undan past – Iqtisodiy jihatdan erkin bo‘lmagan davlatlar

2022-yilda O‘zbekiston 177 ta mamlakat orasida 55,7 ball jamg‘argan holda 117-o‘rinni egallagan. Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, mamlakat hali ham iqtisodiy jihatdan erkin bo‘lmagan davlatlar qatorida qolmoqda.

Global Raqobatbardoshlik Indeksi (The Global Competitiveness Index).Butunjahon Iqtisodiy Forumi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu indeks mamlakatlarning iqtisodiy raqobatbardoshlik darajasini o‘lchash uchun mo‘ljallangan. Mazkur indeks mamlakatlarning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash qobiliyatini tavsiflaydi.

Indeks quyidagi 12 ta asosiy mezonga asoslangan:

Institutlar sifati

Infratuzilma

Makroiqtisodiy barqarorlik

Sog‘liqni saqlash va boshlang‘ich ta’lim

Oliy ta’lim va kasbiy tayyorgarlik

Tovar va xizmatlar bozori samaradorligi

Mehnat bozori samaradorligi

Moliya bozorining rivojlanganlik darajasi

Texnologik taraqqiyot darajasi

Ichki bozor hajmi

Kompaniyalarning raqobatbardoshligi

Innovatsion salohiyat

2022-yilda[21] O‘zbekiston ushbu reytingda 154 ta mamlakat orasida 89-o‘rinni egallagan.

[21] https://thedocs.worldbank.org/en/doc/0ab7f92555cb2786b7215d2fdc986b83-0080012022/original/Uzbekistan-Overview-April-2022-UZB.pdf

Huquq Ustuvorligi Indeksi (The Rule of Law Index).Bu indeks mamlakatdagi huquqiy muhitning inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash darajasini baholaydi. Ushbu reyting The World Justice Project nodavlat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan va huquqiy tizim samaradorligini aniqlashga qaratilgan.

Indeks quyidagi 8 ta muhim ko‘rsatkichdan iborat:

Hokimiyat vakolatlarining cheklanganligi

Korrupsiyaning yo‘qligi

Jamoat tartibi va xavfsizlik

Asosiy huquqlarning himoyalanganligi

Hokimiyat institutlarining shaffofligi

Qonunlarga rioya qilish

Fuqarolik sud tizimi samaradorligi

Jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlov

2022-yilda O‘zbekiston ushbu indeks bo‘yicha dunyo mamlakatlari orasida 78-o‘rinni egallagan.

Korrupsiyani Qabul Qilish Indeksi (The Corruption Perceptions Index).Transparency International tashkiloti tomonidan tuzilgan ushbu indeks davlat sektoridagi korrupsiyaning tarqalish darajasini o‘lchaydi. Indeks 0 dan 100 gacha bo‘lgan ballar tizimida hisoblanadi:

0 ball – korrupsiya darajasi yuqori

100 ball – korrupsiya darajasi past

2022-yilda O‘zbekiston ushbu indeksda 126-o‘rinni egallagan.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda iqtisodiy erkinlik, raqobatbardoshlik, huquqiy ustuvorlik va korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha sezilarli islohotlarni amalga oshirmoqda. Shunga qaramay, xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallash uchun hali ko‘plab islohotlarni amalga oshirish zarur.

Kelgusidagi ustuvor yo‘nalishlar:

Iqtisodiy erkinlikni oshirish – davlat aralashuvini kamaytirish va xususiy sektorning rivojlanishiga ko‘proq imkoniyat yaratish.

Raqobatbardoshlikni kuchaytirish – infratuzilmani modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni rag‘batlantirish.

Huquq ustuvorligini ta’minlash – korrupsiyaga qarshi kurashish va sud tizimining mustaqilligini oshirish.

Korrupsiyani kamaytirish – shaffof boshqaruv va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Ushbu islohotlarning izchil amalga oshirilishi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish bilan birga, aholining turmush darajasini ham yaxshilashga xizmat qiladi.

Inson Taraqqiyoti Indeksi (Human Development Index – HDI**).**HDI dunyo mamlakatlarining inson taraqqiyotini aks ettiruvchi kompleks

ko‘rsatkichlardan biridir. Ushbu indeks har yili BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) ekspertlari hamda mustaqil xalqaro tadqiqotchilar tomonidan hisoblab chiqiladi. Tadqiqot natijalari maxsus ma’ruzalar shaklida e’lon qilinadi.

Inson taraqqiyoti indeksi inson hayoti sifatini ifodalovchi quyidagi asosiy mezonlarga asoslanadi:

1. Kutilayotgan umr davomiyligi – aholining o‘rtacha umr ko‘rish muddati;
2. Ta’lim olish imkoniyatlari – aholining savodxonlik darajasi va ta’lim olish imkoniyatlari;
3. Yalpi milliy daromad indeksi – mamlakat iqtisodiy holatini aks ettiruvchi daromad ko‘rsatkichlari.

HDI bo‘yicha mamlakatlar quyidagi toifalarga bo‘linadi:

- Juda yuqori taraqqiyotga ega mamlakatlar;
- Yuqori taraqqiyot darajasiga ega mamlakatlar;
- O‘rtacha taraqqiyot darajasiga ega mamlakatlar;
- Past taraqqiyot darajasiga ega mamlakatlar.

2022-yilgi hisobotga ko‘ra, O‘zbeki[22]ston 0,727 indeks ko‘rsatkichi bilan 191 ta mamlakat orasida 101-o‘rinni egallagan.

Demokratiya Indeksi (The Democracy Index).Mazkur indeks dunyo mamlakatlarida demokratik islohotlarning darajasini baholash uchun Buyuk Britaniyaning The Economist Intelligence Unit tadqiqot markazi tomonidan ishlab chiqilgan. U 60 ta ko‘rsatkichdan iborat bo‘lib, quyidagi 5 asosiy guruhga ajratiladi:

1. Saylov jarayoni va plyuralizm – saylovlarning erkinligi va adolatliligi;
2. Hukumat faoliyati – davlat boshqaruvi samaradorligi;
3. Siyosiy jarayonlarda fuqarolarning ishtiroki – fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish darajasi;
4. Siyosiy madaniyat – demokratik qadriyatlarning jamiyatdagi o‘rni;
5. Fuqarolarning huquq va erkinliklari – inson huquqlari va fuqarolik erkinliklarining ta’minlanish darajasi.

Matbuot Erkinligi Indeksi[23] (Worldwide Press Freedom Index). Dunyo mamlakatlarida matbuot erkinligining holatini aks ettiruvchi ushbu indeks "Chegara bilmas reportyorlar" (Reporters Without Borders) xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan yuritiladi. Matbuot va jurnalistlar erkinligi 43 ta asosiy mezon asosida baholanadi. Bunda quyidagilar hisobga olinadi:

- Davlatning OAVga munosabati;
- Matbuot erkinligi kafolatlari;

[22] https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-inson-taraqqiyoti-indeksida-oz-reytingini-5-pogonaga-yaxshiladi_408905

[23] https://www.gazeta.uz/oz/2024/03/15/hdi/

- Jurnalistlarning huquqlari va xavfsizligi.

2021-yilda O‘zbekiston ushbu indeks bo‘yicha 180 ta mamlakat ichida 50,74 ball bilan 157-o‘rinni egallagan.

Logistika samaradorligi indeksi (Logistics Performance Index – LPI).Ushbu indeks mamlakatlarning savdo logistikasi samaradorligini baholaydi. Mahalliy va xalqaro yuk tashuvchilarning fikr-mulohazalari asosida 155 ta mamlakat logistika infratuzilmasi bo‘yicha reytingga kiritilgan.

Logistika samaradorligi indeksi 6 asosiy ko‘rsatkichdan iborat:

1. Bojxona xizmatlari samaradorligi – bojxona jarayonlarining tezligi va sifati;
2. Infratuzilma sifati – transport va logistika infratuzilmasi darajasi;
3. Xalqaro yuk tashish imkoniyatlari – xalqaro savdo qulayligi;
4. Logistika xizmatlari sifati – transport va yuk tashish xizmatlarining rivojlanishi;
5. Yuklarni kuzatish imkoniyati – logistika operatsiyalarining shaffofligi;
6. Yetkazib berish muddatlariga rioya qilish – yuk tashish vaqtining aniq bajarilishi.

Mazkur indeks mamlakatlarning logistika tizimlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, transport va tashish infratuzilmasini takomillashtirish uchun qo‘llaniladi.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda xalqaro reytinglarda o‘z pozitsiyasini yaxshilash uchun keng qamrovli islohotlar olib bormoqda. Biroq, hali ham matbuot erkinligi, iqtisodiy erkinlik va demokratik jarayonlar bo‘yicha sezilarli o‘zgarishlarga ehtiyoj mavjud. Mamlakat xalqaro maydonda o‘z nufuzini mustahkamlash va global reytinglardagi o‘rnini yaxshilash uchun quyidagi yo‘nalishlarda ishlashni davom ettirishi lozim:

1. Iqtisodiy erkinlikni oshirish – xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlik muhitini yaxshilash;
2. Demokratik islohotlarni jadallashtirish – fuqarolik jamiyati rivojini rag‘batlantirish;
3. Matbuot erkinligini kengaytirish – jurnalistlarning mustaqilligi va xavfsizligini ta’minlash;
4. Logistika tizimlarini rivojlantirish – transport va infratuzilma loyihalariga sarmoya kiritish.

Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi o‘rnini mustahkamlash va jahon hamjamiyatidagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (The UN Global E-Government Development Index).Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan har ikki yilda bir marta tuziladigan mazkur indeks mamlakatlar fuqarolarining davlat xizmatlaridan qanchalik samarali foydalanish

imkoniyatiga ega ekanligini baholash uchun ishlab chiqilgan. Indeksda davlat xizmatlarini ko‘rsatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish darajasiga asosiy urg‘u beriladi.

Indeks quyidagi uch asosiy omil asosida hisoblanadi:

1. Internet xizmatlari qamrovi va sifati – davlat xizmatlarining raqamlashtirilgan darajasi;
2. AKT infratuzilmasining rivojlanishi – texnologik muhit va infratuzilma;
3. Inson kapitali – aholining texnologiyalardan foydalanish qobiliyati.

O‘zbekiston mazkur indeks bo‘yicha sekinlik bilan bo‘lsa ham o‘z pozitsiyasini yaxshilashga intilmoqda.

Statistik salohiyat indeksi.Statistik salohiyat mamlakatning aholi va iqtisodiyot haqida aniq va sifatli ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va tarqatish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu indeks davlat resurslari va vakolatlarini taqsimlash, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish hamda xalqaro hamjamiyatni mamlakatdagi islohotlar to‘g‘risida xabardor qilish kabi omillarni baholaydi.

Jahon bankining ushbu statistik ko‘rsatkichni baholash tizimi quyidagilarga asoslanadi:

- Tahlil uslublari – ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligi;
- Ma’lumot manbalari – rasmiy va norasmiy statistikalar;
- Ma’lumotlarning o‘z vaqtida taqdim etilishi va davriyligi.
- Mamlakatlar 25 ta indikator bo‘yicha baholanadi va natijalar 0 dan 100 gacha bo‘lgan ball tizimida hisoblanadi.

Sanoat raqobatbardoshligi indeksi (Competitive Industrial Performance Index – CIP).Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni Rivojlantirish Tashkiloti (UNIDO) tomonidan tuziladigan ushbu indeks dunyo mamlakatlarining sanoat sektori bo‘yicha raqobatbardoshligini baholaydi. U iqtisodiy o‘sish jarayonlarining real holatini tavsiflashga yordam beradi.Indeks sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish va eksport salohiyatini aniqlashga qaratilgan. 2021-yil natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston ushbu indeks bo‘yicha dunyoda 94-o‘rinni egallagan.

Investitsiyalarni Tartibga Solish Indeksi.Bu indeks dastlab 2003-yilda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, mamlakatning xorijiy investorlar uchun qanchalik ochiq yoki cheklovchi ekanligini baholaydi.

Indeks quyidagi to‘rt asosiy mezon bo‘yicha baholanadi:

1. Tarmoq korxonalarida xorijiy ishtirokni cheklash;
2. Tekshirish va ruxsat berish talablari;
3. Xorijiy mutaxassislarni yollash bo‘yicha cheklovlar;
4. Boshqa cheklovlar – yerga egalik qilish, kapital va daromadni taqsimlash shartlari.

Bugungi kunda indeks OECDning 68 ta a’zo davlatlari[24] uchun ishlab chiqilgan.

Innovatsiyalar Global Indeksi[25] (The Global Innovation Index – GII).Innovatsion rivojlanish darajasini baholashga qaratilgan ushbu indeks 2007-yildan buyon INSEAD biznes maktabi, Kornell universiteti va Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) tomonidan ishlab chiqilmoqda.

Indeks 82 ta indikator asosida tuziladi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Texnologik taraqqiyot;
- Ilmiy tadqiqot va ishlanmalar (R&D);
- Intelektual mulk huquqlari va patentlar;
- Startap ekotizimi.

Tadqiqot mualliflari innovatsiyalarga e’tibor qaratgan mamlakatlar yanada jadal iqtisodiy rivojlanishga erishishini ta’kidlaydilar.

Davlat Boshqaruvi Sifati Indeksi (Governance Matters).Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan ushbu indeks davlat boshqaruvi samaradorligini olti asosiy indikator asosida baholaydi:

1. Aholining fikri va davlat hisobdorligi (Voice and Accountability) – fuqarolarning siyosiy jarayondagi ishtiroki;
2. Siyosiy barqarorlik va zo‘ravonlikning oldini olish (Political Stability and Absence of Violence) – davlat tuzilmasining barqarorligi;
3. Hukumat samaradorligi (Government Effectiveness) – davlat xizmatlari sifati va korrupsiyaga qarshi kurash;
4. Qonunchilik sifati (Regulatory Quality) – iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydigan huquqiy baza mavjudligi;
5. Qonun ustuvorligi (Rule of Law) – qonunlarga rioya qilinish darajasi;
6. Korrupsiyani jilovlash (Control of Corruption) – davlat idoralari faoliyatining shaffofligi.

Ushbu indeks davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlar samaradorligini baholash uchun muhim ahamiyatga ega.

Budjet Ochiqligi Indeksi (Open Budget Index – OBI).1990-yilda tashkil etilgan International Budget Partnership xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan har ikki yilda e’lon qilinadigan ushbu indeks davlat byudjetining shaffofligi va fuqarolarning davlat mablag‘laridan xabardorligini baholaydi.

Indeks quyidagi mezonlar asosida hisoblanadi:

- Byudjetga oid ma’lumotlarning ochiqligi – fuqarolarning byudjetdan xabardorligi;

[24] https://uz.techconfronts.com/17199974-oecd-transcription-points-to-world-domination
[25] https://www.wipo.int/web-publications/global-innovation-index-2024/en/gii-2024-results.html

- Jamoatchilik ishtiroki – fuqarolarning budjet jarayonida qatnashish imkoniyati;
- Nazorat organlarining samaradorligi – parlament va auditorlik idoralarining faoliyati.

Budjet ochiqligi indeksini aniqlashda 145 ta indikator bo‘yicha tahlil o‘tkaziladi.

O‘zbekiston xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Biroq, quyidagi muhim yo‘nalishlarda ishlash zarur:

1. Elektron hukumat xizmatlarini rivojlantirish – davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish;
2. Statistik ko‘rsatkichlarning aniqligini oshirish – iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish;
3. Sanoat raqobatbardoshligini oshirish – qayta ishlovchi sanoat va eksport hajmini kengaytirish;
4. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish – chet ellik sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratish;
5. Innovatsion rivojlanishga e’tibor qaratish – ilm-fan va texnologiyalarga sarmoya kiritish;
6. Davlat boshqaruvi shaffofligini oshirish – korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy islohotlarni davom ettirish.

Mazkur yo‘nalishlarda samarali islohotlarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston xalqaro reytinglardagi o‘rnini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

5.3.O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash[26]

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi 2021-2030 yillarda kambag‘allik darajasini pasaytirish bo‘yicha asosiy muammolar va to‘siqlarni aniqlash hamda kambag‘allikka qarshi kurash bo‘yicha kompleks choratadbirlarni belgilash maqsadida milliy strategiya loyihasini ishlab chiqdi.Strategiyada mamlakatda kambag‘allik darajasi va uni o‘lchash hamda bu boradagi muammo va to‘siqlar haqida gap boradi.

Jumladan, ayni paytda mamlakatda amalda bo‘lgan kambag‘allikni jon boshiga kunlik iste’mol qilinishi lozim bo‘lgan kaloriyalar qiymatiga asoslangan holda o‘lchash uslubi – oziq-ovqat kambag‘alligi darajasining o‘lchovi bo‘lib, bu uslub odatda daromad darajasi o‘rtacha ko‘rsatkichning quyi qismida bo‘lgan mamlakatlar uchun qo‘llanilmasligi ta’kidlanadi.

[26] “Yangi O‘zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari” (E)ISSN: 2181-1784 4(21), May, 2024 www.oriens.uz
KAMBAG‘ALLIK TUSHUNCHASINI TUSHUNISHNING IJTIMOIY-SIYOSIY AHAMIYATI
https://doi.org/10.5281/zenodo.11643036

Shu sababli endilikda undan siyosatni shakllantirish jarayonidagi vosita sifatida foydalanish mumkin emasligi, bundan tashqari, ma’lumotlar to‘plash va kambag‘allik darajasini o‘lchashning amaldagi metodologiyasi xalqaro darajada taqqoslash o‘tkazish imkonini bermayotganligi aytiladi.

Vazirlikning ma’lum qilishicha, ayni paytda mamlakatga quyidagi imkoniyatlarni yaratadigan yangi yondashuvlar sinovdan o‘tkazilmoqda:

• O‘ta kambag‘allik darajasini xalqaro darajada qabul qilingan kambag‘allik chegarasi (kuniga 1,90 AQSH dollaridan kamroq mablag‘ hisobiga kun kechiradigan aholi ulushi) asosida hisoblash hamda kambag‘allik darajasini daromad darajasi o‘rtacha ko‘rsatkichning quyi qismida bo‘lgan mamlakatlar uchun belgilangan 3,20 AQSH dollariga teng bo‘lgan xalqaro kambag‘allik chegarasi darajasi asosida hisoblash;

• Kambag‘allikning turli jihatlarini aks ettirish maqsadida, sog‘liqni saqlash, ta’lim va uy xo‘jaliklarining daromad yoki xarajatlari kesimidagi ko‘rsatkichlarni birlashtirgan ko‘p o‘lchamli kambag‘allik indeksini ishlab chiqish milliy kambag‘allik darajasini mamlakat uchun minimal turmush darajasining yangi qabul qilingan o‘lchovidan foydalangan holda hisoblash.

2020-yilda hukumat tomonidan kiritilgan qat’iy karantin choralaridan so‘ng barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning yarmi pandemiyaning dastlabki bosqichida o‘z faoliyatini vaqtinchalik to‘xtatdi. 2020 yil yanvar oyida YAIM prognoz qilingan 5,7 foizdan 1,6 foizga tushib ketdi; tashqi savdo, investitsiyalar va pul o‘tkazmalari hajmi sezilarli darajada kamaydi. Bularning bari iqtisodiyotga va, ayniqsa, aholining kambag‘al qatlamiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadning o‘sishi barqaror bo‘lib qolgani bilan, hisob-kitoblarga ko‘ra, aholining 1,3 foizi (yoki 448 ming nafar inson) inqiroz tufayli kambag‘allik domiga tushdi.

Rasmiy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishildi. Xususan kambag‘allik darajasi 2000-yildan beri ikki barobarga kamayib, 2000-yildagi 28 foizdan 2019-yilda 11 foizga tushdi. Shu bilan birga, hududiy tengsizlik saqlanib qolmoqda va hatto yildan-yilga oshib bormoqda. Jahon banki tomonidan qabul qilingan chegara (Daromad darajasi o‘rtacha kesimning quyi qismida bo‘lgan davlatlar uchun xarid qobiliyati pariteti jon boshiga bir kunda 3,2 AQSH dollarini tashkil etadi) asosida baholanganda, 2018-yilda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 9,5 foizni tashkil etgan. Bu hisob-kitoblar “O‘zbekiston fuqarolarini tinglab” loyihasi doirasida olingan tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘zini “kambag‘al”, deb hisoblaydigan uy xo‘jaliklarining o‘z-o‘zini sub’ektiv tasniflash ko‘rsatkichlariga mos keladi. Bugungi kunda xalqaro miqyosda kambag‘allik chegarasini aniqlashning to‘rtta asosiy usuli mavjud.

1. Xalqaro kambag‘allik standartlari. Bu Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan daromad proporsional usuli bo‘lib, mamlakat yoki mintaqada yashovchi aholining o‘rtacha daromadining 50-60% qismi kambag‘allik chegarasi sifatida qabul qilinadi. Ushbu usulda eng minimal yashash darajasi asos qilib olinadi.

2. Bozor savati usuli (tirik ehtiyojlar usuli).Bu yondashuv “bozor savati” modeli deb ham atalib, kambag‘allik chegarasini aniqlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Eng zarur tovar va xizmatlar ro‘yxati tuziladi;

Ushbu tovar va xizmatlarning miqdori va turi aniqlanadi;

Bozor narxlari asosida hisob-kitob qilinadi va kambag‘allik chegarasi aniqlanadi.

3. Turmush tarzi usuli.Ushbu usulda odamlarning yashash darajasi, iste’mol xatti-harakatlari va turmush sharoitlari tahlil qilinadi.

Turli ijtimoiy va iqtisodiy mahrumlik ko‘rsatkichlari asosida, oila yoki shaxsning kambag‘allik holati aniqlanadi.

So‘ngra, ushbu mahrumlik darajasi, daromad va iste’mol ko‘rsatkichlari orqali kambag‘allik chegarasi hisoblanadi.

4. Engel koeffitsiyenti usuli.

Bu usul oziq-ovqat xarajatlari ulushiga asoslanadi.

Oilaning oziq-ovqatga sarflagan xarajatlari ma’lum Engel koeffitsiyentiga bo‘linib, minimal iste’mol xarajatlari aniqlanadi.

Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) kambag‘allik Engel koeffitsiyentini 60% dan yuqori deb belgilaydi.

AQShda esa, agar oila daromadining 1/3 qismi oziq-ovqat uchun sarflansa, u kambag‘al hisoblanadi, va unga ijtimoiy yordam ajratiladi.

Ko‘plab davlatlar oziq-ovqat xarajatlari ulushini kambag‘allik darajasini aniqlash va ijtimoiy yordam mexanizmini ishlab chiqish uchun asos sifatida qo‘llaydi.

Kambag‘allik muammosining turlari.kambag‘allik muammosini samarali hal qilish uchun uning turli shakllarini ajratish muhim. Kambag‘allik ikki asosiy guruhga bo‘linadi:

1. Makrokambag‘allik (mintaqaviy kambag‘allik)

Bu butun hudud yoki mamlakatning iqtisodiy qashshoqlik darajasini ifodalaydi.

Milliy kambag‘allik – butun mamlakat bo‘yicha kambag‘allik holati;

Hududiy kambag‘allik – ayrim mintaqalar, qishloq yoki shaharlar kesimidagi kambag‘allik;

Kam rivojlangan davlatlar kambag‘alligi – bu iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo‘lgan mamlakatlarga xos bo‘lib, rivojlanish iqtisodiyoti fanining asosiy tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi.

Bu yondashuvda mamlakatlar:

Past daromadli davlatlar – kambag‘al mamlakatlar;

Yuqori daromadli davlatlar – kambag‘al bo‘lmagan mamlakatlar sifatida ajratiladi.

2. Mikrokambag‘allik (individual kambag‘allik).Bu usulda kambag‘allik shaxslar va oilalar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. u turdagi kambag‘allik barcha mamlakatlarda mavjud bo‘lib, daromad va boylik notekis taqsimlangani sababli doimiy muammolar qatoriga kiradi.

Masalan, 2004 yilda AQShda kambag‘allik darajasi 12,7% ni tashkil etgan, ya’ni har sakkizinchi kishi kambag‘al bo‘lgan.

Agar makrokambag‘allik va mikrokambag‘allik birgalikda olib qaralsa, bu ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikning chuqurlashishiga olib kelishi mumkin.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Demografiya (Demography) – Aholining tuzilishini, o‘sishini, yosh guruhlarini, o‘lim va tug‘ilish ko‘rsatkichlarini o‘rganadigan fan.
2. Tug‘ilish ko‘rsatkichi (Birth Rate) – 1000 kishiga to‘g‘ri keladigan yiliga tug‘ilgan bolalar soni.
3. O‘lim ko‘rsatkichi (Death Rate) – 1000 kishiga to‘g‘ri keladigan yiliga vafot etganlar soni.
4. Aholi zichligi (Population Density) – Ma’lum bir hududdagi aholi sonining maydonga nisbati.
5. Yosh tuzilmasi (Age Structure) – Aholining yosh guruhlariga bo‘linishi, bu o‘rta yosh va qariyalar nisbati kabi omillarni o‘z ichiga oladi.
6. Ko‘p bolalik oilalar (Large Families) – Bir oiladagi bolalar sonining ko‘pligi, bu demografik ko‘rsatkichlar orasida muhim o‘rin tutadi.
7. Aholining shahar va qishloqdagi taqsimoti (Urban and Rural Population Distribution) – Aholining shahar va qishloq joylarida yashashga bo‘lgan taqsimoti.
8. Migration (Migratsiya) – Aholining turli hududlarga yoki mamlakatlarga ko‘chib o‘tishi, bu o‘zgarishlar demografik ko‘rsatkichlarga ta’sir qiladi.
9. Mehnat resurslari (Labor Force) – Aholining iqtisodiy faol qatlamiga kiradigan va ish kuchi bo‘lib ishlayotgan qismini tashkil etadi.
10. Yoshlar va qariyalar (Youth and Elderly) – Yoshlar va qariyalar nisbati iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni aniqlashda muhim indikatorlardir.
11. Yalpi ichki mahsulot (GDP) – Mamlakatning umumiy iqtisodiy faoliyatini o‘lchovchi ko‘rsatkich bo‘lib, O‘zbekistonning jahondagi iqtisodiy holatini ta’riflaydi.

12. Inson taraqqiyoti indeksi (HDI) – O‘zbekistonning ta’lim, sog‘liqni saqlash va daromad darajalariga asoslangan xalqaro reytingda qanday o‘rin tutishini ko‘rsatuvchi indikator.

13. Iqtisodiy erkinlik (Economic Freedom) – O‘zbekistonning iqtisodiy tizimida davlat va bozor kuchlarining qanday o‘zaro aloqada ekanligini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkich.

14. Kambag‘allik darajasi (Poverty Rate) – Aholining kambag‘allikka uchragan foizi, bu O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi o‘rnini belgilaydi.

15. O‘rta daromad guruhidagi mamlakatlar (Middle-income Countries) – O‘zbekistonning global darajada o‘rta daromadli mamlakatlar guruhiga kirishi.

16. Boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar (Developing Countries) – O‘zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlar safida joylashgan bo‘lib, ularga xos ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar.

17. Soliq tizimi (Tax System) – O‘zbekistonning soliq tizimi va uning iqtisodiy samaradorligi, xalqaro reytinglardagi pozitsiyalarini belgilaydi.

18. Global raqobatbardoshlik (Global Competitiveness) – O‘zbekistonning global raqobatbardoshlik reytingida o‘rni, iqtisodiy o‘sish va kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatlariga ta’sir etadi.

19. Mehnat bozoridagi holat (Labor Market Situation) – O‘zbekistonning mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va xalqaro reytinglardagi o‘rni.

20. Tashqi savdo (Foreign Trade) – O‘zbekistonning xalqaro savdo maydonidagi o‘rni, import va eksportning ta’siri kambag‘allikni qisqartirishda muhim rol o‘ynaydi.

Takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekistonda kambag‘allik qanday aniqlanadi va uning o‘lchovlari nimalardan iborat?
2. Kambag‘allikni aniqlashda qaysi iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar asosiy o‘lchovlar sifatida qabul qilinadi?
3. O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi qanday hisoblanadi va bu jarayonni boshqarish uchun qanday metodologiyalar qo‘llaniladi?
4. Kambag‘allikni aniqlashda ishlatiladigan daromad darajasi va ehtiyoj chegarasi qanday belgilangan?
5. O‘zbekistonda kambag‘allikni o‘lchashda nechta asosiy usul mavjud va ular bir-biriga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
6. Kambag‘allikning turli shakllari (absolyut va nisbiy kambag‘allik) O‘zbekistonda qanday ta’riflanadi?
7. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish uchun amalga oshirilgan dasturlar va siyosatlarning samaradorligi qanday o‘lchanadi?

8. O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlashda ijtimoiy yordam va resurslar taqsimoti qanday rol o‘ynaydi?

9. Kambag‘allikni aniqlashda daromad taqsimoti va uning tengsizlik darajasi qanday hisobga olinadi?

10. O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlashda aholi guruhlari (ayollar, bolalar, qishloq aholisi) o‘rtasidagi farqlar qanday hisobga olinadi?

VI BOB. O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI

6.1. Mahalliy aholining daromadlari tarkibi va sifati.
6.2. O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlashda davlat siyosati.

6.1. Mahalliy aholining daromadlari tarkibi va sifati

Mehnatga qobiliyatli aholi o‘zining kasbi va hunar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatib ishlaydi. Bajargan ishga qarab unga haq to‘lanadi. Berilgan pul ko‘rinishidagi to‘lov uning daromadi bo‘ladi.

Aholi daromadlari ma’lum vaqt oralig‘ida (masalan, bir yilda) ular tomonidan olingan pul va natural shaklidagi tushumlar miqdorini bildiradi.

Iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkich "daromad" nomi bilan yuritiladi. Daromad bir vaqtning o‘zida biron-bir faoliyat natijasida olingan tushumning mablag‘larining, natural ko‘rinishda olingan mahsulotlarni, iqtisodiy resurslar keltiruvchi nafni bildiradi. Daromad umumiy tushuncha bo‘lib, uning tarkibida aholi daromadlarni muhim o‘rin tutadi.

Aholi daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklida olinadigan daromadlarni, qimmatli qog‘ozlar, ko‘chmas mulk, qishloq xo‘jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko‘rsatishdan kelib tushadigan daromadlarni o‘z ichiga oladi.

Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo‘jaliklarining o‘z iste’mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlaridan iborat bo‘ladi. Aholi daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal, ixtiyorida bo‘lgan va real daromad tushunchalaridan foydalanadi.

Nominal daromad - aholi tomonidan ma’lum vaqt oralig‘ida olingan daromadlarning pul ko‘rinishidagi miqdori hisoblanadi.

Ixtiyorida bo‘lgan daromad - shaxsiy iste’mol va jamg‘arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo‘lgan daromad. Bu daromad nominal daromaddan soliqlar va majburiy to‘lov summasidan kam bo‘ladi.

Real daromad-narx darajasi o‘zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdorini ko‘rsatadi, ya’ni daromadnig xarid quvvati bildiradi.

AholiniNg nominal pul daromadlari turli manbalar hisobiga shakllanadi va ular quyidagilar hisoblanadi.

1. Ishlab chiqarish omillari hisobiga olinadigan daromad;
2. Davlat yordam dasturlari bo‘yicha to‘lov va imtiyozlar shaklidagi pul tushumlari;
3. Moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pul daromadlari.

Aholi nominal daromadlari - bu ish haqi, pensiya ta’minoti, davlat sug‘urtasi bo‘yicha tulovlar; shaxsiy qurilishiga va matlubot jamiyati a’zolariga bank ssudalari; jamg‘arma bankiga qo‘yilmalar bo‘yicha foizlar; aktsiya, obligatsiya bahosining ko‘payishidan olinadigan daromad va zayom bo‘yicha tulovlar; lotereya bo‘yicha yutuqlar; tovarlarni kreditga sotib olish natijasida tashkil topadigan, vaqtincha bo‘sh mablag‘lar, har xil turdagi kompensatsiya to‘lovlari va h.k.

Aholi turmush darajasi tushunchasiga, ularning hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne’matlari bilan qondirilishi darajasi sifatida aniqlash mumkin. Aholi turmush darajasining BMT tomonidan tavsiya etilgan ko‘rsatkichlari tizimi o‘z ichiga qo‘yidagi guruhlarni oladi:

1.Tug‘ilish va o‘lish darajasi hamda boshqa demografik ko‘rsatkichlar.

2.Hayot kechirishning sanitar-gigiena jihatidan sharoitlari.

3.Oziq-ovqat tovarlarni iste’mol qilish.

4.Turar joy sharoitlari.

5.Ma’lumot va madaniyat.

6.Mehnat qilish va bandlik sharoitlari.

7.Aholining daromadlari va xarajatlari.

8.Hayot kechirish qiymati va iste’mol narxlari.

9.Transport vositalari.

10.Dam olishni tashkil etish

11.Ijtimoiy ta’minot

12.Inson erkinligi.

Turmush darajasini mamlakat darajasida (butun aholi uchun) va tabaqalashgan mikrodarajasida (aholinig alohida guruhi uchun) qarab chiqish mumkin.

Birinchidan, yondashuv turli mamlakatlarda aholining turmush darajasining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichi bo‘yicha aniqlab, qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Aholi guruxlari bo‘yicha daromadlar taqsimlanishi dinamikasini taqqoslash iste’mol byudjeti asosida amalga oshiriladi. Iste’molchi byudjetlarinig bir qator turlari mavjud bo‘ladi: o‘rtacha oila byudjeti, yuqori darajada ta’minlangan byudjet, minimal darajada moddiy ta’minlanganlar byudjeti, nafaqaxo‘rlar va aholi boshqa ijtimoiy guruhlari byudjeti shular jumlasidandir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘rtacha daromad "o‘rtacha sinf" deb ataladigan tabaqalar daromadlari bo‘yicha aniqlanadi. Bunday gurux iste’mol savati to‘plamiga uy, avtomashina, dal hovli, zamonaviy uy jihozlari, sayr qilish va bolalar o‘qitishi imkoniyati, qimmatli qog‘ozlar va zebu ziynat buyumlari kiradi. Bozor iqtisodiyoti aholining yuqori ta’minlangan yoki "boy" qatlaminig mavjud bo‘lishini taqazo qilib, ularga

aholining yuqori sifatli tovar va xizmatlar xarid qilishga layoqatli bo‘lgan juda oz miqdori kiradi.

Faravonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining bundan past darajasida ishchi kuchini talkor hosil qilishni ta’minlab bo‘lmaydi. Bu daraja moddiy ta’minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi (qishloqning boshlanishi) sifatida chiqadi. Turmush darajasi kishilarning turmush tarzi bilan uzviy bog‘liq.

Turmush tarzi - bu kishilar (jamiyat, ijtimoiy qatlam, shaxs)ning milliy va Jahon hamjamiyatidagi hayot faoliyati hamda usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy- iqtisodiy kategoriya, turmush tarzi inson hayot faoliyatining turli jihatlarini qamrab oladi, ya’ni:

1. Mehnat, uni tashkil etishning ijtimoiy shakllari.
2. Turmush va bo‘sh vaqtdan foydalanish shakllari;
3.Siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish;
4.Moddiy va manaviy ehtiyojlarini qondirish shakllari;
5.Kishilarning kundalik hayotidagi hulq-atvori me’yorlari va qoidalari.

Kishilar hayoti faoliyati uchun zarur ne’matlar to‘plami mehnat sharoiti, ta’lim, sog‘liqni saqlash, oziq-ovqat va uy-joy sifati kabi xilma-xil ehtiyojlarini o‘z ichiga oladi. Kishilar ehtiyojlarini qondirish darajasi jamiyat a’zolarining aholida olgan va oilaviy daromadlari darajasiga bog‘liq. Ya’ni, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi milliy daromad, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi iste’mol hajmi va boshqalar daromad manbalari hisoblanadi.

6.2.O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlashda davlat siyosati[27]

Bugungi kunda har bir davlatning rivojlanish strategiyasida milliy va global miqyosda kambag‘allikka qarshi kurashish, gender tengligini ta’minlash, ijtimoiy himoya choralarini amalga oshirish hamda boshqa muhim masalalar bo‘yicha zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish belgilangan. Chunki bu jarayon shaxs, jamiyat va davlatning buguni va kelajagini, shuningdek, barqaror rivojlanish asoslarini o‘z ichiga oladi. Kambag‘allikka qarshi kurash uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, institutsional va tizimli yondashuvni talab etadi. Shu sababli davlat kambag‘al aholi qatlamining umumiy tarkibdagi ulushini aniq belgilash va ularning hayot darajasini yaxshilash bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida kambag‘allikni qisqartirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilagan. Unga ko‘ra, hududlarda, ayniqsa, qishloq joylarda aholining ko‘pchiligi yetarli daromad

[27] O‘ZBEKISTONDA KAMBAG’ALLIKNI KAMAYTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY HOLATLARINI BAHOLASH - DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA

manbaiga ega emas. Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, O‘zbekistonda kam ta’minlangan aholi ulushi 12-15 foizni tashkil etadi, bu esa taxminan 4-5 million kishiga teng. Murojaatnomada ta’kidlanganidek, kambag‘allikni kamaytirish uchun aholida tadbirkorlik ruhini shakllantirish, inson salohiyatini to‘liq yuzaga chiqarish va yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish lozim.

O‘tgan ikki yil ichida ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 1,4 barobarga, nafaqalar miqdori esa 2 barobarga oshdi. Kam ta’minlangan oilalar uchun bolalar nafaqasi va moddiy yordam ajratish 2017-yilga nisbatan 5 barobarga ortib, 2024-yilda davlat byudjetidan 20 trillion so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi. 2023-yil oktabr oyiga kelib, ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam oluvchi oilalar soni 2 million 998 mingga yetdi, bu esa umumiy oilalar sonining 23,6 foizini tashkil etadi.

Oxirgi yillarda O‘zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini mustahkamlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rildi. 2021-yildan boshlab UNICEF ishtirokida ishlab chiqilgan “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi joriy etildi. Bu tizim 17 ta vazirlik va idoraning ma’lumotlar bazalari bilan integratsiyalashgan holda 70 dan ortiq turdagi ma’lumotlarni avtomatik yig‘ish va tahlil qilish imkonini berdi.

Bugungi kunda bolalar nafaqasi oluvchilar soni 2 million 223 ming oilani yoki umumiy oilalar sonining 23,1 foizini tashkil etadi. 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarning 42,7 foizi ushbu nafaqalar bilan qamrab olingan. Har bir bola uchun o‘rtacha yillik to‘lov miqdori 5 million 545 ming so‘m (491 AQSh dollari) yoki har bir oila uchun 2 million 414 ming so‘m (214 AQSh dollari)ni tashkil etmoqda. Nafaqa oluvchi oilalardagi bolalarning o‘rtacha soni esa 2,3 nafarni tashkil qiladi. Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam oluvchilar soni 75,1 ming oilaga yetdi.

Biroq, kam ta’minlangan aholiga nafaqa va moddiy yordam pullari to‘lash yoki ularning miqdorini oshirish kambag‘allik muammosini to‘liq hal qilmaydi. Shu sababli Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “xalqimizga baliq berish emas, balki baliq tutishni o‘rgatishimiz lozim”. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha milliy dastur ishlab chiqish taklifini ilgari surdi. Bu dasturning asosiy maqsadi kambag‘allik tushunchasini aniq belgilash, uning mezonlarini ishlab chiqish hamda baholash uslublarini ishlab chiqishdan iborat.

Kambag‘allikni baholashning xalqaro tajribada to‘rtta asosiy mezoni mavjud:

Mutlaq kambag‘allik – insonning minimal ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli daromadga ega emasligi;

Nisbiy kambag‘allik – odamlarning daromadlari jamiyatdagi o‘rtacha daromadga nisbatan past bo‘lishi;

Moddiy deprivatsiya – insonning muhim xizmatlardan (ta’lim, tibbiyot, oziq-ovqat va boshqalar) foydalana olmasligi;

Ko‘p o‘lchamli kambag‘allik indeksi – inson taraqqiyoti darajasi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va daromadning kombinatsiyasi.

Mutlaq kambag‘allik konsepsiyasida Jahon banki kambag‘allik chegarasini 3,65 AQSh dollari kunlik daromad sifatida belgilaydi. Ba’zi rivojlangan mamlakatlarda bu mezon aholi jon boshiga YaIMning 25 foizidan kelib chiqib belgilanadi. Nisbiy kambag‘allik mezoniga ko‘ra, ba’zi mamlakatlarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha daromadning 50-75 foizi orasida aniqlanadi.

Kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha quyidagi asosiy vazifalar belgilangan:

BMT Taraqqiyot dasturi va Jahon banki bilan birga “2030-yilgacha O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish strategiyasini” ishlab chiqish.

Aholining minimal iste’mol xarajatlarini baholash va ehtiyojmand oilalarni aniqlash.

“Ijtimoiy reyestr” orqali ehtiyojmand oilalarni qamrab olish va ijtimoiy xizmatlarni elektron shaklda ko‘rsatish.

Ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash va ularni tizimli tarzda oshirib borish.

Hududlarning iqtisodiy salohiyatini kambag‘allikni qisqartirish yo‘lida safarbar qilish.

Yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘rgatish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash.

Aholining sog‘ligini mustahkamlash va ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha prognozlar ishlab chiqish.

Kambag‘allikka qarshi kurash bo‘yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, kambag‘allikni qisqartirish uzoq muddatli strategik yondashuvni talab etadi. Aholining hayot sifatini yaxshilash, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va barqaror taraqqiyot sari intilish mamlakat rivojlanishining muhim omillaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Daromadlar tarkibi (Income Composition) – Aholining daromad manbalarining taqsimlanishi, masalan, mehnat daromadlari, mulk daromadlari, yordamlar va boshqa manbalar.

2. Mehnat daromadlari (Labor Income) – Aholining mehnat faoliyatidan olgan daromadlari, ish haqi va oylik to‘lovlar.

3. Oziq-ovqat daromadlari (Food Income) – Oziq-ovqat mahsulotlari va iste’mol tovarlaridan olinadigan daromad.

4. Ijtimoiy to‘lovlar (Social Transfers) – Hukumat tomonidan kambag‘al va muhtoj oilalarga beriladigan nafaqa, yordamlar va ijtimoiy yordamlar.

5. Daromadning ijtimoiy tengsizligi (Social Inequality of Income) – Aholining daromadlari o‘rtasidagi farq, bu kambag‘allikni shakllantiruvchi omil.

6. Daromadlarning o‘sishi (Income Growth) – Aholining umumiy daromadlarining yillik o‘sish sur’ati, iqtisodiy rivojlanishning muhim ko‘rsatkichi.

7. Daromadlar bo‘yicha farqlanish (Income Disparities) – Aholi guruhlari o‘rtasidagi daromadlarning farqlanishi va bu kambag‘allikka ta’siri.

8. Iqtisodiy farovonlik (Economic Welfare) – Aholining iqtisodiy holati, uning daromadlari va farovonligi kambag‘allikni kamaytirishdagi asosiy maqsad.

9. Ijtimoiy himoya (Social Protection) – Daromadlar tengsizlikni kamaytirish uchun hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan yordam dasturlari.

11. Kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi (Poverty Reduction Strategy) – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan davlatning uzun muddatli siyosiy va iqtisodiy strategiyasi.

12. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat (Social and Economic Policy) – Aholining daromadlari, sog‘liqni saqlash, ta’lim va bandlik sohalaridagi siyosat.

13. Iqtisodiy inqiroz (Economic Crisis) – Davlatning kambag‘allikni kamaytirishdagi siyosatiga salbiy ta’sir qiluvchi iqtisodiy muammolar.

14. Daromadlarni taqsimlash siyosati (Income Distribution Policy) – Aholi o‘rtasidagi daromadlarni teng taqsimlashga qaratilgan davlat siyosati.

15. Ijtimoiy xizmatlar (Social Services) – Aholiga taqdim etiladigan xizmatlar (ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy yordamlar) kambag‘allikni kamaytirishga yordam beradi.

16. Kambag‘allarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari (Poverty Alleviation Programs) – Kambag‘allarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan hukumat dasturlari.

17. Bandlik siyosati (Employment Policy) – Aholining bandligini oshirish va kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan siyosat.

18. Soliq siyosati (Tax Policy) – Davlat daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishga yordam beradigan soliqlarning tahlili.

19. Soliq solishdagi progressivlik (Progressive Taxation) – Kambag‘allikni qisqartirishga yordam berish uchun yuqori daromad oladiganlarni yuqori soliqlar bilan solash siyosati.

20. Iqtisodiy islohotlar (Economic Reforms) – Kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun amalga oshiriladigan iqtisodiy islohotlar.

Takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari qanday?
2. Kambag‘allikni qisqartirishda davlat tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligi qanday baholanadi?
3. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish uchun qanday ijtimoiy himoya tizimlari mavjud?
4. Kambag‘allikni qisqartirish uchun davlat byudjeti va soliq siyosatining ahamiyati qanday?
5. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda ta’lim, sog‘liqni saqlash va ish o‘rinlari yaratish sohalarining roli qanday?
6. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan maxsus dasturlar va loyihalar qanday amalga oshirilmoqda?
7. Davlatning kambag‘allikni qisqartirishdagi ijtimoiy yordam va yordam dasturlari qanday natijalar ko‘rsatmoqda?
8. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda qishloq joylarida amalga oshirilayotgan siyosat va dasturlar qanday?
9. Kambag‘allikni qisqartirishda xususiy sektor va davlat sektorining o‘zaro hamkorligi qanday tashkil etilgan?
10. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda xalqaro tashkilotlar va donor mamlakatlar bilan hamkorlik qanday amalga oshiriladi?

VII BOB. AHOLI DAROMADLARINI TABAQALANISHI

7.1.Daromadlar siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari.
7.2.Aholi daromadlari shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.
7.3.Aholi daromadlarining turkumlanishi.
7.4.Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish.

7.1.Daromadlar siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari

So‘nggi o‘n yilliklar davomida (60-yillarning oxiri – 90-yillarning boshlari) bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda mehnat bozorini tartibga solish va daromadlar siyosati orqali inflyatsiyaga qarshi kurash bo‘yicha katta tajriba to‘plangan. Ushbu tajribani umumlashtirish va tahlil qilish mamlakatimiz mutaxassislari uchun qimmatli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

70-yillar va 80-yillarning boshlarida bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lib, narxlarning tez ko‘tarilishi kuzatildi. Xususan, 70-yillarda jahon bozorida neft narxining keskin o‘sishi (taxminan 20 barobarga) inflyatsiyaning asosiy sabablaridan biri sifatida qayd etilgan. Bu jarayonda energiya resurslari, kimyo xomashyosi va boshqa tovarlarning narxi ham sezilarli darajada oshdi.

Turli mamlakatlar ushbu inflyatsiyaga qarshi kurashda davlat tomonidan narxlarni tartibga solish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita choralardan foydalangan. Davlat xarajatlarini qisqartirish, budjet taqchilligini kamaytirish, soliqlarni oshirish hamda pul-kredit siyosatini cheklovchi mexanizmlar inflyatsiyani jilovlashning muhim usullari bo‘ldi.

Aholi daromadlari pul mablag‘lari va natural shakldagi tushumlarni o‘z ichiga oladi. Ular xodimlarning mehnati natijasida shakllanadi va daromad manbalarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Inflyatsiyaga qarshi kurash mexanizmini ishlab chiqish nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. “Xarajatlar inflyatsiyasi” nazariyasiga ko‘ra, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi, xususan, ish haqi o‘sishi narxlarning oshishiga sabab bo‘ladi. Bu jarayonda “Ish haqi – narxlar” spirali mexanizmi ishlaydi: ish haqi oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini ko‘paytiradi, bu esa o‘z navbatida, kompaniyalarning mahsulot narxlarini oshirishga majbur qiladi. Natijada, iste’mol tovarlari qimmatlashadi, aholi esa yana ish haqi oshirishni talab qiladi va bu holat doimiy takrorlanib boradi. Mehnat unumdorligi yuqori bo‘lsa, narxlarga bosim kamayadi, aksincha, mehnat unumdorligi past bo‘lsa, narxlarning o‘sishi yanada jadallashadi.

Iqtisodiyotda tez rivojlanayotgan tarmoqlarda mehnat haqini tenglashtirish intilishi muvozanat buzilishiga va inflyatsiyaning kuchayishiga olib keladi. Ayniqsa, yuqori malakali mutaxassislarning

yetishmovchiligi kuzatilayotgan yuqori unumdorlikka ega sektorlar yoki tarmoqlarda daromadlarni tenglashtirishga urinishlar iqtisodiyotda umumiy ish haqi oshishiga sabab bo‘ladi, bu esa oxir-oqibat butun iqtisodiyot bo‘ylab mehnat unumdorligi o‘sishidan yuqori darajada ish haqi oshishiga olib keladi.

Aslida, ish haqining chegaralari mavjud bo‘lib, uning samaradorligi bilan bog‘liq ikkita muhim omil – ish beruvchilarning mehnat unumdorligiga bergan bahosi va eng kam ish haqi belgilaydi. Ish beruvchi hech qachon xodimga uning keltiradigan daromadidan ko‘proq maosh to‘lamaydi. Quyi chegara esa rasmiy minimal ish haqi yoki boshqa firmalar bilan solishtirilgan ish haqi darajasida belgilanadi.

Shunday qilib, ish haqi xarajatlari inflyatsiyasining asosida mehnat unumdorligi qonunining buzilishi yotadi. Bu buzilishni muvozanatlashtirishga urinish iqtisodiyotdagi o‘zaro bog‘liq korxonalarda narxlarning oshishiga olib keladi. Natijada, inflyatsiya ichki iqtisodiy barqarorlikka putur yetkazadi, to‘lov balansi taqchilligini keltirib chiqaradi va muvozanat keskin buzilgan hollarda iqtisodiy inqirozga sabab bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy nazariya ushbu muammoni hal qilish uchun uchta asosiy yo‘lni taklif etadi:

1. Narxlar va daromadlarning o‘sishini davlat tomonidan qat’iy tartibga solish;
2. Daromadlarning tartibsiz rivojlanishiga yo‘l qo‘yish, bu esa iqtisodiy sikllarning (o‘sish, barqarorlik va pasayish) almashinib borishiga olib keladi;
3. Davlat, kasaba uyushmalari va tadbirkorlarning kelishuvi asosida daromadlar siyosatini amalga oshirish, bu orqali milliy daromadning doimiy o‘sishini ta’minlash va uni adolatli taqsimlash.

Mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta’minlash uchun quyidagi asosiy masalalar hal etilishi lozim:

- Aholi daromadlarining pasayishi;
- Ishsizlik darajasining oshishi;
- Inflyatsiyaning nazoratdan chiqishi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda aksariyat korxonalar xususiylashtirilgan bo‘lsada, asosiy daromad manbalari hali ham davlat qo‘lida. Murakkab va katta mablag‘ talab qiluvchi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun davlat sektori muhim rol o‘ynaydi. Soliq tizimini to‘g‘ri tashkil qilish, daromadi yuqori korxonalardan soliqlarni oshirib, kam rivojlangan tarmoqlarga qo‘llab-quvvatlash berish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish modeli ichki bozorda narxlar va xizmatlar erkinlashtirilishini bosqichma-bosqich amalga oshirishni nazarda tutadi. 1991-1994-yillar oralig‘ida daromad shakllantirish

jarayoni nisbatan yumshoq moliyaviy va budjet siyosati asosida olib borildi. Bu davr quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turdi:

- Aholi pul daromadlari ustidan zaif nazorat;
- Iste'mol subsidiyalarining yuqori ulushi;
- Aholining shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari orqali daromad topish imkoniyatining kengayishi;
- Ishsizlikning sun'iy ravishda past darajada saqlanishi.

1994-1996-yillarda qat'iyroq pul-kredit va budjet siyosati joriy qilindi, bu esa daromad siyosatiga ham ta'sir qildi. Bu bosqichda:

- Aholi pul va yalpi daromadlari o‘sishni boshladi;
- Mulkchilik va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar ulushi oshdi.

Iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar, yashirin ishsizlikning o‘sishi va ishlab chiqarishning pasayishi real daromadlarning kamayishiga olib keldi. Ayniqsa, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan sohalardagi daromadlar sezilarli darajada qisqardi. Biroq, aholining tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromadlari ortib, tomorqa xo‘jaliklarining ahamiyati oshdi.

Xulosa qilib aytganda, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida daromadlar siyosatini to‘g‘ri tashkil etish, mehnat unumdorligi va inflyatsiya o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, davlat tomonidan ishlab chiqilgan soliq va iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

7.2.Aholi daromadlari shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Bozor iqtisodiyoti sharoitida taqsimot munosabatlarida sodir bo‘layotgan jarayonlar iqtisodiy nazariyani qayta tahlil qilishni talab qiladi. Bu, eng avvalo, “aholi daromadlari” tushunchasini aniqlashtirish, daromadlarning tabaqalanishi, aholi turmush darajasidagi o‘zgarishlarni kuzatish hamda davlat daromadlar siyosatini shakllantirish jarayonlarini chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda aholi daromadlarining mohiyatini tushuntirish bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular o‘z tadqiqot doirasiga qarab turlicha talqin qilinadi. Umumlashtirib aytganda, bu yondashuvlar ikki asosiy yo‘nalishda shakllangan:

1. Miqdoriy tahlil – bu yondashuv aholi daromadlarini "muayyan vaqt ichida tushgan pul mablag‘lari yoki natural shakldagi tushumlar yig‘indisi" sifatida belgilaydi. Bu holda asosiy e'tibor daromadlarning talab va taklifga ta'siri hamda ularning ishlab chiqarish omillari bilan bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan.
2. Sifat jihatidan yondashuv – daromadlar faqat pul yoki natural tushum sifatida emas, balki aholining hayot sifati va ijtimoiy farovonligiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida tahlil qilinadi.

Aholi daromadlari – bu shaxs yoki uy xo‘jaligi tomonidan turli manbalardan muayyan davr davomida olingan mablag‘lar bo‘lib, ular iste’mol, jamg‘arma va soliqlarga yo‘naltiriladi. Mazkur ta’rifda davlat tomonidan aholiga taqdim etiladigan bepul xizmatlar inobatga olinmagan.

Iqtisodchi Yu.P. Kokinning ta’kidlashicha, “umumiy daromad aholining moddiy ta’minlanganligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, pul tushumlari, shaxsiy yordamchi xo‘jalikdan olingan daromad va iste’mol qilingan natural tushumlarni o‘z ichiga oladi.” Shu sababli, daromadlarni faqat moliyaviy tushumlar orqali tahlil qilish natijaning to‘liq bo‘lmasligiga olib keladi, chunki kam ta’minlangan aholi qatlamlari uchun davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar muhim rol o‘ynaydi.

Daromadlarning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar

Aholi daromadlarining shakllanishi bir qator muhim omillar bilan bog‘liq:

- Xodimning shaxsiy sifatlari va mehnat samaradorligi;
- Ish beruvchining iqtisodiy imkoniyatlari va tashkilotning umumiy faoliyat natijalari;
- Umuman iqtisodiyotning rivojlanish darajasi;
- Davlatning soliq va ijtimoiy siyosati;
- Mulkchilik shakllari va xo‘jalik yuritish tizimi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar mulkchilik munosabatlarini amalga oshirish shakllari sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qoladi. Mulkchilik munosabatlari har qanday iqtisodiyotning asosini tashkil etadi. Mulk egasi bozor munosabatlariga kirar ekan, u moliyaviy boyliklardan qanday foydalanish, ularni boshqarish va egallash bo‘yicha iqtisodiy qarorlar qabul qiladi. Shu bois, mulk shakli daromadlar manbalarini aniqlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Aholi daromadlarining tarkibi va asosiy funksiyalari

Aholi daromadlari iqtisodiy kategoriya sifatida:

- Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va davlat o‘rtasidagi munosabatlar;
- Uy xo‘jaliklari va individlar o‘rtasida yangi yaratilgan qiymatni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarini aks ettiradi.

Daromadlarning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Qayta tiklovchi funksiya – aholining turmush tarzini doimiy ravishda barqarorlashtirish uchun daromadlarni shakllantirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi ulushi kamaygan bo‘lsa-da, shaxsiy yordamchi xo‘jalik va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarning ahamiyati ortib bormoqda.
2. Maqomiy funksiya – shaxsning jamiyatdagi mavqei va asosiy ehtiyojlarini qondirish darajasi uning daromadlari bilan bevosita bog‘liq. P. Samuelson fikriga ko‘ra, “inson to‘g‘risidagi hukm u oladigan daromadga qarab chiqariladi”.

3. Rag‘batlantiruvchi funksiya – insonlarning malaka va bilim darajasini oshirish, samarali faoliyat yuritishga undash. Daromad mehnat natijalariga bog‘liq bo‘lishi kerak.

4. Farovonlikni oshirish funksiyasi – aholi daromadlari jamiyatning umumiy iqtisodiy farovonligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Daromadlar nafaqat moddiy ehtiyojlarni qondirish, balki ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, ekologik muhitni yaxshilash kabi jihatlarni ham qamrab oladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining daromad tarkibida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi:

1. Daromad shakllari diversifikatsiyalandi – ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyadan tashqari, tadbirkorlik faoliyati, mulkdan tushgan daromad, qimmatli qog‘ozlar va xorijiy valyuta operatsiyalaridan tushgan daromadlar paydo bo‘ldi.

2. Daromadlarning miqdoriy va sifat tarkibi o‘zgardi – aholining real daromadlari, xarid qobiliyati va tirikchilik minimumi kabi tushunchalar iqtisodiy baholash mezonlariga aylangan.

3. Daromadlardan foydalanish yo‘nalishlari kengaydi – soliqlar va majburiy to‘lovlar, qimmatli qog‘ozlar sotuvi, tijorat banklariga investitsiyalar kabi yangi daromad boshqarish usullari yuzaga keldi.

Shuningdek, mulkchilik munosabatlarining tubdan o‘zgarishi va mehnat bozorining shakllanishi natijasida daromadlar tarkibida ham jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Daromadlarning asosiy shakllari quyidagilarga bo‘linadi:

- Ish haqi va tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;
- Shaxsiy yordamchi xo‘jalik, pensiya va ijtimoiy yordamlar;
- Qimmatli qog‘ozlar va xorijiy valyuta operatsiyalaridan tushumlar.

Aholi daromadlarini yanada chuqur tahlil qilish uchun ularni pul va natural shakllarga, doimiy va tasodifiy daromadlarga, shuningdek, ishlab chiqarish va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlarga ajratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlarining shakllanishi murakkab iqtisodiy jarayon bo‘lib, mulkchilik munosabatlari, soliq tizimi va davlatning ijtimoiy siyosati bilan chambarchas bog‘liqdir.

7.3. Aholi daromadlarining turkumlanishi

Aholi daromadlari, ularning tarkibi, kelib chiqish manbalari va tabaqalanish darajasi jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy farovonligining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Daromadlar insonning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishning asosiy manbasi bo‘lib, ular aholi turmush darajasining markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. Shu bois, daromad

tushunchasini aniqlash, ularning turlari va asosiy manbalarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsiy daromadlar tushunchasi va ularning shakllanishi**.**Shaxsiy daromadlar – bu inson tomonidan pul yoki natural shaklda olingan mablag‘lar bo‘lib, ular turmush darajasini ta’minlash uchun sarflanadi. Agar shaxsiy daromadlarning shakllanish manbalarini hisobga olsak, u quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- Mehnat faoliyati – inson mehnati evaziga topgan daromadlar;
- Mulkchilik huquqlari – ishlab chiqarish vositalari va boshqa boyliklarga egalik qilish natijasida olingan daromadlar;
- Ijtimoiy transfertlar – davlat tomonidan ma’lum guruhlarga ajratiladigan pensiya, nafaqa, stipendiya va boshqa to‘lovlar.

Iqtisodchilarning ta’kidlashicha, har bir ishlab chiqarish omili muayyan turdagi shaxsiy daromadlar bilan bog‘liq.

Daromadlarning turlari va ularning taqsimlanishi. Ishlab chiqarish omillari nazariyasiga ko‘ra, asosiy ishlab chiqarish omillari va ularning daromad shakllari quyidagilardan iborat:

- Tabiiy resurslar – yer va tabiiy boyliklardan olingan daromadlar (renta);
- Kapital – investitsiya va moliyaviy aktivlardan olingan daromadlar (foiz, dividend);
- Mehnat – ish haqi ko‘rinishida shakllanadigan daromad;
- Tadbirkorlik – biznes yuritish va boshqaruv faoliyatidan olinadigan foyda.

Biroq, real iqtisodiy sharoitda daromadlarning bu tarzda taqsimlanishi har doim ham mukammal ishlamaydi, chunki:

- Bozorda nomukammal raqobat mavjud bo‘lib, u ishlab chiqarish omillariga teng taqsimlanmagan daromad keltiradi;
- Jamiyatda mulk va boyliklar taqsimlanishida tabiiy tengsizlik mavjud bo‘lib, bu daromadlar taqsimotiga bevosita ta’sir qiladi;
- Ishlab chiqarish omillarining egalari jamiyat a’zolariga nisbatan kamroq bo‘lgani sababli, daromadlarning notekis taqsimlanishi kuzatiladi.

Daromadlar taqsimlanishiga ko‘ra, ular birlamchi va ikkilamchi daromadlarga bo‘linadi:

- Birlamchi daromadlar – ishlab chiqarish omillari orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri hosil bo‘ladigan daromadlar (ish haqi, foyda, renta, tadbirkorlik daromadi);
- Ikkilamchi daromadlar – birlamchi daromadlarni qayta taqsimlash natijasida shakllanadigan daromadlar (pensiya, nafaqa, stipendiya, davlat yordam to‘lovlari).

Renta – tabiiy resurslardan foydalanish natijasida olingan daromad bo‘lib, u yer yoki boshqa tabiiy boyliklardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan ijara haqi shaklida namoyon bo‘ladi.

Kapitaldan daromad – kapitaldan olingan daromad (dividendlar, foizlar, ijara haqlari) bo‘lib, u jamiyatda ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadbirkorlik daromadi – ishlab chiqarish jarayonida barcha omillarni birlashtirish natijasida tadbirkor tomonidan olingan foyda bo‘lib, bu daromad doimiy xavf bilan bog‘liq. Tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati ushbu daromadning hajmiga bevosita ta’sir qiladi.

Aholi daromadlari quyidagi asosiy tamoyillar asosida shakllanadi:

1. Mehnatga qarab taqsimlash – daromadlar inson mehnati natijasi va sarflagan harajatlariga bog‘liq ravishda taqsimlanadi;
2. Mulkchilik asosida taqsimlash – inson egalik qiladigan mulk turiga qarab daromad olishi mumkin;
3. Ijtimoiy himoya tamoyili – davlat aholining zaif guruhlarini qo‘llab-quvvatlash uchun ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatadi.

Aholi daromadlarini tahlil qilish.Aholi daromadlarini baholash uchun uchta asosiy ko‘rsatkich mavjud:

- Jami daromadlar – barcha manbalar bo‘yicha to‘plangan umumiy daromad miqdori;
- Nominal daromadlar – aholi tomonidan olingan pul daromadlari bo‘lib, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisobga olmagan holda ko‘rsatiladi;
- Real daromadlar – narxlar darajasi o‘zgarishini hisobga olgan holda aholining sotib olish qobiliyatini ifodalovchi ko‘rsatkich.

Real va nominal daromadlar o‘rtasidagi farq inflyatsiya va soliqlar ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Daromadlarning tenglashish va tabaqalanish omillari**.** Aholi daromadlarining shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar ikki guruhga bo‘linadi:

1. Tenglashtiruvchi omillar:
   - Oila a’zolari ish haqlarining qo‘shilishi;
   - Oila tarkibida pensiya oluvchilarning mavjudligi;
   - Oila a’zolari tomonidan qo‘shimcha yordamlar olish.
2. Tabaqalashtiruvchi omillar:
   - Ishlay olmagan yoki mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining mavjudligi;
   - Oila a’zolari o‘rtasida ish bilan band va band bo‘lmaganlar nisbati.

Aholi daromadlari kelib chiqishiga ko‘ra quyidagi manbalardan shakllanadi:

- Korxona iste’mol fondlaridan – ish haqi, mukofot va ijtimoiy to‘lovlar;

- Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlardan – pensiya, nafaqa, stipendiya va imtiyozlar;
- Shaxsiy mulkdan – dividend, foiz, ijara haqi, qimmatli qog‘ozlardan olinadigan daromadlar.

Bundan tashqari, daromadlar asosiy va qo‘shimcha manbalar bo‘yicha ham tasniflanadi. Qo‘shimcha daromad – bu asosiy daromaddan tashqari qo‘shimcha faoliyat evaziga olingan mablag‘lar (o‘rindosh ish, qimmatli qog‘ozlardan tushum).

Shuningdek, daromadlarni qonuniy va noqonuniy deb ajratish mumkin. Noqonuniy daromadlar jinoyat yoki iqtisodiy qonunbuzarliklar orqali olingan mablag‘larni o‘z ichiga oladi.

Umumiy daromad quyidagi yo‘nalishlarda foydalaniladi:

1. Iste’mol xarajatlari – oziq-ovqat, kiyim-kechak, xizmatlar;
2. Majburiy to‘lovlar – soliqlar va yig‘imlar;
3. Jamg‘armalar – kelajakdagi ehtiyojlar uchun tejash.

Shunday qilib, aholi daromadlari jamiyatning iqtisodiy barqarorligi va turmush darajasining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda[28] aholi daromadlari tarkibi tahlili ijobiy o‘zgarishlarni namoyish etmoqda. Pul daromadlarining asosiy manbalari ish haqi, ijtimoiy to‘lovlar, pensiyalar, nafaqalar, qishloq xo‘jaligidan olingan daromadlar bo‘ldi.

Aholining real daromadlari 10,7 foizga ko‘paydi, bu aholi jon boshiga o‘rtacha oyiga 2,1 mln so‘mga to‘g‘ri keladi. Ish haqi fuqarolar turmush darajasi yaxshilanishining asosiy omillaridan biri sifatida jami daromadlarning 42,6 foizini tashkil etdi.

Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ham ijobiy dinamikani ko‘rsatib, 1,5 foizga oshdi va 22,9 foizga yetdi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi va tomorqalardan olingan daromadlar 0,9 foizga o‘sib, 10,7 foizga yetdi, pul o‘tkazmalaridan tushgan daromadlar esa 2,0 foizgacha qisqardi.

Daromadlarda hududiy farqlar ham ko‘zga tashlanadi, eng yuqori o‘sish Farg‘ona va Buxoro viloyatlarida navbati bilan 19,1 foizga va 11,4 foizga teng bo‘ldi. Shuningdek Toshkent shahrida bu ko‘rsatkich 17 foizni tashkil etdi.

Eng yuqori daromadlar poytaxtda qayd etildi – 3,6 mln so‘m, shu bilan birga Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida daromadlar 2,2 mln so‘mgacha o‘sdi.

Aholi daromadlari o‘sishi/2024 yilda aholining ish haqidan kelgan daromadlari o‘tgan yilga nisbatan 12,9 foizga o‘sgani kuzatilmoqda, bu esa 5,1 mln kishining ish bilan ta’minlanganligi bilan izohlanadi, shuningdek,

[28] https://review.uz/oz/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2024-goda-infografika

bu rasman ishga joylashgan aholi ulushining 30 foizga ko‘payishiga xizmat qildi.

“Sayxunobod tajribasi”.Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida tomorqalardan samarali foydalanish hisobiga aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan pilot loyihasining amalga oshirilishi natijasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Mahallalarda 326 ming mikroloyihalarni amalga oshirish natijasida uy xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi va tomorqalardan oladigan daromadlari 14,7 foizga o‘sdi.

Kam ta’minlangan oilalarda tomorqadan olinadigan daromadlar 17,7 foizga o‘sdi.

Bundan tashqari, 159 ming kishi 61 ming gektar yerdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi, ular fermer xo‘jaligi sifatida ro‘yxatga olindi.

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini baholash doimiy asosda 2020 yildan buyon o‘tkazib kelinmoqda va aholi turmush darajasi, yashash sharoiti va sifati to‘g‘risidagi muhim ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, mamlakatdagi monetar kambag‘allik darajasini baholashning yagona axborot manbai hisoblanadi. Milliy statistik amaliyotga ko‘p mezonli kambag‘allik indeksining joriy etilishi O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni o‘lchash sohasidagi istiqbolli yo‘nalishdir.

7.4. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish

Aholi daromadlari darajasini aniqlashda asosiy ma’lumot manbai oila byudjeti tadqiqotlari hisoblanadi. Biroq, ushbu tadqiqotlar har doim ham yuqori ishonchlilik darajasiga ega emas, chunki respondentlar ko‘pincha o‘z daromadlari haqidagi aniq ma’lumotni bilmaydilar yoki oshkor qilishga moyil bo‘lmaydilar. Ayniqsa, jamiyatning eng yuqori daromadli qatlamlari bu borada axborot berishdan tobora ko‘proq tiyiladilar.

Daromadlar tabaqalanishining natijalari va ta’siri.Aholi daromadlarining tabaqalanish jarayoni quyidagi asosiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi. Tizimli tartibga solishning yo‘qligi tabaqalanish darajasining ortishiga olib keladi.

O‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda, xususan, 1990-yillarning boshida, transformatsion jarayonlar natijasida aholi daromadlari o‘rtasidagi tafovut keskin ortdi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan daromadlarning mehnat mahsuldorligiga bog‘liqligi kuchaydi, ammo ayni paytda ijtimoiy adolat masalalari dolzarb bo‘lib qoldi.

Tabaqalanish darajasini aniqlash murakkab masala hisoblanadi.Jahon tajribasiga muvofiq, daromadlar tafovutini Djini indeksi yordamida baholash mumkin.

Rossiya va Markaziy Yevropa mamlakatlarida daromadlar o‘rtasidagi farq ancha yuqori bo‘lib, sobiq ittifoq mamlakatlarida ham tabaqalanish darajasi sezilarli ekanligi kuzatilmoqda.

Daromadlarning o‘rtacha pastligi iqtisodiy kuchlarning notekis taqsimlanishiga sabab bo‘ladi.

Engel qonuniga muvofiq, aholi daromadlarining katta qismi iste’mol tovarlari va xizmatlar xaridiga yo‘naltiriladi.

Eng yuqori daromadli qatlamlarning iste’mol talabi elita mahsulotlari – uy-joy, rekreatsiya, qimmatbaho xizmatlar va uzoq muddatli foydalanish uchun mo‘ljallangan tovarlarga nisbatan oshadi.

Daromadlar farqi qashshoqlik darajasining oshishiga olib keladi.Qashshoqlik aholining minimal turmush sharoitlarini ta’minlay olmasligini anglatadi.

Qashshoqlik chegarasini aniqlash murakkab bo‘lib, odatda, aholining eng past daromadli qatlamlari ehtiyojlari asosida baholanadi.

So‘nggi yillarda qashshoqlik ko‘lami kengayib, yangi ijtimoiy guruhlar – ishsizlar, harbiy xizmatchilar, o‘qituvchilar va tibbiyot xodimlari ham kam ta’minlanganlar qatoriga qo‘shildi.

Aholining iqtisodiy imkoniyatlaridagi farq mamlakatning ayrim hududlarida haddan tashqari qashshoqlik va marginalizatsiyaga olib kelmoqda.

Ayrim mintaqalarda qashshoqlik vaqtinchalik holatdan doimiy holatga o‘tmoqda.

Aholining salomatligi va turmush sifati daromad darajasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, sog‘liqni saqlash xizmatlarining pullik bo‘lishi kam ta’minlangan aholi uchun yanada og‘irlashtiruvchi omilga aylanmoqda.

Davlat tomonidan daromadlarni tartibga solish zarurati.

Aholi daromadlarini tartibga solish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda quyidagi omillar hisobga olinadi:

Obyektiv omillar: Ish kuchi narxi, ishlab chiqarish vositalari va mahsulot narxi, bozor kon’yunkturasi va raqobat muhiti.

Subyektiv omillar: Davlat, korxonalar va kasaba uyushmalari tomonidan amalga oshiriladigan tartibga solish mexanizmlari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat ish haqi va daromadlarni tartibga solish vazifasini saqlab qoladi. Davlat tomonidan tartibga solish quyidagilarga asoslanadi:

Ish haqi indeksatsiyasi va eng kam ish haqi miqdorini yashash minimumiga yaqinlashtirish.Ijtimoiy transfertlar (pensiya, nafaqa, stipendiya) tizimini mustahkamlash.Ish haqi bo‘yicha qarzdorliklarni qisqartirish va ularning to‘lovini kafolatlash.Yashash minimumidan past bo‘lgan daromadlarga soliq imtiyozlarini joriy etish.Ishsizlik nafaqalarini

indeksatsiya qilish va ishsiz ota-onalar uchun qo‘shimcha imtiyozlar yaratish.Davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.Daromadlarni tartibga solishning asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat:

Moddiy asos: Milliy ishlab chiqarish hajmi va davlat budjeti orqali taqsimlanadigan mablag‘ miqdori.

Institutsional asos:Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlar, muassasalar faoliyati va mehnat bozorining tartibga solinishi.

Konseptual asos:Hukumatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatida qo‘llaniladigan nazariy yondashuvlar.

Tartibga solish mexanizmi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:Birlamchi taqsimot – Ish haqi va boshqa birlamchi daromadlarning davlat tomonidan belgilangan chegaralarini o‘rnatish.

Qayta taqsimot – Davlat budjeti orqali soliqlar va ijtimoiy transfertlar mexanizmi orqali daromadlarni qayta taqsimlash.

Oxirgi taqsimot – Aholining ehtiyojmand qatlamlariga iqtisodiy yordam ko‘rsatish.Qishloq hududlarida daromadlarni tartibga solish

Qishloq joylarida daromadlar shahar bilan solishtirganda ancha past bo‘lib, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Qishloq aholisi uchun bandlik va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish.Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini davlat tomonidan xarid qilish tizimini yo‘lga qo‘yish.Fermerlarga davlat tomonidan imtiyozli kreditlar va subsidiyalar taqdim etish. Qishloq aholisining mehnatiga asoslangan daromadlar ulushini oshirish.

Davlat tomonidan daromadlarni tartibga solish bozor iqtisodiyotining ijtimoiy noqulayliklarini kamaytirish, qashshoqlikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, davlatning ijtimoiy siyosati daromadlarning adolatli taqsimlanishini ta’minlashga, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga va aholining barcha qatlamlari uchun minimal yashash darajasini kafolatlashga yo‘naltirilishi kerak. O‘zbekiston Respublikasida aholining real daromadlari 2023-yilda 10,7% ga oshdi, o‘rtacha daromad esa 2,1 million so‘mni tashkil etdi[29]. Aholi daromadlarining o‘sishi bir qancha omillar, jumladan, mehnat haqi oshishi, tadbirkorlikning rivojlanishi va qishloq xo‘jaligi daromadlarining ortishi bilan bog‘liq.

[29] https://review.uz/oz/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2024-goda-infografika

7.1-jadval[30].

Aholi daromadlarining o‘sishi bo‘yicha hududiy tahlil (%)

Hudud	2023-yildagi o‘sish (%)
Farg‘ona	19,1
Toshkent	17
Buxoro	11,4

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Farg‘ona viloyati aholining daromadlarining eng katta o‘sishiga erishgan – 19,1%. Toshkent shahri 17%, Buxoro esa 11,4% ko‘rsatkich bilan kuchli uchlikka kirdi.

Aholi daromadlarining shakllanishida turli omillar muhim rol o‘ynaydi. Ish haqi, tadbirkorlik va qishloq xo‘jaligi daromadlari asosiy manbalar bo‘lib, ularning ulushi ortib bormoqda.

7.2-jadval.

Aholi daromadlarining tarkibi [31](%)

Daromad manbai	2022-yil (%)	2023-yil (%)	O‘zgarish (%)
Ish haqi	41,9	42,6	+0,7
Tadbirkorlik daromadi	21,4	22,9	+1,5
Qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilik daromadlari	9,8	10,7	+0,9
Pensiya, ijtimoiy yordam va subsidiyalar	18,9	18,2	-0,7
Chetdan pul o‘tkazmalari	3,1	2,0	-1,1
Boshqa daromadlar	4,9	3,6	-1,3

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Ish haqi va tadbirkorlik daromadlari aholining daromadlaridagi asosiy ulushni tashkil etadi va ularning o‘sishi kuzatilmoqda, Chetdan pul o‘tkazmalari va boshqa daromadlar ulushi kamaymoqda, bu O‘zbekiston ichkarisida iqtisodiy faollik oshayotganini anglatadi, Pensiya va subsidiyalar biroz pasaygan bo‘lsa-da, hali ham sezilarli ulushni tashkil etadi.

Ish bilan bandlik darajasi aholining daromadlarini oshirishda muhim omil hisoblanadi. 2023-yilda rasmiy ish bilan band aholining ulushi **30%** ga yetib, **5,1 million kishini** tashkil etdi.

[30] https://review.uz/oz/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2024-goda-infografika

[31] https://review.uz/oz/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2024-goda-infografika

7.3-jadval.

Bandlik darajasi va mehnat daromadlari[32] (%)

Ko‘rsatkich	Miqdor
Ish haqi bo‘yicha daromadlarning o‘sishi	12,9%
Rasmiy ish bilan band aholi	30% (5,1 mln kishi)

Bu ko‘rsatkichlarning o‘sishi O‘zbekistonda iqtisodiy faollik ortib borayotganini va rasmiy ish bilan bandlik tizimi rivojlanayotganini tasdiqlaydi.

Kichik biznes va tadbirkorlik aholining daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. “Sayxunobod” modeli asosida 2023-yilda 326 ta mikroloyiha amalga oshirilib, 159 ming fuqaro ish bilan ta’minlandi.

7.4-jadval.[33]

Tadbirkorlik loyihalarining natijalari

Ko‘rsatkich	Miqdor
Sayxunobod modeli bo‘yicha amalga oshirilgan mikroloyihalar	326 ta
Ish bilan ta’minlangan fuqaro	159 ming

Ushbu natijalar tadbirkorlik va kichik biznesning aholi daromadlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligi aholining daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikdan olingan daromadlar 10,7% ga yetdi, bu esa 9,8% dan yuqori natijadir.

7.5-jadval[34].

Qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilik daromadlari[35]

Ko‘rsatkich	Miqdor
Qishloq xo‘jaligi daromadlarining ulushi	10,7%
Qishloq xo‘jaligi yeri hajmi	61 ming gektar

Bu o‘zgarishlar qishloq hududlarida aholi daromadlari oshayotganini va agrar sektorning ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatmoqda.

---

32 https://review.uz/oz/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2024-goda-infografika

33 https://review.uz/oz/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2024-goda-infografika

34 https://review.uz/oz/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2024-goda-infografika

35 https://review.uz/oz/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2024-goda-infografika

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Daromadlar siyosati (Income Policy) – Davlat tomonidan aholi daromadlarini tartibga solish va teng taqsimlashga qaratilgan iqtisodiy siyosat.
2. Daromad taqsimoti (Income Distribution) – Ijtimoiy guruhlar o‘rtasida daromadlarni taqsimlash jarayoni, kambag‘allik va boylik orasidagi farqni kamaytirish.
3. Progressiv soliqlar (Progressive Taxes) – Yaxshi daromad olgan shaxslar va kompaniyalar uchun yuqori soliqlarni belgilash, tengsizlikni kamaytirish vositasi.
4. Ijtimoiy yordam (Social Assistance) – Kam daromadli qatlamlarga davlat tomonidan beriladigan nafaqalar va ijtimoiy to‘lovlar.
5. Hukumatning iqtisodiy roli (Government’s Economic Role) – Davlat tomonidan daromadlar siyosatini amalga oshirishdagi ishtirok.
6. Daromad manbalari (Income Sources) – Aholining daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manbalar: ish haqi, mulk daromadlari, biznesdan olinadigan daromadlar.
7. Ijtimoiy tengsizlik (Social Inequality) – Aholi o‘rtasida iqtisodiy farqning kengayishi va resurslarning adolatsiz taqsimlanishi.
8. Mehnatning samaradorligi (Labor Productivity) – Aholining mehnat faoliyatidan oladigan daromadlari va iqtisodiy samaradorlikning o‘zaro aloqasi.
9. Iqtisodiy o‘sish (Economic Growth) – Aholi daromadlari oshishining asosiy omili, iqtisodiy taraqqiyotning indikatorlaridan biri.
10. Turmush darajasi (Living Standards) – Aholining umumiy farovonligini o‘lchash, daromadlarning shakllanishi uning asosiy omili.
11. Orta sinf (Middle Class) – O‘rta daromadga ega bo‘lgan va iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish uchun muhim guruh.
12. Boylar (Rich) – Yuqori daromad va mulkka ega bo‘lgan shaxslar, iqtisodiy tizimda ulkan ta’sir ko‘rsatuvchi guruh.
13. Daromadlar tengsizligi (Income Inequality) – Turli daromad guruhlari orasidagi farqning mavjudligi, kambag‘allik va boylikning tengsiz taqsimlanishi.
16. Soliq tizimi (Tax System) – Aholining daromadlarini tartibga solish va qayta taqsimlashga yordam beradigan davlatning soliqqa solish siyosati.
17. Ijtimoiy yordamlarga ajratmalar (Social Benefits Allocations) – Aholi daromadlarini tartibga solish uchun amalga oshiriladigan nafaqa, subsidiyalar va boshqa yordamlar.
18. Daromadlarni qayta taqsimlash (Redistribution of Income) – Daromadlarni tengroq taqsimlashga qaratilgan iqtisodiy siyosat, soliq va yordamlar orqali amalga oshiriladi.

19. Rag‘batlantiruvchi siyosat (Incentive Policy) – Daromadlar tarkibining ijobiy o‘zgarishini ta’minlash uchun davlat tomonidan ko‘rsatiladigan stimullar va imtiyozlar.

20. Minimun daromad (Minimum Income) – Har bir fuqaro uchun belgilangan eng past daromad miqdori, kambag‘allikni kamaytirishning asosiy vositasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Aholi daromadlarini tabaqalanishi nima va uning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri qanday?
2. O‘zbekistonda aholi daromadlarining tabaqalanishi qanday o‘lchanadi?
3. Aholi daromadlari tabaqalanishining asosiy sabablari qanday?
4. Daromad tabaqalanishining iqtisodiy va ijtimoiy adolatga ta’siri qanday bo‘ladi?
5. Aholi daromadlarini tabaqalanishini kamaytirish uchun davlat qanday siyosatlarni amalga oshiradi?
6. Daromad tabaqalanishining yuqori darajasi jamiyatda qanday ijtimoiy muammolarga olib keladi?
7. O‘zbekistonda daromad tabaqalanishini kamaytirish bo‘yicha qanday ijtimoiy dasturlar mavjud?
8. Aholi daromadlarining tabaqalanishini o‘rganishda qanday statistik metodlardan foydalaniladi?
9. Aholi daromadlarini tabaqalanishiga ta’sir qiluvchi demografik omillar nimalar?
10. Daromad tabaqalanishi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni qanday tushunish mumkin?

VIII BOB. O‘ZBEKISTONDA AHOLINING TURMUSH SIFATI, YASHASH SHAROITI, YARATILGAN IMKONIYATLAR

8.1. O‘zbekistonda aholining turmush sifati, yashash sharoiti, yaratilgan imkoniyatlar.
8.2. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik tahlili.
8.3. Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi orqali aholining turmush sifatini yaxshilash imkoniyatlari.

8.1. O‘zbekistonda aholining turmush sifati, yashash sharoiti, yaratilgan imkoniyatlar

Ma’lumki yangi O‘zbekiston respublikasida aholi turmush darajasini oshirish va uning farovonligini yanada mustahkamlash davlat siyosatining bosh masalasi hisoblanadi. Chunki aholining turmush darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa davlat ham shunchalik darajada rivojlangan hisoblanadi. Agar aholining turmush darjasiga keng ma’noda tushuncha beradigan bo‘lsak bu-jamiyatning yashashi uchun yaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va imkoniyatlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Aholi turmush darajasi kategoriyasi iqtisodiy kategoriya bolib, ularni uch guruhga bo‘lish mumkin: daromadlar, iste’mol va yashash sharoitlari. Shu ko‘rsatkichlarning barchasi butun aholi miqyosida va aholining jon boshiga nisbatan hisoblanadi. So‘nggi yillarda Davlatimiz ham asosiy e’tiborni manashu uch guruhga qaratmoqda. Aholining pul daromadlari hajmi, tarkibi va boshqa ma’lumotlar asosida aholi turmush darajasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlari tuziladi[36].

Aholi turmush darajasini uch xil yo‘nalishda o‘rgansak bo‘ladi;

1) Barcha aholiga nisbatan;
2) Uning ijtimoiy guruhlariga nisbatan;
3) Har xil daromadga ega bo‘lgan uy xo‘jaliklariga nisbatan;

Aholining turmush darjasi ko‘p jihatdan uning olayotgan daromadiga bog‘liq bo‘lib, shxsiy extiyojlarni qondirish darajasini ifodalaydi. Hozirgi kunda yurtimiz aholisining olayotgan daromadi uning ehtiyojlarini qanchalik qondira olishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Agar daromad qanchalik yuqori bo‘lsa aholi o‘rtasida pullarni jamg‘arishga bo‘lgan moyillik kuchayadi, yoki avval ehtiyoj bo‘lgan narsalari keyinchalik daromad oshganda talabga aylanishi mumkin. Lekin bu daromadlarni oshirish uchun quyida keltirilgan savollarga javob topishimiz kerak bo‘ladi:

1. Aholining daromadini qanday oshirish mumkin?
2. Aholining yordamga muhtoj bo‘lgan qatlamini ham ijtimoiy ham iqtisodiy qo‘llab quvvatlash nimalarga asoslanishi kerak?

[36] file:///C:/Users/User/Downloads/konf.demog-419-422.pdf

3. Ishsizlikni bartaraf etishda nimalarga e’tibor berish kerak?

4. Aholining tadbirkorlikka va ishlab chiqarishda bevosita ishtirokini qanday oshirish mumkin?

5. Aholi o‘rtasida biznes yuritishda davlatning moddiy yordami va ishtiroki qanday bo‘lishi kerak?

Yuqorida qo‘yilgan savollarga quyida javob topishga harakat qilamiz. Aholining daromadini oshrish uchun avvalambor aholi o‘rtasida kichik biznes va tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik tarmoqlarini rivojlantirish kerak bo‘ladi. Bu tarmoqlarni rivojlantirish natijasida aholi o‘rtasida ishsizlik sonini kamaytirishga bir muncha erishish, o‘z-o‘zini band qilish mumkin va aholining turmush darajasini oshirish mumkin. Bularga erishish uchun davlat bosh islohotchi vazifasini o‘tashi kerak bo‘ladi ya’ni aholiga o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish va rivovojlantirishi uchun ularga past foizli kreditlar va kerak bo‘lsa zarur maslahatlar berishi kerak.

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha, 2023-yilning yanvar-dekab[37]r holatiga ko‘ra, aholining umumiy daromadlari 728,8 trln. so‘mni tashkil etdi. Aholi daromadlari bo‘yicha real o‘sish sur’atlarini hisoblashda narx omillari ta’sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyasiya ko‘rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste’mol narxlari indeksi (INI)dan foydalaniladi.Iste’mol narxlarining o‘zgarishi sababli o‘tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o‘sish sur’ati 104,6 % ni tashkil etdi. Quyidagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki so‘nggi to‘rt yillik statistik ma’lumotlarga qaraydigan bo‘lsak aholining jon boshiga real umumiy daromadlarda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lib, 2019-yil 10 887.3 ming so‘mni taskil etgan bo‘lsa 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 20 015.9 ming so‘mni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlardan shunday hulosa chiqarishimiz mumkinki, davlatimiz tomonidan so‘nggi yillarda aholining turmush darajasini oshirishda olib borayotgan keng ko‘lamli islohotlar o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. O‘zbekiston respublikasining qulay geografik joylashuvi va iqlimining o‘ziga hosligi bu yerda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish undan tashqari ularni horijiy davlatlarga eksport qilish imkonini beradi. Xorijiy davlatlarda vaqt sinovidan o‘tgan klaster usulining yo‘lga qoyilishi esa o‘zining ijobiy samaradorligini ko‘rsatmoqda.

Hozirgi kunda iqtisodiyotimizning bazi-bir sohalari hali hanuz chet-el importi hosobiga to‘ldirilmoqda bu esa yurtimizdan horijiy valyutaning chiqib ketishiga va so‘mning qadrsizlanishiga olib kelmoqda. Bularning oldini olish uchun esa davlatimiz bosh islohotchi vazifasini o‘tash kerak, ya’ni horijdan olib kirilayotgan tovarlar va hizmatlarning o‘rniga yurtimizda jahon talablariga javob beradigan tovar va hizmatlarni yaratishimiz kerak,

[37] O`zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi

bir so‘z bilan aytganda milliy iqtisodiyotni ham moddiy ham qonuniy rag‘batlantirish bu bilan esa ishlab chiqarishni rivojlantirish kerak.

Undan tashqari mahalliy ishlab chiqaruvchilar ham o‘z tovar va hizmatlarining sifatini oshirishi kerak bo‘ladi. Davlat esa narx nazoratini olib borishi kerak, chunki ayrim tadbirkorlar o‘z tovar va hizmatlarining narxini asossiz ravishda ko‘tarishmoqda chunki ularda ichki raqobat juda kam yoki bu korxona Respublika bo‘yicha monopol hisoblanadi, buning uchun esa ichki sog‘lom raqobatni rivojlantirish kerak shundagina narxlar tushishiga erishishimiz mumkin.



8.1.diagramma. O‘zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so‘m(yanvar-dekabr holatiga) [38]

2023-yilning yanvar-dekabr[39] oylarida aholi umumiy daromadlarining 73,3%ini birlamchi daromadlar tashkil qilgan bo‘lsa, 26,7 % i transfertlardan olingan daromadlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida aholi umumiy daromadlarining katta qismi yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarni o‘z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlardan (jami aholi umumiy daromadlarining 64,0 % i) shakllandi, hamda nominal o‘sish sur’ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 119,8 % ni tashkil etdi.

8.1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibi

Ko’rsatkichlar	Jamiga nisbatan, %	2022 yil	2023 yil	Usish sur'ati, %
Umumiy daromadlar (I+II)	100.0	100.0	115.0	
I. Birlamchi daromadlar	70.1	73.3	120.1	

[38] O`zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi
[39] O`zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi

I.1. Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar	67.9	70.5	119.4	
I.1.1. Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar	61.4	64.0	119.8	
- Yollanma ishchilarning daromadlari	28.4	29.7	119.9	
- Mustaqil ravishda band bo‘lishdan daromadlar	33.0	34.3	119.7	
I.1.2. Shaxsiy iste’mol uchun o’zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan daromadlar	6.5	6.5	115.6	
I.2. Mol-mulkdan olingan daromadlar	2.2	2.8	143.7	
II. Transfert olingan daromadlar	29.9	26.7	103.0	

Aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi 6,5 %, mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 2,8 %, transfertlardan olingan daromadlar ulushi 26,7 % ni tashkil qildi[40]. Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarining (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar) eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (79,5 %)kuzatildi. Aksincha Samarqand, Farg‘ona, Xorazm viloyatlari, Toshkent shahri, Namangan, Andijon viloyatlari, hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida o‘rtacha respublika darajasidan past ko‘rsatkichni tashkil etdi. Respublika bo‘yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi sezilarli darajada bo‘lmasada, Toshkent shahrida bunday daromadlarning ulushi 21,6 % ni tashkil etdi[41].

Shuningdek, transfertlardan olingan daromadlarning ulushi Samarqand, Xorazm, Andijon, Farg‘ona, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Namangan va Qashqadaryo viloyatlarida aholi umumiy daromadlariga nisbatan 30 % dan yuqori ko‘rsatkichni tashkil

[40] O`zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi
[41] O`zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi

etgan bo‘lsa, Navoiy viloyatida mazkur daromad turining ulushi eng past ya’ni, 13,2 % ni tashkil etdi[42] 2024-yilda aholining real daromadlari 8,1% o‘sdi, bu 2023-yildagi ko‘rsatkichdan sezilarli darajada yuqori. Shu bilan birga, eng boy uchta va eng kambag‘al uchta hudud o‘rtasidagi aholi jon boshiga daromadlar farqi 2,4 baravargacha oshdi. Uchta viloyatda real daromadlar sezilmas darajada o‘sdi[43]. 2024-yilda O‘zbekiston aholisining umumiy daromadlari 896,3 trillion so‘mga yetdi, deyiladi prezident huzuridagi Statistika agentligi hisobotida.



8.2-diagramma[44]. Aholi umumiy daromadlari tarkibi, % da (2023-yil yanvar-dekabr holatiga)

Umumiy daromad — aholi farovonligi darajasining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri. U nafaqat mehnat faoliyati va mustaqil ish bilan bandlikdan, balki mulkdan (foizlar, dividendlar, gonorarlar va boshqalar) hamda transfertlardan (pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar, pul o‘tkazmalari) olingan daromadlardan ham iborat bo‘ladi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan umumiy daromad ma’lum bir hududda (masalan, mamlakatda) aholi tomonidan olingan umumiy daromadning shu hudud aholisi soniga nisbatidir. Bu har bir fuqaroning o‘rtacha qancha daromad olishini baholash va turli mintaqalar yoki mamlakatlarning turmush darajasini taqqoslash imkonini beradi.Nominal ko‘rinishda o‘sish 18,5% ga, real o‘sish sur’ati esa (inflyatsiyani hisoblamaganda) 8,1% ga yetdi. 2023-yilda bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 15% va 4,6% ni tashkil etgandi, ya’ni daromadlarning o‘sish sur’atlari yaxshilandi.

Yaxshilanish aholi jami daromadlarining bir qismi sifatida yakka tartibdagi bandlikdan olinadigan daromadlar norasmiy iqtisodiyotni hisobga

[42] https://www.gazeta.uz/uz/2025/02/05/income/
[43] [43] https://www.gazeta.uz/uz/2025/02/05/income/
[44] O`zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi

olgan holda qayta koʻrib chiqilishi natijasida roʻy berdi, bu 26 trillion soʻmga baholandi. Ushbu raqamlarni hisobiga 2023-yilda YAIM 1,19 kvadrillion soʻm yoki 101,6 milliard dollargacha (avval — 1,06 kvadrillion soʻm yoki 86,1 milliard dollar) oʻsdi. YAIM 2024-yil uchun ham oshdi.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlar 16,1% (inflyatsiya hisobiga — 5,9%) — yiliga 20 million soʻmdan 24,1 million soʻmgacha (oyiga 2 million soʻm) oshdi. Oʻtgan yilning shu davrida oʻsish 12,6% va 2,4% ni tashkil qilgan.Aholi jon boshiga oʻrtacha nominal umumiy daromadlar Toshkent shahrida oʻrtacha respublika koʻrsatkichidan yuqori boʻldi. Poytaxtda u 44,4 million soʻmdan 60,6 million soʻmgacha oʻsdi, Navoiy viloyatida — 31,4 million soʻmdan 38,1 million soʻmgacha, Buxoro viloyatida — 23,5 million soʻmdan 27,5 million soʻmgacha, Toshkent viloyatida — 20,7 million soʻmdan 25,1 million soʻmgacha.

2023-yil oxirida Xorazm viloyati ham roʻyxatda edi, ammo oʻtgan yili bu koʻrsatkich (23,4 million soʻm) respublika boʻyicha oʻrtacha darajadan pastroq boʻldi.Eng past koʻrsatkichlar Namangan viloyatida (16,85 million soʻm), Qoraqalpogʻistonda (16,86 million soʻm) va Surxondaryo viloyatida (17,88 million soʻm) qayd etildi. Oʻtgan yilga nisbatan Qoraqalpogʻiston Namangan viloyatidan yuqoriroq boʻldi.

Aholi jon boshiga daromadlarning eng yuqori real oʻsishi Toshkent shahri (+15,4%), Navoiy (7,9%) va Toshkent (6,4%) viloyatlarida qayd etildi.Surxondaryo, Namangan va Fargʻona viloyatlarida aholining real daromadlari biroz oʻsdi — mos ravishda 0,2%, 0,5% va 1,1%.

Hududlar oʻrtasidagi tabaqalanish kuchaydi. Bir yil davomida eng boy uchta va eng kambagʻal uchta hudud orasidagi aholi jon boshiga daromadlar farqi 2,3 baravardan 2,4 barobargacha oshdi. Taqqoslash uchun: 2020 yilda bu farq 2,15 baravarga teng edi. Toshkent shahri va eng kambagʻal mintaqa (Namangan viloyati) oʻrtasidagi daromadlar farqi 3,32 dan 3,6 barobargacha oshdi.

Daromadlar tuzilishi.Daromadlar tarkibida mehnat faoliyati ulushi (yollanma ishchilar va oʻzini band qilganlar) 63,6% dan 62,8% ga kamaydi. Yollanma ishchilarning daromadlari 2023-yildagi 16,4% ga nisbatan 19%, oʻzini band qilganlarniki esa 17,5% ga nisbatan 15,9% oshdi.

Transfertlar (pul oʻtkazmalari, nafaqalar, pensiyalar, stipendiyalar)dan olingan daromadlar ulushi ham kamaydi — 26,5% dan 26% gacha. Ularning nominal oʻsishi 13,7% ni tashkil etdi (inflyatsiya bilan — 3,9%).Aholining umumiy daromadlarida xorijdan kelib tushgan pul oʻtkazmalarining ulushi 16,9% dan 16,5% ga kamaydi. Pul oʻtkazmalari asosan Andijon (jami daromaddagi ulushi — 27,6%), Fargʻona (25,6%) va Xorazm (22,8%) viloyatlari aholisiga kelib tushyapti[45].

[45] [45] https://www.gazeta.uz/uz/2025/02/05/income/

8.2. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik tahlili

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari asosida aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi ishlab chiqildi va u doimiy ravishda yo‘l xapitalari ishlab chiqish, strategiyalar qo‘llanilishi bilan takomillashtipib borilmoqda. Lekin shunday bo‘lishiga qapamay, hozirgi kundagi mavjud vaziyat respublikada aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va kambag‘allik darajasini qisqartipish dasturlari samaradorligini oshirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Biz bu yil tariximizda ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorini minimal iste’mol xarajatlaridan kam bo‘lmagan darajaga olib chiqdik. Mamlakatimizda pandemiyadan oldingi davrda ishsizlar soni 1 mln. 350 mingga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, pandemiya sharoitida ushbu ko‘rsatkich qariyb 2 mln. kishiga etdi[46]. Shu sababli, mamlakatimizda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorini inflyatsiya darajasidan yuqori sur’atlarda oshirish, mehnat bozorida muvozanatni ta’minlash hamda uning infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligi va tadbirkorlik faolligini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ishchi kuchining sifatini oshirish, shuningdek, ish izlovchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Innovatsion taraqqiyot jadallashayotgan bir sharoitda, aholi daromadlarini oshirishga yo‘naltirilgan ushbu choralar muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biridir.Aholining turmush darajasi va sifati iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning natijasi bo‘lib, aholi daromadlari va xarajatlarini tartibga solishga qaratilgan strategiyaning samaradorligini aks ettiradi. Turmush darajasini baholashda "Iste’mol savati" konsepsiyasidan foydalaniladi, ya’ni muayyan iste’mol talablarini qondirishga yetarli bo‘lgan tovar va xizmatlar majmuasi hisobga olinadi. Iste’molning minimal darajasi "qashshoqlik chegarasi"ni belgilaydi, undan past daromadga ega aholining ulushi esa mamlakatda turmush darajasi bo‘yicha eng muhim ko‘rsatkichlardan biri sanaladi.Qashshoqlik ko‘lamining qisqarishi va unga qarshi kurash ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Hukumat byudjet mablag‘lari orqali daromadlarni shakllantirish, ijtimoiy to‘lovlar va imtiyozlarni qayta taqsimlash orqali kam daromadli aholining moliyaviy holatini yaxshilash hamda ijtimoiy keskinlikni yumshatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirmoqda.Tovarlarni soliqqa tortish iste’mol talabini tartibga soladi, jismoniy shaxslarning imtiyozlarini shakllantiradi, zararli tovarlar

[46] https://www.gazeta.uz/oz/2020/06/08/jobless/

iste’molini kamaytiradi va sog‘lom turmush tarzi uchun zarur bo‘lgan tovarlar iste’molini rag‘batlantiradi, inson resurslari va ishlab chiqarish kuchlarini yuqori sifatli qayta ishlab chiqaradi. Aholining turmush darajasi ko‘p qamrovli va keng tavsifli tushuncha bo‘lganligi sababli, amalda turmush daraja aholi jon boshiga real daromadlar yoki jon boshiga iste’mol darajasi ko‘rinishida ifodalanadi. Aholi jon boshiga real daromadlar yoki iste’molning o‘sishi esa ayni paytda bir qator omillarga, avvalambop, ishchi kuchi unumdorligining o‘zgarishiga va unga ta’sir etuvchi bir qator omillarga bog‘liq. Aholining daromadlari aholi uchun shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda, muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli statistikaning turmush tarzini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar kompleksida aholi daromadlari ko‘rsatkichlari aloxida o‘ringa ega.



8.2.1. diagramma O’zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari tarkibi[47]

Yuqoridagi diagramma aholining umumiy daromadlari tarkibini tasniflaydi va ularning asosiy manbalarini ikki asosiy yo‘nalishda ko‘rsatadi: birlamchi daromadlar va transferlardan olingan daromadlar.

1. Umumiy daromadlar tarkibi:
2. Aholining daromadlari ikkita asosiy guruhga bo‘lingan:
3. Birlamchi daromadlar – ishlab chiqarish jarayonidan yoki mulkdan olingan daromadlar.

[47] O`zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi

4. Transferlardan olingan daromadlar – ijtimoiy va boshqa moliyaviy yordam.

5. Shaklidagi daromadlar.

6. Birlamchi daromadlar:

7. Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar quyidagilarga ajratilgan:

8. Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar:

9. Yollanma ishchilarning daromadlari – bu korxona, tashkilot yokidavlat tomonidan ish haqining to‘lanishi bilan bog‘liq daromadlar.

10. Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar – o‘zini o‘zi band qilish orqali (masalan, tadbirkorlik, hunarmandchilik) topilgan daromadlar.

12. Shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar – bu aholining o‘zi uchun ishlab chiqarilgan mahsulot yoki xizmatlardan hosil bo‘lgan daromadlar.

13. Mol-mulkdan olingan daromadlar – ijara haqi, dividend, foiz daromadlari kabi moliyaviy aktivlardan keladigan daromadlarni o‘z ichiga oladi.

14. Transferlardan olingan daromadlar:

15. Ijtimoiy transferlar – pensiya, nafaqa, stipendiya va boshqa davlat tomonidan ajratilgan moliyaviy yordam turlari.

16. Boshqa joriy transferlar – shaxsiy pul o‘tkazmalari, xayriya va turli yordam shakllaridagi moliyaviy resurslar.

Aholining daromadlari ikki asosiy guruhga bo‘linib, mehnat faoliyatidan olingan daromadlar asosiy qismini tashkil etadi.Transfer daromadlari esa, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.Mol-mulkdan olingan daromadlar aholining iqtisodiy tabaqalanishiga ta’sir ko‘rsatadi, chunki boylikka ega bo‘lganlar bu manbadan foyda oladi.Shaxsiy ishlab chiqarish va mustaqil bandlik ahamiyat kasb etadi, ayniqsa, qishloq joylarida yoki norasmiy sektorda.Bu tahlil aholining daromadlarini shakllantirish mexanizmlarini tushunish va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholi turmush darajasi sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi eng asosiy omillardan biri aholining umumiy va jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlari hisoblanadi.

Aholining umumiy daromadlariga pul daromadlari va natura ko‘rinishidagi daromadlar kiradi. Xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, umumiy daromad “birlamchi daromad” va “transfertlardan olingan daromadlardan” tashkil topadi.

Birlamchi daromad esa, ishlab chiqarishdan olingan daromadlar va molmulkdan olingan daromadlarga bo‘linadi. Transfertlardan olingan daromadlar o‘z ichiga ijtimoiy transfertlar (pensiya, stipendiya va h.k.) va boshqa joriy transfertlarni qamrab oladi[2].

O‘zbekiston Respublikasida 2023-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan aholi umumiy daromadlari tarkibini o‘rganib chiqamiz. (8.4-jadval)

Quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, 2024-yilning yanvar’-dekabr’ oylarida aholi umumiy daromadlarining 74,0% ini birlamchi daromadlar tashkil qilgan bo‘lsa, 26,0% i transfertlardanolingan daromadlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

8.2-jadval

O’zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari tarkibi[48]

Ko’rsatkichlar	Jamiga nisbatan, %		O‘sish sur’ati, %
	2023	**2024**	**2024/2023**
Umumiy daromadlar (I+II)	100.0	100.0	118.5
Umumiy daromadlar (I+II)	72.9	74.0	120.3
I. Birlamchi daromadlar	70.1	70.7	119.5
I.1. Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar	63.6	62.9	117.2
I.1.1. Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar	27.8	27.9	119.0
- Yollanma ishchilarning daromadlari	35.8	35.0	115.9
- Mustaqil ravishda band bo‘lishdan daromadlar	6.5	7.8	141.1
I.1.2. Shaxsiy iste’mol uchun o’zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan daromadlar	2.8	3.3	141.4
I.2. Mol-mulkdan olingan daromadlar	27.1	26.0	113.7
II. Transfert olingan daromadlar			

[48] O`zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi

Aholining pul daromadi uning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Daromadlar iste’mol tovarlari va xizmatlarni xarid etish, turli to‘lovlarni to‘lash, jamg`arma hosil etish uchun sarflanadi. Aholi xarajatlarining obyektiv chegarasi daromad bo‘lsa, uning subyektiv chegarasi daromad egasining ehtiyojlaridan tarkib topadi. Shu tufayli daromad bir xil bo‘lsada, xarajatlar tarkibi turlicha bo‘ladi.

Daromad qanchalik ko‘p bo‘lsa, oziq-ovqat uchun sarflar qisqarib, sanoat mollari va xizmatlarni xarid etish xarajatlari, chunonchi, uzoq muddat xizmat qiluvchi qimmatbaho tovarlar xaridiga pul ko‘proq sarflanadi. Shu jihatidan aholi turli toifalarining xarajatlari bir-biridan farqlanadi. Kam taminlangan oilalarda ovqatlanish xarajati ustivor bo‘lsa, oziga to‘q va boy oilalarda kiyinish, dam olish, sayohat qilish, qimmatbaho tovarlar xarid etish sarflari ustun turadi. Iqtisodiyoti rivojlangan va xalqi farovon yashaydigan mamlakatlarda aholining oziq-ovqat uchun sarflari qisqarib, minimal darajaga tushadi. Aholi xarajatlarida oziq-ovqat sarflari bilan bir qatorda, nooziq-ovqat tovarlarini xarid etish, pul jamg`arish va qimmatbaho qog`ozlarni orttirishga qaratilgan xarajatlar ham kuzatiladi[49].

Aholining pul xarajatlari inson kapitalini saqlash va hayot faoliyatini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy boyliklarni sotib olishga yo‘naltirilgan mablag‘lar bo‘lib, ular iste’mol xarajatlari hamda iste’mol bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan harajatlarni o‘z ichiga oladi.

Aholi xarajatlarini tasniflash bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud. Xarajatlarning amalga oshirilish davriyligiga ko‘ra, ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

Qisqa muddatli xarajatlar – oziq-ovqat mahsulotlari, kundalik nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlar (masalan, transport, kommunal xizmatlar);

O‘rta muddatli xarajatlar – mavsumiy xaridlar (kiyim-kechak, poyabzal va boshqa shunga o‘xshash mahsulotlar);

Uzoq muddatli xarajatlar – bir necha yilda bir marta amalga oshiriladigan xarajatlar (mashina, uy-joy, mebel va boshqa qimmatbaho tovarlar).

Mazkur tasnifga aholining majburiy to‘lovlari kiritilmagan, chunki bunday to‘lovlar aholining real daromadlariga bog‘liq. Agar xarajatlar aholi umumiy daromadlari nuqtai nazaridan tasniflansa, quyidagicha ajratish mumkin:

birinchi guruh – uy xo‘jaliklarining majburiy to‘lovlari (kommunal xizmatlar, soliqlar, yig‘imlar);

---

[49] Oriental Renaissance: Innovative,educational, natural and social sciencesVOLUME 2 | ISSUE 5ISSN 2181-1784
Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7707 wMay 2022 www.oriens.uzAHOLI TURMUSH DARAJASI KO’RSATKICHLARI: DAROMADLAR VA XARAJATLARNING STATISTIK TAHLILI

Ikkinchi guruh – jismoniy shaxslar tomonidan nomuntazam ravishda amalga oshiriladigan to‘lovlar (ko‘chmas mulk xaridi, merosga oid to‘lovlar).

Aholi xarajatlarini funksional jihatdan quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin: a) Shaxsiy iste’mol xarajatlari – tovar va xizmatlarni sotib olish; b) Soliqlar va majburiy to‘lovlar – davlatga va mahalliy budjetlarga to‘lanadigan soliqlar va yig‘imlar; c) Pul jamg‘armalari – jamg‘arish va investitsiya maqsadidagi mablag‘lar.

Xarajatlarning chuqurroq tahlili uchun ushbu guruhlarni quyidagicha ajratish mumkin:Majburiy to‘lovlar – soliqlar, kommunal xizmatlar, kredit to‘lovlari va boshqa majburiy xarajatlar;

Iste’mol xarajatlari – kunlik iste’mol tovarlari va xizmatlar uchun sarflanadigan mablag‘lar;

Pul jamg‘armalari – jamg‘arish, investitsiya va boshqa moliyaviy aktivlarga yo‘naltirilgan mablag‘lar.

Uy xo‘jaliklarining majburiy to‘lovlari ularning real daromadlarini kamaytiradi. Shuning uchun, qanchalik ko‘p majburiy to‘lovlar amalga oshirilsa, iste’mol va jamg‘arish uchun shuncha kam mablag‘ qoladi. Majburiy to‘lovlarning ulushi har bir uy xo‘jaligi byudjetida turlicha bo‘lib, iqtisodiy holatga qarab o‘zgarib turadi.

Iste’mol xarajatlari esa quyidagi turlarga bo‘linadi:

Joriy xarajatlar – oziq-ovqat, nooziq-ovqat tovarlari va doimiy iste’mol qilinadigan xizmatlar (masalan, sartaroshxona, tibbiy xizmatlar);

Kapital xarajatlar – uzoq muddat foydalaniladigan mahsulotlar (uy-joy, avtomobil, mebel) hamda uzoq davom etuvchi ta’sir ko‘rsatadigan xizmatlar (ta’lim, tibbiy muolajalar, turistik sayohatlar).

Xarajatlarni belgilovchi omillar ikki guruhga ajratiladi:

Ichki omillar:

Uy xo‘jaliklarining umumiy daromadlari;

Natural xo‘jalik yuritish darajasi;

Byudjetni boshqarish darajasi;

Moddiy va ma’naviy ehtiyojlarning o‘sish darajasi.

Tashqi omillar:

Iste’mol qilinadigan tovar va xizmatlarning chakana narxlari;

Ta’lim, sog‘liqni saqlash va transport uchun davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar hajmi;Uy xo‘jaliklari tomonidan to‘lanadigan soliqlar va majburiy to‘lovlar miqdori;

Milliy iqtisodiyotda iste’mol kreditining rivojlanish darajasi.

Ushbu tasnif aholining daromadlari va xarajatlarini chuqurroq tahlil qilish hamda iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.Vaqt o‘tishi bilan daromadning o‘zgarmasligi sababli, iste’mol xarajatlari haqidagi ma’lumotlar (hozirgi daromadlar bilan taqqoslaganda) nafaqat uy

xo‘jaliklarining hozirgi turmush darajasining eng yaxshi ko‘rsatkichi, balki uzoq muddatli farovonlikning etarlicha ishonchli ko‘rsatkichi sifatida ham qo‘llaniladi. Bu omil aholi daromadlarining katta qismi statistik hisobdan yashirilgan mamlakatlar uchun ayniqsa muhimdir.Shu nuqtai nazardan, eng muhim markerlardan biri oziq-ovqat sarf-xarajatlarining dinamikasidir: u qanchalik yuqori bo‘lsa, moddiy boylik past bo‘ladi va aksincha. Uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatish statistikasiga ko‘ra, aholining iste’mol xarajatlari tarkibi sezilarli darajada o‘zgardi. Aholining iste’mol xarajatlari tarkibida oziq – ovqat mahsulotlariga bo‘lgan xarajatlar ulushi 2020-yilda 46% ga kamaydi (2010-yilda 61% dan), nooziq-ovqat mahsulotlari uchun to‘lovlar ulushi 33% ga (26% dan), xizmatlar 20,0% ga (13% dan) oshdi. Shunday qilib, xarajatlar tarkibiy o‘zgarishlar hayot standartlarining yuqori standartlarga erishish faktini tasdiqlaydi, lekin bu ko‘rsatkich bo‘yicha biz oziq-ovqat xarajatlari ulushi 20% dan ortiq bo‘lmagan Evropa mamlakatlari, ortda qolmoqdamiz(*8.5-jadval*)

8.3-jadval

Iste’mol xarajatlar tarkibi (2010 -2024 Yillar)[50], %

Yil	Oziq-ovqat mahsulotlari (%)	Nooziq-ovqat mahsulotlari (%)	Xizmatlar (%)
2010	58.1	25.3	16.6
2011	58.1	23.6	18.3
2012	53.2	26.9	19.9
2013	51.4	28.3	20.3
2014	52.0	27.9	20.1
2015	49.4	30.0	20.6
2016	49.4	29.9	20.7
2017	48.4	31.1	20.5
2018	47.3	32.3	20.4
2019	46.2	33.5	20.3
2020	45.5	34.1	20.4
2021	44.9	34.7	20.4
2022	44.2	35.2	20.6
2023	43.7	35.8	20.5
2024	43.3	36.3	20.4

Quyidagi jadval aholining xarjatlarini tahlil qilish uchun keltirilgan. Unda 2010-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda oziq-ovqat mahsulotlari,

[50] https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr

nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarga sarflangan xarajatlarning foiz nisbati ko‘rsatilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlariga sarflangan xarajatlar kamayib borgan – agar 2010-yilda bu ko‘rsatkich 58.1% bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 42.2%gacha pasaygan. Bu aholining iste’mol tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlariga talab nisbatan kamayganini ko‘rsatadi.

Nooiziq-ovqat mahsulotlariga sarflar ortib bormoqda – 2010-yilda 25.3% bo‘lgan bu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib 36.4%ga yetgan. Bu aholining daromadi oshgani va ularning turmush tarzida nooziq-ovqat mahsulotlariga, masalan, kiyim-kechak, texnika, maishiy buyumlarga talab ortganini ko‘rsatadi.

Xizmatlarga sarflar barqaror o‘sib bormoqda – 2010-yilda 16.6% bo‘lgan bu ko‘rsatkich 2024-yilda 21.4%ga yetgan. Bu esa xizmatlar sohasiga talab oshganini va aholi ko‘proq servis xizmatlaridan foydalanayotganini bildiradi.

Ushbu tendensiyalar mamlakatda iqtisodiy o‘sish va aholi daromadlari oshishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlariga xarajatlar kamayishi va nooziq-ovqat hamda xizmatlarga talabning oshishi mamlakatning urbanizasiya jarayonlari va turmush darajasi o‘sib borayotganini anglatadi.[51]

Yangi iste’mol modelining kuzatilgan shakllanishi iste’molni xizmatlarga yo‘naltirishning aniq o‘zgarishini aniqlash imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida omon qolish modelidan barqaror rivojlanish modeliga o‘tishni bilvosita tasdiqlaydi, bu esa ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimiga sarmoya kiritish uchun manba bo‘lishi mumkin, bu esa inson kapitalining mutlaqo boshqa sifatini shakllantiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatda amalda bo‘lgan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining samaradorligini baholash orqali quyidagi jihatlarning o‘zgarishini tahlil qilish imkonini beradi:

- Ijtimoiy himoya dasturi qamrab olgan ijtimoiy guruhlar va ularning oila a’zolari daromadlarining oshishi yoki xarajatlarining kamayishi;
- Manzilli ijtimoiy himoya dasturlariga kiritilmagan ijtimoiy guruhlarning daromad va xarajatlaridagi o‘zgarishlar;
- Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy resurslardan foydalanish samaradorligi;

[51] https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr

• Aktiv ijtimoiy himoya dasturlarining amalga oshirilishi natijasida aholi uchun munosib mehnat sharoitlarining yaratilishi va bandlik darajasining oshishi natijasida daromadlarning ortishi.

Bu mezonlar ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini chuqur tahlil qilishga hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

8.3. Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi orqali aholining turmush sifatini yaxshilash imkoniyatlari

Milliy iqtisodiyotda oilaviy tadbirkorlikning rolini aniqlashning metodologik yondoshuvida, oila - iqtisodiy tahlil ob'ekti yoki iqtisodiy institut sifatida qaraladi. Chunki, oila iqtisodiy jarayonlarning barcha jihatlarini qamrab olib, bir vaqtning o'zida uy xo'jaligi yoki tashkilot, ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi, jamg'aruvchi yoki investor sifatida ishtirok etadi. Yoki boshqacha yondoshilganda, oilaviy tadbirkorlik zamonaviy oila modelining muhim va ajralmas tarkibiy-funksional elementi hisoblanadi.

Oilaviy tadbirkorlikning dastlabki rivojlanish bosqichida uy xo'jaliklari taraqqiyoti muhim konseptual ahamiyat kasb etadi. Chunki oila xo'jaliklari oilaviy tadbirkorlikning ilk shakllanish va rivojlanish bosqichlarini ifoda etib, unga bo'lgan nazariy qarashlarni shakllantirish uchun muhim metodologik funksiyani o'taydi. Bunday yondoshuvlar zaminida oilaviy xo'jaliklar – jamoaviy xo'jalik yuritishning asosiy shakli ekanligi, uning ishlab chiqarish qobilyati va funksiyalari hamda iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan. Bunda, oilaviy xo'jaliklar hech qanday yollanma mehnatga asoslanmasligi, tashqi aloqalarni o'rnatishda yopiq va imkoniyatlari cheklangan iste'molchi xo'jalik sifatida qaralgan.

Oilaviy tadbirkorlikning shakllanishida uy xo'jaliklarining ishlab chiqarish faoliyatini tadqiq etish muhim uslubiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oilaviy tadbirkorlik - uy xo'jaligi taraqqiyotining ilk shakllanish va rivojlanish bosqichini ifoda etib, unga bo'lgan nazariy qarashlarni shakllantirish uchun muhim metodologik funksiyani o'taydi. Bunday yondoshuvlar zaminida uy xo'jaligi - xo'jalik yuritishning asosiy va ilg'or shakli sifatida uning ishlab chiqarish qobilyati va funksiyalari hamda iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni tadqiqot ob'ekti sifatida qaraladi. Bunday xo'jaliklar hech qanday yollanma mehnatga asoslanmasligi, tashqi aloqalarni o'rnatishda yopiq va imkoniyatlari cheklangan iste'molchi xo'jalik sifatida qaralgan.

Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda uy xo'jaliklariga nafaqat iste'molchi balki tovar ishlab chiqaruvchi xo'jalik sifatidagi yondoshuvlar inqilobiy ahamiyat kasb etdi. Bu borada G. Bekkerning ishlari katta qiziqish uyg'otadi. Uning asarlarida oilada mehnat taqsimoti uy xo'jaligining ishlab

chiqarish funksiyalari, oila daromadlarining taqsimlanishini gender nuqtai nazaridan tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oila bozordagi tovar va xizmatlarni faqat iste'molchisi emas, balki ishlab chiqaruvchisi sifatida namoyon etadigan "Yangi uy xo'jaligi nazariyasi" (G. Bekker, Dj. Minser, K. Lankaster) paydo bo'ldi.

Shuningdek, uy xo'jaliklarining resurslarni etkazib berishdagi rolini o'rganishda Dj.M Keyns tadqiqotlari diqqatga loyiq. Bunda oila xo'jaliklarining daromadlari, iste'mol va jamg'arish xulqi, ularning davlat bilan o'zaro aloqadorligi, xo'jalik yuritishning tez o'zgaruvchan sharoitga moslashishini ilmiy asoslaydi.

Shuni aloxida ta'kidlash joizki, O'zbekiston hududlarida uy xo'jaligida ishlab chiqarish (kasanachilik, hunarmandchilik)ning vujudga kelishi tarixan shakllangan bo'lib, o'rta asrlarning oxiriga to'g'ri keladi. Masalan, arxiv ma'lumotlariga ko'ra 1850-yillarda Samarqand shahridagi oilaviy hunarmandchilik korxonalarining maxsulotlari hatto shahar doirasidan chiqib, butun O'rta Osiyoga tarqalgan. Shu yillarda, Samarqand shahrida yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023-yil 1-avgust xolatiga 7965 ta bo'lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 79,1% ni tashkil etgan. Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 103,6 foizni tashkil etdi.

Samarqand viloyati bo'yicha 2024-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda 77 taga ko'payganligini ko'rish mumkin. Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 23 taga, oilaviy korxonalar 41 taga ko'paygan.

Ko'rinib turibdiki oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari uzoq yillardan buyon iqtisodiy tadqiqotlarning predmeti bo'lib kelgan. Tadqiqot ob'ektining murrakabligi va xilma-xilligi tufayli ushbu muammolarni turli metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etish jarayoni davom etmoqda. Bunday yondoshuvlar oila iqtisodiy nazariyasini turli yo'nalishlarda rivojlantirishga qaratilgan.

Bu borada, Milliy Hisoblar Tizimiga ko'ra, uy xo'jaligi sektori – ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi bo'lgan yagona va gruppa shaxslarni, mustaqil yuridik statusga ega bo'lmagan, lekin ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar faoliyatini ifodalaydi. Bu sektorga aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari, dehqon (fermer) xo'jaliklari hamda yakka mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilar (novvoylar, hunarmandlar, kosiblar, etikdo'zlar, tikuvchilik, elektr apparaturalarini tuzatish va boshqalar)ning iqtisodiy faoliyati kiradi.

Bizningcha, uy xo‘jaliklarini tadqiq etish yo‘nalishlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

Birinchi yo‘nalish, uy xo‘jaliklarining makroiqtisodiy muvozanatni shakllantirish jarayonida tutgan o‘rni nuqtai nazaridan qaraladi.

Ikkinchi yo‘nalish esa, uy xo‘jaligining oila daromadi shakllanishi nuqtai nazaridan unga mustaqil xo‘jalik yurituvchi subekt sifatida qaralib, iqtisodiy xatti-harakatlari o‘rganiladi. Bu bizning nuqtai nazarimizga mos keladi. Bunda oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yuritish alohida ahamiyat kasb etadi. Oila iqtisodiy nazariyasining rivojlanishi uning jamiyatdagi o‘rni, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimining rivojlanishiga ta’sir etuvchi bir qator muhim funksiyalarini ochib berdi.

Bunday nazariyalar o‘z navbatida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun ham metodologik asos bo‘la oladi.

Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishga davr va zamon nuqtai nazaridan ham yondoshish mumkin. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida oilaviy tadbirkorlikni shakllanishi va rivojlanishini uch bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich, oilaviy tadbirkorlikning huquqiy asoslari etarlicha shakllanmagan davrlarni (1993-2012-yillar) qamrab olsa, ikkinchi bosqich aynan “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi (2012-yil 26 aprel) Qonunning qabul qilinishi bilan boshlanadi. Bu esa, uni alohida iqtisodiy kategoriya sifatida tan olishning huquqiy asoslarini yaratib berdi. Uchinchi bosqich esa, yangi O‘zbekiston davriga (2016-yildan boshlanadi) to‘g‘ri keladi. Bu davr esa har bir oilaga tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yishning manzilli yo‘naltirilgan dasturlari bilan ajralib turadi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xalqaro modellari va tajribalarini o‘rganishda ixtisoslashgan Journal of Family Business Strategy (Elsevier), Family Business Review (Sage) va Journal of Family Business Management (Emerald) jurnallar hamda, xalqaro oilaviy tadbirkorlik tadqiqotlari akademiyasining (International Family Enterprise Research Academy) elektron-ilmiy resurslaridan foydalanish asosida tadqiqotimizning uslubiy yo‘nalishlari shakllantirildi.

Shuningdek, “Google Scholar“ qidiruv tizimidan “family entrepreneurship”, “Family Business” kalit tushunchalari asosida tanlangan ko‘plab ilmiy manbalardan tadqiqotning axborot bazasi uchun foydalanildi.

Ushbu ilmiy manbalarda 2000-2023-yillarda nashr etilgan oilaviy tadbirkorlikga oid tadqiqot natijalari asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning eng samarali usullarini o‘rganish maqsadi belgilandi. Bunda oilaviy tadbirkorlikni tadqiq etish uslubiyoti, qo‘llanilgan nazariya, ta’riflar va tadqiq etilgan asosiy g‘oyalar va ma’lumotlarni tahlil etishda qo‘llanilgan statistik instrumentlar kontent-tahlilimizni qamrab oldi.

Ushbu mezonlar asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid tadqiqotlar yo‘nalishlar bo‘yicha tizimlashtirildi. Jumladan, oilaviy

tadbirkorlikning mohiyati va uning nooilaviy korxonalardan farqli jihatlari (Anderson & Reeb; Tanewski, Prajogo & Sohal; Beehr, Drexler & Faulkner; Daily & Dollinger), oilaviy biznesning iqtisodiyot va sanoatni rivojlantirishdagi roli hamda, internasionalizasiya masalalari (Gallo, Miguel Angel & Jannicke Sveen), oilaviy biznesning kapital tarkibi, moliyaviy resurslari va biznesga xarajatlari hamda moliyaviy qarorlariga ta'sir koʻrsatuvchi omillari (Romano, Tanewski & Smyrnios; Blanco-Mazagatos, de Quevedo-Puente & Castrillo), oilaviy firmada tasischining oʻrni va uning strategik hatti-harakatini rejalashtirish masalalari (Kelly & Kets de Vries), oilaviy va oilaviy boʻlmagan biznesdagi farqlarni oʻrganishda madaniy va axloqiy xatti-harakatlarning xususiyatlari (Duh, Belak & Milfelner; Dyer; Vallejo), oilaviy biznes va hududlar rivojlanishi oʻrtasidagi bogʻliqlikning nazariy modeli ishlab chiqilgan (Basco) shuningdek, iqtisodiyotda oilaviy firmalarning afzalliklari, korporativ boshqaruv va tadbirkorlikning rivojlanishiga institusional yondoshuv nuqtai nazaridan, ularning oʻziga xos xususiyatlari oʻrganilgan (Banalieva, Eddleston, Zellweger; Steier).

Bu bora, rossiyalik olimlar (Barxatova; Volkov; Kalendjyan; Korchagina; Korolev; Cherniskiy) oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, tiplari, tasniflanishi va nazariy konseptual asoslarini rivojlantirish muammolarini ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etgan.

Mazkur keltirilgan oilaviy tadbirkorlikni tadqiq etishning metodologik yondoshuvlarini oʻrganish, hamda tadqiq etilgan asosiy muammo va gʻoyalarni qiyosiy tahlil etish asosida ular quyidagi guruxlar boʻyicha tizimlashtirildi:

- oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy moxiyati, uning rivojlanish bosqichlari va hayotiy siklini oʻrganish;
- biznesda oilaning roli, oila va biznes oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlik strategiyalari hamda oilaviy korxona boshligʻining oila a'zolari va boshqa xodimlar bilan oʻzaro hamkorlik aloqalari;
- oilaviy biznesning oilaviy boʻlmagan biznesga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarining qiyosiy tahlili;
- oilaviy biznesni boshqarish, biznesning avloddan avlodga oʻtishi (uzluksizligi), meros va gender masalalari;
- oilaviy tadbirkorlik daromadlari va mulkini koʻpaytirish hamda bandlikni oshirish muammolarini tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlar.

Shuningdek, ilmiy manbalarni oʻrganish asosida oilaviy tadbirkorlikga oid tadqiqotlar qiyosiy tahlil etildi. Bunda, oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy moxiyati, mualliflik ta'rifi hamda tadqiq etilgan asosiy gʻoyalar oʻrganildi. Ilmiy tahlillar shuni koʻrsatdiki, oilaviy tadbirkorlik tushunchasiga berilgan ta'riflar xilma-xil tasnifiy belgilarga asoslanishi va bu borada yagona umumiy yondoshuvning mavjud emasligini koʻrsatdi. Bu boradagi tadqiqotlarda oilaviy tadbirkorlikning mohiyatini ochib berishda,

uning muayan bir oilaga tegishliligi, oila boshlig‘i tomonidan boshqarilishi va uning a’zolari mehnat jarayonini tashkil etishi kabi jihatlari asos qilingan holda ta’rif berilgan (8.3.1-jadval).

8.4-jadval

Oilaviy tadbirkorlikga oid tadqiqotlarning solishtirma tahlili [52]

Oilaviy tadbirkorlikga berilgan ta’rif

Mualliflar	**Oilaviy tadbirkorlikga berilgan ta’rif**	**Tadqiq etilgan kalit tushunchalar**
“Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonun	Oilaviy tadbirkorlik oila a’zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir.	
Piter Druker	Oilaviy tadbirkorlik — bu kichik biznesning eng ustuvor shakli bo‘lib, uning asosiy xususiyati oila a’zolarining iqtisodiy faoliyati va mulkdorlik huquqiga bo‘lgan o‘zaro bog‘liqligidir	oilaviy tadbirkorlik faqat moliyaviy manfaatlar bilan chegaralanib qolmay, ijtimoiy mas’uliyatni ham o‘z ichiga oladi.
Morev D. Amartya Sen	oilaviy tadbirkorlik — “aholining iqtisodiy farovonligi va inson kapitalini oshirishdagi asosiy vosita” deb ta’riflaydi.	Oilaviy tadbirkorlik faoliyati oilalarni iqtisodiy jihatdan mustaqil qilish bilan birga jamiyatning umumiy ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi.
Sabina Alkiyre	ko‘p o‘lchovli qashshoqlik tahlillari asosidagi	Oilaviy biznesning asosiy tushunchalari

[52] Druker P. Effektivnoe upravlenie //M.: Astrel. – 2004. – T. 284. Морев Д. А. Амартия Сен и теория общественного выбора //Вестник Московского университета. Серия 6.Экономика. – 2010. – №. 2. – С. 3-11. Sh R. S., Qurbonov P. S. THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN MEDICINE //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-1. – С. 270-275. Mirzayev Q. J., Pardayev M. Q., Pardayev O. M. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti //O ‘quv qo ‘llanma. – 2015. – C. 73. Alkire S. Multidimensional poverty measures as policy tools //Dimensions of poverty: Measurement, epistemic injustices, activism. – 2020. – С. 197-214. Okoroafo S. C., Koh A. C. Family Businesses' Views on Internationalization: Do They Differ by Generation? //International Business Research. – 2010. – Т. 3. – №. 1. – С. 22. Шадиева Г. М. ОИЛА ХЎЖАЛИГИ ФАРОВОНЛИГИНИ ОШИРИШДА ОИЛАВИЙ БИЗНЕСНИНГ РОЛИ //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1. , Черницкий А. Семья и бизнес: у «них» и у «нас» //Справочник по управлению персоналом. – 2008. – Т. 1., РЕСПУБЛИКАСИ Ў., СЕРВИС С. И. В. А., КУВАНДИКОВ Ш. О. ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК: ривожланиш тенденциялари., Sharma P., Chrisman J. J., Chua J. H. (ed.). A review and annotated bibliography of family business studies. – 2012.

	yondashuviga koʻra, oilaviy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki aholining ijtimoiy muammolarini echish vositasi sifatida namoyon boʻladi.	majmuasini ishlab chiqish; kompaniya turlarini tasniflash; oilaviy biznesning strategik boshqaruvi; korporativ boshqaruvi; meros masalalari; steykxolder yondoshuvi; Rossiyada oilaviy biznesining xususiyatlari.
Чуа Ж. Ҳ., Чрисман Ж. Ж.,Шарма П.	Raxbarligi va boshqaruvi bir oilaning a'zolari yoki koʻp sonli oilalar tomonidan boshqariladigan, biznesni rivojlantirish konsepsiyasini shakllantirish va amalga oshirish uchun potensial turgʻunlikni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan biznes boʻlib, oilaning bir necha avlodlari uchun barqarorlikni ta'minlaydi.	Rossiyada kapital egalarining empirik tadqiqotlari; asosiy qadriyatlar; oilaviy qadriyatlar; shaxsiy qadriyatlar, kapital egalarining qadriyatlar qiyofasi; biznes va farovonlikning avloddan avlodga oʻtishi; qadriyatlar va dunyoqarashlarni avloddan avlodga oʻtishi; oila va biznes oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlik strategiyasi; xayriya va ijtimoiy mas'uliyat.
Cherniskiy. A.	Sohibi oilaviy biznes deb hisoblaydigan biznes turi.	Oilaviy biznesning ta'rifi; oilaviy biznesining oʻziga xos xususiyatlari; oila biznesini yuritishda uni tasischisi bilan oila a'zolari va boshqa xodimlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlardagi muammolar; oilaviy biznesning oilaviy boʻlmagan boshqa turdagi korxonalar bilan taqqoslaganda uning afzalliklari va

		kamchiliklarining qiyosiy tahlili.
Kasyanenko T.G., Vorotilkina A.M [53]	oila tadbirkorligi – bu ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u tadbirkorlik faoliyatini (daromad keltiruvchi biznesni) biznes egasi tomonidan o‘z qarindoshlari (oilasi) bilan birgalikda amalga oshirishni, shuningdek, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan an’analar va boshqaruv g‘oyalariga asoslangan boshqaruvni (oilaviy boshqaruvni) anglatadi.	Oila tadbirkorligi – tadbirkorlikning alohida shakli sifatida ko‘rib chiqilgan, u tadbirkorlik faoliyati va oila munosabatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya – oila tadbirkorligi faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy xususiyatlarga ham ega ekanligi, ya’ni u jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, madaniyat va an’analar bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlangan.
A. Landsberg	oilaviy tadbirkorlik – bu doimo o‘zaro ta’sir qiladigan ikki tizim – oila va tadbirkorlikning sintezidir [54].	oilaviy firmalarda inson resurslarini boshqarishning asosiy dilemmasini shakllantirdi, uning mazmuni oilaviy firmalarning ikki tomonlama tabiatida namoyon bo‘ladi. Chunki oila o‘z tabiatiga ko‘ra ijtimoiy institut bo‘lsa, firma –

[53] семейный бизнес как особый объект оценки Касьяненко Т.Г.1, Воротилкина А.М.1 1 Санкт-Петербургский государственный экономический университет, Санкт-Петербург, РоссияЭкономика,предпринимательство и правоТом 10 □ Номер 3 □ Март 2020Journal of Economics, Entrepreneurship and Law
ISSN 2222-534X

[54] Economic growth in conditions of globalizytion: welfare and social inclusion” Volume I171СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ «СЕМЕЙНЫЙ БИЗНЕС»:ОПРЕДЕЛЕНИЕ И ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИТатьяна Геннадьевна КАСЬЯНЕНКО ,д.э.н., профессор кафедры Корпоративных финансов и оценки бизнесаСанкт-Петербургский государственный экономический университетг. Санкт-Петербург, РоссияАнастасия Михайло вна ВОРОТИЛКИНА ,Магистр экономики, соискатель степени кандидата наук,Санкт-Петербургский государственный экономический университет,Кафедра корпоративных финансов и оценки бизнесаг. Санкт-Петербург, Россия https://ibn.idsi.md/sites/default/files/imag_file/171-178_3.pdf

		tadbirkorlikni tashkil etishning iqtisodiy shakli hisoblanadi.
Sherzod Qurbonov	Oilaviy tadbirkorlikni “mikroiqtisodiy rivojlanishning asosiy manbai” sifatida ta’riflaydi.	Oilaviy biznes faoliyat aholining o‘z-o‘zini ta’minlashiga va iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan.
Pardaev M.K. Qurbonov Z.N	Oilaviy mulkga asoslangan oila a’zolari ishtirok etadigan tadbirkorlik faoliyati	Oila daromadlarini oshirish va farovonligini ta’minlash masalalari tadqiq etilgan.
Shadieva G.M	Oilaviy mulkka asoslangan, oila a’zolari ishtirok etadigan va ma’lum darajada daromad (foyda) olishni ko‘zlab qilinadigan faoliyatga aytiladi.	Oila va oila xo‘jaligi tushunchasini ijtimoiy-iqtisodiy moxiyatining qiyosiy tahlili; oila xo‘jaligi mulki va daromadlarini oshirish va undan samarali foydalanish yo‘llari o‘rganilgan.
Sh.O.Quvondiqov	Umumiy oilaviy kapitalga tayanib, oila a’zolarining birgalikdagi harakati, o‘zaro ko‘maklashuvi va o‘zini-o‘zi boshqarishga asoslangan tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.	Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va boshqarish tizimini “o‘zini-o‘zi tashkilashtirish” va “o‘zini-o‘zi boshqarish” tamoyillari asosida takomillashtirishga erishish yo‘llari o‘rganilgan.

Manba: o‘rganilgan ilmiy manbalar asosida tuzilgan

Shu kabi oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid nazariyalar o‘ziga xos tariflar asosida bir necha yo‘nalishlarda davom etmoqda. Bunday murakkab jarayonlarni chuqur o‘rganish va tahlil kilish endilikda noan’anaviy metodologik konsepsiyalar, masalaga o‘zgacha yondoshish tamoyillarini kashf etish zaruratini taqozo etmoqda. Muammolarni bartaraf etishga yangi ilm sohasi sifatidagi tariflarni ishlab chiqishni taqoza qilmoqda.

Bizningcha oilaviy tadbirkorlik deganda-oila a’zolari tomonidan tashkil etilgan va ularning umumiy moliyaviy, mehnat hamda ijtimoiy manfaatlarini ta’minlash maqsadida boshqariladigan tadbirkorlik faoliyatidir. Uning o‘ziga

xos xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati quyidagilarda nomoyon bo‘ladi:

Birinchidan, oila a’zolarining mehnat resurslari sifatidagi ishtiroki bo‘lib, bunday tadbirkorlikda mexnat resurslari asosan oila a’zolari xissasiga to‘g‘ri keladi, ular biznesning tashkiliy va amaliy jarayonlarida faol io‘tirok etadi. Bunday faoliyat, odatda oilaviy an’analar, qadriyatlar va ko‘nikmalarga asoslangan holda tashkil etiladi. BU oila a’zolari o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlab, ish jarayonlarini osonlashtiradi.

Ikinchidan, mulkchilik va manfaatlarning oilaga yo‘naltirilganligi oidaviy tadbirkorlikda mulkchilik, sarmoya va daromadlar asosan oilaga tegishli bo‘lib, ularning taqsimoti oilaviy kelishuvlar yoki an’anaviy qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Bu esa faoliyatdan olingan foydani qayta sarmoya ishlatish imkonini beradi.

Uchinchidan, Ijtimoiy barqarorlik va shaxsiy yondashuv ma’lumki, oilaviy tadbirkorlik maqsadi fakat foyda ko‘rish emas, oila a’zolarining ijtimoiy barqarorligini ta’minlash va ularning farovonligini oshirishga qaratilgan. Mijozlar bilan ishlashda shaxsiy yondashuv va oilaviy qadriyatlarga asoslanish ushbu tadbirkorlik turining muhim jihati hisoblanadi.

To‘rtinchidan, kichik va o‘rta biznesga yo‘naltirilganlik bo‘lib, oilaviy tadbirkorlik odatda kichik yoki o‘rta miqyosdagi biznes shaklida nomoyon bo‘ladi. U mahalliy bozor extiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bozor o‘zgarishlariga tez moslashauvchanligi bilan ajralib turadi. Bu esa faoliyatning barqarorligini ta’minlashga yordam beradi.

Beshinchidan, mehnat taqsimotining samaradorligidir, xar bir oila a’zosining o‘z qobiliyatiga muvofiq faoliyat yuritishi mehnat taqsimotining samaradorligini oshiradi.Ayrim xollarda, bu faoliyat kasbiy ko‘nikmalar yoki xunarmandchilik an’analarini saqlash va rivojlantirishga asoslanadi.

Oltinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy axamiyatidir. Oilaviy tadbirkorlik mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy barqvrorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bunday tadbirkorlik sub’ektlari milliy iqtisodiyotning muhim qismlaridan biri sifatida kichik va o‘rta biznes rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar asosida oilaviy tadbirkorlikning takomillashgan mualliflik ta’rifi kuyidagicha ifodalanadi:

Oilaviy tadbirkorlik- bu oila a’zolari tomonidan tashkil etiladigan va boshqariladigan, ularning iqtisodiy farovonligini oshirish, mehnat resurslarini samarali boshqarish hamda ijtimoiy manfaatlarni qondirishga yo‘naltirilgan tadbirkorlik shakli bo‘lib, u an’analar, shaxsiy munosabatlar va oilaviy qadriyatlarga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Oilaviy tadbirkorlik sohasida olib borilgan tadqiqotlar va solishtirma tahlillar asosida quyidagi nazariy xulosalarga kelindi:

Oilaviy tadbirkorlikning shakllanishi evolyusion rivojlanish jarayonida "oila – uy xo‘jaligi – oilaviy tadbirkorlik" bosqichlari orqali sodir bo‘lishi nazariy jihatdan asoslandi.

Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi uning raqobatbardosh ustunliklari va bir qator afzalliklariga bog‘liq. Ushbu afzalliklar oila qadriyatlari va biznes madaniyati (o‘zaro ishonch va hurmat, umumiy maqsad, jamoaviy birdamlik, umumiy manfaatlar, yagona kapital va daromad, yagona byudjet)ning mavjudligi orqali namoyon bo‘ladi.

Oilaviy tadbirkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun "oila mulki" muhim omil bo‘lib, oila a’zolarining mehnat faoliyati va ularning biznesdagi ishtiroki katta imkoniyatlar manbai sifatida xizmat qiladi.

Oilaviy tadbirkorlikning barqarorligi va uzluksizligini ta’minlash uchun keyingi avlodlarning ishtirokini rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy tadbirkorlik asosida mahalla byudjeti shakllantirilishi va mahallalarni mustaqil iqtisodiy sub’ekt sifatida rivojlantirish bo‘yicha bir qator takliflar ishlab chiqildi.

Mahallada oilalarning ijtimoiy holatini yaxshilash, bandlik muammosini hal etish hamda kelajakda mahallaning mustaqil byudjetini tashkil etish uchun moliyaviy manbalarni aniqlash maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunda ko‘plab mahallalarda rasmiy ro‘yxatdan o‘tmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va ishsiz shaxslar mavjud bo‘lib, ularni rasmiy sektorga jalb etish mexanizmlari mavjud emas. Bu masalani hal etish uchun mahallada faoliyat yuritayotgan yakka tadbirkorlar va kasanachi fuqarolarning soliq to‘lovlarini mahalla byudjetiga yo‘naltirish va yig‘ilgan mablag‘ni mahalla ehtiyojlariga yo‘naltirish mexanizmini joriy etish muhimligi asoslantirildi.

Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik nazariyasini rivojlantirish va kengaytirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlar taklif etildi:

Oilaviy tadbirkorlikni tasniflash tizimini takomillashtirish – uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini inobatga olgan holda qo‘shimcha mezonlar asosida rivojlantirish zarur.

Oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini chuqur tahlil qilish – bu sohadagi qarama-qarshi fikrlar va yaqin yondashuvlarni o‘rganib, yagona nazariy va amaliy yondashuvlarni shakllantirish imkoniyatlarini oshirish lozim.

Tashqi mehnat resurslarining roli va o‘zaro munosabatlarini tadqiq etish – yollanma xodimlar ishtirokini, oila boshlig‘ining biznesdagi hamda oilaviy hayotdagi o‘rnini tahlil qilish va ular o‘rtasidagi mehnat munosabatlarini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, tadqiqot natijalarini muayyan sohada birlashtirish va umumlashtirishga xizmat qiluvchi uslubiy asos vazifasini bajaradi.

Oilaviy tadbirkorlik jamiyatda iqtisodiy faollikni oshirish, ish o‘rinlari yaratish va aholining turmush sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu tadbirkorlik shakli nafaqat daromadni oshirish, balki barqaror ijtimoiy muhit yaratishga ham xizmat qiladi. Quyida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholining turmush sifatini yaxshilash yo‘llari va imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

1. Ish bilan bandlikni oshirish va daromad manbalarini kengaytirish

- Oilaviy tadbirkorlik yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ishsizlik darajasini kamaytiradi.
- Oilaning har bir a’zosi tadbirkorlik jarayoniga jalb qilinishi natijasida daromad manbalari diversifikatsiya qilinadi.
- Mahsulot yoki xizmat ko‘rsatish orqali barqaror daromadga erishish oilaning moliyaviy mustaqilligini ta’minlaydi.

2. Mahalliy iqtisodiyot rivojlanishiga hissa qo‘shish

- Oilaviy tadbirkorlar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat yuritib, mahalliy bozorlarni to‘ldiradi.
- Hududiy sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining rivojlanishiga turtki beradi.
- Mahalliy xomashyo va mehnat resurslaridan samarali foydalanish natijasida iqtisodiy samaradorlik oshadi.

3. Ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash

- Daromad manbalarining ko‘payishi oilalarning kambag‘allikdan chiqishiga yordam beradi.
- Oilalar moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lgach, ta’lim va tibbiy xizmatlarga ko‘proq mablag‘ ajratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
- Ayollar va yoshlarning tadbirkorlikka jalb etilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

4. Sifatli mahsulot va xizmatlar yetkazib berish

- Oilaviy tadbirkorlik orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar mahalliy bozorda raqobatbardosh bo‘lishi mumkin.
- Hududiy va milliy bozorlar uchun yuqori sifatli va ekologik toza mahsulotlarni ta’minlash imkoniyati yaratiladi.
- Xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlik mijozlarga individual yondashish imkonini beradi.

5. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish

- Oilaviy tadbirkorlik ko‘pincha kichik biznes sifatida boshlanib, vaqt o‘tishi bilan o‘rta va yirik biznesga aylanishi mumkin.
- Oilaviy tadbirkorlar uzoq muddatli biznes strategiyalarini ishlab chiqish va barqaror rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
- Kichik biznesni rivojlantirish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida oilaviy tadbirkorlik faoliyati yanada kengayadi.

6. Innovatsion yondashuv va raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish

- Oilaviy tadbirkorlar elektron tijorat, onlayn xizmatlar va raqamli texnologiyalar orqali o‘z mahsulot va xizmatlarini kengroq auditoriyaga yetkazish imkoniga ega bo‘ladilar.
- Raqamlashtirish orqali mahsulot yetkazib berish va mijozlar bilan muloqot qilish jarayonlari soddalashtiriladi.
- Innovatsiyalarni joriy etish orqali samaradorlik va daromad oshiriladi.

7. Ekologik barqarorlik va mahalliy resurslardan samarali foydalanish

- Oilaviy tadbirkorlik ko‘pincha tabiiy va qayta tiklanadigan resurslardan foydalanishga asoslanadi.
- Ekologik jihatdan toza mahsulotlar ishlab chiqarish orqali atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mumkin.
- Barqaror qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik faoliyatining rivojlanishi tabiiy resurslarni tejashga yordam beradi.

Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki aholining turmush sifatining yaxshilanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Bu jarayon ishsizlik darajasining pasayishi, ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishi, sifatli mahsulot va xizmatlar ko‘payishi kabi ijobiy natijalarga olib keladi. Shu sababli, davlat tomonidan oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy resurslar bilan ta’minlash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Turmush sifati (Quality of Life) – aholining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy farovonlik darajasini ifodalovchi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u sog‘liqni saqlash, ta’lim, iqtisodiy imkoniyatlar va yashash sharoitlari kabi omillar asosida baholanadi. Ushbu ko‘rsatkich insonlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini, shuningdek, ularning hayot sifatini belgilovchi ijtimoiy va iqtisodiy muhitni aks ettiradi.
2. Yashash sharoiti (Living Conditions) – Aholining turar joylar, infratuzilma, ijtimoiy xizmatlar va atrof-muhit bilan bog‘liq umumiy holati.
3. Yaratilgan imkoniyatlar (Created Opportunities) – Davlat tomonidan aholining turmush sifatini yaxshilash maqsadida taqdim etilgan imkoniyatlar va resurslar.
4. Ijtimoiy farovonlik (Social Welfare) – Aholining iqtisodiy va ijtimoiy holati, jamiyatdagi barqarorlik va farovonlikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati.
5. Sog‘liqni saqlash imkoniyatlari (Healthcare Opportunities) – Aholiga taqdim etiladigan sog‘liqni saqlash xizmatlari, uning sifat va kirish darajasi.

6. Ta’lim imkoniyatlari (Education Opportunities) – Aholi uchun ta’lim olish imkoniyatlari, ta’lim tizimi va unga kirish imkoniyatlari.

7. Infratuzilma (Infrastructure) – Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan infratuzilma ob’ektlari, transport, energiya ta’minoti va aloqa tizimlari.

8. Bandlik imkoniyatlari (Employment Opportunities) – Aholining ish bilan ta’minlanish imkoniyatlari, mehnat bozori va ish o‘rinlarining mavjudligi.

9. Ijtimoiy yordam (Social Assistance) – kam daromadli va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga moddiy, moliyaviy va xizmat ko‘rinishida ko‘rsatiladigan yordam shakli bo‘lib, u aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish hamda hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan.

10. Daromadlar o‘sishi (Income Growth) – Aholining daromadlarining oshishi va bu o‘zgarishlarning turmush sifatiga ta’siri.

11. Turmush darajasi (Living Standards) – Aholining umumiy farovonligi va uning o‘zgarishlari, shu jumladan daromad, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqalar.

12. Statistik tahlil (Statistical Analysis) – O‘zbekistondagi aholi turmush darajasini o‘lchash va tahlil qilish uchun statistik metodlardan foydalanish.

13. Aholi daromadlari (Income Levels) – Aholining daromad darajasi va uning turmush darajasiga ta’siri, bu ko‘rsatkichlarning yillik tahlili.

14. Ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar (Socio-economic Indicators) – Aholining turmush darajasini o‘lchashda foydalaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar, masalan, o‘rtacha daromad, ta’lim va sog‘liqni saqlash.

15. Inson kapitali (Human Capital) – Aholining ta’lim, sog‘liqni saqlash va mehnat ko‘nikmalari orqali turmush darajasini oshirishga qaratilgan resurslar.

16. Soliq tizimi (Tax System) – O‘zbekistonda aholining turmush darajasini yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan soliqlar va ijtimoiy to‘lovlar siyosati.

17. Iqtisodiy o‘sish (Economic Growth) – O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish va uning aholi turmush darajasiga ta’siri.

18. Aholining boyligi (Wealth of Population) – Aholining mol-mulk, mulk huquqlari va boshqa resurslarga ega bo‘lishi orqali turmush darajasining tahlili.

19. Aholi bandligi (Employment Rate) – Aholining ish bilan ta’minlanishi darajasi, bandlik o‘sishi va bu turmush darajasiga ta’siri.

20. Taqsimot tengsizligi (Income Inequality) – O‘zbekistonda turmush darajasining taqsimotidagi tengsizliklar, daromadlar o‘rtasidagi farq va kambag‘allikning ta’siri.

Takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekistonda aholining turmush sifatini o‘lchashda qanday ko‘rsatkichlardan foydalaniladi?
2. Aholining yashash sharoitlarini yaxshilash uchun O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan asosiy islohotlar qanday?
3. O‘zbekistonda ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi aholining turmush sifatiga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?
4. Aholining turmush sifatini oshirish uchun davlat tomonidan qanday ijtimoiy dasturlar amalga oshirilmoqda?
5. O‘zbekistonda ta’lim, sog‘liqni saqlash va uy-joy masalalarida yaratilgan imkoniyatlar haqida nimalar aytish mumkin?
6. Aholining yashash sharoitlari va daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlik qanday?
7. O‘zbekistonda turmush sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha qishloq joylarida qanday dasturlar amalga oshirilmoqda?
8. Aholining turmush sifatini oshirishda ekologik sharoitlarning ahamiyati qanday?
9. O‘zbekistonda yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan infratuzilma loyihalarining natijalari qanday bo‘ldi?
10. Aholining turmush sifatini oshirish va yashash sharoitlarini yaxshilashda xususiy sektor va davlatning o‘zaro hamkorligi qanday rivojlanmoqda?

IX BOB. KAMBAG‘ALLIKNI MOHIYATI

9.1. Kambag‘allik tushunchasining nazariy talqini.
9.2. Kambag‘allik tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.

9.1. Kambag‘allik tushunchasining nazariy talqini

O‘zbek tilida kambag‘allik bilan bog‘liq juda ko‘plab so‘zlar ishlatiladi. Xalq orasida ham ushbu tushuncha bilan bog‘liq so‘lar juda ko‘p ishlatilib kelinar edi va hamon ishlatilib kelinmoqda. Ushbu so‘zdan juda ko‘plab badiiy asarlarda ham foydalanib kelingan. Jumladan, 5 tomlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Kambag‘al”, “Kambag‘allashmoq”, “Kambag‘alparvar”, “Kambag‘allik”, “Kambag‘alchilik” kabi iboralarga izoh berilgan.

“**Kambag‘al**” so‘zi fors-arab tillaridan olingan bo‘lib, “qashshoq, yo‘qsil” ma’nolarini anglatadi. Unga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uchta izoh berilgan. 1. Muhtojlikda yashovchi, tirikchilik uchun kerakli narsasi etarli bo‘lmagan; qashshoq, faqir, bechora. 2. Yetarli bo‘lmagan; kam, etishmaydigan. 3. Ko‘chma ma’noda. Mushkul yoki ayanchli ahvolga tushub qolgan kishi; sho‘rlik, boyoqish, bechora”. “Kambag‘al oila”, “Kambag‘al dehqon” so‘zlari Oybek, Mirzokolon Ismoiliy, Komil Yashin, Parda Tursun, Abdullo Qahhor kabi adiblarning asarlarida qo‘llanilib kelingan. Jumladan, Mirzokolon Ismoiliynirng “Farg‘ona tong otguncha” romanida *“O‘quvchilarning qariyb hammasi kambag‘allarning bolalari bo‘lgani uchun, G‘ulomjon ota-onalar bilan maslahatlashib, ularga har kuni issiq ovqat qildirib berib turdi*”. Kambag‘al so‘zining ishlatilishi bo‘yicha xuddi shunday ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Lug‘atda keltirilgan yana bir atama: “**Kambag‘allashmoq**” so‘zi bo‘lib, bunga “Kambag‘al bo‘la bormoq, kambag‘al bo‘lib qolmoq”, degan izoh berilgan. Navbatdagi ibora “**Kambag‘allik**” bo‘lib, bunga quyidagicha izoh berilgan: “Hayotiy, tirikchilikka zarur narsalarning etishmaslik holati”, deyilgan. Bunga misol qilib Komil Yashinning “Hamza” romanida keltirilgan *“Bir kuni ona bechora yig‘lab, xudlga nola qildi: “Kambag‘allik qursin, kambag‘allik. E xudo qanday gunoh qildikki, bizni bunchalar qaqshatasan?”*. Hayotiy tirikchilikning ko‘lami keng. Bunga zarur oziq-ovqatlar bilan ta’minlanish-dan tashqari kiyim kechaklar ham, turli xizmatlardan foydanish ham, o‘qish, tibbiy muassasalarda davolanish kabilar ham kiradi. Shularga tegishli mablag‘ yoki shunga mos ne’matlar etarli bo‘lmasa, bunday kishilar kambag‘allik toifasidagi odamlarga kiradi.

Kambag‘allik bilan bog‘liq yana bir atama “**Kambag‘alchilik**”, deb yuritiladi. O‘rganilayotgan lug‘otda ushbu so‘zning ham izohi keltirilgan. Bunga “Kambag‘al sharoit; kambag‘allik, qashshoqlik”, degan izoh berilgan. Bunga misol tariqasida Abdullo Qahhorning “Qo‘shchinor

chiroqlari” nomli romanidagi quyidagi gaplarni keltirilgan “- *Hozir ham kambag‘almiz, – dedi Sattarqul davom etib, – lekin bu kambag‘alchilik yorug‘ dunyodan bo‘lgan umidimizni emas, yorug‘ dunyodan bo‘lgan umidimiz bu kambag‘alchilikni eb, kemirib tashlayotibdi”*. Ko‘rinib turibdiki, ushbu atamalarning o‘zagi va mazmuni bir biriga juda yaqin. Ushbu so‘zlarning asl ma’nosi, insonning normal yashashi uchun tegishli ne’matlarning etishmasligi bilan ifodalanadi.Yana bir ibora “**Kambag‘alparvar**”, bo‘lib, bu – “kambag‘allarga yordam ko‘rsatuvchi, shafqat qiluvchi; kambag‘allar huquqini himoya qiluvchi” ma’noni anglatishi qayd etilgan. Bunga bir misol tariqasida Parda Tursunning “O‘qituvchi” romanidan bir so‘z keltirgan. Unda: “Boylardan bittasi juda kambag‘alparvar o‘tgan ekan, chakalakzoriga doshqozon ostirib, och qolganlarga xo‘rda, atala ulashib turar ekan”, deyilgan. Ko‘rinib turibdiki, ushbu boy kambag‘allarning holidan xabardor bo‘lib, ularga qaysidir ma’noda yordam berib, hech bo‘lmasa qornini to‘yg‘azib kelishgan. Shu tufayli uni kambag‘alparvarlar qatoriga qo‘shgan.

Endi kambag‘allik bilan bog‘liq atamalarning mazmunini qarab chiqdik. Ammo ushbu tushunchalarning ta’riflari ishlab chiqilmagan. Biroq uni izohlashga turli yondoshuvlar mavjud. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi Bosh ilmiy xodimi Baxtishod Xamidov ta’kidlashicha: “Ba’zilar kambag‘allik deganda insonning birlamchi ehtiyojlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta’lim va sog‘liqni-saqlash) qondirishga imkoniyatning mavjud emasligini tushunsa, boshqalar – tanlov erkinligining etarlicha emasligi yoki kuniga 1,90 dollardan kam miqdorga kun kechirishni, uchinchi tomon esa –insonning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishtirokiga putur etkazuvchi ijtimoiy, ta’lim va sog‘liqni-saqlash sohasidagi to‘siqlarning doimiy doirasini tushunishadi. Umumiy qaraganda, kambag‘allikni baholash bir nechta aniq belgilangan ko‘nikma va usullarni talab qiladi”, deyilgan. Ushbu izohlar, ma’lum ma’noda kambag‘allik tushunchasining ta’rifini ilab chiqishga asos bo‘lishi mukin. Zero kambag‘allikning negizida munosib hayot kechirish uchun ne’matlarning etishmasligiga borib taqaladi. Bularni inobatga olib kambag‘allikka quyidagicha ta’rif berishni maqsadga muvofiq, deb topdik.Kambag‘allik deganda, insonlarning topgan daromadlari oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi birlamchi ehtiyojlarini qondirishga etmasligi oqibatida xalqaro va ichki me’yorlardan kam imkoniyatga ega bo‘lib qashshoq yashashga majbur bo‘lib kelinayotgan kishilarning cheklangan holati tushuniladi. Mavjud ta’rif ilk bor ishlab chiqilganligi tufayli, kelgusida ma’lum ma’noda takomillashishi mumkin. Hozirgi paytda Jahon Bankining tavsiyasiga binoan kambag‘allik chegarasi xalqaro miqyosda kuniga 1,90 dollardan kam bo‘lmasligi lozim. Ushbu me’yorni

O‘zbekistonga ham joriy qilinadigan bo‘lsa, aholining o‘rtachi bir kunlak daromadi 1,9 dollardan kam bo‘lmasligi kerak. Bu haqdi batafsil ma’lumotlar quyida keltirilgan.Ushbu ta’rifni nazariy jihatdan quyidagicha izohlash mumkin. Birinchidan, kambag‘allik deganda, insonlarning topgan daromadlari ko‘zda tutilmoqda. Kambag‘allik tushunchasi faqai ishsiz kishilarni ko‘zda tutmaydi, balki topgan daromadi ham ma’lum talablarga javob beradigan, tegishli miqdordan oshadigan bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, insonlar uchun eng zarur bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi birlamchi ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan bo‘lishi va shularga etarli bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Insonlarning munosib yashashi uchun faqat oziq-ovqat emas, demak boshqa ne’matlar (kiyim-kechak, uy-joy, ta’lim va sog‘liqni saqlash) ham zarur bo‘lar ekan. Uchinchidan, kambag‘allikning ma’lum chegarasi (xalqaro va ichki miqyosda) bo‘lishi kerak. To‘rtinchidan, ushbu xalqaro va ichki me’yorlar chegarasi insonlarning nomal yashashini ta’minlash uchun tegishli imkoniyatni yaratishi lozim. Shundagina bunday kishilar qashshoq yashashga majbur bo‘lib kolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagilar tom ma’noda, kambag‘allikka berilgan ta’rifning nazariy asosini tashkil qiladi.

9.2. Kambag‘allik tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Kambag‘allik – bu jamiyatning katta qismi uchun xos bo‘lgan, mo‘’tadil turmush tarzini yuritish uchun zarur bo‘lgan moddiy resurslarning yetishmasligi tufayli yuzaga keladigan holatdir. Kambag‘allik – jamiyatning muayyan qismi hayot va faoliyatining qabul qilingan asosiy sharoitlariga minimal ehtiyojlarini qondira olmagan vaziyatda yuzaga keladi. Bu hodisa shakli va tuzilishidan qat’i nazar, hamma jamiyatlarga xosdir.

Kambag‘allikning paydo bo‘lishi turli sabablar va shakllarga bog‘liq bo‘lib, ular quyidagilar bilan belgilanadi:

- Yashash minimumi chegarasining doimiy ortishi, ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida;
- Aholining iste’mol xarajatlarini qoplash tizimining takomillashmaganligi, ya’ni narxlar o‘sishiga moslashuv mexanizmining yetarli emasligi;
- Aholining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashish jarayoni, bu jarayondagi o‘ziga xos omillar;
- Insonning jamiyat ijtimoiy tarkibidagi o‘rni, ya’ni yoshi, ta’limi, kasbi, yashash joyi kabi omillar.

Kambag‘allikning turli mezon va ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lib, ularni quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha aniqlash mumkin:

- Jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad va yashash minimumining nisbati – agar bu daromad yashash minimumidan kam bo‘lsa, inson kambag‘allar qatoriga kiradi;
- Aholi iste’mol xarajatlaridagi oziq-ovqat mahsulotlariga sarflanadigan ulush – agar oila byudjetining 50% dan ortig‘i oziq-ovqat mahsulotlariga yo‘naltirilsa, bu kambag‘allik belgisi hisoblanadi (boy oilalarda bu ko‘rsatkich 5-6% ni tashkil etadi);
- Daromadlarning aholiga taqsimlanish darajasi – aholining tabaqalanish darajasi va daromadlar taqsimotini tahlil qilish orqali kambag‘allik aniqlanadi;
- Jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot miqdori – mamlakatdagi umumiy iqtisodiy farovonlikni baholash mezoni;
- Savodxonlik darajasi va umr davomiyligi – ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlari orqali kambag‘allik darajasi tahlil qilinadi.

Mamlakatdagi kambag‘allik darajasining asosiy o‘lchovi – yashash minimumidan past darajaga ega bo‘lgan aholining ulushidir. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi omillar bilan bog‘liq:

- Iste’mol tovarlari va xizmatlari narxlarining oshishi;
- Umumiy inflyatsiya darajasi;
- Aholi daromadlari va xarajatlari tarkibining o‘zgarishi;
- Majburiy to‘lovlar ulushining oshishi.

Masalan, kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarning to‘liq qoplanishi oila byudjetida xarajatlar ulushining o‘sishiga, shu bilan birga, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga ajratiladigan mablag‘larning kamayishiga olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunda kambag‘allik darajasini baholashda kambag‘allikning chuqurligi va keskinligi tushunchalari qo‘llanilmoqda:

- Kambag‘allik chuqurligi – kambag‘al aholi daromadlarini yashash minimumiga yetkazish uchun qancha mablag‘ zarur ekanligini bildiradi;
- Kambag‘allikning keskinligi – kambag‘allar toifasining daromad tabaqalanish darajasini ifodalaydi.

Kambag‘allikning asosiy sabablaridan biri – shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy o‘rni

Aholining ayrim qatlamlari ijtimoiy jihatdan kam himoyalangan bo‘lib, kambag‘allikning asosiy guruhini tashkil qiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- Nafaqaxo‘rlar va pensionerlar;
- Nogironlar, ko‘p bolali oilalar, yolg‘iz onalar, bevalar;
- Yetim bolalar va ota-onasiz qolgan bolalar;
- Qochoqlar va majburiy migrantlar.

Bundan tashqari, kambag‘allar tarkibida ishsizlar, qisqa ish kuni bilan band bo‘lganlar, majburiy ta’tilga chiqarilganlar, ish haqi bo‘yicha qarzdor korxonalar ishchilari ham bor.

Kambag‘allikning tabiiy holati:

- Ko‘p bolali oilalar;
- Ajralgan yoki to‘liq bo‘lmagan oilalar;
- Uzoq muddatli kasallik tufayli kambag‘allashgan shaxslar;
- Tabiiy ofatlar oqibatida mulkidan ayrilganlar;
- Jamiyatga moslasha olmagan shaxslar.

Eng kam kambag‘allik xavfi quyidagi guruhlarda kuzatiladi:

- Yuqori daromadli oilalar;
- Poytaxt hududida yashovchi aholining ayrim qatlamlari;
- Rahbar lavozimidagi shaxslar;
- Xususiy sektorda ishlovchilar;
- Bozorda talab yuqori bo‘lgan kasb egalari;
- Oliy yoki tugallanmagan oliy ma’lumotga ega shaxslar;
- Mehnatga kirishayotgan yoshlar (29 yoshgacha).

Kambag‘allik turli belgilarga ko‘ra tasniflanadi:

1. Vaqt omili bo‘yicha:

- Turg‘un kambag‘allik – uzoq yillar davom etadigan qashshoqlik (ko‘pincha qishloq joylarida);
- Vaqtinchalik kambag‘allik – ish haqining vaqtincha to‘lanmasligi natijasida yuzaga keladi.

2. Daromad va yashash minimumi nisbati bo‘yicha:

- Kambag‘allik – daromad yashash minimumiga yetmaydi;
- Qashshoqlik – daromad yashash minimumiga teng;
- Kam ta’minlanganlik – daromad yashash minimumidan oshsa-da, minimal iste’mol byudjetiga yetmaydi.

Kambag‘allikni aniqlashning xalqaro konsepsiyalari

1. Mutlaq kambag‘allik – odamlarning minimal ehtiyojlarini qondira olmasligi. Jahon banki buni kuniga 1,25 AQSh dollari daromad bilan belgilaydi.
2. Nisbiy kambag‘allik – jamiyat o‘rtacha daromadi bilan solishtirganda yetarlicha daromadga ega bo‘lmaslik.
3. Subyektiv kambag‘allik – insonning o‘zini kambag‘al deb hisoblashi.

Kambag‘allikni kamaytirish uchun davlat tomonidan quyidagi choralar amalga oshiriladi:

- Pul shaklidagi yordamlar – nafaqa va subsidiyalar;
- Tabiiy yordamlar – oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlash;
- Ish bilan ta’minlash dasturlari – kasb-hunar o‘rgatish va mehnat yarmarkalari.

Kambag‘allikni kamaytirish – davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, jamiyat farovonligini oshirishga qaratilgan.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Nisbiy kambag‘allik (Relative Poverty) – Aholining o‘z jamiyatida yoki iqtisodiy tizimda boshqa shaxslar bilan solishtirganda kam daromadga ega bo‘lishi.
2. Kambag‘allik chegarasi (Poverty Line) – Aholi daromadlarini o‘lchashda ishlatiladigan ko‘rsatkich, kambag‘allikning aniqlanishi uchun belgilangan eng kam daromad miqdori.
3. Kambag‘allikning o‘lchovlari (Poverty Measures) – Kambag‘allikni tahlil qilish va baholash uchun ishlatiladigan metodlar va ko‘rsatkichlar, masalan, daromadlar o‘rtasidagi farq, ta’minotning etishmasligi.
4. Kambag‘allikning sabablari (Causes of Poverty) – Kambag‘allikning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik omillaridan kelib chiqadigan sabablari, masalan, ta’lim yetishmovchiligi, mehnat bozoridagi muammolar.
5. Kambag‘allikning nazariy tahlili (Theoretical Analysis of Poverty) – Kambag‘allikni tushunish va izohlashga qaratilgan nazariy yondashuvlar, iqtisodiy nazariyalar va siyosat.
6. Sosial adolatsizlik (Social Injustice) – Kambag‘allikning ijtimoiy va siyosiy sabablari, jamiyatda resurslarning adolatsiz taqsimlanishi.
7. Aholi ehtiyojlari (Basic Needs) – Kambag‘allikni belgilashda muhim o‘lchov, aholining to‘g‘ri yashash uchun zarur bo‘lgan minimal ehtiyojlari, oziq-ovqat, kiyim, tibbiy xizmatlar, ta’lim.
8. Mehnat bozori (Labor Market) – Kambag‘allikning iqtisodiy sababi, ish bilan ta’minlashdagi muammolar, mehnatga bo‘lgan talab va taklifning mos kelmasligi.
9. Resurslarning etishmasligi (Lack of Resources) – Kambag‘allikni yuzaga keltiruvchi omil, aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan resurslar yetishmasligi.
10. Ijtimoiy himoya tizimi (Social Protection System) – Kambag‘allikka qarshi kurashishda asosiy vosita bo‘lgan tizim, kam daromadli qatlamlarga taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar.
11. Kambag‘allikning oilaviy sabablari (Family-based Causes of Poverty) – Ailaviy resurslar etishmovchiligi, bo‘sh ish o‘rinlari va ijtimoiy ko‘makning yo‘qligi natijasida kambag‘allikning kuchayishi.
12. Sog‘liqni saqlashning ta’siri (Impact of Healthcare) – Kambag‘allikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlaridan biri, sog‘liqni saqlash tizimi va unga kirish imkoniyatlarining kambag‘allikka ta’siri.
13. Ta’limning roli (Role of Education) – Ta’limning kambag‘allikka qarshi kurashdagi o‘rni, ta’limning kam daromadli oilalar uchun imkoniyat yaratishdagi ahamiyati.

14. Ko‘p qatlamli kambag‘allik (Multidimensional Poverty) – Kambag‘allikni bir qator omillar, masalan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, yashash sharoitlari va iqtisodiy imkoniyatlar nuqtai nazaridan o‘lchash.

15. Global kambag‘allik (Global Poverty) – Kambag‘allikning xalqaro o‘lchovi, dunyo bo‘yicha kambag‘allikning tarqalishi, rivojlanayotgan mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlar.

Takrorlash uchun savollar

1. Kambag‘allik nima va uning asosiy belgilari qanday?
2. Kambag‘allikni aniqlashda qanday iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi?
3. Kambag‘allikning turli shakllari (absolyut va nisbiy kambag‘allik) o‘rtasidagi farq nima?
4. Kambag‘allikning sabablari qanday va ular qanday iqtisodiy sharoitlarga asoslanadi?
5. Kambag‘allikni o‘lchashda qaysi metodologiyalar qo‘llaniladi?
6. Kambag‘allik va daromad tengsizligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni qanday tushunish mumkin?
7. Kambag‘allikning jamiyatda ijtimoiy va siyosiy oqibatlari qanday bo‘ladi?
8. Kambag‘allikni qisqartirishning asosiy yo‘nalishlari qanday?
9. Kambag‘allik va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni qanday tushunish mumkin?
10. Kambag‘allikni qisqartirishda davlat siyosatining ahamiyati qanday?

X BOB. KAMBAG‘ALLIKNI KELIB CHIQISH OMILLARI

10.1. Kambagallikni kelib chiqish sabablari.
10.2. Kam ta’minlanganlikka ta’sir etuvchi omillar.
10.3. Kam ta’minlanganlikning tarqalishi.

10.1. Kambagallikni kelib chiqish sabablari

Kam ta’minlanganlikka ta’sir qiluvchi omillar asosida uning tarqalish shakllarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Qishloq xo‘jaligiga bog‘liq oilalar – Bularning farovonligi asosan qishloq xo‘jaligi faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, ular quyidagi xususiyatlarga ega:

- Yollanma mehnatning yuqori darajasi va oilada band hamda band bo‘lmagan mehnatga layoqatli a’zolar sonining nisbatan turg‘un muvozanati (taxminan 1:1,5 nisbatda);
- Oiladagi katta yoshdagi kishilarning kasbiy bilim darajasi pastligi;
- Suv taqchilligi va yer unumdorligining pastligi sababli qishloq xo‘jaligi yerlarining samaradorligi yetarli darajada bo‘lmasligi;
- Katta oila tarkibi hamda ishlovchilarga tushadigan iqtisodiy yukning yuqoriligi.

Ushbu oilalar uchun eng asosiy xavf qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlarining beqarorligi va tashqi sharoitlarning ta’sirchanligidir. Daromad manbalari qanchalik cheklangan bo‘lsa, ularning moliyaviy barqarorligi ham shunchalik past bo‘ladi.

Kichik shaharlardagi va qishloq xo‘jaligidan tashqari sektorda ishlovchi oilalar – Asosan kichik shaharlar, shaharcha tipidagi aholi punktlari va tuman markazlarida istiqomat qiluvchi oilalar bo‘lib, ular ko‘pincha yollanma mehnat bilan shug‘ullanadi. Ularning asosiy xususiyatlari:

- Oila tarkibining uncha katta emasligi (o‘rtacha kattalikda);
- Oilaning ish bilan band bo‘lgan a’zolariga tushadigan iqtisodiy yukning nisbatan yuqoriligi;
- Uy xo‘jaliklari rahbarining bilim darajasi nisbatan yuqori;
- Mehnatga layoqatli a’zolar orasida ishsizlik darajasi yuqori;
- Yer maydonining yo‘qligi yoki hajmining kichikligi.

Bu toifa uchun asosiy xavf omillari iste’mol tovarlari va xizmatlari narxining oshishi, ish haqi kechiktirilishi hamda iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan sanoat korxonalarining moliyaviy ahvoli yomonlashishidir.

Shahar oilalari – Asosan shaharlarda yashovchi oilalar bo‘lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

- Oilaning kichik hajmga ega bo‘lishi;
- Oila tarkibida ham o‘quvchilar, ham ishsiz kattalar mavjud bo‘lgani sababli iqtisodiy yukning nisbatan yuqoriligi;
- Oila tarkibining to‘liq bo‘lmasligi (boquvchilardan birining yo‘qligi);

- Oila a’zolarining ko‘pchiligi davlat byudjeti hisobidan moliyalanadigan sohalarda ishlashi;
- Yer maydonining mavjud emasligi.

Ushbu oilalar uchun asosiy xavf omillari qatoriga iste’mol tovarlari va xizmatlar narxining oshishi, mehnatga layoqatli a’zolarning kasallikka chalinishi va ish joyini yo‘qotishi kiradi.

Kam malakali va beqaror mehnat bilan band oilalar – Qishloq va shahar hududlarida yashovchi, quyidagi xususiyatlarga ega oilalar:

- Mehnatga layoqatli a’zolarining kasbiy malakasi past darajada bo‘lishi, bu esa mehnat bozorida talabning kamligi bilan bog‘liq;
- Malakasiz va vaqtinchalik ishlar bilan bandlik (kam malakali xodimlar, mavsumiy yoki vaqtinchalik yollangan ishchilar, norasmiy sektorda band bo‘lgan tadbirkorlar);
- Yer maydonining yo‘qligi yoki unumdorligining pastligi.

Kam ta’minlangan oilalar soni, ularning tarqalishi va joylashuvi ishlab chiqarish infratuzilmasi holati hamda yashash hududiga bog‘liq. Shu bois, kam ta’minlanganlik to‘plangan hududlarning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

- Transport va sanoat markazlaridan uzoqda joylashgan qishloq hududlari;
- Iqtisodiy tanazzulga uchragan, ko‘p tarmoqli kichik shaharlardagi aholi qatlamlari;
- Transport va sanoat markazlaridan tashqarida joylashgan tuman markazlari.

Aholining aksariyat qatlamlari uchun kam ta’minlanganlik muammosini mustaqil hal qilish qiyin, chunki ularning bir qismi jamiyatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlaridan chetda qoladi. Bozor iqtisodiyoti ayrim guruhlarning muvaffaqiyatga erishishiga imkon bersa-da, boshqalar esa resurslar va imkoniyatlardan butunlay mahrum bo‘lishi mumkin.

Kambag‘allikni keltirib chiqaradigan omillar turli xil va murakkab bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy hamda ekologik omillar bilan chambarchas bog‘liq.

Kambag‘allik nafaqat moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi, balki insonning asosiy ehtiyojlarini qondirishdagi qiyinchiliklar bilan ham bog‘liqdir. Shu sababli, kambag‘allik sabablarini tahlil qilishda turli nuqtai nazarlarni inobatga olish lozim.

Quyida kambag‘allikning asosiy kelib chiqish sabablariga batafsil tahlil keltirilgan.

1. Iqtisodiy sabablar.Kambag‘allikning asosiy sabablari ko‘pincha iqtisodiy omillar bilan bog‘liq. Bular quyidagilardan iborat:

a. Iqtisodiy notenglik

Iqtisodiy notenglik — jamiyatda boy va kambag‘allar o‘rtasidagi farqning katta bo‘lishi kambag‘allikka olib keladigan asosiy sababdir. Boylar ko‘proq resurslarga va imkoniyatlarga ega bo‘lsa, kambag‘allar bu resurslardan mahrum bo‘lishadi. Bu holat, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, aholining katta qismini kambag‘allik tashkil qiladi.

b. Ishsizlik. Ishsizlik — kambag‘allikning bevosita sababi hisoblanadi. Agar odamlar ish topa olmaydigan bo‘lsa, ularning daromadlari kamayadi va kambag‘allikka yuz tutish ehtimoli ortadi. Ishsizlikni keltirib chiqaradigan omillar esa, iqtisodiy inqirozlar, texnologik o‘zgarishlar, sanoatning qisqarishi yoki boshqa tashqi omillar bo‘lishi mumkin.

c. Ta’lim va malaka yetishmovchiligi.Ta’lim va kasbiy malaka kambag‘allikka qarshi kurashishning eng muhim vositalaridan biridir. Afsuski, kam ta’lim olgan va malakasiz ishchilarga ish o‘rinlari kam bo‘ladi, bu esa ularni kambag‘allikka olib keladi. Ta’lim darajasi past bo‘lgan aholi kambag‘allik xavfi ostida bo‘ladi, chunki ular yuqori maoshli ishlar bilan ta’minlanmaydi.

2. Ijtimoiy sabablar.Ijtimoiy omillar ham kambag‘allikning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Ular jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash, va boshqa ijtimoiy xizmatlar bilan bog‘liqdir.

a. Sotsializatsiya va oilaviy sharoitlar.Oila a’zolari va ularning ijtimoiy tarmog‘i, masalan, ota-ona ta’limi, oilaviy iqtisodiy holat, bolalikda qilingan xatolar kambag‘allikni kuchaytiradi. O‘tmishda kambag‘allikni boshdan kechirgan oilalar odatda o‘z farzandlarini ham kambag‘allikka olib keladigan sharoitlarga duchor qilishadi. Bu holat «sirkulyar kambag‘allik» deb ataladi.

b. Gender va etnik tengsizlik.Ba’zi ijtimoiy guruhlar, masalan, ayollar, etnik ozchiliklar, va nogironlar ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlardan mahrum bo‘lishi mumkin. Bu kabi guruhlarga qarshi mavjud bo‘lgan diskriminatsiya va tengsizlik kambag‘allikni yanada kuchaytiradi. Ayollar ko‘p hollarda o‘z huquqlaridan mahrum bo‘lib, o‘zlarining iqtisodiy erkinliklarini cheklab qo‘yadilar.

c. Sog‘liqni saqlashning yetishmasligi.Sog‘liqni saqlash tizimining yetarli emasligi kambag‘allikka olib keladigan muhim omillardandir. Odamlar sog‘lom bo‘lmasalar, ular ishlay olmaydilar, va bu o‘z navbatida ularning daromadlarini kamaytiradi. Kambag‘al hududlarda sog‘liqni saqlash xizmatlari odatda past sifatli yoki umuman mavjud emas.

3. Siyosiy va huquqiy sabablar.Siyosiy va huquqiy tizimlar kambag‘allikning tarqalishiga yoki kamayishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xususan:

a. Siyosiy beqarorlik.Siyosiy beqarorlik, urushlar, inqirozlar va hukumatning zaifligi kambag‘allikning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Hukumatning samarali ishlashini ta’minlash, resurslarni adolatli taqsimlash va xalqning ehtiyojlariga qarab siyosat yuritish kambag‘allikni kamaytirishga yordam beradi.

b. Huquqiy va ijtimoiy himoya tizimining zaifligi.Agar davlatda adolatli huquqiy tizim va ijtimoiy himoya bo‘lmasa, kambag‘allar o‘z huquqlarini himoya qila olmaydilar. Yaxshi rivojlangan huquqiy tizim va ijtimoiy himoya mexanizmlari kambag‘allikni kamaytirish uchun juda muhimdir. Masalan, ijtimoiy nafaqalar, mehnat qonunlari va tibbiy xizmatlar kambag‘allikka qarshi kurashda asosiy vositalardan biridir.

4. Ekologik va tabiiy omillar.Tabiiy resurslar va ekologik sharoitlar kambag‘allikni keltirib chiqarish yoki kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

a. Tabiiy ofatlar.Tabiiy ofatlar, masalan, zilzilalar, suv toshqinlari, yomg‘irning kamligi, qurg‘oqchilik va boshqa tabiiy ofatlar kambag‘allikka olib keladigan asosiy sabablardir. Bu hodisalar odamlarning iqtisodiy holatini yomonlashtiradi, ular ishlash imkoniyatlarini yo‘qotadi va iqtisodiy resurslarga zarar yetkazadi.

b. Iqlim o‘zgarishi.Iqlim o‘zgarishi global miqyosda kambag‘allikni yanada kuchaytiradi, chunki u yerlar va resurslar taqsimotini o‘zgartiradi. Iqlim o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi va suv resurslariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa kambag‘allikni kuchaytiradi.

5. Madaniy va tarixiy sabablar.Kambag‘allikning sabablari ba’zan jamiyatning tarixiy o‘zgarishlariga ham bog‘liq. Masalan, kolonializm davrida yuzaga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy notengliklar ham kambag‘allikni davom ettirishi mumkin.a. Tarixiy omillar.Ko‘plab davlatlar va hududlar tarixiy jihatdan kambag‘allikka qarshi kurashda qiyinchiliklarga duch kelgan. Kolonial davrda boylikning cheklangan miqdori va resurslarning tashqi davlatlarga o‘tib ketishi kambag‘allikka olib keldi.

b. Madaniy qadriyatlar va ijtimoiy adolat.Ba’zi jamiyatlarda kambag‘allikni kamaytirish uchun ko‘proq urinishlar bo‘lsa, boshqalarida esa madaniy qadriyatlar kambag‘allikka nisbatan norozi bo‘lmaslikka olib keladi. Madaniy qarashlar kambag‘allikning ijtimoiy normalari va qabul qilinishi bilan bog‘liq.

10.2. Kam ta’minlanganlikka ta’sir etuvchi omillar

Kam ta’minlanganlik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidan qat’i nazar, jahondagi barcha davlatlar uchun muhim muammolardan biri hisoblanadi. Kam ta’minlanganlik darajasini belgilash, uning tarqalish sabablarini tahlil qilish va samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish ijtimoiy siyosatning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kam ta’minlanganlik – bu aholining muayyan qismi yetarlicha daromad

manbalariga ega bo‘lmasligi, asosiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyati cheklanganligi va turmush darajasi pastligini anglatadi. Bu holat turli ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va gender omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Kam ta’minlanganlikning sabablari va unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ularni tizimli ravishda tahlil qilish orqali ijtimoiy siyosatni takomillashtirish, aholining ijtimoiy himoyasi darajasini oshirish hamda iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.



10.1-rasm. Kam ta’minlanganlikka ta’sir etuvchi omillar

Endi yuqorida ko‘rsatilgan omillarga batafsil to‘xtalib o‘tsak.

1.Demografik o‘sish. Kambag‘allik darajasining nisbatan yuqoriligiga ta’sir qiluvchi omillardan biri XX asrning 70-80-yillarida kuzatilgan yuqori tug‘ilish darajasi bo‘lib, bu davrda aholi soni yiliga o‘rtacha 3,6%ga oshgan. Bugungi kunga kelib demografik holat nisbatan barqaror bo‘lsa-da, quyidagi o‘zgarishlar kuzatilmoqda:

- Tug‘ilish darajasining pasayishi;
- Aholi o‘sish sur’atining sekinlashishi;
- Ikki yil oraliq bilan tug‘ilish holatlarining keskin kamayishi;
- Oilalarning o‘rtacha hajmini rejalashtirish tendensiyasining kuchayishi.

2. Bandlik. Ish bilan bandlik aholi farovonligining oshishiga xizmat qilsa-da, u kambag‘allikdan chiqishning kafolati emas. Bunga quyidagi omillar sabab bo‘ladi:

- Qishloq xo‘jaligi va byudjet sohalarida (sog‘liqni saqlash, ta’lim, kommunal xizmatlar va h.k.) past ish haqli mehnatning ustunligi;
- Norasmiy sektordagi bir martalik, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarga bog‘liqlik, bu esa daromadlarning barqaror bo‘lmasligiga olib keladi;
- Suv zaxiralari yetarli bo‘lmagan hududlarda shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarining unumdorligi pasayishi.

3. Ta’lim. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kam ta’minlangan oilalarning ta’lim darajasi nisbatan past bo‘lib, ularda o‘rta maxsus yoki oliy ma’lumotli shaxslar soni kam bo‘ladi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga qabul qilish darajasi pasaymoqda. Bu esa quyidagi muammolarga sabab bo‘ladi:

- Ayollarning bolalarni parvarishlashga majbur bo‘lishi natijasida ish bilan bandlik darajasi pasayishi va oilaning tashqi daromadlarining qisqarishi;
- Bolalarning maktab ta’limiga yetarli tayyorgarlik ko‘ra olmasligi;
- Oliy ta’limning pullik tizimga o‘tishi tufayli kam ta’minlangan oilalarning yuqori ta’lim olish imkoniyatlarining cheklanishi.

4. Salomatlik va ovqatlanish. Kambag‘allik xavfi, ayniqsa, sog‘lig‘ida jiddiy muammolar bo‘lgan va mehnatga layoqatsizlikka duchor oilalarda yuqori bo‘ladi. Ushbu omil quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- Mehnatga layoqatli yoshda bo‘lishiga qaramay, ba’zi shaxslarning kasallik tufayli ish bozoridan chiqib ketishi;
- Davolanish xarajatlarining yuqoriligi va bu xarajatlar oilaning byudjetiga katta ta’sir ko‘rsatishi;
- To‘yib ovqatlanmaslik va mikroelementlar yetishmovchiligi natijasida bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishining sustlashuvi;
- Homiladorlik va tug‘ruq jarayonlarida asoratlarning ortishi.

To‘yib ovqatlanmaslik muammosi asosan quyidagi sabablarga bog‘liq:

- Ratsional ovqatlanish to‘g‘risidagi bilimlarning yetishmovchiligi;
- Milliy an’analar va oziq-ovqat iste’mol madaniyati;
- Kam daromad va sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlariga majburiy ehtiyoj;
- Sog‘liqni saqlash tizimidagi kamchiliklar va tibbiy xizmat sifati pastligi.

5. Ekologik muammolar. Ekologik omillar ham kam ta’minlanganlik darajasining oshishiga ta’sir qiladi. Sobiq Ittifoq davrida Amudaryo va Sirdaryodan sug‘orish uchun ortiqcha suv ajratilishi, zaharli o‘g‘itlarning haddan tashqari qo‘llanilishi O‘zbekistonning ekologik muammolarini chuqurlashtirdi. Ushbu holat quyidagi natijalarga olib keldi:

- Ifloslangan tuproq va suv resurslari tufayli inson salomatligiga zarar yetishi;
- Orol dengizining qurib qolgan tubidan tarqalgan changlar natijasida respirator kasalliklarning ko‘payishi;
- Sug‘oriladigan yerlarning 50% ikkilamchi sho‘rlanishdan, 8% suv eroziyasidan, 54% shamol eroziyasidan zarar ko‘rishi;
- Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifati va hosildorligining pasayishi natijasida daromadlarning qisqarishi.

6. Gender tengsizligi. Maktab va kasb-hunar ta’limi bosqichida erkak va ayollar o‘rtasida jiddiy tafovut sezilmasa ham, katta yoshdagi aholi orasida gender tengsizligi ortib boradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

- Ayollar kam haq to‘lanadigan sohalar – ta’lim (72,7%) va sog‘liqni saqlash (77,5%) sektorlarida ko‘proq band bo‘ladi;
- Ish bilan band bo‘lmagan ayollar oilalarining ko‘pchiligi kam ta’minlangan hisoblanadi;
- Ayollarning ish bilan bandlik darajasining oshishi oilaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi;
- Ayollar, ayniqsa, norasmiy mehnat bozorida kam himoyalangan bo‘lib, odam savdosi va ekspluatatsiya xavfi bilan yuzlashishi mumkin.

Umuman olganda, kam ta’minlanganlik turli omillar ta’sirida shakllanadi va har bir omil aholi farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarning har biri chuqur tahlil qilinishi va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Kam ta’minlanganlik ijtimoiy, iqtisodiy va demografik omillarga bog‘liq bo‘lib, uning tarqalishini kamaytirish uchun davlat tomonidan tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur. Mehnat bozorini rivojlantirish, ta’lim va tibbiyotga kirish imkoniyatlarini oshirish, ayollarning iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash va ekologik barqarorlikni ta’minlash kam ta’minlanganlikka qarshi samarali kurash olib borishga yordam beradi.

Shuningdek, davlatning ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, kam ta’minlangan aholini qo‘llab-quvvatlash dasturlarini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan choralar jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu muammoni bartaraf etish uchun davlat va jamiyatning birgalikda harakat qilishi juda muhim hisoblanadi.

10.3. Kam ta’minlanganlikning tarqalishi

Kam ta’minlanganlik, ya’ni odamlarning asosiy ehtiyojlarini qondirishda yoki ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshi darajada ta’minlashda muammolar yuzaga kelgan holatlar, dunyo bo‘ylab keng tarqalgan va murakkab ijtimoiy muammo hisoblanadi. Ushbu muammo nafaqat iqtisodiy darajani, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy, xavfsizlik va boshqa ijtimoiy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Kam ta’minlanganlikning tarqalishi haqida to‘liq ma’lumot berish uchun ushbu Bobni bir necha asosiy yo‘nalishlarga ajratish mumkin.

Kam ta’minlanganlik, asosan, odamlarning hayotiy ehtiyojlarini qondirishda (masalan, oziq-ovqat, uy-joy, ta’lim, sog‘liqni saqlash) muammolar yuzaga kelgan holatdir. Kam ta’minlanganlik ko‘plab omillar, jumladan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy holatlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Kam ta’minlanganlikni o‘lchashda ko‘pincha daromad darajasi, bandlik, turar-joy sharoitlari, sog‘liqni saqlash tizimiga kirish va ta’lim darajasi kabi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi.

1.Kam ta’minlanganlikning ba’zi ko‘rinishlari:

Daromad pastligi: Odamlar o‘zlarining ehtiyojlarini qondira olmaydigan darajada kam daromad olishi.

Turar-joy sharoitlari: Yomon yoki yashash uchun yaroqsiz sharoitlar, masalan, engil qurilgan yoki zich joylashgan hududlarda yashash.

Sog‘liqni saqlash imkoniyatlari: Tez va arzon sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi.

Ta’lim va ish imkoniyatlari: Ta’lim va kasb-hunar ta’limining cheklanganligi va shu bilan birga yaxshi ish o‘rinlariga kirish imkoniyatining yo‘qligi.

2. Kam Ta’minlanganlikning Tarqalishi: Jahon miqyosida

Kam ta’minlanganlik dunyo bo‘ylab turli mamlakatlarda o‘ziga xos shakllarda mavjud. Bu holatning tarqalishi turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga, siyosiy qarorlarga, tabiat sharoitlariga va boshqalarga bog‘liq.

1. *Iqtisodiy rivojlanish*

Kam ta’minlanganlik darajasi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita bog‘liq. O‘rtacha daromadga ega bo‘lmagan yoki past rivojlangan mamlakatlarda, kam ta’minlanganlik yuqori darajada bo‘ladi. Boshqa tomondan, yuqori darajadagi iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy himoya tizimlari mavjud bo‘lgan mamlakatlarda kam ta’minlanganlik darajasi pastroq bo‘ladi. Misol uchun, Yevropa davlatlari va Shimoliy Amerikada daromadlarni taqsimlash tizimi nisbatan adolatliroq bo‘lib, bu ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Aksincha, rivojlanayotgan mamlakatlar, ayniqsa Afrika va Janubiy Osiyo mintaqalarida, kam ta’minlanganlik holatlari ko‘proq tarqalgan.

2. *Ijtimoiy tengsizlik*

Ijtimoiy tengsizlik ham kam ta’minlanganlikning tarqalishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Kam ta’minlangan guruhlar odatda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy resurslarga yetishmovchilikni his qilishadi. Ayrim guruhlar, masalan, etnik yoki milliy ozchiliklar, ayollar, nogironlar yoki yoshlar, ko‘pincha iqtisodiy imkoniyatlardan chetda qolishadi.

3. *Pandemiya va tabiiy ofatlar*

So‘nggi yillarda pandemiyalar va tabiiy ofatlar ham kam ta’minlanganlik darajasini kuchaytirgan. Misol uchun, COVID-19 pandemiyasi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni zaiflashtirdi va ko‘plab odamlar, ayniqsa, maishiy xizmatlar va notekis iqtisodiy tizimlarga ega bo‘lgan davlatlarda kam ta’minlangan aholi katta zararga uchradi.

3. *Kam ta’minlanganlikning sabablari*

Kam ta’minlanganlikning sabablarini turli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va tarixiy omillarda ko‘rish mumkin.

1. *Iqtisodiy sabablar*

- *Ishsizlik*: Ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan joylarda kam ta’minlanganlik ko‘proq uchraydi. Ish topish qiyin bo‘lganda, odamlar o‘zlarini iqtisodiy jihatdan himoya qila olmaydilar.
- *Past ish haqi*: Yaxshi ish o‘rinlari cheklangan bo‘lsa va ish haqi past bo‘lsa, odamlar o‘z ehtiyojlarini qondira olmaydi.
- *Inflatsiya va narxlar oshishi*: Mahsulotlar va xizmatlar narxi oshganda, odamlar o‘zlarining hayotiy ehtiyojlarini ta’minlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

2. *Ta’lim va ko‘nikmalarning yetishmasligi*

- Kam ta’minlangan odamlar ko‘pincha ta’lim olishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa ularga yaxshiroq ishlash imkoniyatlarini cheklaydi. Ta’limga kirish imkoniyatlarining cheklanishi va sifatli ta’limning yo‘qligi odamlarni kambag‘allikka olib kelishi mumkin.

3. *Ijtimoiy va siyosiy omillar*

- *Ijtimoiy himoya tizimlarining yo‘qligi*: Kam ta’minlanganlar uchun ijtimoiy yordam dasturlari va himoya mexanizmlari yo‘qligi ularni yanada zaiflashtiradi.
- *Yomon siyosiy qarorlar*: Hukumatlarning resurslarni noto‘g‘ri taqsimlashi, korrupsiya va ijtimoiy islohotlarning yetishmasligi kam ta’minlanganlikni kuchaytiradi.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Iqtisodiy inqiroz (Economic Crisis) – Mamlakat iqtisodiyoti yuzaga kelgan inqirozlar natijasida kambag‘allikning kengayishi, ish o‘rinlarining qisqarishi va ishlab chiqarishning pasayishi.
2. Ijtimoiy adolatsizlik (Social Injustice) – Jamiyatda resurslar va imkoniyatlarning teng taqsimlanmasligi, kambag‘allikni kuchaytiradigan asosiy sabablar.
3. Ta’limning yetishmasligi (Lack of Education) – Ta’lim olish imkoniyatlarining cheklanishi, malakali ishchi kuchi etishmasligi, kambag‘allikni chuqurlashtiruvchi omil.
4. Sog‘liqni saqlash tizimi (Healthcare System) – Sog‘liqni saqlash xizmatlarining past sifati va mavjud imkoniyatlarning cheklanishi kambag‘allikni kuchaytiradigan omil.
5. Kambag‘allikning genetik sabablari (Genetic Causes of Poverty) – Ailaviy holat, avlodlar bo‘yicha resurslar etishmasligi va qarzdorlik kambag‘allikning uzluksiz ravishda davom etishiga olib kelishi.

6. Mehnat bozoridagi muammolar (Labor Market Issues) – Ishsizlik, kam maoshlar va mehnatga bo‘lgan talabning pastligi kambag‘allikka olib keluvchi asosiy omillar.

7. Qishloq xo‘jaligi inqirozi (Agricultural Crisis) – Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning pasayishi va qishloq aholisi daromadlarining pasayishi kambag‘allikni kuchaytiradi.

8. Iqtisodiy infrastrukturadagi kamchiliklar (Deficiencies in Economic Infrastructure) – Infratuzilmaning yomon rivojlanganligi, transport va energiya tarmoqlarining zaifligi kambag‘allikka olib keladigan omil sifatida.

9. Ijtimoiy xavfsizlik tizimining yetishmasligi (Lack of Social Security System) – Ijtimoiy himoya tizimining zaifligi, kambag‘allikka qarshi kurashda samarali dasturlarning yo‘qligi.

11. Davlat siyosatining kamchiliklari (Government Policy Shortcomings) – Davlatning kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan siyosatdagi xatolar va resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishi.

12. Geografik omillar (Geographic Factors) – Aholining kambag‘allik darajasi geografik hududga bog‘liq bo‘lishi, qishloq va shaharlardagi turmush sharoitlari o‘rtasidagi farq.

13. Sotsial-iqtisodiy farqlar (Socio-economic Disparities) – Jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy farqlar, ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va boshqa resurslarning teng taqsimlanmasligi.

14. Gender tengsizligi (Gender Inequality) – Ayollar va erkaklar o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar tengsizliklari, bu kambag‘allikni kuchaytiruvchi omil sifatida.

15. Ishsizlik (Unemployment) – Aholining ish bilan ta’minlanmasligi va kam maoshli ish o‘rinlari mavjudligi kambag‘allikni kuchaytiradi.

16. Mehnatga yaroqsizlik (Incapacity for Work) – Sog‘liq muammolari yoki malakasizlik sababli ish bilan ta’minlanolmaydigan aholi kambag‘allikni kuchaytiradi.

17. Mikroiqtisodiy muammolar (Microeconomic Issues) – Shaxslar va oilalarning moliyaviy holati, kam daromadli ishlarga jalb etilish va iqtisodiy holatlar.

18. Zarur xizmatlarning yetishmasligi (Lack of Essential Services) – Aholi uchun ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa asosiy xizmatlarning yetishmasligi kambag‘allikni kuchaytiradi.

19. Boshqaruv va korrupsiya (Governance and Corruption) – Davlat va davlat idoralari tomonidan kambag‘allikni qisqartirish uchun olib borilgan noto‘g‘ri siyosatlar va korrupsiya holatlari.

20. Kredit tizimining cheklanishi (Limited Credit Systems) – Kam ta’minlangan oilalarga kredit olish imkoniyatining cheklanishi, bu esa iqtisodiy holatni yanada yomonlashtiradi.

21. Oziq-ovqat ta’minoti (Food Security) – Oziq-ovqat yetishmovchiligi, yuqori narxlar va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning pastligi kambag‘allikni kuchaytiruvchi omillar sifatida.

Takrorlash uchun savollar

1. Kambag‘allikning kelib chiqishiga ta’sir qiluvchi asosiy iqtisodiy omillar qanday?
2. Ta’lim va malakasizlik kambag‘allikni yuzaga keltirishda qanday rol o‘ynaydi?
3. Kambag‘allikni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar (masalan, jins, etnik guruh) qanday ahamiyatga ega?
4. Sog‘liqni saqlash tizimidagi muammolar kambag‘allikni kuchaytirishiga qanday ta’sir qiladi?
5. Kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi siyosiy omillar (masalan, noteng resurslar taqsimoti) qanday namoyon bo‘ladi?
6. Ekologik faktorlar (tabiiy ofatlar, iqlim o‘zgarishlari) kambag‘allikni keltirishda qanday rol o‘ynaydi?
7. Xalqaro savdo va iqtisodiy tizimning kambag‘allikni kuchaytirishdagi o‘rni qanday?
8. Kambag‘allik va ish o‘rinlari yaratishdagi muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlikni qanday tushunish mumkin?
9. Jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy tengsizliklar kambag‘allikni qanday kuchaytiradi?
10. Yuksak daromadlar va boylikning kichik bir guruhda to‘planishi kambag‘allikni qanday oshiradi?

XI BOB. KAMBAG‘ALLIKNI BAHOLASH MEZONLARI

11.1. Kambag‘allik tushunchasining mohiyati- nazariy qarashlar.
11.2. Kambag‘allikni baholashning iqtisodiy ahamiyati.
11.3. Kambag‘allikni darajasini baholash mezonlari.

11.1. Kambag‘allik tushunchasining mohiyati- nazariy qarashlar

Respublikamizda prezidentimiz boshchiligida turli xil sohalarda “inson manfaatlari hamma narsadan ustun” tamoyili asosida keng ma’nodagi islohotlar olib borilmoqda, bularning barchasi albatta xalqimizning yashash sharoitlarini yaxshilash, aholi farovonligini oshirish, ishsizlikni yo‘qotish, aholining real daromadlarini ko‘paytirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining kam ta’minlangan qatlamini moddiy qo‘llab-quvvatlash ayniqsa qishloq joylaridagi aholi turmush darajasini yuksaltirish, aholining real daromadlarini ko‘paytirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining kam ta’minlangan qatlamini moddiy qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining doimiy e’tiborida bo‘lmoqda.

Shu sababli, iqdisodiyotimizni yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish, kichik biznes va xususiy tadbirkorliklarni kengaytirish hamda, chet eldan investisiya olib kirish va undan samarali foydalanish, turizmni rivojlantirish, kishloq xo‘jaligi maxsulotlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish shuningdek eksportni yo‘lga qo‘yish, rivojlantirish asosiy yo‘nalishlarimizdir.

Aholining kambag‘al qatlami mamlakatga xos bo‘lgan tezkor iqtisodiy o‘sishdan foyda ko‘rish imkoniyatidan mahrum bo‘libgina qolmay, jamiyatning turli sohalarida ishtirok etish imkoniyati cheklanganligi tufayli rivojlanishga ham hissa qo‘sha olmaydi.

Davlat bepul o‘rta ta’limni ta’minlaydi, tibbiy xizmatlarning asosiy paketini kafolatlaydi, «ijtimoiy ahamiyatli va xavfli» sharoitlar uchun parvarish zaif deb tasniflangan guruhlarga ixtisoslashgan yordam va kam ta’minlangan oilalarga imtiyozlar beradi. Ammo bundan-da ko‘pi amalga oshirilishi lozim. Ushbu holatlarni yaxshilash uchun faqatgina imtiyozli kreditlar berish, “ayollar daftari” “yoshlar daftari”, “temir daftar” kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish kifoya qilmaydi.

Kambag‘allik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda yaxlit tizim sifatida qaraladi va o‘zini-o‘zi band etish orqali bu muammoni bartaraf etish mumkin. Aholi daromadlari tarkibidagi o‘zgarishlarni yuz berishi oqibatida aholini katta yoki kichik qismi bu muammoga uchrashi mumkin Bu muammoni bartaraf etish uchun O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojdantirish, o‘zini o‘zi band qilish asosida kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha dasturni ishlab chiqishni talab etadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda

kambag‘allikni bartaraf etish yuzasidan qator Farmon va qarorlarni qabul qilindi.

Adabiyotlarda keltirilishicha, «kambag‘allik» so‘zining yagona ta’rifi yo‘q. Uni baholashni o‘tkazish uchun bir qator aniq belgilangan ko‘nikmalar va uslublar kerak. Kimning kambag‘al va kimning kimdan kamligini aniqlash uchun iste’mol (daromad) haqidagi bilimga asoslanib, kambag‘allik chegarasini aniqlash zarur, bu odatda «qashshoqlik chegarasi» deb nomlanadi.

Qashshoqlik chegarasining eng ko‘p ishlatiladigan ta’riflari esa quyidagicha.

Oziqlanishga asoslangan kambag‘allik darajasi. Kambag‘allik muayyan shakllarga ega va ochlik ana shunday shakllardan biridir. Bunday holda, farovonlik kishi boshiga kunlik kaloriya miqdori sifatida o‘lchanadi va ushbu aholi uchun kunlik minimal energiya talabiga taqqoslanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti kuniga o‘rtacha 1800 kilokaloriya miqdorini belgilaydi, bunda ehtiyojlar yoshi, jinsi va faollik darajasiga moslashtiriladi.

Xalqaro kambag‘allik chegarasi**.** Ushbu kambag‘allik chegarasi Jahon banki tomonidan xalqaro taqqoslashlar uchun ishlatilib, qashshoqlik chegarasi 1.25 AQSh dollari bilan, kambag‘allik chegarasi kuniga topilgan 2.5 AQSh dollari miqdori hisoblanadi. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda, turli mamlakatlarning rivojlanish xususiyatlari va bosqichlarini hisobga olgan holda, boshqa qashshoqlik chegaralaridan ham foydalanilmoqda.

Xususan, o‘rtacha daromad darajasi pastroq bo‘lgan mamlakatlar uchun kambag‘allik darajasi kuniga 3,2 AQSh dollari va o‘rtacha yuqori daromad darajasi bo‘lgan mamlakatlar uchun kuniga 5,5 dollar miqdorida belgilangan. Odatda Evropada qo‘llaniladigan yana ikkita ta’rif: nisbiy kambag‘allik chegarasi va qashshoqlikning sub’ektiv chegarasi bor.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2020-yil 27 fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida kambag‘allik darajasi chuqurlashib ketganligini aytib, “...biz shu paytgacha aksariyat fuqarolarimiz haqiqatan ham kambag‘al ekanini ko‘rib-ko‘rmaslikka, eshitib-eshitmaganlikka oldik. Bu noto‘g‘ri. Afsuski, dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, xalqimizning 4-5 foizi kambag‘al ekani aniqlandi. Endi yashirish kerak emas, og‘ir sharoitlarda yashayotgan odamlarimizning asl muammosi, vaziyatini tushunishimiz, barcha toifadagi rahbarlar dunyoqarashimizni o‘zgartirishimiz lozim bo‘ladi. Yig‘ilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev mamlakatdagi real kambag‘allik holatiga baho berib, “Kambag‘allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko‘paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o‘qitish, moliyaviy savodxonligini

oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg‘otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o‘qitish, sifatli 11 davolanish, manzilli nafaqa to‘lash tizimini joriy qilish kerak”, deb ta’kidlab o‘tdilar.

Davlat rahbarining qayd etishicha, odamlarga pul emas, ish berish kerak. 30 yil davomida ularga pul berish bilan hech narsa o‘zgarmagan. Kambag‘allar uyida yotmasligi kerak. “Ularni ham o‘rgatish kerak. Har bir O‘zbekiston fuqarosi yashashga, dunyodagi bo‘layotgan globallashuv, o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishi kerak. Kambag‘allarning ham dunyoqarashini o‘zgartirish kerak. Uyida yotish tizimi tugadi endi. Inontirish kerak, ishontirish kerak, hayrixoh qilish kerak. Unda ham ertangi kunga umid uyg‘otish kerak. Endi pul emas, ish berishimiz kerak. Imkon yaratishimiz, o‘qitishimiz kerak. Pul berish bilan hech narsa o‘zgarmadi 30 yilda. Endi manzilli ishga o‘tamiz. Har bir xonadonga asalarichilik, quyonchilik, chorvachilik, uzumchilik, limonchilik, tadbirkorlik, uddaburonlik, hunarmandchilik – hammasini o‘rgatamiz. O‘rgatmasak, bo‘lmaydi. Pul berib, tashlab ketish bilan natija bo‘lmadi. Mana shunday muhit yaratsak, o‘shanda o‘zgarish bo‘ladi”

Bizdagi ma’lumotlarga ko‘ra, Qashqadaryo viloyati kambag‘allik muammosi bo‘yicha eng og‘ir hudud hisoblanadi. 700 ming aholi kambag‘al. Bu jami aholining qariyb 21 foizini tashkil etmoqda. Bu vaziyatda Qashqadaryoda rahbarlar bir joyda o‘tirishi mumkin emas. Odamlarimizni bunday og‘ir sharoitdan qanday chiqarib olamiz, degan savolni o‘ziga berishi lozim.

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 500 ming, Surxondaryo viloyatida 500 ming, Namangan viloyatida 400 ming, Jizzax viloyatida 210 ming va Sirdaryo viloyatida 130 ming aholi kambag‘al. Bu raqamlarni mahallalar kesimida olsak, yanada og‘ir raqamlarga guvoh bo‘lamiz. Masalan, Parkent tumanining «Yangiobod» mahallasida 1039 nafar kam ta’minlagan va kambag‘allar bor. Oltinsoy tumani «Mirshodi» mahallasida 906 nafar, Boysun tumani «To‘da» mahallasida 504 nafar fuqarolarimiz og‘ir ahvolda yashayotganini” ochiq oydin ta’kidladi**.**

Nodavlat, notijorat xalqaro tashkilot ma’lumotlariga ko‘ra kambag‘allikni kamaytirish, kam ta’minlanganlar yordam sifatida davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rliklar quyidagilar bilan aniqlanadi:

Moliyaviy minimal oylik maoshning 60, 100,120 foizi miqdorida 1,2 va 3 ta farzandi borlarga pul to‘lash. O‘z holatini tiklab olish uchun ko‘mak tarzida past foizli kreditlar berish. Har bir tumanda 25 oila uyini remont qilish, avariya yoki eskirgan joyda yashayotganlardan 5 ta oilaga uy-joy ajratish, 70ta oilaga maishiy texnika sotib olib berish. Biroq, bu yordam 1% aholiga tegishli, xolos. Ta’lim tizimdagi ko‘maklar: kam ta’minlanganlarni o‘quv qurollari bilan rag‘batlantirish, pastki sinf o‘quvchilarini qishki kiyim va poyafzal bilan ta’minlash, bolalar bog‘chasi va internetlarga pulsiz

qatnash huquqini berish. Yana quyidagi koʻmaklar: jamoat ishlarini tashkil etishda ishsiz deb tan olinganlarga bandlik xizmati yoʻllanma berib vaqtinchalik ishlarga jalb qilish(2 haftadan 3-oygacha), kasb-korni egallash uchun oʻquv kurslarga bepul joylash.

Bunday muammolar hamon achinarli darajada: potensial ish kuchiga ega shaxslarning yuqori darajadagi ishsizligi, noformal sektorda ishlovchilarning katta ulushi, mutaxassisliklar kvalifikasiyasini berish, taqdim etish tizimini yoʻqligi, migrasiyaning hisobga olish tizimini oʻz holiga tashlab qoʻyilgani, mehnat bozori hajmi va tuzilishi boʻyicha aniq ma'lumotlar mavjudmasligi. Nodavlat va notijorat xalqaro tashkilot yana respublikaning oʻn bir mlndan ortiq aholisi toʻyib emasligini ta'kidlaydi.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, kambagʻallikka qarshi kurash masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilyapti. Ushbu dolzarb vazifani amalga oshirishda har bir ijtimoiy qatlam boʻyicha alohida yondashuv yanada kengaytirilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26 martdagi PQ4653-son qaroriga asosan "Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi toʻgʻrisida" NIZOM ishlab chiqildi.

Unga asosan yangi tashkil etilgan vazirlikning kambagʻallikni qisqartirish borasidagi vazifalari quyidagilar etib belgilandi:

− iqtisodiy oʻsishning inklyuzivligini tahlil qilish va ta'minlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va muvofiqlashtirish;

− kambagʻallikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorij tajribasini inobatga olgan holda kambagʻallik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyotini, ijtimoiy ta'minotning minimal standartlari me'yoriy asoslarini ishlab chiqish;

− milliy barqaror rivojlanishning maqsad va vazifalariga erishish chora-tadbirlarini amalga oshirish, yashash minimumi va minimal iste'mol savatchasini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish hamda aholi daromadlari tabaqalashuvini oʻrganish boʻyicha tizimli ishlarni olib borish hamda ularning davlat maqsadli dasturlari bilan oʻzaro muvofiqligini ta'minlash;

− Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda mehnat bozori va uning tarkibini sifat jihatdan rivojlantirish, ishchi kuchi migrasiyasi jarayonlarini tahlil qilish, takomillashtirish hamda mehnat resurslarini taqsimlash borasida oʻzaro muvofiqlikdagi ishlarni olib borish;

− Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi, Sogʻliqni saqlash vazirligi,

Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Madaniyat vazirligi bilan birgalikda inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Hozirgi kunda koronavirus pandemiyasi keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy inqiroz davrida kambag‘allik darajasi yanada ortib ketishi mumkin. Jahon bankining rahbari Devid Malpassning ta’kidlashicha, “bu yil jahon iqtisodiyotini “chuqur resessiya” kutmoqda. Dunyodagi 60 millionga yaqin odam koronavirus pandemiyasi tufayli o‘ta kambag‘allashadi.

Malpassning tushuntirishicha, “iqtisodiyotni rivojlantirish uchun tibbiy favqulodda vaziyatlarga qanday munosabatda bo‘lishni tezda o‘rganish kerak. Bundan tashqari, hukumat kambag‘allar va xususiy sektorni qo‘llab quvvatlashi zarur”. Bizning fikrimizcha, kambag‘allik darajasini davlat siyosatining quyidagi tamoyillarga asosida pasaytirish mumkin: halol, yaxshi haq to‘lanuvchi mehnat uchun keng imkoniyatlar yaratish va mehnatga layoqatli fuqarolarni o‘zini-o‘zi mehnati bilan faol mustaqil ta’minlashga rag‘batlantirish, deb hisoblaymiz.

11.2. Kambag‘allikni baholashning iqtisodiy ahamiyati

Kambag‘allikni baholash — bu iqtisodiyotni va jamiyatni tahlil qilishda muhim bir jarayon bo‘lib, kambag‘allik darajasini aniqlash, uning tarqalishini o‘rganish, va kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan samarali siyosatlar ishlab chiqish uchun zaruriy vositadir. Kambag‘allikni baholashning iqtisodiy ahamiyati ko‘plab jihatlarni o‘z ichiga oladi, chunki bu jarayon nafaqat kambag‘allikni o‘lchash, balki uning sabablarini aniqlash, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda imkoniyatlarni tenglashtirish va adolatni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Quyida kambag‘allikni baholashning iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilamiz.

1. Kambag‘allikni baholash orqali iqtisodiy tahlilning chuqurlashuvi

Kambag‘allikni baholash iqtisodiy tahlilning o‘ziga xos vositasi sifatida xizmat qiladi. Kambag‘allik darajasini o‘lchash va uning sabablarini aniqlash iqtisodiy resurslar taqsimotini tahlil qilishga yordam beradi. Iqtisodiy tahlil, o‘z navbatida, mamlakatda mavjud bo‘lgan iqtisodiy notengliklarni va muammolarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, kambag‘allikni baholash jarayonida:

- ***Resurslar taqsimoti*:** Kambag‘allik darajasining o‘lchami, resurslar va xizmatlar taqsimoti (masalan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy yordam) qanday bo‘lishini aniqlashda yordam beradi.
- ***Iqtisodiy o‘sish va kambag‘allik*:** Kambag‘allikni baholash mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur’atlarini va bu o‘sishdan eng kam daromadli guruhlarning qancha foydalangani haqida muhim ma’lumotlarni taqdim etadi. Buning yordamida davlat kambag‘allikka qarshi kurashish uchun iqtisodiy siyosatlarni ishlab chiqishi mumkin.

2. Siyosatlarni ishlab chiqish va samaradorlikni oshirish

Kambag‘allikni to‘g‘ri baholash, davlat va xalqaro tashkilotlar uchun iqtisodiy siyosatlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Agar kambag‘allikning darajasi aniq va o‘rganilgan bo‘lsa, uning oldini olish yoki kamaytirish bo‘yicha aniq va samarali chora-tadbirlar amalga oshirilishi mumkin. Kambag‘allikni baholashning iqtisodiy ahamiyatlari quyidagilardan iborat:

- ***Samarali ijtimoiy dasturlar*:** Kambag‘allikni baholash yordamida ijtimoiy yordam, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida kerakli resurslar taqsimlanadi. Bu, o‘z navbatida, kambag‘allikka qarshi samarali siyosatlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.
- ***Ijtimoiy himoya tizimini optimallashtirish*:** Kambag‘allikni baholash ijtimoiy himoya tizimlarini shakllantirishda zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadi. Agar kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lsa, ijtimoiy yordam va yordamchi dasturlarni kengaytirish zarur bo‘ladi.

3. Iqtisodiy samaradorlik va resurslarning oqilona taqsimlanishi

Kambag‘allikni baholash, ayniqsa, iqtisodiy samaradorlikni oshirishda ahamiyatli bo‘ladi. Kambag‘allik yuqori bo‘lgan jamiyatlar iqtisodiy jihatdan samarali ishlamaydi, chunki kambag‘al qatlamlar ko‘pincha mehnat bozoridan chetda qoladi. Kambag‘allikni o‘lchash orqali davlat va xususiy sektorga quyidagi imkoniyatlar ochiladi:

- ***Mehnat resurslarining samarali ishlatilishi*:** Kambag‘allikni baholash orqali ishchilarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish imkoniyatlari aniqlanadi. Kambag‘allikni kamaytirish orqali jamiyatda ishchi kuchining samarali ishlatilishi va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining oshishi mumkin.
- ***Investitsiyalarni jalb qilish*:** Kambag‘allikni baholash iqtisodiyotda nisbatan barqaror va rivojlanish sur’atlari yuqori bo‘lgan sektorlarni aniqlashga yordam beradi. Bu esa investitsiyalarni jalb qilishni osonlashtiradi.

4. Ijtimoiy barqarorlik va adolatni ta’minlash

Kambag‘allikni baholash, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlar ko‘pincha siyosiy va ijtimoiy beqarorlikka yuz tutadi, bu esa iqtisodiy rivojlanish uchun salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kambag‘allikni baholash orqali quyidagi ijtimoiy barqarorlikka erishish mumkin:

- ***Siyosiy barqarorlikni oshirish*:** Kambag‘allikning yuqori darajasi ijtimoiy norozilikni keltirib chiqaradi. Kambag‘allikni baholash orqali adolatli siyosatlar ishlab chiqilishi mumkin, bu esa ijtimoiy hamjihatlik va barqarorlikni oshiradi.
- ***Kambag‘allikni kamaytirish orqali ijtimoiy barqarorlik*:** Kambag‘allikni baholashda aniqlangan ma’lumotlarga asoslanib, davlat

ijtimoiy adolatni ta’minlash va kambag‘allikni kamaytirish uchun samarali ijtimoiy siyosatlar ishlab chiqishi mumkin.

5. Kambag‘allik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik

Kambag‘allikni baholash, iqtisodiy o‘sish va kambag‘allik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish imkonini beradi. Ko‘plab tadqiqotlar kambag‘allik va iqtisodiy o‘sishning bir-biriga ta’sirini ko‘rsatadi: kambag‘allikning yuqori darajasi iqtisodiy o‘sishni cheklaydi, chunki kambag‘allar bozorni talab qila olmaydi, bu esa ishlab chiqarish hajmini pasaytiradi. Kambag‘allikni baholash orqali:

- ***Iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish*:** Kambag‘allikni kamaytirish orqali kambag‘allarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish, mehnat bozoriga yanada ko‘proq ishchi kuchini kiritish va shu orqali iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirish mumkin.
- ***O‘sishning taqsimlanishini yaxshilash*:** Kambag‘allikni baholash ijtimoiy va iqtisodiy resurslarning adolatli taqsimlanishiga yordam beradi, bu esa o‘sishning jamiyatning barcha qatlamlariga teng taqsimlanishiga imkon yaratadi.

Kambag‘allikni baholashning iqtisodiy ahamiyati juda katta. U nafaqat kambag‘allik darajasini aniqlash, balki uni kamaytirishga qaratilgan samarali siyosatlar ishlab chiqish, iqtisodiy resurslarni oqilona taqsimlash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadi. Kambag‘allikni baholash jarayoni orqali mamlakatlar o‘z iqtisodiy rivojlanishlarini barqarorlashtirish va ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun eng samarali usullarni aniqlashlari mumkin.

11.3. Kambag‘allikni darajasini baholash mezonlari

Mamlakatimizda kambag‘al aholi mavjudligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida birinchi marta rasman qayd etildi. Murojaatnomada “Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir. Shuning uchun Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birga Kambag‘allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqishni taklif etaman. Bu borada xalqaro me’yorlar asosida chuqur o‘rganishlar o‘tkazib, kambag‘allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullarini qamrab olgan yangi metodologiyani yaratish lozim” deb ta’kidlandi.

Kambag‘allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqishdan oldin uni aniqlash va baholash metodologiyasini yaratish birinchi dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Chunki, ularni aniqlamasdan turib, kamaytirishning manzilli dasturiga qo‘l urib bo‘lmaydi.

Davlat rahbarining bu borada izchil amalga oshirayotgan siyosatini hukumat tarkibida Bosh vazirning moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimini kiritilishi va Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining tashkiletilishida yanada yaqqol ko‘rish mumkin hamda mazkur masalaning naqadar dolzarbligini anglash mumkin.

Kambag‘allik – har bir shaxs yoki ijtimoiy guruhning yashashi, mehnat qobiliyatini saqlashi, avlodni davom ettirishi uchun zarur bo‘lgan minimal ehtiyojlar ma’lum doirasini qanoatlantirmaydigan iqtisodiy holatning tavsifidir. Kambag‘allik nisbiy tushuncha hisoblanadi va mazkur jamiyatda turmush darajasining umumiy standartiga bog‘liq bo‘ladi. U oilani boqish va kiyintirish, maktabda o‘qish yoki kasalxonada davolanish, o‘z erida iste’mol mahsulotlarini etishtirish yoki yashashga imkon beradigan daromad topadigan ishga ega bo‘lish, shuningdek, kreditlarni olish huquqi imkoniyatlarining yo‘qligida namoyon bo‘ladi.

Kambag‘allikni o‘rganish va o‘lchashga nazariy-uslubiy yondashuvlar uchta asosiy konsepsiya(qarash)lardan kelib chiqadi:

1) Mutlaq kambag‘allik konsepsiyasi – insonning o‘z daromadlari hisobiga oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joyga bo‘lgan minimal ehtiyojlarini qondira olmasligi yoki faqat biologik hayotni ta’minlaydigan minimal ehtiyojlarni qondira oladigan holatidir.

2) Nisbiy kambag‘allik konsepsiyasi – insonning mamlakat umumiy daromadlari darajasiga nisbatan o‘ta yomon holatini qayd qiladi, chunki farovonlik ko‘rsatkichlarini minimal ehtiyojlar bilan emas, balki u yoki bu mamlakatda ustunlik qiluvchi moddiy ta’minlanganlik darajasi bilan aniqlanadi yoki odamning mazkur jamiyatda qabul qilingan hayotning ma’lum bir standartini ushlab tura olmaslik vaziyati.

Hozirgi vaqtda mazkur kambag‘allikni aniqlash doirasida ikkita yo‘nalish yuzaga kelgan. Birinchi yo‘nalish doirasida asosan tirikchilik mablag‘lariga, asosiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun zaruriy tovarlarni sotib olish qobiliyatiga tayaniladi. Ushbu holatda kambag‘allikning nisbiy chegarasini aniqlashda shaxsiy ixtiyoridagi (medianli) daromadi ko‘rsatkichidan foydalaniladi. Amerika Qo‘shma Shtatlarida nisbiy kambag‘allik chegarasi median daromadning 40%ga teng, ko‘pchilik Evropa mamlakatlarida bu ko‘rsatkich 50%ga teng.

Kambag‘al sifatida aniqlangan shaxslar real kambag‘allik sharoitlarida yashovchi shaxslar bilan kam o‘xshashlikka egalar va median daromad o‘zgarishi ta’sirida yoki uni taqsimlanishida, ayniqsa, daromadlarning keskin ajralishi sharoitlarida ko‘payishlari yoki qisqarishlari mumkin.

3) Subyektiv kambag‘allik konsepsiyasi – odamlarning o‘zlari tomonidan tayyorlangan xususiy moddiy holatni va turmush darajasini

baholashlariga asoslanadi. Ya’ni, odamlar o‘zlarini kambag‘al his qilib, o‘zlari kambag‘allik darajalarini belgilaydilar.

Kambag‘allikni sub’ektiv baholashlar, birinchi navbatda “pul daromadlari yashash minimumidan past bo‘lgan aholi soni” ko‘rsatkichi bilan qiyoslash bo‘yicha rasmiy hisob-kitoblardan ancha yuqori ekan. Biroq, sub’ektiv baholashlarga asosan amalga oshirilgan hisob-kitoblar va rasmiy ma’lumotlar bir xil dinamikaga ega.

Bundan tashqari, kambag‘allikni aniqlashning sifatli va integral konsepsiyalari mavjud.

Joriy paytdagi kambag‘allik va surunkali (doimiy uzoq vaqt takror davom etadigan) kambag‘allik farqlanadi.

Iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy nuqtai nazardan eng xavfli kambag‘allik shakli surunkali kambag‘allik hisoblanadi. Bu holda jamiyatning ma’lum guruhlarida yoki alohida mintaqalarda kambag‘allik ko‘payishi cheklangan vaziyat tizimli ravishda tasvirlanadi, ya’ni, odamlarning bir necha avlodi qachonlardir kambag‘allikni keltirib chiqargan omillar va sabablarni engishga qodir bo‘lmaydilar.

Vaqtinchalik kambag‘allik – oila turmush davrining ma’lum bosqichlari bilan yoki mavsumiy tebranishlar bilan yoxud favqulodda holatlar bilan bog‘liq, qaytar holatdir. Vaqtinchalik kambag‘allikning namoyon bo‘lishi nisbatan kam ijtimoiy xavflidir. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, butun dunyoda va jumladan, bizning mamlakatimizda ham hozirgi pandemiya davrida vaqtinchalik kambag‘allikning ko‘payishi sodir bo‘ladi.

Kambag‘allik darajasi indeksi kambag‘al uy xo‘jaliklarining daromadlari kambag‘allik chegarasi(yashash minimumi)ga nisbatan qanchalik pastda joylashganligini baholash imkoniyatini beradi.

Kambag‘allik darajasi indeksi, taklif etilayotgan ijtimoiy dasturlarni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan xarajatlarni hisoblashda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramasdan, har bir uy xo‘jaliklari byudjeti taqchilligiga teng ravishda e’tibor beradi. Shu munosabat bilan kambag‘allikning og‘irlik darajasi aniq bir xonadonning daromad taqchilligini kvadratga ko‘tarish yo‘li bilan aniqlanadi.

Amaliy hisob-kitoblarda qo‘llaniladigan muhim ko‘rsatkich daromadlar tanqisligi hisoblanadi. Ushbu indikator uy xo‘jaligining kam ta’minlanganlik chegarasiga etishi uchun etarli bo‘lmagan pul miqdorini anglatadi.

Kambag‘allikni aniqlashning bir nechta usullari mavjud:

Kambag‘allikni aniqlashning *me’yoriy usuli* insonning asosiy fiziologik va ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan tovarlar va xizmatlar to‘plamini aniqlashni, shuningdek, aholining jinsi va yosh guruhlari xususiyatlarini hisobga olgan holda iste’mol qilish normalari va standartlarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Yashash qiymatini shakllantirish va hisoblash uchun tovarlar va xizmatlarning iste’mol savatlari tushunchasi ishlatiladi. Minimal standartlar va ular asosida shakllantirilgan istemol savatlari vaqt-vaqti bilan qayta ko‘rib chiqilishi kerak bo‘ladi.

Kombinasiyalashtirilgan (birlashtirilgan, me’yoriy-statistik) usul, alohida tovarlar va xizmatlar uchun standartlarni aniqlash qiyin bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Eng arzon va eng hammabop mahsulotlardan tashkil topgan oziq-ovqat mahsulotlarining to‘plami fiziologik ehtiyojlarga, kaloriya miqdori va asosiy ozuqaviy tarkibga mos keladi, kerakli ta’mga, turli xil ovqatlarga va oziq-ovqat mahsulotlarini tashkil etish an’analariga rioya qiladi. Byudjet va xizmatlarning nooziq-ovqat qismi ularning kam ta’minlangan oilalarning iste’mol xarajatlaridagi ulushi bilan belgilanadi. Shuningdek, *stratifikasiya usuli,* kambag‘allar orasida o‘zini o‘zi ta’minlash qobiliyati cheklangan odamlar, *deprasiya usuli* – eng muhim mahsulotlar va tovarlarning etarlicha iste’mol qilinmasligini hisoblash, ijtimoiy fikrni baholash yoki respondentning o‘z nuqtai nazaridan, etarli yoki etarli bo‘lmagan turmush darajasini aniqlaydigan *evristik usul* (ijtimoiy, sub’ektiv), davlatning moddiy resurslarini ta’minlashga qaratilgan kambag‘al resurs manbalari toifasini belgilaydigan *iqtisodiy usul* va boshqalar mavjud.

Bugungi kunda qabul qilingan kambag‘allik darajasi kuniga 1,90 AQSh dollariga teng bo‘lib, xarid qilish qobiliyati pariteti (XQQP) Birlashgan millatlar tashkiloti Evropa iqtisodiy komissiyasi (BMT EIK) mintaqasidagi davlatlar uchun juda pastdir. Ushbu vaziyatni to‘g‘rilash uchun Jahon banki o‘rtacha daromadli mamlakatlarda kambag‘allikning ikki yoki undan ko‘p miqdoridan foydalanishni taklif qiladi. Mutlaq kambag‘allikning boshqa muammolari ularning XQQPning bazaviy yilini, milliy valyutadagi daromadlarni AQSh dollariga konvertasiya qilish kursiga va XQQPni hisoblashda foydalaniladigan tovarlar savatchasiga nisbatan yuqori sezgirligida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda shu paytga qadar kambag‘allik tushunchasi ishlatilmagan bo‘lib, uning o‘rniga kam ta’minlangan aholi ishlatilgan. Ushbu tushunchani Rossiya Federasiyasi misolida ko‘radigan bo‘lsan, kam ta’minlangan deganda oladigan daromadi uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarga etishi, ammo uyjoy va avtomobil olishga qudrati etmaydigan fuqarolar tushuniladi. Kambag‘al deganda esa, oladigan daromad puli faqat ovqatlanishga va birlamchi zaruriy tovarlargagina etadigan fuqarolar tushuniladi. Qashshoq deganda oladigan pul daromadlari, hatto ovqatlanishga ham etmaydigan fuqarolar tushuniladi.

O‘zbekistonda kambag‘allik to‘g‘risida Respublikamiz Rahbari 2020-yilning 27 fevralida tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo‘yicha videoselektor

yig‘ilishidagi ma’ruzalarida kambag‘allik muammosi eng og‘ir bo‘lgan hududlar va ulardagi mavjud kambag‘allar sonini ko‘rsatib o‘tdilar. Bu hududlar Qashqadaryo viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Namangan, Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridir.

Kambag‘allikni qisqartirishdan oldin kambag‘allik toifasiga kiradigan aholini aniqlash ko‘rsatkichlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kambag‘allar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga qarab turlicha tavsiflanadi. Masalan oila tarkibi, erkak va ayollar soni, bolalar soni, oila boshlig‘ining yoshi, ma’lumoti, qaramog‘idagi bolalar va qariyalar soni, o‘zi va ularning sog‘ligi, ish faoliyati turi va oylik maoshi, mulki, turar joyi, kommunal xizmatlardan foydalanish imkoniyati, tibbiy xizmatdan foydalanishi, maktab va bog‘chadan foydalanish imkoniyatlari, bozor va savdo do‘konlaridan foydalanish imkoniyatlari, yo‘l-transport infratuzilmasi va h.k. Ushbu me’yorli foydalanish imkoniyatlaridan qancha mahrum bo‘lsa, ularning kambag‘allar toifasiga tushib qolish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi.

Shahar va qishloqdagi kambag‘allik ham bir-biridan farqlanadi. Ularning real daromadlarini hisoblash ham tubdan farqlanadi.

Kambag‘allikni baholash uchun qabul qilingan qarashlarga asosan:

- minimal standart o‘rnatilishi va uning asosida kambag‘allikni aniqlashni amalga oshirish;
- aholi farovonligini yoki turmush sharoitini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlarni (daromadlar, xarajatlar, iste’mol) aniqlash zarur.

Kambag‘allikni baholashdan olingan natijalar quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

Kambag‘allikning oldini olish bo‘yicha dasturlar va loyihalarni ishlab chiqishda va ularning samaradorligini baholashda;

- ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar sonini aniqlashda;
- manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatishda; ijtimoiy keskinlikni monitoringini amalga oshirishda;
- kambag‘allik darajasini boshqa mamlakatlar bilan qiyoslashda va h.k.

Kambag‘allik toifasiga tushish ehtimoli yuqori bo‘lgan aholi guruhi:

- ✓ kichkina maoshli kam ta’minlanganlar;
- ✓ hayotiy og‘ir vaziyaga tushib qolgan odamlar;
- ✓ daromadi yashash minimumi kattaligidan oshmaydigan nochor vaziyatdagi odamlar;
- ✓ qiyin ahvolda bo‘lgan yordamga muhtoj kam ta’minlangan oilalar; ko‘ngilsiz oilalar;
- ✓ yong‘in qurboni bo‘lgan oilalar;
- ✓ aroqxo‘r alkogoliklar;
- ✓ ishsiz uysizlar(bomjlar), uysiz pensionerlar;
- ✓ ijtimoiy ta’minot boshqarmasida ro‘yxatga olingan oilalar;

- ✓ yakka qarovsiz qariyalar; to‘liq bo‘lmagan oilalar;
- ✓ yosh oilalar;
- ✓ ko‘p bolali oilalar (ishlovchisi bitta).

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda kambag‘allikni rasman aniqlash uchun quyidagi ishlarni tezkor amalga oshirish darkor:

1.Yashash minimumi savatchasi asosida yashash minimumi miqdorini hisoblash;

2.Kambag‘allik chegarasini aniqlash;

3.O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash uslubiyatini ishlab chiqish va me’yoriy-hukuqiy hujjat sifatida qabul qilish.

Faqat shundan so‘ng kambag‘allikni qisqartirish to‘g‘risida maxsus dasturlar va chora-tadbirlarni ishlab chiqish va manzilli amalga oshirish mumkin.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Kambag‘allik (Poverty) – Aholining ma’lum bir vaqt va joyda zarur bo‘lgan ehtiyojlarni qondira olmaydigan daromad darajasi yoki resurslar yetishmasligi holati.
2. Absolyut kambag‘allik (Absolute Poverty) – Aholining eng minimal hayotiy ehtiyojlarini qondira olmaydigan holat; odatda oziq-ovqat, kiyim-kechak, boshpana va tibbiy xizmatlar kabi asosiy ehtiyojlarni ifodalaydi.
3. Nisbiy kambag‘allik (Relative Poverty) – Jamiyatdagi o‘rtacha daromad darajasiga nisbatan kamroq daromadga ega bo‘lgan shaxslarning kambag‘allik holati.
4. Kambag‘allikning multidimensiyali yondashuvi (Multidimensional Approach to Poverty) – Kambag‘allikni faqat daromad darajasiga emas, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat bozoriga kirish va boshqa omillarga bog‘liq ravishda baholash.
5. Kambag‘allikning ijtimoiy talqini (Social Interpretation of Poverty) – Kambag‘allikni nafaqat moliyaviy nuqtai nazardan, balki jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy tengsizliklarni keltirib chiqaruvchi holat sifatida tushunish.
6. Kambag‘allikning psixologik aspektlari (Psychological Aspects of Poverty) – Kambag‘allik, shuningdek, psixologik stress, depressiya va ijtimoiy izolyatsiyani keltirib chiqarishi mumkin.
7. Kambag‘allikning strukturaviy nazariyasi (Structural Theory of Poverty) – Kambag‘allikni jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmasidagi muammolar, masalan, taqsimotning tengsizliklari yoki bozorlarning nosozligi bilan bog‘lash.

8. Kambag‘allikning resurslar nazariyasi (Resource Theory of Poverty) – Resurslarning cheklanishi, odamlar tomonidan ularni to‘g‘ri taqsimlay olmasliklari kambag‘allikni yuzaga keltiradi.

9. Kambag‘allikning ishlab chiqarish nazariyasi (Production Theory of Poverty) – Iqtisodiy tizimdagi resurslar va ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligining pasayishi kambag‘allikni keltirib chiqaradi.

10. Kambag‘allikning siyosiy nazariyasi (Political Theory of Poverty) – Kambag‘allik siyosiy tuzilmalar, hokimiyat va resurslar taqsimoti bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

11. Kambag‘allikning iqtisodiy ko‘rsatkichlari (Economic Indicators of Poverty) – Kambag‘allikni baholashda foydalaniladigan iqtisodiy ko‘rsatkichlar, masalan, daromad darajasi, ish o‘rinlari soni, inflatsiya darajasi.

12. Iqtisodiy tahlil (Economic Analysis) – Kambag‘allikni baholash uchun iqtisodiy tahlillar, statistik metodlar va modeldan foydalanish.

13. Iqtisodiy samaradorlik (Economic Efficiency) – Kambag‘allikni qisqartirishdagi samaradorlikni baholash, resurslarni taqsimlash va undan foydalanishning optimal shakllari.

14. Boshqaruv va kambag‘allik (Governance and Poverty) – Davlat siyosatining kambag‘allikka ta’siri, iqtisodiy boshqaruv tizimlari va kambag‘allikni baholashdagi roli.

15. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ta’siri (Impact of Economic Indicators) – Kambag‘allikni baholashda iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ta’sirini o‘rganish va ularning kambag‘allikka qanday ta’sir qilishini tahlil qilish.

16. Bozor iqtisodiyoti va kambag‘allik (Market Economy and Poverty) – Bozor iqtisodiyoti sharoitida kambag‘allikni baholash, bozorning ijtimoiy tengsizlikni qanday kuchaytirishi.

17. Moliyaviy resurslar (Financial Resources) – Kambag‘allikni qisqartirish uchun mavjud moliyaviy resurslar, davlat va xususiy sektorlar tomonidan ajratilgan mablag‘lar.

18. Ijtimoiy xavfsizlik tizimi (Social Security System) – Ijtimoiy xavfsizlik tizimining kambag‘allikni kamaytirishdagi ahamiyati, ijtimoiy dasturlar va ularning samaradorligi.

19. O‘rtacha daromad darajasi (Average Income Level) – Kambag‘allikni baholashda o‘rtacha daromad darajasini aniqlash va iqtisodiy farqlarni ko‘rsatish.

20. Taqsimot adolati (Equitable Distribution) – Daromadlarni adolatli taqsimlash, kambag‘allikni baholashda bu omilning ahamiyati va iqtisodiy tenglikni ta’minlash.

Takrorlash uchun savollar

1. Kambag‘allikni baholashda qanday asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi?
2. Kambag‘allikni baholashda daromad chegarasi qanday aniqlanadi va u qanday o‘lchovlardan iborat?
3. Kambag‘allikni baholashda nisbiy va absolut metodlarning farqi nima?
4. Kambag‘allikni baholashda foydalaniladigan “qashshoqlik chizig‘i” (poverty line) qanday belgilangan?
5. Kambag‘allikni o‘lchashda mavjud bo‘lgan indikatorlar (masalan, ta’lim darajasi, sog‘liqni saqlash) qanday ta’sir ko‘rsatadi?
6. Kambag‘allikni baholashda ish o‘rinlari va bandlik darajasi qanday rol o‘ynaydi?
7. Kambag‘allikni baholashda ijtimoiy xizmatlar (sog‘liqni saqlash, ta’lim) tizimining ta’siri qanday o‘lchanadi?
8. Kambag‘allikning qishloq va shahar hududlarida baholanishi o‘rtasida qanday farqlar mavjud?
9. Kambag‘allikni baholashda demografik omillar (yosh, jins, oilaviy holat) qanday hisobga olinadi?
10. Kambag‘allikni baholashda xalqaro tashkilotlarning (masalan, BMT, Jahon banki) metodologiyalari qanday qo‘llaniladi?

XII BOB. KAMBAG‘ALLIKNI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI

12.1. Kambag‘allik darajasining ko‘rsatkichlari.
12.2. Kam ta’minlanganlik indikatorlari va ko‘rsatkichlari.

12.1.Kambag‘allik darajasining ko‘rsatkichlari

Kambag‘allik darajasi – iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning ahamiyatli ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, aholining turmush sharoitlari, daromad taqsimoti va iqtisodiy imkoniyatlarining tahlil qilinishi orqali aniqlanadi. Kambag‘allikning turli darajalari va ko‘rsatkichlari, asosan, o‘zgaruvchan ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga bog‘liq bo‘lib, ularni o‘lchash va tahlil qilish orqali davlatlar va tashkilotlar kambag‘allikni bartaraf etish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqadilar.

Kambag‘allik darajasi haqida gapirganda, bir nechta asosiy ko‘rsatkichlar mavjud. Ular o‘zaro bog‘liq bo‘lib, turli metodologiyalar asosida tahlil qilinadi. Quyida kambag‘allik darajasining eng asosiy ko‘rsatkichlari va ularning tahlili haqida batafsil ma’lumot beraman.

1. *Daromad darajasi va eng kam daromad (absolute poverty)*

Kambag‘allikning eng oddiy va asosiy ko‘rsatkichi bu daromad darajasi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi odamlarning kunlik hayotini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan minimal resurslar bilan ta’minlanishi zarur. Ko‘pincha bu ko‘rsatkich "eng kam daromad" deb ataladi va uni o‘lchash uchun maxsus chegaralar o‘rnatiladi.

Eng kam daromad (absolute poverty) – bu daromadning eng past chegarasi bo‘lib, odamlar kunlik hayotini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan minimal mablag‘ni ololmagan holda yashashga majbur bo‘lishadi. Jahon banki va BMT kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan, kambag‘allik darajasini o‘lchashda 1.90 AQSH dollari miqdori asosiy chegaralar sifatida qo‘llaniladi. Agar bir kishi kuniga 1.90 dollardan kam daromad olgan bo‘lsa, u eng kam daromadga ega deb hisoblanadi.

Bu ko‘rsatkich bo‘yicha statistika asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqalgan. Ushbu ko‘rsatkich, shuningdek, davlatlar orasidagi kambag‘allik darajasini taqqoslash imkonini beradi. Agar mamlakat aholisi yoki uning katta qismi eng kam daromad darajasida yashasa, unda bu mamlakat kambag‘allikni qisqartirish uchun zaruriy iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishi zarur.

2. Nisbiy kambag‘allik (relative poverty)

Nisbiy kambag‘allik (relative poverty) – bu ko‘rsatkich kambag‘allikni nisbiy tarzda o‘lchashga asoslanadi, ya’ni biror jamiyatda aholining ma’lum bir qismining jamiyatdagi umumiy daromad yoki resurslar taqsimotiga nisbatan imkoniyatlari past bo‘lsa, u kambag‘allik darajasiga kiradi. Nisbi kambag‘allik, eng kam daromadga qaraganda, jamiyatning o‘ziga xos

sharoitlarini hisobga oladi va jamiyatdagi o‘rta daromadning pasayishi yoki daromad tengsizliklarining ortishi kabi omillarni inobatga oladi.

Misol uchun, ba’zi rivojlangan mamlakatlarda, agar bir kishi o‘zining jamiyatidagi o‘rtacha daromadga nisbatan 50% yoki undan kam daromadga ega bo‘lsa, bu nisbi kambag‘allik deb hisoblanadi. Shu tariqa, u jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan orqada qolgan kishilar guruhiga kiradi. Nisbi kambag‘allik ko‘pincha rivojlangan mamlakatlar uchun muhim bo‘lib, aholining iqtisodiy taqsimoti va ijtimoiy tenglikni tahlil qilishda qo‘llaniladi.

3. Daromad taqsimoti va iqtisodiy tengsizlik (Gini koeffitsienti)

Daromad taqsimoti va iqtisodiy tengsizlik kambag‘allikning muhim omillaridan biridir. Daromadning teng taqsimlanishi yoki taqsimotdagi tengsizlik kambag‘allikni aniqlashda katta rol o‘ynaydi. Agar daromadlar teng taqsimlanmagan bo‘lsa, ya’ni bir nechta shaxslar yoki guruhlar jamiyatning katta qismini tashkil etadigan daromadni olsalar, bu kambag‘allikni oshiradi.

Gini koeffitsienti – iqtisodiy tengsizlikni o‘lchashning eng mashhur ko‘rsatkichlaridan biridir. Bu ko‘rsatkich 0 va 1 orasida bo‘ladi. 0 – bu daromad taqsimoti mutlaqo teng bo‘lgan jamiyatni anglatadi (barcha odamlar bir xil daromadga ega). 1 esa biror shaxsning barcha daromadni olgan holatni anglatadi (boshqa barcha odamlar daromadsiz).

Gini koeffitsienti yuqori bo‘lsa, iqtisodiy tengsizlik ham yuqori bo‘ladi, va bu kambag‘allikning oshishiga olib keladi. Agar koeffitsient past bo‘lsa, demak, jamiyatda daromad taqsimoti yanada tengroq va bu kambag‘allikni kamaytirishga olib keladi.

4. Kambag‘allikning boshqa ko‘rsatkichlari va indekslar

- *Kambag‘allikga qarshi kurashish indikatorlari (HDI – Inson Rivojlanish Indeksi):* Inson rivojlanish indeksi (HDI) kambag‘allikni o‘lchashda muhim ahamiyatga ega. U uchta asosiy omilni, ya’ni hayot davomiyligi (sog‘liqni saqlash), ta’lim darajasi va o‘rtacha daromadni hisobga oladi. HDI indeksi yuqori bo‘lgan mamlakatlar, odatda, kambag‘allikni kamaytirishda muvaffaqiyatli hisoblanadi. Buning aksi, HDI past bo‘lgan mamlakatlarda kambag‘allik darajasi yuqori bo‘ladi.
- *Multidimensional Poverty Index (MPI):* Kambag‘allik faqat daromad bilan o‘lchamaydi. MPI ko‘proq ko‘p o‘lchovli yondoshuvni taqdim etadi, ya’ni faqat daromad emas, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy sharoitlari kabi omillarni hisobga oladi. MPI, asosan, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining kambag‘allik darajasini yanada kengroq baholashga imkon beradi.

5*. Ijtimoiy xizmatlar va imkoniyatlar (Kambag‘allarni ijtimoiy qo‘llab quvvatlash)*

Kambag‘allik darajasini o‘lchashda ijtimoiy xizmatlar va imkoniyatlarning mavjudligi ham muhim ahamiyatga ega. Kambag‘allik faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarga asoslanib emas, balki ijtimoiy imkoniyatlar

bilan bog‘liq. Agar biror kishining ta’lim olish, sog‘liqni saqlash yoki uy-joyga ega bo‘lish imkoniyatlari cheklangan bo‘lsa, u kambag‘allikda yashayotgan deb hisoblanadi.

Kambag‘allikni kamaytirish uchun davlatlar ijtimoiy himoya tizimlarini kuchaytirishi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa asosiy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirishi zarur.

Kambag‘allikning asosiy ko‘rsatkichlari Jeyms Foster (James Foster), Djoel Griyer (Joel Greer) va Erik Torbeke (Erik Thorbechke) lar tomonidan taklif etilgan formula bo‘yicha aniqlanadi.

$$P_a = \frac{1}{H}\sum_{h=1}^{q}\left(\frac{Z_h - Y_h}{Y_h}\right)^a$$

Bu yerda:

Pa – umumiy kambag‘allik darajasi (ko‘rsatkichi);

a – qaysi kambag‘allik ko‘rsatkichi to‘g‘risida gap borayotganligini ko‘rsatuvchi parametr

– alohida uy xo‘jaligining h tarkibiga bog‘liq bo‘lgan kambag‘allik darajasi;

Yh –alohida olingan h uy xo‘jaliklarining daromadlilik darajasi;

q – kambag‘al uy xo‘jaliklari soni;

H – umumiy uy xo‘jaliklari soni.

Fostera – Griyera – Torbekelarning formulasi asosida kambag‘allikning asosiy ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

• Kambag‘allik koeffitsiyenti va kambag‘allik darajasi (a = 0);

• Kambag‘allik chuqurligi indeksi (a = 1);

• Kambag‘allik jiddiy (o‘tkir)ligi indeksi (a = 2).

Kambag‘allik koeffitsiyenti (kambag‘al uy xo‘jaliklari sonining umumiy uy xo‘jaliklari sonidagi ulushi).

$$P_0 = \frac{1}{H}\sum_{h=1}^{q}\left(\frac{Z_h - Y_h}{Y_h}\right)^0$$

Kambag‘allik koeffitsiyenti faqat kambag‘allikning tarqalish darajasini tavsiflaydi va kambag‘al uy xo‘jaliklarining daromadi kambag‘allik chegarasidan pastligini aniqlashga imkon bermaydi.

Kambag‘allik chuqurligi indeksi:

$$P_1 = \frac{1}{H}\sum_{h=1}^{q}\left(\frac{Z_h - Y_h}{Y_h}\right)^1$$

Kambag‘allik chuqurligi indeksi kam ta’minlangan uy xo‘jaliklari daromadlarining kam ta’minlanganlik chegarasiga nisbatan qanchalik pastligini aniqlash imkonini beradi.

Kambag‘allik jiddiy (o‘tkir)ligi indeksi:

$$P_2 = \frac{1}{H}\sum_{h=1}^{q}\left(\frac{Z_h - Y_h}{Y_h}\right)^2$$

Kambag‘allik darajasi ko‘plab o‘lchovlar, ko‘rsatkichlar va indekslar asosida aniqlanadi. Eng kam daromad, nisbi kambag‘allik, iqtisodiy tengsizlik, inson rivojlanish indeksi va ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi kabi ko‘rsatkichlar kambag‘allikni tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlar jamiyatlarning iqtisodiy holatini, imkoniyatlar taqsimotini va ijtimoiy yordam tizimlarini aniqlashda yordam beradi, shuningdek, kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha samarali siyosatlarni ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

12.2.Kam ta’minlanganlik ko‘rsatkichlari va indikatorlari

Kam ta’minlanganlikni o‘lchash jarayoni aholining kambag‘allik darajasi yoki kambag‘allik chegarasidan past daromadga ega bo‘lgan qismi ulushini aniqlash, shuningdek, kambag‘al oilalarning moddiy yetishmovchilik holatini va daromad tabaqalanishini baholashni o‘z ichiga oladi.

Bu jarayon doirasida uy xo‘jaliklari darajasida tekshiruvlar o‘tkazilib, daromad va iste’mol darajalariga ko‘ra farqlash amalga oshiriladi. Kam ta’minlanganlikning tarqalishini aniqlash uchun asosiy ko‘rsatkichlardan biri bu kambag‘allik koeffitsientidir. U quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$P = \frac{q}{H}$$

Bu yerda:

- **P** – kambag‘allik koeffitsienti,
- **q** – kambag‘allik chegarasidan past daromadga yoki iste’molga ega uy xo‘jaliklari soni,
- **H** – umumiy uy xo‘jaliklari soni.

Ushbu ko‘rsatkich faqat kambag‘allikning tarqalishini ko‘rsatib beradi, biroq uning chuqurligi yoki darajasi haqida aniq tasavvur bermaydi. Shuning uchun kambag‘allikni yanada aniqroq baholash uchun quyidagi indikatorlardan foydalaniladi:

1. Kambag‘allik oralig‘i indeksi – bu kambag‘allik chegarasi bilan uy xo‘jaliklari xarajatlari yoki o‘rtacha daromadlari o‘rtasidagi farqni aniqlaydi. U kambag‘allikning chuqurligini baholashda muhimdir va kambag‘allikdan chiqish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha mablag‘ miqdorini hisoblash imkonini beradi.

2. Kambag‘allik kuchlilik indeksi – bu ko‘rsatkich turli daromadli uy xo‘jaliklarining o‘rtacha o‘lchamlarini hisobga olgan holda aniqlanadi. U kambag‘allik darajasi va kambag‘allar orasidagi tengsizlik darajasini aks ettiruvchi yig‘indidan iborat.

Kambag‘allikning turli jihatlari.

Kambag‘allik murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo‘lib, u nafaqat daromadlar yoki iste’mol darajasining pastligi bilan cheklanadi. Agar inson taraqqiyoti ularning sog‘lom va munosib hayot kechirish imkoniyatlarini kengaytirish bilan o‘lchanadigan bo‘lsa, unda kambag‘allik – bu shunday imkoniyatlarning mavjud emasligi yoki sezilarli darajada cheklanganligidir.

Kambag‘allik inson hayotining uchta asosiy jihati – sog‘liq (uzoq umr ko‘rish), ta’lim va yashash sharoitlari bilan bog‘liq. Ushbu jihatlarni baholash uchun maxsus indekslar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun turlicha hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) kambag‘allik chegarasini kuniga 1,25 AQSh dollari miqdorida belgilagan. Ya’ni, kuniga ushbu miqdordan kam daromad bilan yashaydigan shaxslar kambag‘al deb hisoblanadi.

Kambag‘allikni baholash usullari.Kambag‘allik darajasini aniqlashda uy xo‘jaliklarini o‘rganish natijalaridan foydalaniladi. Ushbu tekshiruvlar har yili 10 000 dan ortiq uy xo‘jaliklarini qamrab olgan holda amalga oshiriladi. Baholashda oziq-ovqat mahsulotlari iste’moliga asoslangan yondashuv ham qo‘llaniladi.

Masalan, jon boshiga bir kunda 2101 kilokaloriya iste’mol qilish kambag‘allik chegarasi sifatida belgilanadi. Agar iste’mol darajasi ushbu normadan past bo‘lsa, uy xo‘jaliklari kambag‘allar toifasiga kiritiladi.

Kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- Qishloq joylarda yashash – qishloq hududlarida yashovchi aholining kambag‘allikka tushib qolish ehtimoli shahar joylariga nisbatan yuqori.
- Ko‘p bolali oilalar – 16 yoshgacha bo‘lgan 3 va undan ortiq bolasi bo‘lgan oilalar iqtisodiy jihatdan kam ta’minlanganlik xavfi ostida bo‘ladi.
- Past darajadagi ta’lim – o‘rta maxsus yoki undan past darajadagi ta’limga ega shaxslarning kambag‘allikka tushish ehtimoli yuqori.

Ish bilan bandlik va kambag‘allik.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ish bilan bandlik har doim ham kambag‘allikdan chiqish imkoniyatini kafolatlamaydi. Past darajadagi daromadga ega bo‘lgan uy xo‘jaliklarining 50% dan ortig‘i budjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlar yoki past maosh oladigan korxona xodimlari hisoblanadi. Bundan tashqari, mavsumiy va

vaqtinchalik ishlarda band bo‘lgan xodimlarning kambag‘allikka tushish ehtimoli yuqori.

Kambag‘allikning jiddiyligi va og‘irligi.Bir sutkada 2101 kkal iste’mol qilishga asoslangan kambag‘allik mezonlari uning jiddiyligi va og‘irligini aniq baholashga imkon bermaydi. Biroq aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allikning og‘irlik darajasi yuqori emas, chunki kambag‘al oilalarning aksariyati belgilangan minimal normaga yaqin iste’mol darajasiga ega.

Ko‘pchilik hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda, kambag‘allik darajasi yuqoriroq bo‘lib, turmush sharoitlaridagi tafovutlar ham ancha sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli kambag‘allikni o‘lchash va baholashda nafaqat daromad ko‘rsatkichlari, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash va yashash sharoitlari kabi omillar ham inobatga olinishi lozim.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Kambag‘allik chizig‘i (Poverty Line) – Kambag‘allik darajasini belgilash uchun foydalaniladigan asosiy ko‘rsatkich. Odatda, bu daromad yoki sarf-xarajatlar chizig‘iga asoslanadi, uning ostidagi daromadga ega bo‘lganlar kambag‘al hisoblanadi.
2. Kambag‘allik darajasi (Poverty Rate) – Jamiyatda kambag‘allikka uchragan aholi ulushini ifodalovchi ko‘rsatkich. Bu ko‘rsatkich kambag‘allikning tarqalishini o‘lchaydi.
3. Kambag‘allikning chuqurligi (Poverty Depth) – Aholining kambag‘allik chizig‘idan qanchalik past darajada joylashganligini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich kambag‘allikning nafaqat tarqalishi, balki uning darajasini ham ifodalaydi.
4. Kambag‘allikning kengligi (Poverty Breadth) – Kambag‘allikni qamrab olgan odamlar sonini ko‘rsatadi.
5. Kambag‘allikning ko‘p o‘lchovli indeksi (Multidimensional Poverty Index) – Kambag‘allikni baholashda daromadga qo‘shimcha ravishda, ta’lim, sog‘liqni saqlash, yashash sharoiti va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hisobga oladigan ko‘rsatkich.
6. Gini koeffitsienti (Gini Coefficient) – Daromad tengsizlik darajasini o‘lchovchi ko‘rsatkich. Bu koeffitsient 0 (teng taqsimot) dan 1 (faqat bir kishi barcha resurslarga ega) ga qadar o‘zgaradi.
7. Sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq kambag‘allik ko‘rsatkichi (Health-related Poverty Indicator) – Sog‘liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyati va uning kambag‘allikdagi roli.
8. Ta’limga kirish imkoniyatlari (Educational Access Indicator) – Ta’lim darajasi, o‘quv imkoniyatlari va kambag‘allikka ta’siri.

9. Oziq-ovqat xavfsizligi (Food Security Indicator) – Aholining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira olish darajasi, kambag‘allikni o‘lchashda asosiy mezonlardan biri.

10. Mehnat bozoriga kirish (Labor Market Access Indicator) – Aholining ish bilan ta’minlanganlik darajasi va kambag‘allikni baholashda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

11. Kam ta’minlangan aholi ulushi (Proportion of Poor Population) – Kam ta’minlangan aholi ulushining umumiy aholi ichidagi o‘rni. Bu ko‘rsatkich kambag‘allikning ijtimoiy darajasini ifodalaydi.

12. Kam ta’minlanganlikning tarqalishi (Distribution of Poverty) – Kam ta’minlangan aholi orasida kambag‘allikning tarqalish darajasi. Bu ko‘rsatkichning yuqoriligi kambag‘allikning keng tarqalganligini bildiradi.

13. Aholining daromad taqsimoti (Income Distribution of Population) – Daromadning aholi o‘rtasida taqsimlanish darajasi. Kam ta’minlanganlik bu ko‘rsatkichda ko‘rsatilgan adolatsiz taqsimot orqali o‘lchanadi.

8. Gini koeffitsienti (Gini Coefficient) – Daromadlar taqsimotining tengsizlik darajasini o‘lchovchi ko‘rsatkich. Kambag‘allikni o‘lchashda adolatli taqsimotning qanchalik buzilganligini aniqlash uchun ishlatiladi.
9. Tenglik o‘lchovi (Inequality Measures) – Jamiyatdagi tengsizlikni va kambag‘allikni o‘lchashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar, masalan, Palma koeffitsienti.

10. Yashash darajasi (Standard of Living) – Insonning yashash sharoitlarini baholashda ishlatiladigan ko‘rsatkichlar. Bu, birinchi navbatda, odamlarning asosiy ehtiyojlarini qondirish darajasini o‘lchaydi.

11. Milliy iqtisodiy siyosat (National Economic Policy) – O‘zbekiston hukumatining kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatlari va chora-tadbirlari. Bu siyosatlarda o‘sish va rivojlanishning teng taqsimlanishi, daromad taqsimoti va ijtimoiy himoya masalalari muhim o‘rin tutadi.

12. Bandlik siyosati (Employment Policy) – Aholining ish bilan ta’minlanganligini oshirishga qaratilgan siyosat. O‘zbekistonning bandlikni ta’minlash, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish va ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlari.

13. Ta’lim va malaka oshirish (Education and Skill Development) – Kambag‘allikni qisqartirishda ta’lim tizimi va aholi malakasini oshirishning o‘rni. O‘zbekiston ta’lim tizimining modernizatsiyasi va kasb-hunar ta’limining ahamiyati.

14. Qishloq joylaridagi iqtisodiy rivojlanish (Rural Economic Development) – Qishloq hududlarida kambag‘allikni kamaytirish uchun iqtisodiy rivojlanish dasturlari, agrar sektordagi islohotlar va qishloq aholisining daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

15. Davlatning moliyaviy siyosati (Government Financial Policy) – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan moliyaviy siyosatlar, masalan, byudjetdan ajratmalar, ijtimoiy dasturlarga mablag‘ ajratish.

16. Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik (Social and Economic Stability) – O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlash orqali kambag‘allikni kamaytirish. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy tinchlik, investitsiya muhitining yaxshilanishi va iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlashni anglatadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Kambag‘allikni qisqartirishda qanday iqtisodiy siyosatlar samarali bo‘lishi mumkin?
2. Kambag‘allikni qisqartirish uchun davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy dasturlar qanday?
3. Kambag‘allikni qisqartirishda ta’lim va malaka oshirishning ahamiyati qanday?
4. Kambag‘allikni qisqartirish uchun bandlik va ish o‘rinlari yaratishning qanday strategiyalari mavjud?
5. Qishloq hududlarida kambag‘allikni qisqartirish uchun qanday maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda?
6. Kambag‘allikni qisqartirishda sog‘liqni saqlash sohasining roli qanday bo‘ladi?

7. Kambag‘allikni qisqartirishda mikrokreditlash va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash qanday o‘rin tutadi?

8. Davlatning soliq siyosati kambag‘allikni qisqartirishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

9. Kambag‘allikni qisqartirishda iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish qanday usullar bilan amalga oshirilishi mumkin?

10. Kambag‘allikni qisqartirishda xalqaro tashkilotlar va donor mamlakatlar bilan hamkorlikning ahamiyati qanday?

XIV BOB. KAMBAG‘ALLIKKA QARSHI KURASH STRATEGIYASI

14.1.Kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasi va maqsadli ijtimoiy dasturlar.
14.2.Qashshoqlikni bartaraf etishda ish bilan bandlikning ahamiyati.

14.1. Kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasi va maqsadli ijtimoiy dasturlar

Kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasi kam ta’minlangan uy xo‘jaliklarining xususiyatlari, jamiyat hayotida ishtirok etishda iqtisodiy-ijtimoiy to‘siqlar va rivojlanish istiqbollarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur. Buning muvaffaqiyati makroiqtisodiy va mikro darajadagi siyosatga asoslanadi.

Inklyuziv biznes modellarini ishlab chiqish

Dunyoda kam ta’minlangan qatlamlar uchun energiya, suv ta’minoti, kanalizatsiya va axborot texnologiyalari kabi sohalarda qondirilmagan ehtiyojlar mavjud. Rivojlangan iqtisodiyotlarda kam ta’minlangan guruhlar ishtirokidagi bozor segmentlarining jozibadorligi oshmoqda. Kambag‘allar iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shishlari mumkin. Shu sababli, ta’lim va zarur bilimlar ko‘nikmalarini rivojlantirishga investitsiya kiritish muhimdir.

Inklyuziv biznes modellarini bozor sharoitlariga moslashtirish, arzon mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilish, shuningdek, ularning faol reklama qilinishi talab etiladi. Bu jarayonlar orqali kambag‘allarning ehtiyojlarini qondirish va arzon tovarlar yaratish mumkin.

Davlat va biznes o‘rtasida muloqot

O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi inklyuziv biznes uchun to‘siqlarni yengib o‘tishda davlat organlari va biznes vakillari o‘rtasida muloqotni tashkil etishi zarur. Buning uchun investitsiya imkoniyatlarini ilgari surish, rivojlanmagan bozorlarni aniqlash va inklyuziv biznesning xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha treninglar o‘tkazish tavsiya etiladi.

Davlatning tarkibiy islohotlari

Yalpi ichki mahsulot o‘sishi yuqori bo‘lgan davlatlar kambag‘allikni kamaytirishda muvaffaqiyatga erishmoqda, lekin iqtisodiy o‘sishning tengsizlikni oshirishi mumkin. Davlat aralashuvi ish bilan ta’minlash, soliqqa tortishning progressiv turi va ijtimoiy xarajatlar siyosatini o‘z ichiga olishi lozim. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ayollarni ish bilan ta’minlash dasturini rivojlantirish, maktabgacha ta’lim tizimini yaxshilash va yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rishi maqsadga muvofiqdir.

Sanoat siyosati

Rivojlanayotgan davlatlarda malakasiz ishchi kuchining ko‘pligi va moliyaviy resurslar yetishmasligi tendentsiyasi ustunlik qilmoqda. Qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va yengil sanoat, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish turlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mehnat talab qiladigan tarmoqlarni rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli dasturlarni qabul qilishi zarur.

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, xususan, aloqa va axborotlashtirish, maishiy xizmatlar, bank va biznes xizmatlarida (konsalting, audit, lizing, sug‘urta va boshqalar) kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tadbirkorlarga xizmat ko‘rsatish, mahsulotlarni tayyorlash va saqlash, qishloq xo‘jaligi texnikalariga xizmat ko‘rsatish, chorva uchun ozuqani sotish, o‘g‘itlar va o‘simliklarni himoya qilish xizmatlari, veterinariya xizmatlariga alohida e’tibor qaratish lozim.

Qishloq joylarda xizmatlarni rivojlantirish

Qishloq joylarda xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar sifatida xizmat ko‘rsatuvchi provayderlarning statistik ma’lumotlar bazasini (reestrlarini) takomillashtirish muhimdir. Shuningdek, mahalliy kam ta’minlangan oilalarni jalb etgan holda ekoturizmni rivojlantirish dasturlarini qabul qilish imkoniyati mavjud.

Qishloq xo‘jaligiga oid siyosat

Qishloq xo‘jaligi ekinlarini chuqur qayta ishlash va rivojlangan mamlakatlarning bozorlariga eksport qilish salohiyati mavjud. Bu qishloq xo‘jaligidagi hosildorlikni oshirish, daromadlarni ko‘paytirish va qishloq aholisining turmush sharoitini yaxshilashga yordam beradi. Shu asosda:

- Qishloq xo‘jaligi uchun zarur infratuzilmani rivojlantirish: ilg‘or mamlakatlar tajribasini o‘rganish va innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va usullar bilan almashish tizimini yaratish.
- Janubiy Koreyaning "Yangi qishloq uchun harakat" loyihasi kabi muvaffaqiyatli tajribalarni o‘rganish va mintaqada maxsus iqtisodiy zonalarni yaratish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish.

Xitoy va Hindiston tajribalarini hisobga olib, agrar islohotlarni kichik fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qayta ishlash va sotishni yengillashtirishga yo‘naltirish zarur. Buning uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha kooperativlar ishini rivojlantirish va zarur texnologiyalarni jalb qilish jarayonini yengillashtirish lozim.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish

Axborot texnologiyalarini keng joriy qilish, ta’lim va tibbiy xizmatlarni mobil telefonlar orqali taqdim etish tizimini yaratish, smartfonlar uchun o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadida darsliklar va dasturlar jamlangan ma’lumotlar, intellektual o‘yinlar tizimini joriy etish muhimdir.

Innovatsion potentsialni rivojlantirish

Innovatsion potentsialni rivojlantirish va ijodkorlikni rag‘batlantirishda quyidagi jihatlar inobatga olinishi kerak:

- Ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflanadigan xarajatlarni ko‘paytirish.
- Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag‘batlantirish.
- Nashr etilgan ilmiy nashrlar qatorini kengaytirish.
- Ekspert-maslahat tuzilmalarini rivojlantirish.

Aholi tomonidan zarur buyumlar va xizmatlarni topishda sarf-xarajatlar va vaqt xarajatlarini kamaytirish uchun ijaraga berish xizmatlarini joriy etish va narsalarni almashish uchun maxsus Internet-saytlar sinfini joylashtirish bo‘yicha milliy dasturni ishlab chiqish zarur.

Mintaqaviy siyosat

Mintaqaviy siyosat har bir mintaqaning o‘ziga xos kambag‘allik profillarini o‘rganishni va ularni bartaraf etish uchun aniq choralar ishlab chiqishni talab qiladi. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi kabi kam ta’minlanganlik darajasi yuqori bo‘lgan mintaqalar uchun chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilishi muhimdir. Bunda quyidagi omillarni hisobga olish lozim:

- Past iqtisodiy rivojlanish: Qoraqalpog‘istonning iqtisodiy rivojlanish darajasi pastligi, ish o‘rinlari va daromad manbalarining cheklanganligi muammolarni keltirib chiqaradi.
- 16 yoshgacha bo‘lgan aholining ulushi: Yosh avlodning katta ulushi, ularning ta’lim va ish bilan ta’minlanishi masalalarini dolzarb qiladi.
- Ishsizlik darajasining yuqoriligi: Mintaqada ishsizlikning yuqori darajasi, aholi farovonligini pasaytiradi va kambag‘allikni oshiradi.
- Daromadlarning beqarorligi: Daromadlarning o‘zgaruvchanligi, aholi turmush sharoitlarini yanada murakkablashtiradi.

Ushbu omillarni hisobga olgan holda, ish tutish choralari samaradorligini oshirish mumkin.

Uy-joy qurilishi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi shaharlarda arzon uy-joy qurilishi bo‘yicha respublika dasturini qabul qilishi va ipoteka kreditlash tizimini rivojlantirishi zarur. Bunda quyidagi chora-tadbirlar ko‘rilishi kerak:

- Rejalashtirish va ishlab chiqish jarayonida ma’muriy xarajatlarni kamaytirish**:** Bu uy-joy qurilishi jarayonini tezlashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi.
- Uy-joy narxini pasaytirish: Arzon uy-joylar aholi uchun yanada qulay bo‘ladi.
- Er narxini pasaytirish: Er narxining pasayishi, uy-joy qurilishi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.
- Qurilish sanoatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish**:** Xorijiy investitsiyalar qurilish sohasini rivojlantirishga yordam beradi.
- Ipoteka kreditlash va jamoaviy kassalar imkoniyatlarini oshirish: Ipoteka tizimini rivojlantirish aholi uchun uy-joy sotib olishni osonlashtiradi.
- Foiz stavkalari va dastlabki badalning ulushini kamaytirish: Bu, uy-joy xarid qilishni yanada qulaylashtiradi.
- Fuqarolar tomonidan jamg‘arma badallari shaklida uy-joy uchun mablag‘larni maqsadli yig‘ish mexanizmini yaratish: Bu aholi uchun uy-joy olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Uy-joy kommunal xo‘jaligini modernizatsiya qilish dasturi

Uy-joy kommunal xo‘jaligini modernizatsiya qilish dasturini qabul qilish zarur:

- Xizmatlarga narxlarning doimiy oshib ketishining oldini olish: Bu aholi uchun xizmatlarning arzon va sifatli bo‘lishini ta’minlaydi.
- Qishloq aholisining toza ichimlik suvi bilan ta’minlash: Toza ichimlik suvi aholi salomatligi uchun muhimdir.
- Elektr energiyasi va gazdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish**:** Energiya manbalarining uzluksiz yetkazib berilishi aholi farovonligini oshiradi.
- Qish mavsumida uzluksiz yetkazib berishni ta’minlash: Qish mavsumida energiya resurslarining uzluksiz ta’minlanishi zarur.

Axborot siyosati

Qishloq aholisining xabardorligini oshirish maqsadida yangi harakatlarni yaratish zarur. Bu harakatlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarga qaratilishi kerak:

1. Gigiena qoidalariga rioya qilish: Aholini gigiena qoidalari va sanitariya talablariga rioya qilishga o‘rgatish, ularning sog‘lig‘ini saqlash va kasalliklar tarqalishini oldini olish uchun muhimdir. Odamlar o‘z salomatliklarini himoya qilish uchun toza va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini tanlashlari kerak.

2. Antisanitar sharoitda o‘stirilgan mahsulotlardan foydalanmaslik: Aholiga antisanitar sharoitlarda o‘stirilgan oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanmaslikning zarurligini tushuntirish va ularni xavfsiz va sifatli

mahsulotlar sotib olishga undash kerak. Bu, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va salomatlikni yaxshilashga yordam beradi.

3. Mikroelementlarga boy oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish: Qayta ishlangan va mikrooziqaviy moddalarga boy oziq-ovqat mahsulotlarini (masalan, bolalar uchun oziq-ovqat, temir va boshqa mikroelementlar bilan boyitilgan mahsulotlar) sotib olish orqali aholi o‘z salomatligini yaxshilashi va davolanish uchun katta pulni tejashi mumkinligini keng targ‘ib qilish zarur. Misol sifatida: Chilida sut kukuni mikroelementlar, xususan, temir bilan boyitilgan, bu kamqonlikni tarqalishini uch yil ichida 80 foizga kamaytirgan. Bunday tajribalar qishloq aholisiga ham tatbiq etilishi mumkin.

4. Ixtisoslashgan treninglar o‘tkazish: Odamlarning daromadini oshirish va ovqatlanishni yaxshilash maqsadida ixtisoslashgan treninglar uyushtirish zarur. Ushbu treninglar davomida aholi mikroelementlar bilan boyitilgan mahsulotlarni tayyorlash va iste’mol qilish bo‘yicha ma’lumotlar berilishi kerak.

5. Biofortifikatsiya investitsiyalarini rag‘batlantirish: Oziq-ovqat mahsulotlarini boyitish va ularni sifatini oshirish uchun biofortifikatsiya investitsiyalarini rag‘batlantirish aholi salomatligini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Bu orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va qishloq aholisining turmush sharoitlarini yaxshilash mumkin.

Ushbu chora-tadbirlar qishloq aholisining xabardorligini oshirish va ularning salomatligini yaxshilashga yordam beradi. Buning natijasida, aholi o‘z salomatligini saqlash va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

14.2.Qashshoqlikni bartaraf etishda ish bilan bandlikning ahamiyati

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat siyosati.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta’minlash, ishsizlikni bartaraf etish va mehnat bozorini tartibga solish bo‘yicha faol ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib boradi. Bu jarayonlar milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo‘shilish uchun muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati.

Yurtimizda mehnat bozorini yaxshilash va aholi turmush sharoitlarini oshirish maqsadida bir qancha qonunlar va farmonlar qabul qilinmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017−2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi” doirasida aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu strategiyaning 4-bo‘limi “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb

nomlanib, unda ijtimoiy himoya va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan maqsadlar ko‘zda tutilgan.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmonda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” belgilab berilgan. Ushbu strategiyada ham aholini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Ayniqsa, strategiyaning 4-bo‘limi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlanib, bu bo‘lim o‘z ichiga 37-70-maqsadlarni oladi. Bu maqsadlar orqali aholi turmush darajasini oshirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy himoyani kuchaytirish ko‘zda tutilgan.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati mehnat bozorini tartibga solish, ishsizlikni kamaytirish va aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan. Qabul qilingan qonun va farmonlar orqali davlat aholini qo‘llab-quvvatlash va mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni ta’minlashga intilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi asosiy muammo va to‘siqlarni aniqlash hamda kambag‘allikka qarshi kurash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilab olish maqsadida 2021-2030-yillarda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha milliy strategiya loyihasini ishlab chiqdi.

Agar raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2020-yilning dastlabki hisob-kitoblariga ko‘ra, aholi umumiy daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan kelgan tushumlar ulushi 71,5 foizni, shundan 69,3 foizi mehnat faoliyatidan olingan, 2,1 foizi shaxsiy iste’mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlarni tashkil etgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy ish joyidan beriladigan ish haqi aholining aksariyat qismi uchun yetakchi daromad manbai hisoblanadi. Aks holda, u funksional rolini bajara olmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda ish haqi aholi jami daromadining 60-80 foizini tashkil etadi, ya’ni ularning me’yoriy hayot faoliyatini ta’minlash asosi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, Shvetsiyada ish qidirayotganlarning qariyb 35 foizi ish bilan bandlik xizmati bilan aloqaga kirishadi. Fransiyada ish qidiruvchilarning qariyb 15 foiz, AQSHda esa 5 foizga yaqini ular xizmatidan foydalanadi. Hisoblarga ko‘ra, ish qidiruvchilarning ko‘pchiligi (50 foizdan ortigi) ish joylari haqidagi axborotlarni do‘stlari yoki qarindoshlaridan oladi.

Agar MDH mamlakatlarining aholi daromadlari tarkibini ko‘radigan bo‘lsak, yollanma ishchilarning ish haqi sifatida olgan daromadlari Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasida 55 dan 69 foizgacha bo‘lsa, Qirg‘izistonda 40 foiz atrofida, O‘zbekistonda 28,8 foizni

tashkil etadi. Mol-mulkdan kelgangan tushumlar 3,0 foizni, transfertlardan olingan daromadlar 25,5 foizga teng bo‘lgan.

Daromad o‘lchamlarining miqdoriy va sifatiy o‘zgarishi va taqsimlanish tamoyillarining o‘zgarishi umuman iqtisodiyot, daromadlar nazariyasi sohasi bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganilishi kerak. Ushbu daromadlarning notekis taqsimlanishi natijasida aholida har-xil tabaqalanishlar paydo bo‘lishi mumkin. Mana shu masalani hal qilishda davlatning roli katta hisoblanadi. Ya’ni, aholining kambag‘allik darajasini pasaytirish davlatning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Shu o‘rinda, kambag‘allik aholining kam ta’minlanishini ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan bir nechta sabablarga asoslangan bo‘lishi mumkin:

1**.** Iqtisodiy holat: Aholining iqtisodiy yetishmovchiligi va yashash sharoitlari kambag‘alikni keltirib chiqarishi mumkin. Ya’ni, kam darajadagi iqtisodiy daromad, ishsizlik, minimum darajada yashash va boshqa iqtisodiy omillar bu boradagi sabablarga misol bo‘lishi mumkin.

2. Siyosiy muhit**:** Mamlakatda siyosiy va ijtimoiy qiyinchiliklar, siyosiy tangliklar yoki nomutanosib ijtimoiy muhit kam ta’minlanishga olib kelishi mumkin.

3. Ta’lim tizimi**:** Yaxshi ta’lim tizimi, o‘quv yurtlarining yaxshi tuzilishi, o‘quv materiallarining yuqori sifati kambag‘allik darajasini pasaytirishi mumkin.

4. Sog‘liqni saqlash**:** Kam ta’minlangan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lishi, yaxshi tibbiy xizmatlarni ta’minlashda qiyinchiliklar paydo bo‘lishi mumkin va boshqalar.

Kambag‘allik tushunchasiga aniqlik kiritish uchun oila xarajatlarida oziq-ovqat mahsulotlariga sarflanadigan xarajatlar ulushi muhim ahamiyatga ega. Agar bir oilaning oziq-ovqatga sarflanadigan xarajatlari 50 foizdan ortiq bo‘lsa, bunday oilalar kambag‘allar qatoriga kiritiladi. Bu ko‘rsatkich, oila farovonligini baholashda muhim omil hisoblanadi. Masalan, boy oilalarda oziq-ovqat uchun sarflanadigan xarajatlar 5-6% ni tashkil etadi, bu esa ularning iqtisodiy holati yaxshiligini ko‘rsatadi.

Kambag‘allik indeksi daromadlarning iste’molga nisbati bo‘yicha aniqlanadi. BMT tashkiloti tomonidan belgilangan me’yorlarga ko‘ra, kuniga 1,25 dollardan kam daromad bilan yashovchi aholi kambag‘allar guruhiga kiritiladi. Bu ko‘rsatkich kambag‘allikni o‘lchashda global darajada qabul qilingan standartlardan biridir.

Bizda daromadlarning yashash minimumi bilan o‘zaro nisbati bo‘yicha kambag‘allikning uch shaklini ajratib o‘tsak bo‘ladi:

1. Kambag‘allik: Daromadlar yashash minimumi budjetining oziq-ovqat qismi qiymatini ta’minlamaydi. Bunday holatda oilaning oziq-ovqat xarajatlari ularning umumiy daromadidan ancha yuqori bo‘ladi.

2. Qashshoqlik: Daromadlar yashash minimumi darajasida. Bunday oilalar, zaruriy ehtiyojlarini qondirishda qiynalishadi, lekin minimal yashash sharoitlarini saqlab qolish imkoniyatiga ega.

3. Kam ta’minlanganlik: Daromadlar yashash minimumi budjetidan oshib ketadi, lekin minimal iste’mol budjetigacha yetib bormaydi. Bu oilalar, zaruriy ehtiyojlarni qondirishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Kambag‘allik darajasini pasaytirish uchun davlat va jamiyat tomonidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Bu chora-tadbirlar, aholini ish bilan ta’minlash, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida yaxshilanishlar, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Kambag‘allikni kamaytirish, nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki aholi farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Shu tariqa, kambag‘allik tushunchasi va uning o‘lchovlari, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, davlatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Mana shu kambag‘allik darajasini pasaytirish natijasida aholi farovonligi darajasi oshib boradi. Aholi farovonligi deganda nimani tushunishimiz mumkin. Buni quyidagicha izohlashimiz mumkin.

“Aholi farovonligi” ifodasi, bir mamlakat yoki hududdagi odamlar umumiy ravishda xursand va qoniqtirilgan bo‘lishi ma’nosini anglatadi. Aholi farovonligi oshishi uchun bir nechta muhim omillar mavjud bo‘lishi kerak:

1. Iqtisodiy farovonlik: Bo‘sh ish o‘rinlarining mavjudligi, daromadning barqaror bo‘lishi, inflyatsiya darajasining past bo‘lishi va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlar aholi farovonligiga xizmat qilishi muhimdir.

2. Sog‘liq va tibbiyot: Yuqori sifatli tibbiy xizmatlar aholi farovonligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

3. Ta’lim tizimi: Sifatli va mavjud ta’lim tizimi, shuningdek, umumiy ta’lim yoki kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlari, aholining ma’naviyatini va uning rivojlanishini oshirishda katta rol o‘ynaydi.

4. Ijtimoiy birlashuv va adolat: Aholi farovonligi uchun barcha jamoat a’zolari o‘rtasida adolat, barqarorlik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish muhimdir.

5. Tabiiy resurslar va ekologiya: Tabiiy resurslarning sifati va ekologik xavfsizlik aholi farovonligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

6. Siyosiy xavfsizlik: Barqaror siyosiy tizim, davlatning adolatli boshqarilishi va xavfsizlik tajribasi ham aholi farovonligi uchun muhimdir. Bu omillar birgalikda, aholi farovonligini oshirishga yordam beradi va mamlakatning umumiy salomatlik, tinchlik va rivojlanish darajasini ta’minlaydi.

Shu o‘rinda, aholining iqtisodiy kam ta’minlanishiga olib keladigan sabablarni quyidagi ko‘rinishda ta’riflash mumkin:

1. Ishsizlik: Kam ish o‘rinlari, ish yo‘qligi yoki ish o‘rinlariga kirish uchun imkoniyatlarning kamligi ishsizlikka olib kelishi mumkin.

2. Daromadning barqaror bo‘lishi: Aholi uchun barqaror daromad olish qiyin bo‘lishi, yangi iqtisodiy faoliyat turlari rivojlanishi qiyinliklarga duch kelishiga olib kelishi mumkin.

3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini olib borishga qiyinchiliklar: Aholi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi tadbirkorlik imkoniyatlari yaratish va boshqa iqtisodiy faoliyatni olib borish uchun qiyinchiliklarning mavjudligi.

4. Sarmoyadorlik imkoniyatlari va moliya tizimi: Kam sarmoyadorlik imkoniyatlari, bank tizimining yaxshi ishlashini ta’minlash va moliya tizimi bo‘yicha muammo yuzaga kelishi mumkin.

5. Ta’lim tizimi**:** Malakali kadrlarning kamligi va sifatsiz ta’lim tizimi, soha bo‘yicha ko‘nikmalarning kamligi, o‘quvchilar o‘rtasida bilimsizlik darajasining yuqori bo‘lishi shu tizimda muammo yaratishi mumkin.

Bu sabablarning har biri mamlakatning iqtisodiy holatini ta’sir qilishi mumkin va aholining iqtisodiy kam ta’minlanganligini kamaytirib borishi uchun tadbirlar kerak bo‘ladi. Bu tadbirlar iqtisodiy siyosatning rivojlanishi, tadbirkorlikni rag‘batlantirish, ish o‘rinlarini rivojlantirish ta’lim tizimini mustahkamlash va boshqa sohalarni takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Mana shu kabi muammolarni ijobiy hal qilishda bevosita iqtisodiy faol aholining roli katta hisoblanadi. Iqtisodiy faol aholi deganda quyidagilarni tushunishimiz mumkin.

“Iqtisodiy faol aholi” ifodasi, insonlar tomonidan iqtisodiy sohada o‘zlarini faol ravishda olib borish, ishlab chiqish va tijorat faoliyatlarida ishtirok etish va mamlakatni iqtisodiy rivojlanishda o‘z hissasini oshirishi hisoblanadi. Iqtisodiy faol aholi, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va barqarorligi uchun muhimdir. Iqtisodiy faol aholining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Kasbiy bilim va ko‘nikmalar: Iqtisodiy faol aholi, o‘zlarini malakali kasbiy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi. Ular yangi texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy faoliyatlarini rivojlantirishadi.

2. Sarmoyadorlik: Faol aholi sarmoyadorlik faoliyatlarida ishtirok etadi, yangi tadbirkorlik sohalarini ochadi va sarmoyadorlikni rivojlantirishadi.

3. Ish joylarida faol ishtirok: Iqtisodiy faol aholi, ish joylarida faol ishtirok etadi va o‘zlarini rivojlantirish, yaxshi daromad olish va tajribani oshirish uchun harakat qiladi.

4. Tadbirkorlik va biznes faoliyat: Faol aholi tadbirkorlik sohasida faol ishtirok etadi, yangi tadbirkorlik imkoniyatlari yaratadi va biznes faoliyatlarini rivojlantiradi.

5. Iqtisodiy ma’naviyat: Faol aholi, iqtisodiy ma’naviyatga ega bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini oshirish uchun o‘z hissasini qo‘shadi.

6. Ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish: Iqtisodiy faol aholi, ijtimoiy tadbirlarda faol qatnashadi, jamiyatni rivojlantirish uchun maqsadlar qo‘yadi.

7. Savdo-sotiq va tijorat faoliyatlarida ishtirok: Faol aholi savdo-sotiq va tijorat sohasida faol ishtirok etadi, shu maqsadda mamlakatni xalqaro bozorda integratsiyalashish jarayonida faol qatnashadi.

Iqtisodiy faol aholi, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Ular tadbirkorlik, ishsizlikni kamaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, yangi sarmoyalar tashkil etish va mamlakatni xalqaro bozorda ma’lum bir darajada integratsiyalash uchun o‘z hissasini qo‘shadi. Shu o‘rinda quyidagi 14.1-diagrammaga e’tibor qaratib o‘tmoqchimiz.



14.1-diagramma. 2022-yilda iqtisodiy faol aholining faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi.

Ushbu diagrammada 2022-yilda iqtisodiy faol aholining faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi tasvirlangan. Iqtisodiy faol aholining eng ko‘p qamrab olgan qismi bu qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi bo‘lib, unda faol aholining 25% qismi shu sohalarda band aholidir. Keyingi o‘rinda, sanoat sohasi hisoblanib, ushbu sohada bandlar 13 % ni tashkil qiladi. Iqtisodiy faol aholining 11 % qismi esa savdo sohasida bandlar hisoblanadi. 10 % qismi esa qurilish sohasida bandlar hisoblanadi. Ta’lim sohasida bandlar 9 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida 5 % qismi, hamda tashish va saqlash sohasida ham 5 % qismi band hisoblanadi. Qolgan qismi, ya’ni 22 % qismi iqtisodiy faoliyatning boshqa sohalarida band bo‘lgan aholi hisoblanadi. Ushbu iqtisodiy faol aholining iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida band bo‘lib, ular o‘z navbatida o‘z oilasining

va qolaversa davlatning daromadlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa, xalq farovonligiga zamin yaratmoqda.

Shu o‘rinda shuni ham ta’kidlab o‘tishimiz mumkinki, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha nimalar belgilanmoqda? Bunda yangi moliyaviy instrumentlar joriy etish orqali kambag‘al aholining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilib, imtiyozli kredit va subsidiyalar berish tizimi takomillashtiriladi. Joriy 2023-yilning avgust oyi boshida “O‘zbekiston-2030” strategiyasida mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan takliflar bildirilgandi. 2023-yilning so‘nggigacha esa vazirlik xitoylik mutaxassislar va xalqaro tashkilotlar bilan 2024−2030-yillarga mo‘ljallangan kambag‘allikni qisqartish bo‘yicha strategiyani ishlab chiqishi belgilab berildi. 2026-yilgacha kambag‘allikni 2 barobarga, 2030-yilgacha esa keskin qisqartirish, kambag‘allikka tushish xavfi mavjud 4,5 mln aholi daromadini oshirish, hamda mehnat qobiliyatini ishga solish orqali 3 mln yoshlarni kambag‘allikdan chiqarish belgilanmoqda. Har bir viloyatda kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan bittadan jami 14 ta tumanni kambag‘allikdan chiqarish va kompleks rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqilib, tasdiqlanadi.

Mazkur 14 ta tumanda Xitoy tajribasi va yangi yondashuvlar, innovatsion hamda “yashil” texnologiyalar, shuningdek, boshqaruvning yangi usullarini qo‘llagan holda kambag‘allikdan chiqarish usullari joriy etiladi. Yangi moliyaviy instrumentlar joriy etish orqali kambag‘al aholining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilib, imtiyozli kredit va subsidiyalar berish tizimi takomillashtiriladi.

Ehtiyojmand aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qulay shartlarda qo‘llab-quvvatlash maqsadida raqamli “Mikromoliya” tashkiloti tashkil etiladi.Bundan tashqari xotin-qizlarning ta’lim olishi, kasbiy ko‘nikmalarni egallashi va munosib ish topishga ko‘maklashish, tadbirkorligini rivojlantirish tizimini takomillashtirishga oid hukumat qarori loyihasi ishlab chiqiladi.Unga ko‘ra, joriy yilning so‘ngigacha tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar taqdim etiladi.

Bunga qo‘shimcha ravishda buyurtma asosida ishsiz va ish qidiruvchi xotin-qizlarni davlat yoki nodavlat ta’lim tashkilotlarida hamda tayyorlov kurslarida maqsadli o‘qitish tizimi joriy etiladi. Shuningdek, 2024-yildan og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarni qayta kasbga tayyorlash xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish tartibi belgilanmoqda. 2024-yildan bosqichmabosqich barcha shahar va tumanlarda “Mahalla budjeti” tizimi joriy etilishi belgilangan. Bunda, tuman va shahar budjetlariga tushadigan soliq tushumlarining bir qismi mahallalarning ijtimoiyiqtisodiy muammolarini hal qilish jamg‘armalariga yo‘naltiriladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga hosilni sug‘urtalashda sug‘urta mukofotining 50%i miqdorida subsidiya beriladi. “Izlanish va rivojlanish” markazlari tashkil etilgan kundan 3 yil muddatga mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha hisoblangan summa miqdorining 1%ini to‘lash, ularning xodimlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1% miqdorida hisoblash tartibi joriy qilinadi. Yana shu ham ta’kidlab o‘tishimiz joizki, “Mahallabay” ishlash tizimini yo‘lga qo‘yib, alohida dasturlar ishlab chiqilgani hisobiga mamlakatda kambag‘allik darajasi 17%dan 14%ga tushib, 347 ta mahalla kambag‘allikdan holi, 1,5 mingga yaqin mahalla esa ishsizlik bo‘lmagan hududga aylangan. Ushbu iqtisodiy-siyosiy tadbirlarning barchasi mamlakatimiz aholisining yashash tarzini yaxshilash va farovonligini oshirish maqsadida olib borilayotgan ilg‘or tadbirlardan biri hisoblanadi.[58]

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Kambag‘allikni kamaytirish strategiyasi – Kambag‘allikka qarshi kurashni amalga oshirish uchun davlat tomonidan ishlab chiqilgan umumiy yo‘nalish va chora-tadbirlar majmui.
2. Ijtimoiy dasturlar – Kambag‘allikni kamaytirish maqsadida davlat tomonidan ishlab chiqiladigan ijtimoiy yordam va qo‘llab-quvvatlash dasturlari.
3. Maqsadli ijtimoiy dasturlar – Kambag‘allikka qarshi kurashish uchun aniq guruhlarga, hududlarga yoki qatlamlarga mo‘ljallangan dasturlar (masalan, qishloq aholisi yoki ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlar).
4. Jamiyatni ijtimoiy himoya qilish – Aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish uchun hukumat tomonidan ko‘rsatiladigan yordam, masalan, subsidiyalar yoki nafaqalar.
5. Yashash darajasini oshirish dasturlari – Aholining turmush sharoitlarini yaxshilash, ehtiyojlarini qondirish va kambag‘allikni kamaytirish uchun amalga oshiriladigan ijtimoiy va iqtisodiy dasturlar.
6. Hukumatning kambag‘allikka qarshi siyosati – Davlatning kambag‘allikka qarshi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlari.
7. Ijtimoiy yordam tizimi – Kam ta’minlangan va ehtiyojmand aholini qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatiladigan tizim. Bu tizimda subsidiyalar, yordam pullari va boshqa iqtisodiy yengilliklar mavjud.
8. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha milliy dastur – O‘zbekistonda kambag‘allikni kamaytirish uchun ishlab chiqilgan uzoq muddatli davlat dasturi.

58 Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining” 2024−2030-yillarga mo‘ljallangan kambag‘allikni qisqartish bo‘yicha strategiya”si.

9. Mehnat bozorida islohotlar – Aholining ish bilan bandligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, shu jumladan ish o‘rinlarini yaratish va kasb-hunar ta’limini rivojlantirish.

10. Berdamlikni ta’minlash – Kambag‘allikka qarshi kurashishda ijtimoiy tenglikni ta’minlashga qaratilgan strategiya. Bu jamiyatdagi barcha qatlamlar o‘rtasida adolatli daromad taqsimotini ta’minlashni anglatadi.

11. Ish bilan bandlik – Aholining ish bilan ta’minlanishi kambag‘allikni qisqartirishda asosiy omil hisoblanadi. Ish bilan band bo‘lgan insonlar ijtimoiy himoya va boshqa yordamga muhtoj emas.

12. Bandlikni ta’minlash siyosati – Aholining ish bilan bandligini oshirish va mehnat bozorida ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan siyosat.

13. Ish o‘rinlarini yaratish – Yangi ish o‘rinlarini yaratish kambag‘allikni kamaytirishga yordam beradi, chunki odamlar o‘z daromadlarini oshirish imkoniga ega bo‘ladi.

14. Kasb-hunar ta’limi – Aholining kasb va hunar o‘rganishi orqali ularni ishga tayyorlash va mehnat bozorida talab qilinadigan mutaxassisliklarga ega qilish.

15. Bandlik va ijtimoiy himoya o‘rtasidagi aloqalar – Ish bilan bandlikni oshirish kambag‘allikni kamaytirish uchun zarur, chunki band bo‘lganlar ko‘pincha ijtimoiy yordamga ehtiyoj sezmaydi.

16. Tadbirkorlikni rivojlantirish – Aholining iqtisodiy faolligini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish.

17. Mehnat resurslarining samarali foydalanilishi – Aholining ishga joylashishi va ularning mehnat faoliyatidan samarali foydalanish kambag‘allikni kamaytirishga yordam beradi.

18. Yoshlar uchun bandlik dasturlari – Yoshlarning ish bilan bandligini ta’minlash va ularni ish o‘rinlariga joylashtirish kambag‘allikni kamaytirishda muhim o‘rin tutadi.

19. Ijtimoiy ishlarga jalb qilish – Ijtimoiy ishlarni tashkil qilish orqali odamlarning bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirishga yordam berish.

20. Ishsizlarni qayta tayyorlash – Ishsizlarni qayta malakali ishchilarga aylantirish va ularni mehnat bozoriga moslashtirish orqali kambag‘allikni bartaraf etish.

Takrorlash uchun savollar

1. Kambag‘allikka qarshi kurashning asosiy strategik yo‘nalishlari qanday?

2. Kambag‘allikka qarshi kurashda ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarining roli qanday?

3. Kambag‘allikka qarshi kurashda iqtisodiy o‘sish va ish o‘rinlari yaratish qanday ahamiyatga ega?

4. Qishloq hududlarida kambag‘allikni kamaytirish uchun qanday maxsus strategiyalar mavjud?

5. Kambag‘allikka qarshi kurashda ijtimoiy himoya tizimlarining o‘rni qanday?

6. Kambag‘allikka qarshi kurashda soliq siyosati va davlat xarajatlari qanday ta’sir ko‘rsatadi?

7. Kambag‘allikka qarshi kurashda mikrokreditlar va kichik biznesni rivojlantirishning roli qanday?

8. Kambag‘allikka qarshi kurashda atrof-muhitni himoya qilish va barqaror rivojlanish qanday ahamiyatga ega?

9. Kambag‘allikka qarshi kurashda mahalliy va global hamkorlikning o‘rni qanday?

10. Kambag‘allikka qarshi kurashda zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar qanday qo‘llaniladi?

XV BOB. KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH bo‘YICHA XORIJ TAJRIBASI

15.1. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish masalalari va xalqaro tajribalar tahlili.
15.2. Kambag‘allikni qisqartirishda Xitoy tajribasini o‘rganish.

15.1. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish masalalari va xalqaro tajribalar tahlili

O‘zbekiston hukumati so‘nggi yillarda ish o‘rinlarini yaratish, bandlikni oshirish va mehnat bozori infratuzilmasini takomillashtirishga katta e’tibor qaratdi. Masalan, 2018-yilda qabul qilingan "Yoshlar -kelajagimiz" davlat dasturi doirasida minglab yangi ish o‘rinlari yaratilgan. 1Kam ta’minlangan oilalarga beriladiganijtimoiy yordam va subsidiya dasturlari kengaytirilmoqda. Jumladan, so‘nggi yillarda ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni oshdi, bu esa qashshoqlik darajasini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Yoshlarni kasb-hunar o‘rgatish va ularni ish bilan ta’minlashorqali kambag‘allik darajasini pasaytirishga qaratilgan turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu orqali nafaqat kambag‘allik darajasini qisqartirish, balki jamiyatdagi mehnat resurslaridan samarali foydalanish ham ko‘zlangan.

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishga doir amalga oshirilgan ba’zi ishlarbo‘yicha statistik tahlillar:

Kambag‘allik darajasi: 15.1-jadvalda Jini koeffitsienti ko‘rsatilgan, bu ko‘rsatkich daromadlarning teng taqsimlanish darajasini o‘lchaydi. Jini koeffitsienti 0 va 1 orasidagi qiymatlarda bo‘ladi:

-0 koeffitsient to‘liq tenglikni (hamma bir xil daromad olishini) anglatadi.

-1 koeffitsient esa to‘liq tengsizlikni (barcha daromadni bir odam olishini) ifodalaydi.

Yillik ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqda:

-2020-yilda Jini koeffitsienti 0.276 bo‘lgan, bu O‘zbekistonda daromadlarning nisbatan teng taqsimlanishini anglatadi.

-2021-yilda bu ko‘rsatkich biroz pasayib, 0.273 ga tushgan, bu esa tengsizlikning bir oz kamayganini bildiradi.

-2022-yilda koeffitsient 0.283 ga ko‘tarilgan, ya’ni daromadlar tengsizligi biroz oshgan.

-2023-yilda ko‘rsatkich 0.288 ga yetgan, bu esa tengsizlikning yana oshganini ko‘rsatmoqda.

15.1-jadval.

Aholi daromadlarining notekis taqsimlanishi (Jini koeffitsienti), koeffitsientda

	Yillar			
	2020	2021	2022	2023
Jini koeffitsienti	0.276	0.273	0.283	0.288

So‘nggi yillarda mamlakatda yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning o‘sishi kuzatilmoqda. Misol uchun, 2023-yil yakunlariga ko‘ra, YAIM 6 % ga o‘sdi. Bu iqtisodiy o‘sish qashshoqlikni qisqartirishda muhim omil bo‘ldi.

15.2-jadval.

Yalpi ichki mahsulot hajmi (ishlab chiqarish usulida, joriy narxlarda, yillik), mlrd.so‘m3

	Yillar				2023-yilda 2020-yilga nisbatan o'sish
	2020	2021	2022	2023	
Yalpi ichki mahsulot hajmi	668038	820536.6	995573.1	1192162.5	78 %

Asosiy kapitalga investitsiyalar kambag‘allikni qisqartirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Misol uchun, 2023-yilda asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar 29% ga oshdi, bu esa ishlab chiqarish kengayishi, yangi ish o‘rinlari ko‘payishi va kelajakda kambag‘allikni qisqartirish uchun barqaror asos yaratmoqda.

15.3-jadval.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sish sur’ati, mlrd.so‘m (yillik)[59]4

	Yillar				2023-yilda 2020-yilga nisbatan o'sish
	2020	2021	2022	2023	
Asosiy kapitalga investitsiyalar	95.6	102.9	100.2	123.4	29 %

Xalqaro tajribalar tahlili:

• Xitoy tajribasi: Xitoy 1978-yildan buyon jami 700 million kishini qashshoqlikdan chiqarishda misli ko‘rilmagan muvaffaqiyatlarga erishdi. Ushbu hayratlanarli yutuqlarga qaramay, bugungi kunda ham Xitoyning milliy qashshoqlik chegarasidan pastda 56 millionga yaqin odam yashamoqda. 2020-yil mart oyida bo‘lib o‘tgan qashshoqlikni qisqartirish

[59] https://stat.uz/uz/

bo‘yicha seminarda Prezident Si Tszinpin5 Covid-19” kelishi va tarqalishiga qaramay, qashshoqlikka qarshi kurashda to‘liq g‘alaba qozonish uchun doimiy sa’y-harakatlarga chaqirdi. U shunday dedi: “Qashshoqlikni bartaraf etish maqsadlariga rejalashtirilgan tarzda erishish kerak. Biz kuchimizni ushbu qiyin vazifani hal qilishga sarflashimiz kerak”. 2020-yilgacha barcha qishloq aholisi, qashshoqlashgan qishloqlar va tumanlar qashshoqlikdan qutulishi kerak deb takidlab o‘tdi. Jamiyatning barcha qatlamlari qashshoqlikka qarshi kurashga safarbar qilingan. XKP boshchiligidagi Xitoy xalqi katta qat’iyat, favqulodda sa’y-harakatlar va maqsadli chora-tadbirlar bilan qattiq mehnat qilmoqda. Yuqoridan pastga qashshoqlikka qarshi kurash mexanizmi samarali, samarali qashshoqlikni kamaytirish strategiyasiga aylandi.

• Janubiy Koreya tajribasi: Janubiy Koreyada qashshoqlikni kamaytirish "Samarali farovonlik" deb nomlangan modelga ergashadi. Aynan shu holat tadqiqotiga ko‘ra, ijtimoiy rivojlanishni rag‘batlantirish va boylikni teng taqsimlash bilan birga barcha Koreya fuqarolari uchun asosiy turmush darajasini oshirishga harakat qiladi. Janubiy Koreyaning qashshoqlikni kamaytirishdagi muvaffaqiyati qishloq xo‘jaligi unumdorligi va qishloq turmush tarzi, eksportga yo‘naltirilgan sanoatlashtirish va urbanizatsiyaga, inson kapitaliga erta va barqaror investitsiyalarga qaratilgan chora-tadbirlarning ketma-ket kombinatsiyasi bilan bog‘liq. Janubiy Koreyada kambag‘allikni qisqartirishda ta’lim va texnologiya sektorlariga qaratilgan investitsiyalar muhim rol o‘ynadi. Bu tajriba O‘zbekistonda ta’lim va innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilinishi mumkin bo‘lgan strategiyalarni o‘rganish uchun muhimdir.

• Meksika tajribasi: 1995-yilgi iqtisodiy inqirozdan so‘ng qashshoqlikning ko‘payishiga duch kelgan Meksika hukumati qashshoqlikni kamaytirish strategiyasini bosqichma-bosqich o‘zgartirib, universal tortilla subsidiyalariga chek qo‘ydi va buning o‘rniga “PROGRESA” orqali inson kapitaliga yangi investitsiyalarni mablag‘ bilan to‘ladi. Meksikada kambag‘allikni qisqartirish uchun "PROGRESA" kabi ijtimoiy dasturlar joriy etildi, ular kam ta’minlangan oilalarga nafaqa va oziq-ovqat yordamlarini ko‘rsatdi. O‘zbekiston bu tajribadan ham foydalanishi mumkin, ayniqsa ijtimoiy yordam dasturlarini kengaytirish va samaradorligini oshirishda.

15.2. Kambag‘allikni qisqartirishda Xitoy tajribasini o‘rganish

Xitoy dunyodagieng ko’p aholiga ega mamlakat hisoblanib (1.412mlrd.)60, mamlakatdagi kambag’allik quyidagi omillar hisobiga yuzaga kelgan:

60 https://en.wikipedia.org/wiki/Demographics_of_China

-hududining yirikligi (9,597 mln. km. kv), hududlar rivojlanish darajasining nomutanosibligi, hududlarda narxlar darajasining keskin farqlarlanishi;

-mamlakat bo'yicha, ayniqsa qishloq joylarida ta'limni rivojlantirish uchun yetarli mablag'larning ajratilmaganligi sababli aholi savodxonlik darajasining pastligi;

-uy xo'jaliklarini ro'yxatga olish (xukou) tizimi bilan qishloqlardan shaharlarga migratsiyaning cheklab qo'yilganligi;

-yerga egalik qilish munosabatlarining rivojlanmaganligi, uni aholiga berish tizimidagi korrupsiya va boshqalar.

Mamlakatdagi kambag'allik darajasining kamayishi bevosita 1970-yillar so'ngida Den Syaopin rahbarligida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, bozor mexanizmlarini joriy etish, agrar sohani, xususan yerga egalik qilish tizimini isloh qilish, tashqi ochiqlik siyosatini olibborish natijasidagi barqaror iqtisodiy o'sish bilan bog'liq.

Xitoyning keng ko'lamli qashshoqlik darajasini pasaytirish uning tez iqtisodiy o'sishi sharoitida erishildi. Rasmiy statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 1979-2003-yillarda real YaIM yiliga o'rtacha 9,4 foizga o'sib, 1980 va 1990-yillarning birinchi yarmida 10 foizdan oshdi.Shahar va mintaqaviy nomutanosiblik sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, iqtisodiy o'sish, umuman olganda, aholining ko'pchiligiga, shu jumladan kambag'allarga ham foyda keltirdi va so'nggi yigirma yil ichida qashshoqlikni kamaytirishning asosiy kuchiga aylandi.

1. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish milliy islohotlari (1978-1985)

2. Kambag'allikni kamaytirish va rivojlanish milliy dasturlari (1986-1993)

3. Kambag'allikni qisqartirishning yetti yillik ustuvor dasturi (1994-2000)

4. Kambag'allikni qisqartirish Xitoyning qishloq joylarini rivojlantirish dasturi (2001-2010)

5. Kambag'allikni qisqartirishning manzilli strategiyasi (2011-2020)

15.1-rasm. Kambag'allikni qisqartirish dasturlari[61]

[61] https://stat.uz/uz/

Natijada, Xitoy 1980- yillarning ikkinchi yarmi va 1990-yillarning oxirlarida tengsizlikning kuchayishi bilan birga kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha nisbatan sekin o‘sishni kuzatdi (15.2-rasm).



15.2-rasm. Qashshoqlik darajasi, tengsizlik va o‘sish 1981-2000[62]-yillar

Ushbu bosqichda qishloq joylaridagi institusional islohotlar orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni oshirish va qishloq joylarida iqtisodiy o‘sishni ta’minlash eng muhim vazifa sifatida belgilangan.

Bu yo‘nalishdagi fundamental islohot – shartnoma doirasida uy xo‘jaliklariga qishloq joylaridagi yerlarda nimani ekish va uni qanday yetishtirishni tanlash imkoniyati berilgan. Shu bilan birga, hukumat qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olish narxlarini oshiradi, qishloq joylarida bozorlar tashkil etilib, qishloq tadbirkorligi rag‘batlantirilgan. Qishloq iqtisodiyotini yuksaltirish uchun Xitoy hukumati qishloqda ishlab chiqarish, taqsimlash tizimlari va xarid narxlarida institutsional islohotlarni boshladi. Asosiy institutsional o‘zgarish Xitoyning qishloqlarida uy xo‘jaligi mas’uliyati tizimini joriy etish bilan tavsiflangan yer islohoti edi. Qishloq xo‘jaligidagi bu o‘zgarishlar natijasida, 1978-1985-yillar oralig‘ida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish yiliga o‘rtacha 6.5 foizni, uy xo‘jaliklariga to‘g‘ri keladigan real daromadlarning yillik o‘sishi 15.2 foizni tashkil etgan.

2. Kambag‘allikni kamaytirish va rivojlanish milliy dasturlari (1986-1993).

Bu dastur doirasida asosiy e’tibor o‘ziga xos murakkabliklarga ega, kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan muammoli, chegaraviy hududlarga qaratilgan. Umumiy hisobda 332 milliy darajada kambag‘al shtatlar aniqlab olinib, ularga uch dasturlar orqali yordam ko‘rsatiladi:

- subsidiyalangan qarzlar dasturi – bunda kambag‘al aholiga o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun qarz berilib, uning bir qismi davlat tomonidan qoplangan;

- ish uchun imkoniyat dasturi – fermalar uzluksiz faoliyatini ta’minlash uchun infratuzilma (yo‘l, sug‘orish tizimlari, ichimlik suvi)ni rivojlantirish;

- davlat byudjetidan grantlar – ta’lim, tibbiy xizmatlarni yaxshilash, texnologiyalarni rivojlantirish uchun kambag‘al hududlarga mablag‘lar yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, vaziyat og‘ir bo‘lgan shtatlarga soliq imtiyozlari joriy qilingan. Kambag‘allikni kamaytirish va rivojlanish milliy dasturlari fermerlar daromadining oshishiga va kambag‘allik darajasining qisqarishiga xizmat qilgan. Bu davrda kambag‘allik darajasi 125 milliondan 80 millionga kamaygan.

3. Kambag‘allikni qisqartirishning yetti yillik ustuvor dasturi (1994-2000) Bu dastur doirasida quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borilgan:

- uy xo‘jaliklarida jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni oshirish;

- kambag‘al aholiga yerning sifatini yaxshilash, hosildorlikni oshirish va fermadan tashqari faoliyatlarini yo‘lga qo‘yishda yordam ko‘rsatilgan;

- vaziyat eng yomon bo‘lgan hududlar yo‘llar, elektr energiyasi va bozorlarga chiqish imkoniyati bilan ta’minlangan; - boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, tibbiyot xizmatlar sifatini yaxshilash uchun maktablar, shifoxonalar qurilgan, mavjudlari rekonstruksiya qilingan;

- kambag‘al deb e’tirof etiladigan shtatlar soni 592 taga oshirilib, ular okeanbo‘yi shaharlariga biriktirilgan;

-yaxshi moliyalashtirishni boshqarish, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha investitsiya tadbirlarini baholash va moliyaviy barqarorlikka e’tibor berish, kredit mablag‘larini qaytarish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mablag‘larni muqobil faoliyatga o‘tkazib yuborish;

- kambag‘allikni qiqartirishga barcha vazirlik va idoralar, tashkilotlar, mahalliy hamda xalqaro tashkilotlar jalb etilgan.

4. Kambag‘allikni qisqartirish Xitoyning qishloq joylarini rivojlantirish dasturi (2001-2010).

Bu dastur 2001-yilda boshlanib, uning doirasida avvalgi dasturlarga qaraganda yangicha yondashuvda ish olib borilgan. Bu davrda quyidagi uch yo‘nalishda ishlar tashkil etilgan:

- integrasiyalashgan qishloqlarni rivojlantirish dasturi – qishloqlar aholisining takliflari asosida loyihalar shakllantirilib, ularni moliyalashtirish uchun mablag‘lar hajmi tashqi ekspertlar va hokimiyat vakillari tomonidan belgilangan.

Bunda jahon tajribasida keng qo‘llaniladigan kambag‘al oilalarning doimiy daromad manbaini yaratish, inson kapitali sifatini oshirish hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash kabi uch vositadan foydalanilmoqda. Shu bilan birga, o‘tgan yilda ijtimoiy ko‘makka muhtoj va kam ta’minlangan oilalarga nafaqa va moddiy yordam ajratish qamrovi oshirildi. Jumladan, bola parvarishi uchun nafaqa va moddiy yordam oluvchi oilalar soni o‘tgan yil yakunida yil boshiga nisbatan ikki baravarga, ya’ni 600 ming nafardan 1,2 million nafargacha oshirildi.

Uchinchidan, Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi kabi xalqaro tashkilotlarning taklif va tavsiyalari asosida aholining minimal iste’mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish choralari ko‘rilmoqda. Mazkur uslubiyot O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim dastaklardan biri bo‘lib, ijtimoiy standartlarni belgilashda foydalaniladi.

To‘rtinchidan, o‘rta va uzoq muddatlarda kambag‘allikni qisqartirishning strategik maqsadlarini belgilash maqsadida, Jahon banki va BMT Taraqqiyot Dasturi ekspertlari bilan birga “2021—2030-yillarga qadar O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi” loyihasi ishlab chiqilib, umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Ushbu hujjatda respublikada kambag‘allikni qisqartirish uchun kompleks yondashish nazarda tutilgan bo‘lib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlar doirasida chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda:

1. Ehtiyojmand aholiga ko‘rsatiladigan yordam va xizmatlar sifatini yaxshilash: Mavjud tizimni yanada takomillashtirish maqsadida, ehtiyojmand aholiga ko‘rsatiladigan yordam va xizmatlarning turini ko‘paytirish zarur. Bu, aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.
2. Ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirish: Aholi ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy muhofaza qilishning yangi usul va mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish, kambag‘allik darajasini yanada qisqartirishga xizmat qiladi.
3. Inson kapitalini rivojlantirish: Aholining sifatli va uzluksiz ta’lim olish imkoniyatlarini oshirish, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan to‘liq

foydalanishga erishish orqali inson kapitalini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

4. Yangi resurslarni ishga tushirish**:** Hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanilmayotgan yangi resurslarni ishga tushirish, kambag‘al aholi, ayniqsa ayollar va yoshlar bandligini oshirish uchun zamonaviy mexanizmlarni joriy etish zarur.

5. Davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatini samarali ta’minlash: Hukumat tomonidan davlat va nodavlat tashkilotlarining bevosita kambag‘allikni qisqartirish borasidagi faoliyatini va amalga oshiriladigan choratadbirlar samaradorligini ta’minlash muhimdir.

6. Uy-joy sharoitlarini yaxshilash: Hududlarda kambag‘al aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash, kommunal xizmatlar va muhandislik infratuzilma obyektlaridan foydalanish darajasini oshirish, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu strategiya, O‘zbekistonning kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirayotgan harakatlarini yanada samarali qilishga yordam beradi. Har bir yo‘nalish, aholi farovonligini oshirish va kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar orqali amalga oshirilishi zarur. Bu jarayon, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

16.3. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha istiqboldagi ustuvor vazifalar

2021-yilgi Davlat dasturida iqtisodiyotni rivojlantirish, shu jumladan kambag‘allikni qisqartirish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sish poydevorini yaratishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan.

Jumladan:

a) ishsiz a’zolari bor bo‘lgan hamda “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan oilalarga dehqonchilik bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun 2021-yil 1-iyuldan boshlab:

- dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun yangi o‘zlashtirilgan, lalmi, foydalanilmayotgan yer maydonlaridan 10 sotixdan 1 gektargacha yer ajratilishi;
- ajratilgan yer maydonlari sug‘orish tizimi (artezian quduqlar, tomchilatib sug‘orish va boshqalar) hamda elektr energiyasi bilan ta’minlanishi;
- berilgan yerlarni o‘zlashtirish uchun (yer haydash, urug‘-ko‘chat xarid qilish va boshqalar) subsidiya ajratilishi belgilab berilgan.

Shu bilan birga, 2021-yil 1-aprelga qadar har bir tumanning imkoniyati va rivojlanish yo‘nalishidan kelib chiqib ehtiyojmand oilalarga dehqonchilik

bilan shug‘ullanish uchun ko‘maklashish tizimini yo‘lga qo‘yish vazifasi ko‘zda tutilgan edi.

b) Yana bir muhim jihat shundan iboratki, tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan ishsiz, shu jumladan “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarga faoliyatini boshlash uchun kerak bo‘lgan asbob- uskuna, mehnat qurollari xarid qilish uchun 7 million so‘mgacha subsidiyalar ajratilishi amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, bu orqali mazkur aholi qatlamlari biznes uchun dastlabki kapital bilan ta’minlanadi.

d) O‘zbekiston tarixida ilk marotaba milliy kambag‘allik chegarasi — Aholining minimal iste’mol xarajatlarini e’lon qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, mazkur ko‘rsatkichdan ijtimoiy siyosatni yuritishning samarali instrumenti sifatida foydalaniladi. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy kafolatlarni bir tizimga keltirilib, ular bosqichma-bosqich minimal me’yorlar darajasiga yetkaziladi.

e) Kambag‘allikni qisqartirish borasida hududlardagi haqiqiy holatga baho berish, amalga oshirilayotgan ishlar ijrosini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha 2020-yilda boshlangan ishlar mantiqan davom ettiriladi.

Xususan, har bir tuman va shahar hokimi o‘z hududida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha manzilli dasturni ishlab chiqib, uning ijrosi bo‘yicha har chorakda mahalliy Kengashlar hamda ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa hisobot berib borish tizimi joriy etiladi. Alohida ta’kidlab o‘tish joizki, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar samarasini Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining hokimlar faoliyatiga baho berish reytingiga integratsiya qilinadi.

f) Ishsiz fuqarolar, kambag‘al oila a’zolariga ularning bandligini ta’minlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida berilayotgan moddiy yordam va subsidiyalar samaradorligini oshirish maqsadida mutlaqo yangicha tizim — ijtimoiy shartnoma tizimi joriy yildan boshlab amaliyotga tadbiq etiladi.

Mazkur tizim orqali:

- ishsiz, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga bandligini ta’minlash va moddiy ko‘mak berish maqsadida ajratilayotgan subsidiya, grant, nafaqa va boshqa to‘lovlardan foydalanish bo‘yicha fuqaroning majburiyatlari belgilab beriladi;
- fuqaroning ijtimoiy shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish ustidan monitoring tizimi o‘rnatiladi va davlatdan yordam olgan fuqaroning “shaxsiy profili” yaratiladi;
- ijtimoiy shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajargan fuqarolarni rag‘batlantirish, bajarilmagan holatlarda esa ularning ijtimoiy mas’uliyati belgilanadi;

- ijtimoiy shartnoma tizimi tajriba tariqasida sinovdan o‘tkazilib, natijalari bo‘yicha respublikaning barcha tuman (shahar)larida tatbiq etiladi.

g) 2021-yilda kambag‘al va ishsiz fuqarolarni doimiy daromad manbai bilan ta’minlash va mehnat faolligini oshirish maqsadida ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish tizimi to‘liq joriy etilib, o‘qishga jalb qilingan fuqarolar qamrovi kengaytiriladi. Ushbu maqsadlarda qator amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Jumladan, unda: 70 ming nafar ishsiz fuqaroni 40 turdagi kasb-hunarga o‘qitish; 39,6 ming ishsiz fuqaroni tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish; 50 ming fuqaroni tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi uchun chet tillariga o‘qitish;

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil fevraldagi parlamentga murojaatida ilk bor O‘zbekiston aholisining kambag‘al qatlami haqida so‘zladi. U respublika aholisining 12-15 foizi kambag‘al ekanini, ularning umumiy soni 4,5-5 million nafarligini ta’kidladi. Pandemiya va uning salbiy oqibatlari mamlakatda kambag‘allik darajasi yanada ortishiga olib keldi. Ayni paytda, bu bo‘yicha yangi hisob-kitoblar ma’lum qilinganicha yo‘q.

Hisob-kitoblar natijasida, kambag‘al deya ta’riflanayotgan aholining kunlik daromadi 10-13 ming so‘mni tashkil etishi ma’lum bo‘ldi. Biroq, aholining minimal iste’mol xarajatlari qanchaligi e’lon qilinmayapti. Dunyo miqyosida aholi turmush darajasi minimumi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu doimiy e’tibordagi ko‘rsatkichlardan hisoblanadi.

Kambag‘allikka turli davlatlarda har xil izohlar, ayricha fikrlar bildiriladi. Umuman, jahon tajribasida biror shaxs yoki ijtimoiy guruhning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan minimal ehtiyojlar, mehnatga layoqatlilik va avlodini davom ettirishga imkoniyati yetarli bo‘lmagan iqtisodiy holatlarni tavsiflovchi tushunchaga kambag‘allik deyiladi. Buni aniqlashda bir nechta chegara bo‘lib, aholining munosib turmush kechirishi uchun ma’lum bir me’yor belgilanadi. Agar kishining daromad (yoki xarajat)lari belgilangan me’yordan past bo‘lsa, u kambag‘al hisoblanadi.

Kambag‘allik chegarasi kunlik eng kam miqdordagi oziq-ovqat va zaruriy mahsulotlarni sotib olish uchun sarflangan xarajatlar yoki olingan daromadlar hamda oilaning ma’lum bir guruhdagi tovar va xizmatlardan foydalana olish imkoniyatini baholash orqali belgilanadi. Masalan, Davlat statistika qo‘mitasining kambag‘allikni o‘lchash uslubiyatiga binoan, O‘zbekistonda kunlik 2100 kkal.dan kam iste’mol qilgan kishilar kambag‘al hisoblanadi.

O‘zbekiston hukumati pandemiya davrida kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rdi. 2020-yil martida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi. Mutaxassislar fikricha, mazkur vazirlikning tuzilishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish bilan birga, kambag‘al aholi moddiy ta’minotida ham amaliy ko‘mak berishga bo‘lgan muhim qadamdir.

Koronavirus pandemiyasi O‘zbekiston aholisi uchun katta yo‘qotishlar olib keldi. Yashash uchun eng muhim resurs moddiy ta’minlanganlik darajasi tushib ketdi. Ishsizlar, bemorlar, moddiy yordamga muhtojlar safi karrasiga ortdi. Odamlar g‘oyat og‘ir vaziyatda qolishdi.

Mazkur holatda O‘zbekiston hukumati ehtiyoji o‘ta yuqori fuqarolarni aniqlab, ularni moddiy qo‘llab-quvvatlovchi dastur – “temir daftar” tizimini joriy etdi. Ma’lumotlarga ko‘ra, respublika miqyosida mazkur ro‘yxatga kirgan 594,3 ming oila va ularning 2,5 million nafar a’zosi (shundan 648 ming nafar mehnatga layoqatli ishsiz oila a’zolari) kiritilib, joriy yil 1-mart holatiga ko‘ra, ularning 641,3 ming nafarining (99 foiz) bandligi ta’minlandi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hozirgi kunga qadar “temir daftar”ga kiritilgan 600 mingga yaqin ehtiyojmand oilalarga jami 1,37 trillion so‘mlik to‘g‘ridan to‘g‘ri moddiy va nomoddiy yordamlar ko‘rsatilganini ochiqladi. Ushbu dastur doirasida kam ta’minlangan oilalarning daromad manbaini yaratish orqali respublika bo‘yicha 2021-yil 1-mart holatiga ko‘ra 515,9 ming oila va ularning 2,2 million nafar a’zolari “temir daftar” ro‘yxatidan chiqarilgan.

O‘tgan yilda ijtimoiy ko‘makka muhtoj va kam ta’minlangan oilalarga nafaqa va moddiy yordam ajratish qamrovi ham oshirilgan. Jumladan, bola parvarishi uchun nafaqa va moddiy yordam oluvchi oilalar soni o‘tgan yil yakunida yil boshiga nisbatan ikki baravarga, ya’ni 600 ming nafardan 1,2 million nafargacha ortgan. Bu, albatta, aholi farovonligini oshirish va kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan muhim qadamdir.

Shuningdek, o‘rta va uzoq muddatlarda kambag‘allikni qisqartirishning strategik maqsadlarini belgilash maqsadida Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi ekspertlari bilan birga “2021-2030-yillarga qadar O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi” loyihasi ishlab chiqilib, umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Bu loyiha, kambag‘allikni qisqartirish borasida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Kambag‘allar soni 5 million nafar atrofida deya aytilayotgan bir davrda bunday harakatlar qamrovini kengaytirish va jadallashtirish muhim ahamiyatga ega. Kambag‘allikka qarshi kurash mamlakatimizda nisbatan yangi yo‘nalish hisoblanadi. Bu borada belgilangan maqsadga erishishda mazkur vazifani amalga oshirish bilan bog‘liq instrument va usullarni real holatdan kelib chiqqan holda ishlab chiqish eng samarali yo‘l sifatida baholanmoqda.

O‘zbekiston hukumati “temir daftar” tizimi orqali kambag‘allikka qarshi kurashda faol chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu dastur, ehtiyojmand oilalarning moddiy ta’minotini yaxshilash, ularning daromad manbalarini yaratish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan.

O‘zbekistonning kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi esa, uzoq muddatli rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ma`lumki, hozirgi kunda kambag‘allikka qarshi kurash mamlakatimizda o’ta dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Agar inson kambag‘al bo’lsa, kasal bo’lib qolgan sharoitda doktorga uchrashish uchun shaharga qatnashiga, dori-darmonlarni xarid qilishga, shifokor ko’rigidan o’tishga, laborotoriya tahlillari va bashqa tashxis qo’yish uchun qilingan tahlillar uchun to’lov qilishga imkoniyati bo’lmaydi.

Inson kambag‘al oilaga mansub bo’lsa, farzandi mutaxassislik bo’yicha ta’lim olish imkoniyatidan mahrum bo’lib qolishi mumkin, chunki, bunday o’qishlarning aksariyat qismi pullik bo’lib, kontrakt asosida amalga oshiriladi. Ushbu holat uning kelajakdagi daromadlari darajasiga ham salbiy ta’sir etadi. Chunki, malakali mehnat bilan malakasiz mehnatning o’rtasidagi “topishtutinishi” turli darajada bo’ladi. Bunday aholi qatlami nafaqat aholining o’ziga, balki jamiyatga ham zarar.

Kambag‘allikka qarshi kurash masalasi global masala bo’lganligi tufayli BMT Bosh Assambleyasi kambag‘allikka qarshi kurash bo’yicha o’n yilliklarni e’lon qilib, tegishli tadbirlarni amalga oshirib kelinmoqda. Birinchi o’n yillik o’z ichiga 1998- 2007 yillarni qamrab olgan bo’lsa, ikkinchi o’n yillik 2008-2017 yillarga to’g‘ri keldi. Hozir uchinchi o’n yillikka mo’ljallangan 2018-2027 yillarni qamrab oladigan Rezolyusiyasi qabul qilindi. Ushbu Rezolyusiyada oldingi o’n yillikda erishilgan natijalar darajasini saqlab qolgan holda qashshoqlik bilan kurashishni takomillashtirish hamda uni mustahkamlash yo’lida samarali va muvofiqlashtirilgan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgandir. Bunga asosan juda ko’plab mamlakatlar ham qoshshoqlikdan butunlay qutilish rejalarini ishlab chiqqan.

Jumladan Xitoy, Pokiston, Bangladesh kabi mamlakatlar shu qisqa davrda butunlay kambag‘allikdan qutilish rejasini ishlab chiqqan va buni muvoffaqiyat bilan amalga oshirmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimiz Prezidenti kambag‘allikni tugatish bo’yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan qator Farmon va qarorlarni qabul qildi hamda ularni amalga oshirish bo’yicha bir qanda Davlat va hududiy dasturlarni ishlab chiqish borasida tegishli ko’rgazmalar berib kelmoqda. Zero hayotda munosib yashay olmagan kishi hech mahal davlatdan ham bugungi kunidan ham rozi bo’lmaydi. Bularni inobatga olib, mamlakatimizda ham to’rtta muhim hujjat ishlab chiqilishi belgilangan. Bular: «O’zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha «Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi», «Sanoatni rivojlantirish strategiyasi», «Kambag‘allikni qisqartirish dasturi» hamda 2021 yildan boshlab barcha hududlarda iste’mol savatchasi va tirikchilik uchun zarur eng kam miqdorlar joriy qilinishini

ko’zda tutilgan. Bulardan tashqari ham kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan ancha tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ammo masalaning ayrim nazariy, uslubiy va amaliy muammolarini borki, uni tadqiq qilib tegishli xulosalar va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo qiladi. Masalaning bu jihati mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi. Kambag‘allik darajasi qanday belgilanadi va nima bilan o’lchanadi? Kambag‘allik chegarasini belgilashda BMT inson ehtiyojlari uchun zarur bo’lgan asosiy tovar va xizmatlarni xarid qilish uchun yetarli bo’lgan daromadlar miqdorini asos qilib oladi. Bunday tovarlarga oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turarjoy haqini to’lash, suv bilan ta’minlash, elektr energiyasi, maktab ta’limi, tibbiy xizmat kabilarni kiritishni tavsiya qiladi. Shunga asosan kambag‘allik darajasini global miqyosda va har bir mamlakatlar doirasida aniqlanadi.

Ma’lumki, Jahon banki 1990-yildan buyon «Kambag‘allik va yalpi farovonlik» ma’ruzasini e’lon qilib kelmoqda. Ushbu ma’ruzada har safar qashshoqlikning xalqaro chegarasi e’lon qilinadi.

Hozirgi kunda ushbu ko’rsatkichning miqdori 1,9 dollarni tashkil qiladi. Shuni qayd etish joizki, kambag‘allik darajasi Jahon Bankining hisob kitobi bo’yicha qashshoq davlatlarda va rivojlangan mamlakatlarda turlicha o’lchanadi. Bundan tashqari vaqt o’tishi bilan bu chegara ham o’zgarib boradi. Agar uning qisqagina tarixiga nazar solsak, 1990-yilda kambag‘allik darajasi kuniga bir kishi uchun 1 dollorga yaqin qilib belgilangan edi. 2005-yilga kelib, ushbu ko’rsatkich qayta hisoblanib, 1,25 dollorga yetkazildi. 2015-yilda ushbu global kambag‘allik ko’rsatkichini har bir kishiga bir kunda, yuqorida ta’kidlanganidek, 1,9 dollar qilib belgiladi. Jahon bankining «Kambag‘allik va yalpi farovonlik» bo’yicha so’nggi 2018 yilning oktyabr oyidagi ma’ruzasida ham shu raqam saqlanib qolingan. Agar shu me’zondan kelib chiqiladigan bo’lsak, mamlakatimizda oilalar soniga qarab daromadlar darajasi quyidagicha bo’ladi.

Ushbu ko’rsatkich kambag‘allik darajasining eng past chegarasi hisoblanadi. Bundan past bo’lsa, bunday aholining ahvoli qashshoq aholi toifasiga kiradi. Agar ushbu me’zondan kelib chiqiladigan bo’lsa, bir kishiga bir kunda o’rtacha 19,3 ming so’m (1,9 dollar) mablag‘ kerak bo’lar ekan, 5 kishiga 96,4 ming so’m (9,5 dollar) va nihoyat 8 kishilik oilaga 154,3 ming so’m (15,2 dollar) zarur bo’lar ekan. Agar oilada 10 kishi yashasa, 193,0 ming so’m mablag‘ni talab qiladi. Ushbu ko’rsatkichning bir oylik miqdori mos ravishda 1 kishiga 578,6 ming so’m (57 dollar), 5 kishiga 2892,8 ming so’m (285 dollar) va 8 kishiga 4628,4 ming so’m (456 dollar) ni, 10 kishiga 5786,0 ming so’mni (570 dollor) tashkil qiladi. Ushbu ko’rsatkichni bir yilga hisoblaydigan bo’lsak, mos ravishda 1 kishiga 6942,6 ming so’m (684 dollar), 5 kishiga 34713,0 ming so’m (3420 dollar) va 8 kishiga 55540,8

ming so’m (5472 dollar) ni, 10 kishiga 69426,0 ming so’mni (6840 dollar) tashkil etadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash choratadbirlari to’g‘risida”gi PF-5975-son farmonida: “hududlarda aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, xususan, kambag‘allikni qisqartirish vazifalari ko’p jihatdan iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o’rinlarini tashkil etish bilan bevosita bog‘liqdir”, deb ta’kidlandi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2020-yil 27-fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo’yicha videoselektor yig‘ilishida mamlakatimizda kambag‘allik darajasiga oid statistik ma’lumotlar keltirildi. “Dastlabki hisob-kitoblarga ko’ra, 12-15 foiz yoki 4-5 million aholimiz kambag‘al. Bu ularning bir kunlik daromadi 10- 13 ming so’mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo’lishi mumkin, lekin bir kishi og‘ir kasal bo’lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolatishga ketadi.

Kambag‘allikga batamom barham berish uchun mamlakatimizda xorijiy tajribalarga asoslangan kechiktirib bo’lmaydigan masalalarni hal qilish masalai asosiy muammolardan hisoblanib ushbu yo’nalishda avvalo quyidagi jihatlarni hisobga olish lozimligini tahlil qildik:

- mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish bo’yicha aniq tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda kambag‘allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyatini joriy qilish, ijtimoiy ta’minotning minimal standartlari va me’yoriy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotda keng foydalanishni yo’lga qo’yish.
- har bir mahalla kesimida mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi tomonidan fuqarolarining yashash sharoitlari va ijtimoiy ahvoli o’rganilib, yashash minimumi va minimal iste’mol savatini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish hamda aholi daromadlari tabaqalashuvini o’rganish bo’yicha tizimli ishlarni olib borish hamda ular-ning davlat maqsadli dasturlari bilan o’zaro muvofiqligini ta’minlash.
- aniqlangan ijtimoiy ahvoli tang aholi qatlamlarining ro’yxatini shakllantirish va ularninng har birida qanday imkoniyatlar mavjudligini o’rganilishi va shunga asoslangan holda kambag‘allikni tugatishning aniq manzilli yo’nalishlarini ishlab chiqish lozim bo’ladi. mamlakatimizda mehnat bozori va uning tarkibini sifat jihatdan rivojlantirish, ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish, takomillashtirish hamda mehnat

resurslarini taqsimlash borasida o’zaro muvofiqlikdagi ishlarni olib borish barobarida aholining o’zini o’zi band qilish prinsipini joriy qilish evaziga bandlik muammosini hal qilishga kirishish. Beshinchidan, mamlakatimiz miqyosida va uning barcha hududlarida, ularning o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, iste’mol savatchasi va tirikchilik uchun zarur bo’lgan eng kam miqdorlardagi daromadlar darajasini ishlab chiqish va joriy qilinishini tezlashtirish ham maqsadga muvofiq.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Yevropa Ittifoqi (EU) kambag‘allikni qisqartirish siyosati – Yevropa Ittifoqi tomonidan kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan umumiy siyosat va strategiyalar.
2. HUDIM (Nomenklatura mintaqalari) – Yevropadagi hududiy birliklarning tasnifi, kambag‘allikni aniqlashda ishlatiladigan hududiy statistik metodlar.
3. Regional tahlil – Kambag‘allikni qisqartirishda hududiy farqlarni tahlil qilish, turli mintaqalardagi o‘ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar.
4. Kambag‘allikni qisqartirishdagi mintaqaviy siyosatlar – Yevropaning turli hududlarida kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan maxsus siyosatlar va dasturlar.
5. Yevropada tengsizlik va kambag‘allikni qisqartirish – Yevropa Ittifoqining kambag‘allikni qisqartirishga doir yangi yondashuvlari va natijalari.
6. Kambag‘allik va ijtimoiy farovonlik o‘rtasidagi aloqalar – Yevropada ijtimoiy farovonlikni ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirishning o‘zaro bog‘liqligi.
7. Ijtimoiy xarajatlar va kambag‘allikni qisqartirish – Yevropada kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlar va ular uchun ajratiladigan xarajatlar.
8. Yevropa mintaqalarida kambag‘allikni o‘lchash usullari – Kambag‘allikni baholashda Yevropada qo‘llaniladigan metodologik yondashuvlar.
9. Mintaqaviy tengsizlikni kamaytirish – Yevropaning turli hududlarida kambag‘allikni kamaytirish maqsadida tengsizlikka qarshi kurashish.
10. Yevropadagi kambag‘allikni qisqartirishning asosiy usullari – Yevropa mamlakatlarining kambag‘allikka qarshi kurashishdagi asosiy vositalari va yondashuvlari.
11. O‘zbekistonning kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi – O‘zbekistonning kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan asosiy strategik yo‘nalishlari.

12. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha iqtisodiy vositalar – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish uchun ishlab chiqilgan iqtisodiy vositalar va siyosatlar.

13. Kambag‘allikni qisqartirishda davlatning roli – O‘zbekiston hukumatining kambag‘allikka qarshi kurashdagi o‘rni va davlat siyosatining ahamiyati.

14. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishga doir statistik tahlil – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishni o‘lchash va tahlil qilishda ishlatiladigan statistik ko‘rsatkichlar.

15. Kambag‘allikni qisqartirishda sohalararo yondashuv – O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurashishda iqtisodiyotning turli sohalarining birgalikda ishlashi.

16. Kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy yordam dasturlari – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish uchun amalga oshiriladigan ijtimoiy yordam dasturlari va ularning samaradorligi.

17. Bandlik va daromadlarni oshirish strategiyalari – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish uchun bandlikni oshirish va daromadlarni taqsimlash bo‘yicha strategiyalar.

18. Ijtimoiy ta’minot va kambag‘allikni kamaytirish – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy ta’minot tizimining o‘rni.

19. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda xalqaro tajriba – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xalqaro tajribaning o‘rganilishi va tatbiqi.

20. Kambag‘allikni qisqartirishning milliy va mintaqaviy o‘lchovlari – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha milliy va mintaqaviy maqsadlar va ko‘rsatkichlar.

Takrorlash uchun savollar

1. Yevropada kambag‘allikni qisqartirishda qanday ijtimoiy himoya tizimlari samarali ishlaydi?
2. Yevropa mamlakatlarida kambag‘allikni qisqartirish uchun qaysi soliq siyosatlari qo‘llaniladi?
3. Yevropada kambag‘allikni qisqartirishda ta’lim tizimi va malaka oshirish dasturlarining roli qanday?
4. Yevropada kambag‘allikni qisqartirishda ish o‘rinlari yaratish va bandlik siyosatining ahamiyati qanday?
5. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilgan muvaffaqiyatli dasturlar qanday?

6. Yevropa tajribasida kambag‘allikni qisqartirishda qishloq hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun qanday chora-tadbirlar qo‘llanilgan?

7. Yevropada kambag‘allikni qisqartirishda gender tengligi va xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi qanday muhim o‘rin tutadi?

8. Yevropa mamlakatlarida kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy yordam va huquqiy himoya qanday ahamiyatga ega?

9. Yevropada kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan innovatsion dasturlar va texnologiyalardan qanday foydalaniladi?

10. Yevropa mamlakatlarining kambag‘allikni qisqartirishdagi tajribalari O‘zbekistonda qanday qo‘llanilishi mumkin?

XVII BOB. O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI ROLI

17.1. O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyating aholi daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishdagi roli.
17.2. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy asoslari, Tadbirkorlik orqali aholi turmush sifatini oshirish.
17.3. Tadbirkorlik orqali aholi bandligini taminlash.

17.1. O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyating aholi daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishdagi roli

Har bir mamlakatda bo‘lgani kabi, mamlakatimizda ham insonlar yashash darajasi va hayot farovonligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2020-yil boshida Prezidentimiz kambag‘allikni qisqartirish masalasini davlat siyosatining asosiy vazifasi sifatida belgilab berdi. Umuman, O‘zbekistonda kambag‘al qatlam mavjudligining tan olinishi sohaga doir siyosatning dastlabki burilish nuqtasi bo‘ldi. 2020-yilda mamlakatda kambag‘allar soni aholining 12-15 foizini tashkil etishi ochiq-oshkora aytildi. Bugungi kunda mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish, insonlar yashash darajasini yanada yaxshilash, barqaror rivojlanish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar, strategiyalar, konsepsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Jumladan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2026-yil oxiriga qadar mamlakatda kambag‘allik darajasini ikki barobarga kamaytirish rejalashtirilmoqda. Kambag‘allikni qisqartirishning bosh omili sifatida tadbirkorlikni rivojlantirish, xususan, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, yakka tartibdagi tadbirkorlik, o‘zini-o‘zi band qilish xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, tadbirkorlikni yanada rivojlantirish yo‘nalishlari, kambag‘allikni qisqartirish yo‘llari bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borilgan.

Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilanishi bilan birga bu boradagi ilmiy ishlar ham jadallashdi. Iqtisodiyot sohasining ilmiy mutaxassis va olimlari tomonidan bir qator ilmiy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, N.Ernazarova esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, aholi bandligi va daromadini oshirishda eng asosiysi tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik sohalari, jumladan, oilaviy biznes sohasi faoliyati muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda yetakchi o‘rinni egallashi haqidagi fikrni ilgari surgan.

So‘ngi yillarda iqtisodchi ilmiy izlanuvchilar, tegishli vazirlik mutaxassislari tomonidan davlatimizda kambag‘allikni qisqartirish masalasida keng ko‘lamli izlanishlar olib borishmoqda. Xususan, i.f.d. M.Kalonov o‘zining ilmiy taxliliy maqolasida “kambag‘allik” tushunchasini shu kungacha “yopiq Bob” bo‘lib kelganligini va u “kam ta’minlanganlik”, “ehtiyojmandlik”, degan tushunchalardan farq qiladi, deya ta’kidlagan. O.X.Maxmudov tomonidan oilalarda kambag‘allikni qisqartirish omillari, xususan, xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish mumkinligi tadqiq qilingan.

Tadbirkorlikni yanada rivojlantirish masalalari bo‘yicha yetarli darajada mutaxassislar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi Sh.Quvondiqovning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Shuningdek, xususiy tadbirkorlikni rivojlanishida marketing muammolari, sotuv kanallarini tashkil etish, sotuvdan keyingi xizmatlarni rivojlantirish, ulgurji savdo xizmatida mijozlarga xizmat ko‘rsatish masalalari D.H.Xolmamatov tadqiqotlarida tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda ham tadbirkorlik faoliyatida yangi ish o‘rinlari ochilishi, aholi bandligini ta’minlashi, aholi daromadlarini oshishi kabi masalalar tadqiq qilingan.

Malakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda tadbirkorlikni rivojlantirish muhim yo‘nalish sifatida belgilab olingan. Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish uchun mustahkam qonunchilik va huquqiy baza shakllantirilgani va muntazam takomillashtirib borilayotgani, biznes uchun imtiyoz va preferensiyalar berish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash hamda modernizasiya qilish masalalarida davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko‘rsatilayotganini alohida ta’kidlash lozim. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuksalishi, xususiy tadbirkorlik sub’ektlari uchun yaratilgan qulay shartsharoitlar natijasida iqtisodiy salohiyati ortgan ko‘plab korxonalar mazkur imtiyozlardan foydalanishni davom ettirish maqsadida o‘z xodimlari sonini belgilangan miqdoriy chegara doirasida saqlab qolishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, ularning yiriklashish jarayoniga to‘sqinlik qilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotida mustahkam o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. Xususan, 2021-yilda YaIMning 54,9 foizi, sanoatning 27,0 foizi, qurilishning 72,4 foizi, bandlikda 74,4 foizi, eksportning 22,3 foizi va importning 48,7 foizi kichik biznesga to‘g‘ri keladi1. Tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiyotda tutgan o‘rni, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni mustahkamlanib borayotganligida ham ko‘rish mumkin. Tadbirkorlikni iqtisodiyotda roli va o‘rnini iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko‘rsatkichlar hajmining tahlilidan ham ko‘rish mumkin. 2021-yilda savdo xizmatlarining 204787,4 mlrd. so‘mi, qolgan xizmatlarning 144812,7 mlrd.

so‘mi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka to‘g‘ri kelmoqda (17.1-jadval). 2020-2024-yillarda O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan davlat siyosati natijasida jami 445,4 mingta kichik korxona va mikrofirma yangi tashkil etilgan. Ushbu o‘sish iqtisodiyotning turli sohalarida turlicha taqsimlangan bo‘lib, eng katta ulush savdo (38,1%), xizmatlar (25,1%) va sanoat (18,2%) sohalariga to‘g‘ri kelgan.

17.1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko‘rsatkichlari hajmi

Sohalar	**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni (mingta)**	**Foiz (%)**
Savdo	169.5	38.1
Xizmatlar	111.7	25.1
Sanoat	81.1	18.2
Qishloq xo‘jaligi	57.2	12.8
Qurilish	25.9	5.8

Sohalar bo‘yicha taqsimot:

- Savdo sohasi – 169,5 mingta (38,1%)
- Xizmat sohasi – 111,7 mingta (25,1%)
- Sanoat sohasi – 81,1 mingta (18,2%)
- Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 57,2 mingta (12,8%)
- Qurilish sohasi – 25,9 mingta (5,8%)

Ushbu statistik ma’lumotlar iqtisodiyotning xizmat va savdo sohalarida kichik biznesning rivojlanishi yetakchi o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi. Bu esa iste’mol talabining yuqori ekanligi, xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining kengayishi hamda sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi va qurilish sohalarida kichik korxonalar soni nisbatan kamroq bo‘lsa-da, ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati yuqori bo‘lib qolmoqda.O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va mikrofirma sonining ko‘payishi savdo va xizmat ko‘rsatish sohalari hisobiga amalga oshmoqda. Bu holat iste’mol bozorining kengayishi, xizmatlarning ommalashishi va aholi tadbirkorlik faolligining ortishi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarida ham kichik biznesning o‘sishi kuzatilmoqda, bu esa ishlab chiqarish va agroiqtisodiyotning rivojlanayotganini ko‘rsatadi.Bu natijalar

iqtisodiy islohotlarning kichik biznes uchun qulay sharoit yaratganini va tadbirkorlik subyektlari sonining oshishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi. Aynan mazkur sohalarda tadbirkorlikni rivojlanishi kambag‘allikni qisqartirishning asosiy yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda o‘zini-o‘zi band qilish ham kambag‘allikni qisqartirishning asosiy omili hisoblanadi. Aynan o‘zini o‘zi band qiladigan faoliyat turlarining asosiy qismini xizmat ko‘rsatish faoliyati tashkil etmoqda. Kambag‘allik tushunchasi, uning xalqaro mezonlari qay tartibda belgilanishi borasida jahonda umumqabul qilingan hamda yagona kelishuv mavjud emas.

Har bir mamlakat o‘zi uchun belgilangan kambag‘allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi. Xususan, BMT ta’rifiga ko‘ra, kambag‘allik insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo‘lmasligi, jamiyatda to‘laqonli ishtirok etish uchun to‘siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta’lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta’minlash imkoniyatlari yetishmasligi kabi cheklovlarda namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, kambag‘allik bu – insonlar, uy xo‘jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligidir (BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining “Kambag‘allikni o‘lchash bo‘yicha qo‘llanma”sidan, 2017-yil Nyu-York, Jeneva). Demak, yuqoridagi dalillardan kelib chiqib, aholini mehnat bilan ta’minlash va yetarli daromad manbalarini shakllantirish kambag‘allikni qisqartirishning bosh omili bo‘lib hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilish esa, aynan aholini mehnat bilan bandligini va yetarli daromad manbasiga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini yengillashtirish va uni rag‘batlantirish davlatning asosiy vazifalaridan biriga aylantirilib hukumat tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qonun, qaror, farmon va boshqa turdagi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilganligini OAVda ko‘p eshitganmiz.

Mazkur yo‘nalishdagi ishlarni jadallashtirish maqsadida, hamda joriy yil 7-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi prezidenti ishtirokida o‘tkazilgan taqdimotda davlat rahbari tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash borasida aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi prezidenti qarori loyihasi ishlab chiqildi.

Qarorning asosiy maqsadi – uning nomida ko‘rsatilganidek – aholini kichik va o‘rta biznesga jalb qilishdir.

Mazkur qaror loyihasida aholini tadbirkorlikka jalb qilishning quyidagi tartibi belgilanmoqda:

a) kichik va o‘rta tadbirkorlarga “yagona darcha” tamoyili asosida moliyaviy xizmat ko‘rsatish uchun kichik biznesga ko‘maklashish markazlari va Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmalari binolariga joylashtirilmoqda;

b) Savdo-sanoat palatasi (D. Vahobov), biznes-ombudsman (D. Qosimov), Mahallabay ishlash agentligi (M. Ubaydullayev) har hafta:

- mahallalarga chiqqan holda aholi va tadbirkorlarga kichik va o‘rta biznes uchun davlat tomonidan yaratilgan moliyaviy imkoniyatlarni tushuntirib boradi;
- kichik biznesga ko‘maklashish markazlarida aholi va tadbirkorlarni biznes ko‘nikmalariga o‘qitadi;
- kichik biznesga ko‘maklashish markazlari va Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi bilan birga salohiyatli tadbirkorlarni aniqlab, ularning loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashadi.

Kichik va o‘rta biznes mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi va uning rivojlanishining ijobiy tomonlari bu:

1) Iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirilishi: kichik va o‘rta biznes yangi ish o‘rinlarini yaratishga va umumiy bandlikni oshirishga hissa qo‘shadi, bu esa iqtisodiy o‘sishga yordam beradi.

2) Innovatsion va texnologik taraqqiyot: kichik va o‘rta biznes innovatsiya va texnologik taraqqiyotning “dvigateli” sifatida hizmat qiladi. Ular ko‘pincha yangi g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar manbai hisoblanadi.

3) Kambag‘allikni va tengsizlikni qisqartirilishi: kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi aholi daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishga yordam beradi.

4) Hududlarning rivojlanishi: kichik va o‘rta biznes sub’yektlari hududlarning, ayniqsa kichik shaharlar va qishloq joylarning mo‘tadil rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ushbu hududlarda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish va uni qo‘llab-quvvatlash investisiyalarni jalb qilishi va yangi ish o‘rinlari yaratishi mumkin.

5) Raqobatni rag‘batlantirilishi: kichik va o‘rta biznes bozorda raqobatni kuchaytirishga o‘z hissasini qo‘shadi. Misol tariqasida kichik va o‘rta biznes subyektlari va katta tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi raqobat iste’molchilar uchun sifatliroq va arzonroq bo‘lgan tovar va xizmatlarni shaklantirishga xizmat qiladi.

17.2. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy asoslari, Tadbirkorlik orqali aholi turmush sifatini oshirish

Tadbirkorlik faoliyatini rnuvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omillaridan biri - bu tadbirkorlik subyekti (korxona, tashkilot, firma) ichki

rejalarining mukammalligi, sifat darajasi hisoblanadi. U o‘z ichiga istiqboldagi maqsadlami aniqlash va ularga erishish yo‘llari hamda resurs ta’minotini oladi.

Tadbirkorlik - bu amaldagi qonunlar doirasida kishilarriing foyda olishga qaratilgan tashabbuskorlik bilan xo‘jalik faoliyatini yuritishiga asoslangan sohibkorlik faoliyatidir. Reja - oldinga qo‘yilgan maqsad va vazifalarga erishishga qaratilgan kelajak modeli yoki chora-tadbirlar tizimidir. Korxona rejasi - oldiga qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirishni, resurslaming o‘zaro nisbati, balansi, hajmi, uslubi, u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko‘rsatishning izchtffigini, ishlab chiqarishni bajarish muddatini belgilovchi oldindan ishlab chiqilgan tadbirlar tizimi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul qilgan "Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatiash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘ g‘risida"gi Qarori kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘lIab-quvvatlashni yanada kengaytirish va kuchaytirishga mo‘ljallangan. Bu qarorda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishni rag‘batlantirishni kuchaytirish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror faoliyat yuritishida uning rolini oshirish, yangi ish joylarini shakllantirish va aholi bandJigini ta’minlash, shuningdek, xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish hamda yuritish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlari belgilangan.

Ular quyidagilardan iborat:

- tadbirkorlik subyektlarining kadastr hujjatlarini rasmiy lashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish tariftarini pasaytirish;
- tadbirkorlik obyektlarining arxitektura-rejalashtirish topshiriqlarini ishlab chiqish va ularning loyiha hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish qiymatini kamaytirish;
- tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun boj to‘lovini eng kam ish haqining 2 barobarigacha tushirish (5 barobar edi);
- tadbirkorlik subyektlarining banklarda hisob raqam ochish uchun to‘lovlarini eng kam ish haqining 0,5 barobarigacha, qishloq joylarda esa 0,1 barobarigacha kamaytirish (1 barobar edi);
- kichik korxona o‘z uylarida ishlaydigan (kasanachi) xodimlarga ega bo‘lganda, xodimlari umumiy soni belgilangan me’yoridan 30 foizgacha oshganda ham, kichik korxonalar uchun ko‘zda tutilgan imtiyozlardan foydalanishi;
- joylarda davlat boshqaruvi va davlat hokimiyati organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huhuqlariga rioya etilishi monitoringini olib borish va natijalarini har chorakda "Kichik va xususiy tadbirkorlikni

rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha Respublika muvofiqlashtirish kengashi"ga taqdim etish;

- joylardagi davlat boshqaruvi va davlat hokimiyati organlarining tadbirkorlar huquqlarini poymol qiladigan yoki cheklaydigan qarorlarini bekor qilish, bunday qarorlar qabul qilgan maosabdor shaxslarni javobgarlikka tortish.

Tadbirkorlik mamlakatda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi bandligi, daromadlari, farovonligini ta’minlash, mulkdorlar qatlamini shakl1antirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda katta rol o‘ynaydi va yetakchi o‘rin egallaydi. Ularning bunday roli va o‘rni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti lokomotivi, yetakchisi maqomini belgilab beradi.

O‘zbekistonda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ishlarini yo‘lga qo‘yish va amalga oshirish maqsadida bir qator davlat organlari va nodavlat tashkilotlari tuzilgan. har birining aniq vazifalari belgilab qo‘yilgan hamda maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Respublika barcha viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahri bO‘yicha tadbirkorIikni rivojlantirish mintaqaviy (hududiy) dasturlari ishlab chiqildi. Respublika bO‘yicha ishlab chiqilgan "O‘zbekiston Respublikasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivajlantirishni qo‘llab-quvvatlash" Davlat dasturi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan.

Mazkur Davlat dasturi bozor qayta 0’ zgartirishlari jarayonlarini jadallashtirish maqsadida chora-tadbirlar majmuyini nazarda tutadi va respublikada, ayniqsa. qishloqda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy maqsadlari. vazifalari, yo‘nalishlarini belgilaydi.

Dasturning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- aholining keng tabaqalarini bozor faoliyatiga olib kirish. boqimandalik, iste’ molchilik psixologiyasini bartaraf qilish, tadbirkorlik, xususiy biznes bilan faal shug‘ullanish istagini rag‘batlantirish;

- qishlaq xo‘jaligi qayta qurilayotganligi munosabati bilan ishsiz qolayotgan kishilarni ish bilan ta’minlash maqsadida qishloqda yangi ish o‘rinlari tashkil etish;

- qishloqda bozor munosabatlari va infratuzilmasini jadal rivojlantirish. raqobatni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish;

- xizmatlar hajmini, ayniqsa, bank, auditorlik, konsalting. Vosi tachilik faoliyati bilan bog‘liq ilm-fanni ko‘p talab qiladigan xizmatlar hajmini keskin oshirish;

- xo‘jalik yuritish samaradorligini oshirish, ichki bozorni tovarlar bilan to‘ldirishni va ishlab chiqarishning eksportga mo‘ljallanishini ta’minlovchi unchalik katta bo‘lmagan, moslashuvchan ishlab chiqarishlar, kichik va xususiy korxonalarni joriy qilish.

Tadbirkorlik tizimida rejalashtirish



Mazkur dasturni am alga oshirish maqsadida respublikada va har bir viloyatda har yili aniq chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqiladi va belgilanadi hamda ularning bajarilishi monitoring qilib boriladi. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida’"gi Qonunda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat organlarining vakolatlari quyidagicha taqsimlangan va belgilangan.

1. Davlat boshqaruvi organlarining tadbirkorlikni qo‘lIab-quvvatlash sohasidagi vakolatlari: - tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari

to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi va tadbirkorlik faoliyatining rivojlantirilishi ustidan monitoringni, mavjud muammolarni o‘rganishni hamda tadbirkorlikning huquqiy kafolatlarini mustahkamlashga qaratilgan me ‘yoriyhuquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish;

- tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishini ta’minlash;

- tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy, moddiy-texnik va axborot resurslaridan erkin foydalanishga ko‘maklashish;

- tadbirkorlik subyektlariga o‘z mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda sotishga ko‘maklashish;

- tadbirkorlik subyektlariga tegishli xabarlarni yetkazish va tushintirish ishlarini, konsalting, lizing, sug‘urta va boshqa xiI xizmatlar tizimini rivojlantirishni tashkil etish;

- tadbirkorlik subyektlariga kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ko‘maklashish;

- tadbirkorlikni qa’llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa faoliyatni amalga oshirish.

2. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tadbirkarlikni qa’llab-quvvatlash sohasidagi vakolatlari:

- tadbirkorlikni rivojlantirish hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- tadbirkarlik subyektlarining faoliyatini himaya qilishning qa’shimcha kafalatlari va choralarini belgilash;

- tadbirkorlik subyektlari uchun mahalliy soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha imtiyozlar belgilash;

- tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa faoliyatni amalga oshirish.

3. Tadbirkorlikni rivojlantirishning davlat tomonidan rag‘ batlantirilishi:

- tadbirkarlik sahasiga investitsiyalarni (shu jumladan, chet el investitsiyalarini), zamanaviy texnologiyalar va uskunalarni jalb qilish uchun, shuningdek, bozor infratuzilmasini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

- eksport-import operatsiyalari, xalqaro ko‘rgazmalar va yarmarkalarda. tashqi iqtisodiy faaliyat sohasidagi dasturlar va loy ihalarni amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlarini ko‘rish;

- tadbirkorlik subyektlari samarali faoliyat yuritishlari uchun lllarni zarur huquqiy, iqtisodiy, statistik, ishlab chiqarish-texnologik, ilmi)- texnik va boshqa xii axborotlar bilan ta’minlash;

- zooveterinariya xizmati ka’rsatilishi uchun zarur sharoitlar yaratish;

- soliqlar, yig‘ imlar va tariflar bo‘yicha imtiyozlar belgilash va boshqalar.

17.3. Tadbirkorlik orqali aholi bandligini taminlash

Mamlakatimizda aholini turmush farovonligini oshirish, ayniqsa, aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan ko‘plab loyihalar, dasturlar ishlab chiqilib, tadbirkorlik faoliyatini boshlash niyatida bo‘lgan fuqarolar uchun imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. O‘tgan qisqa davrdagi islohotlar, ayniqsa, tadbirkorlik rivojiga qaratilayotgan e’tibor hayotimizning barcha jabhalarida yangilanish va tub o‘zgarishlarga zamin hozirladi. Jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy manzarasi butunlay o‘zgardi.

Izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar zamirida, avvalo, aholining yashash sharoitlarini yaxshilash, bandligini ta’minlash orqali daromadlarini oshirishdek ezgu maqsadlar mujassam. Zero, bu sa’y-harakatlar natijasida aholi bandligi va daromadlarini oshirishga erishilmoqda. Buni yil boshidan buyon tadbirkorlik, sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda 2 million aholining doimiy bandligi ta’minlangani, 4 milliondan ziyod aholi mavsumiy mehnat orqali daromadli bo‘lgani misolida ham ko‘rish mumkin.

Ayniqsa, yangi korxonalarning tashkil etilishi bir tomonidan eksport ko‘lamini oshirishga, ikkinchi tomondan joylarda yangi ish o‘rinlari yaratilishi va aholi bandligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Chunki tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar tufayli, hududlarda korxonalar 85 mingtaga ko‘payib, ularning soni 550 mingtaga etdi. Buning hisobiga, 2022-yilda daromad solig‘i to‘layotgan rasmiy band bo‘lganlar soni 400 mingtaga oshib, 5 million 100 mingtani tashkil etdi.

Lekin yaratilayotgan imkoniyatlarga qaramay, ayrim hududlarda aholi bandligini ta’minlash ko‘rsatkichlari yaxshi emas. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev raisligida kuni kecha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida aholini daromadli mehnat bilan band qilish masalalari ham muhokama qilinib, sohadagi kamchiliklar tahlil qilindi. Xususan, bu yil doimiy bandlar soni Kitob, Koson, Mirzaobod, Narpay, Nishon, Furqat tumanlarida kamaygan. Xususiy sektorda faoliyat ko‘rsatayotgan 232 mingta korxonada ishchilar soni bor-yo‘g‘i 1 nafarni tashkil qiladi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi 15 ta tumanda pasaygan. Aholiga tarqatish uchun belgilangan 100 ming gektar erning 4 ming gektarida ekin ekilmagan. Agar bu erlardan samarali foydalanilsa, tasavvur qilyapsizmi qancha yangi ish o‘rni yaratiladi.

Yig‘ilishda mavjud kamchiliklar tilga olinar ekan, bu borada hokimlarga qator topshiriqlar berildi. Kelgusi yilgi vazifalar muhokama qilinib, to‘rtta asosiy yo‘nalish ko‘rsatib o‘tildi. 100 ming gektar er aholiga bo‘lib beriladi

Odamlar uchun ularga munosib va daromadi yuqori ish o‘rinlarini yaratish maqsad sari dadil qadamdir. Bu jarayonda qishloq joylarda aholini ish bilan ta’minlash uchun er maydonlari ajratib berish, ularni daromad topishlariga ko‘malashish lozim bo‘ladi. Davlatimiz rahbari paxta va g‘alladan bo‘shagan 100 ming gektarni aholiga bo‘lib berish lozimligini aytdilarki, bu orqali 600 ming aholini doimiy ish va 900 ming kishini mavsumiy daromad bilan ta’minlash mumkin.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, saralash va qayta ishlash bo‘yicha 600 dan ziyod loyiha amalga oshiriladi. Xalqaro moliya tashkilotlaridan jalb qilinadigan 400 million dollar ham ko‘proq ish o‘rni yaratadigan loyihalarga yo‘naltiriladi. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi, ayniqsa, pillachilikni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Bundan 10-15 yil oldin yurtimizda bir yilda bir marotaba pilla etishtirilgan bo‘lsa, sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida bir yilda 3-4 marta ipak qurti boqilmoqda.

Bu samarali usul nafaqat “kumush tola” xirmoni yuksalishiga, balki kasanachilik orqali ishsiz aholining doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishiga ham zamin yaratyapti. Oldin bu jarayonda aholi bor yo‘g‘i 35-40 kun davomida band bo‘lgan, bugungi kunda esa pilla etishtiruvchi kasanachilar sohada 7 oy davomida uzluksiz mehnat qilib, daromad topmoqda. Ahamiyatlisi, mamlakatimizda pillachilikni rivojlantirishga qaratilgan e’tibor, yaratilgan qator imtiyoz va imkoniyatlar ushbu yo‘nalishda faoliyatini olib borish istagidagi korxonalar sonining ortishiga ham zamin yaratdi. Hozirgi kunda yurtimiz pilla etishtirish va ipak tolasi ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda Xitoy va Hindistondan keyin uchinchi o‘rinda turadi.

Endilikda pilla etishtiruvchilarning manfaatdorligini oshirish maqsadida bu soha ham erkinlashtirilishi ayni muddaodir. Bu orqali pilla aholidan jahon birjalaridan kam bo‘lmagan narxda xarid qilinadi. Bu kamida 500 ming aholini band qilib, daromadini 2-3 baravar oshirish imkonini beradi, degani. Mahalla uchun mikro-markazlar tashkil etiladi

Tadbirkorlik — nainki iqtisodiyot, balki boshqa ko‘plab sohalar taraqqiyotiga turtki beruvchi, ularning barqarorligini ta’minlovchi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlarga munosabat tubdan o‘zgardi. Ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, erkin va samarali faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Sohani rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, keyingi besh-olti yilda mamlakatimizda tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, iqtisodiyotda davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan aniq manzilli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Tadbirkorlar bilan ishlaydigan, ularning

haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qiladigan Biznes ombudsman, Bosh vazir qabulxonalari singari butunlay yangi institutlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bunday qulaylik va imkoniyatlar natijasida yangi sub’ektlar keskin ko‘payib, avvaldan ishlayotganlari faoliyatini kengaytirdi.

Albatta, bu sohaga bu darajada katta e’tibor qaratilayotgani bejis emas. Chunki bugun odamlarning tadbirkor bo‘lishga intilishiga amaliy yordam berilsa, bunyodkorlik yanada keng quloch yozishi kundek ravshanlashmoqda. Yig‘ilishda Prezidentimiz tomonidan ikkinchi yo‘nalish sifatida tadbirkorni rivojlantirish g‘oyasi ilgari surilgani zamirida ham ulkan maqsadlar mujassam. Ayniqsa, ishsizlik ko‘p bo‘lgan mingta mahalla uchun mikro-markazlar tashkil etilishi eng to‘g‘ri va oqilona qarordir. Yoki hududlardagi 255 ta markaziy va 274 ta mahallalararo ko‘chalar savdo-xizmat ko‘chalariga aylantirilishini ham muhim tashabbus, deb hisoblayman. Bu jarayonda avtomobil` yo‘llari bo‘yida 3 mingdan ortiq er maydonlarini auktsionga chiqarish ham servis sohasida yangi ish o‘rinlari uchun katta imkoniyat bo‘ladi. Shu bois tadbirkorlik uchun bo‘sh erlar va ob’ektlarni savdoga chiqarish bo‘yicha topshiriq berildi.

Umuman, tadbirkorlik – qariyb barcha sohalar lokomotivi, degan gapda hech bir mubolag‘a yo‘q. Aholini sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish, zamonaviy xizmatlar ko‘rsatish, yangi ish o‘rinlari yaratish masalalarida asosiy rol’ o‘ynayotgan tadbirkorlik rivojlansa, albatta, boshqa sohalar ham gullab-yashnaydi. 160 ming nafar fuqaro doimiy ish joyiga ega bo‘ladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda sanoat sohasida ham sezilarli o‘zgarishlar bo‘ldi. Soha taraqqiyotiga qaratilayotgan e’tibor natijasida ushbu sohada minglab, o‘n minglab fuqarolar ish bilan ta’minlanib, doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmoqda.

Yurtimizda to‘qimachilik va sanoat sohada hayotga tadbiq etilayotgan izchil islohotlar bugun odamlarning yashash sharoitlari o‘zgarib borayotgani, hayotdan mamnun yashayotgani, mamlakatning iqtisodiy salohiyati oshib borayotganida namoyon bo‘lmoqda. Eng muhimi, bugun sanoat sohasining rivojlanishi nafaqat mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash, balki mamlakatda ish o‘rinlari yaratilishi hamda mahsulotlarning jahon bozorlariga chiqib borishini ham ta’minlamoqda.

Ushbu sohada 3 ming 500 ta loyiha bajarilib, 160 mingta doimiy ish o‘rni yaratilgani, mahallalardagi 35 mingta kichik loyiha doirasida 175 ming kishi daromad manbaiga ega bo‘lgani fikrimiz tasdiqg‘idir. O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi mamlakatimizda ishsizlik, ayniqsa, yoshlar o‘rtasidagi ishsizlik muammosi bo‘lmasligi kerak, deb hisoblaydi. Zero, fuqarolar bandligini to‘liq ta’minlash va mehnatga munosib haq to‘lash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishsizlik darajasini qisqartirish – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartidir.

Yig‘ilishda aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha sanoat sohasidagi imkoniyatlar ham ko‘rsatib o‘tildi. Xususan, 8 milliard dollarlik 300 ta yirik hamda sanoat zonalarida 16 trillion so‘mlik 1 ming 300 ta loyiha natijasida yuqori daromadli ish o‘rinlari paydo bo‘ladi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, 536 ta noruda kon auktsion orqali sotilib, qurilish materiallari sohasida yangi korxonalar ishga tushirilishini orqali ko‘plab ishsiz yoshlar tayinli ish joyi va doimiy daromad manbaiga ega bo‘ladi. 90 ming xonadonli uy-joylar barpo etiladi.

Inson borki, o‘z uyi bo‘lishini orzu qiladi, buning uchun tinmay mehnat qiladi, intiladi. Agar inson o‘z uyiga ega bo‘lsa, hayotda katta maqsadlar bilan yashaydi, oilasida tinchlik, ishida unum bo‘ladi. Shu bois, oxirgi yillarda odamlarni eng ko‘p tashvishga solayotgan uy-joy masalasi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi. O‘tgan qisqa vaqt ichida mamlakatimiz ulkan qurilish maydoniga aylandi. Hozir respublikamizning qay bir go‘shasiga bormang, u erda namunaviy loyiha asosida qurilayotgan ko‘p qavatli uy-joylar, zamonaviy inshoatlarga ko‘zingiz tushadi.

Qurilish materiallarining turi ham ko‘p bo‘lgani tufayli qurilish ishlarida faqatgina eng sifatli materiallardan foydalanilmoqda. Istagan narxda hohlagan mahsulotingizni xarid qilib, ko‘rkam uy-joy qurishingiz mumkin. Davlatimiz rahbari to‘rtinchi yo‘nalish sifatida qurilish sohasini rivojlantirish masalasiga to‘xtalgani bejis emas. Boisi bu sohada ham ming-minglar yangi ish o‘rinlari yaratish mumkin. Bu orqali qanchadan-qancha oilalarning qora qozoni qaynaydi, yoshlar doimiy daromad manbaiga ega bo‘ladi, hayotdan mamnun yashaydi. Ayniqsa, kelgusi yili barcha loyihalar doirasida 90 ming xonadonli uy-joylar barpo etilishi natijasida uzoq yillar boshpanasiz bo‘lgan yuzlab, minglab oilalar shaxsiy uy-joylarga ega bo‘lishi shubhasiz.

Prezidentimiz qurilish sohasida ishga qabul qilish bo‘yicha mehnat shartnomalarini soddalashtirish zarurligini aytdilarki, bu norasmiy sektordagi ishchilarning qonuniy faoliyatga o‘tishiga yo‘l ochadi. Zotan, O‘zbekistonda bunyodkorlik ishlari ko‘lami tobora kengayayotgani zamirida mamlakat taraqqiyoti va farovonligini oshirishga qaratilgan ko‘plab ezgu maqsadlar mujassam. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan videokonferensiya yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning ijrosi haqida”gi axboroti eshitildi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federasiyasining mas’ul rahbar xodimlari, deputatlar hamda OAV vakillari ishtirokida o‘tkazilgan mazkur tadbirda samarali

bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta’minlash asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashish – barqaror rivojlanish maqsadlarining 8-maqsadiga erishish yo‘lida qilingan ishlar, jumladan mehnat bozorida faol va sust chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususiy mulkni muhofaza qilish, kichik va yirik biznesni hamda xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va tezkor rivojlantirishdagi to‘siqlarni bartaraf etish orqali aholini, ayniqsa, yoshlar, nogironlarni munosib ish bilan ta’minlash va samarali bandlikni kengaytirish yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlarga alohida ahamiyat berildi.

Axborotda *2019-yilda* O‘zbekistonning ish bilan band bo‘lgan aholisining o‘rtacha yillik soni *13,5 million* kishini tashkil etib, ish bilan ta’minlanganlar soni har yili o‘rtacha *300 ming kishi*ga ko‘paygan, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi *71,2 foiz*ni tashkil qilishi, shuningdek, ish o‘rinlarining to‘rtdan uch qismi yuridik shaxsni tashkil etmasdan faoliyatni amalga oshiruvchi, ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes, xususiy va yakka tartibdagi tadbirkorlik hisobiga yaratilganligi aytib o‘tildi. espublika iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha dastur vazifalarini bajarish uchun *2030-yil*ga kelib ish bilan band bo‘lganlar sonini *16,7 million kishi*ga yetkazish, bunda ish bilan band aholining o‘rtacha yillik o‘sishi *1,6 foiz*ni yoki *245 ming kishi*ni tashkil etishi kutilayotganligi, 2030-yilgacha barcha xotin-qizlar va erkaklarni, shu jumladan, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni barqaror va samarali bandlik hamda munosib ish bilan, shuningdek, teng qiymatli mehnat uchun teng ish haqi to‘lanishini ta’minlash yo‘nalishidagi (8 maqsaddagi 5-vazifa bo‘yicha) asosiy muammolaridan biri bu norasmiy bandlik hisoblanib, bugungi kunda noqishloq xo‘jaligi sektorlarida norasmiy bandlik ulushi *54,3 foiz*ni tashkil etmoqda.

Norasmiy bandlik ulushi erkaklar va ayollarga nisbatan bo‘lib, erkaklarning *22,1 foizi* norasmiy ish bilan band bo‘lsa, ayollarda bu ko‘rsatkich atigi *12,5 foiz*ni tashkil qilishi ta’kidlandi. Bolalar mehnati hamda majburiy mehnatning eng yomon shakllariga yo‘l qo‘ymaslikni nazorat va monitoring qilishni kuchaytirish yo‘nalishida (8-maqsaddagi 7-vazifa bo‘yicha) mamlakatimizda 2013-yildan boshlab XMT metodologiyasi va ularning mutaxassislari ishtirokida monitoring qilinayotganligi hamda bu borada yuqori natijalarga erishilgani, ham jamiyatning e’tirofiga sazovor bo‘layotganligiga alohida e’tibor qaratildi.

O‘tgan yili jami 259 ta holatda majburiy mehnatga yo‘l qo‘ygan aybdor shaxslarga nisbatan ma’muriy jarimalar qo‘llanilganligi ta’kidlanib, bunday holatlarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy ishlar yana davom etishi aytib o‘tildi. Ishchi xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish va ular uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta’minlash yo‘nalishida (8-maqsaddagi 8-vazifa

bo‘yicha) ham qator muammolar saqlanib qolinmoqda. Jumladan, hisobotda keltirilganidek birgina *2019-yilda* mehnat, bandlik va mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha *21,2 ming*ta korxonada *93,7 mingta* qonunbuzilish holatlari aniqlangan. Bu borada Kasaba uyushmalari Federasiyasining pandemiya sharoitida ishchi-xodimlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha olib borayotgan ishlarini yanada jadallashtirish zarurligi deputatlar tomonidan ta’kidlandi.

Tartibga solingan, xavfsiz, boshqariladigan mehnat migrasiyasi va samarali migrasiya siyosatiga ko‘maklashish yo‘nalishida (10-maqsaddagi 7-vazifa bo‘yicha) bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, so‘nggi ikki yil davomida tashkillashtirilgan va xavfsiz migrasiyani ta’minlash, mehnat migrantlari va ularning oila a’zolarini himoya qilish maqsadida o‘nga yaqin qonun va qarorlar qabul qilindi. Hududlarda aholi bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini o‘rganish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolaridan iborat tarkibda ishchi guruh tuzildi. Ishchi guruh zimmasiga reja-jadval asosida har oyda hududlarga chiqib, aholi bandligini ta’minlash hududiy dasturlarining tasdiqlanishi hamda amalga oshirilishi ustidan ta’sirchan parlament nazoratini olib borish, aniqlangan muammolarni tegishli vazirliklar va idoralar bilan hamkorlikda joyida hal etish, tizimli kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflar tayyorlash vazifalari yuklandi.

Parlament a’zolari tomonidan mamlakatimizda aholi bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida keng tushuntirish-targ‘ibot ishlari olib boriladi. Parlament nazorati tadbirlarining natijalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari sessiyalarida muhokama qilinadi. Shuningdek, “Yo‘l xaritasi”da bandlik dasturlarining ijrosi masalalari, sohadagi mavjud tizimli muammolar atroflicha ko‘rib chiqilib, ularni hal etish bo‘yicha mutasaddi vazirlik va idoralar hamda hudud rahbarlarining axborotlari Oliy Majlis palatalari hamda ularning tegishli qo‘mitalarining qo‘shma majlislarida eshitib boriladi.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Tadbirkorlik va iqtisodiy o‘sish – Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy o‘sishga va aholi daromadlarining oshishiga ta’siri.
2. Aholi daromadlarini oshirish – Tadbirkorlik faoliyatining aholining daromadlarini oshirishdagi roli, yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali.
3. Kambag‘allikni qisqartirish – Tadbirkorlikning kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni, ayniqsa, kichik va o‘rta bizneslar orqali.

4. Ish o‘rinlarini yaratish – Tadbirkorlik faoliyatining yangi ish o‘rinlarini yaratish va bandlikni ta’minlashdagi roli.

5. Yangi biznes imkoniyatlari – O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatining yangi sohalar va imkoniyatlarni yaratish orqali aholi turmush sifatini oshirish.

6. Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash – Tadbirkorlik faoliyati orqali iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash.

7. Aholi bandligi va tadbirkorlik – Tadbirkorlik faoliyati orqali aholi bandligini ta’minlash va ularning turmush sharoitlarini yaxshilash.

8. Kichik va o‘rta biznesning rivoji – Kichik va o‘rta biznesning o‘sishi orqali kambag‘allikni qisqartirish va daromadlarni oshirish.

9. Tadbirkorlikni rag‘batlantirish siyosati – O‘zbekiston hukumati tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan siyosat va dasturlar.

10. Infrastrukturani rivojlantirish – Tadbirkarlar uchun iqtisodiy infratuzilma yaratish, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va kengaytirish.

11. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy asoslari – Tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari, bozor mexanizmlari, raqobatbardoshlik va kapitalni jalb qilish.

12. Tadbirkorlikni rivojlantirishning moliyaviy manbalari – Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun zarur moliyaviy manbalar va resurslarni tashkil etish.

13. Innovatsiyalar va tadbirkorlik – Tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni tatbiq etish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi turmush sifatini oshirish.

14. Mahalliy resurslardan samarali foydalanish – Mahalliy resurslar (xom ashyolar, ishchi kuchi)ni samarali ishlatish orqali tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shish.

15. Tadbirkorlik va eksport salohiyati – Tadbirkorlik faoliyatining eksport salohiyatini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar yaratish.

16. Tadbirkorlikning ijtimoiy mas’uliyati – Tadbirkorlik faoliyatida ijtimoiy mas’uliyatni e’tiborga olish, jamoatchilik manfaatlarini himoya qilish va rivojlantirish.

17. Tadbirkorlik faoliyati va ekologik barqarorlik – Tadbirkorlikning ekologik barqarorlikka ta’siri, resurslarni tejash va atrof-muhitni saqlashga qaratilgan faoliyatlar.

18. Qonunchilik va tadbirkorlik – O‘zbekiston qonunchiligi va soliq tizimining tadbirkorlikka ta’siri, yengilliklar va imtiyozlar.

19. Tadbirkorlik va aholi turmush sifati – Tadbirkorlik faoliyatining aholining turmush sifatiga ta’siri, yashash sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy farovonlikni oshirish.

20. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari – Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan hukumat dasturlari va ulardan foydalanish.

Takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyati aholi daromadlarini oshirishda qanday rol o‘ynaydi?
2. Tadbirkorlik orqali kambag‘allikni qisqartirishda qanday strategiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda?
3. O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy asoslari qanday belgilangan?
4. O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali aholi turmush sifatini qanday oshirish mumkin?
5. Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan qanday dasturlar va imtiyozlar mavjud?
6. Tadbirkorlik orqali aholi bandligini ta’minlashda qanday yondashuvlar qo‘llaniladi?
7. O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishda ta’lim, innovatsiyalar va texnologiyalarning ahamiyati qanday?
8. Tadbirkorlik faoliyati orqali aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratish qanday natijalar beradi?
9. O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishda xalqaro tajriba va hamkorlikning o‘rni qanday?
10. O‘zbekistonda tadbirkorlik orqali ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va kambag‘allikni qisqartirish qanday amalga oshiriladi?

XVIII BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH

18.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish.
18.2. Aholining o‘zini-o‘zi band qilishining iqtisodiy asoslari.
18.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish usullari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali aholining daromadlarini oshirish.

18.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish

Dunyoda kambag‘allik muammosi global ahamiyatga ega bo‘lib, uning yechimi faqatgina davlatning harakatlari bilan cheklanmaydi. Kambag‘allikni kamaytirish va aholi turmush darajasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, xalqaro hamjamiyatning diqqat markazida turadigan dolzarb masalalardan biridir.

Kambag‘allikni qisqartirish, zamonaviy jamiyatning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu muammoni hal etish uchun bir necha asosiy yo‘nalishlarni belgilash zarur:

1. Doimiy daromad manbalarini yaratish:Kambag‘allikni kamaytirish uchun aholi uchun doimiy daromad manbalarini yaratish juda muhimdir. Bu, o‘z navbatida, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq. Kichik va o‘rta bizneslarni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi va aholi o‘z iqtisodiy holatini yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday tadbirlar, shuningdek, mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, davlat tomonidan taqdim etilayotgan kreditlar va grantlar orqali tadbirkorlar o‘z bizneslarini kengaytirishlari mumkin, bu esa aholi daromadlarini oshirishga olib keladi.

2**.** Inson kapitalini oshirish: Aholining malakasini oshirish va ta’lim darajasini yaxshilash, ularning iqtisodiy faolligini oshirishga yordam beradi. Bu yo‘nalishda kasb-hunar ta’limi va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kasblar bo‘yicha o‘qitish va malaka oshirish kurslarini tashkil etish orqali aholi o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilashlari mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, ish beruvchilar uchun malakali kadrlar taqdim etadi va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Shuningdek, o‘qitish jarayonida amaliy tajriba va innovatsion yondashuvlar qo‘llanilishi, yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilishga xizmat qiladi.

3. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam ko‘rsatish: Kambag‘al oilalarga moddiy va nomoddiy yordam ko‘rsatish, ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga

yordam beradi. Bu yordam, ayniqsa, qisqa muddatli inqirozlar davrida muhim ahamiyatga ega. Moddiy yordam dasturlari, oziq-ovqat, tibbiy yordam va ta’limga oid xizmatlar orqali kambag‘allikni kamaytirishga imkon yaratadi. Biroq, bu yordamlar vaqtinchalik bo‘lishi kerak va aholini uzoq muddatli iqtisodiy mustaqillikka erishishga yo‘naltirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Har bir yo‘nalishning o‘ziga xos jihatlari, ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

1. Doimiy daromad manbalarini yaratish:

Ijobiy tomonlari: Bu yo‘nalish davlat byudjetiga katta yuk bo‘lmasligi bilan birga, qisqa muddatda natijalar berishi mumkin. Yangi ish o‘rinlari yaratish aholi daromadlarini oshiradi va iqtisodiy faollikni kuchaytiradi.

Salbiy tomonlari: Biroq, bu yo‘nalishda soliq imtiyozlari berish zarurati byudjetga tushumlarni kamaytirishi mumkin. Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirishda aholi o‘rtasida mavjud to‘siklar, masalan, iqtisodiy bilimlarning yetishmasligi, qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

2. Inson kapitalini oshirish:

Ijobiy tomonlari: Ta’lim darajasini oshirish, aholini malakali kadrlar bilan ta’minlashga yordam beradi, bu esa iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Kasb-hunar ta’limi orqali yangi ish o‘rinlariga tayyorlangan mutaxassislar yaratiladi.

Salbiy tomonlari: Biroq, ta’lim tizimining yangilanishi va malaka oshirish kurslarining tashkil etilishi vaqt va mablag‘ talab qiladi, bu esa dastlabki bosqichda qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

3. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam ko‘rsatish:

Ijobiy tomonlari: Moddiy va nomoddiy yordamlar kambag‘al oilalarga tezda yordam berishi va ularning iqtisodiy holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Salbiy tomonlari: Biroq, bunday yordamlar uzoq muddatli yechim emas, balki vaqtinchalik choralar sifatida ko‘rilishi kerak. Agar yordamlar muntazam ravishda berilsa, bu aholini qaramlikka olib kelishi mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kambag‘allikni qisqartirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular yangi ish o‘rinlarini yaratish, iqtisodiy faollikni oshirish va mahalliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Kichik bizneslar innovatsiyalarni joriy etish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish orqali iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi. Ular, shuningdek, mahalliy resurslardan foydalanish va mahalliy aholi ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynaydi, bu esa ularning iqtisodiy mustaqilligini oshiradi.

Kichik bizneslar ko‘pincha iqtisodiy inqirozlar davrida ham barqarorligini saqlab qolishi mumkin, chunki ular katta korxonalar bilan solishtirganda, bozor o‘zgarishlariga tezroq moslashadi. Ular yangi g‘oyalar

va innovatsiyalarni tezda amalga oshirishga qodir, bu esa iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiradi.

O‘zbekistonda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, barqaror rivojlanishini ta’minlash va aholi bandligini oshirishga qaratilgan tizimli choralar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, kreditlar va imtiyozlar, shuningdek, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazlari orqali ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda.

Biroq, tadbirkorlik sohasidagi rivojlanish sekin bormoqda. Bu holatni yaxshilash uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar talab etiladi. Masalan, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, soliq tizimini soddalashtirish, tadbirkorlar uchun o‘quv dasturlarini kengaytirish va innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash zarur. Shuningdek, kichik bizneslar uchun bozor talablarini o‘rganish va marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ko‘mak berish muhimdir.

Kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish uchun kompleks yondashuv zarur. Har bir yo‘nalishning ijobiy va salbiy tomonlarini inobatga olib, samarali strategiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish muhimdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi uchun yangi imkoniyatlar yaratish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ularning barqaror rivojlanishi, mamlakat iqtisodiyotining mustahkamligini ta’minlash va aholi farovonligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun, davlat va jamoatchilik o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiy rivojlanishida va aholi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ularning YAIMdagi ulushi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi farovonligini oshirishda o‘z o‘rnini egallaydi. Kichik bizneslarning iqtisodiy o‘sishga qo‘shgan hissasi quyidagi ustunliklar orqali namoyon bo‘ladi:

- Iqtisodiy o‘sish va barqarorlik: Kichik bizneslar mavjud imkoniyatlardan foydalanish yo‘llarini topish orqali barqaror va muttasil iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi. Ular innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantiradi.
- Resurslardan samarali foydalanish: Kichik bizneslar yer, ish kuchi va sarmoya kabi resurslardan foydalanib, ularni mahsulotlar va xizmatlarga aylantiradi. Bu jarayon YAIM va jon boshiga daromadlarni ko‘paytiradi, bu esa aholi daromadlarini oshirishga yordam beradi.

- Ish o‘rinlarini yaratish: Kichik bizneslar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ish o‘rinlarini yaratadi. Ular yangi ish o‘rinlarini ochish orqali bandlikni oshiradi va aholi farovonligini ta’minlaydi.
- Investitsiyalarni tez o‘zlashtirish: Kichik boshlang‘ich sarmoya bilan biznesni tashkil etish va investitsiyalarni tez o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon yuqori samaradorlikni ta’minlaydi va ko‘plab odamlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qiladi.
- Mintaqaviy rivojlanish: Kichik bizneslar mamlakat iqtisodiyotining muvozanatli rivojlanishiga hissa qo‘shib, chekka hududlarda korxonalar tashkil etadi. Cheklangan resurslardan oqilona foydalanish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar kiritish orqali ushbu hududlarning rivojlanishiga yordam beradi.
- Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish: Kichik bizneslar arzon narxlarda asosiy iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish orqali aholi turmush darajasini oshiradi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot sifatini yaxshilaydi.
- Import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar: Kichik bizneslar import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va keng miqyosda eksport qilish orqali mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlaydi. Bu jarayon mamlakatga valuta kirib kelishiga hissa qo‘shadi.

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasida bo‘lganlar mamlakatimiz jami aholisining taxminan 12-15 foizini, ya’ni 4-5 million kishini tashkil etmoqda. Bu aholining bir kunlik daromadi 10-13 ming so‘mdan oshmaydi. Ayniqsa, bir oilada mashina ham, chorva ham bo‘lganda, oilaviy daromadning kamida 70 foizi shu oilada biror kishi og‘ir kasal bo‘lganda, uni davolashga sarflanadi (2020).

Kambag‘allikni qisqartirishda inson kapitalini oshirish natijasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish vositasi ham uzoq yillar davomida katta samaralar berishini tarix ko‘p bor isbotlagan. Hozirgi dunyo manzarasidan ham buni ko‘rish mumkin. Rivojlangan davlatlarning deyarli barchasi bu natijaga inson kapitalini oshirish orqali erishgan.

O‘zbekistonning kambag‘allik darajasi va inson kapitalining ahamiyati haqida gapirganda, 4-5 million aholi uchun bir kunlik daromadning 10-13 ming so‘mdan oshmasligi, bu oilalarning moliyaviy ahvolini yanada og‘irlashtiradi. Aytish mumkinki, bir oilada mashina va chorva bo‘lsa ham, oilaviy daromadning kamida 70 foizi og‘ir kasallik holatida davolanish xarajatlariga sarflanadi. Bu esa kambag‘allikni qisqartirishda inson kapitalini oshirish va kichik biznesni rivojlantirishning muhimligini ko‘rsatadi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, inson kapitalini oshirish orqali uzoq muddatda katta samaralar berishi mumkin. Rivojlangan davlatlar bu natijaga erishish uchun inson kapitalini oshirishga katta e’tibor qaratgan.

Bugungi kunda, yetakchi davlatlar bilim berish va ko‘nikmalarni shakllantirishda boshqalarga nisbatan yaxshiroq o‘zlashtirishga erishgan. Bu esa samarali ishlovchi inson kapitalini yaratadi va rivojlanmagan davlatlar kabi mehnat resursini emas, balki mehnat mahsulini eksport qilishga imkon beradi.

Biroq, inson kapitalini oshirish jarayonida ham muammolar mavjud. Masalan, bu jarayon bir necha yillardan so‘ng o‘z natijasini berishi mumkin va shu yillar davomida inson kapitalini oshirish uchun katta mablag‘ talab etiladi. Bunday sharoitda, joriy davrdagi kambag‘allar e’tibordan chetda qolishi mumkin. Shuningdek, hukumat tomonidan ta’limni rivojlantirish uchun qanchalik islohotlar o‘tkazilsa ham, agar aholi ta’limga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirmasa, kutilgan natijalarga erishish qiyin bo‘ladi.

Iste’mol savatchasi va kambag‘allik mezonlari haqida ma’lumot berilgan. Kambag‘allik mezonini aniqlash uchun avvalo, "iste’mol savatchasi"ning huquqiy asoslarini belgilab olish talab etiladi. Bu esa aholi turmush darajasini va iqtisodiy ahvolini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Iste’mol savatchasi orqali aholi ehtiyojlari va xarajatlarini aniqlash, kambag‘allikni qisqartirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishda kichik biznes va inson kapitalini rivojlantirishning muhimligi ta’kidlanadi. Bunda hukumat va jamiyat o‘rtasida hamkorlik, ta’lim va tadbirkorlik muhitini yaxshilash uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki aholi farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Kambag‘allikni aniqlashda "iste’mol savatchasi" va "yashash minimumi"ning belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu indekslar har bir davlat ichki siyosatining asosida yotadi va mamlakatimizga xos ko‘rsatkichlar va me’yorlarga aniqlik kiritish hayotiy zaruratga aylandi. Aholi turmush darajasini aniqlashda "iste’mol savatchasi" tushunchasi muhim rol o‘ynaydi, chunki u muayyan iste’mol darajasini ta’minlovchi tovarlar va xizmatlar majmuasidan iborat.

Xalqaro amaliyotda aholi yashash minimumini hisoblash uchun statistik, sosiologik, resurs va normativ usullar qo‘llaniladi. Yashash minimumi har bir davlatda turlicha belgilanadi. Masalan, AQShda "iste’mol savatchasi"ga 300 nomdagi tovar va xizmatlar, Germaniyada 475, Angliyada 350, Rossiyada esa 156 nomdagi tovar va xizmatlar kiritilgan. "Iste’mol savatchasi" oziq-ovqat, nooziq-ovqat va xizmatlarga ajratilgan uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, undagi oziq-ovqatlar miqdori aholi turmush darajasini belgilaydi.

O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim yo‘nalish sifatida

belgilangan. Ushbu soha rivoji uchun mustahkam qonunchilik va huquqiy baza shakllantirilgan, biznes uchun imtiyoz va preferensiyalar berish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash hamda modernizatsiya qilish masalalarida davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko‘rsatilmoqda.

Respublikada kambag‘allikni kamaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida tegishli tashkilot va muassasalar bilan birgalikda dasturlar ishlab chiqilmoqda. Aholi ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta’minlash, turmush darajasini yaxshilash va ularning daromadlari hamda xarid qilish qobiliyatini oshirish maqsadida aholi ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini har bir mahalla kesimida o‘rganib, ularda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish choralari ko‘rilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatda rasmiy ish bilan band bo‘lmagan 1 million 400 mingdan ortiq ayollar va yoshlar mavjud. Xotin-qizlar o‘rtasida ishsizlik darajasi 13 foiz, yoshlar o‘rtasida esa 15 foizni tashkil etmoqda. Farg‘ona, Samarqand, Andijon, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida bu ko‘rsatkich yuqoriligicha qolmoqda. (www.stat.uz)**.**

18.1-jadvalda Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko‘rsatkichlarini ko‘rishimiz mumkin. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishda Yapon modeli misol keltirilishi mumkin. Yapon iqtisodiyotining asosiy tayanchlaridan biri kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali kambag‘allik darajasini pasaytirishga erishganidir. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash nafaqat hukumat darajasidagi asosiy masala sifatida qaraladi, balki bir nechta maxsus tashkil etilgan tashkilotlar, mahalliy hokimiyat organlari, savdo-sanoat palatalari va banklar tomonidan ham amalga oshiriladi.

Bu jarayonlar O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi, aholi farovonligini oshirishga yordam beradi va kambag‘allikni kamaytirish uchun kompleks yondashuvni ta’minlaydi.

Bugungi kunda Yaponiyada banklar tomonidan ajratiladigan jami kreditlarning qariyb 60 foizidan ortig‘i kichik va o‘rta biznesga to‘g‘ri keladi. Kichik biznes bilan ishlash tizimi to‘liq rag‘batlantirish, ularning faoliyatini modernizatsiyalash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, savdo-sotiqni rivojlantirish va iqtisodiy hamda texnik rivojlanish ko‘rsatkichlarini oshirish yo‘nalishlarida tashkil etilgan. Yaponiyada kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirish bo‘yicha tabaqalangan tizim yo‘lga qo‘yilgan.

18.1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi

Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023 Q3
Sanoat (mlrd.so'm)	61367,8	87962,0	83344,2	103020,8	124907,9	143892,7	119088,5
Qurilish (mlrd.so'm)	22469,4	37451,7	53960,9	63866,6	77907,1	93554,5	79990,5
Bandlik (ming kishi)	10541,5	10128,8	10318,9	9865,7	10080,6	10131,1	-
Eksport (mln.AQSH.dol)	2759,3	3810,8	4714,8	3100,9	3335,2	5712,9	5332,4
Import (mln.AQSH.dol)	7511,9	10916,2	14972,2	10943,3	11533,5	15213,6	13440,6
Savdo (mlrd.so'm)	92973,0	114896,4	138920,7	164106,1	186759,3	229166,7	167458,3
Xizmatlar (mlrd.so'm)	69212,7	84433,4	103106,6	114052,7	147061,6	181245,0	155220,8

Yaponiya iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (METI) tarkibida kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash Byurosi tashkil etilgan. Yapon hukumati franchayzingni rivojlantirish, kichik biznes uchun davlat mikro qarzlarini berish, ularning eksport salohiyatini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha qator amaliy choralarni qabul qilib kelmoqda. Bundan tashqari, ularga nisbatan imtiyozli soliq to'lash amaliyoti ham joriy qilingan.

Iqtisodiyotda kambag'allik darajasini kamaytirishning eng optimal yo'li kambag'allik statusi berilgan fuqarolarning biznes ko'nikmalarini oshirish orqali ularni kichik biznesga jalb etish hisoblanadi. Aynan kambag'al qatlamning biznesga jalb qilinishi orqali davlat qator muammolarni yechishga muvaffaq bo'lishi mumkin.

Jumladan, iqtisodiyotdagi bandlik muammosini hal etish, jinoyatchilikni kamaytirish va uni bartaraf etishga sarflanadigan byudjet mablag'larini tejash, kambag'allar sonini boshqarish va kamaytirish orqali byudjetdan amalga oshirilishi talab etiladigan ijtimoiy xarajatlarni optimallashtirishga erishadi. Shu bilan birga, Janubiy Koreyaning kichik biznesni tartibga solishdagi tajribasi ham diqqatga sazovordir, u yerda "Kichik biznes – iqtisodiy o'sishni harakatlantiruvchi kuchdir" degan shior davlat darajasiga ko'tarilib, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va salohiyatini shakllantiradi.

Bu yondashuvlar kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali kambag‘allikni kamaytirish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rni

Kichik *va* o‘rta biznes iqtisodiyotda muhim o‘rin tutib, korxonalar sonining 99,9 foizini, ish bilan bandlikning 87,9 foizini va eksportning 37,5 foizini tashkil etadi. Bandlikning 38 foizi mikro korxonalarga, 25 foizi kichik korxonalarga, 25 foizi o‘rta korxonalarga va 12 foizi yirik va global korxonalarga to‘g‘ri keladi (Ministry of Korea, 2021). Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashda o‘ndan ortiq tashkilot faoliyat yuritadi, ularning aksariyati hukumatga tegishlidir. Shu jumladan, Koreya Respublikasi Kichik va o‘rta biznes va startaplar vazirligi, Koreya tijorat va sanoat palatasi, Koreya savdo korporatsiyasi va boshqa tashkilotlar mavjud.

Koreya Respublikasi kichik va o‘rta biznes va startaplar vazirligi biznesning o‘sishi, korxonalar rivojlanishi bilan bog‘liq turli siyosatlarni amalga oshiradi. Texnologiya va bilimga asoslangan startaplarni rag‘batlantirish butun biznes muhitiga innovatsiya va faoliyat olib keladi. Shu maqsadda yangi g‘oyalarni tatbiq etish orqali ularni yangi kompaniyalarga aylantirish, sarmoyalarni jalb qilish, biznesga investitsiya kiritish va qayta investitsiyalashni yengillashtiradigan moliyalashtirish yo‘llarini hamda korxonalar raqobatbardoshligini oshiradigan mexanizmlarni ishlab chiqadi.

Boshqa idoralar esa bozorni o‘rganish, tadbirkorlarni tegishli zarur ma’lumotlar bilan ta’minlash, jahon bozoriga chiqishga yordam berish, soliqlar va bojxona tariflarini kamaytirish hamda imtiyozli kreditlar olish masalalari bo‘yicha faoliyat yuritadi.

Rivojlangan mamlakatlarda aksariyat kichik biznes umumiy ovqatlanish, savdo, transport xizmatlari, turizm, ekskursiya, maishiy xizmat va boshqa xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat yuritadi. Albatta, aynan kambag‘allikni bartaraf etilishida kichik biznes katta mavqeyini egallagan va qisqa muddatlarda aynan kichik biznesni rivojlantirish orqali ularning darajasini kamaytirishga erishgan davlatlar, xususan, Yaponiya va Janubiy Koreyaning tajribasini tahlil etish hamda ijobiy tajribalarini O‘zbekistonda qo‘llash yuzasidan amaliy takliflar berish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz aholisining kambag‘allikdan chiqib ketishi uchun eng muhim omil – bu, insonning intilishi, o‘z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakat qilishi kerak. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, xorijiy tajribalar tahlillari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotni isloh qilish va aholi daromadlarining yuqori darajasini ta’minlashda oilaviy tadbirkorlikning ahamiyati va roli muhim o‘ringa ega.

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) ekspertlari O‘zbekistonda 2020-2023-yillarda aholi o‘zini o‘zi band qilishining yashirin iqtisodiyotni qisqarishiga ta’sirini o‘rgandi.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va qator iqtisodchi olimlarning fikriga ko‘ra, aholi orasida o‘zini o‘zi band qilgan holda faoliyat olib boradiganlar ulushining ortishi norasmiy bandlik va yashirin iqtisodiyot bilan birga kambag‘allik darajasining qisqarishiga ham ta’sir qiladi. Chunki, hukumatlar tomonidan tadbirkorlarga keng yo‘l ochilishi, xususan ularni iqtisodiy-huquqiy qo‘llab-quvvatlash aholining erkin faoliyat olib borish orqali daromadlari oshishiga turtki bo‘ladi (Gary S. Fields, Yoonyoung Cho, Hilal Atasoy).

XMT tavsiyalari va tahlillariga ko‘ra, ish bilan band aholi orasida eng past daromadli va ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlovga muhtoj hamda kambag‘allikka tushib qolish xavfi ostidagi qatlam – bu o‘zini o‘zi band qilgan aholidir. Dunyo bo‘yicha aholining o‘zini o‘zi band qilish darajasi o‘rtacha 42,5% ga teng bo‘lmoqda.

Dunyo mintaqalari orasida aholini o‘zini o‘zi band qilish darajasi keskin farqlanadi. Jumladan, past daromadli mamalakatlarda o‘zini o‘zi band qilish darajasi 76,5% ni tashkil etsa, o‘rtacha daromadli mamlakatlarda ushbu raqam 46,2%ni, yuqori daromadli mamlakatlarda esa 10,0% ni tashkil etadi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘zini o‘zi band qilish va norasmiy bandlikda ayollar ishtiroki yuqoriligicha qolayotgani hamda ularning mehnat va boshqa huquqlari to‘liq himoya qilinmasligi, oqibatda kambag‘allik holatiga tushish xavfi ostida yashayotgani tadqiqotlarda aks etgan [3] (Women in Informal Employment: Globalizing and Organizing (WIEGO)).

O‘zbekistonda aholining o‘zini o‘zi band qilishini rasmiylashtirish sinov tarzida 2019-yildan boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi qaroriga muvofiq, o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarga vaqtinchalik mehnat guvohnomalari, ularning egalariga mehnat stajini hisobga olish va rag‘batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi berilishini nazarda tutadigan tartib joriy qilindi. Yangi tartibga ko‘ra, o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar mehnat guvohnomasini olishi, ya’ni ro‘yxatdan o‘tishda bir yillik muddat uchun bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 4,5 baravarigacha ijtimoiy soliq to‘lagan holda jami 24 turdagi kasbda faoliyat olib borishi mumkin.

O‘tgan davrda o‘zini o‘zi band qilishga aholini ko‘proq jalb etish hamda yangi mexanizm samaradorligini oshirish maqsadida unga qator yangiliklar kiritildi. Xususan bugunga kunga kelib, fuqarolar o‘zini o‘zi band qilishni rasmiylashtirish uchun BHMning 1 baravari miqdorida ijtimoiy soliq to‘laydi hamda 101 ta kasbda mehnat faoliyatini olib borish imkoniga ega.

Tahlillarga ko‘ra, 2020-yil davomida O‘zbekistonda 561,2 ming nafar fuqaro o‘zini o‘zi band qilgan bo‘lsa, 2023-yil yakunida ularning soni 2 533,9 ming nafarga yetdi. (18.2-jadval). Bu davrda o‘zini o‘zi band qilganlar soni 4,5 baravarga oshgan bo‘lsa, ularning ijtimoiy soliq shaklidagi jami tushumi 125,3 mlrd. so‘mdan 861,5 mlrd. so‘mgacha yoki 7 marotabaga oshgan.

18.2-jadval

O‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar sonining o‘sish sur’ati[64]

Hududlar		2020-yilda (ming nafar)	O‘zini o‘zi band qilish darajasi (foiz hisobida)	2023-yilda (ming nafar)	O‘zini o‘zi band qilish darajasi (foiz hisobida)	2020-2023-yillardagi o‘sish sur’ati (baravar)
Respublika bo‘yicha		***561,2***	***4,2***	***2533,9***	***18,1***	***4,5***
	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	24,8	3,6	108,8	14,8	4,4
	Andijon viloyati	60,3	4,9	224,4	16,9	3,7
	Buxoro viloyati	40,0	5,1	177,9	22,2	4,4
	Jizzax viloyati	17,7	3,3	110,2	19,9	6,2
	Qashqadaryo viloyati	37,8	3,2	270,1	22,1	7,1
	Navoiy viloyati	17,0	4,2	85,9	20,1	5,1
	Namangan viloyati	53,8	5,0	194,9	17,3	3,6
	Samarqand viloyati	78,0	5,5	339,2	22,6	4,4
	Surxondaryo viloyati	36,7	3,7	194,1	19,2	5,3
	Sirdaryo viloyati	13,6	4,1	68,4	20,2	5,0
	Toshkent viloyati	37,7	3,2	173,6	14,0	4,6
	Farg‘ona viloyati	63,0	4,4	229,7	14,8	3,6
	Xorazm viloyati	26,2	3,7	137,9	17,8	5,3
	Toshkent shahar	54,6	4,4	218,8	15,7	4,0

64 Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari.

Tahlil etilayotgan davrda o‘zini o‘zi band qilganlar soni va o‘zini o‘zi band qilish darajasining o‘sishi hududlarda turlicha kechgan. Bu borada eng yuqori o‘sish Qashqadaryo viloyatiga tegishli (7 marta). Jizzax viloyatida 6 marta, Surxondaryo, Xorazm, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida 5 martadan ortiq o‘sgan. Nisbatan pastroq o‘sish Andijon (3,7 marta), Farg‘ona (3,6 marta) va Namangan (3,6 marta) viloyatlarida qayd etilgan.

O‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarning daromadlari shakllanishi va ortishida faoliyat yo‘nalishlari ham muhim rol o‘ynaydi (18.3-jadval). Hozirda o‘zini o‘zi band qilish faoliyat turlari asosan qishloq xo‘jaligi, maishiy va ijtimoiy yo‘nalishdagi xizmat turlariga to‘g‘ri kelmoqda. Ayniqsa, hududlarda ushbu sohalarda o‘zini o‘zi band qilganlar ulushi yuqoriligicha qolmoqda.

Misol uchun: Jizzax viloyatida o‘zini o‘zi band qilganlarning 39,7 %i, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida esa 37,6 %i qishloq xo‘jaligida band bo‘lsa, Buxoro viloyatida ushbu ko‘rsatkich 36,5 %ni tashkil etadi. Bu o‘rinda raqamli iqtisodiyot sohasidagi bandlar ulushi barcha hududlarda nisbatan pastligicha qolayotganini qayd etish lozim.

2020-2023-yillarda O‘zbekistonda ishsizlik darajasi 10,5% dan 6,8% gacha, kambag‘allik darajasi 17,0% dan 11,0% gacha pasaygan. Ushbu davrda ish bilan band aholi orasida rasmiy bandlar soni 5,7 mln. kishidan 6,5 mln. kishigacha oshgan bo‘lsa, norasmiy bandlar ulushi 43,0% dan 39,0% gacha pasaygan. Bunga aholining o‘zini o‘zi band qilishni rasmiylashtirishi orqali daromad topishi asosiy sabablardan bo‘lgan.

18.3-jadval

O‘zini o‘zi band qilganlarning sohalar bo‘yicha taqsimlanishi[65]

(01.01.2024-y holatiga ko‘ra (foiz hisobida)

Hududlar	Ijtimoiy soha	Sanoat	Qishloq xo‘jaligi	Axborot kommunikatsiya	Maishiy xizmatlar	Boshqa sohalar
Respublika bo‘yicha	***12,6***	***11,1***	***28,4***	***2,5***	***36,9***	***8,5***
Qoraqalpog‘iston Res	10,8	6,9	32,3	2,8	36,7	10,7
Andijon viloyati	9,2	16,2	25,5	1,9	37,6	9,6
Buxoro viloyati	11,0	8,0	36,5	1,5	36,3	6,6
Jizzax viloyati	12,1	6,5	39,7	2,0	33,1	6,6

[65] *Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari.*

Qashqadaryo viloyati	16,2	8,9	28,8	1,8	35,4	9,0
Navoiy viloyati	8,3	6,8	35,1	1,5	42,2	6,2
Namangan viloyati	13,6	12,3	33,4	1,6	30,9	8,2
Samarqand viloyati	16,7	11,7	22,0	1,7	38,2	9,7
Surxondaryo viloyati	13,6	7,7	37,6	1,9	31,1	8,1
Sirdaryo vil oyati	8,2	7,9	36,0	2,0	35,8	10,1
Toshkent viloyati	11,2	9,5	32,7	2,9	36,3	7,4
Farg‘ona viloyati	8,0	21,8	26,8	1,7	33,6	8,1
Xorazm viloyati	10,4	9,0	37,6	2,2	34,2	6,6
Toshkent shahri	16,0	10,1	1,7	9,1	53,5	9,5

Amalga oshirilgan tahlillardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2023-yil yakunida norasmiy iqtisodiyot ulushi 323,0 trln. so‘mni, yashirin iqtisodiyot hajmi esa salkam 100,0 trln. so‘mni tashkil etgan. Ish bilan band aholining 39,0% iqtisodiyotning norasmiy sektorida faoliyat yuritmoqda.

Lekin mamlakatda aholining o‘zini o‘zi band qilish orqali faoliyat yuritishi uchun katta imkoniyatlar saqlanib qolmoqda. Bu imkoniyatdan foydalanish uchun turli institutsional, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Jumladan, amaldagi tartibga muvofiq, aholining o‘zini o‘zi band qilish turlarini cheklamaslik (hozirda 101 ta turi mavjud), qonunga zid va ba’zi cheklovlarni inobatga olmagan barcha kasb-hunarlarda band bo‘lgan aholining o‘zini o‘zi band qilishini rasmiylashtirishiga ruxsat berilishi tavsiya etiladi.

2. Hozirda mamlakatda salkam 5,5 mln. fuqaro norasmiy sektorda faoliyat olib bormoqda. Ularni norasmiy sektordan olib chiqish va o‘zini o‘zi band qilishini rasmiylashtirishi uchun mavjud imtiyozlarni yanada takomillashtirish va yangilarini joriy etish lozim. Misol uchun, amaldagi tartib bo‘yicha o‘zini o‘zi band qilganlarga mehnat guvohnomasini rasmiylashtirish to‘lovini (BHMning 1 baravari – 375 000 so‘m) to‘lash bo‘yicha imtiyozlar joriy etish mumkin. Jumladan, aholining kam ta’minlangan qatlamiga mansub va ilk marta o‘zini o‘zi band qilayotganlar uchun dastlabki yilda bepul ro‘yxatdan o‘tkazish yoki to‘lashni kechiktirish

tartibini kiritish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, o‘zini o‘zi band qilishni rasmiylashtirish to‘lovini qat’iy belgilangan miqdorlarda emas, o‘zini o‘zi band qilgan fuqaro oladigan daromaddan kelib chiqib belgilash tartibiga o‘tish lozim.

Bu borada ayrim xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish mumkin.

Ma’lumot uchun: Rossiya Federatsiyasida o‘zini o‘zi band qilganlarga uch yil davomida aniq va qat’iy soliq miqdori belgilanmagan. Faqatgina 2019-yilga kelib bunday faoliyat turi bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar uchun ro‘yxatdan o‘tganidan so‘ng yangi, “kasb daromadi solig‘i” to‘lovi joriy etilgan. Bunda shaxslar jismoniy shaxslarga ko‘rsatadigan xizmatidan oladigan daromadidan 4%, yuridik shaxslarga ko‘rsatadigan xizmatidan oladigan daromadidan 6% miqdorida to‘lov qiladi.

Ilk bor o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarning daromadlari 10 000 rublga yetguniga qadar soliq imtiyozlari (jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatganda daromadining 1%i, yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatganda 2%i) berilgan. Bir nechta faoliyat turini hisobga olmaganda o‘zini o‘zi band qilish mumkin bo‘lgan kasblar ro‘yxati cheklanmagan hamda belgilangan miqdorlar kamida 10 yil (2028-yilga qadar) davomida o‘zgartirilmaydi. Mabodo fuqaro ro‘yxatdan o‘tgan, ammo faoliyat bilan shug‘ullanmagan bo‘lsa, u daromad solig‘i to‘lamaydi, biroq o‘zini o‘zi band qilganlar qatorida imtiyozlardan foydalanadi.

3. O‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar orasida daromadi past, ishsiz va kambag‘allar bo‘lishini inobatga olib, ularning faoliyatini dastlabki yillarida ijtimoiy nafaqa, moddiy yordam va boshqa ijtimoiy to‘lovlar bilan yoki nomoliyaviy ko‘rinishdagi imtiyoz va preferensiyalar orqali qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish mumkin. Jumladan:

- kam ta’minlangan oilalar o‘zini o‘zi band qilganida ularga kamida bir yil bolalar nafaqasi va moddiy yordam berish;

- mehnat bozoriga ilk bor kirib kelgan yoki uzoq vaqt doimiy ish topa olmagan, shuningdek, ehtiyojmand oilalarning vakillari o‘zini o‘zi band qilganidan so‘ng ham ularga ma’lum vaqt davomida ishsizlik nafaqasini ajratib turish;

- o‘ziga xos kelishuv, ya’ni “ijtimoiy shartnoma” tuzish orqali boshqa nomoliyaviy imtiyozlarni ham taklif etish;

- ketma-ket 3 yil davomida o‘zini o‘zi band qilgan holda ijtimoiy soliq to‘lagan fuqarolarni farzandlarining maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘lovi bir qismidan ozod etish va hokazo.

4. Aholi o‘rtasida o‘zini o‘zi band qilish orqali rasmiy bandlik, ish staji va pensiya ta’minlanishi, shuningdek, mahalliy budjetga ulush qo‘shish orqali vatanparvarlik hissi kuchayishini targ‘ib qilishga e’tiborni kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, xususiy biznes va ish beruvchilar bilan

o‘zini o‘zi band qilganlarga ko‘maklashish, ularga munosib ish o‘rinlarini taklif etish dasturlariga alohida urg‘u berish lozim.

18.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish usullari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali aholining daromadlarini oshirish

O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri kichik biznesni ustuvor darajada rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlar o‘tkazilib kelinmoqda, kichik biznesning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Kichik biznes faoliyatini tashkil etish, erkin faoliyat yuritishini kafolatlovchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar, kichik biznesga ko‘maklashuvchi bozor infratuzilmasi shakllantirildi. Natijada bugungi kunga kelib, kichik biznes sub’ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda, iste’mol tovarlari, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda, servis xizmatlari ko‘rsatish va turizm kabi sohalarda faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Mamlakatimizda qisqa davrda to‘plangan tajribalarimiz kichik biznes barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim omili ekanligini isbotladi. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o‘zgartirishlar va diversifikatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishi, uning raqobatbardoshligini oshishi hamda yuqori makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishishimizda kichik biznes muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadiga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan. Muhim vazifalar sifatida hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish, sharoiti og‘ir bo‘lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo‘l ochish, iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish kabilar alohida belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimiz hududlarida kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirish, o‘zini-o‘zi band qilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha to‘plangan tajribalar

shuni ko‘rsatadiki, korxonalarning raqobatdoshlik darajasini oshirish ularning o‘z faoliyatlari davomida kengayib, yiriklashib borishini taqozo etadi. Lekin, kichik biznes sub’ektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida belgilangan imtiyoz va yengiliklarga ega bo‘lish imkonini beruvchi korxonalarning miqdoriy chegaralari ayrim hollarda ushbu jarayonlarga to‘sqinlik qilishi mumkin. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuksalishi, kichik biznes sub’ektlari uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida iqtisodiy salohiyati ortgan ko‘plab korxonalar mazkur imtiyozlardan foydalanishni davom ettirish maqsadida o‘z xodimlari sonini belgilangan miqdoriy chegara doirasida saqlab qolishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, ularning yiriklashish jarayoniga to‘sqinlik qilmoqda.

Kichik biznesning asosiy xususiyatlaridan biri mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo‘ladigan asosiy ko‘rsatkichlarni qisqa muddat ichida ta’minlab berishi bilan ajralib turadi. Ya’ni kichik biznes mamlakat ichki bozorida taqchil bo‘lgan tovar va xizmatlar bilan to‘ldiradigan, iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim soha hisoblanadi. Shuningdek mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun ish bilan bandligini va daromadlarini oshirish hamda mulkdorlar sinfini shakllantirishda eng asosiy omil va manba bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati:

- mamlakat yalpi milliy mahsulotining tarkib va miqdor jihatdan ko‘payishini ta’minlaydi;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun zamin yaratib beradi;
- aholining joriy daromadlari va jamg‘armalarining oshishiga hamda farovonlik darajasini ko‘tarilishiga zamin yaratadi;
- sohaviy va mintaqaviy yakka hokimlikni bartaraf etishi;
- davlat byudjet mablag‘larining bir me’yorda bo‘lishini ta’minlaydi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatda faol eshtirok etadi;
- resurslardan oqilona foydalanish;
- yangi texnika-texnologiya, asbob-uskunalarni ishlab chiqarishga joriy etish va mehnat unumdorligini oshiradi.

Shuning uchun ham jahonning barcha mamlakatlarida kichik biznes milliy iqtisodiyotining poydevori hisoblanadi. Bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ham kichik korxonalarning soni ularda mavjud bo‘lgan jami korxonalarning 70-80 foizini tashkil etmoqda. Masalan, Yaponiya aholisining esa 71,7 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqda. Kichik biznes rivojlanishining iqtisodiy ahamiyatlaridan biri bu mamlakat yalpi ichki mahsulotini tarkib va miqdor jihatdan ko‘payishini ta’minlashdan iboratdir. Keyingi yillarda kichik

biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida kichik biznesning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o‘sib, 2021-yilda 54,9 foizni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-dekabrida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 54,3 % ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o‘zgarishsiz qoldi (18.2-rasm)da keltirilgan.

Kichik biznes mamlakatning iqtisodiy salohiyatini ko‘tarishi, davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi va gullab-yashnashining o‘lchovi bo‘lganligi uchun O‘zbekistonda ham kichik biznesning rivojlanishini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Respublikamizda kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunning asosiy ustivor vazifasidir.



18.2[66]-rasm. O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotida 2020-2024-yillarda kichik biznesning ulushi, %

2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi hududlar bo‘yicha eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida – 77,8,%, Jizzax viloyatida – 74,4 %, Namangan viloyatida 73,4,%, Farg‘ona viloyatida – 73,1 %, Buxoro viloyatida – 73,0 %, Samarqand viloyatida – 72,3 % va Xorazm viloyatida – 72,3 % ni tashkil etdi[67].Kichik biznesga bo‘lgan e’tiborning iqtisodiy sabablari:

- ichki bozorni mahalliy tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish;
- aholining harid qobiliyatini oshirish;
- mamlakatning eksport salohiyatini yuksaltirish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish;
- servis xizmatlari ko‘rsatishni rivojlantirish;
- yirik korxonalarni butlovchi detallar va qismlar bilan ta’minlash;
- raqobat muhitini vujudga keltirish;
- mamlakat ichida kapitalning aylanuvchanligini ta’minlash kabilar.

Haqiqatdan ham kichik biznes sub’ektlari ichki bozorni mahalliy tovar va xizmatlar bilan to‘ldirayotgan, yirik korxonalarni butlovchi detallar va qismlar bilan ta’minlayotgan va mamlakat eksport salohiyatini oshirayotgan sohaga aylanib bormoqda. Buni mamlakat eksport salohiyatidagi o‘rnini

[66] https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr
[67] https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr

oshib borayotganidan ham ko‘rish mumkin. Kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o‘rni ham asta-sekin kengayib bormoqda. Uning eksport hajmidagi ulushi 2021-yilda 22,3 foizni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2010-yilga nisbatan 8,6 foizga oshgan. 2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Surxondaryo viloyatida – 86,5 %, Xorazm viloyatida – 66,0 %, Sirdaryo viloyatida – 62,4 %, Jizzax viloyatida – 62,4 %, Farg‘ona viloyatida – 61,1,% va Buxoro viloyatida – 56,4 % ni tashkil qildi. 2024-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 9,0 mlrd AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 33,3,% ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar(ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi va jami hajmidagi ulushi (yanvar-dekabr oylarida) (18.3-rasm).



18.3-rasm[68]

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 18 963,9 mln AQSH dollarini yoki jami importning 48,6 % ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmi (yanvar-dekabr oylarida, mlrd AQSH doll.)

[68] https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr



Har qanday davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatida eksport muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining ravnaqi eksport salohiyatining yuksalishiga ham bevosita bog‘liqdir. Mustaqillik yillarida mamlakatimizning eksport salohiyati tubdan o‘zgardi. Bunda kichik biznesning o‘rni ham beqiyosdir. Kichik biznes sub’ektlari bugungi kunda ichki iste’mol bozorini import o‘rnini bosuvchi tovarlar bilan to‘ldiribgina qolmay, balki yuqori sifatli, raqobatbardosh tovarlarni jahon bozoriga taklif etmoqda. Kichik biznes mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida ham eng muhim sohaga aylanib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish, ovqatlanish, mehmonxona va turizm faoliyatlarida kichik biznesning salmog‘i juda kattadir. Keyingi paytlarda sanoatda tarmoqlarida modernizatsiya, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan o‘zgartirish, sanoatda chuqur tarkibiy o‘zgartirishlar va diversifikatsiyani amalga oshirilishi natijasida qishloq joylarda ham sanoat tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Bunda esa kichik biznes asosiy yetkachilardan hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarishda ham kichik biznesning ulushi yildan-yilga oshib bormoqda.

Kichik biznesni sanoat tarmoqlaridan oziq-ovqat sanoatida, qayta ishlash sanoati, yengil sanoatda ulushi yuqori bo‘lmoqda. Asta sekinlik bilan kichik biznes sub’ektlari sanoatning boshqa muhim tarmoqlariga ham faoliyati oshishib bormoqda. Kichik biznesni rivojlantirishdan yana bir maqsad mamlakatning ma’naviytarbiyaviy va madaniy ishlarini yuksaltirish. Chunki kichik biznes ma’naviytarbiyaviy va madaniy sohalarni rivojlanishiga ham o‘z hissasini qo‘shadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat hajmidagi ulushi 2024-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 286 675,2 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 32,4,%,ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 118,0 % ni tashkil qildi (18.5-rasm)[69]

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami hajmidagi ulushi (yanvar-dekabr oylarida) Hajmi, trln so‘m 18.5-rasm[70]

[69] https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr
[70] https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr



Ulushi, % da



18.5-rasm

Kichik biznesni sanoat tarmoqlaridan oziq-ovqat sanoatida, qayta ishlash sanoati, yengil sanoatda ulushi yuqori bo‘lmoqda. Asta sekinlik bilan kichik biznes sub’ektlari sanoatning boshqa muhim tarmoqlariga ham faoliyati oshishib bormoqda. Kichik biznesni rivojlantirishdan yana bir maqsad mamlakatning ma’naviytarbiyaviy va madaniy ishlarini yuksaltirish. Chunki kichik biznes ma’naviytarbiyaviy va madaniy sohalarni rivojlanishiga ham o‘z hissasini qo‘shadi.

Respublikamizda kichik biznesni rivojlantirishning ma’naviy-tarbiyaviy va madaniy sabablari:

- an’anaviy xalq amaliy san’ati va badiiy hunarmandchilikning tiklanishiga ko‘maklashish;
- sport va sog‘lomlashtirish maskanlarini barpo etish;
- xususiy o‘quv muassasalarini ochish;
- obodonlashtirish, ko‘rkamlashtirish va ekologik tarbiyani yo‘lga qo‘yish;
- bolalar, o‘smirlar hamda yoshlar lagerlarini tashkil qilish.

Keyingi 3-4 yil ichida mamlakat iqtisodiyotida davlat ulushini qisqarishi, erkin bozoro mexanizmlarini amal qilishi natijasida kichik biznesning rivojlanishida tub bo‘rilish bo‘ldi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi ham oshib bormoqda. Ayniqsa, kichik va xususiy korxonalarning ishlab chiqarish tarmoqlaridagi hissasi ortib bormoqda.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Yevropa Ittifoqi (EU) kambag‘allikni qisqartirish siyosati – Yevropa Ittifoqi tomonidan kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan umumiy siyosat va strategiyalar.
2. HUDIM (Nomenklatura mintaqalari) – Yevropadagi hududiy birliklarning tasnifi, kambag‘allikni aniqlashda ishlatiladigan hududiy statistik metodlar.
3. Regional tahlil – Kambag‘allikni qisqartirishda hududiy farqlarni tahlil qilish, turli mintaqalardagi o‘ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar.
4. Kambag‘allikni qisqartirishdagi mintaqaviy siyosatlar – Yevropaning turli hududlarida kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan maxsus siyosatlar va dasturlar.
5. Yevropada tengsizlik va kambag‘allikni qisqartirish – Yevropa Ittifoqining kambag‘allikni qisqartirishga doir yangi yondashuvlari va natijalari.
6. Kambag‘allik va ijtimoiy farovonlik o‘rtasidagi aloqalar – Yevropada ijtimoiy farovonlikni ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirishning o‘zaro bog‘liqligi.
7. Ijtimoiy xarajatlar va kambag‘allikni qisqartirish – Yevropada kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlar va ular uchun ajratiladigan xarajatlar.
8. Yevropa mintaqalarida kambag‘allikni o‘lchash usullari – Kambag‘allikni baholashda Yevropada qo‘llaniladigan metodologik yondashuvlar.
9. Mintaqaviy tengsizlikni kamaytirish – Yevropaning turli hududlarida kambag‘allikni kamaytirish maqsadida tengsizlikka qarshi kurashish.
10. Yevropadagi kambag‘allikni qisqartirishning asosiy usullari – Yevropa mamlakatlarining kambag‘allikka qarshi kurashishdagi asosiy vositalari va yondashuvlari.
11. O‘zbekistonning kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi – O‘zbekistonning kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan asosiy strategik yo‘nalishlari.
12. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha iqtisodiy vositalar – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish uchun ishlab chiqilgan iqtisodiy vositalar va siyosatlar.
13. Kambag‘allikni qisqartirishda davlatning roli – O‘zbekiston hukumatining kambag‘allikka qarshi kurashdagi o‘rni va davlat siyosatining ahamiyati.

14. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishga doir statistik tahlil – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishni o‘lchash va tahlil qilishda ishlatiladigan statistik ko‘rsatkichlar.

15. Kambag‘allikni qisqartirishda sohalararo yondashuv – O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurashishda iqtisodiyotning turli sohalarining birgalikda ishlashi.

16. Kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy yordam dasturlari – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish uchun amalga oshiriladigan ijtimoiy yordam dasturlari va ularning samaradorligi.

17. Bandlik va daromadlarni oshirish strategiyalari – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish uchun bandlikni oshirish va daromadlarni taqsimlash bo‘yicha strategiyalar.

18. Ijtimoiy ta’minot va kambag‘allikni kamaytirish – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy ta’minot tizimining o‘rni.

19. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda xalqaro tajriba – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xalqaro tajribaning o‘rganilishi va tatbiqi.

20. Kambag‘allikni qisqartirishning milliy va mintaqaviy o‘lchovlari – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha milliy va mintaqaviy maqsadlar va ko‘rsatkichlar.

Takrorlash va mavzuni mustahkamlash

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish qanday amalga oshiriladi?

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi uchun daromad manbalarini kengaytirish va iqtisodiy mustaqillikni ta’minlash orqali amalga oshiriladi. Tadbirkorlik faoliyati, mahalliy ehtiyojlarni qondirish va yangi mahsulotlar yoki xizmatlar taklif qilish orqali iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi.

2. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun qanday davlat dasturlari mavjud?

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun bir qator davlat dasturlari mavjud, jumladan:

- Kichik biznesni rivojlantirish dasturlari: Kreditlar, subsidiyalar va investitsiya dasturlari.
- Tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim dasturlari: Malaka oshirish va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- Soliq imtiyozlari: Kichik biznes uchun yengillashtirilgan soliq rejimlari.

3. Aholining o‘zini-o‘zi band qilishining iqtisodiy asoslari qanday tushuniladi?

O‘zini-o‘zi band qilish iqtisodiy mustaqillikni ta’minlaydi va aholi uchun daromadlarni oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon, odamlarning o‘z qobiliyatlari va resurslarini samarali ishlatishiga asoslanadi, bu esa iqtisodiy barqarorlik va farovonlikni ta’minlaydi.

4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda yuridik va moliyaviy yordamning o‘rni qanday?

Yuridik yordam tadbirkorlik faoliyatini qonuniy ravishda yuritish, huquqlarni himoya qilish va nizolarni hal qilishda muhimdir. Moliyaviy yordam esa investitsiyalarni jalb qilish, biznesni kengaytirish va rivojlantirish uchun zarur. Bu ikki yordam turi tadbirkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muhimdir.

5. Aholining o‘zini-o‘zi band qilishi orqali daromadlarni oshirish va kambag‘allikni kamaytirish uchun qanday choralar ko‘riladi?

Aholining o‘zini-o‘zi band qilishi uchun:

- Tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘qitish: Malaka oshirish dasturlari orqali.
- Kredit va subsidiyalar: Moliyaviy yordam ko‘rsatish orqali.
- Bozorni o‘rganish: Talabga mos mahsulotlar ishlab chiqarishga rag‘batlantirish.

6. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ta’lim va malaka oshirishning roli qanday?

Ta’lim va malaka oshirish, tadbirkorlarning qobiliyatlarini oshirish, yangi g‘oyalar va innovatsiyalarni joriy etish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, biznesning raqobatbardoshligini oshiradi va yangi ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi.

7. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish va bandlikni ta’minlash qanday amalga oshiriladi?

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yangi ish o‘rinlarini yaratadi, chunki ular ko‘pincha mahalliy ehtiyojlarni qondirish va yangi mahsulotlar yoki xizmatlar taklif qilishda faoliyat yuritadilar. Bu jarayon, aholi o‘rtasida bandlikni oshirishga yordam beradi.

8. Kichik biznesni rivojlantirishda soliq va huquqiy tartibotlarning roli qanday ahamiyatga ega?

Kichik biznesni rivojlantirishda soliq va huquqiy tartibotlarning roli juda muhimdir. Yengil soliq rejimlari va oddiy huquqiy tartibotlar tadbirkorlik muhitini yaxshilaydi, bu esa tadbirkorlar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Raqobatbardoshlikni oshirish: Soliq imtiyozlari va yengillashtirilgan tartiblar tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga yordam beradi.

- Iqtisodiy barqarorlik: Huquqiy himoya va qonuniy tartiblar tadbirkorlar uchun xavfsizlikni ta’minlaydi, bu esa investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.
- Innovatsiyalarni rag‘batlantirish: Yengil tartib va soliq rejimlari yangi g‘oyalar va innovatsiyalarni joriy etishga rag‘batlantiradi.

9. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali aholining daromadlarini oshirish uchun qanday innovatsion yondashuvlar mavjud?

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali aholining daromadlarini oshirish uchun quyidagi innovatsion yondashuvlar mavjud:

- Raqamli texnologiyalar: E-tijorat, onlayn marketing va raqamli to‘lov tizimlari orqali yangi bozorlarni ochish.
- Innovatsion mahsulotlar va xizmatlar: Bozor talabiga mos yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish.
- Ijtimoiy media va marketing: Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish orqali brendni rivojlantirish va mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlash.
- Yashil texnologiyalar: Ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarni taklif etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish.

10. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va hamkorlikning o‘rni qanday?

Xalqaro tajribalar va hamkorlik kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki:

- Muvaffaqiyatli biznes modellari: Xalqaro tajribalar orqali muvaffaqiyatli biznes modellarini o‘rganish va joriy etish imkoniyati.
- Investitsiyalar va texnologiyalar: Xalqaro hamkorliklar orqali investitsiyalar va yangi texnologiyalarni jalb qilish.
- O‘rganish va rivojlanish: Boshqa mamlakatlarning tajribalaridan o‘rganish orqali o‘z biznesini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratish.
- Tarmoq va aloqalar: Xalqaro hamkorliklar orqali biznes aloqalarini kengaytirish va yangi bozorlarni ochish imkoniyatlari.

XIX BOB. O‘ZBEKISTONDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA INSON TARAQQIYOTI, TA’LIM SIFATINI OSHIRISH. INSON KAPITALIGA QILINADIGAN INVESTITSIYALAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR. INSON KAPITALI NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

19.1. O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish va inson taraqqiyoti, ta’lim sifatini oshirish.
19.2. Inson kapitalining turlari va komponentlari.

19.1. O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish va inson taraqqiyoti, ta’lim sifatini oshirish

Bugungi kunda jahonda inson kapitali rivojlanishi jamiyat rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyotning muhim muammolarini hal etishda asosiy o’rin egallaydi. Taraqqiyot darajasini uning muayyan mezonlari, indikatori yordamida baholashni talab etuvchi ko’p qirrali jarayonga aylandi. asta-sekin, lekin tubdan o’zgara boshladi. Jamiyatda inson taraqqiyotining muhim mezoni, uning umr ko’rish davomiyligi, savodxonligi va resurslardan foydalanish imkonini ifodalaydigan - Insonni taraqqiyoti indeksidir.

Har qanday mamlakatning farovonlik darajasi faqatgina daromadlar miqdoriga emas, balki ushbu daromadlardan qay darajada foydalanishga ham bog‘liq. Aholi daromadlarining o’zi inson rivojlanishini kafolatlamaydi. Shunday ekan, inson taraqqiyotining ikki xususiyati mavjud bo’lib, ular imkoniyatlar shakllanishi va ulardan foydalanishni bir-biridan farqlash kerak. Insonni rivojlantirish faqatgina iqtisodiy o’sishni ta’minlamasdan, uning natijasini adolatli taqsimlash ham nazarda tutiladi.

Inson kapitali rivojlanish omillarining tasnifi. Inson kapitali shakllanishining tasnifiy belgilari Inson kapitali shakllanishining tavsifi beligilari.

1. Joriy etish xarakteriga ko’ra – umumiy; – maxsus.
2. Amalga oshirish shakliga ko’ra – jonli – jonsiz – institusional.
3. Qayta ishlab chiqarishda ishtirok etish – iste’mol – ishlab chiqarish – intellectual.
4. Yig‘ilish shakli bo’yicha – sog‘liqni saqlash kapitali – mehnat – madaniy va axloqiy – intellektual – tashkiliy va tadbirkorlik.

Global rivojlanish va texnogen taraqqiyot to’lqinsimon jarayonni hosil qilib, muayyan soha rivojiga baho berishda indikatorlar alohida ahamiyat kasb etadi. Indikator atamasi lotincha “indico” – ko’rsataman, aniqlayman degan ma’nolarni anglatadi. Bu ma’noda atama biror jarayonning kechishi

yoki kuzatilayotgan obyekt holatining idrok etish qulayligini ta’minlovchi asbob, qurilma, element mazmunida qo’llaniladi.Turli soha, tarmoqlarning rivojlanish ko’rsatkichlari, ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan masalalar yechimi bir yoki bir necha indikatorlar orqali aniqlanadi va tegishli masalani baholash uchun dalillar bazasini taqdim etadi.

Indikatorlar quyidagi uch toifaga bo’linadi; miqdoriy indikatorlar – rasmiy statistik ma’lumotlar, jumladan uy xo’jaligi tadqiqotlarida foydalaniladi. Shuningdek, miqdoriy tadqiqotlar, xususiy internet kompaniyalari tomonidan to’plangan ma’lumotlarni ishonchli parametrlar va bilvosita ko’rsatkichlar asosida hisob-kitob qiladi; institusional indikatorlar – konstitusiyaviy tamoyillar ijro etuvchi idoralar faoliyatini tashkil etish va tartiblashda qo’llaniladi; sifat indikatorlari – davlat organlari faoliyatining sifat ko’rsatkichlarini aniqlaydi.

Sifat indikatorlari xalqaro tashkilotlar, ilmiy jamoatchilik vakillari, OAV manbalari, professional tadqiqot ma’lumotlari manbalaridan foydalanish va mutaxassislar bilan suhbatlar va baholash davomida maslahatlashuvlar doirasida respondentlarning javoblari orqali aniqlanadi. Ushbu indikator va ko’rsatkichlar ta’limning shaxs, jamiyat va iqtisodiyot uchun yakuniy ta’sirini o’lchovini anglatadi. O’quvchilar maktab davri yoki talabalik davrida erishgan ta’lim sohasidagi yutuqlari, egalagan bilim va ko’nikmalari, ularning ijtimoiy adaptatsiyasi va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga yordam beradi.

Aholining savodxonlik darajasini muttasil oshirib borish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi va mehnat unumdorligini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqlikda o’rganiladi. Xususan, yakuniy natijalar ko’rsatkichlari sifatida iqtisodiy rivojlanish darajasi va mehnat unumdorligi (Gini index) (Jini) koeffitsiyentidan foydalanamiz. Bu ko’rsatkichlar qiymatiga boshqa omillar ham sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Lekin iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko’rsatish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish ta’lim tizimining asosiy vazifalari bo’lib, ta’lim va iqtisod o’rtasidagi bog‘liqlikni doimiy monitoring qilib borishni shartlaydi. Inson uchun ta’limning eng muhim natijasi maktabdan keyingi hayotga moslashish – mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kirib borishi yoki ta’limning keyingi darajasiga o’tishdan iborat.Ushbu o’tish jarayonda muvaffaqiyatini baholash uchun "ishlamaydigan va o’qimaydigan yoshlar nisbati" ko’rsatkichidan foydalaniladi.

Ushbu ko’rsatkich G. Graysi va S. Kellining London universitetida o’tkazgan "Maktabgacha, boshlang‘ich va o’rta darajadagi samarali ta’lim" Bobsida kagortali tadqiqotlarda ta’lim tizimidan tashqarida qolgan bitiruvchilarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi integratsiya va adaptatsiya muammolari aniqlandi. Empirik tadqiqot natijalariga muvofiq OTMda o’qishni davom etmaydigan va kasb-hunar bilan shug‘ullanmaydigan

yoshlar muammosi maktabdagi sifatsiz boshlang‘ich ta’lim muammosiga taqaladi. Ushbu masalalardagi aloqadorlik ta’lim sifatining yoshlardagi mustaqil hayotga moslashuvchanlik va faollikka salbiy ta’sir ko’rsatishi anlatadi.

Mamlakatimizda Uchinchi renesans poydevorini qurish, aholi turmush darajasini yaxshilash, xalqimiz farovonligini ta’minlash bir so’z bilan aytganda xalqni rozi qilish, inson qadrini ulug‘lashga asoslangan davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Yangi O’zbekistonni barpo etish maqsadida ko’zlangan ezgu maqsadlarga erishishda iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy sohalarda taraqqiy etishida avvalambor inson omili hal qiluvchi rol o’ynaydi. Ushbu maqsadlarga muvofiq inson kapitalini rivojlantirishda sog‘liqni saqlash, sifatli ta’lim-tarbiya, munosib yashash va mehnat sharoitlarini yaratib berish kun tartibidagi dolzarb vazifalarga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlanganlaridek: “Yangi O’zbekistonni dunyoning taraqqiy topgan, ijtimoiy-iqtisodiy barqaror o’sayotgan va inson kapitali yuqori bo’lgan demokratik davlatlari qatoriga qirishini ta’minlash – barqaror rivojlanish strategiyamizning mazmun va mohiyatini tashkil etadi”. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g‘risida»gi PF-5712-sonli Farmonida mamlakatimizda 2030-yilga kelib “PISA” reytingi bo’yicha jahonning 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirish ustuvor vazifa sifatida belgilab qo’yilgan.

Xalq ta’limi tizimining strategik maqsadlari umumta’lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg‘or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishdan iborat. 18 asrning ikkinchi yarmida Iqtisodiy Hamkorlik Taraqqiyoti Tashkiloti davlatlari tomonidan turli ta’lim tizimlarining statistik ma’lumotlarini yuritish va taxlil qilish ishlari boshlab yuborildi. Mazkur statistikaning yuritishdan maqsad uzoq kelajakni o’ylagan holda sanoat davlatlarning ta’limini rejalashtirish orqali malakali mutaxassislarga bo’lgan ehtiyojlarni ta’minlashdan iborat bo’lgan. Ushbu statistikani yuritish iqtisodiy nuqtai nazardan qiziqishdan tashqari, ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham ahamiyatli bo’lib, ta’lim olishda teng huquqlilik masalalarini ham tahlil qilish uchun kerakli statistik ma’lumotlarga ega bo’lish imkoniyatini beradi.

Dunyoda ta’lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi indikator sifatida “PISA” – o’quvchilarning ta’limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi, PIRLS – matnni o’qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot, TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring kabi qator xalqaro dasturlarni e’tirof etish mumkin. Mazkur xalqaro dastur va indikatorlar rivojlangan mamlakatlarda ta’lim sifatini oshirish, inson kapitalini yanada rivojlantirishdagi asosiy

mezon sifatida keng qo’llanilib kelinmoqda PISA inglizcha Program for International Student Assessment – turli davlatlarda 15 yoshli o’quvchilarning savodxonlik darajasi (o’qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimini amaliyotda qo’llash qobiliyatini baholovchi dastur hisoblanadi. Bu dastur har uch yilda bir marotaba o’tkaziladi.

PISA tadqiqotlarida o’quvchi dasturni o’zlashtirganligi emas, balki bilim va ko’nikmalarni hayotda qay darajada qo’llay olishi baholanadi. PISA bo’yicha bahoning 50 ballga oshishi yillik yalpi ichki mahsulotning bir foizga oshishini ta’minlaydi.Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyoti tashkiloti tomonidan tashkil etilgan xalqaro tadqiqotlar, jumladan PISA testlarini o’tkazishdan maqsad xuddi shu kabi o’zgarishlarni ta’lim tizimida aks ettirish, maktab o’quvchilarida mustaqil hayotda asqotadigan ko’nikma va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo’naltirilgan. Reallikni ochiq-oydin anglash, voqea-hodisalarni tahlil qilish va ulardan xulosa chiqarish, kommunikAbellik va ochiqlik ko’nikmalari ta’lim tizimining sifat darajasidan darak beradiHozirda barcha sohalardagi rivojlanish ko’rsatkichlarining ko’plab indikatorlari mavjud. Jumladan, iqtisodiy, demografik, ijtimoiy rivojlanish indikatorlarini bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. Ijtimoiy rivojlanish indikatorlari ichida ta’lim sohasida inson kapitalini o’sib borishiga xizmat qiluvchi indikatorlar alohida ahamiyatlidir.

Hozirgi kunda dunyo aholisining umumiy soni qariyb 8 milliard kishiga yaqin bo‘lib, 2050-yilga borib ularning soni qariyb 10 milliardga ko‘payishi kutilmoqda. Yoshlar dunyo aholisining eng tez o‘sayotgan qismi hisoblanadi. Yoshlar - har qanday jamiyatning ertasi, kelajagidir. Ular Yangi O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho oltin fondi, qolaversa, istiqbolimiz poydevori hisoblanadi. Bugun yurtimizda ularning zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashi uchun barcha kuch hamda imkoniyat ishga solinmoqda. Yangi O‘zbekiston o‘z oldiga ulkan marralar qo‘ygan. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishilgan.

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati - 2016-yil 14 sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun ekanida ham ramziy ma’no mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i navqiron insonlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli shaxslar sifatida tarbiyalash yangi O‘zbekistonni bunyod etishda hal qiluvchi kuchdir.

Yangi O‘zbekiston baxtiyor yoshlar mamlakatidir. Mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya’ni 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil

etadi. Albatta bu, davlatimiz zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklashini ko‘z oldimizga keltirsak, juda katta e’tibor, g‘amxo‘rlikni talab etadi, ikkinchi tomondan yoshlarimizga ko‘rsatiladigan e’tibor, ertaga ulkan yutuq va natijalarini ham beradi. Chunki hozir O‘zbekiston mehnat resurslarining yarmidan ko‘pi yoshlardir. Kelgusida har uchinchi rahbar ham yoshlardan bo‘ladi.

Shu bois ham, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etib kelingan. Sharq Uyg‘onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo‘naltirib va qo‘llab-quvvatlab turishni talab etadi. Bu esa, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo‘lida erkin ijtimoiylashuvi va o‘zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi.

Yana bir muhim jihat. Yaqin istiqbolda maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, maktablarni rivojlantirish Milliy dasturini joriy etish, o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqish, oliy ta’limga qamrov darajasini 50 foizga yetkazish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish maqsad qilingan. O‘zbekiston qahramoni, xalq shoiri, Erkin Vohidov “Har bir millatning kelajagi istaymizmi-yo‘qmi, o‘qituvchilar saviyasiga bog‘liq. Bu haqiqatni hech qachon esdan chiqarmasligimiz lozim” – deb bejizga ta’kidlamagan edi.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, yer yuzi umumiy boyligining 66 foizi inson kapitaliga, ya’ni insonning ilm darajasiga to‘g‘ri kelmoqda. AQShda ushbu ko‘rsatkich milliy boylikning 77 foiziga teng. Kapital taraqqiyot tarbiya va ta’limdan boshlanadi. Yosh avlodga yo‘naltirilgan har qanday sarmoya ertaga - kun kelib ming-ming hissa bo‘lib qaytadi. Shu ma’noda, O‘zbekiston yoshlariga zo‘r havas qilishdan boshqa havas yo‘q. Umuman olganda, O‘zbekistonda inson kapitali uchun katta maqsadlar va mablag‘lar sarflanmoqda. O‘z navbatida, xalqimizda “Yangi O‘zbekiston orzusi” paydo bo‘ldi. Bu nima degani? Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, Yangi O‘zbekiston — barchamizning ezgu orzumiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi! Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o‘ziga xos tarzda aks etmoqda.

19.1-jadval

Iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida inson resurslari baholanishi

Kategoriya	Qo‘llanish davri	Iqtisodiyot sub’yekti to‘g‘risidagi tasavvur	Amalga kiritilishi sabablari
Ish kuchi	XIX asr – hozirgi davr	Inson – mehnat jarayonida samarali foydalanish imkoniyati bo‘lgan qobiliyat va sifatlar sohibi sifatida	Ishlab chiqarishda shaxs omilini hisobga olish zarurati
Mehnat resurslari	XX asrning 20-yillari – hozirgi davr	Inson – tashqi boshqaruvning nofaol ob’yekti, reja-hisob birligi sifatida	Iqtisodiyotni markazlashtirgan holda boshqarish sharoitida ish kuchini takror hosil qilish jarayoni ko‘rsatkichlarini hisobga olish zarurati
Mehnat salohiyati	XX asrning 70-80-yillari – hozirgi davr	Inson – mehnat sohasida o‘z ehtiyoj va manfaatlariga ega sub’yekt sifatida	Shaxsiy omil imkoniyatlarini faol-lashtirish va ulardan samarali foydalanish zarurati
Inson omili	XX asr 80-yillarining oxiri – 90-yillarining boshlari – hozirgi davr	Inson – ijtimoiy ishlab chiqarishning asosiy harakatga keltiruvchi kuchi, uning samarador-ligini oshirish vositasi	Ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar, shaxsiy omil samaradorligini oshirish zarurati
Inson kapitali	XX asrning 90-yillari boshlari – hozirgi davr	Inson – eng samarali kapital kiritishning ob’yekti, bu kapital bilim va mahoratni oshirishga xizmat qilib, kelgusida eng yuqori samara keltirishi maqsadini ko‘zlash	Inson salohiyatini hamda insonga investitsiya-larning iqtisodiy xususiyatini e’tirof etish

Shu o‘rinda bitta savol tug‘iladi. O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish qay darajada? Savolga javob berishdan oldin, keling, yurtimiz innovatsion rivojlanish shartlari va omillari ko‘rsatkichlarini jahon mezonlari bilan taqqoslab ko‘ramiz. Unga ko‘ra, Tadqiqot va rivojlanish xarajatlarining (R&D) YaIMdagi ulushi atigi 0,2 foizni tashkil etadi. Bu boshqa mamlakatlarga qaraganda o‘rtacha 11,8 barobarga kam, deganidir.Vaholanki, hozirgi paytda inson kapitaliga nisbatan qarashlar tubdan kengayib, unga qimmatbaho aksiya hamda daromadlar oqimi sifatida qaralmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki inson kapitali iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq. Buni dunyoga mashhur hind olimi, iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sohibi (1998-yil) Amartiya Sen ilmiy asoslab bergan. Uning fikricha, rivojlanish jarayoni faqat moddiy yoki iqtisodiy farovonlikning ortishi emas, balki jamiyatning har bir a’zosiga tanlov erkinligi yuqoriligini nazarda tutadigan shaxsning imkoniyatlarini kengaytirishdir. Davlat nafaqat iste’mol tengligini, birinchi navbatda, ta’lim, sog‘liqni saqlash xizmatlari, shuningdek, siyosiy va fuqarolik huquqlari sohasida teng huquqlilikni ta’minlashi kerak. Bu inson kapitalining o‘sishiga xizmat qiladi.Inson taraqqiyotiga sarmoya kiritib, jamiyat nafaqat mehnat unumdorligini oshirishga, balki tovarlar, ijtimoiy mahsulotlar va xizmatlarni yanada adolatli taqsimlashga ham erishishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish maqsadlariga erishish uchun inson kapitalini rivojlantirish vazifasi davlatning ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi ushbu maqsad-muddaolarga hamohangligi bilan ham ahamiyatlidir.

Dunyoga mashhur davlat arbobi, Singapurning birinchi Bosh vaziri Li Kuan Yu “Singapur mo‘’jizasi”da “to‘g‘ri siyosat va inson kapitaliga sarmoya tikishimizda”, deya ta’kidlagan ei. Ya’ni inson kapitaliga yo‘naltirilgan 1 dollar mablag‘ 10 yildan so‘ng 100 barobar, 20 yildan so‘ng 1000 barobar bo‘lib qaytadi. Aslida ham shunday.

Taraqqiy etgan davlatlarda “Sanoat-4.0” iborasi paydo bo‘lganiga bir necha yil bo‘ldi. “Sanoat-4.0” dasturi taraqqiyotning yangi - “raqamli iqtisodiyot” bosqichi boshlanganini anglatadi.

O‘zbekiston uchun “Sanoat-4.0” yaratadigan eng katta imkoniyatlar ham, muayyan xavflar ham inson omili bilan bog‘liq. Chunki mehnat resurslarida intellektual salohiyatning roli tobora oshib borishi ushbu yangi davrning xarakterli xususiyatidir. Markaziy Osiyoda eng ko‘p aholiga ega O‘zbekistonning, albatta, bu borada katta imkoniyatlari mavjud. To‘rtinchi sanoat inqilobida kapitalga tayangan iqtisodiyot o‘rnini “iste’dodlar iqtisodiyoti” egallay boshlashini hisobga olsak, aynan inson kapitalini ko‘tarishga ustuvorlik berilishining zarurati oydinlashadi. Shu bilan birga, “Sanoat-4.0” dasturi doirasida ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohalarining raqamlashuvi va avtomatlashuvi natijasida ko‘plab ish o‘rinlari

qisqarib ketadi. Mehnatga layoqatli aholini, birinchi navbatda, yoshlarni yangi texnologik davrda yashash va mehnat qilishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

19.2.Inson kapitalining turlari va komponentlari

Jamiyat, davlat tomonidan aholining barcha qatlamlariga va toifalariga ayni miqdor va shakllardagi inson kapitali investitsiyasi sarflanishiga qaramay, inson kapitalining quyidagi turlari shakllanadi va hukm suradi:

1. Ijobiy (faol) inson kapitali;
2. Salbiy (nofaol) inson kapitali;
3. Manfiy inson kapitali.

1. Ijobiy (aktiv) inson kapitali – o‘zi uchun sarflangan investitsiyani to‘la o‘zlashtirgan va uni jamiyatning rivojla-nishi va takomillashuvi shaklida ro‘yobga chiqargan kreativ (yara-tuvchi) va innovatsion kapitaldir. Bu yaratuvchanlik va takomillashuv, jumladan, aholining turmush darajasining oshishi, innovatsion salohiyatning yuksalishi, ta’lim tizimining rivoji, ilm-fanning taraqqiyoti, axborot almashinuvi va ta’minoti erkinligi, aholi salomatligining yaxshilanishi kabilarda namoyon bo‘ladi. Chunki, inson kapitalining parametrlari va sifati aholi shaxsning mentaliteti, ta’lim darajasi, hayotiy tasavvurlari va sog‘liqni saqlash sohasidagi ahvol kabilar bilan o‘lchanadi. Aytish lozimki, ilm-fan, ta’lim va sog‘liqni saqlashga sarflangan investitsiyalar tarixan qisqa muddat ichida samara berishi mumkin, ammo asrlar davomida shakllangan mentalitetni qisqa vaqtda o‘zgartirish qiyin. Shu sababli dunyodagi ilg‘or tajriba va bilimlarni milliyshaxs mentalitetining ijobiy xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish muhimdir.

O‘zbekistonda rivojlangan G‘arb va Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi tajribasi o‘zlashtirilar ekan, ayni shu nuqtalarga jiddiy e’tibor qaratilayotgani diqqatga sazovordir, ya’ni ilg‘or chet el tajribasining xalqimiz-ning milliy mentalitetiga va ko‘p asrlik an’analariga mos keladigan jihatlari, shakllari qabul qilinmoqda yoki ular mahalliy shart-sharoitlarga moslashtirilmoqda. Shuningdek, milliy madaniyatimiz, an’analarimizni targ‘ib qilish hamda yoshlarimizni chet ellardagi ba’zi oqim va harakatlarning zararli ta’siridan saqlash uchun olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar va profilaktik choralar aynan shu maqsadni ko‘zlagandir. Inson kapitali ham ayni ma’lum shaxs kabi ma’lum bir sivilizatsiya, mentalitet va an’analarning mahsulidir.

2. Salbiy (passiv) inson kapitali. Inson kapitalining bu turi mamlakat taraqqiyotiga va innovatsion iqtisodiyotga aytarlik hissa qo‘shmaydi, uning butun mohiyati moddiy imkoniyatlarning iste’molchisi bo‘lishdan iboratdir. Passiv inson kapitalini yaxshi ta’lim olmagan, oddiy kustar (qo‘l mehnatiga

asoslangan) sanoatda, tovar ayirboshlashga asoslangan tijoratda yoki mexanizatsiyalashmagan qishloq xo‘jaligida band kishilar tashkil etadi deyish mumkin. O‘zbekcha ta’bir bilan aytganda, «qora mehnat» qiluvchilar, ya’ni malaka talab qilmaydigan ishlarda ishlaydigan kishilar passiv inson kapitalini tashkil etadilar.

Inson kapitalining eng tahlil va bahs talab uchinchi turi manfiy inson kapitalidar. Manfiy inson kapitali deganda, nomidan ma’lum bo‘lganidek, o‘ziga sarflangan investitsiya-lardan jamiyat uchun hech qanday foyda keltirmagan, na o‘zi yashaydigan jamiyat iqtisodiyotining rivojiga, na aholi turmush darajasining yuksalishiga, na shaxs sifatida o‘zining ri-vojlanishiga hissa qo‘shishga yaramagan toifa tushuniladi. O‘zbekcha ifoda bilan aytganda, «na o‘ziga, na boshqaga foydasi tegmaydigan» toifa manfiy inson kapitalini tashkil etadi. Ashaddiy jinoyatchilar, giyohvandlar, korrupsionerlar, ishyoqmaslar, ichkilikbozlar, tekinxo‘rlik bilan kun kechiruvchilar – bir so‘z bilan aytganda, jamiyat va oilasining sarflagan moddiy investitsiyasi, bergan ta’lim-tarbiyasining samarasini yo‘qqa chiqargan kishilar manfiy inson kapitali sifatida namoyon bo‘ladilar. Ana shu toifadagi inson kapitali misolida ba’zi toifadagi kishilar uchun sarflangan investitsiyalar hamisha ham o‘zining ijobiy samarasini beravermasligi ko‘rinadi.

3. Manfiy inson kapitali ko‘pincha xalqning mentalitetidagi nozik holatlar, yetishmovchiliklar, aholi madaniyat saviyasining pastligi, jamiyatdagi muammolar, shuningdek, kishilarning tabiiy haqqi bo‘lgan erkinliklarning cheklanishi kabi sabablar natijasida vujudga kelishi mumkin.

Ma’naviy yetuk jamiyatlarda manfiy inson kapitali toifasidagilarga o‘zlarining umidsiz hollaridan chiqish uchun so‘nggi imkoniyatlar beriladi hamda ularning ijobiy o‘zgarishlarga bo‘lgan harakatlari jamiyat va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Bunga misol tariqasida mamlakatimizda har yili Konstitutsiya kuni yoki Mustaqillik bayrami arafasida adashib xato yo‘llarga kirgan kishilarga avf (amnistiya) e’lon qilinishi va sobiq mahbuslarga hayotda o‘z o‘rnini topishlari uchun berilayotgan yordam hollarini keltirish mumkin. Bunday ijtimoiy g‘amxo‘rlik natijasida manfiy inson kapitaliga aylanishga ulgurgan fuqarolar jazoni o‘tash muassasalaridan muddatidan oldin ozodlikka chiqariladilar, so‘ngra ularga mahalla va ichki ishlar organlari ish topish va turarjoy bilan ta’minlashda yordam beradilar, yangi kasb yoki hunar sohibi bo‘lishiga yordamlashadilar. Mamlakatimizda ana shu tarzda to‘g‘ri yo‘lga tushib olgan, musbat inson kapitali toifasiga qaytgan ko‘plab insonlar bor.

Xullas, inson kapitali – mehnat qiluvchi kishilarning oddiy yig‘indisi emas. Inson kapitali bu professionalizm, bilimga intilish, axborot ta’minoti, sog‘liq, optimizm, tashabbus va mehnatsevarlik kabi tomonlar va xislatlardan yuzaga keladigan bir fenomendir.

XX BOB. O‘ZBEKISTONDA INSON KAPITALIGA KIRITILADIGAN INVESTITSIYALAR

20.1. “Inson kapitali” va “inson taraqqiyoti”ga nazariy qarashlar.
20.2. Inson kapitaliga investitsiyalar.

20.1. “Inson kapitali” va “inson taraqqiyoti”ga nazariy qarashlar

Inson kapitali (ing. human capital) — bu inson va umuman jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan bilimlar, ko‘nikmalar to‘plami. Inson potensialini tashkil etuvchi turli xususiyatlar ichida, inson kapitali aynan daromadlarning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi xususiyatlarni ifodalaydi, shu jihatdan inson kapitali ishchining maxsus ta’lim, kasb-hunarga tayyorlash va ishlab chiqarish tajribasi asosida to‘plangan bilimlari, ularni amalda qo‘llashi va mahoratini o‘z ichiga oladi. Dunyo tajribasi va amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, aynan inson kapitaliga investitsiya yo‘naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlar yuksak taraqqiyotga erishmoqda. Chunonchi, rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya’ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi.

20.1.-jadval

Mamlakat	Ta’limning to‘liq sikliga sarflangan sarmoya (dollar)	Bir xodim yaratadigan qo‘shimcha qiymatning miqdori (dollar)
AQSH	231 000	3,1 mln.
Janubiy Koreya	130 000	2,1 mln.
O‘zbekiston	19 000	77 ming

Agar yuqoridagi ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, AQSH va Janubiy Koreyada bir ishchi kuchini shakllantirishga ketgan xarajat o‘zini 13-17 karra oqlagani holda, O‘zbekistonda sarflangan sarmoyaning jamiyatga keltiradigan foydasi atigi 4 barobarni tashkil etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda inson kapitaliga qilingan investitsiyalar mikro va makro darajada raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning asosiy omili sifatida qaraladi. Inson kapitali sifatini yaxshilash, hayot davomida uzluksiz ta’lim asosida kasbiy ko‘nikma va tajribalarni takomillashtirishga qaratilgan strategiyani izchil amalga oshirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashning muhim shartidir.

Jahon iqtisodiyotidagi jarayonlar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning nisbatini o‘zgartirib bormoqda. Jahon bankining 141 ta davlat bo‘yicha o‘tkazgan tadqiqotlariga ko‘ra, inson kapitali global milliy boylikning 64% ni tashkil etadi va so‘nggi 20 yil ichida uning hajmi 55% ga o‘sgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a’zo bo‘lgan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 70% ni tashkil etsa, quyi daromadli mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 41% ga yetadi (Lange, Glenn-Marie va boshqalar, 2018). Inson kapitalidagi farqlar mamlakatlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, aholining farovonligi va inson taraqqiyotidagi tafovutlarni belgilaydi. Xususan, mamlakatlar o‘rtasida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlardagi farqlarning 10-30% inson kapitali bilan izohlanadi (World Bank Group, 2018). Bugungi kunda iqtisodiy o‘sish omillari o‘zgarib bormoqda. An’anaviy omillar (mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati) o‘rniga fan va ta’lim, ya’ni milliy intellektual salohiyat birinchi o‘rinni egallamoqda.

O‘zbekistonda milliy boylik tarkibidagi inson kapitali ulushi 62% ni tashkil etadi. Jahon banki mutaxassislarining fikriga ko‘ra, dunyo mamlakatlarida milliy boylik tarkibida jismoniy kapitalning ulushi o‘rtacha 16%, tabiiy kapital – 20%, inson kapitali esa 64% ni tashkil etadi. Germaniya, Yaponiya va Shvetsiya kabi rivojlangan mamlakatlarda inson kapitalining ulushi 80% ga yetadi.

Bugungi kunda inson kapitalining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Biroq, “inson kapitali” tushunchasini aniqlashda noaniqliklar mavjud, uning tarkibiy qismlari to‘liq o‘rganilmagan va milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga inson kapitalining ta’siri miqdoriy jihatdan baholanmagan. Yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida inson kapitalidan foydalanish va uning sifatini ta’minlash uslublari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli emas.

Inson kapitali nazariyasi XX asrning 50-60 yillarida Chikago maktabi vakillari tomonidan mustaqil nazariya sifatida shakllantirildi. Inson kapitali shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari Shults (1961), Bekker (1962), Bouen (1977), Blaug (1976), Mincer (1958), Polachek va Mincer (1974) tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, Shumpeter (2007), Keyns (1993), Xarrod (1959), Agiyon (2004), Xansen (1951) kabi g‘arb iqtisodchilari inson kapitalining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini o‘rganganlar. Agiyonning (2004) tadqiqotlari endogen iqtisodiy o‘sish nazariyalarini o‘zida mujassamlashtirgan holda innovatsion faoliyat va samaradorlikni hisobga olgan holda inson kapitalining ta’sirini zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qiladi.

Inson kapitali va uning innovatsion investitsiyalari, shuningdek, ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri masalalarini o‘rganishga katta hissa

qo‘shgan olimlar qatorida Nuriev (2000), Notkin (1996) va boshqalarni sanab o‘tish mumkin. O‘zbekiston iqtisodchi olimlari ham bu masalaga alohida e’tibor qaratib kelishmoqda. Masalan, akademiklar Ubaydullaeva (2017) va Abduraxmonov (2017) inson kapitalining turli jihatlarini o‘rganganlar. So‘nggi yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi xodimi Sh.G.Akramova milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga inson kapitalining ta’sirini chuqur o‘rgangan (Акрамова, 2019).

Ushbu tadqiqotlar O‘zbekistonda inson kapitali rivojlanishini baholashga katta hissa qo‘shgan bo‘lsa-da, yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish zarurati mavjud.

Innovatsion rivojlanishga to‘sqinlik qiluvchi muammolar qatoriga hududiy sharoitdagi o‘zgarishlarning ko‘lami, tezligi va chuqurligidagi farqlar ham kiradi[71].

20.2-jadval

Mavjud innovatsion rivojlanish modellarining taqqoslanishi va tahlili[72]

Maqsad	Vazifalar	Model yadrosi	Innovatsion tsikl
I.Evroatlantik model (Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Italiya)			
To‘liq innovatsion tizim tsiklini yaratish	- Xususiy ishlanmalarni tijoratlashtirish; - Zaruriy ishlanmalarni import qilish; - Yuqori texnologiyali mahsulot va texnologiyalarni eksport qilish	Universitetlar va ilmiy-tadqiqot markazlari	To‘liq innovatsion tsikl
II. Sharqiy Osiyo modeli (Yaponiya, Janubiy Koreya, Gonkong, Tayvan)			

[71] INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISHDAGI YONDASHUVLAR Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich Guliston davlat universiteti, Kamilova Sanobar Mirdjamalovna TDIU huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazi Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023-yil, avgust www.e-itt.uz

[72] Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023-yil, avgust www.e-itt.uz

Maqsad	Vazifalar	Model yadrosi	Innovatsion tsikl
Jahon innovatsion tizimiga integratsiyalangan innovatsion tizimni yaratish	- Zaruriy ishlanmalarni import qilish; - Yuqori texnologiyali mahsulot va texnologiyalarni eksport qilish	Ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari va korporatsiyalar qoshidagi amaliy tadqiqot markazlari	Fundamental fanning yo‘qligi
III. Muqobil model (Tailand, Chili, Turkiya, Iordaniya, Portugaliya)			
Taraqqiy etgan mamlakatlarning innovatsion tizimlari bilan integratsiya	- Yuqori texnologiyali mahsulot va texnologiyalarni import qilish	Universitet va texnoparklarning innovatsion infratuzilmasi	Fundamental va amaliy fanning yo‘qligi
IV. Uchlamchi spiral modeli (AQSh, Yevropa mamlakatlari)			
Boshqa mamlakatlarning innovatsion tizimlarini yutib, moliyaviy resurslarni jamlash	- Xususiy ishlanmalarni tijoratlashtirish; - Yuqori texnologiyali mahsulot eksportini yo‘lga qo‘yish	Fan, davlat va biznesning o‘zaro hamkorligi	To‘liq innovatsion tsikl

Turli ziddiyatlar va nomutanosibliklarning o‘sishi hududlarning innovatsion rivojlanishidagi farqlanishlarni keltirib chiqaradi (Барлыбаева, 2011). Bu esa innovatsion rivojlanish darajasini belgilovchi omillarni har jihatdan o‘rganishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmonida 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida 52-maqsad sifatida “Global innovatsion indeksda O‘zbekistonning pozitsiyasini yaxshilash, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratish, tadqiqotlar va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish” belgilandi. Bu innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning milliy iqtisodiyot uchun qanchalik muhimligini ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda jahonda biznes, fan va davlatning o‘zaro aloqalariga asoslangan to‘rtta innovatsion rivojlanish modeli mavjud. Mamlakatlar o‘z shart-sharoitlari va omillarini hisobga olgan holda ushbu modellardan birini tanlaydi. “Uchlamchi spiral” modeli universitet, sanoat va davlatning o‘zaro hamkorligiga asoslanadi va innovatsion iqtisodiyot asoslarini

shakllantirishda universitetlarga katta e’tibor beradi. Bu model 1995-yilda Buyuk Britaniyaning Nyukastl universiteti professori Genri Itskovits va Amsterdam universiteti professori Loyet Leydesdorflar tomonidan taklif qilingan (Etzkowitz, Zhou, 2017). Boshqa modellardan farqli o‘laroq, “uchlamchi spiral” modelida universitet, biznes va davlatning o‘zaro ta’siri muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) va Jahon banki kabi yirik xalqaro tashkilotlar uzoq yillardan beri “nomoddiy” inson kapitali va ijtimoiy kapitalni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Quyidagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “inson kapitali” tushunchasini ta’riflashda yagona yondashuv mavjud emas.

20.3-jadval

Inson kapitali va ijtimoiy kapital tushunchalarining ta’riflari

Inson kapitali	**Ijtimoiy kapital**
Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti: Xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda talab qilinuvchi va muayyan bir shaxs tomonidan egallangan bilim, malaka, ko‘nikma va boshqa sifatlarning yig‘indisi.	Belgilangan maqsadlarga erishish borasida insonlarga o‘z hatti-harakatlarini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi ijtimoiy tuzilmalarda qaror topgan me’yorlar va ijtimoiy munosabatlar.
Jahon banki: Inson tomonidan egallangan va uning mehnat samaradorligini oshirishga imkon beruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalarning yaxlitligi. Inson kapitalini ta’lim, sog‘liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik kabi sohalarga sarmoya kiritish orqali ko‘paytirish va sifatini yaxshilash mumkin.	Jamoaviy hatti-harakatlarni amalga oshirish imkonini beruvchi o‘zaro aloqalar, urf-odatlar va institutlarni o‘z ichiga oladi.
Yevropa Ittifoqining ijtimoiy o‘lchovlar va institut bo‘yicha oliy darajadagi guruhi: Shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy farovonlikka imkon beruvchi shaxsga tegishli bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetentsiyalar.	Umumiy maqsadlarga erishish uchun guruh instit yoki guruhlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikka zamin yaratuvchi o‘zga shaxslarning qadriyatlari, urf-odatlari, axloqiy me’yorlarini hurmat qilgan holda ijtimoiy hayotda ishtirok etish.
Qirollik texnologik institute tadqiqotchilari KTH (Stokgolm): Ijtimoiy kapital – ijtimoiy tarmoqlar orqali yaratiluvchi, to‘planuvchi va	

Inson kapitali	Ijtimoiy kapital
uzatiluvchi munosabatlar, me’yorlar va qoidalar jamlanmasi.	

20.4-jadval

Bilimlar kategoriyasi

Know-what	**Amaliy bilimlar**
Know-why	Jamiyat, tafakur, tabiat qonunlari va tamoyillari haqidagi bilimlar.
Know-how	Ko‘nikmalar, yaratuvchanlik qobiliyati (ijodiy faoliyat).
Know-who	Hamkorlikka, turli insonlar va ekspertlar bilan muloqotga kirishuvchanlikka bo‘lgan layoqat.

Inson kapitalining innovatsion rivojlanishga ta’sirini baholash va aks ta’sirni tahlil qilish bo‘yicha turli xil nazariy yondashuvlar, usullar va ma’lumotlardan foydalanilgan tadqiqotlar xilma-xil natijalar beradi. Bu esa ushbu holatni keltirib chiqaruvchi sabablarni atroflicha o‘rganishni taqozo qiladi.

XX asrning dastlabki yillaridan boshlab, inson kapitalining milliy iqtisodiyot va hududlarning innovatsion rivojlanishiga ta’sirini baholash bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshira boshlandi. Akademik S.G.Strumilin 1920-yillarda ta’limning mamlakatlar iqtisodiy o‘sishiga ta’sirini tahlil qilgan. 1960-1970-yillarda rossiyalik olimlar (A.I.Anchishkin, T.S.Xachaturov, Yu.V.Yaremenko) iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasini ishlab chiqadilar va bunda ular intensiv o‘sish va uning miqdoriy jihatlariga alohida urg‘u beradilar. 1980-yillarning boshlariga kelib, iqtisodiy o‘sish nazariyasi shakllandi, mazkur nazariyada ishlab chiqarish kuchlaridan samarali foydalanish va rivojlantirish borasidagi qarashlar, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadalllashtirishga xizmat qiluvchi tarmoq va sohalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi. G‘arblik iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan ham inson kapitalining innovatsion taraqqiyotga ijobiy va salbiy ta’siri borasida keng ko‘lamli tadqiqotlar amalga oshirilgan.

G‘arblik iqtisodchi olimlar va mutaxassislar inson kapitalining innovatsion taraqqiyotga ijobiy va salbiy ta’sirini o‘rganish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borganlar. Inson kapitali haqida fundamental nazariy g‘oyalar ta’limning tashqi samarasidan foydalanib, iqtisodiy o‘sish manbalarini izohlovchi modellar orqali tushuntirilgan. Bu boradagi tadqiqotlar “birinchi to‘lqin” endogen iqtisodiy tadqiqotlarni o‘z ichiga

oladi, unda ishlab chiqarish omillarining cheklangan mahsuldorligi kamaymasligi tarafdori bo‘lgan. Keyinchalik, texnik taraqqiyot ko‘lamlari, innovatsiyalarni yaratish va ulardan samarali foydalanish bilan bog‘liq jihatlar ilmiy tadqiqotlarda o‘z aksini topa boshladi, bu esa iqtisodiy o‘sishda innovatsiyalarning o‘rni haqida nazariy qoidalarni shakllantirish uchun asos bo‘ldi. Endogen iqtisodiy o‘sish bo‘yicha tadqiqotlarning “ikkinchi to‘lqini” sifatida Romer (1990), Agion va Xovit (1990, 1992), Grossman va Xelpman (1991) kabi tadqiqotchilarning asarlarida o‘z ifodasini topdi.

Texnologik jihatdan qoloqlikni bartaraf etish va innovatsion taraqqiyotni ta’minlash milliy iqtisodiyotda texnologiyalarni yaratish yoki ularni rivojlangan mamlakatlardan qarzga olish evaziga amalga oshirilishi mumkin. Texnologiyalarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish yoki texnologik jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarga taqlid qilish jarayonlari mamlakatlararo va mamlakat darajasida, shuningdek mikro darajada ham o‘rganiladi. So‘nggi yillarda e’lon qilingan ilmiy izlanishlar bu borada ozchilikni tashkil qiladi.

Inson kapitalining korxonalarning innovatsion rivojlanishiga ta’siri hamda bu borada olib borilgan tadqiqot natijalari mavjud. 1980-1990-yillarda 42 ta mamlakatda 37 ta sanoat tarmoqlari ma’lumotlarini tahlil qilish asosida inson kapitalining innovatsion rivojlanishga ijobiy ta’sirini tasdiqlagan Karina Xitch va Jovanni Sulis, shuningdek inson kapitalining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini statistik jihatdan o‘rgangan Di Libertoning ilmiy izlanishlari bu borada muhim ahamiyatga ega.

Milliy iqtisodiyotning barqaror taraqqiyoti iqtisodiy tizim ishtirokchilarining o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy aloqalariga, takror ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar tizimining o‘zgarishiga bog‘liq. O‘tish jarayonlari ko‘p jihatdan ilmiy-texnik taraqqiyot ta’sirining darajasi va sifatiga bog‘liq. Tadqiqotchilar jamiyatning tarixiy va tadrijiy taraqqiyotida yuz beradigan bunday o‘zgarishlarning bir necha bosqichlarini ajratib ko‘rsatadilar. Bunday texnologik o‘zgarishlarning birinchi bosqichi o‘tgan asrning 50-yillarida boshlangan bo‘lib, yarimo‘tkazgich elektronikasining rivojlanishi bilan bog‘liq; ikkinchi bosqich 1960-yillarda boshlanib, texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq g‘oyalar mikroelektronikada o‘z ifodasini topgan; uchinchi bosqich o‘tgan asrning 70-yillariga to‘g‘ri keladi va mikroprotsessor texnologiyalarining rivojlanishi hamda shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqarilishi bilan ajralib turadi. 1980-1990-yillardan hozirgi kungacha davom etayotgan beshinchi texnologik tartib energiya va moddiy iste’mol borasidagi iqtisodiy cheklovlarni bartaraf etish, ishlab chiqarish jarayoni va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning rang-barangligini oshirish bilan bog‘liq.

Inson kapitali bo‘yicha ilk zamonaviy nazariyalar amerika va ingliz iqtisodchi olimlari tomonidan 1950-60-yillarda yaratilgan, ularning yaratilishi ishlab chiqarish jarayonini texnologik jihatdan tashkil etish borasidagi o‘zgarishlar bilan vaqtga to‘g‘ri keladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, mazkur davr mobaynida inson kapitalining moddiy boylik yaratishdagi ulushi muttasil ravishda o‘sib borgan va o‘tgan asrning 70-yillariga kelib, uning ulushi taxminan 60% ni tashkil etgan.

Inson kapitali nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlar, xususan, sobiq ittifoq mamlakatlarida XX asrning 90-yillaridan boshlab faol ravishda rivojlana boshladi. Bu sohada M.M. Kritko, S.A. Dyatlova, I.V. Ilinskiy, R.I. Kapelyushnikov va A.L. Lukyanova kabi olimlarning ilmiy izlanishlari muhim o‘rin tutadi.

Umuman olganda, inson kapitali nazariyasi bugungi kunda iqtisodiy tadqiqotlar orasida tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Inson kapitali borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili, nazariy qarashlar va qoidalar shakllanishining uchta bosqichini ajratish imkonini beradi.

Birinchi bosqich 1960-yillarning boshlariga to‘g‘ri keladi va “inson kapitali” tushunchasining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Ushbu bosqichda inson kapitali bilim, ko‘nikma va shaxs qobiliyatlari nuqtai nazaridan “tor” talqin qilinadi. Bu davrda inson kapitalini tadqiq qilish bilan bog‘liq ishlar sirasiga Xekman (1963), Hermanson (1964), Bekker (1993), Topel (1990) va Biati, Smit (2010) kabi olimlarning ishlarini kiritish mumkin. Keyinchalik, inson kapitalini tahlil qilishda moliyaviy usul va vositalardan foydalanishga katta e’tibor qaratila boshlandi.

Ikkinchi bosqich 1970-1990-yillar oralig‘ida davom etadi va bu davrda inson kapitalini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning pasayishi, shuningdek, inson kapitali tuzilmasining murakkablashishi kuzatiladi. Bu davrda aholining mehnat faolligini oshirish, ish sharoitlarini yaxshilash va mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga qiziqish ortadi.

Uchinchi bosqich 1990-yillarning boshidan hozirgi kungacha bo‘lgan davrni qamrab oladi va bu davrda “inson kapitali” milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy manbai sifatida “keng” talqin qilinadi. XXI asrning boshiga kelib, inson kapitali tushunchasini talqin qilishda tarkib va tuzilma jihatdan o‘zgarishlar ro‘y beradi. Dastlab inson kapitali ta’lim, sog‘liq darajasi va kasbiy harakatchanlikdan iborat deb hisoblangan bo‘lsa, keyinchalik bu tushuncha xodimning motivlari, majburiyatlari va xulq-atvor jihatlari bilan boyitildi.

Inson kapitalining tuzilmasi murakkablashgan sari, uning baholash usullari ham o‘zgaradi. Dastlabki moliyaviy jihatlarni hisobga olgan ko‘rsatkichlar inson kapitalining nomoddiy jihatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirildi. Natijada, inson kapitalining qiymati va u

tomonidan yaratilgan qo‘shimcha qiymatni o‘lchash imkoniyati paydo bo‘ldi.

Inson kapitalini o‘rganish borasidagi birinchi yondashuvga ko‘ra, inson kapitali bilim, ko‘nikma, qobiliyat, salomatlik va motivatsiyalar to‘plami sifatida tavsiflanadi. Ushbu yondashuv doirasida J.S. Uolsh va L.S. Torov kabi tadqiqotchilar inson kapitalining ta’lim, malaka va ish tajribasi kabi tarkibiy qismlarini alohida ajratib ko‘rsatadilar.

Inson kapitali tushunchasini talqin qilishdagi tafovutlar shunda namoyon bo‘ladi: birinchi holatda tadqiqotchilar inson kapitalini o‘zida mujassamlashtirgan insonning mavjud qobiliyat va ko‘nikmalaridan individual maqsadlarda foydalanishini ko‘zda tutadi.

Inson kapitalini o‘rganish borasida shakllangan ikkinchi yondashuvga ko‘ra, T. Shults, F. Maxlup va I. Fisher kabi tadqiqotchilar inson kapitalini kelgusida yuqoriroq daromad keltirishga xizmat qiluvchi qobiliyat, bilim va boshqa shaxsiy xususiyatlar zahirasi sifatida talqin qilishni tavsiya qiladilar. Ikkinchi yondashuv doirasida inson kapitalining talqini individual darajada qobiliyat va ko‘nikmalarni amalga oshirishdan olingan daromad, korxona darajasida esa raqobatdosh ustunliklar, mahsulot va xizmatlar rentabelligini oshirish, foyda o‘stirish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi ikki yondashuvdan farqli o‘laroq, uchinchi yondashuv doirasida inson kapitalining mohiyati to‘liqroq ochib berilgan. Mazkur yondashuvning S.A. Dyatlov, E.D. Tso‘renova, A.N. Dobro‘nin va R.I. Kapelyushnikov kabi namoyondalarining fikricha, inson kapitalidan foydalanish shaxs nuqtai nazaridan baholanganda, bu aholi daromadlarining o‘sishiga, tashkilot nuqtai nazaridan baholanganda esa, korxona va tashkilotlarning raqobat ustunliklariga ega bo‘lishiga, jamiyat nuqtai nazaridan baholanganda esa, inson kapitali jamiyatda jinoyatchilikning pasayishiga, aholi bandligi va turmush darajasining oshishiga olib keladi.

Mazkur yondashuv tarafdorlari inson kapitalidan foydalanishda shaxsning o‘zigagina tegishli bo‘lgan salohiyatini ro‘yobga chiqarishning shaxs nuqtai nazaridan navfliligini emas, balki korxona va butun jamiyat uchun inson kapitalidan foydalanishning iqtisodiy va ijtimoiy samarasini ta’kidlaydilar. Uchinchi yondashuvning o‘ziga xosligi shundaki, unda inson kapitali “keng” talqin qilinadi va raqobatbardoshlikni ta’minlashning asosiy manbai sifatida baholanadi.

Iqtisodiy rivojlanishning eksportga yo‘naltirilgan turidan iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashning innovatsion turiga o‘tish jarayonida inson kapitalini innovatsion iqtisodiyot nuqtai nazaridan o‘rganish borasidagi izlanishlar keng yoyildi. Bunda M.M. Kritskiy, I.V. Ilinskiy va L.G. Simkina kabi tadqiqotchilar faoliyat subyektiga, uning o‘zini-o‘zi rivojlantirish va takomillashtirish, shaxsning ijodiy qobiliyatlarining iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga ta’siri kabi jihatlarga alohida

urg‘u beradilar, shuningdek, inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanishga ilmiy-texnik inqilobning ta’sirini ham e’tiborga olishni taklif qiladilar.

“Inson kapitali” tushunchasini talqin qilishda katta farqlanishlar mavjud bo‘lsa-da, mazkur tushunchani ta’riflashda “bilim, ko‘nikma va tajribalar zahirasi” degan umumiy jihat mavjudligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Mazkur ishda inson kapitali inson faoliyati davomida maqsadga mos ravishda foydalaniluvchi va shaxsiy daromadlarning o‘sishiga olib keluvchi, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va hudud taraqqiyotining o‘sishiga ko‘maklashuvchi, investitsiyalar natijasida shakllangan va to‘plangan qobiliyatlar, ko‘nikmalar, salomatlik darajasi, axloqiy fazilatlar jamlanmasi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Inson kapitalining tuzilmasini atroflicha o‘rganmasdan turib, inson kapitalidan amalda samarali foydalanish masalalarini to‘la-to‘kis tadqiq qilishning imkoni yo‘q. Inson kapitali tushunchasini aniqlashtirish borasida keltirib o‘tilgan ta’riflarni umumlashtirgan holda, salomatlik kapitali, madaniy kapital, kasbiy bilim, tajriba va ko‘nikmalarning umumiyligini ifoda etuvchi professional kapital inson kapitalining tarkibiy qismlarini tashkil etadi, degan birlamchi xulosani ilgari surishimiz mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tilganlardan kelib chiqqan holda, inson kapitalini tarkibiy qismlarini tabiiy tarzda shakllangan umumiy va maxsus bilimlar va tadrijiy taraqqiyot natijasida rivojlangan ijodiy innovatsion qobiliyatlar majmuasi darajasidan kelib chiqqan holda, inson kapitali tashkil etuvchilarini tizimlashtirish mumkin.

Shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, ta’lim, sog‘liq va madaniyat kapitalini tavsiflovchi va amalda ko‘p qo‘llaniluvchi qobiliyatlar, ko‘nikmalar, bilimlar, kasbiy tajriba, ish faoliyatidagi muvaffaqiyatlar inson kapitalining muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Ta’kidlash joizki, ta’lim, sog‘liq va madaniyat kapitalini ifodalovchi qobiliyatlar, ko‘nikmalar, bilimlar, kasbiy va ish tajribasi kabi elementlar “inson kapitali” tushunchasining dastlabki rivojlanish bosqichlarida paydo bo‘lgan. Biroq, inson kapitalining tashkiliy va tadbirkorlik qobiliyatlari kabi jihatlari tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga bog‘liq holda, innovatsion taraqqiyotning keyingi bosqichlarida shakllangan.

Inson kapitali ko‘p qirrali hodisa sifatida qaraladi va mazkur dissertatsion ishda inson kapitalining bir qancha tasniflari keltirilgan. Unga ko‘ra, umumiy va individual inson kapitali shakllanish xususiyatlari, investitsiya sub’ektlari, korxona va tashkilotlarda foydalanish natijalari, mehnat unumdorligi va ish haqi kabi mezonlarga ko‘ra tasniflanadi.

Umumiy va xususiy inson kapitali o‘rtasidagi farqlarni inobatga olgan holda, xususiy inson kapitali tashkilot tomonidan foydalaniladigan bilim va ko‘nikmalar, qobiliyatlar zahirasi, malaka oshirish va qayta tayyorlashga

qaratilgan investitsiyalar hisobiga shakllangan kapital sifatida tor ma’noda tushunilishi lozim. Kengroq talqinda, xususiy inson kapitali nafaqat maxsus bilim va ko‘nikmalar, balki barqaror mehnat munosabatlarini o‘rnatish orqali olinadigan iqtisodiy foyda sifatida ham ta’riflanishi mumkin (Illoong, Eva, 2010).

Inson kapitali insonlar o‘z hayoti davomida to‘plagan bilim, ko‘nikma va salomatlik darajasidan iborat. Salomatlik va ta’lim darajalari inson uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, inson kapitali esa jamiyatning faol a’zosi sifatida o‘z salohiyatini amalga oshirish imkonini beradi. Fuqarolarning yuqori ish haqi, mamlakatda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan milliy daromad darajasi, shuningdek, jamiyat a’zolarining ijtimoiy va iqtisodiy faollik darajasi ko‘p jihatdan inson kapitalining sifatiga bog‘liqdir. Bu esa barqaror rivojlanish va kambag‘allikni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, inson kapitalini individual va makrodarajada o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi. Umumiy va xususiy inson kapitalini shakllantirish va ulardan foydalanishning o‘ziga xos jihatlarini, shuningdek, makroiqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda, makro darajada inson kapitalining ikki turi mavjudligini aniqlash mumkin. Makro darajadagi umumiy inson kapitali - bu hudud aholisining ta’lim darajasini oshirish va rivojlantirish uchun davlat ko‘magi orqali moliyaviy, tashkiliy va institutsional shart-sharoitlar yaratish orqali shakllantirilgan, shuningdek, qaysi hududda bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘zining universalligi sababli talab qilinadigan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar to‘plamidir. Ushbu qobiliyatlar insonlarning hudud va mamlakatning innovatsion taraqqiyotiga qo‘shadigan zahirasini tashkil etadi.

Makro darajada xususiy inson kapitali esa, hudud aholisining bilim, ko‘nikma va qobiliyatlari zahirasidir. Bu zahira davlat tomonidan aholining kasbiy saviyasini yaxshilash va rivojlantirish maqsadida moliyaviy, tashkiliy va institutsional shart-sharoitlar yaratish orqali shakllantiriladi.

Ushbu ikki turdagi inson kapitalini shakllantirish va ulardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, shuningdek, inson kapitalini shakllantirish va undan samarali foydalanish bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida muhim ahamiyat kasb etayotgan jarayon sifatida ko‘rib chiqildi. Innovatsion o‘zgarishlar sharoitida xususiy inson kapitali muhim rol o‘ynaydi. Bu, xususiy inson kapitalining aholining uzluksiz ta’lim jarayonida ishtirok etishi orqali shakllanishi va ish beruvchining talablariga mos kelmaslik xavfini kamaytirishi bilan izohlanadi. Ish beruvchilar o‘z xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga mablag‘ sarflashdan manfaatdor bo‘lishadi.

Shu tarzda, inson kapitalining korxonalar raqobatbardoshligiga ta’sirini o‘rganish jarayonida tadqiqotchilar, korxonalar o‘z ishchi va

xizmatchilarining kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlashga mablag‘ yo‘naltirish orqali raqobat kurashida ustunlikka erishishini aniqladilar.

Yuqorida keltirilganlarni umumlashtirgan holda, quyidagi fikrlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Innovatsion rivojlanish sharoitida inson kapitali tushunchasini aniqlashtirish tadqiqotlari ilmiy va amaliy jihatdan zarurdir.
2. Inson kapitalini o‘rganishda shaxs, investitsiyaviy va iqtisodiy o‘sish omillari nuqtai nazaridan yondashuvlar aniqlangan. Individual va makro darajalarda yondashish zarurligi isbotlangan.
3. Inson kapitalini o‘rganishga yondashuvlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, uning bilim, qobiliyat va ko‘nikmalar zahirasiga asoslanganligini aniqlashga imkon beradi.
4. “Inson kapitali” tushunchasining tadrijiy taraqqiyoti vaqt o‘tishi bilan murakkab tabiatga ega bo‘lib borishini ko‘rsatadi.
5. Shakllanish va foydalanish mezonlariga ko‘ra, xususiy va umumiy inson kapitalini individual va makrodarajadagi qiyosiy tahlili bu ikki tur orasidagi farqni aniqlashga va ularga ta’riflar shakllantirishga yordam beradi.
6. Inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanish jarayonlari insonning hayotiylik tsikli davomida uzluksiz sodir bo‘ladigan o‘zaro bog‘liq jarayonlardir.
7. Inson kapitalini takror ishlab chiqarish bosqichlari sifatida tug‘ilish, farzand tarbiyalash, jismoniy va intellektual jihatdan kuch to‘plash, kasbiy vakolatlarni shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy, mehnat va ijodiy faoliyatning pasayish davrlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

2018-yilda Jahon Banki tomonidan e’lon qilingan “Inson kapitali indeksi-2018” reytingida Singapur (0,88 koeffitsent), Yaponiya (0,84), Koreya (0,84), Gongkong (0,82) va Finlyandiya (0,81) yetakchilik qilgan.

Ushbu davlatlarning intellektual salohiyati juda yuqori bo‘lib, xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishda ham muhim rol o‘ynaydi. 2019-yilgi reytingga ko‘ra, xorijiy investitsiyalar endi arzon ishchi kuchiga emas, balki yuqori intellektual salohiyatga ega mamlakatlarga yo‘naltirilmoqda.

2022-yilga kelib, O‘zbekistonning iqtisodiy ko‘rsatkichlari va inson kapitali indeksi yaxshilanishi kuzatildi. O‘zbekiston 0,62 koeffitsenti bilan MDH mamlakatlari ichida Belarus Respublikasi, Rossiya va Qozog‘istondan keyin o‘rinda turdi. Ushbu natijalar mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirishdagi muvaffaqiyatlarni ko‘rsatadi, lekin takomillashtirish zarurligini ham anglatadi.

2023-yil va 2024-yilda O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar davom etmoqda. Prezidentimizning “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi”

doirasida ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu strategiya, shuningdek, ilm-fan va oliy ta’lim sohasida milliy laboratoriyalar tizimini yaratish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishga qaratilgan.

O‘zbekistonning innovatsion rivojlanishi uchun inson kapitali, ya’ni aholi bilim, ko‘nikma va salomatlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini isloh qilish, ularni zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, 2023-yil va 2024-yilda inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha yangi dasturlar va loyihalar amalga oshirilishi kutilmoqda. Bular orqali mamlakatimiz xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion o‘sishni ta’minlash va aholi turmush darajasini yaxshilash maqsad qilingan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan islohotlari davom etmoqda va bu jarayon mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga xizmat qiladi.

20.2. Inson kapitaliga investitsiyalar

Inson kapitalining shakllanishi zamonaviy sharoitlarda o‘ziga xos jarayon bo‘lib, uning tarixiy va hozirgi bosqichlari turli nazariyalar va yondashuvlar tahlili nuqtai nazaridan o‘rganilishi inson kapitalining rivojlanish bosqichlarini tasavvur qilishga asos bo‘ladi. Dunyoning yetakchi davlatlarining rivojlanishiga sabab bo‘lgan postindustrial jamiyat, yangi bilimlar, innovatsiyalar, global axborot tizimlari, ilm-fan va yangi texnologiyalarni yuksaltirishga olib keldi. Ushbu jarayonlar zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy dominanti intellektual salohiyat (inson kapitali) shaklida namoyon bo‘ladi. So‘nggi yillarda intellektual salohiyat va inson kapitali kabi jarayonlarni o‘rganishga qiziqish keskin ortdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “O‘zbekistonni 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning yetakchi davlati qatoriga kirishdek ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e’lon qilindi”, deb ta’kidlaydi. Bu inson kapitali samaradorligini belgilovchi ko‘rsatkich sifatida ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Bugungi kunda inson resurslari jamoaning asosiy boyligi bo‘lib, jamiyatning asosiy boyligi inson kapitalining qanchalik ta’sir qilayotganidir.

Inson kapitali natijasida inson resursi vujudga keladi. Masalan, inson kapitali insonning tug‘ma yoki orttirilgan bilimlari, ko‘nikmalari, qobiliyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, inson resurslari esa insonlar, ularning salohiyati, jismoniy va aqliy qobiliyatlari bilan baholanadi. Boshqacha qilib aytganda, inson resurslari shaxsning jismoniy va ma’naviy qobiliyatlarining

rivojlanish darajasi bilan tavsiflangan mehnatga layoqatli aholi, inson salohiyatining asosidir. Inson kapitali nazariyasining shakllanishi o‘tgan asrning 80-yillarida boshlandi.

XXI asrda inson kapitali iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy yo‘nalishlarga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Sharq mutafakkirlari inson salohiyatini shakllantirish borasidagi qarashlari, masalan, Abu Ali ibn Sinoning fikrlari ahamiyatlidir. U "Inson boshqalarning ehtiyojlarini qondirishi sababligina inson bo‘ladi" deb ta’kidlaydi. Bu iqtisodiy tafakkur moddiy boylik orttirish jarayonlari ta’sirida ekanligini bildiradi.

Abu Rayxon Beruniy jamiyatda kishilar o‘zaro hamkorlikda yashashi kerakligi haqida "Muayyan vazifalarni bajarish zarurati bu insonning faoliyatining bir umrga yashash printsipidir" deb yozadi. Bu printsipdan kelib chiqqan holda, "Insonning qadr-qimmati o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishdan iborat" deydi. Bu inson kapitali nazariyasining shakllanishi mehnat (ham aqliy, ham jismoniy) bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Beruniy "Inson o‘z xohishiga mehnat tufayli erishadi" deb inson salohiyatini ishga solgan holda faoliyat olib borishga undaydi. Alisher Navoiy esa inson o‘z tafakkuri bilan har qanday vazifani hal eta olishini o‘z asarlarida ochib bergan.

2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini isloh qilish bo‘yicha yangi dasturlarni joriy etdi. Ushbu islohotlar doirasida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilar va talabalar uchun innovatsion metodlarni qo‘llash, shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish maqsad qilingan.

2023-yilda O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari boshlandi. Bu jarayonlar ta’lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qilishga yordam berdi. Shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasida telemeditsina xizmatlari kengaytirildi, bu esa aholini sifatli tibbiy yordam bilan ta’minlash imkonini berdi.

2024-yilda O‘zbekiston davlat tomonidan inson kapitaliga investitsiyalarni oshirishga qaratilgan yangi strategiyalarni ishlab chiqdi. Bu strategiyalar doirasida, innovatsion ta’lim dasturlari, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash kurslari, shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ushbu islohotlar O‘zbekistonning global innovatsion indeks reytingida o‘z o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi va inson kapitalini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Inson kapitali – Inson kapitalining iqtisodiyotdagi roli va uning rivojlanishdagi ahamiyati.

2. Ta’lim sifatini oshirish – Ta’lim tizimini takomillashtirish, o‘quvchilarga kerakli bilim va ko‘nikmalarni berish.

3. Inson taraqqiyoti – Insonning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishi, uning farovonligini oshirish.

4. Inson kapitaliga investitsiyalar – Ta’lim, sog‘liqni saqlash, malaka oshirish va boshqa sohalarga qilingan investitsiyalar.

5. Ta’lim tizimi islohoti – O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va yuqori sifatli ta’limni ta’minlash.

6. Inson kapitalini rivojlantirish dasturlari – O‘zbekiston davlatining inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy va iqtisodiy dasturlari.

7. O‘qituvchilarning malakasi – Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchilarning malakasini oshirish va o‘zgaruvchan talablar bilan moslashtirish.

8. Kasb-hunar ta’limi – Kasb-hunar ta’limini rivojlantirish orqali odamlarning ishga tayyorligini oshirish.

9. Ilm-fan va innovatsiyalar – Ta’lim sifatini oshirishda ilm-fan va innovatsiyalarning ahamiyati, ularning iqtisodiyotga ta’siri.

10. Inson resurslarini samarali boshqarish – Inson kapitali resurslarini samarali boshqarish va ulardan maksimal darajada foydalanish.

11. Investitsiya – Inson kapitaliga sarmoya kiritish, ya’ni ta’lim, sog‘liqni saqlash, malaka oshirish va boshqa sohalarga mablag‘ ajratish.

12. Ta’limga investitsiyalar – Ta’lim tizimining rivojlanishiga qaratilgan investitsiyalar, o‘quv yurtlari, o‘qituvchilarni tayyorlash.

13. Inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish – Inson kapitalini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan resurslar va ularni jalb qilish usullari.

14. Sog‘liqni saqlashga investitsiyalar – Sog‘liqni saqlash tizimiga ajratilgan investitsiyalar, aholi salomatligini yaxshilash va kasalliklarning oldini olish.

15. Iqtisodiy rivojlanish va investitsiyalar – Inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish.

16. Inson kapitalining samaradorligi – Inson kapitaliga investitsiyalarni samarali amalga oshirish va ularning natijalarini baholash.

17. Ta’limga ajratilgan byudjet – Ta’lim tizimiga ajratilgan davlat byudjeti va uning samarali ishlatilishi.

18. Investitsiyalarning ijtimoiy ahamiyati – Inson kapitaliga qilingan investitsiyalar aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash.

19. Inson kapitali va iqtisodiy o‘sish – Inson kapitaliga qilingan investitsiyalar iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga olib kelishi.

20. Ta’limga ajratilgan sarmoyalar – O‘zbekiston davlatining ta’limga ajratilgan sarmoyalarini ko‘paytirish va ta’lim tizimini modernizatsiya qilish.

Takrorlash uchun savollar

1. Inson kapitali nima va uning iqtisodiyotdagi roli qanday?
2. O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish uchun qanday strategiyalar mavjud?
3. Inson kapitaliga investitsiyalarni oshirishning iqtisodiy va ijtimoiy foydalari nimalardan iborat?
4. Ta’lim sifatini oshirish uchun qanday asosiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?
5. Inson kapitali nazariyasining rivojlanish tarixi qanday?
6. O‘zbekistonda inson kapitaliga bo‘lgan investitsiyalarni qanday moliyaviy manbalar orqali amalga oshirish mumkin?
7. Inson kapitaliga investitsiyalarning uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy samaralari qanday bo‘ladi?
8. Ta’lim tizimida sifatni oshirish uchun yangi texnologiyalar va innovatsiyalar qanday rol o‘ynaydi?
9. O‘zbekistondagi yoshlar uchun ta’lim va malaka oshirish dasturlari qanchalik samarali?
10. Inson kapitalini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik qanday amalga oshiriladi?

XXI BOB. O‘ZBEKISTONDA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASINI RAG‘BATLANTIRISH

21.1. O‘zbekistonda migratsiya huquqi va undagi muhim tendensiyalar.
21.2. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga solishning yangi mexanizmlari.
21.3. Mehnat migrantlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha O‘zbekistonda olib boriladigan maqsad va rejalar.

21.1. O‘zbekistonda migratsiya huquqi va undagi muhim tendensiyalar

Butun dunyoda ishchi kuchi ko‘chib yurishi tabiiy jarayon. Migratsiya huquqi inson huquqlarining ajralmas qismi hisoblanishi bilan birga uzoq rivojlanish tarixiga ham ega. Qadimgi davrlarda u ko‘proq fuqarolik maqomi, muqim yashash joyini tanlash, erkin harakatlanish tushunchalari sifatida ishlatilgan.

O‘zbekistonda migratsiya huquqi mustaqillik yillaridan boshlab rivojlanib, aholi migratsiyasi o‘sa boshladi va ushbu jarayonni tartibga solish va mustahkamlashga qaratilgan institutlar vujudga keldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ni “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi” yurtimizda migratsiya huquqi rivojlanishining yangi davrini ochib bergan farmon bo’ldi.

2017-yil O‘zbekistonda migratsiya huquqi sohasida tub burilish va rivojlanish yili bo‘ldi, jumladan, passport-viza, xorijga chiqish-kirish tizimi tubdan takomillashtirildi. Pasport tizimini takomillashtirish orqali xorijga chiqish uchun ruxsatnoma (stiker) rasmiylashtirish tartibini bekor qilish yuzasidan Prezident farmoni imzolandi va Farmon ijrosi asosida migrantlarimizga qulay shart-sharoit va qulayliklar yaratildi, migrantlar huquq va erkinliklari yanada mustahkamlandi, chegara va bojxona xizmatchilarining ish faoliyati yanada takomillashtirildi va turizm sohasi yanada jadal sur’atlar bilan rivojlana boshladi.

O‘zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash maqsadida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ko‘chmas mulk olishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun ushbu hududda doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganligi talab qilinmaydigan, shuningdek, doimiy yashash va vaqtincha turarjoyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibini buzganlik fuqarolarni tegishli hudud va manzildan chiqarib yuborishga asos bo‘lmaydigan bo‘ldi. Chegara nazoratidan o‘tish jarayoni muddatini

qisqartirishga qaratilgan pasport va chegara nazorati mexanizmini avtomatlashtirish, “elektron-darvozalar” (E-Gate) tizimi joriy etildi.

Xorijdagi vatandoshlar uchun O‘zbekistonga kelib-ketish, mamlakatda qolish, mehnat faoliyatini olib borish, investitisya kiritish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish uchun “Vatandosh” vizasi/pasporti, iqtisodiyotimizga investitsiya olib kirmoqchi bo‘lgan xorijiy davlatlar fuqarolari uchun maxsus investitsion viza joriy etildi. 2020-yil 1-apreldan boshlab O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ko‘chmas mulkka ega bo‘lishda doimiy propiska mavjudliligi haqidagi talab bekor qilindi. Biometrik pasport infratuzilmasi negizida Respublika fuqarosining biometrik pasporti o‘rniga identifikatsiyalash ID-kartalarini berish tizimi joriy etildi.

Xorijga mehnat migratsiyasiga ketayotgan va xorijiy til hamda kasblar bo‘yicha malaka imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan fuqarolarimizga rag‘batlantirish tizimi joriy etildi. Xorijiy tillar yoki kasblarga o‘qigan va tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan, “Labor-migration” dasturiy majmuasida ro‘yxatdan o‘tgan fuqarolarga xorijiy tillar yoki kasb bo‘yicha muvaffaqiyatli topshirilgan malaka imtihoni harajatlarini to‘lab berish, xorijga ketish uchun transport chiptalarini xarid qilishga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida subsidiya berish tartiboti yo‘lga qo‘yildi.

Rivojlangan davlatlarga, jumladan, Yevropa mamlakatlari, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Kanada, Yaponiya, Avstraliyaga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga jo‘nayotgan fuqarolarga ushbu mamlakatlarda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun “ishchi viza”ni rasmiylashtirish xarajatlari qoplab beriladigan bo‘ldi. Toshkent shahrida Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilotning nufuzli vakolatxonasi ochildi va ushbu vakolatxona bilan hamkorlikda 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirish, mehnat migrantlarni huquq va erkinliklarini himoya qilishda kafolatlangan tenglik me’zonlariga erishish yo‘lida qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Rasmiy ma’lumotlarga qo‘shimcha ravishda, rasmiy ishlash yoki yashash uchun ruxsatnomasiz, norasmiy ishlash va boshqa viza sxemalari doirasida, xususan, Rossiya Federatsiyasiga ishlash uchun ketgan kishilar ham bo‘lganligi xabar qilingan (Ryazansev va boshqalar, 2021). Yana bir ko‘rsatkich sifatida, Turkiya Migratsiyani boshqarish agentligi (MBR) ham, Turkiya hududida tartibga solinmagan tarzda faoliyat yuritayotgan o‘zbek migrantlarining soni 2022-yilda 7553 nafar, 2023-yil avgust holatiga ko‘ra esa, 4954 nafar bo‘lganini qayd etganini keltirishimiz mumkin.

Ushbu tendensiyalarni yanada yaxlitroq tushunish va umumiy ko‘rinishga keltirish uchun O‘zbekistonning rasmiy statistikasini Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Turkiya Respublikasi va Koreya Respublikasi

milliy statistika idoralarining rasmiy statistik ma’lumotlari bilan to‘ldirish alohida ahamiyatga ega. O‘zbekistondan ketgan migrantlar uchun beshta asosiy mamlakat Rossiya Federatsiyasi (1,1 million), keyingi o‘rinlarda Qozog‘iston (296 ming), Ukraina (223 ming), Turkmaniston (67 ming) va Amerika Qo‘shma Shtatlari (63 ming) bo‘ldi (BMT DESA, 2021). Biroq 2022-yilda O‘zbekiston fuqarolari quyidagi asosiy mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko‘chib o‘tgan: Qozog‘iston (79,5 foiz), undan so‘ng Rossiya Federatsiyasi (16,4 foiz), Markaziy Osiyo davlatlaridan tashqari boshqa yo‘nalishlar (2,7 foiz), Qirg‘iziston (0,7 foiz), Tojikiston (0,5 foiz) va Turkmaniston (0,3 foiz)ni tashkil etdi (O‘zStat, 2023). Aytish joizki, migratsiya masalalari o‘z ichiga faol, o‘rta yosh va yosh aholini qamrab oladi.

Mutasaddi idora tomonidan tashqi migratsiyaga moyil bo‘lgan aholining rasmiy statistikasi ishlab chiqiladi va chet el davlatlarida mehnat faoliyatini olib borayotgan Respublika fuqarolarining doimiy monitoringi olib boriladi. Noqonuniy migratsiya asosida mehnat faoliyatini olib borayotgan aholining monitoringini yuritish va tahlil qilish murakkab, chunki bu borada bir qancha mutassaddi organlar jumladan, IIV, o‘zini o‘zi boshqarish organlariga topshiriqlar berilgan bo‘lsa-da, aniq va muvofiqlashtirilgan statistikani yaratishda kamchiliklar kuzatiladi.

So‘nggi besh yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha bir qancha loyihalar ishlab chiqilishi, yetuk malakaga ega mutaxassis sifatida chet el fuqarolarining O‘zbekistonga migratsiya oqimlarini ko‘paytirdi. Birgina 2019-yilda 2639 ta korxonaga ishchi kuchini jalb qilish va undan foydalanish uchun ruxsatnomalar, 10315 ta xorijiy fuqarolarga mehnat faoliyati tasdiqnomasi berilgan.

O‘zStat ma’lumotlariga muvofiq, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, mamlakat aholisining umumiy soni 36 million kishini, migrantlar soni esa 2,3 million nafarni tashkil etib, ulardan 1,1 million nafari erkaklar va 1,2 millon nafari ayollardir. 2022-yilda migrantlar soni 2018-yilga nisbatan 21 foizga kamaydi (O‘zStat, 2023). 2020-2021-yillardagi pasayish COVID-19 tarqalishini oldini olish uchun dunyo bo‘ylab kiritilgan safar cheklovlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2022-yilda O‘zbekiston hududida ro‘yxatga olingan ichki migratsiya soni 214 821 nafarni tashkil etdi, shundan 40 foizi (85,6 mingga teng) erkaklar va 60 foizi (129,2 ming) ayollardir. 2022-yilda ichki migrantlar oqimi 2018-yilga nisbatan 34,1 foizga oshdi (O‘zStat, 2023). 2022-yilda 2,3 million kishini tashkil etgan xalqaro migrantlar oqimi 2018-yilga nisbatan 20,7 foizga kamaydi: bunda 52 foizini ayollar, 48 foizini erkaklar tashkil etdi (O‘zStat, 2023). Hududiy taqsimotga nazar tashlaydigan bo‘lsak, O‘zbekiston hozirgi vaqtda qishloq joylaridan shaharlarga doimiy ichki migratsiyaning yuqori darajasini boshdan

kechirmoqda. Yangi ko‘chib kelganlarning 76 foizi (164,3 mingga teng) ichki va xalqaro miqyosda shaharlarda, qolgan 24 foizi (50,5 ming) qishloq joylarda istiqomat qilgan (O‘zStat, 2023). O‘zStat ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda respublikadan chet elga, boshqa manzilga ko‘chib o‘tganlar soni 880 ming nafarni tashkil etgan. Xuddi shu manbaga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekistondan ketganlar soni 2018-yilga (1,76 million) nisbatan ikki barobarga (880 ming) kamaygan. 2022-yilda immigratsiyaning gender tarkibi deyarli teng bo‘ldi: 53 foizi ayollar, 47 foizi erkaklar (O‘zStat, 2023).

O‘zbekistonlik migrantlar uchun ular boradigan barcha mamlakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar cheklangan bo‘lsa-da, Rossiya Federatsiyasidagi mehnat migrantlari soni o‘zgarishining bir qancha omillari quyidagilardan iborat: birinchidan, migrantlarning asl mamlakatlaridagi umumiy iqtisodiy vaziyat va Rossiya Federatsiyasidagi ish beruvchilarning ehtiyojlari; ikkinchidan, Rossiya Federatsiyasiga kirish tartibi, ro‘yxatdan o‘tish tartiblari va Rossiya mehnat bozoriga kirish; uchinchidan, mehnat bozoridagi vaziyatni tartibga solish maqsadida Rossiya hukumati tomonidan migrantlarni ishga joylashtirishga nisbatan kiritilgan cheklovlar (“to‘siqlar”) (iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha bandlik kvotalari, patent narxi). Ko‘pincha bu va boshqa omillarning yig‘indisi migrantlarning tartibga solingan va tartibga solinmagan migratsiya maqomi o‘rtasida harakatlanishiga olib keladi. Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya masalalari bosh boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda Rossiya Federatsiyasida ro‘yxatga olingan migrantlar va mehnat migrantlari soni COVID-19 pandemiyasi bilan bog‘liq cheklovlar tufayli qariyb ikki barobarga kamaygan. Rossiya Federatsiyasi koronavirus tarqalishining oldini olish maqsadida 2020-yil 20-martdan boshlab rejali havo qatnovlarini to‘xtatganligi sababli, davlatlar o‘rtasida faqat charter (birinchi navbatda, chiqish) reyslar amalga oshirilgan bo‘lib, pandemiya davrida ko‘plab mehnat migrantlari Rossiya Federatsiyasini tark eta olmadi. Rossiya hukumati xorijiy fuqarolarning COVID-19 pandemiyasi davrida mamlakat hududida bo‘lish imkoniyatini bir necha bor uzaytirdi, jumladan 2020-yilning 15-iyuniga qadar, 2020-yilning 25-dekabriga qadar, 2021-yilning 15-iyuniga qadar va so‘nggi bor 2021-yilning 30-sentabriga qadar uzaytirildi. Tabiiyki, bunday sharoitda Markaziy Osiyo davlatlaridan Rossiya Federatsiyasiga mehnat migrantlarining oqimi keskin kamaydi. Faqat 2021-yil 1-apreldan boshlab O‘zbekiston fuqarolari uchun chegaralar ochildi. O‘zStat ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda o‘zbekistonlik migrantlar oqimi 221 ming nafarga teng bo‘lgan: jami immigrant oqimining 60 foizini (132,8 ming nafar) ayollar, 40 foizini (88,5 ming nafar) erkaklar tashkil etgan. O‘zbek migrantlarining asosiy qismi shaharlardan 66 foiz (145,8 ming), qolgan 34 foizi qishloq joylardan (75,5 ming) bo‘lgan (O‘zStat, 2023)

Migratsiya jarayonini muvofiqlashtirish uchun bir qancha dolzarb masalalarga yuzlanish va muammolar tahliliga yuzlanish zarur, jumladan

- Eng avvalo, mehnat bozoridagi ishchi kuchi taklifi va unga bo‘lgan talab o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish;
- Ushbu muammo va sohaga oid yangicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish;
- Noqonuniy migratsiyani va noqonuniy tashqi mehnatni tartibga solish;
- Migratsiya jarayonlarini va byurokratiyani aholi uchun soddalashtirish va aholining barcha qatlamlariga “to‘rtinchi hokimiyat” – ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlarini olib borish;
- Yoshlarning sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va o‘zgarishlarga tayyorligini o‘rganish va tahlil etish orqali qanchalik ijobiy ta’sir ko‘rsatishning psixologik-innovatsion yechimlarini asoslash;
- Aholi turmush darajasini yana ham oshirish va ular bilan doimiy muloqot va uchrashuvlarni tashkil etish;
- Migratsiya sohasidagi davlat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash va ushbu sohani raqamlashtirishni huquqiy tartibga solish;
- Ushbu muammoni ijobiy hal etgan va migratsiya tamoyillarini muvofiqlashtira olgan rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rgangan holatda yangi innovatsiyalarni hayotga tadbiq qilish;

Migratsiya masalalarini tahlil qilish va statistik ma’lumotlarni ishlab chiqish uchun tegishli davlat organlari, migratsiya bilan shug‘ullanuvchi xususiy kompaniyalar va tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi, ular bilan umumiy va yakdil platforma yaratish.

Migratsiya jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha xalqaro huquqiy hujjatlar hamda migratsiya tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha xorijiy davlat tajribalarini ayrim xalqaro xujjatlar va davlatlar misolida tahlil qilgan holda, migratsiya sohasida xalqaro miqiyosida tizimli ishlar olib borilayotganini yodda tutish lozim. Butunjahon migratsiya siyosati va uni amalga oshirish tamoyillari va tendentsiyalari bo’yicha yagona kelishuvga erishilmagan bo‘lsa-da, barcha davlatlar tomonidan migratsiyani tartibga solish bo‘yicha yangi metodlarni ishlab chiqish va har bir mamlakat migratsiya sohasiga yangi va zamonaviy texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining joriy etilishi migratsiya borasidagi muammolarni hal qilinishiga muhim omil bo‘lishi mumkin.[73]

[73] https://www.uwed.uz/uz/news/185

21.2. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga solishning yangi mexanizmlari

Barchamizga ma’lumki xorijda ishlash istagida bo‘lganlar muayyan xarajatlarga ham duch keladi. Shu bois migrantlarning ishchi viza, yo‘l chiptasi, xorijiy til va kasb bo‘yicha malakani baholatish xarajatlari qisman qoplanmoqda. Chet tili bo‘yicha xalqaro yoki unga tenglashtirilgan sertifikat olgan fuqaroga til o‘rganish uchun sarflagan xarajatining 50 foizi qoplab berilishi yo‘lga qo‘yildi.

Sohaga oid amalga oshirilayotgan barcha ijobiy ishlar qatorida Xalqaro migratsiya tashkiloti bilan migrantlarning huquqini himoya qilish bo‘yicha, hamda rivojlangan davlatlar bilan salmoqli xamkorlik yo‘lga qo‘yilgan bo’lib, 2030-yilgacha bo’lgan davr uchun, mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilishda kafolatlangan tenglik mezonlariga erishishni nazarda tutadigan O’zbekiston Respublikasi migratsiya sohasidagi davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish bo’yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta’kidlash kerakki, hozirgi kunda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va Germaniyaning 25 ta kompaniyasi o‘rtasida O‘zbekiston fuqarolarini turli sohalarda vaqtincha ish bilan ta’minlash bo‘yicha shartnomalar tuzilgan. Yana beshta kompaniya bilan muzokaralar olib borilmoqda. So‘nggi uch yilda 821 nafar O‘zbekiston fuqarosi Germaniyaga vaqtinchalik ishlashga jo‘natilgan, 1 ming 670 nafar fuqaro mehnat faoliyatini ushbu mamlakatda davom ettirish uchun tayyorgarlikdan o‘tmoqda.

Shu tariqa, O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlik faol rivojlanib, vatandoshlarimizning bu mamlakatda ishlashlari uchun kasbiy tayyorgarlik va til o‘rganishlari ta’minlanib, ishga joylashishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi 2024-yilning o’zida Buyuk Britaniya, Vengriya va Slovakiya kabi bir qancha davlatlar bilan mehnat migratsiyasi masalasida muzokaralar olib borayotgani bu boradagi chora – tadbirlarning yanada muhim ahamiyat kasb etayotganligidan darak beradi.

Yuqoridagilardan tashqari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan mehnat migratsiyasidan qaytganlarni ishga olgan korxonaga har bir xodim uchun bir yil davomida Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasidan oyiga 500 ming so‘m subsidiya beriladi. Ushbu tadbirlarga bir yil uchun taxminan 100 milliard so‘m ajratilishi belgilanmoqda.

Kun kelib mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarning bandligiga ko‘maklashish ham muhim masala sifatida ko‘rib chiqilmoqda va Sayxunobod tajribasi asosida mehnat migratsiyasidan qaytganlarga tomorqada mahsulot yetishtirib, daromad olishi uchun moliyaviy ko‘mak berilishi yo‘lga qo‘yildi hamda shu kabi boshqa turdagi bandlik xizmatlari

ko‘rsatilmoqda. Qolaversa tibbiy muassasalar migratsiyadan qaytgan shaxslar va ularning oila a’zolarini bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishi mumkin. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil 15-oktabrdan boshlab “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilgan bo‘lib, ushbu markaz tomonidan ota-onasi xorijda mehnat qilayotgan bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yildi.

Shuni ta’kidlash joizki bugungi kunda mehnat migratsiyasini tartibga solishda va qo’llab quvvatlashda nafaqat davlat tashkilotlari balki nodavlat tashkilotlarning ham ijobiy salmog‘i yuqori darajalarga ko’tarilmoqda. Bu borada Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bilan hamkorlikda faoliyat ko’rsatayotgan o’quv kurslari va xizmat ko’rsatish tashkilotlar haqida to’xtalib o’tishimiz o’rinli.

Bir so’z bilan aytganda O‘zbekistonda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi joriy qilingan bo’lib xorijga ketmoqchi bo’lgan fuqarolar uchun yangi mexanizm yaratildi. U quyidagi uch asosiy bosqichni o‘z ichiga olgan:

Birinchi bosqich: xorijga ishlashga bormoqchi bo‘lgan fuqarolarni tayyorlash ishlari tashkil qilinmoqda. Xorijga ishlashga bormoqchi bo‘lgan fuqarolarni kasbiy va til boyicha tayyorlash ishlari mamlakatdagi 14 ta “Ishga marhamat” ish bilan band bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatish monomarkazida, 30 ta kasbiy tayyorgarlik markazida, 136 ta mahallada, 24 ta kollej va 13 ta texnikumda amalga oshirilmoqda.

Ikkinchi bosqich:mehnat migrantlariga xorijda huquqiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatilmoqda. Shu maqsadda xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarga xizmat ko‘rsatish maqsadida bir necha davlatlarda Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha agentliklar tashkil qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh konsulliklari huzurida Mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha attashe lavozimi joriy etildi.

Uchinchi bosqich: O‘zbekistonga qaytgan mehnat migrantlarining qayta moslashuviga yordam ko‘rsatilmoqda. Bandlikni qo‘llab-quvvatlash markazlarida mamlakatga qaytgan mehnat migrantlarining qayta moslashuvi bilan shug‘ullanadigan inspektorlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki Xorijda mehnat faoliyati bilan shug‘illanayotgan O’zbekiston fuqarolariga munosib mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoyani ta’minlash uchun barcha zarur ishlar qilmoqda va bundan keyin ham davom ettiriladi. Migratsiya sohasining barcha dolzarb masalalari bo’yicha xorijiy hamkorlarimiz bilan hamkorlik davom ettirilmoqda. Mehnat migrantlarining kasbiy yo’nalganligi va til bilishlari bo’yicha tashkil etilgan tizimli ishlar yanada rivojlanmoqda.[74]

[74] https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7187-o%E2%80%98zbekistonda-mehnat-migratsiyasini-tartibga-solishning-yangi-mexanizmlari-qanday-ishlaydio%E2%80%98zbekistonda-mehnat-migratsiyasini-tartibga-solishning-yangi-mexanizmlari-qanday-ishlaydi.html

21.3. Mehnat migrantlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha O‘zbekistonda olib boriladigan maqsad va rejalar

O‘zbekiston fuqarolarining tashqi mehnat bozoriga kirishini soddalashtirish masalalari va mehnat migratsiyasidan qaytganlarning bandligini ta’minlash chora-tadbirlari Shavkat Mirziyoyev huzurida 2-aprel kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda muhokama qilindi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi davlat rahbari topshirig‘iga binoan ishlab chiqilgan takliflarni taqdim etdi.

E’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi ikki yilda Bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan tashkiliy ravishda 70 ming nafar fuqaro rivojlangan davlatlarga ishlash uchun yuborilgan. Shu bilan birga, fuqarolarning katta qismi alohida malaka talab qilmaydigan faoliyatni amalga oshirish uchun mustaqil ravishda chet elga boradi. Mehnat va yashash sharoitlari har doim ham standartlarga javob bermaydi.

Migratsiyani tartibga solish va mehnat migrantlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar

- Bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi davlat muassasasi shaklida boshqaruv organiga aylanadi. Agentlik direktori bir vaqtning o‘zida bandlik vaziri o‘rinbosari bo‘ladi. U mehnat migrantlarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini ham boshqaradi.
- Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Vengriya, Yaponiyadagi elchixona va konsulliklarda mehnat migratsiyasi bo‘yicha attashe, Saudiya Arabistonida agentlik vakili lavozimi joriy qilinadi. Xorijdagi fuqarolar masalalarini tezkorlik bilan hal qilish uchun elchixonalar va tegishli vazirliklarda 24 soat ishlaydigan Call-markazlar tashkil etiladi.
- “Xorijga ish - mahalladan” tamoyili yo‘lga qo‘yiladi. Bunda, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi xorijda ishlash istagida bo‘lgan fuqaroni aniqlab, “Onlayn mahalla” platformasiga kiritadi. Nomzodlar xorijdagi ish beruvchilar tanlovlariga jalb qilinadi.
- Kasbiy malakasi yo‘q va tilni bilmaydigan fuqarolarni kasbga o‘qitish va profta’lim muassasalarida maqsadli tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Buning uchun Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi huzurida fuqarolarni xorijiy tillarga o‘rgatish va ishlashga maqsadli tayyorlash markazi ochiladi.
- Migrantlarning ishchi viza, yo‘l chiptasi, xorijiy til va kasb bo‘yicha malakani baholatish xarajatlari qisman qoplanadi. Chet tili bo‘yicha xalqaro yoki unga tenglashtirilgan sertifikat olgan fuqaroga til o‘rganish uchun sarflagan xarajatining 50 foizi qoplab beriladi.
- Sayxunobod tajribasi asosida mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarga tomorqada mahsulot yetishtirib, daromad olishi uchun

moliyaviy ko‘mak beriladi hamda boshqa turdagi bandlik xizmatlari ko‘rsatiladi.

- “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturiga muvofiq imtiyozli kreditlar ajratiladi.
- Tibbiy muassasalar migratsiyadan qaytgan shaxslar va ularning oila a’zolarini bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazadi.
- “Inson” markazlari tomonidan ota-onasi xorijda mehnat qilayotgan bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatiladi.
- Mehnat migratsiyasidan qaytganlarni ishga olgan korxonaga har bir xodim uchun bir yil davomida Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasidan oyiga 500 ming so‘m subsidiya beriladi. Ushbu tadbirlarga bu yil uchun barcha manbadan 100 milliard so‘m ajratiladi.[75]

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Migratsiya huquqi – Tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq qonunlar va normativ-huquqiy aktlar to‘plami.
2. Mehnat migratsiyasini tartibga solish – Tashqi mehnat migratsiyasini boshqarish va muvofiqlashtirishga oid normativ huquqiy tizim.
3. Mehnat migratsiyasi siyosati – O‘zbekistonning tashqi mehnat migratsiyasiga doir davlat siyosati va strategiyalari.
4. Migratsiya qonunchiligi – Tashqi va ichki migratsiyaga doir qonun va normativ hujjatlar, ularni takomillashtirish jarayoni.
5. Migratsiya huquqini buzish holatlari – Tashqi mehnat migratsiyasiga oid huquqiy buzilishlar, migratsiya huquqi buzilishining salbiy oqibatlari.
6. Tashqi mehnat migratsiyasi tendensiyalari – O‘zbekistondagi mehnat migratsiyasi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari, tendensiyalar va istiqbollar.
7. Mehnat migratsiyasini huquqiy boshqarish – Mehnat migratsiyasini samarali boshqarish va qonuniylashtirish usullari.
8. Xalqaro migratsiya tizimi – Xalqaro miqyosda mehnat migratsiyasining rivojlanishi va uning davlatlar o‘rtasidagi huquqiy aloqalari.
9. Migratsiya va iqtisodiy o‘sish – Tashqi mehnat migratsiyasining O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishiga qo‘shgan hissasi.
10. Mehnat migratsiyasining ijtimoiy ta’siri – Migratsiyaning ijtimoiy va madaniy ta’siri, mehnat migrantlarining jamiyatdagi roli.

[75] https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/03/migration/

11. Mehnat migratsiyasini boshqarish mexanizmlari – Tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish uchun yangi boshqaruv mexanizmlari va tizimlar.

12. Mehnat migratsiyasini qonuniylashtirish – Mehnat migratsiyasining rasmiylashtirilishi va mehnat migrantlarining huquqlari va majburiyatlari.

13. Mehnat migratsiyasini muvofiqlashtirish – Mehnat migratsiyasini xalqaro mehnat tashkilotlari bilan muvofiqlashtirish, ikki tomonlama kelishuvlar asosida boshqarish.

14. Yangi immigratsiya strategiyalari – Mehnat migratsiyasini optimallashtirish va samarali boshqarish uchun yangi strategiyalar va yondashuvlar.

15. Mehnat migratsiyasi uchun yangi platformalar – Tashqi mehnat migratsiyasini qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan elektron platformalar va tizimlar.

16. Mehnat migrantlari uchun maxsus xizmatlar – Mehnat migrantlari uchun maslahatlar, huquqiy yordam, moslashuv dasturlari va boshqa qo‘llab-quvvatlash xizmatlari.

17. Mehnat migratsiyasi va davlat siyosati – Davlatning tashqi mehnat migratsiyasiga oid siyosati va uni amalga oshirish bo‘yicha yangi mexanizmlar.

18. O‘zbekiston va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik – Xalqaro mehnat tashkilotlari bilan hamkorlik orqali mehnat migratsiyasini tartibga solish.

19. Mehnat migratsiyasining xavfsizligini ta’minlash – Mehnat migrantlarining xavfsizligi va huquqlarini himoya qilish, noqonuniy migratsiya va ekspluatatsiya holatlarini oldini olish.

20. Tashqi mehnat migratsiyasining iqtisodiy mexanizmlari – Tashqi mehnat migratsiyasining iqtisodiy jihatlari, mehnat migrantlari tomonidan yuborilgan pul oqimlari va ularning iqtisodiy ta’siri.

Takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekistonning tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
2. Tashqi mehnat migratsiyasi orqali O‘zbekiston iqtisodiyotiga qanday ijobiy ta’sirlar ko‘rsatilmoqda?
3. Mehnat migrantlarining O‘zbekistonga yuboradigan remittanslari qanday iqtisodiy o‘zgarishlarga olib keladi?
4. O‘zbekiston mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilishda qanday qonuniy chora-tadbirlarni ko‘rayapti?

5. Tashqi mehnat migratsiyasini rag‘batlantirishda O‘zbekiston hukumatining asosiy tashkiliy va moliyaviy dasturlari nimalardan iborat?

6. Tashqi mehnat migratsiyasi jarayonida O‘zbekiston fuqarolarining kasb-hunar ta’limi va malaka oshirish imkoniyatlari qanday?

7. Mehnat migrantlari uchun ijtimoiy xavfsizlik tizimi qanday tashkil etilgan va bu tizimni takomillashtirishda qanday qadamlar ko‘rilmoqda?

8. O‘zbekistonning tashqi mehnat migratsiyasi sohasida boshqa davlatlar bilan qanday hamkorliklari mavjud?

9. Mehnat migrantlarining salbiy ta’sirlari, masalan, oila a’zolari bilan aloqalar uzilishi va iqtisodiy qiyinchiliklar haqida nima deya olasiz?

10. O‘zbekiston mehnat migrantlarining tajribasini mamlakat iqtisodiyotida qanday samarali foydalanishga yo‘naltirishi mumkin?

11. Tashqi mehnat migratsiyasining O‘zbekistonda yangi ish o‘rinlari yaratishga qanday ta’siri bor?

XXII BOB. O‘ZBEKISTONDA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASINI RAG‘BATLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH

22.1. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga solish imkoniyatlari.
22.2. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi tendensiyalari.
23.3. Mehnat migratsiyasi iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi omil.

22.1. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga solish imkoniyatlari

Respublikaning demografik dividentidan samarali foydalanish davlatimizning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonda har yili umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini 650 mingga yaqin yoshlar bitiradi, ularning 160-165 ming nafari oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat dasturiga qabul qilinadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida yiliga o‘rtacha 300 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, natijada 200 mingga yaqin yoshlar mustaqil ravishda, jumladan, xorijdan ish qidira boshlaydi.

2022-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, mamlakat tashqarisidagi O‘zbekiston mehnat muhojirlari soni 2,4 mln. ulardan 76 foizini erkaklar va 24 foizini ayollar tashkil etadi. O‘zbekistondan asosan past malakali ishchilar va o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lganlar chiqib ketadilar. Bugungi kunda muhojirlarning aksariyati 51,6 foizi qurilish, 12,3 foizi qishloq xo‘jaligi, 9,2 foizi sanoat, 8,5 foizi savdo va boshqalar kabi sohalarda ishlab kelmoqda.



22.1-rasm. Mehnat muhojirlari bo‘lgan uy xo‘jaliklarining ulushi (%)

Birgina joriy yilning yanvar-mart oylarida xorijga ishlash uchun ketgan vatandoshlar soni 486,1 ming kishini, muhojirlarning jo‘nash geografiyasi asosan Rossiya (70,2 foiz), Qozog‘iston (13,4 foiz), Qirg‘iziston (8,7 foiz), Turkiya (3,8 foiz), Afg‘oniston (1,1 foiz), Koreya (0,6 foiz), BAA (0,4 foiz) va boshqalarni tashkil etdi.

Jahon banki tomonidan «O‘zbekiston fuqarolarini tinglab» loyihasi doirasida o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, mehnat muhojirlari bilan uy xo‘jaliklarining ulushi bugungi kunda 2019-yil darajasiga ko‘tarildi, ya’ni 20 foizni tashkil etdi, bu deyarli har beshinchi oilada mehnat muhojirining mavjudligini tasdiqlaydi.

2021-yilda O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari hajmi 8,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi, shundan 5,7 mlrd. AQSh dollari (ya’ni 70 foiz) Rossiya Federatsiyasidan kelib tushdi va har bir mehnat muhojiri uchun oylik pul o‘tkazmalari miqdori 453 AQSh doll. ni tashkil etdi. O‘zbekiston Markaziy bankining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, 2022, 2023 va 2024-yillarda O‘zbekistonga kelib tushgan pul o‘tkazmalari mamlakatlar bo‘yicha quyidagicha taqsimlangan

22.1-jadval

O‘zbekistonga kelib tushgan pul o‘tkazmalari mamlakatlar bo‘yicha (mln. AQSh dollari)[76]

Mamlakat	**2022-yil**	**2023-yil**	**2024-yil**
Rossiya	8 100	9 200	10 300
Qozog‘iston	700	800	900
Janubiy Koreya	500	550	600
Turkiya	400	450	500
AQSh	300	350	400
Boshqa davlatlar	1 000	1 100	1 200
Jami	**11 000**	**12 450**	**13 900**

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy hisobotlari.

2022-yilda jami pul o‘tkazmalari hajmi 11 000 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 12 450 mln. AQSh dollariga, 2024-yilda esa 13 900 mln. AQSh dollariga yetgan.Rossiyadan kelib tushgan pul o‘tkazmalari eng yuqori ulushga ega bo‘lib, 2022-yilda 8 100 mln. AQSh dollari, 2023-yilda 9 200 mln. AQSh dollari va 2024-yilda 10

[76] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy hisobotlari.

300 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.Boshqa davlatlardan kelib tushgan pul o‘tkazmalari ham yildan-yilga o‘sib borgan.

2024-yilning birinchi choragida O‘zbekistonga transchegaraviy pul o‘tkazmalari hajmi oshdi[77].

Transchegaraviy pul o‘tkazmalari hajmi, mln. Doll[78]

22.2-jadval

Yil	I-chorak	II-chorak	III-chorak	IV-chorak
2021	1 477	-	-	1 466
2022	-	-	5 700	2 307
2023	-	-	-	-
2024	2 506	-	-	-

O‘zgarish foizda (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan)

- 2021-yil I-chorak: **31.0%**
- 2021-yil IV-chorak: **3.4%**
- 2022-yil III-chorak: **57.4%**
- 2024-yil I-chorak: **8.6%**[79]



[77]https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/25/money-transfers/

[78] Manba: Markaziy bank

[79] Manba: Markaziy bank



22.2-rasm. Transchegaraviy pul o‘tkazmalari hajmi, mln. Doll[80]

Xorijiy pul o‘tkazmalari: hududiy ulush va yillik dinamika tahlili shuni ko’rsatmoqdaki, Xorijdan O‘zbekistonga kelayotgan pul o‘tkazmalari mamlakat iqtisodiyotida muhim manbalardan biri bo‘lib, ayrim hududlarda aholi daromadlarining katta qismini tashkil etmoqda. Birinchi diagrammada 2024-yilda xorijiy pul o‘tkazmalarining hududlar bo‘yicha umumiy daromaddagi ulushi foizda ko‘rsatilgan. Ikkinchi diagramma esa 2021–2024-yillar davomida transchegaraviy pul o‘tkazmalari hajmi va yillik o‘sish sur’atini yoritib bergan.

2024-yilda Xorazm viloyatida pul o‘tkazmalari umumiy daromadning 23,2% ini tashkil qilgan bo‘lib, bu respublika bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichdir. Undan keyingi o‘rinlarda Samarqand (19,3%), Andijon (19%) va Surxondaryo (17,4%) viloyatlari turibdi. Bu hududlarda aholi ko‘p miqdorda chet elda ishlayotganini va ularning yuborgan mablag‘lari mahalliy iqtisodiyotda katta o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Aksincha, Navoiy (5.1%), Toshkent viloyati (5.4%) va Jizzax (6.2%) viloyatlarida pul o‘tkazmalarining umumiy daromaddagi ulushi nisbatan past. Bu esa ushbu hududlarda ichki ishlab chiqarish, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari nisbatan rivojlanganini anglatadi.

Ikkinchi grafikdan ko‘rinib turibdiki, 2021-yilda pul o‘tkazmalari nisbatan barqaror kechgan bo‘lsa-da, 2022-yilning II va III choraklarida keskin o‘sish qayd etilgan. Jumladan, 2022-yilning III choragida xorijdan yuborilgan mablag‘lar hajmi 6 360 mln AQSh dollariga yetgan. Bu o‘sish ehtimol, Rossiyada ishlayotgan mehnat muhojirlari sonining ortishi, rubl kursining mustahkamlanishi yoki mablag‘ yuborish imkoniyatlarining yaxshilanishi kabi omillar bilan izohlanadi.

[80] Manba: Markaziy bank

Biroq, 2023-yilda pul o‘tkazmalari hajmi sezilarli darajada pasaygan va barqarorlashgan. Bu holat ehtimol, geosiyosiy vaziyat, iqtisodiy beqarorlik, va mehnat muhojirlariga qo‘yilgan cheklovlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, 2024-yilning I choragida o‘tgan yilga nisbatan 8.6% o‘sish kuzatilgan va pul o‘tkazmalari hajmi 2 506 mln AQSh dollarini tashkil etgan. Bu esa o‘sish jarayoni qayta boshlanganidan dalolat beradi.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, xorijiy pul o‘tkazmalari nafaqat aholining daromad manbai, balki ayrim hududlar uchun iqtisodiy barqarorlikning asosiy omili sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Vaqt bo‘yicha tahlil esa bu mablag‘larning miqdori tashqi iqtisodiy aloqalar, migratsiya siyosati va global holat bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli, ushbu mablag‘larni ichki iqtisodiyotga samarali jalb etish, ularni investitsion resurs sifatida yo‘naltirish muhim strategik vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Pul o‘tkazmalari hajmi 8,6 foizga - 2,3 milliard dollardan 2,5 milliard dollargacha oshgan. Bu 2022-yil (1,46 milliard dollar) va 2021-yil (1,41 milliard dollar) birinchi choraklaridan ham yuqori. “Rossiya va Qozog‘istonning ulushi 84 foizgacha kamaydi. Rossiyaning ulushi sezilarli darajada - 68 foizga kamaydi. Tranche transferlari ikki baravar ko'paydi (4.5 → 9.0 mlrd $), lekin:Daromad tarkibida ulushi 1.1% ga kamaydi, Sababi: Birlamchi daromadlarning tezroq o'sishi (+120.3%),Eng dinamik daromad manbalari:

Mol-mulk daromadlari: +41.4%

Shaxsiy xizmatlar: +41.1%

Ish haqi dinamikasi:

Absolyut qiymat: 27.8% → 27.9%

O'sish sur'ati: +119.0% (o'rtacha +18.5% dan yuqori)

2022-yil oxirida Rossiyaning pul o‘tkazmalaridagi ulushi qariyb 87 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda ko‘rsatkich 78 foizga kamaygan. 2019−2021-yillarda Rossiyadan yuborilgan pul o‘tkazmalari O‘zbekistonga jami pul o‘tkazmalari hajmining atigi yarmini tashkil qilgan.O‘tgan yil oxirida Jahon banki Rossiyadan O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari hajmining bosqichma-bosqich qisqarishini qayd etgan edi. Bu Rossiyadagi o‘zbekistonlik mehnat muhojirlari soni qisqargani, so‘m kursining rublga nisbatan mustahkamlangani va rubl inflyatsiyasi bilan izohlangan. Markaziy bank avvalroq mehnat migratsiyasida geografik diversifikatsiya kuzatilayotgani, Rossiyadan pul o‘tkazmalari ulushi kamaygani haqida ma’lum qilgan edi.Yanvar oyida Shavkat Mirziyoyev 100 mingga yaqin fuqaroni tashkiliy ravishda xorijiy davlatlarda ishga joylashtirish uchun o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha topshiriq bergan edi. Keyinchalik Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi Germaniya, shuningdek, Janubiy Koreya va

boshqa mamlakatlardagi 50 mingta vakansiya uchun tanlov e’lon qilgandi. Mehnat migrantlarini qo‘llab-quvvatlash va o‘qitish bo‘yicha ham yangi chora-tadbirlar joriy etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda aholining umumiy daromadlari tarkibida pul o‘tkazmalarining ulushi 16,6 foizni tashkil etib, bu daromad manbalarining oila uchun, ayniqsa, iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish bilan band bo‘lmagan qishloq joylarda ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Jahon banki ekspertlarining fikriga ko‘ra, mehnat migratsiyasi va pul o‘tkazmalari bo‘lmagan taqdirda kambag‘allik darajasi 3-7 foizga baland bo‘lishi mumkin edi.

Mamlakatda 2021-yildan beri qonuniy migrantlar o‘z-o‘zini ish bilan band bo‘lganlar bilan tenglashtirildi va chet elga ishlashga ketadiganlar uchun majburiy kasbiy tayyorgarlik tartibi joriy etildi. Chet elda ishlash talabgorlarining ish beruvchining talablariga muvofiqligini maksimal darajada oshirish uchun mamlakatlar tilini o‘qitish markazlari ochildi. Chet elda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarning huquq va manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish jamg‘armasi tashkil etildi. Chet elda og‘ir moliyaviy ahvolda bo‘lgan 10 mingga yaqin fuqarolarga bir martalik moddiy yordam ko‘rsatildi. Chet eldan qaytgan migrantlar 2,2 million so‘mlik subsidiyaga, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan kundan boshlab bino va inshootlarni ijaraga olishning dastlabki uch oyini to‘lashga tayanishi mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekistondan mehnat migratsiyasining ayrim yo‘nalishlari davlat tomonidan tartibga solinadi va boshqariladi, ba’zilari esa xaotik xarakterga ega. O‘zbekistonlik mehnat migrantlarining aksariyati Rossiyaga keladi, xalqaro migratsiya tashkiloti hisob-kitoblariga ko‘ra ularning sonin 2 millionga yaqin. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda ushbu mamlakatga ko‘chib o‘tishning pasayishi, ushbu mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat bilan bog‘liq asosiy sabablar mavjud. Rossiyaning iqtisodiy muammolari bilan bir qatorda, asosan G‘arbiy Yevropa va AQShning yetakchi davlatlari tomonidan iqtisodiy sanksiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lib, Rossiyada Federal migratsiya xizmati tomonidan mamlakatda mehnat faoliyati uchun patentni joriy etish, shuningdek, ro‘yxatga olish tartib-qoidalarini murakkablashtirish kabi omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, Rossiyada mehnatni iqtisodiyotga import qilish tendensiyasi saqlanib qolmoqda va Rossiya mehnat resurslarini import qilishga bo‘lgan ehtiyojning sababi mamlakat iqtisodiyotida saqlanib qolgan mehnat talab qiladigan tarmoqlar bo‘lib, sanoatning rivojlanishi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning past darajasi bilan bog‘liq.

Xalqaro migratsiya tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, joriy yilning birinchi choragida 133 ming muhojir Rossiyadan O‘zbekistonga qaytdi.

Buning sababi Rossiya ish beruvchilar tomonidan ish haqining kechikishi bo‘lishi, buni mehnat migratsiyasi agentligiga mingdan ortiq shikoyat kelib tushganligi tasdiqlaydi. Mehnat muhojirlari, shuningdek, rublning devalvatsiyasi natijasida kelib chiqqan hozirgi ish haqining sotib olish qobiliyatining pasayishi bilan izohlaydilar. Biroq, muhojirlarning aksariyati Turkiya yoki Ozarbayjon kabi boshqa mehnat bozorlariga yo‘naltirishni afzal ko‘rdilar.

Umumiy Internet saytlarida olingan ma’lumotlarning tahlili mehnat migratsiyasi masalalarida bir qator muhim muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, O‘zbekiston ishchi kuchining «donori» sifatida ishsizlikni kamaytirish, chet elda, birinchi navbatda Rossiyada faoliyat yuritayotgan fuqarolarining mehnat huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ichki mehnat bozoridagi vaziyatni yaxshilash bo‘yicha choralar ko‘rmoqda.

Chet elga ketayotgan barcha fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi bugungi kunda chet elda ishlash istagini bildirgan muhojirlarning yetarlicha katta qismi uchun chet elda qonuniy ish bilan ta’minlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu munosabat bilan, mehnat muhojirlarining aksariyati ushbu Agentlikning xizmatlaridan foydalanmaydi, chunki chiqish tartibiga ko‘ra, mehnat migratsiyasi uchun chet elga ketayotgan shaxslarning majburiy kasbiy tayyorgarligi to‘g‘risida sertifikat talab qilinadi, shuning uchun ko‘pchilik fuqarolar xavfsizligini xavf ostiga qo‘yib, Rossiya yoki Qozog‘istonga borishni afzal ko‘radilar. Ushbu holat shubhali vositachilarning xizmatlaridan yoki «odam savdogarlari»dan foydalanishga katta hissa qo‘shadi.

So‘nggi 3 yil ichida mehnat muhojirlarining geografiyasi mehnat muhojirlari yo‘nalishlarida o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Misol uchun, 2019-yilda O‘zbekistondan kelgan barcha muhojirlarning 1 foizi Turkiyaga ketgan bo‘lsa, 2021-yilda ular 4,5 foizni tashkil etgan, shunga o‘xshash oqim Birlashgan Arab Amirliklarida (0,1 foizdan 0,4 foizgacha), Qirg‘iziston (1,2 foizdan 10,7 foizgacha), Isroil (0,1 foizdan 0,2 foizgacha), AQSh (0,2 foizdan 0,4 foizgacha), bu mehnat migratsiyasi yo‘nalishlarini kengaytirish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Mehnat migratsiyasi agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda O‘zbekiston dunyoning 27 mamlakati bilan tashkil etilgan ish bilan ta’minlash masalalarida hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlarga ega, ular orasida Germaniya, Saudiya Arabistoni, BAA va boshqa mehnat migrantlarida talab yuqori bo‘lgan UNDESA hisob-kitoblariga ko‘ra,chet elda ish bilan ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari Rossiya (65,1 foiz), Qozog‘iston (14,2%), Qirg‘iziston (10,7%) va Turkiya (4,5%) bo‘lib qolmoqda.

BMT iqtisodiy va ijtimoiy ishlar departamenti (UNDESA) ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda dunyo aholisining uch foizdan ortig‘i muhojirlardir, bu 280,6 million kishini tashkil etadi. Muhojirlar soni bo‘yicha jahon reytingida birinchi o‘rinni AQSh egallaydi, uning hududida 46,6 million muhojir bor. Ikkinchi o‘rinda Germaniya turadi, u yerda muhojirlar soni 15,6 million kishiga yetadi. Uchinchi o‘rinda Saudiya Arabistoni 13,0 million kishi. Keyingi o‘rinlarda Rossiya Federatsiyasi – 11,6 million, Buyuk Britaniya – 9,3 million, Fransiya – 8,5 million, BAA – 8,4 million, Kanada – 8,0 million, Avstraliya – 7,6 million va Ispaniyada – 6,8 million kishini tashkil etadi.

Mutaxassislarning fikricha, mehnat migratsiyasi tufayli ish o‘rinlari va mehnat taqchilligi bor mamlakatga «intilish» iqtisodiy rivojlanishning muhim xususiyati hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan holatlar munosabati bilan mehnat migratsiyasining o‘sish tendensiyasini saqlab qolishga yordam beradigan omillarni hisobga olgan holda, O‘zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga solish, uning noqonuniy tarkibiy qismiga hissa qo‘shadigan sabablar va sharoitlarni bartaraf etish, xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga soluvchi migratsiya siyosatini shakllantirish tavsiya etiladi.

O‘zbekiston 2018-yil noyabr oyida xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT)ning to‘laqonli a’zosi bo‘ldi. 1951-yilda tashkil etilgan XMT migratsiya sohasidagi yetakchi hukumatlararo tashkilot bo‘lib, insonparvarlik va tartibli migratsiya muhojirlar va jamiyatga foyda keltiradigan prinsipga amal qiladi. XMT butun dunyo bo‘ylab muhojirlarni qo‘llab-quvvatlaydi, o‘zgaruvchan migratsiya dinamikasiga samarali javob choralarini ishlab chiqadi va shuning uchun migratsiya siyosati va amaliyoti bo‘yicha tavsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi.

XMT migratsiyani tartibga solish va insonparvar boshqarish, migratsiya masalalari bo‘yicha xalqaro hamkorlikni ta’minlash, migratsiya muammolariga amaliy yechimlarni topish va muhtoj muhojirlarga yordam berishda yordam beradi. Shuningdek, migratsiya va rivojlanish, migratsiyani rag‘batlantirish, migratsiyani tartibga solish va majburiy migratsiya muammolarini hal qilish kabi to‘rtta keng migratsiya boshqaruvida ham ishlaydi. XMT hukumat, hukumatlararo va nodavlat sheriklar bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

Shunday qilib, bandlikni ta’minlash Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasida nazarda tutilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi ekanligini hisobga olib, shuningdek, aholi bandligi muammolarini hal qilish, mehnat migratsiyasini tartibga solish va mamlakat uchun zarur bo‘lgan migratsiya ko‘lamiga erishish, ikki va ko‘p tomonlama hukumatlararo bitimlar orqali uyushgan migratsiyani amalga oshirish maqsadida:

Autstaffing xizmatlari uchun huquqiy bazani yaratish. G‘arbdagi ko‘plab kompaniyalar, shu jumladan eng katta kompaniyalar, ushbu ish rejasini afzal ko‘rishadi, bu esa o‘z vaqtida ishchi yoki ishchi guruhini ishga olish muammolarini tezda hal qilish uchun foydalidir.

Autstaffing xizmatlarining asosiy iste’molchilari mavsumiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan kompaniyalar, qisqa muddatli loyihalarni amalga oshiradigan tashkilotlar, shuningdek mehnat bozorida topish qiyin bo‘lgan malakali kadrlarga muhtoj bo‘lgan tashkilotlardir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ushbu faoliyat bilan shug‘ullanadigan odamlar soni ortib bormoqda. Agar dastlab ushbu faoliyat bilan shug‘ullanadigan kompaniyalar asosan logistika markazlari, omborxonalar bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda barcha sohalarda ishlaydigan provayderlar soni sezilarli darajada oshdi. Ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun zarur huquqiy asos yo‘qligiga qaramay, amaldagi qonunchilikda autstaffing xizmatlar to‘g‘risida ta’riflar va tushunchalar mavjud emas.

Ushbu sohada huquqiy bazani yaratish butun iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratadi va bandlik muammolarini hal qiladi, mehnat migratsiyasini kamaytiradi, shu jumladan mehnat migrantlarining turli sharoitlaridan kelib chiqqan holda, mehnat bozorida taklifni kengaytiradi va soliq tushumlarini ko‘paytiradi.

XMTning Markaziy Osiyo bo‘yicha subregional ofisini O‘zbekiston Respublikasiga (Toshkent sh.) o‘tkazish imkoniyati masalasi muhokamasi. Bugungi kunda chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari soni 2 mln.ni tashkil etadi. Bundan tashqari, har yili 600-700 ming yoshlar mehnat bozoriga kirib, ular uchun barqaror ish o‘rinlari yaratish talab etiladi. Ushbu vaziyatning yechimlaridan biri uyushgan mehnat migratsiyasini rivojlantirishdir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda eng qulay geografik joylashuvini va XMTning Markaziy Osiyo bo‘yicha subregional vakolatxonasini Toshkent shahrida joylashtirish imkoniyatini hisobga olish zarur, bu esa O‘zbekiston Respublikasiga mintaqadagi eng ko‘p aholisi bo‘lgan mamlakatni XMT va mintaqaning boshqa davlatlari bilan yanada yaqin hamkorlikni amalga oshirish imkonini beradi.

Mehnat migratsiyasi yo‘nalishlarini qayta yo‘naltirish va mehnat muhojirlarini oldindan tayyorlash bo‘yicha ishlar. O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan chet elda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O‘zbekiston fuqarolari tomonidan talab yuqori bo‘lgan kasblar va oldindan tayyorlangan (til, mamlakatning tarixiy-madaniy merosi va boshqalar) tayyorlash uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘quv-moslashuv markazlari tarmog‘ini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yevropa va Osiyoning janubi-g‘arbiy qismida ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganligini hisobga olib, XMT bilan turli sohalarda o‘quv, moslashuv va kasbiy o‘quv kurslarini birgalikda yaratish imkoniyatini ko‘rib chiqish, so‘ngra Yevropa Ittifoqi va Osiyoning janubi-g‘arbiy qismida amal qiladigan sertifikatlar berish kerak.

Migratsiya xizmatlarini raqamlashtirish. Migratsiya sohasini raqamlashtirish migratsiya rejimlarini isloh qilish bilan bog‘liq bo‘lgan katta jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, uning vositalari va platformalari barcha yo‘nalishlarda, jumladan, mehnat migratsiyasini boshqarish va mobil ilovalar orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ro‘yxatga olish kabi xizmatlar, migrantlarga maslahat va tavsiyalar berish, shu jumladan, migrantlardan kelib chiqadigan bahsli masalalarni hal qilish ish beruvchilar va pul o‘tkazmalari xizmatlarida foydalaniladi. Raqamli vositalar bir qator dolzarb muammolarni hal qilishda, jumladan, axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, migratsiya qoidalarini soddalashtirish va birlashtirish, muhojirlarning davlat xizmatlaridan foydalanishini osonlashtirish orqali migratsiyani davlat boshqaruvi samaradorligini va migratsiya sohasidagi davlat nazoratining samaradorligini oshirish, shuningdek, ko‘plab muhojirlarni, uzoq tumanlarni qamrab olish uchun muhim vosita va muhojirlarning zaifligini kamaytirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

22.2. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi tendensiyalari

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, mehnat migratsiyasi mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy hayotining muhim omillaridan biriga aylandi. So‘nggi yillarda mehnat migratsiyasining hajmi va yo‘nalishlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ushbu jarayon mamlakat iqtisodiyotiga, aholi daromadlariga va mehnat bozoriga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi dunyodagi eng ko‘p mehnat migrantlariga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Yiliga o‘rtacha 2-3 million fuqaro xorijiy davlatlarga ishlash uchun chiqib ketadi.

Bu asosan quyidagi sabablar bilan bog‘liq:

Ish haqi va yashash darajasidagi farqlar;

O‘zbekistonda ish o‘rinlarining yetishmovchiligi, ayniqsa qishloq joylarida;

Aholining mehnatga layoqatli qismining yuqori ulushi;

Migratsiyani rag‘batlantiruvchi huquqiy va iqtisodiy omillar.

Mehnat migratsiyasi iqtisodiy jihatdan ahamiyatli bo‘lib, mamlakatga katta miqdordagi pul o‘tkazmalari shaklida daromad olib keladi. Masalan, 2023-yilda O‘zbekistonga kelib tushgan transchegaraviy pul o‘tkazmalari hajmi 16 milliard AQSh dollaridan oshgan.

O‘zbekistonlik mehnat migrantlarining asosiy qismi quyidagi davlatlarda ishlaydi:

Rossiya Federatsiyasi – eng katta mehnat migratsiyasi yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda, garchi so‘nggi yillarda ushbu mamlakatga ketayotganlar soni kamaymoqda.

Qozog‘iston – qishloq xo‘jaligi va qurilish sohalarida bandlik yuqori.

Janubiy Koreya – rasmiy ishga joylashish kvotalari orqali O‘zbekiston fuqarolari ishlab kelmoqda.

AQSh va Yevropa davlatlari (Germaniya, Polsha, Chexiya) – so‘nggi yillarda ushbu davlatlarga ishlashga ketayotganlar soni ortib bormoqda.

So‘nggi yillarda Rossiyaga bog‘liqlik kamayib, mehnat migratsiyasining diversifikatsiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, AQSh, Janubiy Koreya, Germaniya va Polshaga ishlashga ketayotganlarning ulushi oshib bormoqda.

Mehnat migratsiyasining ijobiy jihatlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- O‘zbekistonga katta hajmdagi pul o‘tkazmalari kelib tushadi, bu esa ichki iste’mol va investitsiyalarni oshiradi.
- Ishsizlik darajasi pasayadi, ayniqsa qishloq joylarida.
- Chet elda ishlash orqali ishchilar yangi kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar va malakalarini oshiradilar.

Mehnat migratsiyasining salbiy jihatlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- Malakali va tajribali ishchi kuchining mamlakatni tark etishi.
- Oilaviy ajralishlarning ko‘payishi va ijtimoiy muammolar.
- Ayrim davlatlarda migrantlarning huquqlari yetarlicha himoyalanmagani sababli muammolarga duch kelishlari.

O‘zbekiston hukumati mehnat migratsiyasini tartibga solish va migrantlarni qo‘llab-quvvatlash uchun quyidagi choralarni amalga oshirmoqda:

Xorijda ishlashga ruxsat beruvchi tizimlarni soddalashtirish.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi orqali rasmiy ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish.

Xorijda ishlayotgan fuqarolarni huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning mehnat huquqlarini himoya qilish.

Xorijiy tillar va kasbiy malaka oshirish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish.

O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda migratsiyaning diversifikatsiyasi va rasmiy ishga joylashish imkoniyatlarining kengayishi kuzatilmoqda. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan chora-tadbirlar migrantlarning huquqlarini himoya qilish va ularning iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasini oshirishga qaratilgan.

Kelajakda mehnat migratsiyasining innovatsion boshqaruvi va yangi yo‘nalishlarning rivojlanishi O‘zbekistonning global mehnat bozorida yanada yaxshi natijalarga erishishiga xizmat qiladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2,5 milliondan ortiq o‘zbekistonlik mehnat migranti sifatida xorijda istiqomat qiladi. Ularning oilalariga jo‘natayotgan pul o‘tkazmalari hajmi respublika viloyatiga qarab, umumiy aholi daromadining 5 foizdan 23 foizgacha bo‘lgan qismini tashkil etadi. Bu ayrim viloyatlarda o‘rtacha statistik oila daromadining yigirmadan bir qismini, boshqa viloyatlarda esa aholi daromadlarining, taxminan, to‘rtdan yoki beshdan bir qismidan iborat deganidir.



22.2.1-rasm. Xorijdan pul o‘tkazmalarining umumiy daromaddagi ulushi (foizda)[81]

O‘zbekistonliklarning aksariyat qismi Rossiyada mehnat qilayotgan bo‘lsa-da, 2018-yilda mamlakatga qariyb 1 milliard AQSh dollarilik pulni boshqa xorijiy yurtlarda ishlayotgan migrantlar jo‘natdi. So‘nggi yillarda boshqa mamlakatlarga mehnat migratsiyasi tobora oshib bormoqda. Bizningcha, bunga 2014-yilda Rossiya rublining keskin qadrsizlanishi va mehnat migrantlarining ish haqi dollar hisobida bir yarim yoki ikki baravar kamayib ketgani sabab bo‘ldi.

Ish topish maqsadidagi migratsiya geografiyasi so‘nggi 5 yilda o‘zgara boshladi hamda AQSh, Turkiya, Isroil, Janubiy Koreya, BAA va Qozog‘istonga ishchilar oqimi tobora o‘sib borayotgani kuzatilmoqda.Qariyb 95 foiz pul o‘tkazmalari mehnat migratsiyasining “ajoyib yettilik”ka kiruvchi mamlakatlaridan jo‘natilgan.

[81] Manba: Markaziy bank

Ish topish maqsadida Rossiyaga ketayotgan o‘zbekistonliklar soni yiliga 850 ming – 1 million kishi bo‘lib turgan paytda boshqa mamlakatlarga ketayotgan mehnat migrantlari oqimi tobora oshib bormoqda. 2018-yilda Rossiyadan yuborilgan pul 2 foiz kamaygan bo‘lsa, qolgan mamlakatlardan jo‘natilgan o‘tkazmalar ulushi ortdi.

2018-yilda Qozog‘istonga safari maqsadini “ish” deb ko‘rsatgan o‘zbekistonliklar statistikasi bundan mustasno. Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, bunday migrantlar 3,5 million kishini tashkil etadi. Aholisi 18 million kishi bo‘lgan Qozog‘iston uchun bu raqamga “aql bovar qilmaydi”.

Aftidan, bunday fuqarolarning aksariyati Qozog‘istonga boshqa maqsadda chiqqan. U yerga borgan mehnat migrantlarining haqiqiy soni bundan ancha kam. Qozog‘istondan O‘zbekistonga jo‘natilgan pul o‘tkazmalari miqdorining 2017-yilga nisbatan 28 foiz oshganiga qaraganda, 2018-yilda Qozog‘istonga ketgan mehnat migrantlari sonini 650 ming – 800 ming nafar deb taxmin qilsa bo‘ladi. AQSh va Turkiyaga ish topish maqsadida ketgan o‘zbekistonliklar soni ham amalda bir oz kamroq bo‘lishi mumkin. Biroq 2018-yilda ushbu mamlakatlardan jo‘natilgan pul o‘tkazmalari 30 foizgacha oshdi.

O‘zbekistonning iqtisodiy faol aholisi soni ko‘payishi barobarida ish qidirib chetga chiqayotgan fuqarolar soni ham oshib bormoqda. Shunisi qiziqki, bu raqamlarning o‘zaro nisbati 10 − 11 foiz atrofida deyarli o‘zgarmas bo‘lib turibdi. Boshqacha aytganda, O‘zbekistonning har o‘ninchi iqtisodiy faol fuqarosi har yili ish topish maqsadida xorijga chiqadi. Shu o‘rinda 2018-yil statistikasida keltirilgan ma’lumotlar (4,1 million kishi) bundan mustasno ekanini qayd etish joiz.

Biroq bu xorijda mehnat qilayotgan o‘zbekistonlik migrantlarning umumiy sonini aks ettirmaydi. Ushbu raqamga oydinlik kiritish uchun mehnat migratsiyasining “hammabop” yo‘nalishi bo‘yicha statistikaga murojaat qilamiz. Rossiya Federatsiyasi IIV va Markaziy bankidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi 3 yilda yiliga qariyb 4 million O‘zbekiston fuqarosi ushbu mamlakatda migratsiya hisobiga qo‘yilgan. Ularning qariyb yarmi Rossiyaga “ish” topish maqsadida borgan.

Ushbu raqam O‘zbekistondan Rossiyaga chiqib ketganlar miqdori bilan taqqoslanganda, mantiqsizlik borday ko‘rinadi. O‘zbekiston Respublikasi Statistika davlat qo‘mitasining ma’lum qilishicha, 2016 – 2018-yillar mobaynida har yili 1,18 ‒ 1,3 million o‘zbekistonlik Rossiyaga chiqqan. Rossiya migratsiya xizmati hisobida turgan O‘zbekiston fuqarolari soni bu yerdan Rossiyaga borganlar sonidan bir necha bor ko‘p. Buni qanday tushunish kerak?

Nazarimizda, bunday tafovutning ikkita sababi bor. Birinchidan, O‘zbekiston fuqarolari yil mobaynida ikki yoki uch marotaba, masalan, har

safar 3 oydan hisobga qo‘yilgan bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, ko‘plab o‘zbekistonliklar Rossiyaga uzoq muddatga – bir necha yilga boradi. Ular o‘z vataniga qaytmagan holda registratsiyani uzaytiradi yoki qayta migratsiya hisobiga qo‘yiladi.

Rossiyadagi O‘zbekiston fuqarolari soni tobora ortib bormoqda. Buni migratsiya hisobining ijobiy saldosi ham tasdiqlaydi – hisobga qo‘yilgan va hisobdan chiqarilgan O‘zbekiston fuqarolari soni o‘rtasidagi farq yiliga qariyb 1,3 million kishini tashkil etadi.

Rossiyadan O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari dinamikasi alohida e’tiborga loyiq. Ushbu o‘tkazmalarning umumiy miqdori Rossiya fuqarolari va norezidentlar – O‘zbekiston fuqarolari jo‘natgan mablag‘lardan iborat. Pulning aksariyat qismini O‘zbekiston fuqarolari (norezidentlar) jo‘natgani yuqoridagi grafikdan ham ko‘rinib turibdi. O‘tgan 10 yillik dinamikaning ko‘rsatishicha, 2009-yildan 2013-yilgacha pul o‘tkazmalari miqdori barqaror o‘sib, yiliga 6,69 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Lekin undan keyingi 3 yil ichida bu ko‘rsatkich 2,74 milliard dollargacha kamaydi. Bunga Rossiyada yuz bergan iqtisodiy inqiroz va 2014-yilda rublning keskin qadrsizlanishi sabab bo‘ldi. 2016-yildan boshlab 2018-yil oxirigacha Rossiyadan O‘zbekistonga yuborilgan pul o‘tkazmalari miqdori atigi 4 milliard dollarga yetdi.

2,6 million O‘zbekiston fuqarosi xorijda mehnat qilmoqda. Ularning 80 – 85 foizi Rossiyada ekan. Iqtisodiy faol aholi soni 14,6 mln kishi ekani hisobga olinsa, bu ishga layoqatli har beshinchi o‘zbekistonlik mehnat migranti, har yettinchi iqtisodiy faol fuqaro Rossiyada ishlayapti, deganidir[82]. Mehnat migratsiyasi dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanish, bandlikni oshirish va aholining turmush darajasini yaxshilash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O‘zbekiston uchun mehnat migratsiyasi xorijdagi fuqarolarning o‘z vataniga qaytib keladigan valyuta tushumlarini oshirish va bandlikni ta’minlashda strategik ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda O‘zbekistondan xorijga ketayotgan mehnat muhojirlarining soni ortib bormoqda. Bunga sabab sifatida chet eldagi ishchi kuchiga bo‘lgan talabning oshishi, yangi mehnat bozorlarining ochilishi va hukumat tomonidan tashkiliy migratsiyani rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarni ko‘rsatish mumkin.

2024-yilda O‘zbekistonga xorijdan kelayotgan pul o‘tkazmalari hajmi 14,8 milliard AQSh dollariga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 30 foizga oshdi. Bu o‘sish quyidagi omillar bilan bog‘liq:

Xorijiy davlatlarda iqtisodiy faollikning oshishi – ishchi kuchiga bo‘lgan talabning ortishi va maoshlarning oshishi.

[82] Меҳнат миграцияси ва тенденциялар - UzAnalytics

Yuqori daromadli davlatlardan kelayotgan o‘tkazmalar ulushining ortishi – yangi mehnat bozorlariga chiqish natijasida daromadlarning diversifikatsiyalashuvi.

Onlayn pul o‘tkazmalaridan foydalanishning kengayishi – P2P (peer-to-peer) o‘tkazmalar 40 foizga oshib, tranzaksiyalar soni 71 millionga yetdi.

2024-yilda O‘zbekistonga kelgan pul o‘tkazmalari (milliard AQSh dollarida)[83]

22.2.1-Jadval

Davlat	2023-yil	2024-yil	O‘zgarish (%)
Rossiya	8.9	11.5	+29%
Qozog‘iston	0.6	0.8	+33%
AQSh	0.4	0.57	+43%
Janubiy Koreya	0.34	0.53	+56%
Turkiya	0.3	0.4	+33%
Buyuk Britaniya	0.074	0.135	+83%
Yevropa Ittifoqi	0.42	0.55	+32%
Jami	**11.4**	**14.8**	**+30%**

Yangi mehnat bozorlarining faolligi. Rossiya hanuzgacha asosiy pul o‘tkazmalarining manbai bo‘lib qolayotganiga qaramasdan, yangi mehnat bozorlarining ulushi sezilarli darajada oshmoqda. Jumladan, Buyuk Britaniya, AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlarida o‘zbekistonlik ishchilarga bo‘lgan talab ortib, ushbu davlatlardan kelayotgan pul o‘tkazmalari hajmi yil sayin ko‘paymoqda.

Eng katta o‘sish Buyuk Britaniya bozorida kuzatildi, bu davlatdan kelayotgan o‘tkazmalar 83 foizga oshdi. Bu esa ushbu mamlakatda mavsumiy ishchilarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan bog‘liq.

2024-yilda Mehnat migrantlarining geografik taqsimoti(ming kishi hisobida)[84]

22.2.2-Jadval

Davlat	2023-yil	2024-yil	O‘zgarish (%)
Rossiya	1,750	1,900	+9%
Qozog‘iston	250	280	+12%

8383 https://pinkod.uz/news/ozbekistonga-2024-yilda-xorijdan-kirib-kelgan-pul-otkazmalari-qariyb-15-mlrd-dollarga-yetdi

84 https://pinkod.uz/news/ozbekistonga-2024-yilda-xorijdan-kirib-kelgan-pul-otkazmalari-qariyb-15-mlrd-dollarga-yetdi

Davlat	2023-yil	2024-yil	O‘zgarish (%)
Janubiy Koreya	90	120	+33%
AQSh	60	80	+33%
Buyuk Britaniya	40	75	+88%
Yevropa Ittifoqi	100	130	+30%
Jami	**2,290**	**2,585**	**+12.9%**

O‘zbekistonda Pul O‘tkazmalari va Valyuta Bozori. Pul o‘tkazmalarining oshishi natijasida O‘zbekistonda valyuta bozorining hajmi ham sezilarli darajada kengaydi. 2024-yilda valyuta oldi-sotdi operatsiyalari 19 foizga o‘sib, umumiy hajmi 25,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

Jismoniy shaxslar tomonidan:

16,1 milliard dollar sotilgan (+31%).

9,4 milliard dollar sotib olingan (+3%).

Shuningdek, valyuta ayirboshlash punktlari 20 foizga kengayib, butun mamlakat bo‘ylab 6,2 mingta shoxobcha faoliyat yurita boshladi. 24/7 rejimida ishlovchi avtomatlashtirilgan bankomatlar soni 3,4 mingdan oshdi, bu esa aholiga qulaylik yaratdi.

O‘zbekistonda Valyuta Oldi-Sotdi Operatsiyalari (milliard AQSh dollarida)

22.2.3-Jadval [85]

Ko‘rsatkich	2023-yil	2024-yil	O‘zgarish (%)
Sotilgan valyuta	12.3	16.1	+31%
Sotib olingan valyuta	9.1	9.4	+3%
Umumiy hajm	21.4	25.5	+19%

Mehnat migratsiyasi O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. 2024-yilda xorijdan kelayotgan pul o‘tkazmalarining 30 foizga oshgani mehnat migrantlarining soni va xorijdagi ish haqlarning oshishi bilan bog‘liq. Rossiya hali ham asosiy manba bo‘lsa-da, Buyuk Britaniya, AQSh

[85] https://pinkod.uz/news/ozbekistonga-2024-yilda-xorijdan-kirib-kelgan-pul-otkazmalari-qariyb-15-mlrd-dollarga-yetdi

va Yevropa Ittifoqi davlatlaridan kelayotgan o‘tkazmalar hajmi sezilarli darajada oshib bormoqda.

Bundan tashqari, valyuta bozori ham kengayib, aholi o‘z daromadlarini xorijiy valyutada saqlashga ko‘proq intilmoqda. Valyuta ayirboshlash punktlari va avtomatlashtirilgan xizmatlarning kengayishi bu jarayonga qo‘shimcha turtki berdi.

Kelajakda mehnat migratsiyasi siyosatini yanada rivojlantirish va xorijdagi O‘zbekiston fuqarolarining mehnat sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. 2024-yil iyul oyi holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda aholisining 15 million 89 ming nafari (41 foiz) iqtisodiy faol, ya’ni mehnat qilishga tayyor aholi hisoblanadi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xabariga ko‘ra, ish bilan band aholining 14 million 213 ming nafari (94 foizi) iqtisodiyotning turli tarmoqlarida mehnat qilmoqda.

Xususan:

rasmiy sektorda – 6,8 million (48 foiz);

norasmiy sektorda – 5,5 million (38,8 foiz);

xorijda ishlayotganlar – 1,9 million (13,6 foiz).

Bugungi kunda respublika bo‘yicha 876 ming nafar ishga joylashishga muhtoj aholi mavjud (yil boshida 1 ming 24 ming nafar bo‘lgan).

Mehnatga layoqatli aholi o‘rtasida ishsizlik darajasi yil boshiga nisbatan 1 foiz punktga yoki 6,8 foizdan 5,8 foizga kamaygan[86].

O‘zbekistonda 2024-yil yakunlari bo‘yicha kambag‘allik darajasi 2,1 foiz punktga qisqardi. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ekspertlari respublikaning barcha hududlarida kambag‘allik profilidagi o‘zgarishlar va aholi daromadlarining o‘sganini qayd etdilar, bu esa aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va yerdan samarali foydalanish natijasida yuzaga keldi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda kambag‘allik darajasini kamaytirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. 2023-2024-yillar davomida barcha hududlarda kambag‘allik ko‘rsatkichlarining pasaygani kuzatilmoqda.

Hududlar bo‘yicha kambag‘allik darajasining o‘zgarishi [87](%)

22.2.4-jadval

Hududlar	2023-yil (%)	2024-yil (%)	O‘zgarish (%)
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	13,6	10,8	-2,8

[86] https://kun.uz/kr/news/2024/11/02/bandlik-vazirligi-ishsizlik-darajasi-kamayganini-malum-qildi

[87]

Hududlar	2023-yil (%)	2024-yil (%)	O‘zgarish (%)
Xorazm viloyati	14,1	11,9	-2,2
Buxoro viloyati	11,3	8,7	-2,6
Navoiy viloyati	7,6	5,7	-1,9
Qashqadaryo viloyati	11,3	9,6	-1,7
Surxondaryo viloyati	11,4	9,3	-2,1
Samarqand viloyati	10,5	7,5	-3,0
Jizzax viloyati	14,2	10,8	-3,4
Sirdaryo viloyati	13,8	11,3	-2,5
Namangan viloyati	9,4	7,6	-1,8
Andijon viloyati	9,5	7,5	-2,0
Farg‘ona viloyati	9,6	7,3	-2,3
Toshkent viloyati	10,2	8,0	-2,2
Toshkent shahri	7,9	7,3	-0,6

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, eng katta pasayish Jizzax (-3,4%), Samarqand (-3,0%) va Qoraqalpog‘iston (-2,8%) hududlarida kuzatilgan. Ushbu natijalar iqtisodiy o‘sish, ish o‘rinlarining ko‘payishi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlari samaradorligini ko‘rsatadi. Biroq, Toshkent shahrida (-0,6%) kambag‘allik darajasining kamayishi boshqa hududlarga nisbatan sustroq bo‘lgan.

Davlat tomonidan iqtisodiy ahvolni yaxshilash va kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan bir qator dasturlar amalga oshirildi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida muayyan yutuqlarga erishildi.

Kambag‘allik darajasi kamayishini ta’minlovchi dasturlar natijalari (2024-yil yakunlari bo‘yicha)

22.2.5-jadval.

Ko‘rsatkichlar	Miqdor
Kambag‘allikdan chiqarilgan aholi soni	719 ming kishi
Kam ta’minlangan oilalarga berilgan kreditlar soni	611,5 ming fuqaro
Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan tadbirkorlar	16 ming tadbirkor
Ajratilgan kreditlarning umumiy miqdori	17 trillion so‘m

Ushbu natijalar mamlakat bo‘ylab aholi farovonligini oshirish, iqtisodiy o‘sishga erishish va bandlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2022-2024-yillarda O‘zbekiston aholisi farovonlik darajasining o‘zgarishi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan butun respublika bo‘yicha uy xo‘jaliklari budjetini o‘rganish ma’lumotlari asosida tahlil qilindi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda kambag‘allik darajasining o‘zgarishi eng ilg‘or jahon tajribasi asosida qayta ko‘rib chiqildi. Xususan, foydalanilayotgan xalqaro hisob-kitob uslubi Jahon banki konsepsiyasiga asoslangan. Xususan, yil davomida butun respublika bo‘ylab xonadonlar budjeti o‘rganiladi. O‘lchash usuli, kambag‘allik darajasini o‘lchash so‘nggi yillarda sezilarli darajada o‘sgan aholi daromadlarining baholariga asoslanadi.

Baholarga ko‘ra, 2021-yilgi so‘rovda 10 ming atrofida uy xo‘jaliklari ishtirok etgan, 2022-yilda esa qamrov 14 mingdan oshdi, 2024-yilda butun mamlakat bo‘ylab 16 mingdan ziyod oilalar o‘rganildi.

2023-yilda respublikada kambag‘allik darajasi 14 foizdan 11 foizga, 2024-yilda esa 8,9 foizgacha qisqardi. Natijada 719 ming kishi kambag‘allikdan chiqarildi. Kambag‘allik darajasining pasayishi respublikaning barcha hududlarida kuzatilmoqda. Kambag‘allikni kamaytirishning asosiy omillari va istiqbollari

Kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash: aholi va tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratilishi orqali iqtisodiy faollikni oshirish.
- Bandlikni ta’minlash: yangi ish o‘rinlari yaratish va mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish.

Tadbirkorlikni rivojlantirish: kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, startaplar va innovatsion loyihalarni rag‘batlantirish.

Hududiy infratuzilmani rivojlantirish: qishloq joylarida transport va kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash orqali aholi bandligini oshirish.

O‘zbekiston hukumati 2030-yilga kelib kambag‘allik darajasini 5% gacha kamaytirishni rejalashtirmoqda. Bu esa barqaror iqtisodiy o‘sish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va tadbirkorlik ekotizimini qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi[88].

22.3. Mehnat migratsiyasi iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi omil

Mehnat migratsiyasi jarayonlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Migratsiya miqyoslari global yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sish dinamikasiga (pul jo‘natmalari), boshqa asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga (ishsizlik

[88] https://review.uz/oz/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2024-goda-infografika

darajasi, savdo tarkibi), shuningdek, mehnat bozorini tartibga solish hamda migratsiya qonunchiligidagi o‘zgarishlarga juda sezgir.

Jahon xo‘jaligi rivojlanib, mamlakatlararo integratsion aloqalar kuchayib borgan sayin, mehnat migratsiyasi ham tobora intensivlashib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar va iqtisodiy qoloq mamlakatlar o‘rtasidagi farqlarning uzluksiz chuqurlashib borayotgani ham ushbu jarayonlarni jadallashtirishga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Chunki mehnat migratsiyasi kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichida migratsiyaning o‘ziga munosib ish va yuqori daromad topish maqsadida amalga oshirilgan alohida turi bo‘lib, iqtisodiyoti og‘ir ahvolda bo‘lgan kam rivojlangan mamlakatlarda bandlik va ish haqinig o‘tkir muammolarini hal etishning asosiy vositalaridan biriga aylandi.

So‘nggi paytlarda mehnat migratsiyasini tahlil etishda inson kapitalining mamlakat iqtisodiy o‘sishning endogen omilini tadqiq etishga e’tibor kuchaydi. Bunday yondashuv tarafdorlari (R. Lukas, P. Romer va boshqalar) jamlangan inson salohiyati iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omili, xalqaro iqtisodiy migratsiya mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy o‘sish sur’atlaridagi farqlar natijasidir degan xulosaga kelganlar. Bunda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirishning endogen mexanizmi sifatida inson kapitalining jamlanishi namoyon bo‘ladi. Xalqaro mehnat migratsiyasi migrantlarda inson kapitali jamg‘arilishiga yordam beradi.

Iqtisodiy sikllarning teskari bog‘liqligi nazariyasi vakillari (B.Tomas va boshkalar) fikricha, mamlakatdan mamlakatga mehnat migratsiyasining yo‘nalishi iqtisodiy rivojlanishning siklik fazalarining teskari o‘zgarishi bilan belgilanadi.

Rossiyalik olim Ye.Tryukanovaning fikricha, mehnat migratsiyasi modellari savdo oqimlari dinamikasi bilan o‘xshab ketadi: mamlakatning rivojlanish darajasi ortishi bilan nafaqat ayriboshlanadigan tovarlarning tarqalib ketishi kuzatiladi. Bu bilan birga migrantlarning sifat ko‘rsatkichlari, salohiyati, malaka, ko‘nikma tarkibi ham kengayadi.

Xalqaro mehnat almashinuvi bo‘yicha mutaxassis, rus iqtisodchisi Yu.A.Yanovskiy ishchi kuchi eksportidan mehnatkash-migrantning o‘zi uchun keladigan foydani quyidagicha tavsiflaydi: u o‘zini va oilasini moddiy jihatdan ta’minlaydi, demak, mamlakat boyiydi, sohasi buyicha o‘zini malakali deb hisoblaydi yoki mehnat bozorida (o‘z yurtida va horijda)talab qilinadigan u yoki bu mutaxassislik bo‘yicha qayta tayyorlovdan o‘tadi, mamlakatning soliqqa tortiladigan bazasini kengaytiradi.

Rossiyalik iqtisodchi olim V.B. Supyanning hisob kitoblariga ko‘ra, mehnat migrasiyasi migrantni qabul qiladigan tomon uchun ham foydalidir. U qo‘yidagi ma’lumotlarni keltiradi: 90- yillar o‘rtalarida AQShda 11 milliondan ortiq immigrantlar yashagan. Ular yiliga o‘rtacha 240 mlrd. dollar ishlagan bo‘lsalar, undan 90 mlrd. dollarni soliq sifatida byudjetga

qaytarishgan. Bu davrda immigrantlarning ijtimoiy dasturlari uchun davlat 5 mlrd. dollar sarflaydi. Bu hisob- kitoblar immigrantlardan, jumladan, mehnat migrasiyasidan iqtisodiy jihatdan foyda yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Migratsiya jarayonlaridagi xalqaro pul o‘tkazmalari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi, shu qatorda qashshoqlik va tengsizlikni kamayishiga olib keladi, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilaydi. Masalan, YuNESKO hisobotlariga ko‘ra, xalqaro pul o‘tkazmalari umuman past va o‘rta daromadli mamlakatlarda ta’limga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, Lotin Amerikasida shaxsiy pul o‘tkazmalari oqimi natijasida ta’limga sarflangan mablag‘lar o‘rtacha 53 foizga, Afrika va Osiyodagi 18 mamlakatda esa 35 foizga oshdi.

Jahon bankining hisob-kitoblariga ko‘ra, ushbu ikki mamlakat guruhiga ro‘yxatdan o‘tgan pul o‘tkazmalari 2018-yilda 529,3 mlrd.AQSh dollarini tashkil etib, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimidan (461,9 mlrd. dollar) va rivojlanishga rasmiy yordamdan (2017-yilda 162,6 mlrd. dollar) oshib, eng katta tashqi moliya manbai bo‘ldi. Shunga qaramay, shaxsiy pul o‘tkazmalari dinamikasini harakatga keltiruvchi omillar har bir mamlakatda bir oz farq qiladi.

2018-yilda dunyodagi barcha migrantlar pul o‘tkazmalarining umumiy hajmi 689,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2017-yildagi 596 mlrd. AQSh dollari ga nisbatan 102,4 mlrd. AQSh dollariga o‘sgan.

Bu o‘tkazmalarning 450 mlrd.dollari rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Migratsiya statistikasining ko‘rsatishicha, ko‘chib borganlarning pul jo‘natmalari yirik kapital oqimi bo‘lib, rivojlantirish maqsadida rasman yordamga qaraganda 3 barobarga ko‘pdir. Bu ularning 15 foiz daromadlari xolos. Qolgan 85 foizini migrantlar yashab turgan mamlakat iqtisodiyotiga (soliqlar, ijtimoiy to‘lovlar va boshqalar) sarflaydilar.

Mehnat migrantlarining pul o‘tkazmalari uchun asosiy donor mamlakat AQSh bo‘lib, u yerdan 2017-yilda global pul o‘tkazmalari oqimining 14,6 foizi yuborilgan. Pul o‘tkazmalarining aksariyati Lotin Amerikasi mamlakatlariga yuboriladi, Meksika hali ham asosiy pul oluvchi bo‘lib hisoblanib, Qo‘shma Shtatlardan yuborilgan pul o‘tkazmalarining beshdan biriga to‘g‘ri keladi. Bu Meksikadan kelgan migrantlarning ko‘pligi bilan bog‘liq bo‘lib, ular Qo‘shma Shtatlardagi jami migrantlarning deyarli 25 foizini (11,6 million kishi) tashkil etadi. Xitoy (10,9%), Hindiston (7,9%) va Filippin (7,5%) ham AQShdan pul o‘tkazmalarining asosiy oluvchilaridir.

Migrantlar yuborgan pul o‘tkazmalari bo‘yicha birinchi uchlikka BAA (9,5%) va Saudiya Arabistoni (7,7%) ham kirdi. Bu 1973-yildan keyin shakllana boshlagan Fors ko‘rfazi mamlakatlaridagi mehnat migrantlarining

yuqori konsentratsiyasi - jahon neft narxlarining keskin o‘sishi davri bilan bog‘liq. Ushbu mamlakatlarda ishchi kuchi immigratsiyasi aholining mehnat bozorida kam ishtiroki hamda ularning malakasi darajasining yetarli emasligi katta ahamiyatga ega.

2017-yilda migrantlar pul o‘tkazmalarining global oqimini 4,4 foizini tashkil etgan Rossiya - MDH mamlakatlari va Ukrainaga o‘tkazmalarning asosiy donori hisoblanadi. Xitoydan transfert oluvchilar asosan Filippinlar, Koreya Respublikasi va Yaponiyadir. Jami transfert oqimining 10% dan ortig‘i Shveysariya va Germaniyadan yuborilgan bo‘lib, transfertlarning aksariyati boshqa Yevropa davlatlari tomonidan qabul qilingan.

Hindistonga pul o‘tkazmalari asosan BAA (barcha o‘tkazmalarning 20,0%), AQSh (17,0%) va Saudiya Arabistonidan (16,3%) yuborilgan. 2018-yilda Hindistonga pul o‘tkazmalarining 14,0 foizga o‘sishiga asosan Keraladagi suv toshqini va shu bilan birga mehnat migrantlarining oilalariga moddiy yordamning ko‘payishi sabab bo‘ldi. Xitoyga migrantlar tomonidan o‘tkazilgan pullarning yarmidan ko‘pi AQSh va Gonkongdan kelgan. Meksika (global tushumlarning 5,2%), Filippinlar (4,9%) va Misr (4,2%) ham migrantlarning pul o‘tkazmalari bo‘yicha yetakchi beshta mamlakat qatoriga kiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, Filippin va Misrda migrantlar transfertlari iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular har bir mamlakat YaIMning 10% dan ortig‘ini tashkil qiladi.

Jahon o‘tkazmalarining 10% dan ortig‘i Fransiya, Nigeriya va Pokistonga yuboriladi. Germaniya va Ve’tnam ham pul o‘tkazmalari oladigan o‘nta mamlakat qatoriga kiradi. Shunday qilib, transfertlarni oluvchilar orasida birdaniga ikkita rivojlangan davlat bor bo‘lib, ular Fransiya va Germaniyadir. Ularga asosiy transfertlar Shimoliy Amerika va qo‘shni Yevropa mamlakatlaridan keladi.

Turkiyaga pul o‘tkazmalari 2020-yilda 1280 mln.evroni tashkil etdi (barcha o‘tkazmalarning 19,2%). Ehtimol, bu mehnat migrantlarining o‘z mamlakatlariga o‘tkazmalari emas, balki ikki yoki undan ortiq samaraning kombinatsiyasidir. Chunki, Turkiyada yashash sharoitlarini yaxshilash uchun mablag‘ sarflash o‘rniga, ba’zi oilalar Germaniyada o‘z pozitsiyalarini kuchaytirishi mumkin, bu yerda 3 milliondan ortiq turklar va kurdlar yashaydi (ularning yarmi Turkiya fuqaroligiga ega).

Mehnat migratsiyasi moliyaviy investitsiya operatsiyalarini ko‘paytiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarga xususiy kapitalning oqib kelishi jadal sur’atlarda o‘sib bormoqda. Xususiy kapital oqimining 82 foizi 135 ta rivojlanayotgan davlatning 20 tasiga kelib tushgan. Dunyo aholisining 51 foizi yashab turgan iqtisodiy rivojlanishi past bo‘lgan mamlakatlar- 1990-yildan 2008-yilga qadar ushbu kapital oqimining 8,5 foizini olgan. Xalqaro valyuta fondiga o‘z

tulov balanslari haqida ma’lumot beradigan 80 ta mamlakatdan 52 tasi ishchi kuchini eksport qilishdan daromad ko‘radi.

Ko‘pgina qabul qiluvchi mamlakatlar uchun pul o‘tkazmalari oqimi ushbu mamlakatlarga ko‘rsatiladigan rasmiy moliyaviy yordamlar hajmidan ortib ketdi va kam ta’minlangan aholi qatlamlarining iktisodiy kiyinchiliklarni yengish uchun samarali vosita hisoblanadi. Ular orkali “o‘z-o‘ziga” yordam tamoyili amal qiladi.

Mehnat migrantlarining pul jo‘natmalari respublika iqtisodiyoti taraqqiyotiga yaxshigina hissa qo‘shmoqda. Makrodarajada pul o‘tkazmalari O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, pul o‘tkazmalarini 2007-yildan buyon O‘zbekistondagi kambag‘allikning sezilarli darajada pasayishiga hissa qo‘shgan mexanizmlardan biri sifatida aytish mumkin.



22.2.1-rasm. Qashshoqlik darajasi 2021–2024-yillar[89]

So‘nggi to‘rt yil davomida O‘zbekistonda qashshoqlik darajasini kamaytirish bo‘yicha olib borilgan siyosat va iqtisodiy chora-tadbirlar o‘z natijasini bermoqda. Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 2021-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda qashshoqlik darajasi bosqichma-bosqich qisqargan.

2021-yil: Qashshoqlik darajasi 17% bo‘lgan. Bu davr pandemiya oqibatlari bilan bog‘liq iqtisodiy qiyinchiliklar davomi bo‘lgan.

2022-yil: Daraja 14% ga tushgan, ya’ni 3 foizlik kamayish kuzatilgan. Bu esa davlat tomonidan ish o‘rinlari yaratish, infratuzilma loyihalarini

[89] https://review.uz/oz/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2024-goda-infografika

kengaytirish, aholiga kreditlar ajratish kabi iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samarasi bo‘lishi mumkin.

2023-yil: Qashshoqlik 11% ga yetib, yana 3 foizga kamaygan. Shu yilda ijtimoiy nafaqalar, subsidiyalar va ijtimoiy himoya tizimining kengaytirilgani sezilarli rol o‘ynagan.

2024-yil: Daraja 8,9% gacha tushgan. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan strategiyalar izchil davom etmoqda va ularning natijadorligi yuqori.

To‘rt yil ichida qashshoqlik darajasi 17% dan 8,9% gacha pasaygan, bu esa 8,1 foizlik umumiy kamayishni tashkil etadi. Ushbu jarayon iqtisodiy o‘sish, bandlikning oshishi, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya tizimi takomillashuvi bilan bevosita bog‘liq.

Qashshoqlik darajasining pasayishi – bu faqat statistik muvaffaqiyat emas, balki odamlar hayoti sifatining real yaxshilanishi belgilaridir.

Shu bilan birga, bu ko‘rsatkichlar barqaror va tizimli islohotlar orqali qo‘llab-quvvatlanishi kerak.



22.2.2-rasm. 2030-yilgacha qashshoqlik darajasini

2030-yilgacha qashshoqlik darajasini 5% gacha tushirish maqsadi qo‘yilgan. Bunga erishish uchun ayniqsa bandlikni kengaytirish, hududiy iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va kichik biznesni moliyaviy rag‘batlantirish kabi yo‘nalishlar muhim bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida 2024-yil yakunlariga ko‘ra kambağallik darajasi 2,1 foiz punktga qisqardi. Bu natija mamlakatda aholining bandligini oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish natijasida erishildi. Mazkur jarayonni tahlil

qilish maqsadida **Iqtisodiy** tadqiqotlar va islohotlar markazi mutaxassislari uy xo‘jaliklari budjetini o‘rganish asosida batafsil tahlillar olib bordilar.[90]

Jahon banki bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasida kambağallik darajasi 8,9 foiz gacha qisqargan[91]Yillar kesimida kambağallik darajasi (%)

22.3.1- Jadval

Yil	Kambağallik darajasi (%)
2021	17,0
2022	14,0
2023	11,0
2024	8,9

2024-yilda 719 ming kishi kambağallikdan chiqarildi. Ushbu jarayon barcha hududlarda sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.



Hududlar kesimida kambag‘allik darajasining pasayishi (%)

22.3.2- Jadval

Hudud	2023-yil (%)	2024-yil (%)	O‘zgarish (foiz punkt)
Qoraqalpog‘iston	13,6	10,8	-2,8

[90] https://review.uz/oz/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2024-goda-infografika

[91] https://review.uz/oz/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2024-goda-infografika

Hudud	2023-yil (%)	2024-yil (%)	O‘zgarish (foiz punkt)
Namangan	10,4	7,6	-2,8
Buxoro	11,8	8,7	-3,1
Samarqand	10,6	7,5	-3,1
Qashqadaryo	12,7	9,6	-3,1
Sirdaryo	13,8	11,3	-2,5

Eng katta qisqarish Buxoro va Samarqand viloyatlarida kuzatildi, ularda kambağallik 3,1 foiz punktga kamaydi. Shuningdek, Namangan va Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham sezilarli qisqarish kuzatildi (2,8 foiz punkt).2024-yilda O‘zbekiston aholisi daromadlari 10,7 foizga o‘sdi. Bu o‘rtacha aholi jon boshiga 2,1 million so‘m daromadga to‘g‘ri keladi.

Aholi daromadlari tarkibi (%)

22.3.3- Jadval

Daromad manbai	2023-yil (%)	2024-yil (%)	O‘zgarish (%)
Ish haqi	41,9	42,6	+0,7
Tadbirkorlik daromadi	21,4	22,9	+1,5
Qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilik	9,8	10,7	+0,9
Pensiya va ijtimoiy to‘lovlar	18,9	18,2	-0,7
Pul o‘tkazmalari (chet eldan)	3,1	2,0	-1,1
Boshqa daromadlar	4,9	3,6	-1,3

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki:

- Ish haqi asosiy daromad manbai bo‘lib, uning ulushi 42,6% ni tashkil etdi.
- Tadbirkorlik daromadlari o‘sib, 22,9% ga yetdi.
- Chet eldan pul o‘tkazmalari qisqardi va 2% ni tashkil etdi.

Hududlar bo‘yicha aholi daromadlarining o‘sishi (%)

22.3.4- Jadval

Hudud	2024-yilda daromad o‘sishi (%)
Farg‘ona	19,1
Toshkent	17,0
Buxoro	11,4

Eng yuqori o‘sish Farg‘ona viloyatida kuzatildi (19,1%), Toshkentda esa 17% ni tashkil etdi.

2024-yilda rasmiy ish bilan band aholining ulushi 30% ga yetdi. Ish bilan ta’minlangan aholining umumiy soni 5,1 million kishi ni tashkil etdi.

Bandlik va tadbirkorlik faoliyati (%)

22.3.5- Jadval

Ko‘rsatkich	Miqdor
Ish haqi bo‘yicha daromadlarning o‘sishi	12,9%
Rasmiy ish bilan band aholi	30% (5,1 mln kishi)
Mikroloyihalar soni	326 ta
Ish bilan ta’minlangan fuqarolar	159 ming

Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida tajriba tariqasida amalga oshirilgan loyiha natijasida 326 ta mikroloyiha hayotga tatbiq etildi. Bu natijada 159 ming fuqaro ish bilan ta’minlandi va qishloq xo‘jaligi daromadlari 14,7% ga oshdi. 2024-yilda O‘zbekiston aholisi daromadlari va kambağallik darajasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi:

- Kambag‘allik darajasi 8,9% gacha qisqardi, natijada 719 ming kishi qashshoqlikdan chiqdi.
- Ish haqi va tadbirkorlik daromadlari oshdi, bu esa farovonlikning ortishiga xizmat qildi.
- Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida aholi daromadlarining eng yuqori o‘sishi qayd etildi.
- Qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilik daromadlari oshib, Sayxunobod tajribasi orqali ko‘plab fuqarolar ish bilan ta’minlandi.Bu natijalar iqtisodiy

islohotlarning samaradorligini tasdiqlaydi va aholining farovonligini yanada oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi[92].

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Migratsiya siyosati – O‘zbekistonning tashqi mehnat migratsiyasini boshqarish va tartibga solish uchun belgilangan davlat siyosati.
2. Xalqaro mehnat migratsiyasini tartibga solish – Xalqaro miqyosda mehnat migratsiyasini boshqarish va ikki tomonlama kelishuvlarni ishlab chiqish.
3. Mehnat migratsiyasi va ijtimoiy tizim – Mehnat migratsiyasining ijtimoiy tizimga ta’siri va migratsiyaning ijtimoiy xizmatlar bilan integratsiyasi.
4. Migratsiya agentliklari – Mehnat migratsiyasini boshqaradigan va rasmiylashtiradigan agentliklar va tashkilotlar.
11. Mehnat migratsiyasi tendensiyalari – O‘zbekistonning tashqi mehnat migratsiyasining hozirgi va kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari.
12. Migratsiya oqimlari – O‘zbekiston fuqarolarining mehnat migratsiyasiga yo‘naltirilgan geografik va iqtisodiy oqimlar.
13. Mehnat migratsiyasi rivojlanishining sabablari – Tashqi mehnat migratsiyasining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sabablari.
14. Migratsiya va iqtisodiy o‘sish – Tashqi mehnat migratsiyasining iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishdagi o‘rni.
15. Mehnat migratsiyasi darajasi – O‘zbekiston fuqarolarining mehnat migratsiyasida ishtirok etish darajasi, o‘zgarishlar va rivojlanish ko‘rsatkichlari.
16. Migratsiya yo‘nalishlari – O‘zbekiston mehnat migrantlarining eng ko‘p yo‘naltirilgan mamlakatlari va iqtisodiy sektorlar.
17. Mehnat migratsiyasi va demografik o‘zgarishlar – O‘zbekistonning demografik tuzilishi va mehnat migratsiyasining o‘zgarishlarga ta’siri.
18. Mehnat migratsiyasining ijtimoiy ta’siri – Mehnat migratsiyasining ijtimoiy tizimga, oilalarga va jamiyatga ta’siri.
19. Migratsiyaning yangi tendensiyalari – Yangi global migratsiya tendensiyalari va O‘zbekistondagi mehnat migratsiyasiga ta’siri.
20. Mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy samaralari – Mehnat migratsiyasining aholi farovonligiga va iqtisodiy o‘sishga qo‘shgan hissasi.

[92] https://review.uz/oz/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2024-goda-infografika

21. Mehnat migratsiyasining iqtisodiy roli – Mehnat migratsiyasining mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shgan hissa va uning iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni.

22. Pul oqimlari va iqtisodiy o‘sish – Mehnat migrantlarining yuborilgan pul oqimlari orqali ichki iqtisodiyotning o‘sishi va rivojlanishi.

23. Ishlab chiqarish va xizmatlar sektori – Mehnat migratsiyasining ishlab chiqarish va xizmatlar sektorlariga ta’siri, ishchi kuchi taqchilligi va yechimlari.

24. Mehnat migratsiyasi va investitsiyalar – Mehnat migrantlarining yurtga qaytarilgan mablag‘lari va investitsiyalar iqtisodiyotga ta’siri.

25. Mehnat migratsiyasi va bandlik – Tashqi mehnat migratsiyasining ichki bandlikka ta’siri, mehnat bozoridagi o‘zgarishlar.

26. Kambag‘allikni qisqartirish – Mehnat migratsiyasining kambag‘allikni qisqartirishga qo‘shgan hissasi va aholi daromadlarini oshirishdagi roli.

27. Xalqaro iqtisodiy aloqalar – O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari va mehnat migratsiyasi orqali qo‘shgan ulushi.

28. Mehnat migratsiyasi va iqtisodiy barqarorlik – Tashqi mehnat migratsiyasining iqtisodiy barqarorlikka ta’siri va uni saqlab qolishning ahamiyati.

29. Iqtisodiy o‘sishning uzluksizligi – Mehnat migratsiyasining mamlakatning iqtisodiy o‘sishini ta’minlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlashdagi roli.

30. Mehnat migratsiyasining resurslarga ta’siri – Mehnat migratsiyasining mamlakatdagi inson resurslari va ijtimoiy xavfsizlik tizimiga ta’siri.

Takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekiston hukumati tashqi mehnat migratsiyasini rag‘batlantirish orqali qanday iqtisodiy maqsadlarga erishishni ko‘zlamoqda?

2. Mehnat migrantlarining Rossiya, Koreya va boshqa davlatlarga yo‘naltirilishi mamlakat iqtisodiyoti uchun qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatadi?

3. Tashqi mehnat migratsiyasining aholi turmush darajasini oshirishdagi roli qanday?

4. Mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish uchun qanday qonunlar va mexanizmlar ishlab chiqilgan?

5. Tashqi mehnat migratsiyasidan kelib tushgan pul mablag‘lari (remittanslar) qanday ijtimoiy sohalarda sarflanadi?

6. O‘zbekistonlik mehnat migrantlarining xavfsizligini ta’minlash uchun qanday choralar ko‘rilmoqda?

7. Mehnat migrantlarini malaka oshirish va kasb-hunar o‘qitish orqali ularning ish imkoniyatlarini qanday kengaytirish mumkin?

8. Tashqi mehnat migratsiyasining salbiy tomonlari qanday va ularga qarshi qanday chora-tadbirlar ko‘riladi?

9 Tashqi mehnat migratsiyasining aholi bandligini ta’minlashdagi roli qanday?

10. O‘zbekiston hukumati mehnat migratsiyasini rag‘batlantirish uchun qanday yangi dasturlarni amalga oshirmoqda?

XXIII BOB. IQTISODIY SOHA VA TARMOQLARIDA YANGI ISH O‘RINLARINI YARATISH ORQALI AHOLI BANDLIK DARAJASINI OSHIRISH

23.1. Aholi bandligini ta’minlash chora-tadbirlari va daromadini oshirish.
23.2. Bandlik sohasidagi islohotlar samarasi.
23.3. Mehnat bozorida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar.

23.1. Aholi bandligini ta’minlash chora-tadbirlari va daromadini oshirish

O‘zbekiston Respublikasi aholining turmush farovonligini oshirish va bandligini ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatimizda aholini mehnat bilan ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligi resurslaridan samarali foydalanish maqsadida bir qator dasturlar ishlab chiqilib, imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilib, xizmatlar sohasi rivojlantirildi. Natijada, aholining barqaror daromadga ega bo‘lish imkoniyati kengayib, ishsizlik darajasi pasaymoqda.

Aholi bandligini ta’minlashning asosiy natijalari

2024-yilda aholi bandligi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

23.1.1-Jadval

Ko‘rsatkich	Miqdor
Doimiy band aholining soni	2 million kishi
Mavsumiy mehnat bilan bandlar	4 million kishi
Yangi korxonalar tashkil etildi	85 mingta
Umumiy faoliyat yuritayotgan korxonalar	550 mingta
Rasmiy band bo‘lganlar soni	5,1 million kishi

Yuqoridagi raqamlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda bandlikni ta’minlash borasida sezilarli yutuqlarga erishildi. 2024-yilda yangi tashkil etilgan 85 ming korxona natijasida 5,1 million fuqaro rasmiy band bo‘ldi.

Shu bilan birga, ba’zi hududlarda bandlik bo‘yicha muammolar hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Xususan, Kitob, Koson, Mirzaobod, Narpay,

Nishon va Furqat tumanlarida doimiy ish bilan band aholining ulushi kamaygan. Shuningdek, 232 mingta korxona faqatgina bitta ishchi bilan faoliyat yuritmoqda, bu esa samaradorlikni oshirish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

Yer resurslaridan samarali foydalanish.Aholini band qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri yer resurslaridan to‘g‘ri foydalanish hisoblanadi. Mamlakatimizda 100 ming gektar yer aholiga bo‘lib berilib, bu orqali 600 ming kishi doimiy ish bilan ta’minlanishi, 900 ming fuqaro esa mavsumiy daromadga ega bo‘lishi rejalashtirilgan.

Qishloq xo‘jaligi loyihalarining natijalari

23.1.2-Jadval

Ko‘rsatkich	Miqdor
Aholiga ajratiladigan yer maydoni	100 ming gektar
Doimiy band bo‘ladigan aholi soni	600 ming kishi
Mavsumiy band bo‘ladigan aholi soni	900 ming kishi
Qishloq xo‘jaligiga oid loyihalar soni	600 ta
Xalqaro moliya tashkilotlari mablag‘i	400 million AQSh dollari

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligida mahsulotlarni saqlash, saralash va qayta ishlash bo‘yicha 600 dan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar natijasida minglab yangi ish o‘rinlari yaratiladi va aholining daromad manbai kengayadi.

Tadbirkorlik va sanoat rivojlanishining aholi bandligiga ta’siri.

Aholini ish bilan ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdir. Mamlakatimizda bu borada tadbirkorlik subyektlariga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida mikro-markazlar tashkil etilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatining natijalari

23.1.3-Jadval

Ko‘rsatkich	Miqdor
Yangi tadbirkorlik subyektlari soni	85 ming
Savdo va xizmat ko‘rsatish hududlari	255 ta
Mahallalararo savdo ko‘chalari	274 ta
Auktsionga chiqarilgan yer maydonlari	3 mingta

Shuningdek, sanoat tarmoqlari rivojlanishi orqali ham yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. 3,5 mingta sanoat loyihasi natijasida 160 ming fuqaro doimiy band bo‘ldi.Shuningdek, sanoat tarmoqlari rivojlanishi orqali ham yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. 3,5 mingta sanoat loyihasi natijasida 160 ming fuqaro doimiy band bo‘ldi.Uy-joy qurilishi va bandlik. Mamlakatimizda qurilish sohasining rivojlanishi ham aholi bandligiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. 2024-yilda 90 ming xonadonli uy-joy qurilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bu yuz minglab fuqaroning doimiy ish bilan ta’minlanishini ta’minlaydi. Inson borki, o‘z uyi bo‘lishini orzu qiladi, buning uchun tinmay mehnat qiladi, intiladi. Agar inson o‘z uyiga ega bo‘lsa, hayotda katta maqsadlar bilan yashaydi, oilasida tinchlik, ishida unum bo‘ladi.

Shu bois, oxirgi yillarda odamlarni eng ko‘p tashvishga solayotgan uy-joy masalasi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

O‘tgan qisqa vaqt ichida mamlakatimiz ulkan qurilish maydoniga aylandi. Hozir respublikamizning qay bir go‘shasiga bormang, u erda namunaviy loyiha asosida qurilayotgan ko‘p qavatli uy-joylar, zamonaviy inshoatlarga ko‘zingiz tushadi.

Qurilish materiallarining turi ham ko‘p bo‘lgani tufayli qurilish ishlarida faqatgina eng sifatli materiallardan foydalanilmoqda. Istagan narxda hohlagan mahsulotingizni xarid qilib, ko‘rkam uy-joy qurishingiz mumkin.

Davlatimiz rahbari to‘rtinchi yo‘nalish sifatida qurilish sohasini rivojlantirish masalasiga to‘xtalgani bejis emas. Boisi bu sohada ham ming-minglar yangi ish o‘rinlari yaratish mumkin. Bu orqali qanchadan-qancha oilalarning qora qozoni qaynaydi, yoshlar doimiy daromad manbaiga ega bo‘ladi, hayotdan mamnun yashaydi.

Ayniqsa, kelgusi yili barcha loyihalar doirasida 90 ming xonadonli uy-joylar barpo etilishi natijasida uzoq yillar boshpanasiz bo‘lgan yuzlab, minglab oilalar shaxsiy uy-joylarga ega bo‘lishi shubhasiz.

Prezidentimiz qurilish sohasida ishga qabul qilish bo‘yicha mehnat shartnomalarini soddalashtirish zarurligini ta’kidladi, bu esa norasmiy sektordagi ishchilarning qonuniy faoliyatga o‘tishiga imkon yaratadi. O‘zbekistonning bunyodkorlik ishlari ko‘lami kengayib borayotgani, mamlakat taraqqiyoti va farovonligini oshirishga qaratilgan ko‘plab ezgu maqsadlarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan muhim siyosiy islohotlar xalqimizning osoyishtaligi, baxtu iqboli va saodatli hayotini ta’minlash kabi ezgu maqsadlarni ko‘zda tutadi. Ijtimoiy davlatda hech kim e’tibordan chetda qolmaydi va o‘z muammolari bilan yolg‘iz qoldirilmaydi.

Prezident tomonidan qurilish sohasida mehnat shartnomalarini soddalashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surildi. Bu esa norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan ishchilarning qonuniy faoliyatga o‘tishiga imkon yaratadi.

Mamlakatimizda aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Yangi ish o‘rinlari yaratish – sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari rivojlantirilib, aholi doimiy bandligi oshirilmoqda.

Qurilish sohasi va bandlik natijalari

23.1.4-Jadval

Ko‘rsatkich	Miqdor
Quriladigan uy-joylar soni	90 ming xonadon
Ish bilan ta’minlanadigan fuqaro	500 ming kishi

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish – aholiga ajratilgan yer maydonlari hisobiga bandlik darajasi ko‘tarilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash – mikro-markazlar va yangi biznes loyihalar orqali aholining daromad olish imkoniyatlari kengaymoqda.

Uy-joy qurilishi va infratuzilma rivoji – qurilish sohasi orqali ham yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda.

Ushbu chora-tadbirlar natijasida O‘zbekistonda aholi bandligi oshib, kambağallik darajasi sezilarli darajada kamaymoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan strategik tashabbuslar O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

23.2. Bandlik sohasidagi islohotlar samarasi

Yurtimizda demokratik islohotlar mazmun va ahamiyatiga ko‘ra butunlay yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘tgan davrda inson qadrini ulug‘lash, fuqarolarning mehnat qilish va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi uchun yaratilayotgan sharoitlar, berilayotgan imtiyozlar bugun yuqori natija berayotganini hammamiz ko‘rib, guvohi bo‘lib turibmiz.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan jismoniy va yuridik shaxslarga bandlik xizmatlari ko‘rsatish “Yagona oyna” tamoyili asosida sifat va natijadorligi yuqori darajaga oshirildi. Bu orqali ish bilan band bo‘lmagan aholiga ko‘rsatilgan xizmatlar 4 barobarga oshdiBandlik sohasidagi islohotlar samarasi, odatda, ishchi kuchining samaradorligini oshirish, ishsizlikni kamaytirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va bandlikni rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning

natijasini anglatadi. Bu islohotlar quyidagi jihatlarda samara koʻrsatishi mumkin:

1. Ishsizlikni kamaytirish: Islohotlar yangi ish oʻrinlarini yaratish, kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash va qayta tayyorlash dasturlarini joriy etish orqali ishsizlik darajasini pasaytirishi mumkin.
2. Mehnat bozorining moslashuvchanligi: Mehnat qonunchiligini yangilash va mehnat shartnomalarini moslashuvchanroq qilish orqali ish beruvchilar va xodimlar oʻrtasidagi munosabatlarni yaxshilash mumkin.
3. Kasbiy tayyorgarlikni oshirish: Ta'lim va malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish orqali ishchilarning koʻnikma va bilimlarini yangi texnologiyalar va bozor talablariga moslashtirish mumkin.
4. Ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash: Pensiya, sogʻliqni saqlash va boshqa ijtimoiy toʻlovlar tizimini isloh qilish orqali mehnatkashlarning hayot sifati va ish sharoitlarini yaxshilash mumkin.
5. Ish joylarida tenglik va adolatni ta'minlash: Gender tengligi, yoshlar va nogironlar uchun imkoniyatlarni kengaytirish kabi chora-tadbirlar orqali mehnat bozorida adolatli sharoitlarni yaratish mumkin.
6. Iqtisodiy oʻsishga hissa: Bandlikni oshirish va ishsizlikni kamaytirish iqtisodiy faollikni oshiradi, bu esa yalpi ichki mahsulot (YaIM) oʻsishiga olib keladi.
7. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: Mehnat bozoridagi islohotlar mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirib, xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilishi mumkin.

Bandlik sohasidagi islohotlar uzoq muddatli va murakkab jarayon boʻlib, ularning samarasi bir necha yil ichida sezilarli boʻlishi mumkin. Islohotlarning muvaffaqiyati ularning toʻgʻri rejalashtirilishi, ijro etilishi va jamiyatning turli qatlamlarining qoʻllab-quvvatlashiga bogʻliq.

Oʻzbekistonda bandlik sohasidagi islohotlar "2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi " doirasida yangi bosqichga koʻtarildi. Bu islohotlar orqali ishsizlikni kamaytirish, fuqarolarning hayot sifati yaxshilash va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga erishildi. Quyida 2023-2024-yillardagi eng muhim yutuqlar va ularning oʻzaro bogʻliqligi koʻrsatilgan.

"Yagona oyna" tizimi orqali bandlik xizmatlarining sifat va samaradorligi oshirildi. 2023-yilda ushbu tizim orqali 1,2 milliondan ortiq fuqaroga bandlik xizmatlari koʻrsatildi. 2024-yilda esa tizimga yangi funksiyalar qoʻshilib, ish qidiruvchilar va ish beruvchilar oʻrtasidagi aloqa avtomatlashtirildi. Bu esa ish joylarini tez va samarali topish imkoniyatini yaratdi.

"Yagona milliy mehnat tizimi" orqali 2023-yilda 1,5 milliondan ortiq ish oʻrinlari roʻyxatga olindi va 800 mingdan ortiq ishsiz fuqarolar ish bilan ta'minlandi. 2024-yilda tizimga yangi modullar qoʻshilib, mehnat

shartnomalarini raqamlashtirish va xodimlarning malakasini avtomatik baholash imkoniyatlari yaratildi. Bu esa mehnat bozorining shaffofligini oshirdi.

2023-yilda ishsiz fuqarolar, yoshlar, ayollar va nogironlar uchun 20 turdagi subsidiyalar ajratildi. Jami 550 milliard so‘m mablag‘ taqsimlandi, shundan 35% yoshlarga yo‘naltirildi. 2024-yilda esa oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 12 trillion so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. Bu loyihalar orqali 200 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.

2023-yilda “Ishga marhamat” monomarkazlari soni 16 tadan 25 taga yetkazildi. Bu markazlar orqali 300 mingdan ortiq fuqaroga zamonaviy kasblar bo‘yicha malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari taqdim etildi. 2024-yilda esa “World Skills International” standartlari asosida yangi kasblar bo‘yicha o‘quv dasturlari joriy etildi. Bu orqali xalqaro miqyosda tan olingan mutaxassislar tayyorlashga erishildi.

2023-yilda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 150 ming yoshlarga ish joylari taqdim etildi. Shuningdek, yoshlarni o‘zini o‘zi band qilish uchun 500 milliard so‘mlik grantlar ajratildi. 2024-yilda esa ayollarni raqamli iqtisodiyot va texnologiyalar sohasida qayta tayyorlash dasturlari joriy etildi. Bu orqali 30 ming ayol yangi kasblar egalladi.

2023-yilda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga 400 mingdan ortiq fuqaro jalb qilindi. Bu orqali yo‘llar, bog‘lar, suv xo‘jaligi ob’yektlari qurildi va obodonlashtirildi. 2024-yilda esa jamoat ishlari uchun ajratilgan mablag‘ 1 trillion so‘mga yetkazildi. Bu orqali 500 mingdan ortiq fuqarolarga ish joylari taqdim etildi.

2023-yilda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida 50 mingdan ortiq fuqaroga IT va raqamli texnologiyalar bo‘yicha malaka oshirish kurslari taqdim etildi. 2024-yilda esa sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik va ma’lumotlar tahlili kabi yangi kasblar bo‘yicha o‘quv dasturlari kengaytirildi. Bu orqali 20 mingdan ortiq mutaxassis tayyorlandi.

2023-2024-yillarda Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda bandlikni ta’minlash bo‘yicha bir qator loyihalar amalga oshirildi. Xorijiy investitsiyalar jalb qilish orqali 300 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi. Ayniqsa, qurilish, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi va IT sohalarida katta yutuqlarga erishildi.

2023-yilda ishsizlik darajasi 7% dan 5,8% ga qisqardi. Bu esa 1 milliondan ortiq fuqarolarga ish joylari taqdim etilganligini ko‘rsatadi. 2024-yilda bandlikni ta’minlash bo‘yicha ajratilgan mablag‘ 15 trillion so‘mni tashkil etdi, bu esa 2016-yilga nisbatan 10 baravar ko‘pdir.

2023-2024-yillarda O‘zbekistonda bandlik sohasidagi islohotlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Fuqarolarning mehnat qilish sharoitlari yaxshilandi, ishsizlik darajasi kamaydi va yoshlar, ayollar, nogironlar kabi ijtimoiy guruhlarning bandligi ta’minlandi. Bu yutuqlar “Yangi O‘zbekiston

taraqqiyot strategiyasi”ning samarali amalga oshirilishi natijasidir. Kelajakda ham bandlikni ta’minlash, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va fuqarolarning hayot sifati yaxshilash bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar davom ettiriladi.

Bu sa’y-harakatlar orqali “temir”, “ayollar”, “yoshlar” daftarida ro‘yhatda turgan, boquvchisi yo‘q qanchadan qancha oilalar davlatning e’tiborini sezmoqda, Yangi O‘zbekistonda bo‘layotgan o‘zgarishlar mamnun bo‘lmoqda. Keyingi yillarda fuqarolarga subsidiyalar ajratilayotgani, ko‘chat urug‘lari yetkazib, suv quduqlari qazib berilayotgani, hattoki, ular tomonidan yetishtirilayogan mahsulotlar sotib olinayotgani yurtimizda insonga bo‘lgan e’tiborning yaqqol namunasi, emasmi?

Bandlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish, aholi mehnat huquqlarini himoya qilishning qonuniy asoslarini ishlab chiqish borasida Qonunchilik palatasi tomonidan ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Qo‘mita tomonidan o‘tgan davrda hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini o‘rganish yuzasidan 20 dan ortiq nazorat-tahlil tadbirlari o‘tkazildi. Nazorat-tahlil faoliyati natijalariga ko‘ra qo‘mita tomonidan tegishli davlat muassasalariga muntazam ravishda tavsiyalar berib borilayotgani joylarda mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga va ishlar ahvolini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Bir paytlar aholining ehtiyojmand qatlamiga, aynan ularni ish bilan ta’minlashda yetarlicha e’tibor berilmas edi. Hozir yurtimizda har bir soha va yo‘nalish, har bir fuqaro taqdiri davlatimiz e’tiborida. Oilalar xonadonma-xonadon o‘rganilib, muammosi bor, ishsiz fuqarolar doimiy va mavsumiy ish bilan ta’minlanyapti. Kasb-hunarga o‘qitilib, o‘z biznesini boshlashlariga yaqindan ko‘maklashilmoqda.

Masalan, kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitish orqali bandligini ta’minlash maqsadida respublikamizning barcha hududlarida “Ishga marhamat” monomarkazlari tashkil etildi. Shuningdek, “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” bo‘yicha mahalliy va fuqarobay ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida zamonaviy kasb va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, kasblarga o‘qitish tizimida jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tasarrufida ko‘plab kasb-hunarga o‘qitish markazi, kasb-hunarga o‘qitish maskani, ishga marhamat “Monomarkaz”i faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu bilan kifoyalanmay, ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdorini, aholi jon boshiga daromadlarni oshirish siyosati izchil davom ettirilmoqda. Albatta, bularning

barchasining ortida inson qadri, uni e’zozlash, hayotdan, davlatdan rozi qilish yo‘lidagi oliy maqsadlar turibdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 42-moddasida har bir shaxsga munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida faoliyat yuritish, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarga uchramasdan, belgilangan eng kam haqdan kam bo‘lmagan miqdorda adolatli maosh olish, shuningdek, ishsizlikdan qonun doirasida himoyalanish huquqi berilganligi ko‘rsatilgan.

Mazkur normaning Konstitutsiyada belgilanishi fuqarolarning ish haqlari ularning mehnatiga loyiq bo‘lishi bilan birga, munosib turmush kechirishini ta’minlash, pirovardida esa aholi turmush darajasini yaxshilash hamda mamlakatda ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bundan olti-yetti yil avval ko‘pchilik yoshlarimiz, hattoki, xotin-qizlarimiz ham ishlayman, yaxshi pul topib uy-joy, to‘y qilaman, deya xorijga ketardi. Lekin u yerda til bilmasligi tufayli tayinli ish topolmay ne-ne qiyinchiliklarga duch kelardi, og‘ir kunlarni boshdan kechirardi. Achinarlisi, og‘ir mehnat qilib, peshana terisi bilan pul topgan ko‘plab yoshlarimiz ishlagan maoshlarini ololmay sarson-sargardon yurardi.

O‘tgan qisqa davr ichida tashqi mehnat migratsiyasi sohasini yangi bosqichga olib chiqish, mehnat migrantlari va ularning oilalariga taqdim etilgan imtiyozlar va kafolatlar ko‘lamini kengaytirish, shuningdek, xorijdagi mehnat migrantlarini huquqiy, moddiy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Xorijdagi vatandoshlarimizning huquqlarini himoya qilish, sharoitlarini yaxshilashga e’tibor kuchayib, ularni qo‘llab-quvvatlash uchun alohida jamg‘arma tashkil etildi. Toshkent shahrida ochilgan “Ishga marhamat” monmarkazida jahonda tan olingan “World Skills International” xalqaro assotsiatsiyasi tavsiyalari asosida o‘qish tashkil etildi. Xorijda ishlash istagida bo‘lgan fuqarolarning kasb-hunarga va xorijiy (rus, koreys, ingliz va boshqa) tillarga o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. E’tiborli tomoni, mamlakatimizda tashqi migratsiya masalalariga e’tibor yanada kuchaytirilib, mehnat migrantlariga yo‘l haqi, patent va sug‘urta xarajatlari uchun 10 million so‘mgacha past stavkada kreditlar ajratilyapti. Xorijdagi fuqarolarning huquqiy himoyasini to‘laqonli ta’minlash uchun onlayn platforma va “kol-markaz” tashkil etilgan holda, malakali advokatlar xizmati yo‘lga qo‘yildi. Chet davlatlarda murakkab moliyaviy ahvolga tushgan fuqarolarga to‘lanadigan bir martalik moddiy yordam miqdori bazaviy hisoblash miqdorining bir barobaridan ikki barobarigacha ko‘paytirildi. Amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar sohadagi ko‘plab muammolarni bartaraf qilish va fuqarolar uchun zarur qulayliklar yaratish imkonini berdi. E’tibor

bering, xorijda ishlash istagini bildirgan shaxslarni tashkiliy ishga yuborish bo‘yicha 2017-yilga qadar faqat 3 ta davlat bilan hukumatlararo bitim imzolangan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 30 ga yaqinlashdi. 2017-yilda 3553 nafar fuqaro tashkillashtirilgan tartibda xorijga ishga yuborilgan bo‘lsa, 2021-yilda 109 ming fuqaro xorijda ishga joylashtirildi.

Barcha islohotlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar “Inson qadri uchun”, “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”, “Davlat – inson uchun’, “Inson – jamiyat – davlat” degan xalqchil tamoyillar asosida olib borilayotganligi, O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu tamoyillar, davlat siyosatining markazida inson va uning huquq va erkinliklarini ta’minlashni ko‘zda tutadi.

“Inson qadri uchun” tamoyili: Bu tamoyil, insonning qadr-qimmati va hayotining muhimligini tan olishni anglatadi. Davlat va jamiyatning barcha faoliyatlari inson manfaatlariga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bunga erishish uchun ijtimoiy himoya, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarda sifatli xizmatlarni taqdim etish zarur.

“Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” tamoyili: Ushbu tamoyil, davlat organlarining faoliyatini xalq manfaatlariga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Davlat organlari, aholining ehtiyojlarini qondirish, ularning hayotini yaxshilash va farovonligini oshirish uchun xizmat qilishi lozim. Bu, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

“Davlat – inson uchun” tamoyili: Bu tamoyil, davlatning asosiy maqsadi insonning farovonligini ta’minlash ekanligini anglatadi. Davlat, o‘z fuqarolarining hayotini yaxshilash va ularning huquqlarini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishi kerak. Bunda iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarni ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

“Inson – jamiyat – davlat” tamoyili. Ushbu tamoyil, inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’kidlaydi. Insonlar jamiyatning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ularning faol ishtiroki va mas’uliyati jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Davlat, insonning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini rag‘batlantirishi va qo‘llab-quvvatlashi zarur.

Shunday qilib, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar, yuqorida keltirilgan xalqchil tamoyillar asosida olib borilmoqda. Bu tamoyillar, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan. Natijada, bu jarayonlar O‘zbekistonning barqaror rivojlanishiga, ijtimoiy adolat va iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi.

Albatta, bularning hammasi davlatimizning mehnat migrantlari masalasiga jiddiy e’tibor qaratayotganini ko‘rsatadi, O‘zbekiston fuqarolari qayerda yashashi va ishlashidan qat’i nazar, davlatimiz va hukumatimiz e’tiborida ekanidan dalolat beradi. Aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini keskin kamayib ketishini oldini olish hamma vaqt ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Hozirgi og‘ir sharoitda esa eng muhim va ustuvor masalaga aylandi.

Oxirgi olti yilda mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash, odamlarning yashash sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha ulkan ishlar qilindi. Birgina 2022-yil davomida tadbirkorlik, sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda 2,7 million aholining doimiy bandligi ta’minlangan bo‘lsa, 4 milliondan ziyod aholi mavsumiy mehnat orqali daromadli bo‘ldi. Yuridik shaxslar tomonidan – 1 335 ming nafar aholi, shundan yangi investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga – 305 ming nafar aholi doimiy ishli bo‘ldi. Qolaversa, hududlarda korxonalar 85 mingtaga ko‘payib, ularning soni 550 mingtaga yetdi. Buning hisobiga, 2022-yilda daromad solig‘i to‘layotgan rasmiy band bo‘lganlar soni 400 mingtaga oshib, 5 million 100 mingtani tashkil qildi. Ayniqsa, 79 ta faoliyat turi bo‘yicha o‘zini o‘zi band qilish imkoniyati yaratilgani natijasida 2022-yil 1,1 million nafar fuqaro ro‘yxatdan o‘tdi. Ularning soni 2,0 milliondan oshdi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik tashkil etilishi evaziga 101 ming, dehqon xo‘jaliklarida – 199 ming nafar fuqarolarning doimiy bandligi ta’minlandi. Bular hali hammasi emas. Bu boradagi ishlar haqida to‘xtalganda, albatta, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga subsidiya ajratish tartibi kiritilgani, tomorqa yer uchastkalari egalarini kooperatsiya va kasanachilik asosida ish bilan band qilgan tadbirkorlik subyektlariga subsidiya ajratish belgilanganini ham alohida ta’kidlash joiz. Zero, bu sa’y-harakatlar tufayli minglab, yuz minglab fuqarolarning bandligini ta’minlashga erishildi.

Respublika bo‘yicha 2023-yilning 1 iyun holatiga ko‘ra 898 ming nogironligi bo‘lgan shaxslar mavjud bo‘lib, ulardan mehnatga layoqatli nogironligi bo‘lgan shaxslar 235,2 ming nafarni tashkil etadi. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Yagona milliy mehnat tizimida ishlovchi nogironligi bo‘lgan fuqarolar soni 81 ming nafardan ortiqni tashkil etadi. Yil boshiga nisbatan 10 mingga ko‘paygan.

2022-yilda Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasidan mingga yaqin ish beruvchilarga 1 805 nafar nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilganligi uchun subsidiya ajratilgan bo‘lsa, joriy yilning 1 iyun holatiga 739 nafar nogironligi bor shaxslarni ishga qabul qilganligi uchun ish beruvchilarga 6 oygacha BHM 1,5 baravari miqdorida subsidiya berildi.

O‘zini o‘zi band qilishga yangi 11 ta faoliyat turi va shaxsiy tomorqalarda bandlikning yangi 9 ta turi qo‘shilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlarning yollanma ishchilari uchun Pensiya jamg‘armasiga to‘lanayotgan to‘lov miqdori keskin pasaytirilgani ham sohadagi o‘zgarishlar, yangilanishlar natijasi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Aholini ijtimoiy himoyalash, bandligini ta’minlash davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Keyingi yillarda bu borada qator sa’y-harakatlar, ko‘plab loyihalar, dasturlar ishlab chiqilib, ular asosida subsidiya va grantlar ajratilmoqda.

Xususan, joriy yilda 5 million nafar aholi bandligini ta’minlash, shundan 2 millionga yaqin fuqaroni doimiy ishlarda band qilish maqsad qilingan. O‘tgan 4 oy mobaynida 999,7 ming aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ish o‘rinlarida bandligi ta’minlashga erishildi. Tuman (shahar) Bandlik bo‘limlari hamda mahalla faoliyat yurituvchi hokim yordamchilari tomonidan yanvar-aprel oylari davomida ishsiz fuqarolarga bandlik xizmatlari ko‘rsatildi. 111,8 ming nafar ishsiz fuqarolar korxona va tashkilotlardagi mavjud bo‘sh ish o‘rinlariga ishga joylashtirildi.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ham keng hajmdagi ishlar qilindi. Masalan, 2023-yilda 15 ming nafar imkoniyati cheklangan nogironligi bo‘lgan shaxslar bandligini ta’minlash bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqildi. Dastur asosida o‘tgan 4 oy davomida 5,0 ming nafar imkoniyati cheklangan nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligiga ko‘maklashildi. Aholini vaqtinchalik ishlarda daromad manbai bilan ta’minlash maqsadida 7,3 ming korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikda 38,8 ming aholi haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etildi va ularga ish haqi uchun 40,9 mlrd.so‘m mablag‘ moliyalashtirib berildi.

Joriy yilning o‘tgan davrida 9,2 ming fuqarolar bandligini ta’minlash uchun 36,2 mlrd.so‘m subsidiya, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida esa 13 trln. so‘m kredit ajratish belgilanib, hokim yordamchilari tavsiyasi asosida birinchi chorakda 72,7 ming fuqarolarga 1,6 trln kredit mablag‘lari ajratildi. Aholi bandligini ta’minlash maqsadida 417,6 ming aholiga 96,7 ming gektar yer maydoni ajratish belgilanib, 65,5 ming gektar ekin yerlari elektron savdo platformasi orqali 187 ming nafar aholiga ijara asosida ajratildi. Ayni chog‘da bu boradagi ishlar tizimli ravishda davom ettirilmoqda.

Bandlik bo‘limlari tomonidan shu yilning o‘tgan 4 oyi davomida "Ayollar daftari"ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj 163,4 ming nafar ishsiz xotin-qizlarning bandligiga ko‘maklashildi. Shu bilan birga, ish qidirayotgan va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilayotir. Muxtasar aytganda, oxirgi olti yilda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar

hayotimizning har bir jabhasida bo‘y ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, bandlik, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadini oshirishga qaratilgan o‘zgarishlarni har bir fuqaro hayotida sezmoqda va his etmoqda, desam ayni haqiqat. Bularning natijasi esa xalqimizning turmush tarzi va dunyoqarishi tubdan o‘zgarayotganida namoyon bo‘layotir.

23.3. Mehnat bozorida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar

Mehnat bozorida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar O‘zbekiston Respublikasining “2021-2030-yillarda aholi bandligiga ko‘maklashish strategiyasi” doirasida kengayib bormoqda. Ushbu strategiya orqali aholini munosib va rasmiy ish bilan bandligini ta’minlash maqsadida bir qator maqsadli ko‘rsatkichlar va indikatorlar belgilangan bo‘lib, bu barqaror rivojlanish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi. Strategiyaning asosiy vazifalaridan biri — aholi bandligini oshirish, ishsizlik darajasini kamaytirish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlashdir.

O‘zbekistonning barcha islohotlarining asosiy maqsadi inson farovonligini oshirish va uning munosib turmush darajasini ta’minlashdir. Buning uchun davlat tomonidan samarali ish bilan bandlikni ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, tadbirkorlar uchun qulay biznes muhitini, investitsiya va soliq siyosatini ta’minlashi lozim. Bu jarayonda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu orqali yangi ish o‘rinlari yaratish va mavjud ish o‘rinlarini saqlab qolish imkoniyatlari oshadi.

Mamlakatimizda yaratilayotgan ish o‘rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to‘g‘ri keladi, shuning uchun iqtisodiyotning rivojlanishi kichik va o‘rta biznesning o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun davlat tomonidan bir qator dasturlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, kreditlar va grantlar taqdim etish, shuningdek, biznesni yuritish jarayonida yuzaga keladigan to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan.

Shu bilan birga, mehnat bozorida o‘zgarishlar va yangi talablar doirasida ta’lim va kasb-hunar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish ham muhimdir. Yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish va ularni ishga joylashtirish uchun ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, aholi bandligini oshirish va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasining aholi bandligiga ko‘maklashish strategiyasi jamiyatimizning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u kelajakda mamlakatimizning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi passiv choralardan faol bandlik siyosatiga o‘tib, ishsizlarni kasbga, tadbirkorlikka o‘qitish, mikrokreditlar va subsidiyalar ajratish orqali ularning ish bilan bandligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu jarayonlar orqali mamlakatimizda mehnat bozorining rivojlanishi va aholi bandligining oshishi ta’minlanmoqda.

Mamlakatimizda ilk marotaba norasmiy mehnat bilan bandlik va yashirin iqtisodiyot muammolari ochiq muhokama qilinmoqda, shuningdek, davlatimiz tomonidan uning ko‘lamini kamaytirish maqsadida keng qamrovli chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Norasmiy mehnat, hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham uchraydi va bu holat nafaqat salbiy, balki ba’zi muhim ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni bajarishga ham xizmat qiladi.

Birinchidan, rasmiy sektorida ish topa olmagan insonlar uchun norasmiy mehnat muqobil ish imkoniyatlarini taqdim etadi, bu orqali ishsizlik darajasini kamaytiradi va qashshoqlikni oldini oladi. Ushbu jarayon, shuningdek, odamlarning daromadlarini rasmiy sektorda sarflashlari va ichki talabni oshirish orqali yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishiga ham turtki beradi.

Ikkinchidan, norasmiy mehnat ko‘pincha biznes boshlashning birinchi bosqichi sifatida qaraladi va rasmiy sektorga o‘tish uchun qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Norasmiy mehnat bilan bandlik global miqyosda keng tarqalgan hodisa bo‘lib, uning ko‘lamini kamaytirish uchun davlatning tizimli va kompleks siyosati zarur.

Iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri bu – norasmiy mehnat bilan bandlik. Bu hodisa dunyo bo‘yicha keng tarqalgan bo‘lib, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda ko‘pchilik aholining xayotida muhim o‘rin tutmokda. Norasmiy mehnat bilan bandlik deganimiz – rasmiy mehnat shartnomasiz, soliqlar to‘lanmasdan, ijtimoiy himoya va mehnat huquqlari kafolatlanmagan xolda olib boriladigan ish-faoliyatdir.Bu darslikda biz norasmiy mehnat bilan bandlikning ta’rifi, kelib chiqish omillari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va bu sohaning rivojlanishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar bilan tanishamiz. Shuningdek, norasmiy mehnat bilan bandlikni kamaytirish bo‘yicha dunyo tajribasi va qo‘llaniladigan usullar haqida to‘lik ma’lumot olamiz.Norasmiy mehnat bilan bandlikning kelib chiqishida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillarning murakkab o‘zaro ta’sirini tushunish, bu muammoning bartaraf etilishi uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Norasmiy mehnat bilan bandlik global miqyosda keng tarqalgan hodisa bo‘lib, bu sohada ishlovchilar mehnat shartnomasiz, soliqlar to‘lanmasdan yoki rasmiy tartibda ro‘yxatga olinmasdan ishlaydilar. Norasmiy mehnat

bilan bandlikning kelib chiqishiga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Iqtisodiy omillar

- Ishsizlikning yuqori darajasi: Rasmiy ish o‘rinlarining yetishmasligi yoki ish topishning qiyinligi odamlarni norasmiy mehnatga majbur qiladi.
- Kam daromadli ishlar: Rasmiy sektorda ish haqi past bo‘lgan joylarda odamlar norasmiy mehnat orqali qo‘shimcha daromad topishga harakat qiladi.
- Qashshoqlik va tengsizlik: Aholining kambag‘al qatlamlari norasmiy mehnatga majbur bo‘ladi, chunki ularning boshqa daromad manbalari yo‘q.

2. Huquqiy va institutsional omillar

- Qonunlar va qoidalarning zaif amal qilishi: Ba’zi mamlakatlarda mehnat qonunchiligi yaxshi rivojlanmagan yoki uni qat’iy tatbiq qilishning kamchiliklari mavjud.
- Soliq yuki va byurokratik to‘siqlar: Kichik va o‘rta biznes egalari soliqlarning yuqori darajasi yoki byurokratik jarayonlarning murakkabligi tufayli norasmiy mehnatga o‘tishadi.
- Mehnat bozorini tartibga solishning kamchiliklari: Rasmiy mehnat bozorida ish beruvchilar va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizmlarning etishmasligi.

3. Ijtimoiy omillar

- Ta’lim va malaka yetishmasligi: Past malakali ishchilar ko‘pincha norasmiy mehnatga majbur bo‘ladi, chunki ular rasmiy sektorda ish topishda qiyinchiliklarga duch keladi.
- Ijtimoiy himoyaning etishmasligi: Pensiya, tibbiy sug‘urta yoki boshqa ijtimoiy yordamlar yo‘qligi odamlarni norasmiy mehnatga undaydi.
- Gender tengsizligi: Ayollar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, ko‘pincha norasmiy mehnatga jalb qilinadi, chunki ular uchun rasmiy ish o‘rinlari cheklangan.

4. Demografik omillar

- Aholining tez o‘sishi: Aholi sonining tez o‘sishi, ayniqsa yosh avlodlar orasida, rasmiy ish o‘rinlarining yetishmasligiga olib keladi.
- Qishloqdan shaharga ko‘chish: Migratsiya jarayonida shaharlarga kelgan odamlar ko‘pincha norasmiy mehnatga kirishadi, chunki ular uchun rasmiy ish o‘rinlari topish qiyin.

5. Siyosiy va ma’muriy omillar

- Korrupsiya: Korrupsiya tufayli rasmiy sektorda ish topish yoki biznes yuritish qiyin bo‘ladi, bu esa norasmiy mehnatni kuchaytiradi.
- Siyosiy beqarorlik: Siyosiy inqirozlar yoki beqarorlik davrida odamlar norasmiy mehnatga o‘tishadi, chunki rasmiy sektor inqirozga uchraydi.

6. Global iqtisodiy omillar

• Global iqtisodiy inqirozlar: Iqtisodiy inqirozlar davrida ishsizlikning oshishi va rasmiy sektordagi ish o‘rinlarining qisqarishi norasmiy mehnatni kuchaytiradi.

• Xalqaro migratsiya: Migrant ishchilar ko‘pincha norasmiy mehnatga jalb qilinadi, chunki ularning rasmiy ish o‘rinlariga kirishi cheklangan.

7. Madaniy va an’anaviy omillar

• Oilaviy bizneslar: Ba’zi madaniyatlarda oilaviy bizneslar norasmiy tarzda yuritiladi va bu an’anaga aylanadi.

• Qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik: Qishloq joylarida qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik kabi faoliyatlar ko‘pincha norasmiy tarzda amalga oshiriladi.

Norasmiy mehnat bilan bandlikning kelib chiqish omillari juda xilma-xil bo‘lib, ular iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, siyosiy va madaniy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Bu muammoni hal qilish uchun mamlakatlar iqtisodiy siyosat, mehnat bozorini tartibga solish, ijtimoiy himoya tizimlarini yaxshilash va ta’lim sohasidagi kamchiliklarni bartaraf etish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishlari zarur.



23.2.1-rasm. Norasmiy mehnat bilan bandlikning kelib chiqish omillari

23.2.1-rasmdan ko’rinadiki, norasmiy mehnat bilan bandlik zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy resurslardan to‘liq foydalana olmaslikka, balki davlat byudjetiga tushumlarning kamayishiga, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligiga va aholining mehnat huquqlari buzilishiga olib kelmoqda. Norasmiy bandlikning shakllanishi va kengayishiga olib keluvchi omillar tizimli va ko‘p qatlamli xususiyatga ega bo‘lib, ularni alohida emas, balki o‘zaro uzviy bog‘liq holda tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Avvalo, biznes yuritish muhitining pastligi va mehnat qonunchiligining moslashuvchan emasligi norasmiy bandlikning kengayishida muhim omil hisoblanadi. Rasmiy mehnat munosabatlariga doir tartib-taomillarning murakkabligi va tadbirkorlik subyektlariga qo‘yiladigan ortiqcha byurokratik talablar ko‘plab ish beruvchilarni rasmiy sektor o‘rniga norasmiy sektorni tanlashga majbur qilmoqda. Bu holatni yanada chuqurlashtiruvchi omillardan biri bu soliq va pensiya tizimining rag‘batlantiruvchi va jozibador xususiyatga ega emasligidir. Xususan, soliqqa tortish tizimidagi og‘ir yuklamalar va pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning yuqoriligi korxonalarni rasmiy bandlikdan chetlashishga undaydi.

Shuningdek, yashirin iqtisodiyot, korrupsiya va ishsizlik darajasining yuqoriligi, mavjud iqtisodiy islohotlarning samarador emasligi bilan qo‘shilib, iqtisodiy muhitda norasmiy faoliyat uchun qulay sharoitlar yaratadi. Bu jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi yana bir asosiy omil bu investitsion muhitning sustligi va barqaror ish o‘rinlarining yetarli darajada yaratilmayotganligidir. Raqobatbardosh bozor sharoitining yetishmasligi, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining zaifligi iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlarini keskin kamaytirmoqda.

Norasmiy bandlikning ildizlari faqat iqtisodiy va institutsional omillargagina bog‘liq bo‘lib qolmasdan, aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatining yetarli emasligi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Aholining o‘z mehnat huquqlarini to‘liq bilmasligi, mehnat shartnomasi tuzmasdan ishlashning xavf-xatarlarini anglamasligi norasmiy bandlikni targ‘ib etuvchi ijtimoiy-psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, oliy ta’lim bilan qamrab olinganlik darajasining pastligi va inson kapitali sifati bo‘yicha kamchiliklar ham mehnat bozorida norasmiy sektorning nisbiy ustunligiga olib keladi. Kasbiy malaka va ko‘nikmalarning mehnat bozori talablariga mos kelmasligi, ta’lim va amaliyot o‘rtasidagi tafovut, ixtisoslashtirilgan kadrlar yetishmovchiligi — bularning barchasi norasmiy ishchi kuchi taklifining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Mehnat bozoridagi tarkibiy muammolardan biri bu — ishchi kuchi taklifining talabdan ortiqligi, kasbiy malaka va bilim darajasining yetishmasligi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa, yoshlar va qishloq hududlaridagi aholining bandlik muammolarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aynan shu holatda norasmiy mehnat faoliyati ijtimoiy zarurat darajasiga aylanib boradi.

Shuningdek, iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish haqi darajasining pastligi va aholi turmush darajasining yetarli emasligi ham norasmiy bandlikni keltirib chiqaruvchi omillar qatoridan o‘rin oladi. Ishchilarning

rasmiy sektorda oladigan daromadlari ko‘pincha ularning yashash xarajatlarini qoplamaydi, bu esa ularni ko‘proq daromad topish maqsadida norasmiy sektorga o‘tishga undaydi.

Norasmiy mehnat bandligi — bu bir yoqlama, alohida qaraladigan hodisa emas, balki iqtisodiy muhit, mehnat bozori, ijtimoiy institutlar va inson kapitali bilan bog‘liq murakkab tizimiy muammolar yig‘indisidir. Ushbu omillarni kompleks tarzda o‘rganish va ularni bartaraf etish choralari nafaqat norasmiy bandlikni kamaytiradi, balki iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va adolatli mehnat munosabatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda har 10 ta ishchidan 6 tasi (ish bilan bandlarning 61%) va har 5 ta korxonadan 4 tasi yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritadi. Norasmiy mehnat shakllanishi iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosiy maqsadi iqtisodiy foyda olishdir. Aksariyat hollarda esa bu faoliyat majburiy ko‘rinishda amalga oshiriladi.

Norasmiy mehnat bilan bandlik, yashirin iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida, uning darajasini kamaytirish zarurati to‘g‘ridan-to‘g‘ri yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Bu masala davlatning samarali keng qamrovli chora-tadbirlar orqali hal etilishi lozim. Norasmiy mehnat bilan bandlikning yuqori darajasi mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun turli xavflarga sabab bo‘ladi, shuning uchun uni iqtisodiy xavfsizlik tizimi mezonlariga kiritish muhim ahamiyatga ega.Norasmiy mehnatning yuqori darajasi mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, teng raqobat muhitini buzishi, iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirishi va tabaqalanishni oshirishi mumkin.



23.2.2–rasm. Norasmiy mehnat bilan bandlikning ijtimoiy–iqtisodiy oqibatlari

Bu rasmda “Norasmiy mehnat bilan bandlikning oqibatlari” uchta asosiy subyekt – davlat, ish beruvchi va hodim uchun qanday salbiy ta'sirlar keltirib chiqarishini ko‘rsatadigan vizual sxema shaklida aks ettirilgan. Quyida har bir blok bo‘yicha izoh va tahlil keltiriladi:

1. Davlat uchun oqibatlari:

→ Norasmiy ish joylari soliq tizimidan chetda bo‘lganligi sababli, davlat daromadi kamayadi.

→ Davlat xodimlarining maoshi va ijtimoiy kafolatlarini oshirish imkoniyati pasayadi.

→ Ishchilar rasmiy ro‘yxatdan o‘tmagani uchun pensiya jamg‘armasiga to‘lov qilinmaydi, natijada jamg‘arma tanqislikka uchraydi.

→ Norasmiy bandlik jinoyatchilikka yo‘l ochadi, ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradi.

2. Ish beruvchi uchun oqibatlari:

→ Bu ko‘p hollarda ish beruvchilar uchun qisqa muddatli manfaatli bo‘lsa-da, bu noqonuniylik va beqaror ish muhitini yaratadi.

→ Ish beruvchilar tomonidan xodimlar ustidan mehnat qonunchiligiga zid tarzda tasarruf qilishga olib keladi.

3. Hodim uchun oqibatlari:

→ Ishchilar hech qanday kafolatga ega emaslar, huquqsiz holatda bo‘ladilar.

→ Mehnat sharoitlari xavfli bo‘lib, kasb kasalligiga yoki baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin.

→ Rasmiy to‘lovlar yo‘qligi sababli ishchi nafaqaga chiqqanda ijtimoiy ta’minotdan foydalanolmaydi.

Norasmiy bandlik – qisqa muddatli foyda ko‘rayotgan tomonlar uchun ham, uzoq muddatda jamiyat uchun ham salbiy oqibatlar keltiradi. Davlatning fiskal siyosati, iqtisodiy barqarorlik va aholi turmush darajasi bu kabi ish shakllaridan jiddiy zarar ko‘radi. Shuning uchun bu muammoni hal qilish yo‘lida:

Rasmiy bandlikni rag‘batlantirish;

Soliq yengilliklari orqali ish beruvchilarni qonuniy ishga undash;

Fuqarolarni xabardor qilish va huquqiy savodxonlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholining rasmiy ijtimoiy tizimda to‘liq qamrab olinmasligi, jamiyatda huquq tartibotiga amal qilmaslik, moliyaviy yo‘qotishlar va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar ham bunday vaziyatlarning natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida bu muammolarni hal etish uchun bir qator muhim hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, Prezidentning 2020-yil 30 oktyabrdagi PF-6098-son farmoni, “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-

tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 2020-yil 8 iyundagi PQ-4742-son qarori “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son qarori “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” kabi qarorlar, yashirin iqtisodiyot va norasmiy bandlik darajasini kamaytirishga qaratilgan.

Ushbu qarorlar doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, norasmiy mehnat bilan bandlikni kamaytirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan. Davlat tomonidan tadbirkorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, soliq tizimini soddalashtirish va mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Bundan tashqari, norasmiy mehnat bilan bandlikni kamaytirish uchun jamoatchilik va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan tashabbuslar muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va aholi farovonligini oshirishda, shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda bu chora-tadbirlar o‘zining ijobiy rolini o‘ynaydi. Kelajakda norasmiy mehnat bilan bandlik darajasini kamaytirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan harakatlar davom ettirilishi zarur. Bu orqali mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash va aholi farovonligini oshirishga erishish mumkin bo‘ladi.

Ushbu hujjatlar yashirin iqtisodiyot va norasmiy mehnat bilan bandlik faoliyatini ma’muriy usullar yoki taqiqlash orqali bartaraf etishga emas, balki uning qonun doirasida iqtisodiy jihatdan afzal bo‘lgan institutsional muhit va sharoitlarni yaratish orqali shaffof faoliyat yuritishini ta’minlashga qaratilgan. Bu yondashuv, norasmiy mehnatni kamaytirish va iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirishni rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Yangi texnologiyalar, jumladan, elektron ro‘yxatga olish va integratsiyalashgan, avtomatlashgan xizmat ko‘rsatish tizimlari, inson omilini imkon darajada kamaytirish orqali iqtisodiy birliklarning transaksion xarajatlarini qisqartirishga yordam beradi. Bu esa iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi va shaffoflikni oshiradi. Raqamli iqtisodiyot, shuningdek, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni talab qiladi, bu esa kasbiy malaka va bilimlarning moslashuvchan, izchil va uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, aholining ish bilan bandligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, mehnat munosabatlarini raqamli elektron platformalar yordamida ro‘yxatga olish va qulay rasmiylashtirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Bu jarayon, ish izlovchilarga o‘z malaka va

ko‘nikmalariga mos ish joylarini topish imkoniyatini beradi, shuningdek, ish beruvchilar uchun ham malakali kadrlarni jalb qilishda qulayliklar yaratadi.

Raqamli iqtisodiyotning jamiyat hayotiga keng kirib kelishi, barcha sohalarda mehnat faoliyatida internetdan foydalanishni taqozo etmoqda. “Haqiqiy” va “virtual” dunyo o‘rtasida uzviy bog‘lanish sharoitida bo‘lish, yangi imkoniyatlar va chaqiriqlarni keltirib chiqaradi. O‘zbekistonning iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonining mehnat bozoriga ta’sirini 2020-yilda “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksini joriy etishida ko‘rish mumkin. Ushbu elektron axborot tizimida idora va tashkilotlarda band bo‘lganlar, shaxsga oid ma’lumotlar, vakant ish joylari to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘plangan.

Shu bilan birga, ish izlovchilar http://ish.mehnat.uz/ saytida viloyat, tuman (shahar), soha yo‘nalishlari, kasb, ta’lim darajasi va istalgan maosh hajmi doirasida vakant ish joylari haqidagi ma’lumotlardan foydalanishlari rasmiy ish bilan bandlik darajasini oshirish imkoniyatini yaratmoqda. Bu platforma, ish izlovchilarga o‘z malakalari va qobiliyatlariga mos ish joylarini topishga yordam berish bilan birga, ish beruvchilar uchun ham malakali kadrlarni jalb qilishda qulayliklar yaratadi.

Natijada, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi orqali O‘zbekiston mehnat bozorida shaffoflikni oshirish, norasmiy bandlikni kamaytirish va aholi bandligini ta’minlashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayon, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash va barqaror rivojlanishga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Yangi texnologiyalar, jumladan, elektron ro‘yxatga olish va integratsiyalashgan avtomatlashgan xizmat ko‘rsatish tizimlari, inson omilini imkon darajada kamaytirish orqali iqtisodiy birliklarning transaksion xarajatlarini qisqartirishga va iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirishga yordam beradi. Bu jarayon, iqtisodiy muhitni shaffoflashtirish va norasmiy bandlikni kamaytirish uchun zarur sharoitlar yaratadi.

O‘zbekistonda 2020-yilda norasmiy mehnat bilan bandlik darajasi 2001-yilga nisbatan 52,6 foizga oshgan, shu bilan birga iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlik 3,3 foizga kamaygan. Hisobot davrida respublikadan chet elga ishlash uchun ketganlar soni 8 martaga, ishsizlik darajasi esa 42 martaga oshgan. Iqtisodiy faol aholi soni 62 foizga ko‘paygan. 2001-yilda iqtisodiy faol aholining jami mehnat resurslariga nisbati 71,6 foizni, 2020-yilda esa 77,3 foizni tashkil qilgan.

Norasmiy mehnat bilan bandlik darajasiga iqtisodiy va huquqiy omillar bilan bir qatorda, ijtimoiy-demografik omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Aksariyat hollarda, mehnat bozorida aholining huquqiy savodxonligi past bo‘lgan, o‘rta va o‘rta maxsus ta’limga ega shaxslar, o‘z kasbi va malakasi bo‘yicha iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish topa olmay, norasmiy mehnat munosabatlariga kirishga majbur bo‘lishadi.

O‘zbekistonda norasmiy mehnat bilan band bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy-demografik holatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularning 32,1 foizi umumiy o‘rta ta’limga ega, 61,1 foizi o‘rta-maxsus ta’lim olgan va 6,8 foizi oliy ma’lumotli shaxslardir. Bu ma’lumotlar, aholining ma’lumot va malaka darajasi yuqori bo‘lsa, mehnat bozorida norasmiy mehnat bilan bandlik darajasining mos ravishda kam bo‘lishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, ta’lim va malaka darajasini oshirish, norasmiy mehnat bilan bandlikni kamaytirish va iqtisodiy faollikni oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, norasmiy mehnat bilan bandlikni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va uni bartaraf etishga qaratilgan yechimlarni hal etish davlatning bandlik siyosatida muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda aholi bandligini ta’minlashda nostandart bandlik shakllarining, jumladan, aholining o‘zini o‘zi band qilishi o‘sishi mehnat bozorining moslashuvchanligining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy inqirozlar, xususan, COVID-19 pandemiyasi davrida barqaror bo‘lmagan ish bilan band xodimlarga ko‘proq ta’sir etishi va kambag‘allikni kamaytirish maqsadida nostandart bandlik shakllaridan keng foydalanish zaruriy ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yevropa Ittifoqida nostandart bandlik shaklida ishlovchi xodimlar jami ish bilan bandlarning deyarli 40 foizini, Niderlandiyada esa bu ko‘rsatkich deyarli 50 foizni tashkil etadi.

Norasmiy mehnat bilan bandlikni kamaytirishning samarali vositalaridan biri sifatida nostandart ish shakllaridan, masofaviy ish, moslashuvchan ish jadvali, o‘zini o‘zi band qilish, frilans, autsorsing, vaqtinchalik va mavsumiy bandlik, shuningdek, uyda bandlikni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zini o‘zi band qilishni rivojlantirishga e’tibor qaratish zarur. Masalan, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni ro‘yxatga olish jarayoni maxsus mobil ilova yoki soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari (245 ming so‘m) miqdorida ijtimoiy soliq to‘lash orqali ularning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmasligi belgilangan. Bu esa o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyatini rasmiylashtirish va norasmiy bandlikni kamaytirish uchun muhim qadamdir.

Hozirgi kunda o‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar uchun 68 ta faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari tasdiqlangan bo‘lib, ularni yanada kengaytirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Natijada, 2021-yil 1 iyul holatiga ko‘ra, 852,4 ming fuqaro o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tkazildi, ulardan 310,1 ming nafari 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hisoblanadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda ish bilan bandlarning 42,5 foizi o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar hisoblanadi.

Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va AQShda o‘zini o‘zi band qilganlar aholiga 400 dan ortiq turli xizmatlar (tadbirkorlik, ijtimoiy, rieltorlik, vositachilik, konsultativ xizmatlar, reklama, chakana savdo va boshqalar) ko‘rsatadilar. O‘zbekistonda esa ushbu faoliyat turlarida o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatlari hali kengayish jarayonida.

Bizning fikrimizcha, o‘zini o‘zi band qilishni inson resurslarini boshqarish va aholi bandligini ta’minlashning muhim yo‘nalishi sifatida rivojlantirish zarur. O‘zini o‘zi band qilishning yollanma xodimlarga nisbatan afzalliklari quyidagilardan iborat:

O‘z ish faoliyatini to‘liq nazorat qilish va yakuniy mahsulot uchun o‘z ovoziga ega bo‘lish imkoniyati;

Frilanserlar yollanib ishlaydiganlarga nisbatan ko‘proq daromad olish imkoniyati, yo‘l xarajatlarini tejash va uyda bola parvarishi bilan shug‘ullanish imkoniyati;

Ishning turli-tumanligi, doimiy ishga moslashish, o‘z mahoratini oshirish va yangilash imkoniyati, har bir yangi mijoz bilan ijodkorlikni rivojlantirish;

O‘z kun tartibini o‘rnatish, belgilangan ish jadvalining yo‘qligi va ish soatlarining moslashuvchanligi

O‘z mijozlarini tanlash va kimga xizmat ko‘rsatish huquqiga to‘liq egalik qilish.

Mehnat bozorida inklyuzivlikni ta’minlash, yoshlar, ayollar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning ish bilan bandligini oshirish maqsadida alohida dastur va chora-tadbirlar qabul qilinmoqda. Bu esa aholining ushbu guruhlarini mehnat faoliyatiga jalb etishga yordam bermoqda.

2017-2020-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotiga 33,3 milliard dollar xorijiy investitsiyalar kiritildi, shundan 22,7 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobiga mamlakatimizda barqaror yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va o‘sishi kuzatildi. Natijada, 2016-yilda 339,4 ming, 2017-yilda 389,3 ming, 2018-yilda 372,1 ming, 2019-yilda 388,5 ming va 2020-yilda 427,8 ming yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Shuningdek, mamlakatimizda mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarni ish bilan bandligi masalasi dolzarbligini inobatga olgan holda, 2021-yil boshidan qishloq xo‘jaligi uchun 1 gektardan yer ajratish orqali ularning bandligini ta’minlash choralari ko‘rildi. COVID-19 pandemiyasining iqtisodiyotga salbiy ta’siriga qaramay, iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishi, aholining daromad manbai bo‘lgan ish bilan bandligini saqlab turish, ommaviy ishdan bo‘shatilishlarni oldini olish, xodimlarni masofaviy ish usulida bandligini ta’minlash va boshqa keng ko‘lamli chora-tadbirlar orqali ishsizlik darajasining oshib ketmasligiga erishildi.

XXI asrda iqtisodiy taraqqiyot uchun inson kapitali muhim omil hisoblanadi. Uni rivojlantirish va oliy hamda professional ta’lim sifatini oshirish har bir mamlakat oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Yetakchi davlatlar tajribasi ko‘rsatadiki, iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun inson kapitalini to‘laqonli rivojlantirish zarur.

Shu maqsadda, 2020-yilda mehnat bozorini yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislar bilan ta’minlash, professional standartlar, tarmoq malakalar ramkalari va malaka talablarini ishlab chiqish va yangilab borish, shuningdek, malaka va bilimlarni baholash milliy tizimining xalqaro miqyosda tan olinishini ta’minlash maqsadida kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq va hududiy kengashlar tashkil etildi.

Aholini kasb-hunarga o‘qitish va qayta tayyorlashning uch bosqichli tizimi quyidagilardan iborat:

1.Band bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatuvchi hududiy «Ishga marhamat» monomarkazlari**:** Ushbu markazlar, asosan, ishsiz fuqarolarni ish bilan ta’minlash maqsadida tashkil etilgan. Ular o‘z faoliyatlari orqali bandlikni oshirish, kasb-hunar ko‘nikmalarini rivojlantirish va ishga joylashish jarayonida yordam berish uchun mo‘ljallangan. Markazlarda o‘quv dasturlari, seminarlar va treninglar o‘tkaziladi, shuningdek, ish beruvchilar bilan hamkorlikda ish o‘rinlari yaratiladi. Bunday markazlar, mahalliy aholi uchun qulay joylarda joylashgan bo‘lib, ularning xizmatlari bepul yoki arzon narxlarda taqdim etiladi.

2.Mamlakatning barcha hududlarida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tasarrufida tuman va shahar kasb-hunarga o‘qitish markazlari**:** Ushbu markazlar, yoshlarga va ishga joylashish istagida bo‘lgan barcha fuqarolarga kasb-hunarga o‘qitish imkoniyatlarini taqdim etadi. Markazlarda malakali o‘qituvchilar tomonidan turli kasblar bo‘yicha o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. O‘quv jarayoni amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitilgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘z kasbiga oid ko‘nikmalarni amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, ushbu markazlar ish beruvchilar bilan hamkorlikda o‘quvchilarni ishga joylashtirishda yordam beradi.

3.Mahalla aholisini kasb-hunarga o‘qitish maskanlari**:** Bu maskanlar, mahalliy aholi uchun kasb-hunar o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ular, asosan, kichik guruhlarda o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, aholi orasida kasb-hunar ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan. Mahalla maskanlari, o‘z navbatida, o‘zaro hamkorlik va jamoa ruhini kuchaytiradi, shuningdek, aholi o‘rtasida kasb-hunar ta’limining ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Mehnat bozori, bandlik, demografiya, mehnat migratsiyasi, malaka tizimi va kasbiy standartlarni takomillashtirish hamda mehnatni muhofaza qilish yo‘nalishlarida ilmiy-amaliy ishlar va tadqiqotlar amalga

oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar, mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni tahlil qilish, yangi kasblar va malakalarni aniqlash, shuningdek, kasb-hunarga o‘qitish jarayonini yanada takomillashtirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va yangi talablar asosida kasb-hunar ta’limining sifatini oshirish zarurati tug‘iladi. Bu jarayon, o‘quv dasturlarini yangilash, o‘qituvchilarni malakasini oshirish va amaliy mashg‘ulotlarni kuchaytirish orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, erishilgan ilmiy natijalarni amaliyotga keng joriy etish va sohada ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida Respublika bandlik va mehnat muhofazasi ilmiy markazi Mehnat bozori tadqiqotlari instituti etib qayta tashkil etildi. Bu institut, mehnat bozoridagi tendensiyalarni o‘rganish, yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun zarur bo‘lgan ilmiy salohiyatni yaratadi.

Bunday tizim, nafaqat aholini ish bilan ta’minlash, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashga ham xizmat qiladi. O‘zbekistonning mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, kasb-hunar ta’limining sifatini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Globallashuv va mamlakatlarning o‘zaro integratsiyalashuvi mehnat bozorida ishchi kuchining erkin harakatlanishi hamda ularning mehnat potensialidan samarali foydalanish imkoniyatini yaratmoqda. Bu jarayon, mehnat migratsiyasini yanada kuchaytirib, O‘zbekiston fuqarolarining chet elda ishlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. 2000-yildan boshlab, O‘zbekistondan chet elga mehnat faoliyati yuritish uchun chiqish doimiy xususiyatga aylandi va bu jarayonga yetarli e’tibor qaratilmadi.

Natijada, mehnat migratsiyasi O‘zbekiston iqtisodiyotiga muhim ta’sir ko‘rsatmoqda. Chet elda ishlayotgan fuqarolarimiz tomonidan yuborilayotgan pul jo‘natmalari, mamlakat iqtisodiyoti uchun jiddiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, ushbu jarayon, O‘zbekistonning xalqaro mehnat bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Biroq, mehnat migratsiyasining salbiy oqibatlarini ham inobatga olish zarur. Bunga, ishchi kuchining chet elga chiqishi natijasida ichki mehnat bozorida ishchilar yetishmasligi, malakali kadrlarning yo‘qolishi va ijtimoiy muammolar kiradi. Shuning uchun, O‘zbekiston hukumati mehnat migratsiyasini tartibga solish va fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rmoqda, bu esa mamlakatda ish bilan bandlikni oshirish va aholi farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning mehnat bozorida raqobatbardosh ishchi kuchini tayyorlash va kasb-hunar ta’limini rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash yo‘lida muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Bu jarayon, nafaqat iqtisodiy rivojlanishni, balki aholi hayot sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ishchi kuchining profitsiti mehnat bozoridagi vaziyatni yumshatish, iqtisodiy rivojlanishning dastlabki davrida tashqi mehnat migratsiyasining muhim ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatdi. Ushbu jarayonlar, shuningdek, oʻzaro iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish, malakali kadrlarni tayyorlash va mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyulda qabul qilingan "Oʻzbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha" PQ-3839-son va 2020-yil 15-sentyabrda "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-4829-son qarorlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu qarorlar, xorijda ishlayotgan fuqarolarga nisbatan munosabatni tubdan oʻzgartirib, ularni qoʻllab-quvvatlash va huquq va manfaatlarini himoya qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishga imkon berdi.

2020-yilda COVID-19 pandemiyasiga qaramay, mehnat migrantlari tomonidan Oʻzbekistonga 6 milliard AQSh dollardan ortiq pul joʻnatmalari oʻtkazildi, shundan 4,3 milliard AQSh dollar Rossiya Federatsiyasidan kelgan. Bu, Oʻzbekiston iqtisodiyotiga kirayotgan mablagʻlar oqimini koʻrsatadi va mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, mehnat migrantlari Qozogʻiston, Turkiya, Koreya va Yevropa mamlakatlarida mehnat faoliyatini olib borib, ularni mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun potensial investor, malakali mutaxassis va yangi ish joylari yaratuvchi tadbirkor sifatida qabul qilish lozim. Soʻrovlarga koʻra, mehnat migrantlarining 20 foizi chet elga ishga ketish sababi sifatida oʻz biznesini ochishga va tadbirkorlik uchun dastlabki sarmoyani jamgʻarishga intilishini ma'lum qilgan. Bu, mamlakat ichida yangi ish oʻrinlarini yaratish va iqtisodiy oʻsishni ta'minlashda muhim rol oʻynaydi.

Oʻzbekiston 2020-yilda WorldSkills International – xalqaro notijorat assotsiatsiyasiga a'zo boʻlishi, ishchi kasblarni ommalashtirish, kasb malakalarini baholash, kasbga tayyorlash va jahon mehnat bozoriga malakali, professional standartlarga ega raqobatbardosh ishchi kuchini eksport qilish imkoniyatini yaratadi. Bu, oʻz navbatida, mamlakatimizning global mehnat bozoridagi oʻrnini mustahkamlashga yordam beradi va xalqaro tajriba almashinuvi orqali kasb-hunar ta'limini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tashqi mehnat migratsiyasidan keladigan tushumlarning Rossiyadan ikki baravardan koʻproq boʻlishi (10 milliard AQSh dollari) kutilmoqda. Bu, Oʻzbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va aholi farovonligini oshirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Shunday qilib, mehnat migratsiyasi nafaqat iqtisodiy manfaatlar, balki ijtimoiy barqarorlik va

rivojlanish uchun ham muhimdir. O‘zbekistonning mehnat migratsiyasi siyosatini yanada takomillashtirish, fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash va ularning huquqlarini himoya qilish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishga erishish mumkin.Quyida Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish asoslari mazmunini kuramiz**.**

🟡 **RAQAMLI O‘ZBEKISTON–2030 STRATEGIYASI**

➡️ *Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni shakllantirish*

🔵 **2030 – BARQAROR RIVOJLANISH SOHASIDA MILLIY MAQSAD VA VAZIFALAR**

➡️ *Samarali va munosib bandlikni oshirish*

🟢 **2021–2030-YILLARDA AHOLI BANDLIGIGA KO‘MAKLASHISH STRATEGIYASI**

➡️ *Rasmiy va barqaror bandlikni kengaytirish*

🟣 **2022–2030-YILLARDA O‘ZBEKISTONNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI**

➡️ *Inson kapitalini rivojlantirish*

🔷 **O‘ZBEKISTONNING 2035-YILGACHA RIVOJLANISH STRATEGIYASI KONTSEPSIYASI**

➡️ *Yuqori iqtisodiy o‘sish va o‘rta sinfning shakllanishi*

O‘zbekistonda 2022–2035-yillar oralig‘ida qabul qilingan muhim rivojlanish strategiyalari va **ularing asosiy yo‘nalishlari**

23.2.1-Jadval

Strategiya nomi	Asosiy yo‘nalish
Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi	Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni shakllantirish
2030 – Barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalar	Samarali va munosib bandlikni oshirish
2021–2030-yillarda aholi bandligiga ko‘maklashish strategiyasi	Rasmiy va barqaror bandlikni kengaytirish
2022–2030-yillarda O‘zbekistonni	Inson kapitalini

Strategiya nomi	Asosiy yo‘nalish
innovatsion rivojlantirish strategiyasi	rivojlantirish
O‘zbekistonning 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasi konsepsiyasi	Yuqori iqtisodiy o‘sish va o‘rta sinfning shakllanishi

Ushbu strategiyalar respublikada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, ijtimoiy himoya va bandlik siyosatini takomillashtirishga qaratilgan. Har bir strategiya alohida ustuvor yo‘nalishni belgilab bergan:

Raqamli transformatsiya

Barqaror va samarali bandlik

Innovatsiya va inson kapitali

O‘rta sinfni shakllantirish orqali ijtimoiy barqarorlik

Yangilanayotgan O‘zbekistonning istiqbolini belgilab beruvchi hujjatlarda raqamli va bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, kasbiy malaka va bilimlarning moslashuvchan, izchil va uzluksiz rivojlanishini ta’minlash, shuningdek, aholining samarali ish bilan bandligini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan. Bu jarayonlar, aholi va davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarni, jumladan mehnat munosabatlarini raqamli elektron platformalar yordamida tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

So‘nggi yillarda davlat tomonidan qulay biznes yuritish muhitini yaratish, soliq yukini kamaytirish va O‘zbekistonning "Doing Business” reytingini yaxshilash maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ish beruvchilar uchun ijtimoiy soliq stavkasini pasaytirish, jismoniy shaxslar uchun ijtimoiy soliqni bekor qilish, shaxsiy daromadlarga soliq solishning progressiv o‘lchovidan yagona soliq stavkasiga o‘tish kabi chora-tadbirlar norasmiy mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishda katta ahamiyatga ega. O‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarga ro‘yxatdan o‘tishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilishi, 68 turdagi mehnat faoliyatini yurituvchi toifalari uchun daromad solig‘idan ozod qilinishi kabi choralar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnatga layoqatli aholi sonining jadal o‘sib borishi yaqin istiqbolda mehnat bozorida ishchi kuchi taklifining keskin o‘sishini va aholi bandligini ta’minlash masalasini mamlakat oldida turgan eng dolzarb muammoga aylantiradi. 2020-yilda respublikada ish bilan band aholi soni 13,2 million kishini, shundan iqtisodiyotning rasmiy sektorida 5,7 million kishi (43,3%) tashkil qilgan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, respublikada 2030-yilga kelib, aholi soni 2020-yilga nisbatan 20,7% yoki 7017,9 ming kishiga, mehnat resurslari 21,9% yoki 4192,1 ming kishiga, ish bilan band aholi 16% yoki 2125,5

ming kishiga oshishi va norasmiy mehnat bilan bandlar ulushi 20%ga tushishi kutilmoqda. Bu ko‘rsatkichlar, istiqbollashtirish davrida band aholining yiliga o‘rtacha 1,15%dan oshishi va keng qamrovli kompleks tadbirlarni amalga oshirish natijasida norasmiy mehnat bilan bandlar sonining yiliga o‘rtacha 5%ga kamayishi natijasida ro‘y beradi.

Mehnat bozoridagi holat turli omillarga bog‘liq va avvalambor milliy iqtisodiyot va inson resurslarining raqobatbardosh bo‘lishligini ta’minlash, xususiy mulkning daxlsizligini himoya qilish, tarkibiy o‘zgarishlarni qat’iy qo‘llab-quvvatlash, sifatli ta’lim, soliq va ijtimoiy ta’minotning samarali tizimini taklif qiluvchi institutsional muhitni yaratishni taqozo etadi.

Davlatning makroiqtisodiy siyosati ish o‘rinlarini va qulay biznes muhitini yaratishga, soliq va pensiya tizimining rag‘batlantiruvchi, jozibador shaklini yaratishga, yalpi talabni, samarali investitsiyalarni va tarkibiy iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, erkin raqobat va mehnat bozorida bandlik siyosatining faol tadbirlar turi va ko‘lamini kengaytirishga qaratilishi lozim. Bu orqali O‘zbekistonning mehnat bozoridagi holatini yaxshilash, aholini ish bilan band qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga erishish mumkin.



23.2.2-rasm. O‘zbekistonda norasmiy mehnat bilan bandlikning 2021-2030-yillardagi maqsadli prognoz parametrlari (ming kishi)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, norasmiy mehnat bilan bandlikni butunlay bartaraf etish mumkin emas. Biroq, uni iqtisodiy xavfsizlik darajasida ushlab turish muhim ahamiyatga ega. Norasmiy mehnat, ko‘pincha, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlik uchun muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, shuning uchun bu sohada davlatning samarali mexanizmlarini qo‘llash zarur.

Norasmiy mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish va ularni nazorat qilish orqali davlat iqtisodiyotning rasmiy sektorini kengaytirishi, soliqlarni oshirishi va ijtimoiy ta’minot tizimini mustahkamlashi mumkin

Yuqoridagilar asosida xulosa qilish mumkinki, raqamli iqtisodiyotga o‘tish davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish, yangi iqtisodiy tuzilmalarning shakllanishi, axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi va yashirin iqtisodiyot hamda norasmiy bandlik darajasini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Norasmiy mehnat bilan bandlik darajasini tartibga solish va uni iqtisodiy xavfsizlik darajasida saqlab turish uchun davlat tomonidan keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan institutsional tuzilmani takomillashtirish maqsadga muvofiq. Buning uchun quyidagi yo‘nalishlarda tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Ijtimoiy-demografik omillarni muvofiqlashtirish: Aholi sog‘lig‘ini himoya qilish va sog‘lom, malakali avlodni tarbiyalash maqsadida demografik vaziyatni barqarorlashtirish. Ayollarning mehnat bozorida gender tengligini ta’minlash, ularning oliy ta’limga qamrovini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish.

2. Norasmiy mehnat bilan bandlik darajasini kamaytirishning iqtisodiy-moliyaviy asoslarini takomillashtirish: Davlatning makroiqtisodiy siyosati ish o‘rinlarini yaratish va qulay biznes muhitini ta’minlashga qaratilishi. Soliq siyosatida biznes sub’yektlarini rag‘batlantiruvchi tizimni joriy etish, yalpi talabni oshirish, samarali investitsiyalarni jalb qilish va tarkibiy iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish. Tadbirkorlik sub’yektlariga kredit resurslarini olish jarayonini soddalashtirish va pensiya tizimini isloh qilish.

3. Qonunchilik-huquqiy asoslarni takomillashtirish: Bandlik va mehnat munosabatlari sohasidagi qonunchilikni liberallashtirish, ish beruvchilarning xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish imkoniyatlarini kengaytirish. Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish maqsadida norasmiy bandlikni legallashtirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish.

4. Ma’muriy-tashkiliy tadbirlar: Qonunchilikni amalga oshirishni ta’minlash, "rasmiy" mehnat bilan band bo‘lishning foydali shart-sharoitlarini yaratish. Mehnat bozori sub’yektlarining norasmiy sxemalar bo‘yicha yollashini kamaytirish va norasmiy mehnatni iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lmasligini ta’minlash.

5. Huquqiy-axborot tadbirlari: Aholi orasida korrupsiya, yashirin iqtisodiyot va norasmiy bandlik haqida salbiy tasavvurlarni shakllantirish, huquqiy savodxonlik va madaniyatni oshirish. Norasmiy faoliyatga qarshi targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish.

Jahon iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyot modeliga o‘tish davlat va biznes darajasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi tubdan yangi, sifat jihatidan o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Iqtisodiy birliklarni ro‘yxatga olish va norasmiy bandlikni rasmiylashtirish, munosib va samarali ish bilan

bandlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonlar, o‘z navbatida, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Aholi bandligi – ish bilan ta’minlangan aholining umumiy darajasi.
2. Ishsizlik darajasi – iqtisodiy faol aholi orasida ish izlayotgan, ammo ish topa olmagan shaxslar foizi.
3. Ijtimoiy dasturlar – aholining turli qatlamlari uchun ish joylari yaratishga qaratilgan davlat dasturlari.
4. Daromadlarni oshirish – aholi o‘rtacha oylik ish haqini ko‘paytirish va farovonlikni oshirish choralari.
5. Mehnat sharoitlari yaxshilanishi – ishchilar uchun qulay va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta’minlash.
6. Kasbiy qayta tayyorgarlik – aholini yangi kasb-hunarlarga o‘qitish va qayta o‘qitish dasturlari.
7. Raqamli texnologiyalarni joriy etish – mehnat bozorida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash.
8. Ijtimoiy himoya tizimi – ishsizlik nafaqalari va mehnatga layoqatsizlarga yordam ko‘rsatish tizimi.
9. Mehnat bozori – ish kuchini talab va taklif asosida tashkil etuvchi iqtisodiy tuzilma.
10. Ish bilan bandlik markazlari – ish izlovchilar va ish beruvchilar o‘rtasida vositachilik qiluvchi tashkilotlar.
11. Kooperatsiyalarni rivojlantirish – mahalliy iqtisodiy sherikliklarni qo‘llab-quvvatlash.
12. Xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash – tadbirkorlar uchun engilliklar yaratish va ularni rag‘batlantirish.
13. Erishilgan natijalar – bandlikni ta’minlash sohasidagi rivojlanish ko‘rsatkichlari va o‘sish dinamikasi.
14. Norasmiy bandlikni kamaytirish – mehnat munosabatlarini qonuniylashtirish va yoritishga qaratilgan ishlar.
15. Barqaror ish o‘rinlari – uzoq muddatli va xavfsiz mehnat imkoniyatlari.
16. Gender tengligi – mehnat bozorida erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash.
17. Ish haqi dinamikasi – oylik ish haqi o‘sishi yoki kamayishiga ta’sir etuvchi omillar.
18. Xorijiy ishchi kuchini jalb qilish – chet ellik mehnat resurslarini ishga jalb etish tartiblar

Takrorlash uchun savollar

1. Mamlakatda yangi ish o‘rinlarini yaratish maqsadida amalga oshirilayotgan asosiy tadbirlar nimalardan iborat?
2. Qishloq xo‘jaligida 100 ming gektar yerning aholiga taqsimlanishi qanday foyda keltiradi?
3. Pillachilik sohasidagi islohotlar qanday qilib aholi bandligini oshiradi?
4. Tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qanday imtiyozlar yaratilgan?
5. Mikro-markazlar tashkil etilishi qanday ahamiyat kasb etadi va bu orqali qancha yangi ish o‘rinlari yaratiladi?
6. Sanoat sohasidagi islohotlar natijasida qanday yangi ish o‘rinlari yaratildi va bu qanday iqtisodiy ta’sir ko‘rsatdi?
7. 2022-yil yakunida mamlakatda doimiy band bo‘lganlarning soni qanday o‘zgargan?
8. Qishloq xo‘jaligida pilla etishtirish sohasidagi islohotlar aholi bandligiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
9. 90 ming xonadonli uy-joylar qurilishi qanday yangi ish o‘rinlari yaratadi va bu aholining farovonligini qanday oshiradi?
10. Yoshlar bandligini ta’minlash uchun qanday dasturlar amalga oshirilmoqda va ular qanday samaralar keltiradi?

XIV BOB: MEHNAT VA AHOLINI IJTIMOIY MUHOFAZA QILISHDA BANDLIK DASTURLARINING O‘RNI

24.1. Mehnat va aholini bandlik tushunchasi
24.2. Ijtimoiy muhozalash tushunchasi
24.3. Bandlik dasturi tushunchasi

24.1. Mehnat va aholini bandlik tushunchasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyatini samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, bandlik sohasida yangi yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan. Ushbu farmon, davlat va xususiy biznes o‘rtasidagi hamkorlik asosida mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish, ishsiz aholini, ayniqsa, yoshlarni ishga joylashtirishda samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

Mamlakat iqtisodiyotini isloh qilish va diversifikatsiyalash, faol investitsiya siyosatini yuritish orqali iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnologik jihatdan qayta jihozlash, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida har yili minglab yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. Bu esa aholi, avvalambor yoshlar bandligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Biroq, bandlik sohasida mavjud muammolarni hal etishda eski ish shakllari va uslublaridan foydalanish davom etmoqda. Mehnat bozoridagi haqiqiy vaziyatni buzib ko‘rsatish hollari saqlanib qolmoqda, hamda oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining bitiruvchilarini ishga joylashtirishga yuzaki yondashuvlar uchramoqda.

Qabul qilingan Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi etib qayta tashkil qilindi. Ushbu vazirlikning asosiy vazifalari orasida yangi ish o‘rinlari yaratish uchun davlat buyurtmalarini ishlab chiqish, hududiy va tarmoqlar bandlik dasturlarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish, oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta’minlash va kam ta’minlangan oilalarga nafaqa va moddiy yordam o‘z vaqtida to‘lanishini monitoring qilish belgilangan.

Vazirlik rahbari va uning o‘rinbosarlari, mehnat organlari tomonidan aholiga va ish beruvchilarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirish va ulardan foydalanish qulayligini ta’minlash, birinchi marta mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, kam ta’minlangan oilalarni manzilli ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish va ularni oilaviy tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha amaliy choralarni ko‘rish bo‘yicha shaxsiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi.

Farmonda belgilangan yangi tartiblarga koʻra, 2018-yil 1-yanvardan boshlab, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalarining birinchi marotaba ishga joylashgan bitiruvchilariga, agar ular ta’lim muassasasini tamomlagan kundan boshlab uch yildan ortiq vaqt oʻtmagan boʻlsa, ishga joylashganidan keyin birinchi yil davomida ish haqidan olinadigan daromadlari boʻyicha yagona ijtimoiy toʻlovning oʻrnatilgan stavkasini 50 foizga, ikkinchi va uchinchi yil davomida esa 25 foizga kamaytirish belgilandi. Ushbu imtiyoz, byudjet tashkilotlari, monopolist tashkilotlar va davlat ulushi 50 foizdan ortiq boʻlgan tashkilotlarga tatbiq qilinmaydi.

Bandlik va mehnat munosabatlari boʻyicha chora-tadbirlar yangi kiritilayotgan me’yorlar ish beruvchilarning oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishdan manfaatdorligini oshirishga qaratilgan. Bu imtiyozlar orqali boʻshaydigan mablagʻlar bitiruvchilarning kasbiy malakasini oshirish tadbirlariga yoʻnaltiriladi.

Bitiruvchilar bandligining doimiy monitoringini ta’minlash maqsadida kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar oʻquvchilariga soliq toʻlovchining individual raqamini majburiy tarzda berish koʻzda tutilgan. Bu ijtimoiy sugʻurta boʻyicha amalga oshirilgan toʻlovlar asosida band boʻlmagan bitiruvchilarni aniqlash va ularni ish bilan ta’minlashda muammolarni tezkor hal etish imkonini beradi.

2019-yildan boshlab, aholini ishga joylashtirish sohasida ilgʻor jahon tajribasiga mos zamonaviy texnologiyalarni joriy etish maqsadida “elektron mehnat daftari” tizimini bosqichma-bosqich joriy etish rejalashtirilmoqda. Ushbu tizim xodimlarning mehnat faoliyati, maxsus staji va davlat ijtimoiy sugʻurtasiga toʻlagan toʻlovlar miqdorini oʻz ichiga oladi.

Mehnat bozorini yanada rivojlantirish va bandlikni ragʻbatlantirish boʻyicha qator choralar koʻzda tutilgan. Xususan, nodavlat tashkilotlarga fuqarolarni Oʻzbekiston hududida ishga joylashtirishda pullik xizmatlar koʻrsatish huquqi beriladi. Shuningdek, mikrofirmalar va kichik korxonalar xodimlarning roziligi asosida muayyan muddatli mehnat shartnomalarini tuzishga ruxsat beriladi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida ish tashkil qilishning ilgʻor shakllarini joriy etish, davlat xizmatlarini funksional tahlil qilish va qayta koʻrib chiqish (reinjiniring) rejalashtirilmoqda. Bu orqali ishga tanlov asosida qabul qilish va “yagona darcha” tamoyilida davlat xizmatlari koʻrsatish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan Jamoat ishlari jamgʻarmasi tashkil etiladi. Ushbu jamgʻarmaning asosiy vazifasi vaqtincha band

bo‘lmagan aholini yirik investitsiya loyihalarida, yo‘l va uy-joy infratuzilmasini qurish, shaharlarni obodonlashtirishda moliyalashtirishdir.

Respublika bank tizimining aholi bandligi sohasidagi rolini oshirish maqsadida, 2017-2020-yillarda faoliyatini endi boshlayotgan tadbirkorlar uchun ko‘rsatilayotgan mikromoliyalash xizmatlari hajmini kengaytirish rejalashtirilmoqda. “Mikrokreditbank” ATBning kapital qo‘yilmalari hajmini oshirish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining yangi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlanadi. Ushbu tuzilma, fuqarolarni ishga joylashtirishda sifatli va qulay xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida “yagona darcha” tamoyilida xizmatlar ko‘rsatish tizimini joriy etishni nazarda tutadi.

Shuningdek, bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi har oyda mehnat bozoridagi vaziyat va bandlik holati to‘g‘risida ma’lumotlarni, jumladan, ishsizlik bo‘yicha nafaqa olayotgan fuqarolar soni, yaratilgan ish joylari va ro‘yxatga olingan bo‘sh ish o‘rinlari haqidagi ma’lumotlarni ochiq ma’lumotlar portalida e’lon qiladi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi (2022-2026) mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yangi bosqichni boshladi. Ushbu strategiya doirasida bandlik va mehnat munosabatlari sohasida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Bandlikni oshirish, mehnat bozorini modernizatsiya qilish va fuqarolarga sifatli xizmatlar ko‘rsatish strategiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

2022-2024-yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar orasida ish beruvchilarni bitiruvchilarni ishga joylashtirishga rag‘batlantirish muhim o‘rin tutadi. Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bitiruvchilarini ishga joylashtirishda ish beruvchilarga soliq imtiyozlari joriy etildi. Bu imtiyozlar orqali bitiruvchilarning malakasini oshirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar ajratildi. Shuningdek, bitiruvchilarning bandligini doimiy monitoring qilish maqsadida ularga soliq to‘lovchining individual raqamini berish tizimi ishga tushirildi. Bu tizim orqali band bo‘lmagan bitiruvchilarni aniqlash va ularni ish bilan ta’minlash jarayonlari tezlashtirildi.

2019-yildan boshlab joriy etilayotgan “elektron mehnat daftari” tizimi 2022-2024-yillarda keng qo‘llanila boshlandi. Ushbu tizim orqali xodimlarning mehnat faoliyati, maxsus staji va davlat ijtimoiy sug‘urtasiga to‘lagan to‘lovlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar yagona ma’lumotlar bazasida to‘planadi. Bu tizim mehnat munosabatlari shaffofligini oshirishga yordam beradi va xodimlarning huquqlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Mehnat bozorini rag‘batlantirish maqsadida nodavlat tashkilotlarga fuqarolarni ishga joylashtirishda pullik xizmatlar ko‘rsatish huquqi berildi. Shuningdek, kichik korxonalar xodimlarning roziligi asosida muayyan muddatli mehnat shartnomalarini tuzish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Jamoat

ishlari jamg‘armasi orqali yirik investitsiya loyihalari va infratuzilma qurilishida vaqtincha band bo‘lmagan aholi jalb qilindi. Bu chora-tadbirlar orqali 2022-2024-yillarda 1 milliondan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan “yagona darcha” tamoyilida davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimi joriy etildi. Bu tizim orqali fuqarolarga ishga joylashtirish, kasb-hunarga o‘qitish va boshqa xizmatlar qulay sharoitda taqdim etilmoqda. Har oyda mehnat bozoridagi vaziyat, ishsizlik nafaqasi olayotganlar soni, yaratilgan ish o‘rinlari va bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Ochiq ma’lumotlar portalida e’lon qilinadi.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi orqali fuqarolarni tashkil etilgan holda xorijda ishga joylashtirish jarayonlari kuchaytirildi. Bu orqali 2022-2024-yillarda 500 mingdan ortiq fuqaro xorijda qonuniy ish bilan ta’minlandi.

Mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qitish uchun tayanch kollejlar tarmog‘i kengaytirildi. Ushbu kollejlar orqali band bo‘lmagan aholi kasb-hunarga o‘qitiladi va qayta tayyorlanadi. 2022-2024-yillarda kasb-hunar ta’limi bitiruvchilarining bandlik darajasi 15% ga oshdi.

“Mikrokreditbank” ATB orqali yangi tadbirkorlar va kichik biznes subyektlari uchun mikromoliyalash xizmatlari hajmi kengaytirildi. Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi orqali ishsizlar, bitiruvchilar va ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarga moliyaviy yordam ko‘rsatish dasturlari amalga oshirildi.

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi orqali aholi bandligini ta’minlash, xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish va shaxsiy tomorqa xo‘jaliklaridan foydalanish masalalari keng yoritildi.

2022-2024-yillarda erishilgan natijalar:

- 1 milliondan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.
- Kasb-hunar ta’limi bitiruvchilarining bandlik darajasi 15% ga oshdi.
- Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi orqali 500 mingdan ortiq fuqaro xorijda qonuniy ish bilan ta’minlandi.

Kelgusi yillarda bandlik va mehnat munosabatlari sohasidagi islohotlarni izchil davom ettirish, mehnat bozorini modernizatsiya qilish va fuqarolarga sifatli xizmatlar ko‘rsatish yo‘lida yangi chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Fuqarolarni Ishga joylashtirishda sifatli xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan fuqarolarni ishga joylashtirishda sifatli va qulay xizmat ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida bir qator yangi chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan:

1. “Yagona darcha” tizimi: Mehnat organlari tomonidan “yagona darcha” tamoyilida davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimi joriy etiladi. Bu tizim

ishga joylashtirish va bandlikni ta’minlash bo‘yicha kompleks xizmatlarni aholi uchun qulay joylarda, shu jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida taqdim etishni nazarda tutadi. Internet imkoniyatlaridan keng foydalanish ham rejalashtirilmoqda.

2. Tashqi mehnat migratsiyasi: Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining fuqarolarni tashkillashgan holda xorijda ishga joylashtirishni ta’minlovchi filiallari tarmog‘ini kengaytirish masalasi ko‘rib chiqiladi.

3. Ochiq Ma’lumotlar: Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi har oyda O‘zbekiston Respublikasining ochiq ma’lumotlari portalida va boshqa axborot manbalarida mehnat bozoridagi vaziyat va bandlik holati to‘g‘risida ma’lumotlarni e’lon qiladi. Bu ma’lumotlar ish qidirayotgan fuqarolar, ishsizlik nafaqasi olayotganlar, yaratilgan ish joylari va bo‘sh ish o‘rinlari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

4. Moliyaviy TA’MINOT: Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasini moliyalashtirish manbalari va ularni sarflashning asosiy yo‘nalishlari belgilangan. Bu ishsizlarni, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish va moddiy qo‘llab-quvvatlash, kasb-hunarga o‘qitish va qayta tayyorlash xizmatlarini ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi.

5. Ish O‘rinlari tashkil etish: Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga mehnat resurslari ko‘p bo‘lgan tuman va shaharlarni aniqlab, ish o‘rinlari tashkil etish bo‘yicha davlat buyurtmalarini ishlab chiqish yuklatilgan. Iqtisodiyot vazirligi va mahalliy hokimiyatlar investitsiya loyihalari bo‘yicha manzilli ro‘yxatlarni shakllantirishda mehnat resurslari ko‘p bo‘lgan joylarga e’tibor qaratishlari lozim.

6. Tayanch kollejlar: Band bo‘lmagan aholini kasb-hunarga o‘qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini amalga oshiradigan tayanch kollejlarining ro‘yxati tasdiqlangan. Ushbu kollejlar mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qitadi.

7. Tushuntirish ishlari: Ommaviy axborot vositalarida aholi bandligini ta’minlash, xususiy tadbirkorlikka va oilaviy biznesga jalb etish, shaxsiy tomorqa va dehqon xo‘jaliklaridan oqilona foydalanish masalalari keng yoritiladi.

8. Teleradiokanallar: O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasiga aholi bandligini ta’minlash masalalari bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish topshiriladi. Bu ishlar televideniye va radio orqali amalga oshiriladi.

9. Kompleks chora-tadbirlar: Mehnat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanadi. Bu dasturda me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, yangi interaktiv xizmatlarni joriy etish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi mehnat bozorini izchil va barqaror rivojlantirish, aholi bandligini oshirish va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan.

1. Moliyaviy resurslar: Jamg‘armalar mehnat bozorini barqaror rivojlantirish uchun zarur moliyaviy resurslarni taqdim etadi. Bu, o‘z navbatida, ish o‘rinlari yaratish va bandlik darajasini oshirishga yordam beradi. Kam ta’minlangan oila a’zolari va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarga mikrokreditlar berish va qayta o‘qitish xizmatlarini taqdim etish orqali ularning hayot darajasini yaxshilashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqiladi.

2. Tadbirkorlikni rag‘batlantirish: Yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlikka jalb etish maqsadida, shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish orqali oilalarni kam ta’minlanganlikdan chiqarish uchun individual dasturlar tayyorlanadi va amalga oshiriladi.

3. Yordam ko‘rsatish: Jamg‘armalar moliyaviy resurslarni taqdim etish orqali aholi va tadbirkorlik subyektlariga zarur yordam ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun muhimdir.

4. Kasb-hunarga O‘qitish: Kam ta’minlangan aholi uchun kasb-hunarga o‘qitish va qayta tayyorlash xizmatlari ko‘rsatish orqali ularning bandligini oshirishga yordam beriladi.

Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga muvofiq amalga oshiriladi va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Aholi bandligi darajasining oshishi iqtisodiy barqarorlikka olib keladi.Kam ta’minlangan oilalarning iqtisodiy holatini yaxshilash ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.Yangi tadbirkorlik tashabbuslari va shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarining rivojlanishi iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi.

24.2. Ijtimoiy muhozalash tushunchasi

Ijtimoiy muhofaza — keng ma’noda mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy choratadbirlar majmui sifatida tushuniladi. Tor ma’noda esa, bu davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta’minlanmagani tufayli yordamga, ko‘makka muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlikni anglatadi.

Ijtimoiy muhofaza tizimining asosiy maqsadi aholi farovonligining to‘xtovsiz yaxshilanishini ta’minlash, aholi qatlamlarining ta’lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga

barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta’minlashga yordam berishdan iborat.

Ijtimoiy muhofaza tizimining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- Erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni ta’minlash: Fuqarolar o‘z iqtisodiy faoliyatlarini erkin amalga oshirishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish.
- Ish bilan bandlik: Aholining ish bilan ta’minlanishi, kasb tanlash va bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish.
- Daromadlarning kafolatlanishi: Har bir fuqaroning o‘z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo‘lishini ta’minlash.
- Iste’molchilar himoyasi: Iste’molchilar jamiyatlari, tovarlar va xizmatlar sifati, iste’mol kafolatini ta’minlash.
- Tibbiy xizmat ko‘rsatish: Aholiga sifatli tibbiy xizmatlar taqdim etish.
- Ijtimoiy ta’minot tizimi: Aholining muhtoj, kam ta’minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish.

Rivojlangan demokratik jamiyatda ijtimoiy muhofaza vazifalarini bajarishni davlat o‘z zimmasiga oladi. "Ijtimoiy muhofaza" tushunchasi birinchi marta 1935-yilda AQShning "Ijtimoiy xavfsizlik bo‘yicha qonun"ida qo‘llangan, keyinchalik Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalarida bu tushuncha mazmuni mukammallashtirilgan. AQSH, Kanada, Shveysariya kabi mamlakatlarda ijtimoiy muhofazaning ko‘pgina muammolari hal etilgan, lekin yechimini topmagan muammolari ham juda ko‘p. Shunga qaramay, bu mamlakatlar tajribalaridan foydalanish ahamiyatlidir.

Turli mamlakatlarda aholini ijtimoiy muhofaza tizimi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, demokratik taraqqiyot va uning aholi manfaatiga muvofiqligi, ijtimoiy siyosat darajasi, ijtimoiy ta’minot tizimi kabi omillarga bog‘liq holda amal qiladi. O‘zbekistonda ijtimoiy muhofaza dasturi tizimi 20-asrning 20-yillaridan boshlab shakllana boshladi. 90-yillarga kelib, bozor iqtisodiyotiga o‘tish asosida amaldagi islohotlarga mos ravishda yangidan shakllandi. Ayniqsa, milliylik, o‘zlikni anglash, e’tiqod va an’analarning tiklanishi ijtimoiy muhofaza tizimiga muhim yangilik bo‘lib qo‘shildi.

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilish iqtisodiy islohotlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yo‘nalishlardan biriga kiradi. Bu, islohotlarning barcha bosqichlarida aholi farovonligini ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan muhim vazifalardan biridir.

Mamlakatda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti barpo qilish jarayonida davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya siyosati olib borilmoqda. Bu siyosat, asosan, kam ta’minlangan oilalarni, nogironlarni, yoshlarni va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Kuchli ijtimoiy siyosat O‘zbekistonning o‘z istiklol va taraqqiyot yo‘lining yetakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bu tamoyil, bir tomondan, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, ikkinchi tomondan esa, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash orqali aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy muhofaza tizimi doimiy ravishda yangilanib boradi va zamonaviy talablar va sharoitlarga moslashtiriladi. Davlat, ijtimoiy himoya dasturlarini amalga oshirish orqali, aholi uchun zarur bo‘lgan xizmatlarni taqdim etadi, shuningdek, ijtimoiy muhofaza mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Natijada, O‘zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi, iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi, bu esa mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

24.3.Bandlik dasturi tushunchasi

Bandlik yoki aholini ish bilan ta’minlash - mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.[1] Bandlik xodimni ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslangan aniq mehnat kooperatsiyasiga jalb etish bo‘yicha kishilararo munosabatlarni ifoda etadi. Bandlik turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda yollanib ishlash bilan cheklanmay, ayni paytda tadbirkorlikni, o‘zini ish bilan mustaqil ta’minlash (*o‘zicha bandlik*)ni, shaxsiy tomorqa xo‘jaligidagi ishni, uy xo‘jaligida band bo‘lish va bolalarni tarbiyalash bilan shug‘ullanish, davlat va jamoat vazifalarini bajarishni, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida kunduzgi o‘qishni ham o‘z ichiga oladi.

To‘liq va to‘liqsiz bandlik – bandlik *to‘liq* va *to‘liqsiz* bo‘lishi mumkin. *To‘liq bandlike* amalda mehnatga qobiliyatli aholining 90 – 92 % band bo‘lishini nazarda tutadi. Bozor sharoitlarida to‘liq bandlik jamiyat darajasida tabiiy ishsizlikning bo‘lishini ham bildiradi. *To‘liq bo‘lmagan bandlik* aksariyat hollarda yashirin ko‘rinishga ega bo‘lib, xodimlarni rasman band deb hisoblashni nazarda tutadi, amalda xodimlardan qisqartirilgan ish vaqti davrida foydalanishni anglatadi.

Ikkilamchi bandlik - amalda o‘rindoshlik bo‘lib, xodimning qo‘shimcha ish haqi topish uchun ish kuchini o‘zi asosiy band bo‘lgan korxonaga (asosiy ishdan bo‘sh vaqtlarda) taklif etishini bildiradi. *O‘zicha bandlik* (o‘ziga ish topish) daromad manbai bo‘ladigan faoliyatni mustaqil izlashni, davlatning turli darajadagi idoralari qo‘llab-quvvatlashi yordamida doimiy yoki

vaqtinchalik daromad olish uchun ish o‘rinlari barpo etishni nazarda tutadi. O‘zicha bandlik aksariyat hollarda kichik biznes ko‘rinishiga ega bo‘ladi va xodimlarning o‘z tashabbuslari bilan turli iste’mol tovarlari tayyorlash va xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha yakka mehnat faoliyati bilan bog‘liq.

Samarali bandlik - bandlik tushunchalarini ham bir-biridan farqlamoq kerak. *To‘liq bandlik* ishga muhtoj bo‘lganlar va ishlashni xohlaganlarning barchasi ish bilan ta’minlangan holatni bildirib, ish kuchiga bo‘lgan talab bilan ish kuchi taklifi o‘rtasida muvozanat mavjudligini ifoda etadi. *Samarali bandlik*ni esa ikki nuqtai nazardan: iqtisodiy nuqtai nazardan - inson resursidan eng oqilona foydalanish, ijtimoiy nuqtai nazardan - mehnatning inson manfaatlariga eng muvofiq kelishi jihatlaridan tavsiflash mumkin. To‘liq bandlik bandlikni miqdor jihatdan, samarali bandlik esa sifat jihatdan tavsiflaydi.

Mehnat bozorida talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatning bo‘lmasligi hamisha to‘liq va samarali bandlikka sharoit qoldirmaydi. Agar taklif talabdan ortib ketsa, albatta ishsizlik paydo bo‘ladi, talab taklifdan va real ehtiyojlardan ortib ketgan sharoitlarda esa yashirin ishsizlik kelib chiqadi. Bandlik va ishsizlikni, ularni kerakli darajada saqlab turish maqsadlarida tartibga solishning asosiy mexanizmi bandlik xizmati ishini tashkil etish, kasbga tayyorlash va kasbga yo‘naltirish hisoblanadi.

O‘zbekistonda bandlik siyosati bozor o‘tishning birinchi bosqichida, ya’ni 1990-yillarda shakllangan. Mamlakatda aholini ish bilan ta’minlash, insonni ishli bo‘lish huquqlarini ro‘yobga chiqarish kafolatlari „Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida“gi qonunida (1992-yil 13-yanvar; 1998-yil 1-mayda yangi tahrirda qabul qilingan) belgilab berilgan. O‘zbekistonda bandlik muammolari katta e’tiborni talab etadi, chunki respublikada murakkab demografik vaziyat mavjud, aholining tabiiy o‘sish sur’atlari yuqori, aholi tarkibida yoshlar ko‘pchilikni tashkil etadi, aholining ko‘p qismi qishloqlarda yashaydi. 1998-yil O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholining 33,9 % davlat sektori korxona va tashkilotlarida, 66,1 % esa nodavlat sektori obyektlarida, jumladan xususiy xo‘jaliklarda (2,7 %) ish bilan band edi.[1] Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida mulkchilikning turli shakllari paydo bo‘lishi tufayli nodavlat sektorida ishlovchilar soni ortib bordi. Ularning bandligi 1994 – 96-yillarda 12 % ga ortdi. Mehnatga layoqatli aholining ish bilan band bo‘lmagan qismi ishsizlarni tashkil etadi. hozirgi kunga kelib O‘zbekistonning ish siyosati modeli o‘z samarasini yo‘qotib bormoqda va mamlakatning mehnat bozorida murakkab vaziyat paydo bo‘lgan.

Birinchidan, yaratilgan ish o‘rinlari soni yetarli emas, yaratilgan ish o‘rinlarining aksari bo‘lsa barqaror emas. 1991-2011-yillarda aholining mehnatga layoqatli qismi ulushi 50% dan 61,1% ga o‘sdi. Shu vaqtning o‘zida mehnatga layoqatlilarning ish bilan band qismi ulushi 81,6% dan

66,9% ga kamaydi. Bundan tashqari, ish o‘rinlarning beqarorligi o‘sib bormoqda: yaratilgan yangi ish o‘rinlarining 30 % yo‘qotilmoqda.

Ikkinchiddan, nokorporativ sohaning (individual mehnat faoliyati, uydagi mehnat va yuridik shaxs statusiga ega bo‘lgan korxonalardan tashqaridagi turli faoliyatlar) keng ko‘lamda tarqalgani noustuvor o‘sish xavfini oshirmoqda. Bunga sabab nokorporativ soha davlat byudjetiga tushadigan soliqlarni kamaytirmoqda, pul va valyuta almashinishidagi disbalanslar chuqurlashmoqda hamda mehnat aloqalari rasmiylashtirilmagani uchun mehnat kuchi sifati pasaymoqda.

Uchinchidan, mamlakat mehnat siyosati mehnat samaradorligini sust rag‘batlantirmoqda hamda mehnat resurslarini yangi o‘sish nuqtalari bo‘la oladigan tarmoqlarga samarasiz yo‘naltirmoqda. Ilm va yuqori texnologiyali tarmoqlarda (ma’lumot xizmati, mashinasozlik, mikrobiologiya) ishlayotganlar ish bilan band aholining atigi 1,5% ini tashlik qiladi. Hozirgi bandlik sturkturasi va investitsiya siyosati sharoitida O‘zbekistonda mehnat samaradorligini ikki marta oshirish uchun taxminan 15 yil kerak bo‘ladi. Bu esa ishlab chiqarish rivojlangan mamlakatlar bilan O‘zbekiston orasidagi farqni kamaytirishni yanada mushkullashtiradi.

Aholi bandligini oshirish bo‘yicha asosiy tadbirlar ish bilan band bo‘lgan aholining tarkibiy jihatdan qayta taqsimlash hamda mehnatga layoqatli yoshlarni yangi ilg‘or tarmoqdar va sohalarga jalb qilish bo‘lib, bu esa o‘z navbatida mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning muhim zaxirasi hisoblanadi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida barcha ijtimoiy ishlab chiqarish xodimlarining uchdan bir qismidan ko‘prog‘i band. Ularning ma’lum qismini bo‘shatib olish va iqtisodiyotning boshqa sohalariga, eng avvalo, sanoatga va xizmat ko‘rsatish sohasiga yo‘naltirish, noqishloq xo‘jaligi ish joylarini yaratish, mehnatni tashkil etishning ilg‘or uslublarini qo‘llash, o‘smirlarni, ko‘p bolalik ayollarni, pensionerlarni va nogironlarni iqtisodiy rag‘batlantiruvchi ish bilan ta’minlash, ishsizlikni kamaytirish, mehnat birjalari faoliyatini yaxshilash kabi tadbirlar aholining ish bilan bandligini oshirishga olib keladi.

Mavzuga oid tayanch ibora va tushunchalar

1. Mehnat bozori – ish kuchining talab va taklifi asosida shakllangan iqtisodiy maydon.
2. Bandlik – iqtisodiy faol aholining ish bilan ta’minlanganligi holati.
3. Ishsizlik – mehnatga layoqatli bo‘lgan shaxslarning ish topa olmasligi holati.
4. Mehnat munosabatlari – ish beruvchi va ishchi o‘rtasidagi mehnat sharoitlarini tartibga soluvchi huquqiy munosabatlar.

5. Norasmiy bandlik – mehnat munosabatlarining qonuniy hujjatlar asosida rasmiylashtirilmagan ko‘rinishi.

6. Ish joylari yaratish – yangi korxonalar va tashkilotlar orqali aholini ish bilan ta’minlash.

7. Qayta tayyorlash kurslari – aholini yangi kasb va hunarlarga o‘qitish.

8. Ijtimoiy himoya tizimi – aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash tizimi.

9. Ijtimoiy nafaqalar – ishsizlik, nogironlik yoki boshqa ijtimoiy omillar sabab aholiga ko‘rsatiladigan moddiy yordam.

10. Pensiya tizimi – mehnat faoliyati yakunlangan shaxslarga moddiy ta’minot berish mexanizmi.

11. Kambag‘allikni kamaytirish – aholining iqtisodiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar.

12. Mehnat sharoitlarini yaxshilash – ishchilar uchun xavfsiz va qulay mehnat muhitini ta’minlash.

13. Inson kapitalini rivojlantirish – aholining bilim va ko‘nikmalarini oshirish orqali jamiyat rivojiga hissa qo‘shish.

14. Gender tenglik – erkaklar va ayollar uchun teng mehnat va ijtimoiy huquqlarni ta’minlash.

15. Bandlik dasturi – aholini ish bilan ta’minlashga qaratilgan davlat yoki xususiy sektor dasturlari.

16. Xalqaro mehnat standartlari – xalqaro mehnat tashkilotlari tomonidan belgilab berilgan qoidalar.

17. Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash – kichik tadbirkorlikni rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun ko‘mak.

18. Xususiy sektor ishtiroki – xususiy tashkilotlar orqali mehnat bozorini rivojlantirishdagi hissa.

Takrorlash uchun savollar

1. Bandlik dasturlari nima va ularning asosiy maqsadlari qanday?

2. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi qanday ishlaydi?

3. Bandlik dasturlari orqali aholi uchun qanday ish o‘rinlari yaratiladi?

4. Mehnat bozori va bandlik dasturlari qanday omillar asosida ishlab chiqiladi?

5. Bandlik dasturlari qaysi ijtimoiy guruhlarni eng ko‘p qo‘llab-quvvatlaydi (masalan, nogironlar, ayollar, yoshlar)?

6. Bandlik dasturlari orqali iqtisodiy taraqqiyotga qanday ta’sir ko‘rsatiladi?

7. Mehnat resurslari va ijtimoiy muhofaza qilish dasturlari o‘rtasidagi muvofiqlik qanday ta’minlanadi?

8.Bandlik dasturlarining samaradorligini qanday baholash mumkin?

XXV BOB: IJTIMOIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI

25.1. Ijtimoiy xizmatlarning bugungi holati. Ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘llari.
25.2. Ijtimoiy himoya tizimimng inson taraqqiyotidagi roli.
25.3. Kuchli ijtimoiy siyosat - insonni rivojlantirish “o‘zbek modeli”ning ustuvor yo‘nalishi.

25.1. Ijtimoiy xizmatlarning bugungi holati. Ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘llari

Insoniyat yaralishi bilan, ongi rivojlanib borgan. Ong rivojlanib borish bilan insonlar yashash turmush tarzini yaxshilashga harakat qilib boravergan. Aholi turmush darajasining yaxshilanishiga eng asosiy omillardan biri – bu aholining zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda ta’minlanganlik darajasi muhim sanaladi. Aholining zamonaviy texnologiyalar bilan to‘liq va uzluksiz ta’minlanishi, nafaqat aholining balki umuman iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanganligi juda dolzarb va zarur bo‘lgan sohalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlangan sari unga bo‘lgan talab ortib, shunga yarasha resurslardan foydalanish salmog‘i ham yildan yilga ko‘payib borgan.

Kundalik yashash tarzimiz va ish faoliyatimizda xizmat ko‘rsatish sohasiga katta ehtiyoj sezamiz. Demak, iqtisodiyot tarmoqlarini, ishlab chiqarish sub’ektlarini, xizmat ko‘rsatish va servis jabhalarini, millionlab aholini zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash eng dolzarb masalalardan biridir.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholini kafolatli nimoya qiiish eng muhim siyosiy va ijtimoiv-iatisodiy vazifadir. Har bir mamlakat ijtimoiy himoya tizimining sifat va miqdor ko‘rsatkichlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivlanishining darajasidan dalolat beradi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 25 moddasida “Har bir inson ishsizlik, kasallik, nogironiik, bevalik, qarilik yoki unga bogliq bo‘imagan sharoitlarga ko‘ra tirikchilik uchun mablag‘ bo‘lmay qolgan boshqa hollarda ta’minlanish huquaiga ega” ekanligi Jco‘rsatilgan.

Bu aholini ‘jtiinoiv muhofaza qlish tizim’ tomonidan ta’minlanaai.

Aholini ***ijtimoiy muhofaza qilish tizimi*** uchta asosiy siklga ega:

- ***ijtimoiy ta ‘minot;***
- ***ijtimoiy sug‘urta;***
- ***ijtimoiy yordam.***

Shu bilan bir qatorda aholining ijtimoiy muhofaza qilishning daviat va

nodavlat shakilari farqlanadi (12.1-chizma).

Ijtimoiy ta ‘minot - bu fuqarolar ayrin; toifaiarim davlat budjeti hamda budjetdan tashqari maxsus fondlar mablag‘lari hisobidan moddiy ta’minlashga yo‘naltirilgan davlatning ijtimoiy yordam ko‘rsatish shaklidir. Fuqaro‘arga bunday yordam davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan muhim deb e’tirof etilgan hollarda ko‘rsatiladi. Ana shu yordamdan aholining nochor qatlamlari axvollarim jamiyatning boshqa a’zolari bilan imkoniyat darajasida tenglashtirish maqsadi ko‘zlanadi.

Ijtimoiy ta’minotga ehtiyoj jamiyat paydo bo‘lishi bilan tug‘ildi. Har qanday jamiyatda - uning iqtisodiy va siyosiy tuzilishidan qat’i nazar - o‘zlariga bog‘liq boimagan vaziyatlar sababli tirikcbiliic kechirish uchun mabilag‘ topishga qodir bo‘lmagan aholi toifadan bo‘ladi. Ularga, eng avvalo, boyalar va keksa kishilar kiradi. Bundan tashqari ijtimoiy yordamga muhtojlar safini vaqtincha yoki bir umr mehnatga layoqatsizligini yo‘qotgan odamlar to‘ldirishi mumkin. Jamiyat rivojlanishi va ijtimoiy aloqalar murakkablashishi bilan ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan fuqarolar qatoriga iqtisodiy sabablar oqibatirfagi ishsizlar, kambag‘allar. shuningdek inflyatsiyaning yuqori sur’atlaridan moddiy axvollari og‘irlashganlar kiradi.

Ijtimoiy ta’minot deyilganda quyidagilar aniqlanadi:

- fuqarolarga qarilikda mehnat faoliyati. mehnat qobiliyati va boquvchisini yo‘qotgan’igi uchun ko‘zda tutilgan moddiy ta’minotdan tashqar: ularning normal turmush va madaniy standartlarini kafolatlaydigan taqsimlash shakli;
- bir tomondan fuqarolar, ikkinchi tomondan davlat, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik iamiyati tashqi.otlari tomonidan daromadlari yo‘aotilishi yoki kamayish’ vazivatlari paydo bo‘lganda fuqaroiarga maxsus fondlar, budjet mablag‘lari hisobiga tibbiy yordam ko‘rsatish, pensiya, nafaqalar va moddiy ta’minlashmng boshqa shakllari asosida tarkib topayotgan ijtimoiy munosabatlar jamlanmasi.

Qonunchilik ijtimoiy ta’mir.otning quyidagi olti turini nazarda tutadi:

- pensiyalar;
- nafaqalar;
- ijtimoiy ta’minot kompensatsiyasi;
- imtiyozlar;
- ijtimoiy va tibbiy xizmatlar;
- hayotiy zarur ashyolar.

Yuqorida qayd etilgan bu turlarning har biri, odatda yana qator turlarga bo‘linadi. Bunda ijtimoiy ta’minot turlari barqaror xususiyatga ega bo‘lgani holda ulamiug boshqa turlari muayyan siyosiy, iqtisodiy va boshqa snaroitlarga bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi.

Aholining ijtimoiy ta’minoti tizimidagi eng mubim unsur - ijtimoiy sug‘urtadir**.** *Ijtimoiy sug‘urta* **-** davlat tomonidan belgilab qo‘yiigan, nazorat

qilinadigan va kafolatlanadigan, davlat maqsadli, budjetdan tashqari ijtimoiy sug‘urta fondi, shuningdek boshqa jamoaviy va xususiy sug‘urta fondlari mablag‘iari hisobiga keksa yoshdagi, mehnatga iayoaatsiz fuqarolar moddiy ta’minlash, qo‘llab quvvatlash tizimidir.

Ijtimoiy sug‘urta - pul nafaqalari xizimi bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- ishsizlik nafaqasi;
- mehnatga layoqatsizlik nafaqasi;
- homiladorllik va tug‘ish nafaqasi;
- qarilik bo‘yicha, nogironlik hamda boquvchisini yo‘qot- ganiig; bo‘yicha pensiya.

Ijtimoiy sug‘urtaning turlari

Ijtimoiy sug‘urtaning quyidagi asosiy turlari mavjud:

1. Majburiy ijtimoiy sug‘urta: Bu tur iqtisodiy faol aholini mehnatga layoqatsizlik (kasallik, baxtsiz hodisa, keksalik) yoki ishsizlik sababli yo‘qotish xavfidan himoya qilish maqsadida tashkil etilgan. Majburiy ijtimoiy sug‘urta, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.
2. Ixtiyoriy qo‘shimcha (kasbiy) ijtimoiy sug‘urta: Iqtisodiyotning alohida tarmoqlari yoki korxonalar doirasida yollanma xodimlar uchun uzoq muddatli shartnomalar asosida tashkil etiladigan sug‘urta turidir. Odatda, ixtiyoriy qo‘shimcha ijtimoiy sug‘urta tizimi xususiy xarakterga ega bo‘lib, maxsus qonunchilik bilan tartibga solinadi. Ushbu sug‘urta shakli, sug‘urtalanuvchilar uchun ijtimoiy kafolatlar tizimini yaratadi. Misol uchun, bir korxonada ishlashning minimal muddati belgilanadi va ushbu muddatdan o‘tganidan so‘ng xodim qo‘shimcha ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi.
